

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

D.M. YOQUBOVA N.E. DUSANOV

YOSH DAVRLAR PEDAGOGIKASI

(O‘QUV QO‘LLANMA)



CHIRCHIQ – 2020

5112300 – Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

D.M.Yoqubova, N.E.Dusanov Yosh davrlar pedagogikasi. /o'quv qo'llama – Chirchiq:

O'ZDJTSU, 2019. - 270 bet

ANNOTATSIYA

O'quv qo'llanmaning - dolzarb pedagogik muammolarning nazariy asoslarini ochib berish va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya yo'riqchisi, sport turlari bo'yicha murabbiylar, sport psixologlari, jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil etuvchi xodimlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

O'quv qo'llanmada maktabgacha tarbiya yoshi davri, kichik maktab yoshidagi bolalar va o'quvchilar yosh davrining qaytarilmas xususiyatlarini, yillar o'tgan sari, asta-sekinlik bilan bola qanday qilib inson bo'lib shakllanishi, shaxs sifatida o'zini ijtimoiy munosabatlarda namoyon qilishi kabi bilimlarga zaruratning mavjudligi, ularning dunyoqarashini boyitish va rivojlantirishda pedagogik qonuniyatlarni o'rganish ehtiyojining mavjudligi, maktabgacha va kichik maktab yoshdagi bolalarning sensomotor xususiyatlarini tarixiy va nazariy rolini jamiyatda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi bilan xarakterlaydi. O'quv qo'llanmaning modullarida go'daklik va ilk bolalik ,maktabgacha tarbiya yoshi davridan to kichik maktab yoshiga qadar bo'lgan davrdagi yoshga xos pedagogik va psixologik xususiyatlari, aqliy rivojlanishlari, shaxs shakllanishi atroflicha bayon qilingan.

Аннотация

Учебное пособие призвано раскрыть теоретические основы актуальных педагогических проблем и создать необходимые условия для будущих преподавателей и учителей физической культуры в дошкольных учреждениях, спортивных тренеров, спортивных психологов, работников физического воспитания и спорта.

В учебнике отражены знания о дошкольном возрасте, специфических особенностях раннего детства и школьного возраста, как ребенок превращается в личность, раскрывает себя как личность в процессе социализации, обогащает и развивает свое мировоззрение, а также о необходимости изучения педагогических закономерностей, историческая и теоретическая роль сенсомоторных процессов у детей дошкольного и младшего школьного возраста.

Модули учебника подробно описывают умственное развитие личности, психологические и педагогические характеристики младенчества и раннего детства, дошкольного и младшего школьного возраста.

ANNOTATION

The manual is to uncover the theoretical foundations of actual pedagogical problems and create the necessary conditions for future physical education teachers and physical education instructors in preschools, sports coaches, sports psychologists, and staff of physical education and sports.

In the manual, there is a need for knowledge about preschool age, the unique features of early childhood and school age, the way in which a child is gradually becoming a human, his or her identity as a person, and the enrichment and development of their world outlook. the need to study pedagogical regularities, the historical and theoretical role of sensory sensors in preschool and junior school children in society. characterized by the increasing through the work. The modules of the manual describe in detail the agerelated pedagogical and psychological characteristics, mental development, and personality traits of infancy and early childhood, from preschool to early school age.

Ma'sul muharrir: D.N.Arziqulov – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:Salieva Z.T. – pedagogika fanlari doktori

Ishtaev J.M. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining “ ____ “ ____ ” ____ ” yil ____ sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsifiya etildi.

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli farmonida

ko'rsatilganidek, maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. "Biz qabul qilayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadiganlar yuqori malakali tarbiyachi va murabbiylardir", deya ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borish hamda bolani maktabga tayyorlash, umumiy o'rta ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan kichik maktab yoshi davrida pedagog faoliyatining asosiy ish mazmuni bola shaxsini tarbiyalashdek ma'suliyatni o'z zimmasiga olgan tarbiyachilardan avvalo kasbiy, shaxsiy, umummadaniy va maxsus tomondan kasbiy kompetensiya ega bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Har bir tarbiyachi o'ziga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni his eta bilishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga quyayotgan talablarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovidir.

Ta'lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma'naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta'lim berishni nazarda tutadi. Ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega.

Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o'zini, o'zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi. Bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta'lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta'minlash hamda muassasada ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir.

"Yosh davrlar pedagogikasi" fanidan o'quv mashg'ulotlari oliy o'quv yurtining 2 kursi talabalariga 4 semestrda o'tkaziladi. O'quv mashg'ulotlari bevosita ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim hamda ta'limning boshqa zamonaviy shakllari yordamida amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar jarayonida talabalaridan tavsiya etiladigan o'quv va ilmiy adabiyotlar, mavzuga tegishli me'yoriy hujjatlar bilan samarali ishlash ko'nikma – malakalarini puxta o'zlashtirish talab etiladi.

O'quv qo'llanma O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida tasdiqlangan o'quv dasturiga va davlat ta'lim standartlariga mos ravishda tayyorlangan bo'lib, uning maqsadi talabalarni mazkur o'quv kursini chuqur o'zlashtirishlariga yordam berishni nazarda tutadi.

O'quv qo'llanmaning birinchi modulida yosh davrlari pedagogikasi fanining maqsadi va vazifalari, predmeti, tarmoqlari, kategoriyalari, ilmiy tadqiqot metodlari, shaxsni shakllantirish jarayonida pedagogikaning ahamiyati, maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisi va uning jamiyatda tutgan o'rni, pedagogik mahorati, pedagogik texnikasi, pedagogik qobiliyatlari haqida kerakli ma'lumotlar berilgan.

Qo'llanmaning ikkinchi modulida yosh davrlari, go'daklik davri, ilk bolalik davri, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi, o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar faoliyatining asosiy turi, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish va hisobga olish, kichik maktab yoshi davri va bolaning rivojlanishi, bolalar jamoasida shaxslararo munosabatni shakllantirish haqida so'z boradi.

Tarbiya nazariyasiga bag'ishlangan uchinchi modulda, tarbiya mazmuni, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, ekologik tarbiya, estetik tarbiya, sensor tarbiyasi, tarbiya metodlari va tarbiyani amalga oshirishning samarali yo'llari haqida ma'lumotlar batafsil yoritilgan.

Ta'lim nazaris modulida o'quv faoliyatining pedagogik mazmuni va mohiyati, bilimlarni o'zlashtirishning pedagogik komponentlari, ta'limning noan'anaviy usullari, o'quv faoliyati, o'qituvchining vazifalari, uning kasbiga xos xislatlari, pedagogik qobiliyatlari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasida samarali pedagogik faoliyatning asosiy omillari va shartlari haqida batafsil so'z boradi. O'quv qo'llanma tarkibiy jihatdan quyidagicha shakllantirilgan: har bir mavzu bo'yicha tayanch reja, tayanch tushunchalar, mavzuga oid o'quv axborotini o'zida aks ettiruvchi matn, talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va mavzu yuzasidan test savollari berildi.

1- MODUL: YOSH DAVRLARI PEDAGOGIKASI FANINING VAZIFALARI VA TADQIQOT METODLARI

1 – mavzu:Yosh davrlar pedagogikasi o‘quv fanining maqsadi, vazifalari va predmeti.

- 1. Yosh davrlari pedagogikasi fanining predmeti va vazifalari.**
- 2. Fan sifatida yosh davrlar pedagogikasining vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati**
- 3. Komil inson tarbiyasi - Sharq mutafakkirlarining talqinida.**
- 4. Yosh davrlar pedagogikasi fanining ilmiy - tadqiqot metodlari.**

Tayanch tushunchalar: pedagogika,ontogenez, komil inson, psixologiya, metod, shaxs, yosh davrlar pedagogikasi, pedagogika,

Yosh davrlari pedagogikasi fanining predmeti va vazifalari

Hurriyat - boy ma'naviyat va ruhiyat ilmidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizdagi mavjud barcha o'quv yurtlari ta'lim - tarbiyani to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etish uchun bu jarayonning o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini, uning mexanizmlarini, shuningdek, faol, mustaqil hamda ijodiy tafakkur jarayonini zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilishi lozim bo'ladi. Bu borada, yosh davrlar pedagogikasi - hozirgi zamon rivojlangan sohalaridan bo'lib, bu o'rinda muhim o'rin egallaydi, zero u inson ruhiy olamining tabiati va uning qonuniyatlarini o'rganuvchi sohadir. Yosh davrlar pedagogikasi psixologiya fanlari mushtarak, bir biriga uzviy bog'liqdir, chunki ularning har ikkisi, bitta, umumiy jarayonni - ulg'ayib borayottan insonning psixik faoliyati hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi. Biroq, shunday bo'lsa-da, bu ikki fan psixologiya ilmining mustaqil sohalari hisoblanib, ularning har biri o'z predmeti va tadqiqot vazifalariga egadir. Yosh davrlari psixologiyasi ontogenezdagi turli yosh davrlari psixik taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishini hamda psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Ontogenez - (yunoncha,. ontos-mavjud, jon, zot; genezis- kelib chiqish, paydo bo'lish) - individning paydo bo'lishidan, umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayoni. Yoshning ulg'ayib borishi, psixik jarayonlarning inson rivojlanishidagi qonuniyatlari, undagi etakchi omillar hamda inson hayot yo'lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlar ta'lim va tarbiya qonuniyatlari, ta'lim va tarbiya metodlari, ta'lim va tarbiya tamoyillari - **yosh davrlari pedagogika fanining tadqiqot predmeti** hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxs tarkib topish jarayonining psixologik qonuniyatlarini, uning ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, ta'lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Yosh davrlari pedagogikasi fani bu borada ham o'z-o'ziga tegishli masalalarni tor eksperimental ravishda o'rganish bilangina cheklanib qolmay, balki o'z muammolarini inson hayoti va faoliyatining tabiiy sharoitlarida, bolaga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda o'rgansa, yanada muvaffaqiyatli rivojlanishi, tabiiydir. Tabiat va jamiyatning qonunlari singari kamol topayotgan inson shaxsi rivojlanishining ham o'ziga xos qonunlari mavjud. Bu qonunlar yosh davrlari pedagogikasi fanining turli tarmoqlarida o'rganiladi, chunonchi: maktabgacha tarbiya pedagogikasi, boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, umumiy o'rta ta'lim pedagogikasi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, androgogika (kattalar pedagogikasi),(gerontopsixologiya) psixologiyasi kabi sohalardir. Ta'lim-tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p shartlarga: o'quv dastur va darsliklarning sifatiga, maktabning moddiy-texnika jihatdan ta'minotga, o'qituvchi yoshlarning mahoratiga, bolalarning kamolot xususiyatlariga bog'liqdir. Pedagogika fani bola har bir yoshida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishini isbotlab bergan.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi - bu qatorda birinchi bo'lib, 1-7 yoshidagi bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida – bolalar bog'chasida tarbiyalashiga o'rgatadi. Tarbiya mazmuni, shakl, metod va vositalari “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi” fanida bayon etilgan, unda bolaning har tomonlama kamolotga etish yo'lining asoslari nazarda tutilgan. Masalan, bolalar bilan yoshiga mos ishlarni

bajarish, har xil o'yinlar o'tkazish, chizmachilik qilish, plastilindan oddiy narsalar, qismlardan tuzilmalar yasash, ularga ertak va she'rlar aytish va yodlash, aytib berishiga o'rgatish, muloqot, xushmuomalalik, ozodalik, yuvinish va ovqatlanish madaniyatini ko'rsatib turish bola uchun dunyoni bilish, mehnat faoliyati, ma'naviy his-tuyg'ular va odatlarning tarkib topishi, harakat va muomala qilish talabini qondirish kabi yo'llarini ochib beradi.

Boshlang'ich maktab pedagogikasi - ko'pchilik o'quvchi bolalarning tafakkuri o'sishi, o'quv faoliyatiga tayyorligi, o'qish istagi, fikrning aniqligi va ravshanligi, abstrakt fikrlashning yuzaga kelishi, aqliy va jismoniy rivojlanishini o'rganadi. O'qishga kirishish bola ruhining bundan keyingi o'sishini belgilaydi, shaxsning yo'nalishi va xususiyatlarini o'zgartiradi. Shu payt bolaning diqqati barqaror bo'lmaydi, u bir narsaga uzoq diqqat berib turolmaydi, diqqati tez chalg'iydi, etarlicha o'smagan bo'ladi. Shunda o'qituvchi bolani o'ylash, fikrni to'plashga o'rgatadi. O'quvchi hidlash, sezish, eshitish, ko'rish sezgi a'zolari qabul etadigan narsalarni idrok etadi. Idrokni o'stirish yo'lida o'qituvchi sezgi a'zolarini har xil usullar bilan tarbiyalashni talab etadi. Bu o'z navbatida, bolalarning bilim olish qobiliyatini o'stiradi, o'quvchilar aqliy ish usullarini egallaydilar, o'quv faoliyatlarini to'g'ri bajarishga undaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mushak kuchi o'sadi, ular harakatchan bo'ladilar. O'qituvchilar esa ushbu harakatchanlikka to'g'ri yo'nalish berib, jismoniy darslarida, boshqa darsda 1-2 daqiqa yoki tanaffus vaqtida gimnastika qilish, jismoniy o'yinlar o'tkazish, ochiq havoda yugurish, sakrash, o'ynashlarni tashkil qilish shart bo'ladi. Chunki aqliy va jismoniy rivojlanishga, chaqqonlik va epchillikka, kuch va chidamlilikka olib keladi. Kichik yoshidagi o'quvchi bolalar o'z o'qituvchilari va ota-onalariga ishonganliklari uchun ularga taqlid qiladilar. Shuni bilib, o'qituvchi o'z kiyinishi, xatti-harakati, yurish-turishi, nutqi va atrofdagi kishilar bilan muloqot va munosabatlariga alohida e'tibor berishi zarur.

O'rta maktab pedagogikasi - tadqiqotlariga ko'ra – 11 - 15 yoshidagi o'quvchilar jismoniy tez o'sadi, ularda asabiylashish, tevarak-atrofdagilarga, jumladan ota-ona va o'qituvchilarga tanqidiy qarash, o'z yoshidan kattaroq ko'rinishga

harakatlanish, qo‘pollik, uyatchanlik, hulq-atvoriga beqarorlik paydo bo‘ladi. Bu – shu yoshdagi shaxsning o‘z mavqeini bilish, erkinlik va mustaqillikka intilishdir. SHunda to‘g‘ri ta‘lim-tarbiya faqat ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Buning mevasi o‘quvchilar fanlarning qonuniyatlari bayon etiladigan ko‘pgina narsalarni o‘rganadilar. Ularda abstrakt tafakkur o‘sadi, faol so‘z boyligi ortadi, dunyoqarash rivojlanadi. Ular g‘ayri tabiiy hodisalar, sarguzashtlar, jumboqli narsalarga qiziqib boshlaydilar, qiziqarli ishlarga kirishishga urinadilar, kompyuter va internetga beriladilar, kelajak kasbni tanlashni orzu qiladilar. O‘z ishi uchun javobgarligi, do‘stlari, sinf, maktab muvaffaqiyati uchun hissa qo‘shishga undaydilar. Bunda o‘qituvchilar tarkibining vazifalari – o‘smir bolalarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, ma‘naviy tuyg‘ularni chuqurlashtirish, fan asoslarini o‘zlashtirishiga bor kuch va mahorat bilan kirishish, ularga diqqat bilan qarash, yordam berish, yomon yo‘ldan saqlash, o‘qish va ishlariga do‘stona va hamkorlikcha qarash, bor qobiliyatlar va talantlarini o‘stirishdir.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi pedagogikasi - tahlili bo‘yicha, mazkur ta‘lim-tarbiya jarayonida ishchi va o‘rta pog‘onadagi mutaxassislarni tayyorlashdan tashqari, o‘quvchilarga nafaqat barcha aniq, tabiat va gumanitar fanlardan so‘nggi majmua ko‘rinishida bilimlarni berish va oliy o‘quv yurtiga (ixtiyoriy ravishda) tayyorlash, bolaning aniq bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlanitirish hamda mehnatga (yigitlarni harbiy xizmatga ham) tayyorlashdir. 15 – 18 yoshda o‘quvchilarda diqqat yanada kuchayadi, atrof-muhit voqea va xodisalarni tanqidiy idrok qilish, mantiqiy fikrlash qobiliyati o‘sadi, ichki kechinmalarni tahlillash kuchayadi. Litsey va kollej o‘quvchi shaxsining tarkib topishida uning o‘rta maxsus va kasb-xunar egallashida muhim ahamiyatga ega. Bu o‘quvchi o‘quv predmetlarni o‘rganib, hayot, mehnat, ijtimoiy faoliyatda ularning kerakligini tasavvur etadi. Mantiqiy muloqot fikr yuritish o‘sishi, o‘zi aytgan fikrni tushuntirib, tahlil va umumlashtirib berishga talab uyg‘otadi. Falsafiy dunyoqarashi tarkib topadi. Shu payt jismoniy o‘sish suyak qotishi, mushaklar kattalashishi, bug‘inlar mustahkamlanishi bilan tavsiflanadi. Bu yoshda nafaqat o‘g‘il yo qiz bolalar ichida, balki ular orasida

ham do‘stlik his tuyg‘ulari mustahkam va chuqur bo‘ladi, umrbod saqlanib qolishi va muhabbatga aylanishi mumkin.

Oliy ta‘lim pedagogikasi. Hozirgi davr talabiga javob beradigan yosh mutaxassislar nazariy bilimlarni chuqur o‘rgangan, amaliyotda kasbiy ko‘nikma va malakalarni puxta egallagan bo‘lishni talab etmoqda. Mutaxassislar buyuk insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan, muomalaga kirisha oladigan, o‘z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga katta e‘tibor bermoqda. Ayniqsa, xozirgi davrning bu talabi bo‘lajak mutaxassisni yuksak bilim va ko‘nikmalari bilan qurollangan, ma‘naviyatli va madaniyatli shaxs, mahoratli kadr sifatida tayyorlash kerakligi nechog‘li muhimligini ko‘rsatmoqda. Oliy ta‘lim ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega. Bakalavriat mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan tayanch oliy ta‘limdir. Magistratura aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan bakalavriat negizidagi oliy ta‘limdir. Magistratlarga davlat tomonidan kasb-hunar faoliyati bilan shug‘ullanish, o‘z kasbi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlarda ishlash va ilmiy – tadqiqot ishlarni olib borish huquqlari beriladi.

Talabalar gavda tuzilishidagi mutanosiblik, qaddi-qomatining kelishgan bo‘lishi, harakatlarining uyg‘unlashuvi bilan yaqqol ko‘rinadi. Talabalar o‘z-o‘zlarini tarbiyalashga qodir bo‘ladilar, ular o‘z kamchiliklarini ko‘ra oladilar, o‘quv jarayonida astoydil ishlaydilar, har bir ishda mas‘uliyat sezadilar. Mardlik, jasurlik, serg‘ayratlik, fidokorlik, kareraga intilish va uni ruyobga chiqarish – bugungi talabanning fazilatlaridir.

Yosh davrlari pedagogikasi fanining nazariy vazifasi - shaxsning komil inson sifatida kamol toptirishning qonuniyatlari va turli yosh davrdagi odamlarda namoyon bo‘ladigan psixik faoliyat, holat va shart-sharoitlarining o‘zaro ta‘sirixususiyatlarini o‘rganish va inson shaxsini kamol toptirishda ta‘lim va tarbiya berishning qonuniyatlarini o‘rganishda qo‘lga kirgan ilmiy dalillarini ta‘lim-tarbiya sohalariga tadbiq etishni tashkil etadi.

Bu borada, ayniqsa, pedagogik psixologiya birmuncha ulkan yutuqlarga erishdi. Pedagogik psixologiyaning ta'limni yangi mazmunda joriy qilish yuzasidan so'ngi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlari buning yaqqol dalili bo'la oladi. Ma'lumki keyingi o'n yil mobaynida mamlakatimizdagi barcha ta'lim tizimlarida ta'lim ishlarining mazmuni tubdan o'zgardi. Ta'limning eksperimental ravishda tekshirilgan yangi usullari (masalan, muammoli interfaol ta'lim metodlari) keng joriy qilinmoqda. Pedagogik psixologiya - psixologiya ilmining tarmog'i sifatida, ta'lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganuvchi fandır. Bolalar va yoshlarning maktabdagi hamda ta'lim-tarbiya muassasalaridagi faoliyat va hatti-harakatlarining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogik psixologiya ikki fanni, ya'ni psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan joyidan o'rin egallagandır. Pedagogik psixologiyaning predmeti maktabda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini, bu jarayonlarda sodir bo'ladigan individual tafovutlarni, o'quvchilarda faol, mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir. Shuningdek, pedagogik psixologiya ta'limtarbiyaning ta'siri oqibatida o'quvchilar psixikasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni, o'quv materiallarining o'quvchilarning yosh davrlariga mos kelishini, turli ta'lim metodlarining psixologik jihatdan samaradorligini, darsliklar, o'quv qurollari, asbobuskunalar va maktab ishlarining tartibiga nisbatan bo'lgan psixologik talablar kabi muammolarni ham pedagogik psixologiya o'rganadi. Hozirgi vaqtda pedagogik psixologiyaning muhim vazifalaridan biri - maktabdagi ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu hol yangi ta'lim dasturiga o'tish munosabati bilan bog'liqdir. Pedagogik psixologiya shu bilan birga o'quvchilar shaxsining tarkib topish jarayonini turli tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganadi hamda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik asoslarini tadqiq etadi. Shuningdek, pedagogikpsixologiya ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi bo'lgan - o'qituvchi shaxsini, uning pedagogik faoliyat xususiyatlarini ham o'rganadi. Bunda o'qituvchining ta'lim-tarbiya ishlaridagi yutuqlarni ta'minlovchi sifatlariga urg'u

berish bilan birga, uning bilim, ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarining tarkib topishi hamda taraqqiyotining psixologik jarayonlari aniqlanadi. Yosh davrlari psixologiyasi ham pedagogik psixologiya singari umumiy psixologik qonuniyatlarni yoritib beradigai, psixik jarayonlarni, holatlarni va shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o‘rganadigan umumiy psixologiyaga asoslanadi. Shu bois, yosh davrlar pedagogikasi fanini o‘rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, u boshqa fanlar singari taraqqiyotning umumiy tamoyillariga: oliy nerv faoliyati va psixofiziologiya qonunlariga, bu sohada to‘plangan ilmiy ma’lumotlarga tayanib, inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, o‘zgarishi yuzasidan bahs yuritadi.

Fan sifatida yosh davrlar pedagogikasining vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati

Yosh va pedagogik psixologiya fanning alohida tarmog‘i sifatida o‘zining kelib chiqish va rivojlanish tarixiga ega.

Yosh va pedagogik psixologiya fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida tarkib topadi. Bunda taniqli rus pedagogi K.D. Ushinskiyning asarlari, ayniqsa uning “Inson tarbiya predmeti sifatida” nomli asari katta rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari CH.Darvinning evolyusion g‘oyalari ham yosh psixologiyasining taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Evolyusion ta’limot psixik taraqqiyot manbalari muammosiga e’tiborini qaratishga olib keladi.

XX asrning boshlariga kelib, umumiy psixologiyada o‘tkaziladigan eksperimental tadqiqotlarni pedagogika sohasiga shundayligicha o‘tkazish mumkin deb qaraldi. Ammo o‘sha davrning umumiy psixologiya fani pedagogika uchun etarli bilimlar boyligini bera olmas edi.

1906 yil Peterburgda pedagogik psixologiya bo‘yicha I s‘ezd chaqirildi. Pedagogik psixologiya namoyondalari – A.P.Nechaev, N.E. Rumyansev va boshqalar pedagogik adabiyotlarni keskin tanqid qilib chiqdilar. Psixologiyani pedagogik amaliyot bilan yaqinlashtirish eksperimental tadqiqotlarni ta’lim-tarbiya jarayonining o‘zida o‘tkazish orqaligina mumkin degan muhim xulosa chiqarildi. Ya’ni eksperimental ma’lumotlar tashqaridan emas, balki psixologik-pedagogik

tadqiqotning o'zidan olinishi kerak, degan xulosaga kelinadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa yosh va pedagogik psixologiyaning muhim nazariy, metodologik masalalarini hal qilishning to'g'ri yo'llarini izlab topish lozim edi. Shu tufayli psixik taraqqiyotning manbalari va uning ta'lim jarayoniga munosabati masalasi yosh va pedagogik psixologiyaning markaziy muammosi bo'lib qoladi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida AQSHlarida *pedologiya* deb ataluvchi yangi fan vujudga keladi. Uning namoyondalari – S.Xoll, E.Meyman, V.Preyer. Bu oqim namoyondalari bola rivojlanishining biologik, fiziologik va psixologik nazariyalarini mexanik ravishda qo'shadilar.

20 - 30 yillarda pedologiya “Bola haqidagi yagona marksistik fan” rolini da'vo qila boshlaydi va pedagogika hamda bolalar fiziologiyasini siqib chiqarishga harakat qiladi.

Pedologlarning qarashlari idealistik va mexanistik xarakterda edi. Ularning o'quvchilarni “Aqliy qobiliyat koeffitsenti”ni aniqlashga oid testlari asossiz bo'lib, psixologiya va pedagogikaga salbiy ta'sir ko'rsatdi hamda maktabga katta ziyon etkazdi. Shuning uchun 30 yillarning boshlarida pedologiyani keskin tanqid qilish boshlandi. 1936 yil 4 iyulda VKP (b) MK ining “Xalq maorifi komissarligi sistemasidagi pedologik buzg'unliklar haqida” gi qarori chiqdi. Bu qarorda pedologiya fani marksistik nuqtai - nazarga zid ekanligi ta'kidlanib, katta tanqid ostiga olindi. Shu tariqa pedologiya faniga barham berildi.

20 - 30 yillarda pedagogik psixologiyada juda ko'p ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bir qancha psixologikpedagogik qonsepsiyalar vujudga keldi. Ayniqsa, A.S.Makarenkoning bola shaxsi va bolalar jamoasiga bo'lgan ilmiy qarashlari, L.S.Vigotskiyning oliy psixik funksiyalarning rivojlanish nazariyasi katta ilmiy qimmat kasb etadi.

Hozirgi kunda yosh va pedagogik psixologiya - psixologiya fanining eng rivojlangan sohasi hisoblanadi. Yosh va pedagogik psixologiya masalalari bilan bir qator ko'zga ko'rinarli psixologlar shug'ullanganlar va shug'ullanmoqdalar. Ulardan: B.G. Ananov, L.I.Bojovich, P.YA.Galperin, V.V.Davidov, A.V.Zaporozets,

L.V.Zankov, G.S.Kostyuk, A.N.Leontev, N.A.Menchinskaya, N.F. Talizina, D.B.Elqonin va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bolalar psixologiyasi muammolari bilan shug'ullangan o'zbek olimlaridan: professorlar M.G. Davletshin, E.G'. G'oziev, M.Vohidov; R.I. Sunnatova, Z.T. Nishonova, dotsent S.A.Axunjanova, SH.A.

Do'stmuhamedova, S.X.Jalilova kabi psixologlarni keltirishimiz mumkin.

Komil inson tarbiyasi – Sharq mutafakkirlarining talqinida.

Yuksak tafakkur namoyondalarining asarlarida bilim olishga keng o'rin berilgan bo'lib, o'tmishda ham, hozirda ham, qaerda ta'lim sohasiga e'tibor yuqori bo'lsa, o'sha erda taraqqiyot doimo ilgarilab borganligi yaqqol ko'rinadi.

Sharqning qomusiy olimlari asarlarida ta'lim-tarbiya, shaxs kamoloti borasidagi fikrlari bilan birga bilim egallash, ilm olish yo'llari xususida qator ilmiy ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Zarnujiy, Mahmud Qoshg'ariy, YUsuf Xos Hojib, Umar Xayyom, Abu Hamid Fazzoliy, Alisher Navoiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Abdulla Avloniy kabi olim va mutafakkirlarning asarlarida yuqoridagi muammolar yuzasidan atroflicha ma'lumotlar keltiriladi.

Qomusiy olim **Imom al-Buxoriy** ham ilm o'rganishni yuqori darajaga qo'yib, o'z asarlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: "Kishi ilm bobida nafaqat o'zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o'zidan past bo'lganlardan hadis olmaguncha, etuk muhaddis bo'la olmaydi". Imom Buxoriy ushbu fikri bilan o'quv faoliyatining ijobiy motivlari ustoz-muallim tomonidan shakllantirilishiga urg'u beradi.

Abu Nasr Forobiy esa ko'plab asarlarida bilish masalasiga katta e'tibor beradi. U bilishda ikki bosqichni - hissiy va aqliy bilishni farqlaydi hamda bilishda inson aqlining rolga ahamiyat beradi. Forobiy insonlarni ilmi bo'lishga chaqirib, o'quvchining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan. U o'quvchiga ta'lim berish, uni ilmi qilish uchun o'qituvchi tinmasdan mashaqqatli mehnat qilsagina o'quvchi o'qishga, ta'lim olishga, bilimli bo'lishga intilishi mumkinligini ta'kidlaydi. O'qituvchi o'quvchiga bilim beraman desa, o'quvchi oldida haqiqatgo'y bo'lishi kerak, o'zi fahm-farosatli

bo'lib, or-nomusini qadrlashi lozim, shogirdlariga nisbatan adolatli bo'lishi, ko'zlagan maqsadiga erishishida qat'iylik ko'rsata bilishi va o'rnak bo'lmog'i joiz, deya ta'kidlaydi mutafakkir. Forobiy tushunishni, bilimning mohiyatini uqib, anglab olishni quruq yodlashdan ustun qo'yadi, o'quvchiga umumiy qonun-qoidalarini o'zlashtirishni tavsiya etadi, chunki qonun - qoidalarini anglash, uning e'tirofiga ko'ra, juda katta ahamiyatga ega. Allomaning mulohazasiga binoan, har qanday o'quvchi o'z xatti-harakatidan xabardor bo'lmog'i, ya'ni o'zini anglagani, zamonaviy psixologiya fani terminologiyasiga ko'ra, o'zini refleksiya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi va shu sa'y-harakatlari tufayli baxtga erisha oluvchi insonligini anglamog'i lozimdir. Forobiy o'quvchining shaxsiga xos qator fazilatlarga holisona sharh bergan olimdir.

Qomusiy olim **Abu Ali ibn Sinoning** fikricha, inson tafakkuri, aqlining kuchi bir necha bosqichdan iborat. Aqliy kuchlar dastlab mutlaq tinch, sokin holatda bo'ladi. Bolalardagi yozishni, o'qishni o'rganishdagi potensial kuchlar shunga misol bo'la oladi. Abu Ali ibn Sino bu kuchlarni moddiy kuchlar deb nomlagan, ya'ni mazkur kuchlarni tashqi motivlar deb tushunsa bo'ladi. Sekin-astalik bilan bu kuchlar harakatga aylanadi, bular mehnat quroli samarasidir, ya'ni mehnat quroli orqali harakatga keladi va namoyon bo'ladi. Bu holatni bola yozishni xohlab turibdi-yu, ammo yozish quroli bo'lgan qalamning yo'qligi bilan izohlash mumkin. Bu ikki kuchni Ibn Sino ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan kuch deb atagan. Nihoyat, uchinchi kuch esa irodaning etishmasligi bilan tushuntirib beriladi. Ya'ni shunday holatning kuchi bor, ammo uni ishlatishga, ruyobga chiqarishga bolada iroda etishmaydi. Alloma nazarida, shu kabi uch holat bilan aql, bilim olish izohlanadi. "Tayr" asarida esa insonlarni do'stlikka, bilim o'rganishga chaqiradi .

Ibn Sino "Xayy ibn Yaqzon" qissasida inson fe'l-atvorini, ruhiyatini tushunish uchun mantiq ilmini o'rganishga chorlaydi. Bu fan inson tafakkur doirasining kengayishiga katta yordam beradi. Insonlarning fe'l-atvorini bilish uchun o'qish, o'tkir bo'lish uchun farosat ilmidan xabardor bo'lish kerak. Darhaqiqat, ilm

o'rganishga Forobiy musiqiy, falsafiy ilm bilan da'vat etgan bo'lsa, ibn Sino mantiq ilmi orqali da'vat etgan.

Abu Ali ibn Sino bolalarning o'qish, ta'lim olishlariga mas'uliyat bilan qarash tarafdorlaridan bo'lgan. U bola 6 yoshga etgach muallimga bilim olish uchun topshirilishini aytib o'tadi. Hozirda ham bolalarning 6, 7 yoshdan boshlang'ich sinflarga qabul qilinishi ibn Sinoning o'sha davrdagi g'oyalarining naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi, zotan ushbu hol bolaning o'qishga bo'lgan muhabbatini kuchaytirishi mumkin. Uning fikricha, bolaga ta'lim asta-sekinlik bilan berilishi joiz. Uni birdaniga kitobga bog'lab qo'ymaslik lozim, deydi alloma. Ibn Sino kishilarning yashashga qobil bo'lishi va bekorga jabr ko'rmasligi uchun ularga ehtiyot bo'lib ta'lim berish kerakligini uqtiradi. Ya'ni ularning o'qishga bo'lgan ijobiy motivlarini so'ndirmaslikka undaydi .

O'quvchilarning o'qish faoliyatiga oid fikrlar qomusiy olim **Abu Rayhon Beruniy** asarlarida ham o'z aksini topgan. Uning fikriga ko'ra, bilim olish uchun o'quvchilarda avvalo intilish va qiziqish bo'lishi kerak. Darhaqiqat, nimanidir o'rganish, tadqiq qilish uchun insonda intilish, harakat va qiziqish bo'lmasa, u hech narsaga erisha olmaydi. Ilm olishning muhim yo'llaridan biri inson hammani o'ziga do'st tutishi va boshqa insonlarga ham yaxshilik qila olishi lozim. Olimning mazkur fikrlarini fan tilida o'quv faoliyatiga nisbatan ehtiyoj tug'ilsagina o'quv motivlari shakllantirilishi mumkin, deya talqin qilsa bo'ladi.

Beruniy ilm olishda axloqiy poklikni yuqori o'ringa qo'yib, ta'lim va tarbiyani bir xil izchillikda olib borganlar komil inson darajasiga erishadilar, deydi. Beruniy o'qitish uchun muallim o'z malaka va bilimlarini doimo orttirib, zamonga moslashib borishi lozimligini uqtiradi. U kitob o'qish usullariga alohida e'tibor qaratadi. Kitoblarni shunchaki emas, fikrlab, kichik-kichik bo'limlarga bo'lib o'qish va umumlashtirib borish kerakligi haqida ma'lumotlar beradi. Beruniy o'qitishda faqat induktiv (umumiy xulosa) yo'li bilangina emas, balki deduktiv (juz'iy xulosa) yo'li bilan ham ish tutish lozimligini ta'kidlaydi, zotan bunday o'qishda tafakkur kengayib, bilimlar ortib boradi.

Abu Rayhon Beruniy o'qituvchilar o'quvchining e'tiborini taqqoslash, qiyoslash kabi operatsiyalarga qaratishlari lozimligiga alohida ahamiyat beradi. Zotan, bugungi kunda ham ongli, ifodali, to'g'ri va tez o'qish hozirgi zamon o'quvchilarining savodli bo'lishlarini ta'minlovchi asosiy tarkibiy qismlardandir.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashga zo'r berib, yosh o'quvchilarni toliqtirib va zeriktirib qo'ymasdan, turli psixologik usullarni qo'llashni, shu orqali ularning tafakkurini boyitib, bilimlarini chuqurlashtira borishni ilgari surgan buyuk zotdir. Ya'ni o'qishga nisbatan bo'lgan qiziqishni so'ndirmaslik uchun bolalarning yoshiga xos psixologik xususiyatlar albatta inobatga olinishi kerakligini e'tirof etadi.

Beruniyning tafakkur operatsiyalari - analiz, taqqoslash, umumlashtirish kabilarni shakllantirish orqali o'qishga qiziqish uyg'otish haqidagi fikrlari to hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Sharqning boshqa bir yirik olimi **Burhoniddin Zarnujiy** o'zining "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" kitobida: "O'qib o'rganish uchun eng yaxshi vaqt yoshlik davri, erta tong va qosh qoraygan payt. Bilim oluvchi ana shu vaqtni samarali tashkil etishga odatlansin, bordi-yu, unga bir fan zerikarli bo'lsa, boshqasi bilan mashg'ul bo'lsin", - deya ta'lim beradi. "Ta'limul – mutaallim" nomli kitobida bo'lsa ta'limning uzviylik prinsipini e'tirof etadi .

XI asrda yashab ijod etgan **Mahmud Qoshg'ariy** ham o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida bilim olishga da'vat etgan. Asardagi: "Ey o'g'lim, mendan o'git, nasihat ol, odobli va tarbiyali bo'lishga tirish, toki el ichida zo'r olim bo'lib tanil va ular orasida odob va ilm tarqat" yoki "Ilm, hikmat o'rgan, o'rganishda havoyilik va takabburlik qilma, hech narsa o'rganmasdan, o'zini bilimdon ko'rsatib maqtangan kishi imtihon vaqtida uyaladi, achinadi" kabi fikrlari buning yorqin misolidir.

O'rta Osiyoning yana bir buyuk mutafakkiri **Yusuf Xos Hojib** ham o'z ijodida bilimni yuksak baholaydi. Alloma bilimni boylik, kiyim, emish kabi narsahodisalarga qiyoslaydi. Bilim va bilimdonlikni his eta olmoq, uni tushunmoq

darkorligi, bilimdon bo‘lishning tarbiya bilan chambarchas bog‘liqligi, bola qanchalik erta tarbiya qilinsa, bilim olishga ishtiyoqi ortishi haqida yozadi.

O‘quvchining psixologik xususiyatlari va shaxsiy fazilatlariga oid mulohazalar qomusiy olim **Umar Xayyom** asarlarida chuqur yoritib berilgan. Umar Xayyomning fikricha, o‘quvchilar o‘qituvchidan olgan bilimlari bilan cheklanib qolmasdan, hayotda bo‘layotgan voqea-hodisalarni o‘rganish va kuzatish, amaliyot davomida bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini har xil usullarda ko‘p martalab takrorlab borish jarayonida egallaydilar, ya’ni olim ta’limdagi predmet bilan hayot uzviy aloqadorligi prinsipini ilgari suradi. Uning fikricha, bilim olishni, ta’limni amaliyot bilan uzviy ravishda bog‘lagan holda o‘quvchilarda mustaqil tafakkurni shakllantirib borish zarur. Buning uchun u “Sen osongina o‘ylayapsan”, “Ko‘p o‘ylab, maqsadga erishish mumkin”, “Bir oz o‘ylagandan keyin, tushunib olasan” kabi so‘zlarni ishlatib, o‘quvchilarni mulohaza qilishga undab, sekin-astalik bilan o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqlarini oshirishga harakat qiladi.

Inson hayotida ilm va amaliyotning birligi haqida **Abu Hamid Fazzoliy** ham fikr bildirgan edi. Darhaqiqat, inson olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay borishi kerak deb o‘ylaymiz, chunki bilim va ilmgina emas, balki fan va tajriba yutuqlarini amalda qo‘llay bilish ham insoniy hislatlardan biridir.

Buyuk mutafakkir va alloma **Alisher Navoiy** inson tafakkuri, aqli-farosati hamda ilmini yuksak qadrlagan. U: “Bilim va donishmandlik insonning bezagidir”, deb yozadi. Alisher Navoiy bolalarga kichik yoshligidanoq bilim, ma’lumot va tarbiya berish kerakligini aytib, ibn Sino kabi, 6 yoshdan muallim qo‘liga topshirish kerakligini ta’kidlaydi.

Iste’dodli shoir va tarjimon, tarixchi **Muhammad Rizo Ogahiy** asarlarida inson bekamu ko‘st kamolga etishishi uchun yoshlikdan ilm va kasb-hunar egallashi shart ekanligini aytib o‘tadi. Uning fikricha, ilm-ma’rifat insonning ma’naviy kamolotida va jamiyat taraqqiyotida kuchli vositadir. Ilm inson aqlini boyitadi. Ogahiy ilmni ko‘proq xalq o‘yinlari orqali etkazib berish uchun harakat qiladi, chunki bu narsa ijobiy o‘quv motivini shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq o‘yinlari,

aslida psixologik o‘yinlar hisoblanadi. Bu vaqtda bola ham ta’lim oladi, ham shakllanadi.

XX asr boshlarida O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlar rivojida etakchi rol o‘ynagan olimlardan biri **Abdulla Avloniydir**. Abdulla Avloniyning fikriga ko‘ra, ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, ne‘matidir. Ilm o‘rganmoq, olim bo‘lmoq uchun maktabga kirmoq, muallimdan ta’lim olmoq lozimligini u qayta-qayta ta’kidlaydi.

Ma’rifatparvar alloma Avloniy inson ma’naviy kamolotining yo‘llari ustida to‘xtalib o‘tadi. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidir, deb ta’kidlab o‘tadi.

U ilmning nazariy ahamiyatini ko‘rsatibgina qolmasdan, balki uning amaliy faoliyat uchun hayotiy zaruriyat ekanligini ham ta’kidlab o‘tadi. Ilm bizni jaholat qorong‘usidan qutqarishi, madaniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarishi, yomon fe’llardan, buzuvq ishlardan qaytarishi, yaxshi xulq, odob sohibi qilishini ta’kidlaydi SHu bilan birga, u bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, rohatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqligini qayta-qayta takrorlaydi.

Ilm kishi zehni, fikrini qilich kabi o‘tkir qiladi. Ilmsiz inson mevasiz daraxtga o‘xshaydi. Ilm daraxt mevalaridek har shaxsga ozuqa berib, madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat dunyosiga olib kiradi. Yomon odamlardan, buzuvq ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulqli va odobli bo‘lishga xizmat qiladi. Natijada, ilm kishilari har erda aziz va hurmatli bo‘ladilar. Kishi hayotini haqiqiy va to‘g‘ri yo‘lga soladigan vosita - bu ilmdir. Shuning uchun ham ilm orqali oliy fazilatlarga ega bo‘lgan, ulug‘likka va orzu-istaklariga erishgan buyuk kishilar xalq orasida yuksak qadrlanadilar.

Ilm kasb va fazilatlarning eng afzalidir. Ilm orqali inson yaxshi-yomonni tanishi, halol-haromning farqiga borishi, do‘stlik va qarindosh-urug‘ning fazilatlarini anglashi, o‘z haq-huquqlarini bilishi mumkin.

Kishilarning bilimi, ilmi, amaliy malakalari rivojisiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Muayyan ma'naviy ehtiyojlarga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan kishilarda ilm-fanni o'rganishga, halol mehnat qilib, kasb-hunar egallashga, malaka oshirishga ishtiyoq ham bo'lmaydi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avval yoshlarni tarbiyalab, keyin ularga ta'lim berganlar.

Haqiqatdan ham, bilimga, ilmga ehtiyoj anglangan motivlar tizimidir. Biror muammoni hal etish imkoniyatlarini inson o'z aql-zakovati, bilimi, kuchi va irodasi bilan aniqlaydi. Bilim mazmun jihatidan kengroq bo'lib, insonning hayot tajribasi orqali orttirgan barcha tushunchalar, fikrlar, amaliy malakalarni o'z ichiga oladi. Ilm bilimning cho'qqisidir. Bilimlar tabiat, jamiyat, inson ruhiyati qonunlarini chuqur o'rganish natijasidagina ilmga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Sharq mutafakkirlari o'quv motivlarini ehtiyojlar nuqtai nazaridan tahlil qilishga harakat qilganlar. Mazkur ehtiyojlarni hosil qilishga, oshirishga, asosan o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonining psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish, ya'ni o'qish jarayonida bolalarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ularga imkon qadar individual yondashish orqali erishish mumkinligini e'tirof etishgan. Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlarining buyuk xazinasini, bolalarga ta'lim, tarbiya berishdagi ilg'or fikrlari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Yosh davrlar pedagogikasi fanining ilmiy - tadqiqot metodlari.

O'qitish va tarbiyalashdan avval hamda shuning ayni paytida tekshirishga yo'naltirilgan ilmiy - tadqiqot metodlari tizimi yosh davrlar pedagogika fanida to'la yaratilgan. Quyidagi mazkur holatlar o'qituvchi, tarbiyachilarda tarbiyalanuvchi hamda o'quvchilar to'g'risida bilimlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi:

- o'quvchilarning munosabatlari va bir-biri o'rtasidagi tafovutlar mavjudligi;
- o'qitish va tarbiyalash jarayonida vujudga keladigan o'qitish va tarbiyalash vazifalari, shakl, metod va vositalarning o'zgarishi;
- metod va vositalarning amalga oshirishning qay darajada murakkabligi;

- har bir o'quvchining oila, ota-ona, aka-uka, do'stlari, mahallasi, o'qituvchisi, maktabi, sinfi, guruhi, vataniga ixlosi;
- har bir o'quvchining bilim, mehnat, qaysidir ish, kimnidir qutqarish, himoyalash, yordamga hamma vaqt tayyor bo'lishiga, mardlik, jasurlik ko'rsatishiga intilganligi;
- har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini, aqliy, ruhiy, xulqiy va jismoniy tomonlarini qay darajada o'sib borishi;
- har bir o'quvchini uning bilimi, saviyasi, qobiliyatlari bilib olib qaysi andozada o'qitish va tarbiyalash mumkinligi;
- o'quvchi kamolotiga ta'sir etuvchi irsiyat, oila sharoiti, atrof-muhit aniqligi;- bilim, ko'nikma va malaka o'zlashtirish qobiliyati darajasi.

Mazkur quyida ishlab chiqilgan metodlarga tayangan holda ish yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Muammoning qo'yilishi. Har qanday ilmiy tekshirish ishlari kabi, pedagogikada olib boriladigan ilmiy tekshirish ishlari ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammoni aniqlashdan, shuningdek bu muammo fanda qanchalik yoritilganligini aniqlash maqsadida mazkur mavzuga oid ilmiy va maxsus adabiyotlarni tahlil qilishdan boshlanadi.

2. Tadqiqot metodikasini tanlash. Pedagogik tadqiqotlar turli metodlar (bu metodlar haqida quyida batafsil fikr yuritiladi) bilan olib boriladi. Tekshirishlarning muvaffaqiyatli chiqishi ko'p jihatdan metodni to'g'ri tanlashga bog'liq bo'ladi.

3. Ma'lumotlarni to'plash. To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammoga mos bo'lishi yoki ularni to'plash maqsadga muvofiq ravishda olib borilishi zarur. Ilmiy ma'lumotlarga bo'lgan asosiy talablar - bu ularning xolisona, to'la va izchil bo'lishidir. To'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammoni har jihatdan tavsiflab berishi kerak.

4. Ma'lumotlarni ayta ishlash. To'plangan ma'lumotlarni matematik va mantiqiy jihatdan ishlab chiqish umumiylikni, xususiylikni topish va ularni tasodifiy ma'lumotlardan ajratish imkonini beradi. Bunda to'plangan ma'lumotlarning o'rtacha

miqdori (arifmetik, kvadrat va hokazo), foizlari aniqlanadi, sonlarga oid ma'lumotlar jadvallarga joylashtiriladi, grafik, diagramma va chizmalarda o'z aksini topadi. Murakkab mutanosiblikdagi ma'lumotlarni topishda esa variatsion statistika metodlari qo'llaniladi. Qonuniyatlarning ifodalanishi. Bu tadqiqotning birmuncha murakkab va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. Chunki, bu bosqichda ma'lumotlarning mohiyatiga qanchalik chuqur tushunilganligi, ularning o'zaro bog'liqligini hisobga olib, bosqich ma'lumotidan har turli xulosa chiqarish mumkin. Ko'pincha chiqarilgan xulosalar taxminiy xarakterga ega bo'lib, keyingi tekshirishlar, aniqlashlar uchun asos bo'ladi. Qonuniyatni amalda qo'llash. Aniqlangan qonuniyatlar ma'lum bir amaliyot sohasida qo'llaniladi. Amalda qo'llash aniqlangan qonuniyatning to'g'riligiga batamom ishonch hosil qilish imkonini beradi. Ko'pincha o'qituvchilar o'z amaliy faoliyatlarida shaxsiy kuzatishlari va boshqalarning tajribalarini umumiyashtiradilar. Biroq, bunday umumlashtirishlar ilmiy jihatdan etarli asoslangan bo'lmaydi, ya'ni, muhimligi, aniqligi va teranligi bilan ajralib turmaydi. Metod – (yunoncha, methods-tadqiqot, tekshirish)- bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi. Tajribada qo'llaniladigan metodlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

Kuzatish metodi. Ushbu metod yordamida tadqiqotchi tomonidan yosh davrlar va ularda ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish bilvosita sinchiklab o'rganiladi. Pedagogik kuzatuv orqali ta'lim va tarbiya jarayonida samaradorlika erishi, barkamol shaxsni shakllantirishda metodning ahamiyati katta. Kishining har kungi psixik faoliyatini odatdagi hayot va sharoitlarida tahlil qilishdan iboratdir. Yosh davrlar pedagogikasida bu metodning ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (o'zini o'zi) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- a)kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;
- b)kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi;
- v)sinaluvchining yoshi, jinsi haqida ma'lumotlar to'planadi;
- g)tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;

d)kuzatish qancha davom etishi qat'iy lashtiriladi;

e)kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya etiladi; yo)kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tayinlanadi;

j)kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitofon, videomagnitofon va boshqalar) taxt qilinadi.

U orqali o'quvchilarga aytmasdan va sezdirmasdan ularning bilimlarni o'zlashtirishlarini, ularning xulq-atvori va xususiyatlarining o'zgarishlarni, qobiliyatlarining o'sishlarini, qo'yilgan maqsad amalga oshayotganligini, shaxsiy farqlarini aniqlash, qiyoslash, hisobga olish va biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish uchun tashkil etiladi hamda tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'lida metod va vositalarni belgilash uchun qo'llaniladi. Kuzatish orqali to'plangan materiallar o'rganiladi va tadqiqotchini u yoki bu pedagogik xulosalar qilishiga zamin yaratadi. Bunda kuzatishlar davomiyligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqti, yig'ilgan dalillar tahlil qilinadi va qiyoslanadi, nihoyat, kuzatish natijalariga qarab, pedagogik vaziyatlarni ijobiy tomonlarga o'zgartirish uchun kerakli tavsiyalar taqdim etiladi. Pedagogik kuzatish metodi bevosita va bilvosita kuzatish turlariga bo'linadi. Bevosita kuzatish metodi biror-bir hodisaning oqibatlarini, o'quvchining shu vaziyatda bo'lgan xatti-harakatlari, so'zlari haqidagi aniq materialni o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar, boshqa shaxslar orqali yoki video, diktofoni qo'llashi bilan o'rganib olishga imkon beradi. Bilvosita kuzatishda to'g'ri, ob'ektiv natijalar olish uchun shaxsan tadqiqotchi pedagog o'zi ishtirok qilib, bor ish, hodisa va vaziyatlarni, kerakli o'quvchilar xatti-harakatlarini o'z ko'zi bilan kechiradi.

Eksperiment, tajriba - sinov metodi - ushbu tajriba asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbqiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Pedagogik eksperiment bu ham kuzatish metodiga yaqin, lekin bularning bir-biridan farqi shundaki, pedagogik kuzatishda toza, ob'ektiv natija olish uchun hech kim mazkur jarayonga aralashmaydi, eksperimentda esa tadqiqotchi pedagog aralashadi, muayyan sharoitlar yaratadi, pedagogik jarayonga

yangiliklar kiritadi, uni bir necha marta qayta-qayta takrorlaydi. Eksperimental tekshirish har doim yangi tajriba o'tkazishni nazarda tutadi. Bu tajribaning mohiyati ta'lim-tarbiya jarayonining o'tkazish sharoitini o'zgartirishdan iborat bo'ladi. Pedagogik eksperiment maqsadi dastlabki o'qitish yoki tarbiya holatini o'zgartirishda darsga kiritilayotgan aniq metod va vositalar, tanlangan materiallar muhimligini belgilab qo'yishdir. Pedagogik eksperiment o'tkazishdan avval tadqiqotchi pedagog shu ish yuzasidan oldiga qo'ygan ilmiy tushunchalar asosida maqsad va vazifalarni aniqlab olishi kerak. Masalan, faraz (o'rtaga tashlangan yangi fikrni qanday holatda pedagogik jarayonni o'zgartirishda qaysi ijobiy natijalarni kutmoqda); tadqiqot ob'ekti (qaysi ta'lim muassasasida qaysi fan bo'yicha va qaysi bosqichdagi pedagogik jarayon); tadqiqot predmeti (shu fanning qaysi o'quv material bo'yicha ishlamoqchi); tadqiqot dolzarbligi (bu tadqiqot ilmga, ta'limtarbiya tizimiga qaysi oziqa beradi); tadqiqot ilmiy yangiligi (tadqiqotchi o'zi o'ylab chiqqan qaysi fikr va g'oyalarni taqdim qilmoqchi); nazariy muhimligi (ilmni qanday rivojlantiradi); amaliy muhimligi (ta'lim-tarbiya amaliyotiga nima beradi).

Pedagogik eksperimentning quyidagi metodlar mavjud: **birdan–bir farqlanish** – yangi metod yoki vosita sifati tekshiriladi. Bunda eksperimentda ishtirok qiladigan o'quvchi-talabalar ikki, tarkiblari bilim-malaka bo'yicha teng o'quvchi-talabalardan iborat guruhga bo'linadi, birinchi, nazorat guruhida o'quv ish eskicha, yangi metodvositani ishga kiritmasdan o'tkaziladi, ikkinchi eksperimental guruhda esa o'quv ish yoki aksincha, yangi metod-vositani kiritib o'tkaziladi. Sinovlar o'tish vaqti va mashg'ulotlar hajmi belgilanadi. Sinovlar tugashi bilan natijalar solishtiriladi, natijalar tahlili yangi metod-vosita ijobiy ta'sir etishi qanchaligini ko'rsatadi. Bunday pedagogik eksperiment ko'zda tutilgan maqsadga qarab uch bosqichga bo'linadi:

- **Ta'kidlovchi bosqich** – hozirgi kunda mavjud bo'lgan pedagogik vaziyat o'rganiladi;
- **Nazorat bosqichi** - eksperimentda ishtirok qiladigan o'quvchi-talabalar bilimmalakalari tekshiriladi va ikki, tarkiblari bilim-malaka bo'yicha teng o'quvchitalabalardan iborat guruhga ajratilgan hola o'rganiladi;

➤ **O‘qitish bosqichi** – taqdim etilgan faraz bo‘yicha yangi metod-vositalardan iborat pedagogik jarayon yaratiladi va muhimligi tekshiriladi.

Birdan-bir o‘xshashlik - ikki yoki bir necha guruhlarda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalar darajalarini tekshirish maqsadida darslar turli metod-vositalar asosida o‘tkaziladi. Sinovlar tugashi bilan natijalar solishtiriladi, natijalar tahlili har bir guruh o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalar darajalar qanchaligi va sifatini ko‘rsatadi.

Birga bo‘ladigan o‘zgarishlar - ikki yoki bir necha guruhlarda o‘quvchitalabalarning bilim, ko‘nikma va malakalar darajalarini o‘zgartirish maqsadida yangi metod-vositani kiritilib o‘tkaziladi. Sinovlar tugashi bilan natijalar solishtiriladi, natijalar tahlili har bir guruh o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalar darajalar o‘zgarishlar qanchaligi va sifatini ko‘rsatadi.

Anketa metodi. Kishilar psixikasini ommaviy so‘roq asosida o‘rganish demakdir. Bu metod yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarning munosabatlari o‘rganiladi. Anketa odatda uch turda o‘tkaziladi. Ularning birinchi turi anglashilgan motivlarni aniqlashga mo‘ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi turida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi turdagi anketada sinaluvchiga yozilgan to‘g‘ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. Anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini o‘ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Tarqatilgan anketalar yig‘ishtiriladi va elektron hisoblash mashinalarida hisoblanadi, atroflicha miqdoriy tahlil qilinadi, so‘ngra tadqiqotga yakun yasalib, ilmiy va amaliy yo‘sinda xulosalar chiqariladi. Anketa metodi inson psixikasini o‘rganish uchun boy ma’lumotlar to‘plash imkonini beradi. Biroq unda olinadigan ma’lumotlar doimo xolisona xususiyatga ega bo‘lavermaydi. Bunday kamchilikka yo‘l qo‘ymaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi savollarni puxta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Suhbat metodi Erkin, nutqiy munosabat tufayli olingan kishi psixik faoliyatining xulosasini tekshirish demakdir. Bu metod yordamida inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning obtekti va sub'ekti tanlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan uzviy bog'liq savoljavob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aqlzakovati, xulq-atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

Suhbat metodi - maktab o'qituvchilari va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-onalar, tanish va notanish odamlar bilan maktab va boshqa ta'lim muassasalarda, xonadon va ko'chada, transport yoki biron tashkilotda yakka, guruhli yoki ommaviy tarzda qo'yilgan pedagogik masalalarni aniqlash uchun olib borilganda qo'llaniladi. Har bir pedagogik maqsadga yo'naltirilgan suhbat tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rganini bildiradi. Jumladan, suhbat mazmunli va maqsadga muvofiq o'tishi uchun avvalambor quyidagi masalalar echishi talab etadi:

- suhbat rejasini tuzish, uni amalga oshirish yo'llarini belgilash;
- qo'yilgan masalalarga oid kerakli savollarni topish;
- suhbatni o'tkazish joyi va vaqtini belgilash va erkin, do'stona gaplashishga qulay sharoitlar (shinam joy, chiroyli musiqa, yorug'lik, guldastalar va h.k.) yaratish;
- suhbatdoshlarning soni, yoshi, kasbi, bilim va madaniyat darajasi va hulq-atvorini, umuman kimligini oldindan bilish yoki aniqlab olish, suhbat chog'ida shularni unutmaslik;
- suhbatga madaniy chaqirish, taklif qilish yoki suhbat qilishni so'rash, iltimos qilish;
- suhbatda tashqi ko'rinish va o'zini madaniy tutishi, mazmunli so'zlari bilan suhbatdoshlarni lol qoldirish;

- o‘zi va suhbatdoshidan mahmadona va bachkana bo‘lmasligini so‘rash, bor savollarini aniq va ravon qo‘yish; - muomala ohangini ijobiy to‘g‘irlash, jiddiy tusda gapirish;
- suhbatning qaysi bir daqiqasida uni kerakli, maqsadiy tomonga yo‘naltira olishni bilish, suhbatdoshning ayni paytdagi ruhiy holatini sezib, suhbatni shunga moslashtirish, o‘zgartirish yoki mutlaqo to‘xtatish.

Tekshirayotgan suhbatdosh bilan bevosita og‘zaki suhbat tarzida aloqada bo‘lish paytida uning javoblarini ko‘pincha yozmasdan erkin muomala shaklida qo‘llaniladi. Lekin bu pedagogik tadqiqotga yo‘naltirilgan suhbat erkin suhbat emas, savollarni oldindan belgilangan izchillikda bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar suhbatdoshlarning roziligi bilan video yoki diktofonga yozib olinadi. Suhbat natijalari tahlil qilinadi, qiyoslanadi, umumlashtiriladi, tegishli xulosalar chiqariladi, ular qo‘shimchalar bilan pedagogik jarayonga kiritish yoki kiritmasligiga tavsiya beriladi.

Test, so‘rovnomalar metodi – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi, ta’lim-tarbiyada faol qo‘llanilmoqda. So‘rovnoma, ya’ni anketada yaratilgan ilmiy farazning dolbzarligi va yangiligini aniqlash, o‘quvchilarning bilimini va saviyasini aniqlash, ularning fikrlarini, qarashlarini, qaysi fanlarga va qanday kasblarga qiziqishlarini, qaysi darsda qanday usullar bilan ishlash, qanday vositadan foydalanish, qanday o‘yin qilish foydali, unumli va qiziqarli o‘tadi, qaysi adabiy kahramon, ishchi, shifokor, olim, san’atkor, o‘qituvchi, o‘quvchi, sportchidan o‘rnak olsa arziydi, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o‘tkaziladi. So‘rovnomalar oila, sinf, guruh, maktab jamoadagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganishda qo‘llaniladi, ularning materiallari munosabatlarning shakllanishidagi turli bosqichlarni ta’riflovchi to‘siqlar va faol holatlarni ko‘rsatadi.

So‘rovnoma metodlaridan biri - bu test yordamidagi sinovdir. Test sinovlar metodi - bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig‘ib olish metodidir. Test savollaridan ko‘zlangan maqsad oz vaqt ichida o‘quvchilarning bilimlarini yoppasiga baholashdir. Test yordamida sinov o‘quvchi yoki o‘qituvchining bilimi, ilmi, ma’naviyati hamda

yoshlarning qaysi yoʻnalish va mutaxassislikka layoqati, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholash imkonini beradi. Soʻrovnomalarda javoblarning taʼrifi va miqdori oldindan nazarga olinmasada, test soʻrovlarda – savollar muayyan tarzda ifodalanib, taklif qilinayotgan javoblardan bir yoki bir nechtasini tanlab olishni nazarda tutadi. Test yordamida soʻroq oʻtkazish yana bir ijobiy tomoni – testni ommaviy tarzda oʻtkazsa boʻladi, chunki bilimni baholash jarayonini kompyuter yordamida avtomatlashtirish mumkin. Bundan tashqari, test savollari va masalalarining oʻziga xos yana bir tomoni shundaki, uning qiska va loʻndaligi, toʻgʻri javobni umumiy javoblar ichida borligi va ularning oʻquvchilarga koʻrsatma boʻlib hizmat qilishi, uning javobni topishda nafaqat bilim, balki diqqat, xotira, sezgirlik va topqirliklar qoʻl keladi. Test sinovlarni oʻtkazishda oʻquvchi-talaba va oʻqituvchi orasidagi noxush psixologik toʻsiqlar yoʻqoladi. Barcha oʻquvchi-talabalarga beriladigan imtihon sharoitlari vaqti, variantlarning murakkablik darajasi, baholash mezonlari deyarli bir xil boʻlishiga erishiladi. Test savollari oʻquvchilarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi. Test sinovini oliy, oʻrta va oʻrta maxsus oʻquv yurtlariga reyting nazoratlarida qoʻllash ijobiy natijalar bermoqda. Test natijalarini avtomatlashtirilgan holda ishlab chiqish amalga oshirildi, oʻquvchilarning qaysi fandan bilimlarining past yoki yuqoriligini baholash va uni darhol muassasaning oʻzida tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Test sinovlarini ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi berilayotgan savollar shakli va mazmuniga bogʻliq boʻladi.

Biografik (tarjimai hol) metodi. Inson psixikasini tadqiq kilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti toʻgʻrisidagi ogʻzaki va yozma maʼlumotlar biografik metod orqali oʻrganiladi. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, oʻzgalar ijodiga bergan baholari, taqrizlari alohida oʻrin egallaydi. Shu bilan birga oʻzgalar tomonidan toʻplangan tarjimai hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, xujjatli filmlar, taqrizlar oʻrganilayotgan shaxs haqida toʻla tasavvur etishga xizmat qiladi. Tarjimai hol maʼlumotlari inson psixikasidagi oʻzgarishlarni kuzatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan oʻrganib boʻlmaydigan jihatlarini ochishda yordam beradi. Biografik

ma'lumotlar odamlarning o'zini o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora egishi(o'zining uslubini yaratishi, kamolot cho'kqisiga erishish jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

Sotsiometrik metod. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi, Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatida kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Tadqiqotning sotsiometrik metodi sharoitga muvofiqlashtirilgan kichik guruhlardagi shaxslararo munosabatni o'lchash usuli hisoblanadi. Bu usulda sinaluvchilarga bevosita savollar beriladi va ularga ketmaket javob qaytarish orqali guruh a'zolarining o'zaro tanlash jarayoni vujudga keltiriladi. Maktabgacha tarbiya muassasalari maktabdagi o'quvchilar jamoasi, mehnat lagerlari, oliy maktablar, mehnat jamolari va turli muassasalarning xodimlari o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari, dinamikasi, shaxslararo ziddiyatlarning sababi shu metod yordamida o'rganiladi. Umuman olganda, sotsiometriya metodidan turli yoshdagi, ikki xil jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatlarni tadbiq etishda unumli foydalanish mumkin.

Bolalar ijodini o'rganish – bunda o'quvchilarning o'ziga xos faoliyatlariga, shaxsiy bilim, malaka va qobiliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, muayyan xulosalar yasaladi. Har bir inson bu bir katta mo'jiza va bir dunyodir. U hayotga kelishi bilanoq xudo, tabiat bergan, ota-ona qoni bilan kelgan nafaqat o'z tashqi ko'rinishi, balki qobiliyatlari, intilishlari bilan boshqalardan farqlanadi. Shunga qarab har bir o'qituvchining vazifasi – bolaning o'zini nimalarga tortilishini topib, shu xislatlarni shakllantirish va rivojlantirishini ta'minlab berishi darkor. Bolalarning qaysi ijodga mansubligini aniqlashda pedagogik tadqiqotlar va tahlillar o'tkaziladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun ularning turli daftarlari, tutgan kundaliklari, bayon va insholari, yozilgan ertak, hikoya va she'rlari, to'qilgan mato va tikilgan kiyim – bosh kiyim – oyoq kiyimlari, chizilgan rasmlari va ishlagan fotosur'atlari, tuzilgan asbob-uskunalari va apparat yoki mashina-mexanizmlarning maketlari, matematika formulalarni echishga yangicha yondoshuvlari, fizika – ximiya – biologiyadan o'tkazilgan tajriba-sinovlari, ona

yurtimizning turli joylariga sayr qilishlari, arxeologik qazishlarga ishtirok etishlari, tarixiy meros va yodgorliklarimizni astoydil o‘rganishlari, majlis va munozaralarda so‘zga chiqishlari va sahnada she‘r aytish va spektakl qo‘yishlari, musiqa bilan shug‘ullanishlari, jismoniy tarbiya va sport biron turi bilan mashg‘ulotlari, sataroshlik, o‘yni bezatish, pazandachilikka o‘rinishlari, o‘ydagi hayvonlari, bog‘i va polizlariga qarashlarini o‘rganishi hizmat qiladi. Bolalar ijodini o‘rganish, tahlil qilish va baholash uchun mamlakatimizda tugalmaydigan ravishda har bir maktabdan tortib respublika miqyosigacha ko‘p fan va san‘at olimpiadalari, tanlov va festivallar, konsert va ko‘rgazmalar, musobaqa va ijodiy uchrashuvlar o‘tkaziladi. Bularning natijasi yoshlar orasidan qobiliyatli, salohiyatli, zukko, bir ishga ixlos qo‘ygan, intilishlari zo‘r o‘g‘il va qizlarimizni aniqlab olishdir. Bu aynan tadqiqotchi pedagoglarning ishidir. Keyingi bosqichda yoshlarning iste‘dodlarini o‘stirish uchun har bir ta‘lim muassasida dastur, reja, moddiy va ilmiy sharoitlar tuzilgan, maxsus maktablar va to‘garaklar ishlamoqda.

Statistika ma‘lumotlarini tahlil qilish metodi – respublikamizda har bir tashkilot va ta‘lim muassasasining o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Davlat xalq xo‘jaligi rejalariga asoslanib, ta‘lim muassasalari ajratilgan kapital mablag‘larning doimiy o‘sib borishi, maktab binolari va ularning jihozlari, kabinet, kompyuter xonalari va laboratoriyalari, muassasa xududi, sport maydoni va stadionlari, kutubxonalari, darslik va o‘quv qo‘llanmalari va ko‘rgazmali qurollarini ko‘payishi, yaxshi saqlashi va ta‘mirlashi, o‘quvchi-talabalar soni, o‘qituvchi kadrlar soni va ilmiy darajalari, muassasa qurilishi, xo‘jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag‘larni o‘rnatilgan tartibga ko‘ra tasarruf etishi qonun va qonun osti hujjatlarda belgilab qo‘yilgan. Bularning hammasi – davlat, jamiyat, xalq nazoratida bo‘lib va ishni doimo yaxshilash uchun statistik ma‘lumotlarni jamlash va aniqlash tashkiloti orqali aniqlanadi. Tadqiqotchi pedagog uchun statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish – ta‘lim-tarbiya jarayoniga bularning alohida qaysi biri yoki majmua holatda ta‘sir ko‘rsatishini aniqlash va pedagogik jamoaga tavsiyalarni berish ko‘rsatib o‘tilgan.

Matematika-kiberietika metodi – Ta‘lim-tarbiya nazariyasi hozirgi kunda hisoblash matematikasi va kibernetika mashinalari yordamida o‘zining ko‘p ilmiy

tadqiqotlarini olib bormoqda. Tadqiqotchi pedagoglar o'zining ilmiy ishlarida dasturli ta'lim, o'qitishni mustahkamlash, reyting va testlar orqali baholash, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim berish, maktab hisobotini mashinalar yordamida tuzish va mashina orqali boshqarish to'g'risida ko'p qimmatli tavsiyalar bermoqda. Bundan tashqari, har bir ta'lim muassasasidagi kompyuterlarda o'quvchi-talabalar to'g'risida kerakli ma'lumotlar mavjud. Masalan, o'quvchi-talabalar shart-sharoitlarni, yutuq va kamchiliklarni bilish, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy sifatlar darajasi, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, professoro'qituvchilarning o'qitish darajasi, o'quv qo'llanmalarning sifati, kompyuter bilan mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish, qo'llanilayotgan testlar muhimligi, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlar turi, talabalar stipendiyasi miqdori, otaonalarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, o'quvchi-talabalarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, mutaxassis bo'lib etishida hal qiluvchi omillar, o'quvchi-talabalarning onglik darajasi jarayoni, komil inson bo'lish uchun kerakli bo'lgan ma'naviy sifatlar, komillikka erishish uchun tezroq qutulish kerak bo'lgan salbiy sifatlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati haqidagi o'quvchi-talabalarning fikrlari va munosabati kabi masalalar kompyuterlarda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi. Bundan maqsad, barcha o'quvchi-talabalarni bilim, saviya, aqliy salohiyati, ruhiy va jismoniy salomatligi, hozirgi ehtiyojlari va dunyoqarashlarini ilmiy o'rganish hamda vaqtida kerakli tajriba va amaliyotlar o'tkazishdir.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Abu Nasr Forobiyning "Baxt-saodatga erishuv" asarini mutolaa qiling va allomaning quyidagi qarashlarini yozma bayon eting:
 - a) insoniy kamolotga erishuvda aqliy bilishning ahamiyati.

- b) irodaviy fazilatlarni shakllantirish va odatga aylantirishda inson qudrati, ta'lim va tarbiyaning kuchi haqida
 - c) yoshlarning kasb-hunar va ish-tajribani egallashi to'g'risida.
2. Yosh davrlar pedagogikasi fanining vujudga kelish sabablarini ko'rsating.
 3. Turli davrlarda psixik rivojlanish haqidagi talqinlarning mohiyatini yoritib bering.
 4. Fanning predmeti, nazariy va amaliy vazifalari nimalardan iborat? Uning istiqboli haqida nima deya olasiz?
 5. Yosh davrlar pedagogikasida tadqiqotlarni tashkil etish va ilmiy metodlari haqida ma'lumot bering.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Yosh davrlari pedagogikasi nimani o'rganadi.

- a) shaxsning komil inson sifatida kamol toptirishning qonuniyatlari va turli yosh davrdagi odamlarda namoyon bo'ladigan psixik faoliyat, holat va shartsharoitlarining o'zaro ta'sir xususiyatlarini o'rganish va inson shaxsini kamol toptirishda ta'lim va tarbiya berishning qonuniyatlarini o'rganishda qo'lga kirgan ilmiy dalillarini ta'lim-tarbiya sohalariga tadbiiq etishni tashkil etadi.
- b) Inson ruhiyatining rivojlanish davrlarini aniqlash, shu sohadagi ma'lumotlarni to'plash;
- c) Ontogenezdagi turli yosh davrlari psixik tarakkiyotining umumiy konuniyatlarini, psixik rivojlanishini hamda psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

2. Yosh davrlari pedagogikasining vazifalari nimalardan iborat.

- a) Maktabda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash konuniyatlarini, bu jarayonda sodir bo'ladigan individual tafovutlarni, o'quvchida faol, mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir;

b) Shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davrdagi odamlarda namoyon boʻladigan psixik faoliyat, holatlar va shart-sharoitlarning oʻzaro taʼsiri xususiyatlarini oʻrganishdir;

c) Inson hayot yoʻlining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlarini oʻrganish.

3. “Pedagogik psixologiya” - bu

a) Taʼlim-tarbiyaning shaxsga samarali taʼsir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini oʻrganuvchi fandır;

b) Psixik taraqqiyotning umumiy konuniyatlarini, psixik rivojlanishini hamda psixik xususiyatlarini oʻrganuvchi fandır;

c) Inson uzoq umr koʻrishining sirlarini – gerontopsixologik qonuniyatlarni ochish va targʻib qiluvchi fandır.

4. “Pedagogik psixologiya” fanining muhim vazifalari nimalardan iborat.

a) Psixik jarayonlarning namoyon boʻlishi va rivojlanishini oʻrganadi;

b) Inson bilish faoliyati rivojlanishi, unga oʻzini qurshab turgan borliqni yanada chuqurrok aks ettirishdan iborat;

c) Maktabdagi taʼlim jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqarishdan iborat.

5. Inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmi tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi hakida qimmatli maʼlumotlarni bizgacha koldirgan donishmand kim?

a) Yusuf Xos Xojib;

b) Abu Ali Ibn Sino;

c) Abu Rayhon Beruniy.

6. Yosh davrlar pedagogikasi” fanining metodlarini aniqlang.

a) Tabiiy metod, maʼlumotlarni toʻplash, kuzatish, laboratoriya metodi, qonuniyatlarni qoʻllash;

- b) Suhbat metodi, test metodi, ma'lumotlarni qayta ishlash, psixologikpedagogik eksperiment, qonuniyatlarni amalda qo'llash, anketa metodi;
- c) Kuzatish metodi, eksperiment, psixologik-pedagogik eksperiment, anketa metodi, suhbat metodi, test metodi, biografik (tarjimai hol) metodi, sotsiometrik metod.

2-mavzu:Shaxs shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati

- 1. Shaxsni shakllantirish jarayonida sport pedagogikasining ahamiyati.**
- 2. Jismoniy tarbiya va sportning shaxs shakllanishiga ta'siri.**
- 3. Rivojlanish tushunchasi, odamning rivojlanishi, jismoniy va psixik rivojlantirish, ularning birligi va xususiyatlari.**
- 4. Shaxs rivojlanishi jarayonida ta'sir etuvchi omillar.**

Tayanch tushunchalar: Individ, individuallik, jismoniy tarbiya, jismoniy mashq, jismoniy sifatlar, jismoniy bilimlar, psixologik rivojlanish, filosofik rivojlanish, rivojlanish, tarbiya, tashqi muhit, irsiyat,sport.

Shaxsni shakllantirish jarayonida sport pedagogikasining ahamiyati.

Rivojlanish iborasi eng avvalo inson tanasi (gavda) a'zolarining ilk holati va uning o'sish (rivojlanishi) darajasi bilan bog'liqdir. Bu asosan biologik, fiziologik, biokimyoviy, psixologik, jismoniy tarbiya kabi keng qamrovli tabiiy va maxsus jarayonlarning hosilasidir.

Rivojlanish - inson organizmidagi miqdor va sifat o'zgarishlari jarayonidir. Rivojlanish natijasi - insonni biologik tur va ijtimoiy mavjudot sifatida voyaga etishi. Insondagi biologik tur jismoniy rivojlanish bilan tavsiflanadi, morfologik, bioximik, fiziologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy rivojlanish esa, psixologik, ma'naviy, aqliy rivojlanishda ko'rinadi.

Agar inson, uni ongli, mustaqil faoliyatga layoqatli deb atashga imkon beruvchi darajada rivojlasa, uni shaxs deb ataydilar. Inson shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, balki rivojlanish jarayonida shaxs bo‘lib etishadi. Shaxs tushunchasi - bu insonning ijtimoiy tavsifnomasi, u ijtimoiy munosabatlar, boshqa odamlar bilan muloqot qilish ta‘sirida shakllangan xususiyatlarini ko‘rsatadi. Shaxs sifatida inson ijtimoiy tizimda maqsadga yo‘naltirilgan va puxta o‘ylab chiqilgan tarbiya yordamida shakllanadi. Shaxs, bir tomondan - ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi orqali, ikkinchi tomondan, jamiyatga moddiy va ma‘naviy boyliklarni berishi orqali aniqlanadi.

Shaxs bo‘lish uchun, inson faoliyatda va amalda tabiat in‘om etgan va hayot hamda tarbiya orqali shakllangan o‘z ichki xususiyatlarini ko‘rsata olishi lozim.

Insonning rivojlanishi - o‘ta murakkab, uzoq davom etuvchi va ziddiyatli jarayon. Bizning organizmimizda butun hayotimiz davomida o‘zgarishlar bo‘lib turadi, lekin asosan insonning jismoniy va ichki dunyosi bolalik va o‘smirlik chog‘larida faol o‘zgaradi. Rivojlanish miqdoriy o‘zgarishlarning oddiy yig‘indisi va pastdan yuqoriga bo‘lgan to‘g‘ri chiziqli harakat emas. Bu jarayonning e‘tiborli tomoni - shaxsning jismoniy, psixik va ma‘naviy tomonlarini miqdoriy o‘zgarishlarga o‘tishi. Insonning rivojlanishi tabiiy boshqarib bo‘lmaydigan jarayondir, rivojlanish hayot shart-sharoitlariga bog‘liq emas.

Hayotga juda sekin ko‘nikadigan hayvonlardan farqli ravishda inson yashash uchun kerakli vositalarni o‘z mehnati bilan yaratadi.

“Individ” - nima? Bola ma‘lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ (lotincha “individuum” so‘zidan olingan bo‘lib, “bo‘linmas”, “alohida shaxs”, “yagona” ma‘nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik - esa shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o‘rganish, uning yashash sharoitlaridan etarli darajada xabardor bo‘lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim quyidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash quyidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviyaxlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholini, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talabalariga mos shart – sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli va sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 3031 – son qarori)

Har qaysi davlat, har qaysi millat unib o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqning azaliy orzu va intilishlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi.

Shaxs tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati muhimdir.

Har bir inson jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish avvalo oiladan boshlanadi. "Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanib turuvchi kishi davolanishga kamdan – kam muhtoj bo'ladi" deb yozgan edi Abu Ali ibn Sino.

O‘quvchi yoshlarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va hayotturmushga layoqatli bo‘lib etishishida barcha fanlar kabi jismoniy tarbiya fani, sport turlari, sayohatlar, xalq milliy o‘yinlari muhim o‘rin tutadi.

Jismoniy rivojlanish deganda tananing barcha a‘zolari sog‘lom, harakatlarni ixcham va tez bajarishini tushuniladi. Bu o‘z navbatida chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, chidamlilik, egiluvchanlik kabi qator jismoniy sifatlardan tarkib topadi. Ular ertalabki gimnastika, jismoniy tarbiya darslari, sport mashg‘ulotlari (trenirovka), sport musobaqalariga tayyorgarlik va unda qatnashish yo‘llari bilan rivoj topadi.

Jismoniy jihatdan rivojlanish, barkamol avlod bo‘lib etishishida inson tanasidagi barcha faoliyatlar (funksiya) va ularni tarbiyalash pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Jismoniy rivojlanishning shiddatli (keskin) davri, maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi davrga to‘g‘ri keladi va butun maktab yoshi davri davomida davom etadi.

Amaliyotda jismoniy rivojlanganlik ko‘rsatkichlari degan iboraga duch kelamiz. Bu inson badanining a‘zolarini bichimini o‘lchami bo‘lib, shug‘ullanuvchilarni yoki individning jismoniy rivojlanishi haqidagi antropometrik ma‘lumotlar tarzida ro‘yxatga olinadi.

Jisman rivojlanishning yo‘nalishi, xarakteri, darajasi, shuningdek, inson o‘zida kamol toptiradigan fazilatlar va qobiliyatlari turmush sharoiti va tarbiyaga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Jisman rivojlanish qonunlarini egallash, ulardan o‘z jismi tarbiyasi maqsadlarida foydalanish – jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining muhim vazifasidir.

Jamiyatdagi ijtimoiy sharoit jismoniy rivojlanishini hal qiluvchi omilidir. Omillar orasida mehnat bilan tarbiya jarayonining roli, ayniqsa jismoniy tarbiyaning roli muhimdir.

Jisman rivojlanishga erishish uchun “jismoniy tarbiya” deb atalmish maxsus yo‘naltirilgan va tashkil qilingan faoliyatdan foydalana boshlandi.

Jismoniy tarbiya –pedagogik jarayon bo‘lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan. Mana shu ta’rifda jismoniy tarbiyaning insonni tarbiyalashning mustaqil turi sifatidagi o‘ziga xosligi ta’kidlab o‘tilgan.

I.G.Pestalotsii bolalarning “vujudini tarbiyalash”ni astoydil yoqlab chiqqan bo‘lib, shaxsning barcha jismoniy kuchlari va imkoniyatlarini o‘stirishni ularni jismoniy jihatdan tarbiyalashning maqsadi deb, bolaning harakatga, o‘ynashga, bir joyda o‘tirib qolmaslikka, hamisha harakatda bo‘lishga majbur qiluvchi tabiiy intilishini jismoniy tarbiyaning asosi deb hisoblaydi.

I.G.Pestalotsii inson shaxsini kamolotga etkazishda jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat beradi va uni shaxsning o‘shiga oqilona ta’sir ko‘rsatishning birinchi turi, deb hisoblaydi.

P.F. Lesgaft jismoniy bilim berishni, jismoniy tarbiyaning kengaytirilgan ma’nosi deb tushuntirgan. Lekin Lesgaftning jismoniy tarbiya haqidagi ta’limotning asosiy g‘oyasi tom ma’nodagi jismoniy ta’lim g‘oyasi edi.

P.F. Lesgaft jismoniy tarbiya jarayonida bolalar ayrim harakatlarni ajratib olishlari va ularni o‘zaro taqqoslashni, ularni ongli ravishda boshqarishni va to‘siqlarga moslashtirishni, bu to‘siqlarni iloji boricha chaqqonlik va qat’iyat bilan o‘tishni (engishni), boshqacha qilib aytganda, iloji boricha kamroq vaqt mobaynida oz mehnat sarflangan holda, ongli ravishda eng ko‘p jismoniy ish qilishni, yohud ko‘rkam va g‘ayrat bilan harakat qilishni o‘rganishlari kerak, deb hisoblardi. Bu erda gap, bir tomondan, to‘g‘ri harakat ko‘nikmalarini hosil qilish haqida, ikkinchi tomondan, harakatlarni bajarishga ongli munosabatda bo‘lish negizida ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatning turli tasavvur hamda mahoratni qaror toptirish haqidagi bormoqda.

Jismoniy tarbiya jarayonida hamisha ham tarbiyaviy, ham ta’limiy elementlarning mavjudligi uni bir butun pedagogik jarayon deb qarashga olib keladi.

Qayd qilingan elementlar qo'yilgan vazifaga qarab, har biri alohida ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Jismoniy tarbiya – abadiy kategoriyadir, shu ma'nodaki tarbiyaning bu yo'nalishi jamiyat paydo bo'lgandan beri mavjud bo'lib, bunday tuzum ham ijtimoiy ishlab chiqarishning va inson hayotining zaruriy shartlaridan biri sifatida davom etaveradi (A.D. Novikov, 1959).

Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu asosan jamiyatda inson jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qila olishligi va ayni paytda uning ma'naviy kamolotiga ham kuchli ta'sir ko'rsata olishligidadir.

Millat kelajagi haqida qayg'urgan Abdulla Avloniy ham bola tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan tarbiya jarayonini uch qismga bo'lgan edi : “Badan tarbiyasi” va “Axloq tarbiyasi”.

Zero A. Avloniy “Badan tarbiyasi”ni birinchi o'ringa qo'ygani bejiz emas. Bunda, “Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, sog'lom tana lozimdir. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar ko'p yaxshi ishlarga qodir bo'la olmaydilar. Fikr tarbiyasi uchun mustahkam va sog'lom vujud kerakdir”, deb bejiz ta'kidlanmagan.

Shunday ekan, sog'lom va barkamol bo'lish uchun sog'lom turmush tarziga rioya qilish jismoniy faollikni yanada oshirish va bu harakatlarni bugundan boshlashimiz har bir inson uchun foydalidir. Mazkur xususiyat jismoniy tarbiyaning barchaga barobar umumiy qo'llaydigan xususiy belgisidir. Lekin jamiyatning real hayotida konkret tarixiy sharoitlardan tashqarida bo'lgan jismoniy tarbiya umuman yo'q. Har bir ijtimoiy - iqtisodiy formatsiyada jismoniy tarbiyani amalga oshirishning konkret tarixiy tipi rivoj topadi.

Jismoniy tarbiyada sport tayyorgarligi, organizmning funksional imkoniyatlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan, yuqori sport natijasi

kishilarning jismoniy tayyorgarligini baholash kriteriyasiga aylanadi va jismoniy tarbiyaga mo'ljal sifatida juda keng qo'lamda qo'llaniladi.

Tadqiqotchilar insonning rivojlanishini o'rganib chiqib, bir tomondan rivojlanish jarayoni va uning natijalari o'rtasidagi qonuniy aloqalar, ikkinchi tomondan - ularga ta'sir etuvchi sabablarni ifodalovchi qator muhim bog'liqliklarni aniqladilar. Rivojlanish omillarini tahlil qilish antik (antichnie) olimlardan boshlangan. Pedagogika va psixologiyada maktab o'kuvchilarining rivojlanishini o'rganishda P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, G.S.Kostyuk sezilarli natijalarga erishganlar.

Uzoq davom etgan tadqiqotlar umumiy qonuniyatni insonni rivojlanishi ichki va tashqi shart-sharoitlarga bog'liqligini ochib beradi. Ichki sharoitlarga organizmning fiziologik va psixik xossalari kiradi. Tashqi sharoitlar - bu inson yashayotgan va rivojlanayotgan muhit. Tashqi muhitning o'zaro ta'siri jarayonida insonning ichki dunyosi o'zgaradi, yangi o'zaro munosabatlar shakllanadi, bu esa o'z navbatida o'zgarishlarga olib keladi va bu benihoya davom etaveradi. Tashqi va ichki, ob'ektiv va sub'ektiv munosabat turlicha bo'ladi, u shaxsning hayotiy faoliyatining turli shakllardagi ko'rinishi va rivojlanishining turli bosqichlariga bog'liq.

Jismoniy tarbiya va sportning shaxs shakllanishiga ta'siri.

Jismonan va ma'nan etuk inson bo'lib etishish g'oyalarining shakllanishida nafaqat G'arbda, balki Sharqda ham o'ylashgan, masalan Zardushtilik ta'limoti va uning muqaddas kitobi "Avesto"da shaxsning jismoniy va ma'naviy rivojlanishi bo'yicha qimmatli fikrlar talqin etilgan.

Jismoniy etuk va ma'nan barqaror, komil inson bo'lib shakllanish borasidagi fikrlarni rivojlanishida Imom Buxoriy, At Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning xizmatlari beqiyosdir.

Jismoniy tarbiya asosida esa insonni jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan komil insonni kamol

toptirish, uning qobiliyatlarini va harakat faolligini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish kabilar yotadi. Demak, jismoniy tarbiyalash yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama etuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonni jismoniy imkoniyatlarini rejalashtirishga, uning jismoniy tarbiya sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayondir.

Jismoniy tarbiyada komil shaxsni shakllantirishda etakchi tushunchalarga quyidagilar kiradi:

shaxsni jismoniy rivojlantirish shaxsni jismonan tayyorlash:
shaxsga jismoniy tarbiya berish shaxsdaga jismoniy madaniyat va sport malakalarini o‘rgatish shaxsni jismoniy kamolotga etkazish.

Yuqorida sanab asosiy tushunchalar, jismoniy mashq, jismoniy sifatlar, jismoniy bilimlar tushunchalari asosiy tushuncha deb hisoblanmaydi? Tegishli faoliyatni to‘g‘ri aks ettiradigan barcha tushunchalar esa shaxsni jismoniy tarbiyasining asosiy, eng muhim sifatlari umumlashtirilib ko‘rsatilgan tushunchalaridir.

Jisman rivojlanish inson organizmining asta-sekinlik bilan tabiiy shakllanishi – tashqi ko‘rinishini va uning xizmatining o‘zgarishi jarayonidir.

Inson hayotning birinchi etti yilligida bolalar sog‘lig‘ining asosiga zamin tayyorlanadi, hayotiy zaruriy harakat malakalari shakllanadi, takomillashadi, keyinchalik jismoniy rivojlanish uchun lozim bo‘lgan shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Rusiy zamon olimlarimiz Shelovanova, Aksariynoy, Sorocek, Uvarov, Bikovlarni tadqiqotlarini natijalari shuni ko‘rsatadiki bolaning jismonan chiniqqan, chaqqon, kuchli bo‘lib o‘sishi uchun o‘z vaqtida to‘g‘ri rejalashtirilgan jismoniy tarbiya jarayoni muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy tarbiyaning ahamiyatini noto‘g‘ri baholash bola organizmini rivojlantirishni susaytiribgina qolmay, uni aqliy rivojlanishiga ham salbiy ta’siri ko‘rsatishini jismoniy tarbiya amaliyoti isbotlab berdi.

Bolaning organizimi tez rivojlana boshlaydi. Lekin organizmning himoya refleksi sust rivojlangan bo‘ladi, nisbatan kasalga tez chalinadi. Shunga ko‘ra bu yoshdagilar jismoniy tarbiyasining vazifasi – ularning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash, chiniqtirish, har tomonlama jismoniy rivojlantirish, gavnani to‘g‘ri tutish, umumiy va shaxsiy gigienaga e‘tibor beradigan qilib voyaga etkazishdir.

Ibn Sino jismoniy mashqlarga katta e‘tibor bergan. Tug‘ilgan kundan boshlab bolaning jismoniy rivojlanishi haqida qayg‘urish kerak deydi. Buyuk bir tabib bola jismidagi har bir a‘zoning salomatligini ta‘minlash uchun lozim mashqlar ishlab chiqqan. Bu mashqlarni tananing holatiga muvofiq bajarish, kamquvvat, zaif a‘zolarini og‘ir jismoniy mashqlar bilan toliqtirmaslikni ta‘kidlaydi. U ishlab chiqqan mashqlar kichik va katta, juda kuchli va zaif, tez va sekin, keskin va tez harakatni taqazo etadigan harakatlarga bo‘linadi.

Pedagogik jihatdan mos keladigan sharoitda jismoniy tarbiya va sport yordamida shaxsda jasurlik, matonat, jur‘atlilik, xaqqoniylik, vijdonlilik, mehnatsevarlik o‘z imkoniyatlariga ishonch va boshqa xislatlar tarkib topadi. Jismoniy tarbiya umumpedagogik jarayonning bir qismi hisoblanadi.

Rivojlanish tushunchasi, odamning rivojlanishi, jismoniy va psixik rivojlantirish, ularning birligi va xususiyatlari.

Har qanday jarayon o‘z natijasiga erishishga qaratilgan qonuniy va izchil harakatlar jamidan iborat bo‘ladi. Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo‘lib uyushtirishni va rahbarlikni ham, tarbiyalanuvchi shaxsning o‘zi faollik ko‘rsatishni ham talab etadi. Chunki u tarbiyaning umumiy maqsadlarini amalga oshirish dasturini ishlab chiqadi, tarbiya formalari, metodlari va usullarini asosli tarzda tanlab oladi va tadbiiq etadi.

Sharqda ham azaldan farzand tarbiyasiga katta e‘tibor bilan qarab kelingan. Ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek “Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot -yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”.

Yurtga, vatanga muhabbat, insonparvarlik tuygʻulari xalqimizning qon - qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab, avaylash va yanada takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik Oʻzbekistonning munosib oʻgʻil - qizlari qilib tarbiyalash masalasi maʼnaviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yoʻnalishini tashkil etmogʻi kerak. Maʼnaviyat tarbiyaning eng taʼsirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, tarbiyalanuvchilarni vatanparvarlik, rostgoʻylik, xalqsevarlikka oʻrgatish kerak boʻladi. Aslida olganda axloq maʼnaviyatning oʻzagi. Inson axloqi shunchaki salom - alik xush muomaladagina iborat emas. Axloq bu insof va adolat tuygʻusi, imon, halollik deganidir.

Qadimda ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir ahloqiy talablar majmuasini zamonaviy tilda aytsak, sharqona ahloq kodeksini ishlab chiqqanlar.

Sharq tarbiyasida islom dinining roli muhimdir. “Islom dini-bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham ahloq, ham diyonat, ham maʼrifat ekanligini unutmaylik. Ana shu maʼrifatli kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladigan va yaxshi oʻgʻitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli boʻlishiga izzat-ehtiram tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar”. Islom dini har qanday davrda ham insonlarni poklikka undagan, yaxshi xislatlarni koʻpaytirib yomon xislatlardan xalos etishga chorlagan.

Pedagogika tarbiyalanuvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun zarur boʻlgan eng samarali shart-sharoitlarini oʻrganadi va aniqlaydi. Bu masalani hal qilish uchun avvalo “shaxs” degan umumiy tushunchaning maʼnosini va shaxsning rivojlanish qonuniyatlari, rivojlanishning koʻrsatkichlarini shaxsning shakllanishida ayrim muhim omillar rolini bilish, individning rivojlanish jarayoni bosqichlarini aniqlash, shaxsni shakllantirishda taʼlim-tarbiyaning shaxs aktivligi rolini oʻrganish kerak boʻladi.

Birinchi galda rivojlanish tushunchasining maʼnosini ochib berish lozim. Bu masalaga filosofik, psixologik, jismoniy jihatdan baho berish bilan asoslanadi.

Filosofiya rivojlanishi - tabiat, jamiyat va tafakkurning xususiyati deb quyidan yuqoriga tomon bo‘lgan harakat deb, yangining tug‘ilishi va eskining yo‘q bo‘lishi yoki tubdan o‘zgarishi deb hisoblaydi.

Shuning uchun pedagogikada shaxsning rivojlanish jarayoniga inson shaxsini takomillashtirishning murakkab va ziddiyatli yo‘li deb qaraladi.

Murakkab bo‘lgan tushunchani tahlil qilinganda turli olimlar turli xususiyatlarni asosiy tomonlar deb ko‘rsatib kelganlar. Aql, hissiyot va irodani shaxsning uch asosiy tomoni deb ajratib ko‘rsatish eng dastlabki o‘rinishlardan edi. Keyinchalik pedagog olimlar shaxsni o‘rganishga boshqacha yondasha boshladilar. Shaxs doim bir butun, murakkab hodisa bo‘lib unda insonning biologik xususiyatlari ham, ijtimoiy xususiyatlari ham gavdalanadi. Bir shaxsda uning hamma tomonlari, xususiyatlari ham sifatleri bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi. Bu bog‘lanishlar nihoyatda xilma-xil bo‘lib, turli kishilarda turlicha sodir bo‘ladi. Ba’zan ular birbiriga zid va o‘zgaruvchandir

Psixologik rivojlanish - kishining har bir sifati, masalan irodasi, xotirasi yoki xarakter xususiyati uning qanday tilak va orzular bilan yoki boshqa sabablar bilan kirishganiga qarab mutlaqo har xil ahamiyat va qimmat kasb etadi. Xayol boyligi kishining ijodiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan qimmatli xususiyatdir ammo, odam xayolida o‘ylab turgan narsalarini amaliy faoliyatida ro‘yobga chiqarmasa, bu xayol boyligi salbiy xususiyat bo‘lib qoladi. Musiqaga qobiliyati bo‘lgan kishi uni yaxshiroq o‘rganish uchun intilmasa va mehnat qilmasa, uning qobiliyati o‘smaydi.¹

Turmushda kishi o‘zidagi ba’zi zaif tomonlarni, odatlarni kuchliroq sifatleri bilan qoplashga harakat qiladi. Biror narsani uncha tez tushunib ololmaydigan odam astoydil harakat qilib va zo‘r berib uni tushunib oladi va mehnatini to‘g‘ri tashkil etadi. Har bir kishi juda ko‘p odamlar bilan xilma-xil munosabatlarga kirishganda o‘zining turli xususiyatlerini namoyon qiladi.

¹ Очилова Г.О., Мусаханова Г.М. “Педагогика” Тошкент. ТДИУ, 2005 йил.36-бет

SHaxsning eng barqaror va ahamiyatli xislatlari uning boshqa odamlarga, mehnatga, Vatanga boʻlgan turli munosabatlarida ifodalanadi. Bu xislatlar kishidagi ayrim psixik jarayonlarning kechish xarakterini ham koʻp jihatdan belgilab beradi.

Oʻquvchi yoshlarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va hayotturmushga layoqatli boʻlib etishishida barcha fanlar kabi jismoniy tarbiya fani, sport turlari, sayohatlar, xalq milliy oʻyinlari muhim oʻrin tutadi.

Jismoniy rivojlanish - tananing barcha aʼzolari sogʻlom, harakatlarni ixcham va tez bajarishini tushuniladi. Bu oʻz navbatida chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, chidamlilik, egiluvchanlik kabi qator jismoniy sifatlardan tarkib topadi. Ular ertalabki gimnastika, jismoniy tarbiya darslari, sport mashgʻulotlari (trenirovka), sport musobaqalariga tayyorgarlik va unda qatnashish yoʻllari bilan rivoj topadi.

Jismoniy jihatdan rivojlanish, barkamol avlod boʻlib etishishida inson tanasidagi barcha faoliyatlar (funksiya) va ularni tarbiyalash pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Rivojlanish - inson organizmidagi miqdor va sifat uzgarishlari jarayonidir. Pedagogika fani shaxsni biologik va ijtimoiy xususiyatlari oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlgan bir butun narsa deb hisoblaydi. Kishining yoshi, sogʻligi, kasalligi, uning faoliyatidagina emas, balki turmush tarziga ham taʼsir qiladi. Lekin shaxsning butun qiyofasini belgilab beradigan unga oʻz jismoniy kamchiliklarini xarakteridagi salbiy xususiyatlarni yoʻqotish kuch bagʻishlaydigan sabablar, qiziqishlar, maqsadlar, yaʼni ijodiy hayot natijalari hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Shaxs tushunchasi ijtimoiy foydali faoliyatda qatnashishga ehtiyoj sezishini va aktiv ishtirok etishini har bir kishining boshqa odamlar bilan munosabatda boʻlishi ehtiyojini, bu munosabatning mazmuni va formalarini, shaxs bilan uning atrofidagi kishilar oʻrtasidagi munosabatlar tizimini, uning tabiatga tevarak atrofdagi dunyoga munosabatini shaxsning asosiy xususiyatlari deb ajratish mumkin. Shaxsning koʻp sohali va har tomonlama faoliyatida turli xil odamlar bilan aloqada shaxsning hamma qiziqishlari namoyon boʻladi, uning odamlarga umumiy ishga, oʻz malakasiga oʻziga boʻlgan munosabatlari shakllanadi. Biroq shaxs ijtimoiy turmush mahsuli boʻlish

bilan birga tirik organizm hamdir. Organizmning hayoti biologik qonunlarga bo'ysunadi. Birinchi galda nerv sistemasining xossalari mavjudga keltiradigan temperament xususiyatlari tufayli insonning butun xulq-atvori alohida xarakterga ega bo'ladi.

Shaxsning tarkib topishi va xulq-atvorida ijtimoiy va biologik jihatlar munosabati nihoyatda murakkab bo'lib, kishi tarakqiyotining turli davrlarida uning boshqa odamlar bilan bo'lgan aloqalarining turli vaziyat va ko'rnishlarida har xil keskinlikda namoyon bo'ladi.

Shaxsga avvalo uning ijtimoiy qiyofasiga, kishining o'z atrofidagi odamlar hayoti bilan bog'liq holda ifodalanadigan qiyofasiga qarab baho beriladi, kishi tevarak atrofidagi odamlar bilan xilma-xil munosabatlarga ba'zan o'ziga bog'liq bo'lmagan munosabatlarga kirishib o'zining mohiyatini namoyon qiladi. Shaxsning barcha xislatlari atrofdagi kishilar bilan munosabatida shakllanadi. Shaxs odamlar orasidan tashqarida yashay olmaydi va shakllanmaydi.

Hozirgi davrda shaxsni ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash davlat siyosatining bosh mezoni hisoblanadi. Shaxs rivojlanishiga to'g'ri yondashish uchun shaxsning tabiatini, tuzilishini uning xulq-atvorini va unga ta'sir ko'rsatish vositalarini bilish zarur.

Shaxs rivojlanishi jarayonida ta'sir etuvchi omillar.

Tug'ilgan inson shaxs bo'lib shakllanishi lozim. Bu jarayon bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi va muayyan qonunlarga bo'ysunadi. Odatda shaxs shakllanishi uchun uchta asosiy omillar tan olinadi. Bular **irsiyat, atrof-muhit va tarbiyadir**. Ushbu omillarning hech biri vaziyat va sharoitlarga bog'liq bo'lmagan holatda mustaqil ravishda shaxs shakllanishiga ta'sir eta olmaydi. Bundan tashqari ba'zi omillar faolroq, muntazamroq ta'sir ko'rsatadi va kishilarning ongli irodasiga bo'ysunadi boshqalari esa boshqarilishi qiyin bo'lgan omillardir. Ba'zi omillarning ta'siri stixiyali ravishda sodir bo'ladi va shaxs tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ayrim kishilarning irodasiga, tashkilotsizlik qobiliyatlarida va boshqalarda bog'liq bo'lmaydi.

Tarbiyaga shaxsni uning his-tuyg'ularini xarakterini, jismoniy rivojini, xulqatvorini muayyan yo'nalishda shakllantirish maqsadida kishilar bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy hodisa deb qarash lozim. Pedagogika sohasining etuk olimlari ijtimoiy omilning hal qiluvchi ahamiyatiga ega ekanligini himoya qiladilar, shaxs yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi. Balki, tarbiyaning ta'siri ostida yaxshi yoki yomon bo'lib o'sadi deb isbotlaydilar. Xo'sh shaxs tarbiyasi uchun ta'sir etuvchi omillar qaysilaridan iborat? Bu asosan uchta omilni tashkil etadi. Biologik omil, atrof - muhit va tarbiyadagi omillardan iboratdir.

Biologik omil. Bu omilning ta'sirini avvalo shuning uchun e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydiki, shaxs tirik organizmdir, uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga ham, yoshlar anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga ham bo'ysunadi. Hayotning muayyan davrlarida shaxsning ayrim organlari va butun bir organlar sistemasining tuzilishida va funksiyalarida o'zgarishlar yuz beradi. SHaxsning sog'lik holati va bu holat ko'p yoki oz muddat buzilib turishi biologik omilga taalluqli. Shaxs hayotida nerv faoliyatining individual va tipologik xususiyatlari, yosh va jinsiy jihatdan bo'lgan tafovutlar katta rol o'ynaydi, ular oldida irsiy emas, balki tug'ma xususiyat va tafovutlardir. Organizmning biologik etilishi qonunlarga asoslanadi. Bu qonun muhitning ba'zi bir tarbiyaviy ta'sirlariga turli darajada bo'ysungan holda amal qilishi kerak. Lekin shaxs organizmining biologik hayoti uning psixik rivojlanishini bevosita belgilab bermaydi va shu bilan birga, unga nisbatan mutlaqo betaraf va befarq hodisa bo'lib ham qolmaydi. Biologiyaning asosiy tushunchasi bo'lgan irsiyatning roli olimlar tomonidan jiddiy muhokama qilinib kelinmoqda. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ota-ona organizmining uzoq muddat bir xil sharoitda yashash natijasida mustahkam o'rinish qolgan xossalari irsiyat yo'li bilan o'tadi.

Muhit. Biologiya fani muhitni organizm yashaydigan joy deb, muhitning ta'siri esa organizm bilan bog'liq muhit o'rtasidagi assimiliyasiya va dissimiliyasiya yoki moddalar almashish qonuni asosida amalga oshadi, deb tushuntiradi. Bu qonunga binoan organizm yashab turgan muhit bir butun narsadir. Tabiiy muhit yorug'lik,

issiqlik, ovqat, havo kabi komponentlari shaxsning organizm sifatida rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Ammo shaxsning shaxs sifatida shakllanishi uchun bu mutlaqo etarli emas. Shaxsning yashab turgan muhitida odamlar, birinchi navbatda tarbiyalanuvchiga yaqin kishilar, ya'ni oz sonli oila a'zolarigina emas, balki unga uzoqroq bo'lgan kishilar uning qo'ni-qo'shnilari, mahallasi, tarbiyalanuvchilar bog'chasidagi o'rtoqlari, so'ngra esa u birga o'qiydigan o'ynaydigan, birga ishlaydigan, turli aloqada bo'ladigan o'rtoqlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Hozirda tarbiyalanuvchilar ommaviy axborot vositalari orqali o'zlariga notanish avlod-ajdodlarning jonli obrazlariga duch keladilar. Bu obrazlar yosh avlodning fikr va hislariga uning voqea-hodisalariga beradigan baholariga va intilishlariga ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sir ijobiy yoki salbiy o'tadigan birdan-bir yo'l shaxsning tevarak - atrofidagi odamlar bilan munosabatda bo'lishidir, shaxs munosabatda bo'lgan kishilar uning muhitidir. Shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'ziga xos modda almashish tipi bo'lgan aloqa orqaligina shaxs o'tmish - avlodlarining qimmatli tajribasini o'zlashtira olishi eng yaxshi katta kishilardan namuna ola bilishi mumkin.

Faqat munosabatda tarbiyalanuvchilarning tarbiyachilari-kattalarga emas, balki tarbiyalanuvchilarning o'zlari ham faol qatnashadigan mana shu aloqadagina, faqat ana shu ikki yoqlama jarayondagina shaxs xilma-xil bilim oladi juda ko'p malakalarni va ish usullarini egallaydi, o'zining sezgi organlari orqali idrok qilgan narsalarini anglab olishga tashqi dunyodagi voqea va hodisalarga turli xil histuyg'ular fikr va tasavvurlar bilan javob berishga o'rganadi.

Odamlar bilan munosabatda u nima yaxshiyu nima yomonligini nimani qilish va qilmaslikni bilib oladi, u muayyan maqsad ko'zlab aqlga muvofiq tutishni hamda insonlarga va ularning fe'l-atvorlariga tanqidiy baho berishni o'rganadi. Odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida shaxs yaxshi fazilatlar bilan boshqa shaxslar o'rtasida ajralib tura boshlaydi, o'zi yashab turgan jamiyatda qabul etilgan ahloq me'yorlarini boshqalarga va o'ziga nisbatan qo'llab, ularni o'z ishida mezon qilib ola boshlaydi. Demak, **birinchidan, muhit shaxsni rivojlantiruvchi omil** sifatida tarixan

o'zgaruvchi ijtimoiy hodisadir, chunki muhit, hatto shaxs dunyoga kelgan dastlabki kunlardanoq uning hayoti o'tadigan eng tor muhit ham, ya'ni shaxsning oilasi ham jamiyatning bir uyasi, hujayrasidir. Tarixiy taraqqiyotning har bir davrda yangi kishini tarbiyalashning maqsadlari va vositalari o'zgaradi, ahloq me'yorlari, madaniyat boyliklari, katta yoshdagi odamlarning did va qiziqishlari, fikr yuritish usullari o'zgaradi.

Ikkinchidan, tarbiyalanuvchi o'z aktivligi tufayli, moddiy, tabiiy va ayniqsa ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqaga kiradi. Faqat ana shu sharoitdagina muhit o'sib kelayotgan shaxsni rivojlantiruvchi omil bo'lib qoladi. Inson tarbiyasida muhit muhimmi yoki tarbiya degan savolni qo'yish mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Bu narsa g'ayriqonuniydir. Ammo muhit shaxsga ma'lum darajada tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatgan taqdirdagina rivojlantiruvchi omil bo'la oladi. Bu ta'sir stixiyali, tartibsiz ko'rinishda bo'lishi mumkin, bunday holda shaxsning rivojlanishi ham ma'yuviy maqsadga qaratilmagan bo'ladi, natijada shaxsda jamiyat uchun ham, shaxsning o'zi uchun ham zararli bo'lgan shaxsiy fazilatlar vujudga keladi.

Tarbiyalanuvchining o'z atrofidagi moddiy va ijtimoiy muhit bilan aloqada bo'lishi, uni rivojlantiruvchi asosiy sabab ekanini tushunish munozarali bir masalani, shaxsning psixik taraqqiyotida eng muhim narsa biologik omilmi yoki ijtimoiy omilmi degan masalani hal qilish imkoniyatini beradi. Shaxs hayotda va kattalar bilan munosabatda o'z individualligini tashkil etgan jismoniy va psixik sifatlarining butun majmui bilan harakat qiladi. Shunday qilib biologik va ijtimoiy omilni biri-biriga qarama-qarshi qo'ymaydi.

Pedagogikada tarbiyalanuvchining rivojlanishini uning faoliyati va shu faoliyat tufayli yuz beradigan, shaxsning tevarak-atrofdagi voqelikka bo'lgan munosabatlarida, bilish jarayonlari va xarakter xususiyatlarini rivojida hosil bo'ladigan sifat o'zgarishlardan iborat murakkab jarayon deb hisoblaydi. Faoliyatsiz rivojlanish bo'lmaydi. Shaxsdagi rivojlanish mohiyati avvalo shundan iboratki, uning faoliyati o'zgarib va takomillashib boradi, faoliyat turlari (o'yin, o'qish, mehnat va boshqalar) ko'payadi, har xil faoliyat turlarining o'zaro nisbati, ularning natijalari

o'zgaradi va shu o'zgarishlar jarayonida shaxsning rivojlanishi yuqoriroq darajaga ko'tariladi. SHunday qilib, bilish protsesslarida ham tarbiyalanuvchining dunyoga bo'lgan munosabatida ham, uning turli faoliyatida ham murakkab sifat o'zgarishlari sodir bo'ladiki, bu shaxs rivojlanishining mohiyatini tashkil etadi.

Faoliyatning har xil turlarida shaxsning individual xususiyatlari shakllanadi. Bu xususiyatlar faoliyatning maqsadlarida, faoliyatga undagan sabablarda kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirish uchun foydalanadigan yo'l, usul va vositalarni va uning o'z ishiga, o'z faoliyatiga, o'zi va boshqalarning yutuq va muvaffaqiyatsizliklariga qanday qarashida namoyon bo'ladi.

Kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishda foydalanadigan vositalarga qarab ham shaxsga baho berishi mumkin. Bunda odam o'zidagi bilimini, o'zi yaxshi bilib olgan ish usullari, malaka va ko'nikmalarni qo'llaydi, qobiliyatlar ham shaxsning imkoniyatlaridandir. Kishining imkoniyatlari aksariyat hollarda o'zi o'ylaganidan ko'ra, ancha ko'p yoki oz bo'ladi. Talabchanlik darajasi ochiq ifodalangan sabab vaziyatning murakkabligi va masalani hal qilish yo'lini topish zarurligi unda bo'lgan yashirin imkoniyatlarini oshirib ko'rsatadi.

Shaxsning o'zi yutuq va kamchiliklariga munosabati, beradigan bahosi bu boradagi ruhiy kechinmalari ham uning onglilik darajasini ko'rsatadi. O'z yutuqlariga takabburlik yoki kamtarlik bilan baho berish, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda umidsizlanish yoki masalani hal etish yo'lini topishi uchun yana ham ko'proq sabr, matonat bilan harakat qilish bu turli xil ruhiy kechinmalarning hammasi kishining o'ziga va boshqalarga bo'lgan talabchanligini, o'ziga-o'zi baho berishini va bu bahoning qanchalik asosli ekanini har xil tarzda yaqqol namoyon etadi.

Shunday qilib, shaxsning eng muhim xususiyati uning tevarak-atrofidagi dunyoga bo'lgan munosabatlari tizimidir. Kishi qancha ko'p bilsa har - xil odamlar bilan aloqada bo'lib turli xil ishlarda bo'lsa, shaxs sifatida unda o'z mamlakatining fuqarosi, yangi jamiyatning faol quruvchisiga xos eng yaxshi xislatlar shuncha yorqinroq ifodalangan bo'ladi.

Shaxs shakllanishi uchun zarur bo'lgan omillardan yana biri bu tarbiyadir. Tarbiya bu aniq maqsadga yo'naltirilgan, muayyan vazifalar belgilangan, shuningdek, shaxsga ta'sir o'tkazishning aniq yo'l, vositalari ko'rsatilgan va maqsadga muvofiq tashkil etilgan jarayondir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi yosh avlodni xalqning hayotini yaxshilashga, Vatanining gullab-yashnashiga sarflashni biladigan, istaydigan a'zolari qilib tayyorlashdir.

Tarbiya shaxsning rivojlanishini ta'minlashi uchun shaxsdagi rivojlanish mohiyatini tushunish, uning bilish va aloqa boshlash faoliyatining o'zgarish sabablarini aniqlashi zarur. Tarbiyachi shaxsni rivojlantiruvchi eng muhim omilni ham bilishi, stixiyali ta'sir ko'rsatayotgan faktorlarni bartaraf etishi, shaxsda dunyoqarashni shakllantirish, uning o'sishi va rivojlanishining muayyan yosh bosqichlariga oid tarbiya qonunlarini aniqlashi kerak. Tarbiyaning shaxsni rivojlantirishdagi roli to'g'risida turli xil nuqtai nazarlar bo'lganligi pedagogika fanining taraqqiyoti tarixidan ma'lumdir. Pedagogika tarbiya omiliga aktiv rol ajratadi va shaxsning jismoniy, aqliy, ahloqiy va estetik rivojlanishiga to'g'ri tashkil etilgan tarbiyagina yordam beradi. Shu bilan birga tarbiyaga ikki yoqlama jarayon deb qaraladi, unda faqat katta yoshdagilar emas, balki kattalar tajribasini o'zlashtiruvchi shaxslar ham aktiv rol o'ynaydilar.

Tarbiyaviy ishda talabaning kuchi va qobiliyatlarini hisobga olmaslik kabi jiddiy kamchilik ham uchrab turadi. Har bir shaxsning o'z ehtiyoj va qiziqishlari bor. U aqlli tarbiyachining izidan borishi yoki belgilangan yo'nalishda aktiv harakat qilishi, ba'zan esa tarbiyachiga e'tiroz bildirishi, kattalar bilan turli xil aloqada bo'lishi yoki boshqalarga qo'shilmay, passiv holda yurishi mumkin. Tarbiyalanuvchi o'z rivojlanishining ob'ekti va sub'ekti sifatida harakat qilganda bu jarayon eng muvaffaqiyatli boradi. Shu bilan birga shaxsning aktivligi, tashabbuskorligi, mustaqilligi ancha oshadi va uning o'zini o'zi tarbiyalashida namoyon bo'ladi.

Pedagogika fanining asoschisi YA.A. Komenskiy: "Har bir hunarmand buyumni yasashga yaroqli materialning xossalarini o'rgangani singari, o'z oldiga

insonnini barkamol qilib tarbiyalash vazifasi turgan pedagog ham shogirdining qanday xislatlarga ega ekanligini bilishi kerak” - degan edi. Albatta pedagog qaysi fandan dars bersa o‘sha fanni talabalarning shu fanni to‘g‘ri o‘zlashtirishlariga yordam beradigan uslublarni yaxshi bilishlari lozim. Ammo talabaning ehtiyojlari, qobiliyatlari qiziqishlari va ularning chin ko‘ngildan xohlab chidam va matonat bilan o‘qishga tayyormi-yo‘qmi ekanligini hisobga olinmasa, o‘qish qoniqarli natija bermaydi, pedagogning mehnati og‘ir kechadi. Shaxsning fikrlash qobiliyati va xarakter xususiyatlarini nazarda tutgan holda olib borilgan ta’lim talabalarni bilim olishga rag‘batlantiradi, o‘qishning muvaffaqiyatini ta’minlaydi, pedagog va talabalar faoliyatini zavqli ijodiy ishga aylantiradi

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Jismoniy tarbiya va sportning shaxs shakllanishiga qanday ta’siri bor ?
2. Shaxs shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati qanday ?
3. Shaxs shakllanishida jismoniy tarbiyaning vazifasi qanday ?
4. Rivojlanish deganda nima tushunasiz ?
5. Jismoniy va psixik rivojlantirish, ularning birligi va xususiyatlari ?
6. Tarbiya jarayonida yosh xususiyatlarini ta’riflang.
7. Shaxs shakllanish jarayonida qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. “Individ” - nima?

- a) Bola ma’lum yoshga qadar “indiyu” sanaladi. Individ(lotinch “individium” so‘zidan olingan bo‘lib, “bo‘linar”, “alohida shaxs”, “yagona” ma’nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.
- b) Bola ma’lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ(lotinch “individium” so‘zidan olingan bo‘lib, “bo‘linmas”, “alohida shaxs”,

“yagona” ma’nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

- c) Bola ma’lum yoshga qadar “individulal” sanaladi. Individ(lotincha “individium” so’zidan olingan bo’lib, “bo’linmas”, “alohida shaxs”, “yagona shaxs” ma’nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.
- d) Bola ma’lum yoshga qadar “individcha” sanaladi. Individ(lotincha “individium” so’zidan olingan bo’lib, “bo’linmas”, “alohida shaxs”, “yagonalik” ma’nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

2. Individuallik nima ?

- a) Individuallik - shaxsning o’ziga xos xususiyatlari bo’lib, uning namoyon bo’lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o’rganish, uning yashash sharoitlaridan etarli darajada xabardor bo’lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.
- b) shaxsning o’ziga xos xususiyatlari bo’lib, uning namoyon bo’lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o’rganilishidir.
- c) shaxsning o’ziga xos xususiyatlari bo’lib, uning namoyon bo’lishi tarbiya jarayonida axloqning ko’rinishidir.
- d) shaxsning o’ziga xos xususiyatlari bo’lib, uning namoyon bo’lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o’rganish, uning yashash sharoitlarini hamda axloqni tarkib toptirish.

3. Jismoniy tarbiya –bu ?

- a) **Jismoniy tarbiya** –pedagogik jarayon bo’lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo’lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog’liq bo’lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan.

- b) **Jismoniy tarbiya** – texnologik jarayon bo‘lib, inson organizmini funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan.
- c) **Jismoniy tarbiya** – psixologik jarayon bo‘lib, inson organizmini morfologik jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.
- d) **Jismoniy tarbiya** – biologik jarayon bo‘lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy harakat mahoratini, ular bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan.
- 4. Jismoniy tarbiya – abadiy kategoriyadir, shu ma’nodaki tarbiyaning bu yo‘nalishi jamiyat paydo bo‘lgandan beri mavjud bo‘lib, bunday tuzum ham ijtimoiy ishlab chiqarishning va inson hayotining zaruriy shartlaridan biri sifatida davom etaveradi degan olim kim? a. A.D. Novikov**
- b. I.G Pestalotsii
- c. P.F. Lesgaft
- d. YA.A. Komenskiy
- 5. Bolalarning “vujudini tarbiyalash”ni astoydil yoqlab chiqqan olim kim?**
- a) A.D. Novikov
- b) I.G Pestalotsii
- c) P.F. Lesgaft
- d) YA.A. Komenskiy
- 6. “Har bir hunarmand buyumni yasashga yaroqli materialning xossalarini o‘rgangani singari, o‘z oldiga insonni barkamol qilib**

tarbiyalash vazifasi turgan pedagog ham shogirdining qanday xislatlarga ega ekanligini bilishi kerak” - degan edi.....?

- a) A.D. Novikov
- b) I.G Pestalotsii
- c) P.F. Lesgaft
- d) YA.A. Komenskiy

3-mavzu. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o‘rni

- 1. Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisi va unga xos bo‘lgan xususiyatlar.**
- 2. Tarbiyachi shaxsini shakllantirish**
- 3. Tarbiyachi va uning pedagogik mahorati, pedagogik texnikasi, pedagogik qobiliyatlari.**

Tayanch tushunchalar: Tarbiya, tarbiyachi, pedagogik mahorat, pedagogik texnika, bilish qobiliyati, tushuntira bilish qobiliyati, kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati, nutq qobiliyati, diqqatni taqsimlash qobiliyati, kasbiy, shaxsiy, umummadaniy va maxsus kompetensiya.

Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisi va unga xos bo‘lgan xususiyatlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli farmonida ko‘rsatilganidek, maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog‘chalar qurish bo‘yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta’lim muassasalari, jumladan, nodavlat bog‘chalar tarmog‘ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3276sonli qaror misolida) Bu esa tizimda sog‘lom raqobatni shakllantirish hamda ta’lim xizmatlari turini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. "Biz qabul qilayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadiganlar yuqori malakali tarbiyachi va murabbiylardir", deya ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Bu vazifa tarbiyachilardan har tomonlama uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini bo'lgan va bola shaxsini tarbiyalashdek ma'suliyatni o'z zimmasiga olgan tarbiyachilardan avvalo kasbiy, shaxsiy, umummadaniy va maxsus tomondan kasbiy kompetensiya ega bo'lishi lozimligini ko'rsatadi.

Kasbiy kompetensiya

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish;
- O'z ustida ishlash;
- Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish;

O'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;

- AKTni bilishi;
- Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O'z fanini mukammal bilishi; ➤ Xorijiy tillardan birini bilishi.

Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:

- O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
- O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;

Shaxsiy kompetensiya

- Muloqatchanlik
- Bag'rikenglik
- Etakchilik
- Faollik va tashabbuskorlik
- Moslashuvchanlik
- Sog'lom turmush tarziga amal qilish
- Ma'suliyatlilik
- Ishchanlik

- Insonparvarlik
- Samimiylik
- Nazokatlilik.

Umummadaniy kompetensiya

- Ma'lumotli
- Madaniyatli
- Umuminsoniy qadriyatlarga egalik
- Milliy madaniyatga ega bo'lish
- Mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish
- Boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish.

Maxsus kompetensiya

- Faniga doir maxsus metodlarni bilish
- O'quvchilar ehtiyojini bilish
- Turli yosh xususiyatlarini bilish.
- O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish kabi kopetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy etukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarining o'sishiga ko'maklashishda yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi kerak. Uning pedagogik hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Jamiyatimiz hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar bugungi kunda bog'chada, maktabda, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida shakllanayotgan yosh avlod ijobiy

xulq-atvor normalari va qoidalarini, ilmiy bilim asoslarini, kasb, hunar, malaka va ko‘nikmalarni har tomonlama puxta egallab borishini talab qiladi. Davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan bu muhim vazifani amalga oshirishda umumta’lim maktablari bilan bir qatorda xalq ta’limining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan bolalar bog‘chalari muhim rol o‘ynaydi. Ishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachiga bog‘liq.

Tarbiya fangina bo‘lib qolmay, balki san’at hamdir, uni egallash uzoq vaqt davom etadi. O‘zi o‘qiydigan, doimo bilimini oshirib boradigan kishi tarbiyachidir, degan qoida tarbiyachiga ham bevosita taalluqlidir. Doimo o‘zini tarbiyalash bilan, tarbiya ilmi va san’atini egallash bilan shug‘ullanadigan tarbiyachigina haqiqiy tarbiyachi bo‘la oladi. Bu borada allomalardan biri “Bolani tarbiyalash tarbiyachining o‘zo‘zini takomillashtirishidan boshqa narsa emas”, degan edi. Biz shuni esdan chiqarmasligimiz kerakki, tarbiya ob’ekti bo‘lgan bola uzluksiz o‘sadi, yildan-yilga tarbiya sharoitlari o‘zgaradi, bularning hammasi tarbiya ishida murakkab vaziyatlar yaratadi, bu esa tarbiyachidan ijodiy yondashishni talab etadi. Tarbiyachining o‘ziga talabchanligi, o‘zining har bir xatti-harakatini nazorat qilib bora olishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga qo‘ygan talablarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovidir.

Har bir tarbiyachi o‘ziga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni xis eta bilishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga quyayottan talablarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovidir.

Bu talablar:

- Bolaning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash:
- Aqliy qobiliyatlarni o‘stirish:
- Milliy qadriyatlar, ma’naviyatimizning g‘oyaviy- aqliy tamoyillariga mos e’tiqod va qarashlarni tarkib toptirish:
- Ona Vatanga muhabbatni, do‘stlik xissasini, halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish.

Shu bilan bir qatorda bugungi tarbiyachilarning asosiy vazifalaridan biri bolalarning ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirib borish orqali ularda milliy

xususiyatlarni shakllantirib borishdan iboratdir. Bu jarayon esa juda erta boshlanishi lozim. Ya'ni: kichik yosh davri bolalarda oila haqidagi tushunchalarni bola qalbiga ta'sirchan qilib etkazish uchun xalq qo'shiqlaridan alla, erkalatma, ovutmachodardan foydalanish mumkin.

Tarbiyachi bu asoslar mazmunini xuddi farzandiga aytganidek mehr bilan bolalar ongi va qalbiga etkaza olsagina, maqsadga erisha oladi. Bunday mashg'ulotlarga ijodiy yondashib, turli usullarini: hamkorlikdagi o'yin, suhbat, kuzatishni qo'llash mumkin. Masalan, namuna uchun o'rta guruhda o'zbek xalq qo'shig'i "alla"lardan birini yod oldirish mashg'ulotini olish mumkin. Bu mashg'ulotdan maqsad: Alla qo'shig'i haqida ilk ma'lumot berish, u orqali bolalar qalbida oilasiga, onasiga bo'lgan mehrni kuchaytirish.

Katta yosh guruh bolalarga alla qo'shig'i haqida kengroq tushunchalar beriladi. Alla qo'shig'ining inson hayotidagi ahamiyati haqida misollar bilan tushintiriladi va bu bilan alla qo'shig'iga mehr-muhabbat uyg'otiladiki, bu bola o'zligini bilishiga qo'ygan dastlabki qadami bo'ladi. O'rta yosh guruhi bolalariga Ona - Vatan O'zbekiston haqida ilk tushuncha beriladi. Tarbiyachi bolalarda qiziqish uyg'otish uchun Vatan haqida kichik-kichik hikoyalar tuzishi mumkin. Buning uchun bolalarning o'zlariga xos xususiyatlariga tayanish lozim. Demak tarbiyachi Vatan tushunchasi mavhum bo'lib qolmasligi uchun bola biladigan narsalar asosida tushuncha berish kerak. Masalan: buning uchun mashg'ulot mavzusini unga yaqin va aziz inson-onaga bag'ishlash mumkin. "Biz onajonlarimizni juda yaxshi ko'ramiz". Onajonlarimiz bizga nihoyatda yaqin va qadrdon. Ular yonimizda bo'lsalar erkalanamiz, yayrab o'ynaymiz. Dunyoda har bir insonda faqat bitta ona bo'lganidek, Vatan ham bitta, yagonadir. Bizning sevimli Ona-Vatanimiz "O'zbekistondir". Ramziy obrazlar vositasida Vatan mavzusi ifoda etilgan asoslar ham bor. Bunday asoslar bolaning Vatan haqidagi ilk tushunchalarini kengaytiradi. Tarbiyachi bolalar bilan to'g'ri munosabatni o'rganib, bolalar diqqatini asar g'oyasiga qaratadi, unda Ona-Vatanni, ozodligini dunyodagi hech bir narsaga, hech qanday boyligu xuzurhalovatga almashtirib bo'lmasligi kabutar timsolida nihoyatda go'zal

ko'rsatilgan. Bolalar shoiri A.Obidjonning "Keksa arii" she'rida ham ramziy obrazlar misolida Vatan timsoli yaratilgan. Bunday asarlarga bag'ishlangan mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi bolalar diqqatini Vatan tushunchasi naqadar ulug'ligiga, aziz va muqaddas ekanligiga, bu tuyg'u nafaqat insonlarga, hatto nihoyatda kichkintoy jonzodlarga ham xosligiga qaratish lozim. Natijada Vatanni sevish tuyg'usi shakllana boradi. Milliy g'urur va iftihar uyg'onadi.

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg'ulotlarida bog'cha yaqinida joylashgan ko'cha-hiyobonlarda sayir qildirishi, maktab, kutubxona, park va alohida diqqatga sazovor joylar bilan tanishtirish, mahallada yashaydigan mehnat faxriylari, urish qatnashchilari va nuroniy mo'ysafidlar haqida hikoyalar aytish Vatan haqidagi o'git va nasihatlarni eshitish ham maqsadga muvofiqdir.

Katta va tayyorlov yosh davrida ushbu vazifalar davom ettiriladi. Bolalarga Vatanga muhabbat biri ekanligi haqida yanada kengroq tushunchalar beriladi.

Vatanimiz gerbi, bayrog'i, madhiyasi bizning faxrimiz g'ururimiz ekanligi, Konstitutsiyamiz haqida ma'lumotlar beriladi.

Tarbiyachi bolalar bilan do'stona munosabatni chuqurlashtira borib, ular o'zlari yashayotgan shahar yoki qishloq ham Vatanimizning bir qismi ekanligi haqida tushuncha beradi. Payg'ambarimiz hadislaridan birida "Vatanni sevmuqiymondandir" degan hadis bugungi kunda ishoraga aylanganini ta'kidlab o'tadi. Shu bilan ularda adirlar, bog'lar, keng dalalar va ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlar, ekilgan ekinlar ham Vatan bo'lagi va uni sevmuq farz ekanligini tushuntirganda bolalar qalbida o'zlari tug'ilib o'sgan Vatanga, ona-yurtga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ulari yanada kuchayadi.

Tarbiyachi bolalar bilan uzoq hamkorlik va munosabat davomida Vatanga muhabbat tushunchasini shakllantirishda, bu tuyg'u vatanparvarlik xalqparvarlik Vatan uchun ham uchun jon fido etish kabi tushunchalar bilan payvasta ekanligiga alohida e'tibor berish lozim.

Buning uchun nutq o'stirish mashg'ulotlarida o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan:

“To‘maris”, “Shiroq” va boshqa asarlardagi vatanparvarlik bahodirlik fidokor qahramonlar haqida qiziqarli suhbatlar o‘tkazishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Vatan haqida yaratilgan she‘riy va nasriy asarlarni ifodali o‘qib berish, hikoya qilish, yod oldirish, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarda Vatan mavzusida rasmlar chizish, musiqa mashg‘ulotlarida Vatan haqida turli musiqaviy kompozitsiyalar tashkil etish g‘oyat ahamiyatli samaralar beradi.

Milliy ma’naviyatga doir mavzular o‘tilganda: bu mavzular ham avvalgi mavzular kabi suhbat davomida ko‘rgazmali yoritiladi.

Har bir millatning ma’naviyati asrlar davomida paydo bo‘ladi, shakllanadi va yuksaklikka ko‘tarilib boriladi. Insonda milliy axloqiy va umuminsoniy ma’naviyani o‘stirish, uning bolaligidan boshlab milliy ongini tarbiyalash nihoyatda zarur. SHuning uchun oila va maktabgacha ta’lim muassasalarida farzandlarimiz ongiga, zehniga, o‘zbeklarga xos bo‘lgan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, xushfe’llik xayolilik jasorat, mardlik bir so‘zlilik sahiylik mehnatsevarlik insonparvarlik halollik to‘g‘rilik poklik diyonat, sabr-qanoat va boshqa milliy-ahloqiy fazilatlarni singdirishga alohida e’tibor beriladi.

Demak yuqorida keltirilgan sifatlarni tarkib toptirish o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash hamma tomonlarni qamrab ololmaydi.

Lekin tarbiyachi shularga asoslanib bolalarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash ishini ma’lum bir maqsad bilan samarali amalga oshirishi mumkin.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining risolasida shunday yozadi: “Tarbiyachi-ustoz bo‘lish uchun boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun avvalo, tarbiyachining o‘zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak”.

Demak bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishda javobgarlikni taqozo etadi. Shunga ko‘ra tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarga, mashg‘ulotlarga, birgalikda mehnat (mehnat) faoliyatida, ular bilan bo‘ladigan

muomalada, munosabatda, muloqatda ibrat namuna bo‘lishi, bolani har tomonlama diqqat bilan o‘rganishi, uning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlarini bilishi pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarnig xulq-atvori-yu ish natijalarini xaqqoniy baholash va ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olish hamda oilaviy ahvoli bilan qiziqishi zarur hisoblanadi.

Tarbiyachi va uning shaxsi haqida mutafakkirlarimiz ko‘plab fikrlar bildirishgan.

Bu o‘rinda Alisher Navoiyning “Inson zebu ziynati bilan va odobdir

Bularni shogirdlarga singdirilgan chinakam ustozdir”, deb aytilgan hikmatli so‘zlarni eslab o‘tish kifoyadir.

Tarbiyachi shaxsini shakllantirish

Tarbiyachilik mahorati ko‘p qirralidir. Mahorat kasbiy tayyorgarlikdan, nazariy bilim va ish tajribasini doimo oshirib borishdan, bolalarga bo‘lgan muhabbatdan vujudga keladi.

Tarbiyachi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga tabiat jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang‘ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o‘z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo‘lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo‘ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o‘simlik va hayvonlarga nisbatan g‘amxo‘rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalar mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Xalq san’ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san’atni bilish, san’atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalarni ma’lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:

- ✓ Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tarjibasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan kishi bo'lishi kerak.
- ✓ Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa oladigan bo'lishi kerak.
- ✓ Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy ixcham bo'lishi lozim.
- ✓ Ta'lim berishda texnikaviy vositadan samarali foydalana olishi lozim.
- ✓ Bolalar bilim, malaka ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun faollashtiruvchi savollardan foydalanishi lozim.
- ✓ Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirishi, bolalarning hulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi kerak.
 - ✓ Har bir faoliyat uchun kerakli materialni oldindan tayyorlab qo'yishi, yangi bilimni egallagan bilimlari bilan to'g'ri bog'lay olishi va bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar ularning yosh imkoniyatlariga mos bo'lishi va ularni sekin - asta murakkablashtirib borishi kerak.
- ✓ Jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi, ularning faoliyati (o'quv, o'yin, mehnati) mazmunli bo'lishi uchun kerakli materiallar bilan ta'minlashi zarur. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay, bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiradigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi lozim. Kun davomida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak.
- ✓ Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazishi, ularni bolalarga ta'lim-tarbiya berish bo'yicha amalga oshiradigan

ishining mazmuni, metodlari bilan tanishtirib borishi, oila tarbiyasidagi ijobiy namunalardan o‘zining ta’lim-tarbiyaviy ishida foydalanishi lozim.

- ✓ Pedagog bolalarga nisbatan xayrixoh munosabatda bo‘lishi, har bir bola uchun qulay ruhiy sharoit yaratishi, xafa bo‘lsa ovuntira olishi, xursandchilik va xafachiligiga sherik bo‘la olishi, ayniqsa kichik guruh bolalariga nisbatan muloyim, e’tiborli, qat’iy, sabr-toqatli, yumshoq, ozgina hazilkash, bolaning kuch va imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydigan bo‘lishi kerak.

Tarbiyachi bolaga mehr - oqibat bilan munosabatda bo‘lsa, bolalar bilan uning o‘rtasida mehribonlik, g‘amxo‘rlik munosabatlari yuzaga keladi. Bolalar tarbiyachining shaxsiy sifatlarini, bilimi, malakasi, bolalarga munosabati, talabchanligini quyidagicha belgilaydilar: kichik guruh bolalari tarbiyachining ularga bo‘lgan mehr - muhabbatiga qarab (“U meni “quyoncham” deb chaqiradi, uxlashga. yotganimda o‘pib qo‘yadi”), 4—5 yoshli bolalar tarbiyachining bolalar hayotini yaxshi tashkil eta olishiga qarab (“Lola opamiz bizga hikoyalar o‘qib beradilar, biz bilan birga; o‘ynaydilar, shuning uchun men ularni yaxshi ko‘raman , katta guruh bolalari tarbiyachining hamma bolalarga haqqoniylik bilan yaxshi munosabatda bo‘lishi, yaxshi ishlashiga qarab baho beradilar (“U ko‘p narsani biladi, mashg‘ulotlarda o‘rgatadi”).

Eng muhimi — tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar. ***Tarbiyachi va uning pedagogik mahorati, pedagogik texnikasi, pedagogik qobiliyatlari.***

Tarbiyachilik kasbi mamlakatimizda eng sharaflilardan biridir. Bu kasbi o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘ta individualdir. Har bir tarbiyachi muhim hayotiy o‘rni o‘z ishining ustasi bo‘lishdir. Tarbiyachi mahorati uning faoliyatida ko‘rinadi. Tarbiyachi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan

bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari, uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Mahorat - bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada usta bo'lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog'idagina go'zaldir.

Pedagogik mahoratga erishish tarbiyachining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi.

Pedagogik mahorat - yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

Pedagogik bilimdonlik - pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, demak, u etarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo'ladi.

Kasbiy pedagogik bilimdonlikning bosh ko'rsatkichi bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir.

Kasbiy pedagogik bilimdonlik - pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Bilimdonlik tarbiyachi uchun o'ta muhim bo'lgan uchta holat bilan bog'langan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni taqozo etadi:

- *odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda madaniy muloqotda bo'lish;*
- *fani sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va uni o'qitish mazmuniga moslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;*
- *o'quv axborotlarini boshqalarga bera olish.*

Kasbiy pedagogik bilimdonlik asosan to'rtta komponenti bilan xarakterlanadi:

- *shaxsga, insonga yo'nalganlik;*
- *pedagogik voqelikni izchil idrok etish;*
- *fan sohasiga yo'nalganlik;*
- *pedagogik texnologiyalarni egallash.*

Hozirgi ta'lim sharoitida kasbiy pedagogik bilimdonlik yana uch komponent bilan to'ldiriladi:

- *bilimdonlik, umuman, o'z faoliyatini jahon pedagogik madaniyati darajasida ishlab chiqilgan tajribalar asosida tashkil etish qobiliyati, unga va vatanimizdagi pedagogikaga integratsiyalasha olish;*

- *o'z safdoshi tajribasi va innovatsion tajribalar bilan o'zaro samarali munosabat o'rnatish qobiliyati;*

- *o'z tajribalarini umumlashtirish va boshqalarga bera olish malakasida namoyon bo'ladi.*

Pedagogning kasbiy bilimdonligi kreativlik bilan xarakterlanadi.

Tarbiyachilik mehnatining hamma turlari uning ixtisosi, o'quv-tarbiya jarayonining xarakteri, ish sharoitlariga qarab muayyan xususiyatlariga ega.

Pedagogik texnika - bu har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalardir.

Shunday qilib, pedagogning pedagogik texnikasi - bu shunday bir malakalar yig'indisiki, u tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi.

Pedagogik texnika malakalarini yaxlit tarzda qarab chiqish zarur. Xo'sh, bu malakalarning birligini ta'minlovchi umumiy xususiyatlari nimalardan iborat?

Birinchi muhim xususiyati tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan bevosita muomalasidir.

Pedagogik texnika malakalarining *ikkinchi muhim xususiyati* shundan iboratki, ularning hammasi aniq ifodalangan individual-shaxsiy shaklda bo'ladi, ya'ni pedagogning individual psixik va fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi.

Pedagogik texnikaning *uchunchi muhim xususiyati* shuki, pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi malakalar orqali pedagogning ma'naviy va estetik nuqtai nazari tarbiyalanuvchilarga yanada to'laroq ochib beriladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari

Tarbiyachi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dir.

Tarbiyachi faoliyatida ijodiy ishida uning his-tuyg'ulari katta rol o'ynaydi. Tarbiyachilik ishini bolalar, yoshlarga zo'r muhabbatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hamma narsaga beparvolik bilan qaraydigan, behafsala kishi tarbiyachilik faoliyatini tanlay olmaydi, materialni jonli va obrazli qilib bayon eta olmaydi.

Tarbiyachining obro'yi ularning tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish darajasi bilan o'lchanadi. Obro' tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beradi.

Tarbiyachining ijodiy faoliyatida umumiy ilmiy - metodik va ijodkorlikning o'zaro nisbati pedagogika fanidagi qiziqarli va hali hal etilmagan muammolardan iboratdir. Tarbiyachida pedagogik qobiliyat pedagogik faoliyatda asosiy o'rinni egallaydi Ular quyidagilar.

Bilish qobiliyati - barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan tarbiyachi o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlar hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z sport turi sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy- siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi. Tarbiyalanuvchilarda ma'lum fan bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllantirish jarayonida ma'lumotlarni boshqa fanlar (fizika, anatomiya, fiziologiya, geometriya va h.k) bilan bog'lay oladi.

Tushuntirish qobiliyati - bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni tarbiyalanuvchilarga tushuntira olishdir. Bunda tarbiyachining o'quv materialini

tarbiyalanuvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi va namoyish qilishi, tarbiyalanuvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. Tarbiyachi zarurat tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz narsani tushunarli qila oladi.

Kuzatuvchanlik qobiliyati - qisqa daqiqalarda tarbiyalanuvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu tarbiyalanuvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, tarbiyalanuvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixologik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday tarbiyachi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida tarbiyalanuvchi ruhiyatdagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

Nutqiy qobiliyat- ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq. Shuningdek, tarbiyachi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi. Qobiliyatli tarbiyachining nutqi mashg'ulotda hamisha tarbiyalanuvchilarga qaratilgan bo'ladi. Tarbiyachi yangi materialni tushuntirayotgan, tarbiyalanuvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga karatilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi tarbiyalanuvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

Tashkilotchilik qobiliyati- o'quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik tarbiyalanuvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan tarbiyalanuvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z faoliyatini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati- o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql- farosatli, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi- avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Hurmatga ega bo'lish tarbiyachi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga

(dadilliligi, chidamliligi, qat'iyiligi, talabchanligi va h.k) shuningdek, tarbiyalanuvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish ma'suliyatini his etishga, bu ishonchni tarbiyalanuvchilarga ham etkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

Muloqot qilish qobiliyati - muomala va muloqot o'rnatish olish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati, tarbiyalanuvchilarga to'g'ri yondoshish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati- insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'rishda, tarbiyalanuvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

Diqqatni taqsimlash qobiliyati - bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. Tarbiyachi uchun diqqatning barcha xususiyatlari- hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etganligi muhimdir. Qobiliyatli, tajribali tarbiyachi o'z fikrini (yoki tarbiyalanuvchi fikrini) bayon qilishda diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha tarbiyalanuvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurishturishni) ham kuzatib boradi.

Rejalashtirish qobiliyati - o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat tarbiyalanuvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o'quv- tarbiya mazmunini, shuningdek, tarbiyalanuvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

SHuningdek, zamonaviy tarbiyachi o'zida aqli donishlik qobiliyati, iymone'tiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga yo'naltirish qobiliyati va tashabbusga,

ijodga ilhomlantirish kabi qobiliyatlari bo'lishi zarurligi ko'zda tutilmoqda. Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o'rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg'usi va iroda sifatlarining namoyon bo'lishidan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik qobiliyatlar xarakter xislatlari bilan bog'langan. Uyushqoqlik, qat'iylik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasini orttirishga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko'ngilchanlik, adolatsizlik pedagog faoliyati natijalarini pasaytiradi. Yuqorida ko'rsatilgan barcha qobiliyatlar tarbiyachida ham nazariy ham amaliy jihatdan yuqori darajada bo'lishi kerak.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisi va unga xos bo'lgan xususiyatlar qaysilar?
2. Tarbiyachi shaxsini shakllantirishning asosiy yo'llari.
3. Kasbiy pedagogik bilimdonlikning asosiy komponentlari nima?
4. Pedagogik mahorat nima?
5. Kasbiy pedagogik bilimdonlik nimalarda aks etadi?
6. Pedagogik texnika nima?
7. Pedagogik qobiliyatlarning tarbiyachi faoliyatidagi ahamiyati qanday?
8. Bilish qobiliyati va uning tarbiyachi faoliyatida tutgan o'rni qanday?
9. Nutq qobiliyati va uning tarbiyachi faoliyatida tutgan o'rni qanday?
10. Tashkilotchilik qobiliyati va uning tarbiyachi faoliyatida tutgan o'rni qanday?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Pedagogik bilimdonlik nima ?

- a) **Pedagogik bilimdonlik** - sport sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional

foydalanish qobiliyatini koʻzda tutar ekan, demak, u etarli darajada maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashidir.

- b) **Pedagogik bilimdonlik** - pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining insoniyat toʻplagan barcha tajribalardan foydalanish qobiliyatini koʻzda tutar ekan, demak, u etarli darajada faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashidir.
- c) **Pedagogik bilimdonlik** - pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining taʼlim va tarbiya ishida insoniyat toʻplagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini koʻzda tutar ekan, demak, u etarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim boʻladi.
- d) **Pedagogik bilimdonlik** - oʻz sohasida mahorat bilan ishlayotgan kishining barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini koʻzda tutar ekan, demak, u etarli darajada faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim boʻladi.

2. Kasbiy pedagogik bilimdonlik nima?

- a) **Kasbiy pedagogik bilimdonlik** - pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi.
- b) **Kasbiy pedagogik bilimdonlik** - pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yoʻnalishlarini tushunish imkoniyatini taʼminlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.
- c) **Kasbiy pedagogik bilimdonlik** - pedagogik jarayon mantigʻining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda koʻra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yoʻnalishlarini tushunish imkoniyatini taʼminlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashdir.
- d) **Kasbiy pedagogik bilimdonlik** - jarayon mantigʻining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda koʻra olish, tizimning rivojlanish qonuniyatlari va

yoʻnalishlarini tushunish imkoniyatini taʼminlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashdir.

3.Tashkilotchilik qobiliyatiga xos boʻlgan matnni toping.

- a) **Tashkilotchilik qobiliyati** - bilim, malaka va koʻnikmalarni maʼlum bir izchillik bilan egallab borishlari uchun onsondan qiyinga qarab tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tushuntirib berish.
- b) **Tashkilotchilik qobiliyati** - tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, tarbiyalanuvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bogʻliq psixologik kuzatuvchanlikdir.
- c) **Tashkilotchilik qobiliyati** - nutq yordamida oʻz shugʻullanuvchilariga imoishora vositasida oʻz fikr tuygʻularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Tarbiyachining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuz jihatdan yorqin, ifodali hishayajonli boʻlishi lozim.
- d) **Tashkilotchilik qobiliyati** - jamoalarini shakllantirish jipslashtirish muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, oʻz ishini toʻgʻri uyushtirishni nazarda tutadi. Jamoalarini shakllantirish bosqichlarini toʻgʻri belgilab olishi va unda olib boriladigan birgalikdagi doʻstona munosabatlar, jipslikni maqsad sari birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olishi lozim.

4.Nutq qobiliyatiga xos boʻlgan matnni toping.

- a) **Nutq qobiliyati**- bilim, malaka va koʻnikmalarni maʼlum bir izchillik bilan egallab borishlari uchun onsondan qiyinga qarab tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tushuntirib berish.

- b) **Nutq qobiliyati** - tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, tarbiyalanuvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq psixologik kuzatuvchanlikdir.
- c) **Nutq qobiliyati** - nutq yordamida o'z shug'ullanuvchilariga imo-ishora vositasida o'z fikr tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Tarbiyachining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuz jihatdan yorqin, ifodali hishayajonli bo'lishi lozim.
- d) **Nutq qobiliyati** - jamoalarini shakllantirish jipslashtirish muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi. Jamoalarini shakllantirish bosqichlarini to'g'ri belgilab olishi va unda olib boriladigan birgalikdagi do'stona munosabatlar, jipslikni maqsad sari birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olishi lozim.

5. Bilish qobiliyatiga xos bo'lgan matnni toping.

- a) **Bilish qobiliyati**- bilim, malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillik bilan egallab borishlari uchun onsondan qiyinga qarab tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tushuntirib berish.
- b) **Bilish qobiliyati** - tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, tarbiyalanuvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq psixologik kuzatuvchanlikdir.
- c) **Bilish qobiliyati** -nutq yordamida o'z shug'ullanuvchilariga imo-ishora vositasida o'z fikr tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Tarbiyachining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuz jihatdan yorqin, ifodali hishayajonli bo'lishi lozim.
- d) **Bilish qobiliyati** - jamoalarini shakllantirish jipslashtirish muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi. Jamoalarini shakllantirish bosqichlarini to'g'ri belgilab olishi va unda olib

boriladigan birgalikdagi do'stona munosabatlar, jipslikni maqsad sari birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olishi lozim.

6. Tushuntira olish qobiliyati qobiliyatiga xos bo'lgan matnni toping.

- a) **Tushuntira olish qobiliyati** - bilim, malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillik bilan egallab borishlari uchun onsondan qiyinga qarab tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tushuntirib berish.
- b) **Tushuntira olish qobiliyati** - tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, tarbiyalanuvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq psixologik kuzatuvchanlikdir.
- c) **Tushuntira olish qobiliyati** -nutq yordamida o'z shug'ullanuvchilariga imoishora vositasida o'z fikr tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Tarbiyachining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuz jihatdan yorqin, ifodali hishayajonli bo'lishi lozim.
- d) **Tushuntira olish qobiliyati** - jamoalarini shakllantirish jipslashtirish muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi. Jamoalarini shakllantirish bosqichlarini to'g'ri belgilab olishi va unda olib boriladigan birgalikdagi do'stona munosabatlar, jipslikni maqsad sari birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olishi lozim.

2 –MODUL: YOSH DAVRLARI

4- mavzu: Yosh rivojlanishini davrlarga bo'linishi.

- 1. Shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlar**
- 2. Yosh davrlariga tasnif.**

Tayanch tushunchalar: shaxs, yosh davrlar, go‘daklik davri, yasli davri, maktabgacha tarbiya yoshi davri, kichik maktab yoshi davri, katta maktab yoshi davri, davrlashtirish, umumiy vazifalar, xususiy vazifalar.

Shaxs rivojlanishida yosh va individual xususiyatlar.

Tarbiyalanuvchilar kattalarga ko‘ra o‘zgacharoq fikr yuritishlari, his qilishlari va yurish-turishlari hammaga ma‘lum. Tarbiyalanuvchidagi o‘shish va rivojlanishning yosh bosqichlari masalasi yuzaki qarashda oddiy masala bo‘lib ko‘rinadi. Ma‘lum bo‘lishicha, bu jarayon bir tekisda bormay, sakrashlar bilan notekis holda borar ekan, har qaysi yosh davrining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari bor. Anatomiya, fiziologiya va psixologiya fanlari sohasida tananing ayrim organlarining rivojlanish qonuniyatlarini ham bu organlar butun sistemasining faoliyatini ham ochib beruvchi g‘oyat ko‘p faktik material to‘playdi. Tadqiqotchilar tananing ayrim organlari va qismlari ko‘pincha bir-biridan o‘zib ketib, o‘zaro kelisha olmay o‘shishi va rivojlanishini ko‘rsatdi. Bu hol shaxsning yoshini davrlarga bo‘lishda alohida qiyinchiliklar tug‘diradi.

Tarbiyachi albatta tarbiyalanuvchini aqlli va odobli qilib tarbiyalashi uchun bor kuch va imkoniyatni ishga soladi. Tarbiya jarayoni haqidagi tasavvurda tarbiyaning inson shaxsini shakllantirishda katta imkoniyatlar va buyuk roli borligini tasdiqlovchi to‘g‘ri fikr bayon etilgan. Ammo bu tasavvur aniq emas. U tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatiladigan ob‘ektning o‘ziga xos xususiyatini, ya‘ni uning rivojlanayotgan, jonli mavjudod ekanligi e‘tiborga olinmaydi. Shaxs doimo tarbiya jarayonning faol ishtirokchisidir. U pedagogik ta‘sirlarni yaxshi qabul qilishi mumkin, biroq ularga qarshilik ko‘rsatishi, ularni qabul qilmasligi ham mumkin. Shaxs tarbiyachining maslahati, iltimosi va topshirig‘ini bajarishni xohlaydi. Tarbiyalanuvchi pedagogning uyga bergan darsini tayyorlashga moyil bo‘lishi kerak. Ularning faoliyati asosan beixtiyor faoliyatdir yoki tabiiy yoki ijtimoiy muhit ta‘siriga berilgan javobdir.

O‘smirlik davrida insonning faoliyatiga ko‘p darajada ichki sabablar tufayli sodir bo‘ladi.

Shunday qilib shaxs rivojlanishidagi uning intellektual qobiliyatlari va ijtimoiy ongi o'sishidagi muayyan bosqichda shaxs o'zi uchun tashqi bo'lgan maqsadlarnigina emas, balki o'z shaxsiy tarbiyasining maqsadini ham anglay boshlaydi. U o'ziga ob'ekt deb qarashga o'tadi. Shaxsning ichki sabablari shaxsning o'z nuqsonlarini yo'qotish va eng yaxshi insoniy fazilatlarni hosil qilish vazifasini o'z oldiga qo'yishining asosidir. Shaxsning o'z bilim va malakasini oshirishi, o'zini-o'zi tarbiyalashi uning ob'ektiv maqsadni o'z faoliyatining sub'ektiv zarur motivi deb anglashi va qabul qilishdan boshlanadi. Shaxs o'z xulq-atvori yoki faoliyatini sub'ektiv ravishda muayyan maqsadga qaratishi ifodasini ongli suratda ishga soladi, ertangi kunning rejasini tuzish masalasini qo'yadi. Bu maqsadning amalga oshirilishida ob'ektiv va sub'ektiv qiyinchiliklar yuz berishi muqarrardir.

Tarbiya san'ati shaxsda o'zini-o'zi takomillashtirishga intilishini mumkin qadar ertaroq uyg'otish va unga o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirish yo'lini ko'rsatib, yordam berishdan iboratdir. Bu ishda pedagoglar, ota-onalar hamma vaqt va hamma joyda kuchli va yaxshi bo'lishni istaydigan shaxsning o'ziga tayanishlari kerak.

Tarbiyalanuvchilarning o'sish bosqichlari asosan uch bosqichda rivojlanib boradi.

O'quv muassasasidatizimli ravishda o'qishga borganidan keyin hayot tarzi butunlay o'zgarib boradi. Endilikda u qiziqarli bo'lmagan ammo kerakli narsalarni bilib oladi. O'qish o'quv muassasasigacha davrda egallashgan hali ilmiy bo'lmagan hayotiy tushunchalarga qator o'zgartirishlar kiritadi.

O'spirinlik yoshining eng xarakterli belgisi-tarbiyalanuvchining katta odamga aylanishi ya'ni balog'atga etishidir. O'spirin xuddi shaxsga o'xshab barcha taassurotlarni jon jahdi bilan o'zlashtiradi, jismoniy va ma'naviy jihatdan voyaga etadi, bo'ysinishini idrok qiladi, undan o'zi uchun kuch va jasorat oladi, lekin o'z kuch qudratining chegarasini o'zi hali bilmaydi. O'spirin nisbatan ko'proq darajada kattalar hayotining ishtirokchisi hisoblanadi, oiladagi ancha ma'suliyatli vazifalar uning zimmasida bo'ladi. Tevarak-atrofidagilar ham o'spiringa nisbatan boshqacha

munosabatda bo'la boshlaydilar. Lekin uning ma'naviy va jismoniy kuchlarini kattalarga tenglashish uchun, o'zining porloq rejalarini amalga oshirish uchun xali etarli darajada aniq emas. O'spirinlik yoshining ichki ziddiyatlari ana shulardan iborat. O'zining jismoniy taraqqiyotini anglash o'spirinda xususiy qadr-qimmatini ta'qid etish istagini, mustaqillik sari intilishni keltirib chiqaradi. O'spirin biron bir darajada o'zini ko'rsatishini xohlaydi. Bularning hammasi uning faolligini kuchaytiradi, ijodiy tashabbuskorligini rivojlantiradi, uni ijtimoiy hayotga olib kiradi, ma'suliyat va burch tuyg'usini oshiradi. Aytib o'tilgan xususiyatlar ukuv muassasasi talabasining ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish uchun o'spirinlik yoshini ayniqsa maqbul qilib qo'yadi. Ushbu davrda ayrim yomon illatlar ham shaxsda borligi yaqqol ko'zga tashlanishi mumkin.

Yoshlik davri-bu shaxs balog'atga etishi va shakllanishining yakunlovchi bosqichdir. Bu eng avvalo mustaqillikning rivojlanishida namoyon bo'ladi. Hali o'spirinlik yoshidayoq shaxsda o'zini qaror toptirishga munosabati bilan o'zining va uning xususiyatlariga katta qiziqish uyg'onadi. Yosh yigit va qiz xuddi o'spirin kabi o'zining nimaga qodirligi bilishini istaydi. Lekin endilikda u erishgan natijada hayotiy timsol haqidagi umumlashgan tasavvur bilan taqqoslangan holda o'z faoliyatini boshlaydi. Yigit va qizlar tafakkurining falsafiy yo'nalishi ularni o'zicha tahlil qilishga, o'zicha kuzatishga va o'zicha belgilashga olib keladi.

Individual xususiyatlar deganda shaxs yo'nalganligi, uning qiziqishlari, xarakteri, uni boshqalardan ajratib turadigan aqliy va harakter faoliyatining barqaror va muhim xususiyatlari tushuniladi.

Shaxs individual taraqqiyotining muhim omillaridan biri uning yoshiga bog'liq bo'lgan hususiyatlaridir. Chunki taraqqiyotning har bir boshqichi o'zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga, yangiliklar va o'zgarishlariga ega.

Yosh davrlariga tasnif.

Bola o'sishi, rivojlanishi turli yosh davrlarda turlicha bo'ladi. Bolaning yoshi, individual xususiyatlarini doimo o'sishda, rivojlanishda bo'lishini hisobga olish

lozim. Shunga ko‘ra bolalarning yosh davrlarini quyidagicha guruhlashtirish qabul qilingan.

1. Tug‘ilganidan 1 yoshgacha-go‘daklik davri
2. 1 yoshdan 3 yoshgacha - yasli davri
3. 3 yoshdan 6-7 yoshgacha - maktabgacha tarbiya yoshi
4. 6-7 yoshdan 11-12 yoshgacha - kichik maktab yoshi
5. 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha - o‘rta maktab yoshi yoki o‘smirlar
6. 15-16 yoshdan 17-18 yoshgacha - o‘spirinlar.

Ma‘lum bir yosh davriga mos bo‘lgan anatomik - fiziologik va psixik xususiyatlar yosh xususiyatlari deyiladi.

Muayyan bola qaysi yosh guruhiga kiradigan bo‘lsa, o‘z rivojlanishida shu guruhdan o‘zib ketishi yoki orqada qolishi mumkin. Tarbiyachini bu yosh xususiyatlarni bilishi o‘z tarbiyalanuvchilarining kuchi va imkoniyatlarini aniqlashi, ularning keyingi rivojlanishini ta‘minlaydigan talablar qo‘yishi imkonini beradi.

Go‘daklik davri (tug‘ilgandan 1 yoshgacha)

Bu davr bola taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega. Bola bu davrda parvarishga muhtoj bo‘ladi. Tug‘ilganda bir qator shartsiz reflekslar bilan tug‘iladi. Uch oylik bo‘lganda buyumlarni farqlaydi, ayrim tovushlar chiqaradi. Bola predmetlar va narsalar olami bilan bevosita tanishadi. Bolaning tashqi olamni bilishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojlari ham ayni shu davrda nomoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham hali yoshiga to‘lmagan bolaga rang-barang o‘yinchoqlar berilsa, ulardan zavqlanadi. Bu bola taraqqiyoti va olamni bilishga intilishi qoniqtirilayotganligidan darak beradi. Bola 6 oylik bo‘lgandan keyingi davrida endi o‘z qo‘llari bilan predmetlarni ushlaydigan, o‘yinchoqlarga intiladigan bo‘ladi, ularning sirlarini o‘rgana boshlaydi, o‘zidagi hissiyotlarni tovush ohanglarida ifodalaydi. 11-12 oyligida atrofdagilarni tanishdan tashqari, aytilishi oson bo‘lgan so‘zlarni talaffuz qiladi. Ushbu davrda boladagi ana shu oddiy ehtiyojlarning qondirilishi va bu ehtiyojlar sevimli onasi, buvisi, otasi davrasida ro‘y berishi yanada ahamiyatlidir.

Yasli davri. (1-3 yosh)

Bu davrni jismoniy o‘shish, yurish davri deb ham ataladi. Turli o‘yinchoqlarni o‘ynaydi. Murakkab o‘yinlarni qiziqib kuzatadi. Bolalar o‘yin orqali bir — birlari bilan aloqa bog‘laydilar, tasavvur fikrlash jarayonlari, nutqi o‘sadi.

Tarbiyachi va oila a‘zolarining mehri, yaxshi munosabati bolaning sog‘lom o‘shishiga bo‘lishiga olib keladi.

Maktabgacha tarbiya yoshi davri. (3-7 yosh)

Bu davr an‘naviy tarzda bog‘cha yoshi deb yuritiladi. Chunki aksariyat bolalar bu davrda maktabgacha ta‘lim muassasalariga boradilar. Lekin shunisi xarakterliki bog‘chaga borolmagan bolalar ham maktabga borgach, o‘zlarining bog‘cha tayyorgarligini o‘tagan tenqurlariga etib oladilar. Demak, bu yosh davrining xususiyati shundaki, bola qanday sharoitda bo‘lmasin, agar uning yonida mehribonlik qiluvchi, to‘g‘ri yo‘l - yo‘riq ko‘rsatuvchi kattalar bo‘lsa, u bu davrga xos hususiyatlar rivojlanadi.

6 yoshli bolalarning ma‘naviy dunyosini boyitish, qobiliyatini o‘stirish, bilish doirasini kengaytirish, ular bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya ishini asosiy vazifasi hisoblanadi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘z aqliy imkoniyatlar chegarasini kengaytirishga bo‘lgan ehtiyojini qondiradilar. Aynan shu davrda bola tilida ishlatiladigan “nega”, “nima uchun?”, “qanday?” savollar va ularga kattalardan olingan asosli javoblar bolaning bilish jarayonlarini takomillashtiradi.

Bu davrda bola o‘zidagi ijtimoiy ehtiyojlarni qondira boshlaydi. Bu ehtiyoj 3 yoshli bolaning tilida “men”, “men o‘zim” kabi so‘zlarni ishlata boshlashi va shu orqali o‘zining eng yaqinlaridan ayri his qila boshlashidan boshlanadi. Bu davrda bola aqliy ham jismoniy jihatdan tez o‘sadi. Tarbiyachilar va ota-onalar bolalarni aqliy, axloqiy va estetik jihatdan to‘g‘ri tarbiyalashga e‘tibor berishlari kerak.

Mamlakatimizda yashovchi har bir bolaga baxtli va quvnoqlikni hayotida ta‘minlash jamiyatimizning eng muhim va eng muqaddas burchidir. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da shunday deyilgan: Maktabgacha ta‘lim bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta‘minlaydi, unda

o'qishga intilish hisini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti - etti yoshgacha etgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Mana shuning uchun ham o'sib, ulg'ayib kelayotgan yosh avlod to'g'risida, ularni o'qitish, tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirish to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilib kelmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshida bo'lgan bolalar uchun, ularning sog'lom va tetik rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlari yaratib berilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, uning organizmi funksiyalarini takomillashtirish, bolaning jismoniy jihatdan mukammal kamol topishini faqat jismoniy tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha tarbiya mutaxassislarida o'tkaziladigan jismoniy tarbiyaning maqsadi bolalardagi turli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ulardagi, kuchlilik, tetiklik, chaqqonlik, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir. Muntazam ravishda o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bolalarning o'sish va rivojlanish jarayoniga ta'sir qilib, ularning sog'ligini mustahkamlaydi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti - etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qati nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi deyilgan. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 2 moddasida. Mazkur maqsaddan kelib chiqib bolalarni jismoniy tarbiyalashning vazifalari quyidagicha deb belgilanadi:

- salomatlikni mustahkamlash va chiniqtirish;
- jismoniy jihatdan baquvvatlantirish;
- shaxsning axloqiy tomondan ijobiy sifatlarini tarbiyalash;
- bolalardagi maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan harakatlarni faollashtirish uchun sharoit yaratish;

➤ asosiy harakat turlarini shakllantirish: yurish, yugurish, sakrash, emaklash va oʻrmlash, irgʻitish, ilib olish, velosipedda uchish, oyoq, qoʻl, bosh harakatlarini rivojlantirish. Saflanish va qayta saflanish;

➤ oʻyin harakatlarini kengaytirish va chuqurlantirish orqali bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish: chaqqonlik, epchillik, ziyraklik, irodalilik, sabrqanoat, kuchlilik.

➤ bola qomatini toʻgʻri shakllanishiga taʼsir koʻrsatish va yassi oyoqlilik kasalligini oldini olishga yordam berish;

➤ faol harakatga nisbatan qiziqishni tarbiyalash;

➤ jismoniy mashq va oʻyinlarning foydasi haqida, asosan gigienik talablar va qoidalar haqida etarli darajada tasavvur va bilimlar berish.

Bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashda kundalik tarbiyani, bolalarni ovqatlantirish rejimi ularni chiniqtirish tadbirlarini belgilashda, oʻyinlar va jismoniy mashqlar tanlashda, bu tadbirlar mezoni aniqlashda bolalarga nisbatan differensial yoʻl tutiladi.

Ularning yosh xususiyatlari, sogʻlomlik darajasi, jismoniy kamoloti va tayyorgarligi, shuningdek, individual xususiyatlari hisobga olinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi jismoniy tarbiya tizimining birinchi asosiy boʻgʻini boʻlib, ular 2 oylik chaqaloqdan to 6 - 7 yoshlik bolalardan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar oilada, bolalar bogʻchalarida tarbiyalanadilar. 1 yoshdan, 3 yoshgacha yaslilarda, 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalar bogʻchasida tarbiyalanadilar. Baʼzi hollarda oilada 7 yoshgacha tarbiyalanadilar.

Bir yoshdan 3 yoshgacha boʻlgan bolalarda sal qiyinroq boʻlgan umumjismoniy mashqlar, jisimli va jisimsiz (toʻp, yogʻoch, gimnastika oʻrindigʻi), asosiy harakatlar (yurish, yugurish, muvozanat saqlash mashqlari, chuqurlikka sakrash), saflanishning eng oddiy mashqlari (aylana boʻylab yurish, bir kolona, sherenga boʻlib saflanishlar), velosipedda yurish, suzishni oʻrganishga tayyorlov mashqlari beriladi. Dasturda bu yoshdagilar uchun kerakli harakatli oʻyinlar va raqs mashqlariga kengroq joy ajratilgan. Olingan oʻyinlar bu yoshdagilar uchun qoidasini

soddaligi gʻolibni aniqlashni osonligi bilan farqlanadi va asosan turli obrazlar timsolida, taqlid tarzida oʻynaladi (qushlar hayvonar vah.k.).

3 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan bolalardagi mashgʻulotlarga oʻrgatiladi, amalda esa uni bolalar faoliyatini tashkillashning “frontal” uslubiyati deb aytishadi. Masalan, bajarilishi kerak boʻlgan mashqni ayrim elementlariga koʻproq eʻtibor beriladi. Uzoqqa uloqtirishni koʻrsatayotib oldin dastlabki holatga, soʻng qolgan elementlarga eʻtibor beriladi. Bu davrda bolalarni tartib va gigiena qoidalariga rioya qilishga, kattalarga hurmat, oʻyin qoidalarini buzmaslik, buyumlarni asrashga oʻrgatish muhimdir. Bu davrda bolalarning boʻyi yiliga oʻrtacha 6 sm, ogʻirligi 1 - 2 kg oʻsadi. Ularning faoliyati asosan oʻyin orqali namoyon boʻladi. SHuning uchun ham oʻyinlarning rang - barang turli boʻlishiga eʻtiborni qaratish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshlariga qarab quyidagi guruhlarga ajratiladi.

- Ilk yoshdagi birinchi guruhi-bir yoshga kirgan bolalar.
- Ilk yoshdagi ikkinchi guruhi- 2 yoshga qadam qoʻygan bolalar.
- Birinchi kichik guruh - uch yoshli bolalar.
- Ikkinchi kichik guruh - toʻrt yoshga qadam qoʻygan bolalar
- Oʻrta guruh - besh yoshga qadam qoʻygan bolalar
- Katta guruh - olti yoshga oʻtgan bolalar
- Maktabga tayyorlov guruhi-etti yoshli bolalar.

Bolalar tez oʻsishlari va rivojlanishlari jihatdan kattalardan farq qiladi. Maktabgacha taʻlim yoshidagi bola har yili boʻyiga 6 sm. oʻsadi, ogʻirligi 2 kg qoʻshiladi. Shu vaqtda bola organizmining har biri funksiyasi ham kuchli taraqqiyot jarayonida boʻladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning idrok qilish jarayonini ulardagi til taraqqiyotiga asoslangan holda tarbiya ishida hisobga olinadi. Shu bilan birga, idrok qilish jarayoni, koʻzga koʻringan aniq narsalar, sezish organlari orqali egallangan narsalar tushunchasi bolalar uchun soʻzlab tushuntirishdan koʻra engilroqdir. Demak, har qanday tushunchani bolalar ongiga etkazish uchun uni koʻrsatmali aniq narsalar yordamida berish tavsiya qilinadi.

Bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashda quyidagi vositalardan foydalanamiz: masalan, o'yinchilar bilan ta'sir etish, havo, suv, quyosh vannalari, uch oyoqli velosiped va aravachalar, jismoniy mashqlardan gimnastika va har xil o'yinlardan.

Bolalar bog'chasida jismoniy tarbiyaning asosiy mazmunini jismoniy mashqlar tashkil etadi. Ular quyidagi jismoniy tarbiya turlaridan iborat bo'ladi:

- Gimnastika
- Harakatli o'yinlar va sport o'yinlari elementlari
- Sport mashqlari
- Oddiy turizm (sayohat)

Bolalar harakatlarni rivojlantirish ishi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilangina cheklanmaydi. Mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarda bolalarning harakat faoliyatlariga ko'p e'tibor berilishi kerak: tarbiyachi bolalar bilan har xil o'yinlar mashqlar o'tkaziladi. Bolalarning ochiq havoda bo'lishlari uchun kun tartibida vaqt ajratilgan. Kun tartibiga qat'iy rioya qilinishini, sayrlar mazmunli, qiziqarli bo'lishini, bolalarning harakatli faoliyatlari tinchroq faoliyat bilan almashinib turishini nazorat qilish lozimdir.

Tarbiyachi mashg'ulotlarning ratsional tashkil etilishiga erishish, mashqlar o'rtasida passiv pauzalar o'tilmasligi uchun zal va jismoniy tarbiya maydonchasida kerakli asbob - uskunalar gimnastika devorlari, skameykalar, gullar, nishonlar, stoykalar, sakrash joylari va shu kabilarning etarli miqdorida bo'lishini ta'minlashi zarur. Tarbiyachi ixtiyorida mayda jismoniy tarbiya qo'llanmalari va inventar koptoklar, tayoqchalar, gardishlar arqonchalar va shu kabilar etarli miqdorda bo'lishi kerak.

Bolalar bog'chasida oyida ikki marta jismoniy tarbiya dam olishlari yilida ikki marta jismoniy tarbiya bayramlari yoz va qishda o'tkazilib, unda bolalar o'z ko'nikmalarini namoyish qiladilar, tezlik va chaqqonlik bo'yicha musobaqalashadilar.

Umumiy ta'lim maktabi o'quvchilarining jismoniy tarbiyasi

“Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayoni biz pedagoglardan maktabda ishlash uchun jismoniy tarbiyaning asosi nimalardan iboratligi, uning mazmuni, tashkil qilinishini, bolalarni harakatga o‘rgatish metodikasini bilishni talab qiladi”.

Maktab yoshidagi bolalarda *jismoniy tarbiya* jarayonining maqsadi astasekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi.

O‘quvchilar jismoniy tarbiyasi jarayonida *umumiy va xususiy vazifalar* hal qilinadi.

Umumiy vazifalar – bilim berish, jismoniy tarbiyalash va sog‘lomlashtirishdan iborat bo‘lib, xususiylari esa jismoniy tarbiyadan davlat ta’lim standarti dasturidagi maxsus vazifalar tarzida hal qilinadi.

Xususiy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- o‘quvchilar organizmining sog‘ligini mustahkamlash, rivojlantirish va chiniqtirish;
- turli xildagi mehnat faoliyatiga tayyor bo‘lish uchun shu yoshga xos bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirish;
- hayot uchun kerakli harakat malakalari va ko‘nikmalarini rivojlantirish va keyinchalik kerak bo‘ladiganlari bilan qurollantirish;
- o‘quvchilarga jismoniy madaniyatga oid yangi bilimlarni berish;
- o‘quvchilarni jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishiga qiziqtirish va unga odatni shakllantirish;
- o‘quvchilarni jismoniy madaniyat faollari qilib tarbiyalash va bu bilan ularda tashkilotchilik qobiliyatini tarbiyalashdek vazifalarni hal qiladi.

Kichik maktab yoshi davri. (6 yoshdan 11 - 12 yoshgacha) bu davr odatda boshlang‘ich maktab davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrning ahamiyatli tomoni shundaki, bolaning bog‘cha yoshi davrida to‘plangan shaxsiy tajribasi, til boyligi, bilish

imkoniyatlari endi tartibga tusha boshlaydi, u ham intellektual, ham axloqan, ham ijtimoiy tomondan rivojlanib ulg'aya boshlaydi. Boshlang'ich maktabda o'qiyotgan bola uchun shaxsiy yutuqlari -o'qishda, sportda, bolalar orasidagi nufuzi va obro'si katta ahamiyat kasb eta boradi.

Bu davrda bolalar o'zlarining qaysi jinsga taaluqli ekanini teran anglab, maktabda "o'g'il bolalar" va "qiz bolalar" guruhi shakllanadi. Har bir guruhning o'ziga yarasha qiziqishlari, mashg'ulotlari bo'lib, qizlarning davrasida bo'lish, masalan, o'g'il bola uchun xattoki noqulay bo'lib qoladi.

6 yoshli bolalarning ma'naviy dunyosini boyitish, qobiliyatini o'stirish, bilim doirasini kengaytirish, ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini asosiy vazifasi hisoblanadi. O'qish bolaning butun hayot tarzini o'zgartiradi va unga yangi talablar qo'yadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy jihatdan tekis rivojlanadilar. Bo'yi 120 sm, og'irligi 25 kg. Nafas yo'li va diafragma bo'sh rivojlanganligi sababli, bu yoshdagi bolalar harakatsiz qolsalar nafas olish sustlashadi, organizmni kislorod bilan ta'minlanishi yomonlashadi. Bu yoshda ular juda harakatchan bo'ladilar.

Harakatchanlik esa to'g'ri, oqilona tashkil etilishni talab etadi.

Jismoniy mashqlarni bajarish protsessida bu yoshdagi bolalarda chaqqonlik, tezlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlari tarbiyalanadi. Ularni anatomikfiziologik xususiyatlarini e'tiborga olganimizda chaqqonlik va tezlik sifatlarini tarbiyalashning imkoniyati ularda boshqa sifatlarga nisbatan ko'proq bo'ladi, aksincha kuch va chidamlilik harakat sifatlarini tarbiyalashga esa extiyotkorlik zarur. Lekin bu sifatlarni rivojlantirish umuman to'xtatib qo'yilmaydi, chunki kuch va chidamlilik elementlari har bir harakat faoliyati uchun zarur, bu sifatlar tarbiyachini xohishsiz ham boshqa harakat faoliyatlari davomida namoyon bo'ladi. yurish, sakrash, uloqtirishdek harakatlar tarkibida bu sifatlar baribir namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga mebel asboblarini bolaga munosibligi, stol va partada to'g'ri o'tirish, ko'rish masofasiga rioya qilish - bolaning jismoniy normal rivojlanishining muhim shartlaridir.

Maktabda o'qish jarayonida bolalar hayotini to'g'ri tashkil etilishi, ishchanlik, intizomlilik, qat'iylik va boshqa fazilatlarni rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Bolalar yaxshi o'qishlari uchun ularda kuzatish qobiliyatini o'stirish kerak. Chunki kuzatish orqali ko'pgina sezilmay qolgan voqea - hodisalar mohiyati ochiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning xotirasi keskin o'sadi. Ularning ba'zilari biron - bir sohada iste'dodli, qobiliyatli bo'lsalar, boshqalari ikkinchi bir sohada iste'dodli bo'ladi.

Taqlid qilishga intilish va tarbiyaviy ta'sirlarga beriluvchanlik kichik yoshdagi o'quvchilar uchun xarakterlidir. Tarbiyachi yaxshi odatlarni tarkib toptirishda ana shu xususiyatdan foydalanishi kerak. Shu bilan birga o'qituvchi tarbiyachilarning vazifasi o'quvchidagi ijobiy sifatlarni vaqtida anglab kamol toptirish, salbiy sifatlarni yo'qotish, iste'dod va qobiliyatlarini rivojlantirish, kamchilik va nuqsonlarni tibbiyot yordamida yo'qotishdan iboratdir. Oila va ta'lim maskanida bolaning axloqiy va ma'naviy tarbiyasi uchun yaratilgan yaxshi shart - sharoit ayni bu davrda o'zining sezilarli samarasini beradi.

O'rta maktab yoshi davri. (11 - 15 yosh) (o'smirlik davri) - eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o'smirlik 11 - 13 yoshni, katta o'smirlik 14 - 15 yoshlarni o'z ichiga oladi.

O'smirlik yoshi tayanch - harakat apparatlarining yanada o'sishi va mustahkamlanishi hamda ichki organlar va organizmdagi chuqur o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bu davr keskin o'zgarishlarga boy bo'lganligi sababli o'smirlar hulqida bir - biriga zid bo'lgan holatlar: goh serharakatchanlik, goh sustkashlik, o'jarlik qilish holatlari uchraydi. O'smirlarda ixtiyoriy diqqat, psixik taraqqiyoti jadal rivojlanadi, xotira shakllanadi, iroda mustahkamlanadi. Lekin bu psixik jarayonlarni hammasi o'z rivojlanishida yuqori darajaga etmaydi. O'smir shaxsining takomillashuvi va shakllanishiga turtki bo'lgan omillardan biri o'quv faoliyati

motivlaridagi sifat o'zgarishidir. Kichik maktab yoshidagi boladan farqli, o'smir endi faqat bilimlar tizimiga ega bo'lish, o'qituvchining maqtovini (maqtashini) eshitish va "5" baholarni ko'paytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida ma'lum ijobiy mavqeini egallash, kelajakda yaxshi odam bo'lish uchun o'qish motivlari ustuvor bo'lib qoladi.

O'smir davridagi qiyinchiliklarni oldini olishni eng ishonchli va foydali yo'li bu uning biror narsaga turg'un qiziqishiga erishishdir. Masalan: shu davrda texnikaga qiziqib qolgan bola qiziqishini qondirish shart-sharoitining yaratilishi, bekor qolmasligiga erishish, har bir harakatini rag'batlantirish, unga bir ish qo'lidan keladigan odamday munosabatda bo'lish katta pedagogik ahamiyatga ega.

Uning qiziqishlarini bila turib, oldiga - yangidan - yangi maqsadlarni qo'yish bola shaxsining rivojiga asosdir. Yaxshi tartibga solingan kundalik rejim, mehnat, bilan dam olishning almashib turishi, o'z vaqtida va yaxshi ovqatlanish bilan to'ldirilishi kerak.

Bu yoshdagi bolalarda mustaqillikka intilish kuchli bo'ladi. O'smir o'zini namoyon qilishga intiladi, u o'zining etukligini ko'rsatish imkoniyatini izlaydi. Tarbiyachilar o'smirning bu intilishini oqilona qo'llash yo'llarini ko'rsatishi va zararli odatlarni mustahkamlanishini oldini olishi kerak.

Ba'zan o'smirlarda kattalar talabini qabul qilmaslik uchraydi. Bu yoshdagi bolalarni bo'sh qo'ymaslik, uni imkoni boricha biron - bir ish bilan shug'ullantirish, qiziqishlarini mazmunli tomonga burish muhimdir.

Demak, o'smir bilan munosabatda sabr - toqatli bo'lish, unga ma'lum darajada mustaqillik berish, uning shaxsini hurmat qilish, kamsitmaslik zarur.

Bu davrda kattalar e'tibor berishlari lozim bo'lgan yana bir holat bor. Bu o'smirning o'zligini ta'kidlash uchun turli zararli odatlarni o'zlashtirishidir. Masalan: o'g'il bolalar sigareta chekish, giyohvand moddalarni iste'mol qilish orqali o'z shaxsini boshqa tengqurlari davrasida uqtirmoqchi bo'ladi. Bu narsa o'ta jiddiy tarbiyaviy muammo bo'lib, oilada yoki maktabda sinfdoshlari orasida o'quv yoki mehnatda o'zidan rozi bo'lolmagan bola ko'pincha ana shunday zararli yo'lni

tanlaydi. Shuning uchun ham kattalardan o‘smirlarga alohida e‘tibor, yaxshi o‘qishi uchun shart -sharoit, uning shaxsiyatiga hurmat talab qilinadi. Ijtimoiy foydali mehnat bilan band qilish, o‘qishdagi yutuqlarini vaqtida rag‘batlantirib turish, hamkorlikda mustaqil ravishda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga o‘rgatish ancha ijobiy natijalar beradi. 12-15 yoshlilarda (5-9 sinflar) jismoniy mashqlar o‘sayotgan yosh organizmga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun jismoniy sifatlarni rivojlanishiga qulay imkoniyatlar ochilgan bo‘ladi. Jismoniy tarbiyaning jismoniy bilimlar berish vazifasihayotda uchraydigan harakat malakalarini ratsional texnikasi bilan tanishtirish (gimnastika, engil atletika, sport o‘yinlari, velosipedda yurish va sport taktikasi)ga oid oz bo‘lsa ham nazariy tushuncha berishdir. Bu davrda bolalarni “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testining talablari va normalarini topshirishga tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish natijasida sport mahoratini oshayotganligini, jismoniy madaniyatni jamiyatdagi roli va ahamiyatini tushuntirish jarayoni yo‘lga qo‘yiladi. Asta sekinlik bilan tashkilotchilik qobiliyati takomillashtiriladi, musobaqa qoidalari o‘zlashtiriladi, hakamlilik qilish malakalari rivojlantiriladi va chiniqtirish maqsadida tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlaridan foydalanishga o‘rgatish lozim bo‘ladi.

Katta maktab yoshi davri (o‘spirinlik davri 16 - 18 yosh.). - yuqori sinfga o‘tgan o‘spirin psixologiyasini o‘ziga xosligi shundaki, u hozirgi paytini, buguni va ertasini kelajak nuqtai nazaridan qabul qiladi. Aynan shu davrga kelib, o‘spirin turli kasblarga qiziqqa boshlaydi.

O‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarda uzoq muddatli va tizimli ta’lim natijasida fikrlash, tanqidiy fikrlash rivojlanadi, dunyoqarashi shakllanadi, bilimlarning hajmi kengayadi. O‘qish va kasb tanlashning ijtimoiy ma’nosini to‘liq anglaydi. Ularning bilishga, sportga va boshqa narsalarga bo‘lgan qiziqishlari qat’iy xarakter kasb etadi.

Bu yoshda bilishga oid jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur, nutq, hayol) yanada rivojlanadi. O‘spirinlar o‘z tuyg‘ularini boshqarishga va ularni tashqi namoyon bo‘lishini tartibga solishga qodir bo‘ladilar. Bu yoshda iroda ham ancha

mustahkamlanadi, sabr - toqat va o'zini tuta bilishlik rivojlanadi, o'zi ustida ishlaydi, turli asarlar bilan tanishadi.

Xarakterli xususiyatlaridan yana biri - o'spirin o'ziga - o'zi baho berishga intiladi, unda xushmuomalalik, odoblilik kabi axloqiy sifatlar takomillashib boradi.

O'qituvchi va tarbiyachilar, o'quvchilarni o'qish, mehnat, o'yin va sport faoliyatlarini, ularning aqliy va jismoniy rivojlanganlik darajasini o'rganib borishi kerak. Bu ma'lumotlar o'quvchilarga pedagogik ta'sir o'tkazish uchun zarurdir.

Tarbiyaviy ta'sirlar samarasi kishining ta'sirchanligi yoki tarbiyaga beriluvchanligiga bevosita bog'liq bo'lib, u shaxsning ijtimoiy tabiatiga ko'ra juda yuqori darajada bo'ladi. Yoshi oshib borgan sari tarbiyaga ta'sirchanlik o'zgarib boradi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, uning tarbiyaga beriluvchanligi shunchalik yuqori bo'ladi, bolaligida tarbiyalangan fazilatlarni katta yoshda buzish ancha qiyin, deb hisoblagan edi K.D.Ushinskiy.

Shuning uchun ham shaxsni shakllantirish, bolaga ta'lim berish uchun ilk yoshdan maksimal foydalanish zarur. Tarbiyada individual xususiyatlarni va pedagogik ta'sirlarga bo'ysunishini hisobga olish kerak.

Shunday qilib, individual xususiyatlar yosh xususiyatlar bilan mustahkam aloqada bo'ladi. 16-18 yoshdagi umumta'lim maktabi, akademik, kasb-hunar litseylari va kollejlarning o'quvchilari organizmi yoshi ulg'aygan sari baquvvatlashadi. Jismoniy tarbiya esa bu jarayonini yanada kuchaytirishga yo'naltiriladi. Jismoniy mashqlar bilan tizimli shug'ullanish ta'lim tizimining shu yoshdagilarida ish qobiliyatini yaxshilash, asosiy harakat faoliyatlari uchun chidamlilik zahiralarni oshirish, o'z tanasini boshqara olish, kuch, tezkorlik, chaqqonlik va boshqa har tomonlama jismonan garmonik tarbiya alomatlarini chuqurlashtirishga e'tiborni qaratadi. Organizm o'sib borar ekan uning funksional imkoniyatlarini oshib borishi ham tabiiy. Oldin egallangan harakat malakalari zahirasi bazasida yangi, keyin egallanishi lozim bo'lgan harakat malakalari uchun poydevor yaratiladi. Bu yoshdagilarda ularning jismoniy madaniyat sohasidagi

bilimlarni boyitish, sport trenirovkasi asoslari, sportchini o‘z - o‘zini nazorat qilishi qoidalariga o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

16-18 yoshdagilar uchun jismoniy tarbiya vositasi qilib asosiy gimnastika (kichik yoshdagilarga nisbatan og‘irroq mashqlar bilan), tanani boshqarish mashqlari, “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testi mashqlari, to‘siqlardan oshish, jamoa bo‘lib o‘ynaladigan harakatli o‘yinlar (osonlashtirilgan qoida) va boshqalar olinadi. Bu yoshda sport o‘yinlariga, gimnastika, engil atletika, rolikli konkida yurish, yugurishdek sport turlarida bolalar yuqori natijalariga erishishlari mumkin. Bulardan tashqari ularda turistik poxodlar, piyoda yurish, krosslarhamda dalada o‘ynaladigan va harbiylashtirilgan o‘yinlar o‘tkazilishi mumkin.

16-18 yoshdagilar uchun (litseylar) asosiy va sport gimnastikasi va boshqa sport turlari vosita bo‘ladi. Umumiy jismoniy tayyorgarligining ko‘rsatkichlari “Alpomish” va “Barchinoy” kompleksi talablari va normalari darajasiga bo‘lishi lozim. Bulardan tashqari sayr va poxodlar uyushtirilishini tarbiya jarayonidagi samarasi katta bo‘lishi mumkin.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. YOsh davrlarini guruhlashtiring.
2. Go‘daklik davriga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni ayting.
3. Yasli davriga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni ayting.
4. Kichik maktab yoshi davriga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni ayting.
5. O‘rta maktab yoshi davriga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni ayting.
6. Katta maktab yoshi davriga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni ayting.
7. O‘quvchilar jismoniy tarbiyasi jarayonida umumiy vazifalar orqali qanday maqsadlar hal etiladi?
8. O‘quvchilar jismoniy tarbiyasi jarayonida xususiy vazifalar orqali qanday maqsadlar hal etiladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Yosh davrlarini nechta guruhga bo‘linadi?

- a) 5
- b) 6
- c) 7
- d) 4

2. Qaysi davrni jismoniy o‘shish, yurish davri deb ham ataladi?

- a) Tug‘ilganidan 1 yoshgacha-go‘daklik davri
- b) 1 yoshdan 3 yoshgacha - yasli davri
- c) 3 yoshdan 6-7 yoshgacha - maktabgacha tarbiya yoshi
- d) 6-7 yoshdan 11-12 yoshgacha - kichik maktab yoshi

3. Qaysi davrda bola tilida ishlatiladigan “nega”, “nima uchun?”, “qanday?” savollar va ularga kattalardan olingan asosli javoblar bolaning bilish jarayonlarini takomillashtiradi.

- a) 6-7 yoshdan 11-12 yoshgacha - kichik maktab yoshi
- b) 1 yoshgacha-go‘daklik davri
- c) 1 yoshdan 3 yoshgacha - yasli davri
- d) 3 yoshdan 6-7 yoshgacha - maktabgacha tarbiya yoshi

4. Qaysi davrda nafas yo‘li va diafragma bo‘sh rivojlanganligi sababli, bu yoshdagi bolalar harakatsiz qolsalar nafas olish sustlashadi, organizmni kislorod bilan ta‘minlanishi yomonlashadi?

- a) 3 yoshdan 6-7 yoshgacha - maktabgacha tarbiya yoshi
- b) 6-7 yoshdan 11-12 yoshgacha - kichik maktab yoshi

- c) 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha - oʻrta maktab yoshi yoki oʻsmirlar
- d) 15-16 yoshdan 17-18 yoshgacha - oʻspirinlar.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshlariga qarab nechta guruhlarga ajratiladi.

- a) 7
- b) 8
- c) 9
- d) 4

6. Bola qanchalik kichik boʻlsa, uning tarbiyaga beriluvchanligi shunchalik yuqori boʻladi, bolaligida tarbiyalangan fazilatlarni katta yoshda buzish ancha qiyin, deb hisoblagan edi qaysi pedagog ?

- a) YA.A. Komenskiy
- b) I.G.Pestolotsii
- c) A.N.Leontev,
- d) K.D.Ushinskiy

5-mavzu. Goʻdaklik davrining oʻziga xos xususiyatlari.

- 1. Prenatal va chaqaloqlik davridagi psixofiziologik xususiyatlar.**
- 2. Goʻdaklik davrida jismoniy va psixik taraqqiyotning kechishi.**

Tayanch tushunchalar: Goʻdaklik, zigota bosqichi, embrion bosqichi, homila bosqichi erta bolalik, bogʻcha yoshi, sensor va intellektual taraqqiyot, maktab taʼlimiga psixologik tayyorgarlik.

Prenatal va chaqaloqlik davridagi psixofiziologik xususiyatlar.

Bolaning ona qornida paydo bo'lgandan tug'ilgunga qadar bo'ladigan o'zgarishlar homilaning prenatal ichki rivojlanishini tashkil etadi. Har bir davr ona qornida bo'lajak farzandning rivojlanish bosqichiga tegishli atama bilan nomlanadi. Ona qornida rivojlanish o'rtacha 38 hafta davom etadi va 3 bosqichga, ya'ni zigota bosqichi, embrion bosqichi va homila bosqichiga bo'linadi.

Zigota bosqichi (1-2 haftalik)

Birinchi haftaning oxiriga kelib, zigota onaning qon tomirlari bilan birlashadi, bu hodisa implantatsiya deb ataladi. Implantatsiya jarayonining tugallanishi uchun ikki hafta kerak bo'ladi, shundan so'ng garmonal o'zgarishlar boshlanadi, bu hayz ko'rishning vaqtinchalik to'xtashiga olib keladi, ayol kishiga bu belgi uning homiladorligidan darak beradi. Zigotaning aylana o'lchamlari 1 mmdan kamroq bo'ladi, uning hujayralari bo'linishni boshlaydi. Homila tanasi murtak diski hujayralaridan rivojlanadi, bu bosqichda murtak diski zigota markazida joylashgan hujayralar to'plami ko'rinishida bo'ladi. Boshqa hujayralar rivojlanayotgan organizmni himoya qiluvchi va oziqlantiruvchi asosli to'qimalarni hosil qilishi zarur. Implantatsiya va hujayrlarning ajralib hosil bo'lishi zigota bosqichining tugallanishi belgilari bo'lib hisoblanadi. Zigota 36 hafta davomida murtakdan bola tug'ilishigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tishga tayyor holga keladi.

Embrion bosqichi (3-8 hafta)


Bu ona qornida rivojlanishning yangi embrional davri odatda murtak hosil bo'lgandan keyin uchinchi haftadan boshlanib, sakqizinchi haftaning oxirigacha davom etadi. Bu vaqt davomida tana tuzilishi va ichki organlar rivojlanadi. Davr boshida embrionda uch qavat hujayralar tiklanadi. Tashqi qavatda - ektodermadon sochlar, terining tashqi qavati va nerv tizimi rivojlanadi. O'rta qavatda mezodermadon, muskullar, suyaklar va qon tomirlari tizimi hosil bo'ladi. Ichki qavatda yoki endodermadon ovqat hazm qilish tizimi va o'pkalar rivojlanadi. Uch haftalik embrion bilan sakqiz haftalik embrion solishtirilganda uning ko'rinishida sezilarli o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. 3 haftalik embrion uzunligi 2

millimetrdan oshmaydi. Hujayralarning darajalarga bo‘linishi boshlanib, organizm ko‘prok salamandrani eslatadi. O‘sinh va rivojlanish tezlik bilan amalga oshadi, 8 haftalik embrionda ko‘zlar, og‘iz, qo‘l va oyoqlarni ko‘rish mumkin, miya va nerv tizimi ham juda tez rivojlanadi, embrion yuragi bir oy avval o‘z faoliyatini boshlab yuborgan bo‘ladi. Embrionda odamga xos organlar u yoki bu shaklda mavjud bo‘ladi, lekin uning o‘lchamlari onaga sezilarli daraja bulmaydi.

Embrionga amnion suyuqligi bilan to‘lgan amnion qobig‘i joylashadi. Amnion qobig‘i embrionni himoya qilib, doimiy haroratini ta‘minlab turadi. Embrion ona bilan ikki tizimcha orqali bog‘langan. Kindik tizimchasi embrionni yo‘ldosh bilan bog‘lovchi qon tomirlaridan iborat. Yo‘ldoshga qon tomirlar kindik tizimchasi orqali onaning qon tomirlarigacha etib boradi, lekin bevosita ular bilan birlashmaydi. Qon kindik qon tomirlarining barmoqsimon o‘simtalari - qilchalar orqali oqadi. Qilchalar ona qon tomirlariga bevosita yaqin joylashgan, bu vitaminlarning o‘tishi, shuningdek, ona qoniga almashinuv mahsulotlarining diffuziya mexanizmi hisobiga ajralish imkonini beradi. Tana qismlari va organizm tizimlari embrional davrda shakllanadi va homila bosqichida o‘z vazifalarini samarali bajara boshlaydi. Tana qismlari va ichki organlar hosil bo‘lishi bilan ona qornida rivojlanishning ikkinchi muhim bosqichi nihoyasiga etadi. Organlarning o‘z vazifasini bajara boshlashi navbatdagi oxirgi bosqichga to‘g‘ri keladi.

Homila bosqichi(9- 38 hafta)

Homila bosqichi oxirgi va eng uzoq davom etadigan bosqich bo‘lib, to‘qqizinchi haftasidan boshlab, tug‘ruq bilan tugallanadi. Bu vaqtda homilaning tana o‘lchamlari kattalashadi va organizm tizimlari faoliyat yurita boshlaydi. 4 oylikdan homilaning og‘irligi 113,4 grammdan 226,8 grammgacha etadi. Oxirgi 5 oyda homilaning og‘irligi 1984,5 grammdan 2268 grammgacha o‘lchamlari kattalashib borishini ko‘rish mumkin.



1. Tuxumdon va urug‘don differentsiatsiyasi
2. Qon tomir tizimining faoliyati
3. Homila harakatining onaga sezilishi.
4. Homila boshida soch qoplanishining hosil bo‘lishi .
5. So‘rish va yutish faoliyati.
6. Bosh miyaning maxsus faoliyati.
7. Homilaning hayotchan davri.
8. Og‘irligini tezda ko‘paytirib olishi.
9. Tug‘ruq.

Bu davrda organizm uchun muhim bo‘lgan nerv, nafas olish va ovkat hazm qilish kabi organlarning shakllanishi tugallanadi.

Bu davrning eng muhim hodisalari quyidagilardan iborat.

- Urug‘lanishdan 5-6 oydan so‘ng homilaning qoshlari, kipriklari va sochlari paydo bo‘ladi. Embrional davrning oxiriga borib, erkak embrionda urug‘don, qiz embrionda tuxumdonlar rivojlanadi. Uchinchi oyda urug‘donda tashqi jinsiy belgilar rivojlanishiga ta’sir ko‘ratuvchi garmonlar sintez qilishni boshlaydi: qiz embrionda bu garmon sintezlanmaydi va o‘xshash hujayralardan jinsiy organlar hosil bo‘ladi.

4 -haftada hujayralar qavati naysimon bo‘lib o‘raladi. Nayning bir uchi kengayib, undan bosh miya hosil bo‘ladi, qolgan kismidan orqa miya shakllanadi. Homila bosqichi boshlanishiga kelib, bosh miya tarkibida turli tuzilmalar bo‘lib, organizm funksiyalarini boshqaradi. Bu bosqichda miyaning barcha sohalarini o‘sishi amalga oshadi, xususan, odam xulk- atvorining ko‘plab muhim turlarini boshqaruvchi bosh miya po‘stlog‘ining xususiyatlari ham rivojlanadi. Bu o‘zgarishlar homilaning

22 va 28 haftalar o'rtasida rivojlanayotgan organlarning ko'pchilik tizimi ishonchli ravishda faoliyat yurita boshlaydi, shuning uchun homila hayotining bu davri homilaning hayotchan davri deb ataladi. Bu vaqtda homila bola ko'rinishini oladi. Vaqtdan avval tug'ilgan bolalarning nafas olish organlarida muammolar tug'ilishi mumkin. SHuningdek, ular tana haroratini doimiy tarzda boshqarib turolmaydilar. CHunki, ularda teri osti qavatidagi yog' qavati mavjud bo'lmaydi .Bu qavat homilaning 8 - oyida hosil bo'ladi. Hozirgi zamon neonatal yordamning imkoniyatlari yordamida erta tug'ilib qolgan bolalar yashab qolishi mumkin. Homila bosqichida xulk -atvor paydo bo'ladi, homilada faollik davri ko'rinadi. Ko'pchilik onalar homila harakatchanligi va tinch vaqtlarini aytib berishlari mumkin. Homilaning ko'z va quloqlari ta'sirlarga javob beradi, yuragi tezroq urishni boshlaydi, ko'zlari yorug'likka pirpirash bilan javob beradi.

Bunday ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, ona qornidagi oxirga oylar homilani mustaqil hayotga, ya'ni, ona organizmidan tashqi hayotga tayyorlab beradi, bu o'zgarishlar homilador ayol o'zining bo'lajak farzandiga sog'lom atrof-muhitni ta'minlagandagina amalga oshishi mumkin.

Sog'lom bola tug'ilishi uchun bo'lajak onalarga vrachlar asosiy 5ta tavsiyani ta'kidlab o'tadilar:

1. Homilador ayol davolovchi vrach ko'rigidan muntazam o'tib turishi, haroyda, homiladorlikning oxirida har haftada vrach qabuliga borib turishi shart.

2. Homilador ayol to'g'ri ovqatlanish tartibiga roiya qilishi shart. Asosiy ozuqa 5ta asosiy mahsulotlar guruhidan: yormalar, meva va savzavotlar, sut mahsulotlari, go'sht yoki dukkakli o'simliklardan tayyorlangan ozuqalar bo'lishi kerak. Barcha vitaminlar, minerallar va temir moddalardan iborat taomlarni tanovul qilishlari kerak.

3. Alkogol va kofein tutuvchi ichimliklarni iste'mol qilish, chekish tavsiyaetilmaydi. Biror bir dori-darmon yoki tibbiy muolajani qabul qilishda avval vrach bilan maslahatlashishlari kerak.

4. Homiladorlik davrida badantarbiya bilan shug'ullanish zarur. Agarhomilador ayol yaxshi jismoniy holatda bo'lsa, tana qo'shimcha og'irlikni ko'tarishda qiyinchilikka uchramaydi.

5. Homilador ayol o'zining toliqib qolishiga yo'l qo'ymasligi, ayniqsa, homiladorlikning oxirgi haftalarida, maxsus mashg'ulotlarga qatnashishi zarur. U erda ayollarni tug'ruqqa va yangi tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilishni o'rgatadilar.

Bola hayotining har bir oyi uning jismoniy va psixik im-qoniyatlarining shakllanishidagi muhim davrdir. Ikki, uch oylik bola ham yangi tug'ilgan chaqaloqdan ancha farq qiladi, uch yashar bola esa o'z taraqqiyoti bilan bir yashar boladan birmuncha ustun turadi. Ilk bolalik davrda bolaning shaxsi, xarakteri, xulqatvori ma'lum darajada tarkib topadi. Shu sababli bolaning ma'lum davrdagi rivojlanishi xususiyatlarini tahlil qilganda, bu rivojlanishning oldingi bosqichlarda qanday bo'lganligini bilish kerak. Bu faqat bolaning rivojlanish jarayonini takomillashtirish va tezlashtirish uchun emas, balki ana shu jarayonning bola kuchiga yarasha va yosh imkoniyatiga mos keladigan bo'lishini ta'minlash uchun ham kerakdir.

Pedagogik tajribalarga va mavjud psixologo - fiziologik tekshirish natijalariga asoslanib maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti quyidagi yosh bosqichlariga ajratiladi. (Bunda bola tug'ilgandan tortib, to maktabda o'qiy boshlaguncha bo'lgan davr hisobga olinadi.)

1. Tug'ilgandan bir yoshgacha: chaqaloqlik davri (hayotining birinchi oyi) hayotining birinchi yili - go'daklik davri.

2. Bir yoshdan uch yoshgacha: ilk bolalik davri.

3. Uch yoshdan etti yoshgacha: maktabgacha bo'lgan davr.

Bola psixikasi taraqqiyotining mana shu ko'rsatilgan davrlari umuman qabul qilingan bo'lsa ham, bu davrlarni absolyut davr deb hisoblash mumkin emas. Yosh davrlariga ajratishda qat'iy chegara yo'q. U hech kim yil fasllarining almashinuv oyi va soatini ko'rsata olmaganidek, odam hayotining davrlari o'rtasidagi chegarani ham

aniq ajratish mumkin emas. Shuning uchun yuqoridagi davrlarga ajratishni absolyut deb bo'lmaydi.

Bola tug'ildi. Ona organizmi bilan anatomik bog'lanish uzilgan bo'lsa-da, bola mustaqil hayot kechira olmaydi, chunki bola ona bilan fiziologik jihatdan bog'langandir, ona uni o'z suti bilan boqadi. U yangi, o'zgacha muhitda yashay boshlaydi. Bola hayotining birinchi kunlari tug'ilganidagi og'irligini yuqotadi. Bunga tashqi dunyo sharoitiga moslashish davrida energiyaning ko'plab sarflanishi sababdir. Bola organizmining, ma'lum vaqt o'tib, tug'ilgan davridagi og'irligiga teng kelishi uning tashqi muhitga, yangi sharoitga moslashganligidan darak beradi. Odatda chaqaloqning og'irligi 10 - 12 kun o'tgach, asli holiga keladi.

Yangi tug'ilgan bola anatomik - fiziologik tomondan hali etilmagan bo'lib, katta kishi organizmidan o'ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Yangi tug'ilgan bola suyak - muskul tizimining tez o'sishi bilan kattalardan keskin farq qiladi. Ularning muskul va muskul to'qimalari juda bo'sh bo'ladi. Muskullar asta-sekin qota boshlaydi. Oldin bo'yin muskullari (bola boshini tuta boshlaydi), keyin tana muskullari (bola o'tira oladi), undan keyin esa oyoq va qo'l muskullari etiladi, predmetlar bilan harakat qilish imkoniyati paydo bo'ladi, bola yura boshlaydi.

Yangi tug'ilgan bolaning suyagida ohak va boshqa tuzlar kam bo'lib, u asosan tog'ay to'qimalaridan iboratdir. Bosh suyaklar bola 2-3 oylik bo'lgandagina bir-biri bilan tutashib ketadi. Bosh suyagining peshona va tepa qismlari tepasida katta liqildoq deb ataladigan oraliq bo'lib, u qalin parda va teri bilan qoplangan bo'ladi. Bu oraliq bir-bir yarim yildan keyingina suyak bilan qoplanib ketadi.

Yangi tug'ilgan bola nerv tizimining yuksak qismi - bosh miya yarim sharlari tashqi ko'rinishdangina kattalar miyasiga o'xshaydi. Aslida chaqaloqning boshi katta ko'rinsada (miya og'irligi butun tananing sakqizdan birini, kattalarda esa qirqdan birini tashkil etadi), hali taraqqiy etmagan bo'ladi. Tanasining umumiy og'irligi 3-4 kilogramm bo'lgani holda, miyaning og'irligi 300 grammdan oshadi. Chaqaloq miyasidagi nerv hujayralari, "ariqchalar" va "izlar"ning soni katta kishilar miyasidan

farq qilmaydi, ammo bola miyasi tuzilish jihatidan bir shaklda bo‘lib, “izlar” aniq ko‘rinmaydi, nerv hujayralari tarmoqlarining miqdori kam bo‘ladi.

Nerv tolalarining bir-biridan etarli darajada ajralmaganligidan tashqi olamdan kelayotgan o‘zgarishlar boshqa nerv markazlariga ham ta’sir etadi, bosh miya yarim sharlarida hech qanday aniq va barqaror o‘zgarish joylari paydo bo‘lmaydi. Uning uchun chaqaloq tashqi qo‘zg‘ovchilar ta’siriga qo‘l, oyoq va boshini tartibsiz harakat qilib javob beradi. Miyaning eng “qadimiy” bo‘limlari nafas olish, qon aylanishi, emish, yutinish kabi jarayonlarni ta’minlaydi. Bu nerv tolalari bolaning yashashi uchun etarli miqdorda (nerv tolasi) mielen qobig‘i bilan qoplangan.

Chaqaloq bola bizga eng ojiz zotdek tuyuladi. Shunga qapamay, xuddi shu yoshning ham kuchli tomoni bo‘lib, bu jihati bilan go‘daklar kattalardan ustun turadi, - deb ta’kidlaydi professor **E. A. Arkin**. Uning fikricha, bolaning kuchi uning o‘shish energiyasida namoyon bo‘ladi. Bola tanasining og‘irligi hayotining birinchi yilida uch barobar ko‘payadi, bo‘yga nisbatan etti oylik bola juda tez o‘sadi va sakqiz oylik bo‘lganda, bo‘yi ikki barobar ortadi, o‘ttiz oyga etganda to‘rt marta ortadi. Bolalar har oyda 2 santimetr o‘sadi. Uning miya og‘irligi har kuni 1,5 grammdan ko‘payadi. Miyaning rivojlanishi sur’ati haqida gapirganda shuni e’tiborga olish kerakki, etti oylik bolaning miyasi 2 marta ko‘paysa, 2-3 yoshga kelib, uning og‘irligi uch marta ortadi. Miyaning kattaligi deyarli 20 yil mobaynida ortib boradi, katta yarim sharlarning ustki “izlari” murakkablashib boradi. Bolalarning o‘shishidagi bu qadar ulkan jadallik vegetativ nerv tizimiga, bir qator ichki sekretiya bezlari (bo‘qoq bezi va boshqalar)ga bog‘liq.

Ichki sekretiya bezlari ishlab chiqaradigan maxsus garmonlar qonga o‘tib, organizmning o‘shishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Go‘daklarning bu qadar tez o‘shishi ushbu davrning o‘ziga xos tomonini ifodalaydi. Shuning uchun bu davrda bolaning o‘shishiga va rivojlanishiga ta’sir etadigan barcha narsalar yaxshi bo‘lishi, sifatli ovqat, sof havo, quyosh nuri etarli miqdorda bo‘lishi kerak.

Bolaning nerv faoliyati ikki xil ta’sirda o‘z ifodasini topadi. Bularning birinchisiga shartsiz yoki tug‘ma reflekslar, ikkinchisiga esa shartli reflekslar kiradi.

Shartsiz reflekslar bolaning tug‘ilish paytiga kelganda, ancha etilgan bo‘ladi, buning natijasida qon aylanish, nafas olish va ovqat hazm qilish singari eng zarur vegetativ funksiyalar amalga oshiriladi. Masalan, qorni ochgan chaqaloqning labiga bir narsa tegishi bilanoq, unda emishni bildiruvchi harakatlar paydo bo‘ladi, bu ovqatlanish refleksi, ya’ni shartsiz refleksdir.

Yuqorida qayd qilinganidek, tug‘ilish davrida bosh miya katta yarim sharlari og‘irligi, hajmi va funksiyasi jihatidan rivojlangan darajada bo‘lmasa ham, bosh miya mavjud shartsiz reflekslar zaminida yangi tug‘ilgan bola bilan tashqi muhit o‘rtasida eng zarur aloqalar o‘rnatish imkoniyatini beradigan elementar shartli reflekslar hosil qilishga qodirdir.

Bola hayotining birinchi kunlaridan boshlab individual hayot kechirish jarayonida tashqi muhit bilan aloqa vujudga keladi. Bola hayotining ikkinchi oyida unda barcha sezgi organlariga xos shartli reflekslar hosil bo‘ladi. Lekin tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, bola hayotining bu davridagi reflekslar zaif ifodalangan va beqaror bo‘ladi.

Bolaning o‘sishi va rivojlanishi jarayonida egallayotgan reaksiyalari barqaror bo‘la boradi, tezpaydo bo‘laboradi va anchagina differensiyalashadi.

Modomiki, bolada shartli reflekslar hayotining birinchi oylarida paydo bo‘lar ekan, bola tarbiyasini ham hayotining birinchi oylaridan boshlab to‘g‘ri tashkil etish lozim. Bu esa bolaning rivojlanishi va xulq-atvorida salbiy xususiyatlar kelib chiqmasligining oldini oladi, bola taraqqiyotining normal bo‘lishini ta’minlaydi. Markaziy nerv tizimining ruhiy bo‘limlari rolining ortib borishini asosiy nerv jarayonlari -qo‘zg‘alish va tormozlanishning ifodalanishida aniqroq ko‘rish mumkin bo‘ladi. Odatda tormozlanish ikki turda: ichki va tashqi turga ajratiladi. Ichki tormozlanishning eng yorqin ifodasi uyqudir. Tormozlanishning tashqi ifodasi bolani tarbiyalash tufayligina hosil bo‘ladi. Buning uchun asosiy ozuqa (masalan, sut) bilan birga, bolaga yana boshqa qo‘shimcha (doimo sut ichiriladigan shishachani almashtirib qo‘yish) ham ta’sir etadi. Chaqaloq tug‘ilgandan boshlab uning atrofida gilari har tomonlama qo‘llab- quvvatlaydilar. Ular bola organizmini jismoniy

parvarish bilan ta'minlaydilar, o'rgatadilar, tarbiyalaydilar, insoniy psixologik va axloqiy jihatlarni o'zlashtirishga, jamiyatda yashash sharoitlariga moslashuviga yordam beradilar. Bolani ota - onalar va kattalar tomonidan qo'llab quvatlash, tug'ilishidan boshlab, toki bola katta bo'lib, mustaqil hayot tarzini kechira olguncha davom etadi.

Chaqaloq tug'ilgandayoq amalda qo'llashga tayyor bo'lgan sensor va harakat malaka instinktlariga ega bo'ladi, bu uning olamga moslashib olib o'z rivojlanishida tezgina o'sib ketishga yordam beradi. Chaqaloqda tug'ilganidan boshlab, masalan, ko'pgina murakkab harakatlar, asosan organizmni etilish jarayonida genetik berilgan dastur asosida, shuningdek, reflektor, ya'ni bu harakatlar dasturi kaliti sifatida kodlangan o'ziga xos ichki va tashqi rag'batlar ta'sirida hayotining birinchi soatlaridan keyin maxsus tayyorgarliksiz, darhol yuzaga keladi. Go'daklik davri inson hayotidagi organik ehtiyojlarni (kislorodga, ovqatga, issiq yoki sovuqqa) qondirishga nisbatan yo'naltirilgan xatti-harakatlarning tug'ma, instinktiv shakllari sof holda kuzatiladigan yagona davr hisoblanadi. Insonga xos bo'lgan xatti harakatlarni va yangi tajribalarni egallash uchun beqiyos imkoniyatlarning borligi go'dak yoshidagi bolalarning asosiy xususiyatlaridandir. Organik ehtiyojlarning etarli darajada qondirib borilishi, to'g'ri tashkil etilgan kun tartibi, rejim va to'g'ri tarbiya natijasida bola psixik rivojlanishi uchun asos bo'ladigan taassurotlarga ega bo'lishiga, harakatga, muloqotga, nisbatan yangi turdagi ehtiyojlar turkumi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bola tug'ilishining birinchi haftasidanoq, uning ko'rish va eshitish sezgilari jadal sur'atda rivojlanadi.

Tug'ruqxonalarda bolalar hayotlarini birinchi kunidayoq kunduzgi yorug'lik tushib turgan deraza tarafiga yuzi bilan instinktiv buriladi.

O'tkazilgan tadqiqotlardan aniqlandiki, tug'ilganiga bir yarim sutka bo'lgan bola miyasida ko'ruv organiga rangli qo'zg'atuvchilar ta'siriga javob potentsiallarini ko'rish mumkin. Bu vaqtga kelib miyada shartli reflekslar shakllanishi yuzaga keladi.

Hid bilish eng muhim sezgi organi sifatida u tug'ilgandan keyin darhol ishlay boshlaydi. Shunday o'ziga xoslikka oddiy ko'rish, harakat va eshitish ham ega. Bola

hayotining boshlang'ich ikki oyida og'zini chetiga qandaydir predmet bilan teginganda, bunga javoban reflektor o'girilish qobiliyatini namoyon etadi, barmoqlari ustiga tegilsa, ularni qattiq siqib oladi, qo'llari, oyoqlari, boshi bilan umumiy koordinatlashmagan harakatlarni amalga oshiradi. Unda yana harakatlanayotgan ob'ektlarni ko'zi bilan kuzatish, ular tomoniga boshini o'girish qobiliyati ham mavjud.

Chaqaloq narsalarning mazasini ajrata oladi. U boshqa narsalar mazasiga qaraganda shirin suyuqlikni xush ko'radi va hatto shirinlik darajasini aniqlay oladi. Chaqaloq hidlarni sezadi, ularga boshini burish, yurak urishi va nafas olishi chastotasini o'zgarishi bilan javob beradi. Yana bola organizmiga o'zini saqlash va rivojlanishiga yordam beruvchi jarayonlar guruhi tug'ma ravishda berilishini alohida aytib o'tish joizdir. Ular ovqat hazm qilish, qon aylanish, nafas olish, tana harorati, moddalar almashinuvi jarayonlari va hokazolarni boshqarish bilan bog'liq. Shubhasiz, so'rish, himoyaviy, mo'ljal oluvchi, ushlab oluvchi, tayanch harakati va qator boshqa reflekslar tug'ma hisoblanadi, bularni barchasi bola hayotining ikkinchi oyida aniq ko'rinadi.

O'tkir yorug'likdan bola "bevosita" ta'sirlanadi, ya'ni o'tkir yorug'likka qaray olmay, undan ko'zini yumadi. Predmetlarni ko'z bilan idrok qila olmaydi, chunki ularda ko'rish mexanizmi hali o'sib etmagan bo'ladi, bu mexanizmlar kattaroq yoshda paydo bo'ladi. Yetti - to'qqiz kunlik bola ba'zan sekin harakatlanayotgan predmetga qarab qoladi, lekin uzoq vaqt qarolmaydi. Ko'zini bir nuqtaga qaratish psixik taraqqiyotda muhim rol o'ynaydi. Bola ikki-uch oylik bo'lganda, yaqinidagi predmetlarni ikki ko'zi bilan kuzata oladi, unda asosiy rang va shakllarni farq qila olish qobiliyati paydo bo'ladi. Olti oyligida u ranglarga nisbatan o'z munosabatini ham bildirib boshlaydi, yoqqan rangiga intilsa, yoqmaganini itaradi, undan yuzini o'giradi. Yangi tug'ilgan bolaning eshitishi zaifroq bo'ladi, shunga ko'ra u hali o'zi eshitib, odatlanib qolmagan juda kuchli qo'zg'ovchilarga javob beradi, lekin ovozning qaysi tomondan kelayotganligini ajrata olmaydi. Bola ikkinchi oyining oxirlariga borgandagina eshitayotgan tovushiga e'tibor bera boshlaydi, tovushning qaerdan kelayotganini qidirib, u yoq bu yoqqa qaraydi. Tovush manbaini topishni

o'rgangan uch oylik bola gapirayotgan kishini o'z ko'zlari bilan tez topib oladi, o'sha tomonga qarab, gapiruvchiga o'z munosabatini ifodalaydi. Ana shu vaqtdan boshlab, uning tevarak-atrofiga bo'lgan munosabati ancha kengaya boradi.

Bolaning tobora diqqat bilan eshita va ko'ra borishi uning umumiy taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga egadir. Lekin ko'rish, eshitish va boshqa analizatorlar faqat bolaning tevarak-atrof bilan o'zaro munosabatida bo'lishi natijasida takomillashadi. Bolaning o'z ko'zi bilan ko'ra olishi ma'lum hayot tajribasi natijasidir. Bolaning eshitish orqali idrok etishi ham oldindan tovushlarni ajratishga va ularni sintez qilishga o'rganib boradi. Bolaning eshitib bilib olishi shartli bog'lanishlarning sifatiga bog'liqdir. Yangi tug'ilgan bolada diqqat qilish qobiliyati bo'lmaydi. Unda turli qo'zg'ovchilar ta'sirida asta-sekin ixtiyorsiz diqqat rivojlanib boradi. Bolaning tasavvur doirasi qancha kisha bo'lsa, uning o'zi uchun tanish va yangi bo'lgan predmetga nisbatan diqqati shuncha intensiv va davomli bo'ladi. Diqqatning psixik ta'siri ma'lum, u sezgi kompleksini idrokka aylantirib, psixik jarayonlarning o'tishini kuchaytiradi va tasavvurlarning xotirada mustahkam saqlanishiga yordam beradi.

Bola organizmiga o'zini saqlash va rivojlanishiga yordam beruvchi jarayonlar guruhi tug'ma ravishda berilishini alohida aytib o'tish joizdir. Ular ovqat hazm qilish, qon aylanish, nafas olish, tana harorati, moddalar almashinuvi jarayonlari va hokazolarni boshqarish bilan bog'liq. Shubhasiz, so'rish, himoyaviy, mo'ljalluvchi, ushlab oluvchi, tayanch harakati va qator boshqa reflekslar tug'ma hisoblanadi, bularni barchasi bola hayotining ikkinchi oyida aniq ko'rinadi.

Tug'ilganidan boshlab bolaning nafaqat sezgi organlari ishlashga tayyorligi ma'lum bo'lmay, balki bosh miyasi ham faol ishlay boshlaydi. Onalar chaqaloqning faqatgina psixika va xulqning tug'ma shakllarinigina bilmasdan, balki organizmni tabiiy rivojlanish jarayonini ham bilishi kerak. Hayotining birinchi oylarida harakatlarning rivojlanishi alohida ahamiyatga ega.

Chaqaloq motorikasi tug'ilganidan boshlab etarlicha tashkiliylikka ega, u holatlarni boshqarishga mo'ljallangan ko'pgina mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Chaqaloqda ko'pincha oyoq-qo'llarining yuqori harakatchanlik faolligi paydo

bo‘ladi, bu kelajakda koordinatlashgan harakatlarni murakkab majmuini shakllanishida ijobiy ahamiyatga ega. Chaqaloq bolalarda qo‘l - oyoqlar bukilib, barmoqlar musht bo‘lib turadi.

Hayotining birinchi oylarida, bola bezovtalangan paytlarda, qo‘l va oyoqlarning harakati juda betartib, bir-biriga moslashmagan, beixtiyor holda bo‘ladi. Keyin harakatlar asta-sekin “ongli”lashib boradi va bu harakatlar yangi sezgilarning manbai bo‘lib xizmat qiladi, bu murakkabroq harakatlarga o‘tishni tayyorlaydi. 3-3,5 oylik bola, unda hali aniq koordinatsiyalashgan harakat bo‘lmasa ham, qo‘llarini o‘yinchoqlarga uzatadi. Aniq koordinatsiyalashgan harakat 4 oyli bolada yaxshi ko‘rinadi. Bola o‘yinchoqni bemalol qo‘liga ololadi. Uni tutib olib, u-bu yog‘iga qaraydi, og‘ziga tegizib ko‘radi va shu yo‘l bilan ko‘plab har xil taassurotlar oladi. Ikki oylik bola, qorni bilan yotqizib qo‘yilsa, boshini ko‘tara boshlaydi. Uch oylikda esa yotgan holda tirsagiga tiranib turadi va bemalol u yoq-bu yoqqa qaray oladi. SHu bilan birga, qo‘ltig‘idan tutib turilsa, oyog‘ida turadi. 8-8,5 oyligida boshqalarning yordamisiz o‘tira oladi, emaklaydi va biror narsaga suyanib oyog‘ida tura oladi. 1213 oyligida o‘tirib, tura oladi, birovning yordamisiz qadam qo‘ya oladi, demak, bola yura boshlaydi. Bolaning vaqtida yurib ketmasligiga salomatligiing nochorligi, chaqaloqligida ko‘p kasal bo‘lganligi va umumiy harakat hamda sezgi organlarining kech rivojlanishi sabab bo‘ladi.

Bolaning harakatlari rivojlanishi hayotini birinchi yilida judayam tez maromda kechadi, o‘n ikki oy ichida erishilgan taraqqiyot hayratlanarli.

Cheklangan qo‘l - oyoq, boshni tug‘ma umumiy elementar harakatlar to‘plamidan iborat imkoniyatga ega bo‘lgan, amalda yordamga muhtoj mavjudotdan bola kichkina odamga aylanadi, u nafaqat ikki oyoqda oson turuvchi, balki muhitda nisbatan ozod va mustaqil harakatlanuvchi oyoqlar harakati bilan bir vaqtda lokomotsiyalardan ozod fazoda (harakatni ta‘minlovchi funksiyalar) qo‘l bilan murakkab boshqaruv harakatlarini va atrofdagi olamni tadqiq etishga mo‘ljallangan harakatlarni amalga oshira oladi. Yangi tug‘ilgan bolada diqqat qilish qobiliyati bo‘lmaydi. Unda turli qo‘zg‘ovchilar ta‘sirida asta-sekin ixtiyorsiz diqqat rivojlanib

boradi. Bolaning tasavvur doirasi qancha kisha bo'lsa, uning o'zi uchun tanish va yangi bo'lgan predmetga nisbatan diqqati shuncha intensiv va davomli bo'ladi. Diqqatning psixik ta'siri ma'lum, u sezgi kompleksini idrokka aylantirib, psixik jarayonlarning o'tishini kuchaytiradi va tasavvurlarning xotirada mustahkam saqlanishiga yordam beradi.

Go'daklik davridajismoniy va psixik taraqqiyotning kechishi.

Go'daklik davri - bu bolaning himoyasiz, kam harakat, atrofidagi hodisalarga juda kam reaksiyasi bo'lgan boladan juda jadal ravishda rivojlanadigan, faol, tez ilg'aydigan, harakatchan, yordamga chaqira oladigan quvnoq bolaga aylanish davridir. Go'dak yoshidagi bola ham jismonan, ham psixik, ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. U qisqa vaqt ichida kattalar bilan munosabat o'rnatadi, predmetlarni ushlashga va ulardan foydalanishga o'rganadi. U atrof-olamdagi narsalarni kuzatadi, predmetlarni qo'li bilan ushlab, ularni qandayligini bilishga intiladi, tovushlarga e'tibor beradi va predmetlarni harakatlantirish yordamida shu tovushlarni o'zi yaratishga harakat qiladi. U o'z onasi va boshqa yaqinlari bilan emotsional munosabatga kirishadi. Juda qisqa vaqt ichida, kattalarning yaqin kelishidan quvonadigan bolaga aylanadi.

Ilk yoshdagi bolaning harakat faoliyati uning rivojlanish darajasini va nerv tizimining funksional holatini aks ettiradi. **N.D. Levitovning** ko'rsatishicha, yangi harakatlarni egallash analizatorlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'langandir, zotan kichkina bola olamni sezish yordami bilan biladigan mavjudot bo'lganligi sababli, harakatlarning o'z vaqtida taraqqiy etishi bolaning umumiy psixik taraqqiyotini ko'rsatuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ilk yoshdagi bolalarning muskullari juda bo'sh bo'ladi.

Go'daklik yoshida bolalarni harakat ko'nikmalari, ayniqsa qo'l va oyoqlarning murakkab sensor koordinatlashgan harakatlari tez shakllanadi. Bu harakatlar keyinchalik bolalarni bilish va aqliy qobiliyatlarini yuzaga kelishida judayam sezilarli rol o'ynaydi. Bola qo'l va oyoq harakatlari hisobiga olam haqida axborotlarni

ahamiyatli qismini oladi. Qo‘lning murakkab harakatlari idrokning birlamchi shakliga kiradi va odamning aqliy faoliyatini mukammallashuvini ta’minlovchi uning ajralmas qismiga aqlanadi. Bola qo‘lining katta impulsiv faolligi hayotining birinchi haftasida namoyon bo‘ladi. Bu faollik qo‘llarni silkitish, ushlab, barmoqlar harakatlarini o‘z ichiga oladi. Bola 3-4 oyligida predmetlarga qo‘l uzata boshlaydi, katalarning yordami bilan o‘tiradi. 5 oyligida u harakatsiz predmetlarni qo‘li bilan ushlay oladi. Bola harakatlanayotgan narsani kuzata boshlaydi. U turli ovozlarga, jumladan, kattalarning tovushlariga e’tibor bera boshlaydi.

Go‘daklik davridagi bolaning hayoti to‘liq kattalar bilan hamkorliqdagi emotsional munosabat bilan bog‘liq bo‘lib, bola kayfiyatining yaxshi bo‘lishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. 4-5 oyligidan boshlab, bola o‘z yaqinlarini begonalardan ajrata boshlaydi. Kattalar bilan emotsional munosabat shu yoshdagi bolalarning asosiy etakchi faoliyati bo‘lib, bola psixik taraqqiyotining asosi bo‘lib hisoblanadi. Kattalarning doimiy ravishda bola bilan birga bo‘lishlariga unga o‘z diqqatlarini qaratishlariga odatlanishi, uning o‘yinchoqlarga nisbatan qiziqishining susayishiga olib kelishi mumkin. Tarbiyaning to‘g‘ri olib borilishi bolaning kattalar bilan bo‘ladigan muomala-munosabatini predmetlar, o‘yinchoqlar bilan munosabatining almashinishiga olib keladi. Kattalar yordami bilan bajariladigan barcha xatti-harakatlari bolaning kelgusi psixik rivoji uchun asos bo‘ladi. Kattalarning bolaga nisbatan emotsional munosabati, ularning gaplariga bolaning o‘z diqqatini qaratishi, javob qaytarishga harakat qilishi, ba’zi so‘zlarni yodida saqlab qolib, emotsiya bildirishi, diqqat, xotira, nutq va boshqa bilish jarayonlarining rivojlanishiga zamin bo‘ladi. Ikki oylik davridan boshlab bolada oddiy ranglarni ajratish, 3-4 oyligidan boshlab, esa predmetlarning shaklini ajratish layoqati yuzaga kela boshlaydi.

Go‘dak bola 2 oylik vaqtdan boshlab, o‘z onasining yuzini va ovozini o‘zgalarnikidan ajrata boshlaydi. 2-3 oylikdan boshlab esa, onasining tabassumi va kulgusiga tabassum va turli harakatlar bilan javob qaytaradi.

3-4 oyligidan boshlab, bolalar yaqinlariga o'z harakatlari bilan ko'rish, eshitish yoki gapirishni xohlayotganligini ko'rsatadilar. 8 oyligidan boshlab esa, bola o'zgacha muhit va begonalar qo'liga tushsa, o'z xavotirini yig'isi orqali namoyon etadi. Bu xavotir 14-18 oyligida asta-sekinlik bilan kamaya boshlaydi.

2-3 oylik bolalarda yuzaga keladigan narsalarni ushlay olish harakatlarining shakllanishi ularda predmetlarning shakli va hajmini idrok qilishlarini rivojlanishiga olib keladi. Bir yoshga etgan bolada atrof muhitni bilishga qiziqishi va rivojlanayotgan bilish faolligi ko'zga tashlanadi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Go'daklik davri, uning tug'ma xususiyatlari va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Go'daklik davrida jismoniy va psixik taraqqiyotning kechishi.
3. Zigota bosqichi qanday kechadi?
4. Embirion bosqichi qanday kechadi?
5. Homila bosqichi qanday kechadi?
6. Go'daklik davridagi bolaning hayoti to'liq kattalar bilan hamkorlikda qanday kechadi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

- 1. Go'daklik va ilk bolalik davri necha yoshlarni o'z ichiga oladi?**
 - a) 0 – 1yosh;
 - b) 1 – 3yosh;
 - c) 2 yosh;
 - d) Barcha javoblar to'g'ri.
- 2. Chaqaloq bola bizga eng ojiz zotdek tuyuladi. Shunga qaramay, xuddi shu yoshning ham kuchli tomoni bo'lib, bu jihati bilan go'daklar kattalardan ustun turadi, - deb ta'kidlaydi professor ?**

- a) E .A. Arkin.
- b) S.Xoll
- c) E.Meyman
- d) V.Preyer.

3. Bola necha oyligida boshqalarning yordamisiz o'tira oladi, emaklaydi va biror narsaga suyanib oyog'ida tura oladi?

- a) 8-8,5 oyligida
- b) 9-9,5 oyligida
- c) 5 oyligida
- d) 7-7,5 oyligida

4. Homila bosqichi haftasini toping.

- a) (10- 39 hafta)
- b) (9- 38 hafta)
- c) (7- 36 hafta)
- d) (5- 34 hafta)

5. Ilk yoshdagi bolaning harakat faoliyati uning rivojlanish darajasini va nerv tizimining funksional holatini aks ettiradi degan olim kim ?

- a) E .A. Arkin.
- b) S.Xoll
- c) E.Meyman
- d) N.D. Levitov

6. Embrion bosqichi haftasini to'g'ri ko'rsating.

- a) 3-8 hafta
- b) 5-8 hafta
- c) 6-8 hafta
- d) 7-8 hafta

6 - mavzu Ilk bolalik davrining o'ziga xos xususiyatlari.

- 1. Ilk bolalik davrida jismoniy rivojlanish.**
- 2. Ilk yoshdagi bolalarning aqliy taraqqiyoti.**
- 3. Ilk bolalik davrida bolalar shaxsining rivojlanishi.**

Tayanch tushunchalar:ilk bolalik davri, yuvinish, kiyinish, ovqatlanish, gigienik mashqlar, o‘yin, mielin pardasi, aqliy taraqqiyot, ertaklar, hikoyalar, spektakl.

Ilk bolalik davrida jismoniy rivojlanish.

Ilk bolalik davri: go‘daklik davridan so‘ng rivojlanishning yangi bosqichi ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi.

Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to‘g‘ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi. Tikka va to‘g‘ri yura olish imkoni bolani, doimiy ravishda yangi ma‘lumotlarni egallashga zamin bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar o‘z xatti-harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluvchan bo‘ladilar.

Yurishni o‘rganish bolaning jismoniy o‘sishi uchungina emas, balki uning psixik taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Bolaning mustaqil harakat qilishi – yurishi tufayli ko‘plab predmetlarga duch keladi, ularning nimalarga ishlatilishini “amal”da ko‘rib biladi va o‘zi ham ulardan kerakli o‘rinda foydalana boshlaydi. Bola yurishni o‘rgangach, fazoni ham bila boradi. Kichkintoy bolalar “yaqindagi” fazoni qo‘llarining harakati yordamida bilib oladilar, bunda ko‘z ham ishtirok eta boshlaydi. Bog‘chagacha yoshdagi bola “uzoqdagi” fazoni orientirovka qila boshlaydi. Bola yura boshlaganda, o‘z oyog‘i yordamida masofa va yo‘nalish bilan tanishadi, uning ko‘z, qo‘l va oyoqlarining o‘zaro kelishib harakat qilishi, boshlang‘ich ko‘z o‘lchovi o‘sadi hamda masofa va predmetlarning turgan joylarini birmuncha aniq aytib berish ko‘nikmasi vujudga keladi.

Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davrining birinchi yarmida bolalar predmetlar bilan harakat qilib, tanishib boradilar. Harakatlarning barcha koordinatsiyasi bolada

barqaror diqqatning rivojlanishiga, idrokning aniq bo'lishiga va iroda kuchining o'sishiga olib keladi. Ammo bolalarning harakatlari kattalarning harakatlariga taqlid qilish xarakteriga ega bo'ladi. Biror bir harakatni o'z vaqtida o'zlashtirishi bilan bola uni asta-sekin mustaqil bajara boradi, bu harakat unda dadillik, ishonch va sabrmatonatlilik kabi ijobiy hislatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Bola hayotining uchinchi yilida, ya'ni organizmning intensiv o'sishi va rivojlanishi davrida harakatlarning kam bo'lishi bolaning umumiy o'sishiga salbiy ta'sir etadi. Shu sababli asosiy harakatlar (yurish, yugurish, predmetlarga tirmashib chiqish) bilan birgalikda, qo'l harakatlariining ham to'g'ri va o'z vaqtida rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilish zarurdir. Bolaning harakatlarini asosan uning kundalik faoliyati jarayonida o'stirib borishga e'tibor berish kerak. Masalan, mustaqil ravishda yuvinish, kiyinish, ovqatlanish, gigienik mashqlar, o'yin va boshqalar.

Har xil harakatlarni bajarish va predmetlar bilan harakat qilish tevarakatrofdagi olamni bilishga olib keladi. Bola predmetlarning fazodagi o'rni, joylanishi, sifati, hajmi, shakli va holatlari bilan tanishadi. Bularning hammasi sezgi organlarining o'sishiga ijobiy ta'sir etadi. Bir yoshlik bola nisbatan yaxshi rivojlangan sezgirlikka egadir. Bola bog'cha davrining boshlanishida ba'zi tovushlarni, o'ziga yaqin kishilarning ovoz tempini aniq ajrata oladi, ba'zi bir narsalarning ta'mi va hidini farq qiladi, ranglarni taniy boshlaydi. Bu yosh davrida ko'rish va eshitish analizatorlarining rivojlanishi ayniqsa yuksak darajaga etadi. Bola asosiy ranglarni bir-biridan farq qiladi. Lekin bolaga ranglarning nomini aytishga qaraganda, ularni bir-biridan ajratish osonroqdir. Bolalar ranglarni bilsalar ham, bu sohadagi o'z bilimlaridan etarli darajada yaxshi foydalana olmaydilar. Bolalar qizil rangni osonlik bilan ajrata oladilar-u, binafsha rangni ajratishda ko'pincha yanglishadilar. Ko'pincha bolalar har bir rangning tusini, tovlanishini yaxshi ajrata olmaydilar.

Bu yoshdagi bolalar uchun idrok qilinayotgan predmet obrazlarining bir-biriga o'xshashib ketishi xarakterlidir. Masalan, ular olmani biladilar, olma bolaga bir butunligicha tanish, lekin bola olmaning rangini ham, shaklini ham alohida holda ajrata olmaydi. Predmetni har tomonlama ko'ra bilish, ya'ni uni qismlarga ajratish,

belgi va turlariga qarab farqlash - uni analiz qilish demakdir. Bu esa bolaga butunlikni tushunish imkonini beradi. Shu sababli, bolalarni yangi predmetlar bilan tanishtirganda, ularni bir-biridan ajratib turadigan shakli, rangi va qismlariga e'tibor berish lozim. Mana shunday tarbiyaviy ta'sir natijasida bolalarning predmetlar haqidagi tasavvurlari o'sadi. Bola bir yarim yoshga borganda, o'zlari tez-tez uchratib turgan predmetlarni, ularning rangi, hajmi, shaklining o'zgarishidan qat'iy nazar, xatosiz tanib oladilar. Bola ikki yoshga to'lay deganda, tanish kuy va tovushlarni bilib oladi. Borliqni bilish jarayonida bola o'z hayotida va tevarak-atrofidagi kishilar turmushida o'rnatilgan tartibni tushuna boshlaydi. Bu olamni bilishning eng muhim tomoni bo'lgan zamon - vaqtni bilib olishi uchun asos bo'ladi. Bolaning organizmi ma'lum tartibga ko'nika boshlaydi, bu vaqt bilan tanishishdagi dastlabki qadamdir. Keyinchalik bolalar tabiat hodisalari va odamlarning kundalik hayoti singari tushunchalarni anglay boshlaydilar. Albatta, buning uchun kattalar bolalarning e'tiborini hayotning muhim belgilariga qaratishi lozim. Bolaning har bir sezgan va idrok etgan narsalari o'ziga xos sezgilar bilan mustahkamlanishi kerak. So'z bolaning ko'rayotgan predmetlarini tushunib olishini osonlashtiradi, predmetni so'z yordamida bilib olish ko'z va quloq ishini kuchaytiradi.

Bolaning aqliy jihatdan o'sishida makon va zamon haqidagi tushunchalarni anglashga yordam beradigan so'zlarni o'zlashtirib olishi muhimdir. Predmetlar o'rtasida mavjud bo'lgan har xil fazoviy belgilarning (masalan, katta oraliq, tor oraliq) va turli fazoviy munosabatlarning nomlarini (o'ngda, chapda, orqada, bir qatorda) bilib olish natijasida bolalar predmetlar o'rtasidagi bu munosabatlarni ajratib olishga o'rganadilar. Shu tariqa, nutq predmetlarning belgilarini differensiyalash va umumiyashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Lekin, shu bilan bir qatorda, so'z birinchi signal sistemasi bilan bevosita bog'lanmog'i lozim. Ikki-uch yashar bolalardagi idrok o'zining etarli darajada o'smaganligi va beqarorligi bilan ajralib turadi hamda bir kuzatish ob'ektidan ikkinchi kuzatish ob'ektiga tez-tez ko'chib turishi bilan xarakterlanadi. Yaltiroq, chiroyli, ko'zga tez tashlanadigan predmetlar bola diqqatini o'ziga jalb qiladi. Bog'chagacha bo'lgan yosh davridagi bolalar

idroklarini qo'yilgan vazifa asosida tashkil eta olmaydilar, ulardagi bu xil idrok juda qisqa muddatli bo'ladi. O'zlaridan uzoqda turgan predmetlarni idrok qilishda ayniqsa ko'p xato qiladila. Bolada idrok asta-sekin mustaqillashib, ma'lum maqsadga tayangan bo'ladi, kuzatuvchanlik rivojlana boradi. Bola o'zini qiziqtirayotgan narsaga uzoq vaqt qarab, uni kuzatishi, o'sha predmet to'g'risida biror narsani so'rashi mumkin.

Lekin bola hali predmet va hodisalarni har tomonlama kuzatib, uning asosiy, muhim tomonlarini ajratib, ayrim elementlarini o'zaro bog'lab olishning uddasidan chiqa olmaydi. Bolada kuzatuvchanlikni o'stirishda sayr va ekskursiyalar muhim ahamiyatga egadir. Bunda bolalar kattalarning rahbarligida tevarak - atrofdagi predmet va hodisalarda o'zlari uchun yangi bo'lgan muhim va qiziqarli narsalarni aniqlashga o'rganadilar. Rasmlarga qarash, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish idrokning o'sishiga juda yaxshi ta'sir etadi.

Ilk yoshdagi bolalarning etakchi faoliyat turi - predmetlarni o'rganish, predmetlar bilan manipulyativ harakat hisoblanadi. Go'daklik davridagi bolalarga nisbatan, ilk bolalik davridagi bolalar atrof muhitdagi narsa va hodisalarga nisbatan ko'proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar, go'dak bola qo'liga ushlagan narsani oddiy harakatlar bilan kuzatsa, 2-3 yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o'rganganidan so'nggina, o'z amaliy faoliyatida ishlata boshlaydi. Bolani dastlab, ayni shu predmetlarning qo'llanish vazifasi, mohiyati qiziqtirib, u o'z savoliga javob olish maqsadida ko'pincha kattalarga "Bu nima?" degan savol bilan murojaat qiladilar. 1-3 yoshdagi bola shakllanishda psixik rivojlanishning o'ta ahamiyatligini inobatga olgan holda, ayrim psixologlar (R.Zazzo) inson tug'ilganidan to etuklik davrigacha bo'lgan psixik rivojlanish asosining taxminan o'rtalari, 3 yoshga to'g'ri keladi, degan mulohazani bildiradilar. Bu yoshdan boshlab, bolalar predmetlarni o'rganish olamiga qadam qo'yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomalamunosabatda bo'la oladi va sodda axloq qoidalariga amal qila boshlaydilar. Kattalar bilan bo'ladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida ko'proq ma'lumot oladi. Nutq - bu yoshlarda nafaqat muloqot, balki bola tafakkurining rivojlanishi va

o‘zini o‘zi, shuningdek, bilish jarayonlarini boshqarish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi.

Ilk yoshdagi bolalarning aqliy taraqqiyoti.

Bola tug‘ilganidan 1 yoshgacha bulgan davrda jismoniy va psixologik jihatdan juda o‘sadi. Bu davrda bola ko‘p jihatdan ongsiz bulib kattalarning doimiy va to‘g‘ri parvarishiga muhtoj buladi. Bolaning kelgusida sog‘lom bo‘lishi va psixik jihatdan normal o‘ssishi uning shu davrda to‘g‘ri parvarish qilinishiga bog‘liq. Bu yoshda bolaning nerv sistemasi xam tez o‘ sib boradi - miyaning og‘irligi 350 grdan 900 gr boradi, (1 yoshdan 3 yoshgacha 200 g ortadi) boshni tik tutishi, narsalarni paypaslab ushlab, turishga urinish, emaklash, faoliyatlari vujudga keladi. Bir qator analizatorlari paydo bulib, normal ishlay boshlaydi. Ko‘rish va eshitish analizatorlari bir muncha murakkab yo‘l bilan rivojlana boshlaydi. Bola hayotining 2-haftasida sekin harakat qilayotgan narsalarni payqaydi, 3 oylikda yorqirok narsalarga tikilib karaydi, 3-4 oylik bola onasini taniydi- tafakkur elementlari paydo bo‘lyapti - onasini boshqalarga taqqoslayapti. 6-7 oylik bola oti aytilgan narsani ko‘rsatadi, harakat xotirasi paydo bo‘lyapti. Bola bilan muloyim gaplashib tursak, unda faollik, kattalarga talpinish reaksiyasi yuzaga keladi-“jonlanish kompleksi”.

Bolaning 1-yig‘isiyoq nutq apparatlarini rivojlantira boshlaydi. 2-3 oylikda g, k, a kabi tovushlarini chiqaradi, 8 oyligida kattalarning gapini tushuna boshlaydi, kattalarga taqlid qilib nutqi o‘ sib boradi. Shu tariqa bolada iroda, odat, hissiyot, temperament belgilari xam tez o‘ sib, rivojlanib boradi.

Erta bolalik (1-3 yosh)davrida bola yura boshlaydi, tevarak-atrofdagi narsalarni bilishdagi daslabki qadamini qo‘yadi. Nutqi yordamida atrofdagilar bilan munosabatida bo‘la boshlaydi. Bu esa undagi psixik jarayonlarning rivojlanishiga imkon beradi. Bu davrda miya pusti hujayralarining tobora ko‘p shoxsimon modda bilan qoplanishi ro‘y beradi. Mielin pardasining hosil bo‘lishi kuchayadi, qo‘zg‘alishini o‘tkazish ancha tez va aniq bo‘lib qoladi. Bu davrda bolaning barcha analizatorlari uyg‘un holda ishlay boshlaydi. Bu esa sezgi va idrokning o‘ssishiga olib keladi, diqqati beqaror bo‘ladi. 1 ta o‘yingohda o‘ynab,

darrov 2-chisiga o'tadi, lekin bu davrning oxirida tartibsiz harakatlar, behuda yugurish o'rniga bir mashg'ulot bilan ancha mashg'ul bo'ladigan bo'ladi, 3 yoshga etganda o'z-o'ziga xizmat qilish va kattalarning yumushini bajarishi tufayli ixtiyoriy diqqat o'sib boradi.

Asosan obrazli xotira ustun buladi kattalar harakatiga taqlid qilishi holatida harakat xotirasi ham ko'rinadi.

Nutqning o'sishi 2 davrga bo'linadi 1-davr - 1 yoshdan 1,5 yoshgachaatrofdagilarni nutqini tushunishi - passiv nutkning rivojlanishi davri; 2-davr - 1,5-3 yoshda. Aktiv nutqni tez egallay boshlaydi, kattalarga taqlid qilib, har bir yangi so'zni o'zlashtirib oladi. Bolada nutk paydo bo'lgach, fikrlash xam yaxshilanadi.

Bu davrda tafakkur yaqqol obrazli bulib, o'yinchoqlarni har-xil qilib qayta ko'rishida ko'rinadi.Xayol jarayoni ham o'sib boradi - to'lqinlanib turgan pardani dengizga, bulutlarni gulga o'xshatadi. Bog'cha yoshi davrining eng muxim xususiyati - uning mustaqil faoliyati bilan shug'ullanishi, faoliyat doirasi kengayishi va maxsus pedagoglar tomonidan muayyan dastur asosida tarbiya berilishidir. Shaxs tarbiyasida bog'cha davri muhim ahamiyatga ega.

Bu davrda bosh miya yarim sharlari po'stidagi nerv xujayralari tobora murakkablashib boradi, shoxchalar o'sib chiqadi, va muvaqqat nerv bog'lanishlari hosil bo'lish imkoniyati yaratiladi.

Bolaning psixik rivojlanishida ularda paydo bo'ladigan ehtiyojlar va qiziqishlar katta ahamiyatga ega. Ular bolani u yoki bu harakatga undovchi omil hisoblanadi, bola qiziqqan narsasi bilan uzoq vaqt shug'ullana oladi. Bu esa uning diqqati, irodasini rivojlantirishga yordam beradi. Bog'chada tug'ri yo'lga qo'yilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda mehnat faoliyatining dastlabki belgilari hamda qiziqishini tarkib toptiradi. Bog'cha hayotining ko'p qirrasi va sarmazmunliligi bolalar bilish faoliyatlarining kengayishiga va chuqurlashishiga yordam beradi, bu esa o'z navbatida idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, kabi jarayonlarni rivojlantiradi.

Bog'chadagi tartib intizom va ta'limiy mashg'ulotlar yuksak ijtimoiy, intellektual, axloqiy va gigienik ehtiyojlarning, yuzaga oshishiga sharoit yaratadi.

Emotsional - irodaviy xislatlarning shakllanishida o'yin, mehnat faoliyatlarining, ta'limiy mashg'ulotlarining ta'siri katta, Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola o'yinda bemor singari yig'laydi, vrach sifatida unga rahmi keladi, bola tanlagan rol undagi mavjud kechinmalarning amaliy ifodasi gavdalanadi.

Ertaklar, hikoyalar, spektakllar orqali ham bolaga emotsional ta'sir etish imkoniyati tug'ildi. Bola maktab ta'limiga bog'chada tayyorlanadi. O'quvchilarga qo'yiladigan har-xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganishi uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor buladi.

Psixologik tayyorgarlik - bola psixikasi bilim olishga etarli darajada rivojlanadi - idrokining o'tkirligi, ravshanligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi, diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi, bola o'z diqqatini muayyan ob'ektga yunaltirish, taqsimlash, bo'yicha ma'lum darajada ko'nikmaga ega buladi. O'z xohish - irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganini bildiradi. Shuningdek, ta'lim uchun psixik o'sish darajasidan tashqari bolaning turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o'ziga xosligi, uning sixat-salomatligi, oddiy ko'nikmalarni o'zlashtirgani kabi omillar bolaning maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorligining ob'ektiv tomonini belgilaydi.

Sub'ektiv tomoni - bolaning maktabda o'qish xohishi, intilishi, ba'zi bolalar maktabga butun vujudi bilan talpinadi, o'qishga qancha kun qolganini sanaydi, o'quv ashyolarini oldindan tayyorlab qo'yadi. Boshqa bola esa maktabga umuman borgisi kelmaydi - bu ko'pincha kattalarning qurqitishlari natijasi bo'lishi mumkin.

Ilk bolalik davridan boshlab bola uni o'rab turgan predmetlarning xususiyatlarini va ular orasidagi oddiy bog'liqliklarni anglashga harakat qiladi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi ko'rinishlarini tashkil etadi. 1 yoshli bola predmetlarni izchil, tizimli ravishda ko'rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko'zga tashlanib turadigan

belgisiga o'z e'tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko'ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok harakatlarining egallanishi bolaning predmetli harakatlarini bajarishdan ko'z bilan chamalab, harakat qilishiga o'tishda namoyon bo'ladi, endi u predmetning bo'laklarini ushlab ko'rmasdan, balki chamalab idrok eta oladi. 2,5-3 yoshli bola kattalarning ko'rsatgan namunasi, rangi, shakli va kattaligiga ko'ra, aynan shunday predmetlarni chamalab, idrok etgan holda to'g'ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so'ngra kattaligiga va undan keyingina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jarayonda bola bir xil xususiyatga ega bo'lgan juda ko'p predmetlar mavjudligini tushuna boshlaydi. Lekin, bola rasm chizishni boshlash davrida predmetlarning rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'g'riburchak, ko'pburchak) va 8 xil rangni (qizil, olov rang, sariq, yashil, ko'k, siyohrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning maqsadga muvofiq ishlatilishi jihatidan har xil narsalarda turlicha namoyon bo'lishi sababli, bu yoshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilannomlarini aniq bilishlari va o'z nugqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan rang va shakllarni eslab qolishlarini talab etishlari noto'g'ridir, buning uchun mos davr 4-5 yoshlar hisoblanadi.

Bola 3 yoshigacha o'zlashtirgan so'zlar asosan predmet va harakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning vazifasini anglatadi, bunda predmet yoki harakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. SHuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini vazifalariga bog'lagan holda tez o'zlashtiradi. Idrok o'ssa, xotira takomillashadi. Xotira bolaning taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga egadir.

Ilk yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bo'lsa ham, xonaga birov kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertakdan chalg'iydi. Diqqatning ko'p chalg'ishi bu yoshdagi bolalar diqqatining xarakterli xususiyatidir, chunki psixik hayot doimiy ravishda tashqaridan bo'ladigan yangi o'zgaruvchilarga muhtoj bo'lib turadi. Ammo ob'ektga bo'lgan

qiziqish qancha aniq va ravshan bo'lsa, bolaning ixtiyorsiz diqqati shuncha barqaror bo'ladi. Ixtiyorsiz diqqatning kelgusi taraqqiyoti qiziqishlarning boyib borishiga bog'liqdir. Bu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqat endigina vujudga kela boshlagan bo'ladi.

Uch yashar bolaning xayol obrazlari tevarak-atrofdagi predmetlarning ta'sirida tug'iladi va ma'lum maqsadga bo'ysunadi. Bola qo'g'irchoqni ko'rib bo'lgandan keyin, uni kiyintiradi va "uxlashga" yotqizadi. Bordi-yu, shu on "ayiqcha"ni ko'rib qolsa, diqqatini qo'lidagi qo'g'irchoq qolib, ana shu "ayiqcha"ga qaratadi va u bilan "o'rmonga sayr qilishga" ketadi. Bolada tajriba ortib borishi bilan xayol ham boyib boradi. Kichkina bolalarda xayol ancha rivojlangan bo'ladi. Lekin bola xayoldagi obraz bilan borliqdagi idrok qilayotgan narsa va predmetlarni aralashtirib yuboradi. Shu sababli bola xayoliga ta'sir etuvchi vositalar ichida ertaklar muhim o'rin egallaydi.

Ilk bolalik yoshidagi bolaning xayoli predmetlar bilan qilinadigan harakatlarga bog'liqligi bilan farqlanadi. Bu yoshdagi bolalarda nutq va tafakkur xususiyatlari o'z hayotining birinchi yilida sodda assotsiatsiya, ya'ni har xil tasavvurlarni bir-biri bilan bog'lash qobiliyatiga ega bo'ladi. Masalan, u sutli shishani ko'rishi bilan xursand bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan bolaning assotsiatsiyasi murakkablashib boraveradi. Bola bir yoshga to'lay deganda, onasining ko'chaga kiyadigan kiyimini olib kelayotganini ko'rib, xursand bo'ladi. Vrachning tekshirishidan yomon ta'sirlangan bolalar xalatli odamlardan qo'rqa boshlaydilar.

Bola o'z hayotining ikkinchi yilida fazo munosabatlarini aniqlay boshlaydi, xonaning ichidagi predmetlar orasida o'zini to'g'ri tutish malakasini egallab boradi.

Bolaning yoshi ulg'ayishi bilan unda tevarak-atrofga bo'lgan qiziqish ortadi. Kichkintoydagi sinchkovlik va har narsaga qiziquvchanlik uning kelgusi hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Bola hamma narsani o'zi ko'rishni va eshitishni istaydi. Lekin bolaning hayoti va rivojlanishi uchun ko'rish va eshitish sezgilari asosida vujudga keladigan taassurotlargina emas, balki hid va muskul-harakat sezgilari orqali oladigan taassurotlar ham juda muhimdir.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni bola biror predmetni olishga harakat qila olganidan so'ng, uni sinchiklab o'rganishida ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, ko'rgazmali-harakatli bo'lib, u atrof olamdagi turli bog'liqliklarni o'rganishga xizmat qiladi. O'zidan uzoqroq turgan koptokni biron-bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni tayoqcha yordamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o'rin tutadi. Umumlashtirishda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, soat deyilishi bilan bola qo'l soatini yoki devordagi osma soatni ham tushunishi mumkin. Lekin, ular turlicha bo'lganligi bois, ularda umumiylikni topish bola uchun qiyinroq hisoblanib, bu borada fikrlash 2-3 yoshli bolalar ma'lum bir predmetlarning o'rniga ularning o'rnini bosishi mumkin deb hisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola cho'pni qoshiq yoki termometr o'rnida, yog'ochdan yasalgan krovat yoki mashina o'rnida foydalanishi mumkin.

Bola ikki yoshlarga borib, amaliy tafakkurdan birinchi marta foydalana oladi, uchinchi yoshida esa ba'zi tanish harakatlardan konkret masalalarni hal qilishda mustaqil foydalana boshlaydi. Masalan, bu yoshdagibola vazadagi tugmachani qo'li bilan solib, ololmasa, u vazachani to'ntarib olaveradi. Tafakkurning bu boshlang'ich shaklini ba'zan "qo'l tafakkuri" ham deyiladi. Tafakkurning bu shakli bola aqliy taraqqiyotining kelgusi bosqichi uchun juda zarurdir. Uch yoshli bolalarda hukmning oddiy turlarini ko'rish mumkin.

Bu hukm turlari doimo faqat o'zi bevosita idrok qilayotgan va yakka predmetlarga taalluqli bo'ladi. Bola 2,5 yoshga etganda savollar bera boshlaydi. Avval savollar ko'proq predmetlarning nomi to'g'risida bo'lsa, keyinchalik savollar asosan predmetlarning qanday maqsadlarda qo'llanilishi va nimalarga ishlatilishi to'g'risida (masalan, bu nima?, bu bilan nima qilinadi?, bu nimalarga ishlatiladi? kabi) bo'ladi. Hozirgi zamon, o'tgan zamon va umuman vaqt to'g'risidagi aniq tasavvur tushunchasi fazoviy tasavvurlarga nisbatan ancha kech paydo bo'ladi. Bola

predmetlar bilan ko‘proq aloqa qilishi, ular bilan munosabatda bo‘lishi va ularning xususiyatlarini tekshirib ko‘rish kerak. Bu bilan unda dastlab ayrim predmetlar va hodisalar haqida tasavvurlar to‘plana boradi va keyinchalik shular zaminida umumiy tasavvur va tushunchalar hosil bo‘ladi, mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi. 2-3 yoshli bola ko‘p narsani ko‘rishni, ko‘p narsani bilishni va tushunishni istaydi, bu uning qiziquvchanlik va sinchkovlik xususiyatidan kelib chiqadi. U hamma joyga “tiqiladi”, kattalarga halaqit berib, ularning tinkasini quritib juda ko‘plab savollar beradi.

Kattalar mana shu savollarning hammasidan bolalarda tafakkurni o‘stirish va tevarak-atrofdagi olamni turli tushunishni tarbiyalash maqsadida foydalanishi g‘oyat muhimdir. Bola o‘z savollariga tushunarli javob olganidan keyin, bu ma’lumotlarni o‘z o‘yinlarida aks ettiradi va shu yo‘l bilan ularni xotirasida mustahkam saqlanib qoladi. Bola tevarak-atrofdagi olamni kattalarning tushuntirishi bilan bir vaqtda kuzatsa, atrofdagi olamni yaxshiroq tushuna boshlaydi, narsa va hodisalarni solishtiradi, ularning ayrimlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni va buning sabablarini aniqlaydi. Mana shuning o‘zi bolada ancha umumlashgan tafakkur paydo bo‘layotganidan darak beradi.

Bola tafakkurining rivojlanishi nutqning o‘sishi bilan mustahkam bog‘langandir, nutqning o‘sishi tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi, chunki so‘z narsa, predmet va harakatlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. O‘z navbatida, tafakkurning rivojlanish darajasi so‘z zaxirasining oshishiga, umuman, nutqning o‘shishiga yordam beradi.

Bu yoshdagi bolalarning yana bir muhim yutug‘i, ona tilini o‘zlashtirib olishlaridir. Bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan davr nutqning jadallik bilan o‘shish davri hisoblanadi.

Nutq bola hayotining ikkinchi yilida ikki bosqichda tarkib topadi. Dastlabki bosqich birinchi yoshning oxiridan bir yarim yoshgacha bo‘lgan davr bo‘lib, bolada bu davrda asosan kattalarning unga murojaat qilib aytgan gapini tushunish qobiliyati o‘shib boradi. Bolaning lug‘at boyligi ayniqsa bir yoshdan keyin, ya’ni yurishni

oʻrganib, tobora koʻp predmetlarga duch kela boshlagan davridan boshlab tez oʻsa boradi. Bola predmetlarning nomini tez bilib oladi.

Bola ikki yoshga toʻlganda, harakatlarning ham nomlarini bilib oladi. Bu harakatlarga bolaning oʻzi bajaradigan yoki kattalar tomonidan bajarilgan, nomi aytilgan va bola kuzatib borgan harakatlar kiradi. Bu “passiv” nutq hisoblanadi, chunki bola soʻzlarni tushunadi-yu, lekin ularni talaffuz qila olmaydi.

3 yoshlar arafasida predmetlarning vazifalarini toʻla oʻzlashtirgan bolalar, oʻz oʻyinlarida, shu predmetlardan maqsadsiz foydalanib qolmay, balki ularni oʻz vazifalariga koʻra ishlatadilar. Bolaning nutqi u 1,5 yoshga etgungacha birmuncha sekinlik bilan rivojlanadi. Bu davr ichida u 30-40 ta soʻzdan, to 100 tagacha soʻzni oʻzlashtiradi, lekin ularni amaliyotda juda kam qoʻllaydi. 1,5 yoshdan boshlab esa, uning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. Endi bola predmetlarning nomlarini aytishlarini soʻrabgina qolmay, balki bu soʻzlarni oʻzi talaffuz etishga ham harakat qiladi. Nutqining rivojlanish darajasi jadallashadi. 2 yoshlarning oxirlariga borib, bola 300 tagacha, 3 yoshlarning oxirlariga borib esa, 500 dan to 1500 tagacha soʻzni oʻz nutqida ishlata oladi, Shuningdek, soʻzlarni ham aniq talaffuz etib, jummalarni toʻgʻri tuza oladilar. 1,5 -3 yoshlar nutqning rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bola bilan soʻzlashayotganda kattalar soʻzlarni aniq talaffuz etishlari va boladan ham aniq talaffuzni talab etishlari lozim.

Bir predmetni boshqasi oʻrnida qoʻllash mumkinligini anglash, bola uchun atrof-olamni bilish, oʻrganishidagi ahamiyatli burilish hisoblanadi va u dastlabki tasavvurlarini yuzaga keltiradi. Bu yoshdagi bolalar endi, asta - sekinlik bilan kattalar aytib berayotgan ertak, voqea yoki hikoyalarni, shuningdek rasmda chizilgan narsalarni tasavvur eta oladilar. Ertaklarni eshitish jarayonida bola ertak kahramonlarini kimgadir oʻxshatishga harakat qiladi, baʼzida esa u oʻzi mustaqil ertak yoki hikoyalarni toʻqiy olishi ham mumkin. Ilk bolalik davrida xotira bilishdagi asosiy vazifa hisoblanib, u bilishning barcha koʻrinishlarini rivojlanishida ishtirok etadi. Bu davrda bolaning xotirasi jadal rivojlanadi. Bolaning hayotiy tajribalarni oʻzlashtirishida dastlab harakatli, emotsional va obrazli xotira ishtirok

etadi. Bu borada harakatli va emotsional xotira ustunlik qiladi. Xotira bu yoshda asosan ixtiyorsiz bo‘ladi. Bu davrdagi bolalarga ko‘p kitob o‘qib berish natijasida ular ertak, she‘r va hikoyalarni eslab qoladilar, lekin bunday eslab qolish bolaning umumiy aqliy rivojlanishidan ham, xotirasining individual xususiyatidan ham dalolat bermaydi. Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga xos bo‘lgan nerv tizimining umumiy egiluvchanligi natijasidir. O‘zi va atrof hayoti haqidagi voqea va hodisalarda ketma-ketlik borligi uchun ham ularni hali to‘liq ravishda xotirasida saqlab qola olmaydi.

Ilk bolalik davrida bolalar shaxsining rivojlanishi

Bu davrdagi bolalarning xatti-harakatlari ularning xohish va hissiyotlari juda o‘zgaruvchan bo‘ladi. Masalan, bolaning yig‘lashi hamda yig‘idan to‘xtashi juda tez o‘zgaradi. Ilk davrda bolada o‘z yaqinlariga: onasi, otasi, buvi-buvalari, tarbiyachisiga nisbatan muhabbat shakllanadi. Bola o‘z yaqinlaridan maqtov olishga harakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning xatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobiy emotsional baholari ularda o‘zlarining layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchini shakllantiradi. U o‘z ota-onasiga nihoyatda qattiq bog‘langan bo‘lib, intizomli va itoatkor bo‘ladi. Ana shu bog‘liqlik sababli bolaning asosiy ehtiyojlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo‘lgan bolalar ko‘proq harakat qiladilar va atrof muhitni o‘rganishga intiladilar. Bu davrda bola o‘z ismini juda yaxshi o‘zlashtiradi. Bola doimo o‘z ismini himoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala-munosabati uning o‘zini alohida shaxs sifatida anglashini boshlanishiga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab uning o‘z “Men”ini anglay boshlashi birmuncha avvalroq yoki kechroq yuzaga kelishi mumkin. 3 yoshli bola o‘zini, o‘z xohish va ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo‘lgan manba deb biladi va bu uning “Menga bering”, “Ko‘taring”, “Men ham boraman” kabi talablarida ko‘rinadi. Uch yoshli bolalar o‘zlarini o‘zgalar bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolalarda o‘z-o‘zini baholash vujudga keladi. SHu davrdan boshlab

bolalarda mustaqil bo‘lish ehtiyoji yuzaga keladi va bu ularning “o‘zim qilaman” qabilidagi so‘zlarida namoyon bo‘ladi.

3 yoshdagi inqiroz: 3 yoshga kelib bola o‘zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo‘lgan (huquqi bo‘lgan), ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladi. “Men katta bo‘lsam mashina haydayman”, “Men sizga katta tort olib kelaman”, “Mening yuzta qo‘g‘irchog‘im bo‘ladi” kabi xohishlarini o‘z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa ham o‘zining barcha xohishlarini shu bugun amalga oshirishga harakat qiladi. Ko‘pincha bunday xislat qat’iylik va qaysarlik bilan namoyon bo‘ladi. Bu qaysarlik asosan bolaning kattalarga bildirgan salbiy xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Bola o‘zini mustaqil harakat qila olishini anglagan vaqtdan boshlab, unda “o‘zim qilaman” boshlanadi va bu yana qaysarlik va o‘jarlik tarzida ko‘rinadi. 3 yoshdagi inqiroz bola shaxsining ma’lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti - harakatlarni qila olmayotganligini anglashi natijasi hisoblanadi. Inqiroz davrida yuzaga keladigan iroda, layoqat va boshqa bir qancha xususiyatlar uni shaxs bo‘lib shakllanishiga tayyorlaydi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Ilk bolalik davrida jismoniy rivojlanishning kechishi.
2. Ilk bolalik davrida etakchi faoliyat haqida gapiring.
3. Ilk bolalik davrida bolalar shaxsining rivojlanishning kechishi.
4. Ilk yoshdagi bolalarning aqliy taraqqiyoti ko‘rinishi
5. Bolaning psixik rivojlanishida paydo bo‘ladigan ehtiyojlar va qiziqishlar qaysilar?
6. 3 yoshdagi inqiroz qanday nomoyon bo‘ladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Ilk bolalik davrida etakchi faoliyat nima?

- a) O‘yin faoliyati;

- b) Predmetli faoliyat;
- c) Muloqot faoliyati.

2. Bolaning psixik rivojlanishini ta'minlovchi omillar va shart-sharoitlarni aniqlang.

- a) Tabiiy ijtimoiy muhit, maktabgacha tarbiya muassasalaridagi tarbiya va maktabdagi ta'lim.;
- b) Irsiyat, muhit, bolaning shaxsiy faolligi, tarbiya va ta'lim.;
- c) Oliy nerv faoliyatining tipi bilan bog'lik bo'lgan asab sistemasiga xos kuch va harakatchanlik.

3. 3 yosh krizisi (inqirozi) qanday xatti-harakatlarda ifodalanadi?

- a) O'zini o'zgalardan farqlay (ajrata) olish, o'z imkoniyatlarini tushunish, mustaqillikka intilish;
- b) Bola o'zining xatti-harakatlarini nima yaxshi-yu, nima yomon degan tasavvurga moslay boshlashi;
- c) Bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlashi, kattalar xatti-harakatlarini bajarishga intilishi, mustaqil harakat qila olishi, qat'iyiligi va qaysarligida ifodalanadi.

4. Bola to'g'ri yurishni, muloqotga kirishishni, predmetli faoliyatni egallash xususiyatlarini qaysi davrda egallaydi?

- a) Ilk bolalik davrida;
- b) Chaqaloqlik davrida;
- c) Kichik maktab yoshi davrida.

5. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy o'zgarishlar nimalar?

- a) Faol nutqning shakllanishi;
- b) Obrazli tafakkurning dastlabki nishonalari, atrof- muhitdan o'zini ajratishi;
- c) Barcha javoblar to'g'ri.

6. Nutqning o‘rinishini 2 davrni ko‘rsating.

- a) 1-davr - 1 yoshdan 1,5 yoshgacha- atrofdagilarni nutqini tushunishi - passiv nutkning rivojlanishi davri; 2-davr - 1,5-3 yoshda aktiv nutqni tez egallay boshlaydi, kattalarga taqlid qilib, har bir yangi so‘zni o‘zlashtirib oladi.
 - b) 1-davr - 2 yoshdan 2,5 yoshgacha- atrofdagilarni nutqini tushunishi - passivnutkning rivojlanishi davri; 2-davr - 2,5 - 3 yoshda aktiv nutqni tez egallay boshlaydi, kattalarga taqlid qilib, har bir yangi so‘zni o‘zlashtirib oladi.
 - c) 1-davr - 1 yoshdan 1,5 yoshgacha- atrofdagilarni nutqini tushunishi - passiv nutkning rivojlanishi davri; 2-davr - 1,5 - 2 yoshda aktiv nutqni tez egallay boshlaydi, kattalarga taqlid qilib, har bir yangi so‘zni o‘zlashtirib oladi.
 - d) 1-davr - 4 yoshdan 4,5 yoshgacha- atrofdagilarni nutqini tushunishi - passivnutkning rivojlanishi davri; 2-davr - 5,5 - 6 yoshda aktiv nutqni tez egallay boshlaydi, kattalarga taqlid qilib, har bir yangi so‘zni o‘zlashtirib oladi.
- 7-mavzu. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi.**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi.

2. Faoliyat shaxs rivojlanishining omili sifatida

3. Bog‘cha yoshidagi bolalar bilish jarayonlarining rivojlanishi

Tayanch tushunchalar: Go‘daklik (1 yoshgacha); Bolalik yoshi (1-2 yosh); Ilk yosh guruhi (2-3 yosh);

Kichik yosh (3-4 yosh); O‘rta yosh (4-5 yosh); Katta yosh (5-6 yosh); Maktabga tayyorlov davri, rivojlanish, nutq, so‘z, kun tartibi, ovqatlanish, gimnastik mashqlari, harakatli o‘yinlar, chiniqtirish tadbirlari, bosh miya po‘stlog‘i, funksional faollik.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo‘linadi:

- Go‘daklik (1 yoshgacha);
- Bolalik yoshi (1-2 yosh);
- Ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- Kichik yosh (3-4 yosh);
- O‘rta yosh (4-5 yosh);
- Katta yosh (5-6 yosh);
- Maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh)

Go‘daklik davri bolalarining rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar. Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to‘qqiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o‘taydi. Bu davrda ham bola ma’lum darajada tashqi muhit ta’sirida bo‘ladi. Shuning uchun ham bu ta’sirning ijobiy bo‘lishini ta’minlash lozim. Go‘dakning vazni tug‘ilgan paytda 3,5 kg, bo‘yi 50 sm bo‘lgan bo‘lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo‘yi 60 sm, 6 oylik bo‘lganda esa taxminan 7 kg, bo‘yi 64 sm bo‘ladi. Bir yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta’sirida bo‘lib, u ona suti bilan oziqlanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo‘lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a’zolarini tanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham go‘daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi.

Bolalik yoshi (1-2 yosh)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davrda bola bir yoshda bo‘lgan davrda dastlabki so‘zlarni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a’zolari go‘dakni to‘g‘ri parvarish qilishni yo‘lga qo‘yishlari lozim. “Bola tushunmas ekan” deb, unga befarq bo‘lmasliklari, atrof-muhitdagi buyumlarning nomini to‘g‘ri talaffuz qilib, ularning nutqini to‘g‘ri rivojlantirish uchun keng yo‘l ochishlari kerak. Oilada bolani tarbiyalashda ota-ona bilan bola o‘rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota-onalar hech qachon tarbiyani o‘z xoliga tashlab

qo‘ymasligi, ya’ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o‘rganadi, kuzatadi va o‘zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o‘rganadi. Bola nimaga o‘rgatilsa, uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlash zarur, ya’ni bola kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari, shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta’minlaydi.

Ilk yosh guruh (2-3 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davr o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan davr mobaynida bolaning nutqi va o‘zgalar tomonidan aytilgan so‘zlarni tushunish qobiliyatlari jadal rivojlangan bo‘lsa, 2-3 yoshga kelib, o‘zgalar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so‘z ta’siriga tez beriladi. Shuning uchun ham xuddi shu davrdan boshlab she’rlar aytish hamda raqsga tushishni o‘rgatish lozim. Ularda kattalarga jo‘r bo‘lib qo‘shiq aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko‘nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o‘zaro muloqotga kirishish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Ta’lim- tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan xuddi ana shu ko‘nikmalarni rivojlantirishda va ularni malakalarga aylantirishga yo‘naltirilmog‘i lozim.

Kichik guruh (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola 3 yoshga qadam qo‘yganda jismoniy o‘sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og‘irligi 14-15 kg, bo‘yi 90-95 smga etadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi.

Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o‘z xatti-harakatlarini idora qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo‘lib o‘ynash ko‘nikmalari shakllanadi. O‘yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda ko‘rish-yasash faoliyatining dastlabki ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati kisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o‘yin faoliyati etakchi rol uynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va

rivojlantirishga keng yo‘l ochadigan ta’limiy mashg‘ulotlar tizimini belgilab berishga yunaltirilgan.

O‘rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola to‘rt yoshga ettach, uning jismoniy o‘shishi bir muncha jadallashadi, bu davr mobaynida bo‘yi 105108 sm gacha o‘sadi, og‘irligi esa 18-19 kg bo‘ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po‘stlog‘ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko‘nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo‘ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni o‘zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o‘yinqaroq, o‘ta qiziquvchan bo‘ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. SHuning uchun ham ularni to‘g‘ri ovqatlantirish, o‘z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo‘lishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarning mazmunini xuddi mana shunga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Katta guruh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bu davrda bolaning bo‘yi bu davrda 7-8 sm ga o‘sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og‘irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to‘g‘ri o‘shishini ta’minlashga alohida e’tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali etarli darajada mustahkamlanmagan bo‘ladi. Olti yoshga etganda miya po‘stlog‘ining asab katakchalari rivojlanib, og‘irligi va tashqi ko‘rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq nutqi ravon bo‘lishini ta’minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo‘lgan takdirda uning oldini olish choralarini ko‘rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so‘z boyligining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so‘zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to‘la qondirishi kerak.

Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.

Bola hayotining ettinchi yilida undagi harakatlar ko'lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat ilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi Bu davrda bolaning bo'yi 120 sm ga etadi, og'irligi 22-24 kg bo'ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo'ladi, o'z salomatligini nazorat qila oladi, Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigienik malakalar shakllana boradi. Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga o'qishga ishtiyoq uyg'otish lozim. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim. Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta'lim olishga tayyor bo'lishi kerak. Bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. Shu bilan bir qatorda maktabning moddiy-texnik bazasi olti yoshli bolalarga ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'lishi shart.

Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin: birinchi davr - bu 3-4 yosh oralig'ida bo'lib, bola emotsional jihatdan o'zo'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir; ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o'z - o'zini boshqarish; uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning

ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir. Bog'cha yoshidagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari - bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baholari juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar. Bunday me'yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun syujetlirolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Kishilarga nisbatan diqqate'tibor, mehribon bo'lishi xususiyatidir. Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda o'z hatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar. 3-3,5 yoshlar oralig'ida o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning o'zlariga beradigan baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o'zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. O'z-o'zini anglash layoqati katta bog'cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo'lganini va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab ko'rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan "Men kichkina paytimda anday bo'lgan edim?", "Men katta bo'lganimda qanday bo'laman?" singari

savollarida ko‘rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlarga ega bo‘lishiga harakat qiladilar. Kichik va o‘rta bog‘cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan - iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog‘cha yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o‘rgana boshlaydi.

Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo‘yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o‘rnata olishida foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o‘yin faoliyatlarida o‘sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog‘cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo‘lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma xil bo‘lmas edi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarling xayollari turli xil mashg‘ulotlarda ham o‘sadi. Masalan, 3- 5 bog‘cha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o‘ynashni va rasm solishni yaxshi ko‘radilar, ana shunday mashg‘ulotlar bolalar xayolining o‘shishiga faol ta’sir qiladi. Bog‘cha yoshidagi bolalar xayolining o‘shishiga faol ta’sir qiluvchi omillardan yana biri - ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma’lum munosabatlari yuzaga keladi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg‘ular g‘oyat kuchli va juda tez namoyon bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg‘ulari ko‘p jihatdan ularning organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmaslgi bilan bog‘liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmaslgi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg‘ularini qo‘zg‘aydi. Katta bog‘cha yoshidagi bolalarda burch hissi “nima yaxshi-yu”, “nima yomon”ligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog‘liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni

bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuygʻulari paydo boʻlsa, biron tartib qoidani buzib qoʻyganlarida xafalik, taʼbi xiralik hissi tugʻiladi. SHuningdek, bogʻcha yoshidagi bolalarda maʼnaviy hissiyotlardan oʻrtoqlik, doʻstlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bogʻcha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez oʻsadi. Bogʻcha yoshidagi bolalarda estetik hislarning namoyon boʻlishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol koʻrish mumkin.

Tarbiyachining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axlok-odobi va shaxsiy sifatlari olti yoshli bolalarga taʼlim va tarbiya berish uchun loyiq boʻlganda, u olti yoshli bolalarni oʻqitish huquqiga ega boʻladi. SHuning uchun ham 6-7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan maktablar hamda bu bolalarni oʻqitadigan tarbiyachilar pedagogik- psixologik nuqtai nazardan alohida- alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina taʼlim jarayoniga kiritilishi kerak. Demak, maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi oʻziga xos, murakkab jarayon sanaladi. Maktabgacha taʼlim yoshi bolalarining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy taʼlimotga asoslanadi. Bu yoshdagi bolalarning toʻlaqonli rivojlanishida biologik (irsiyat), ijtimoiy (ijtimoiy muhit) va tarbiya kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, maktabgacha taʼlim yoshining oʻzi ham ettita oʻziga xos, alohida davrlarga ajratiladi. Shu sababli maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarning oʻqitish va tarbiyalash ishiga masʼul boʻlgan shaxslar - tarbiyachi va ota-onalar, vasiylar bolalarning yosh davri xususiyatlaridan toʻla xabardor boʻlishlari zarur. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qoʻlga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda oʻzlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan hatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning oʻsib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmogʻi kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bogʻcha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini oʻzlashtirish,

elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish, hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir. Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi 45 bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir. Bog'cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar. Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir. Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi. Bolaning kamol

topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi.

Faoliyat shaxs rivojlanishining omili sifatida

Irsiyat muhit va tarbiya rivojiga ta'sir yana bir o'ta muhim omilga bog'liq bu shaxs faoliyati. Bu bilan inson faoliyatining ko'p qirraliligi tushuniladi. Faoliyat jarayonida inson shaxsining har tomonlama etuk va barkamol rivojlanishi kuzatiladi, uning atrof-olamga munosabati shakllanadi. Faoliyat mo'ljallangan shaxsni shakllantirishga olib kelishi uchun uni jalb qilish va to'g'ri yo'naltirish kerak.

Bolalar va o'smirlar faoliyatining asosiy turlari - o'yin, o'qish, mehnat.

Yo'nalishi bo'yicha: ongli, ijtimoiy, sport, ijodiy, texnikaviy, faoliyatga bo'linadi. Faoliyat jarayonida muloqot katta ahamiyatga ega. Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. Hatto eng kichik bola ham o'zini faol mavjudot sifatida ko'rsata oladi. U kattalarga tengdoshlariga talablar qo'yadi, odamlar va narsalarga o'z munosabatini bildiradi. Keyinchalik muhit va tarbiya ta'sirida faolligi oshadi yoki susayadi. Juda ko'plab misollar keltirish mumkin, masalan: kishi ko'p ishlaydi, u juda band, lekin unda ishtiyoq yo'q, kayfiyati yo'q. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday faoiyat yuqori natijalarga olib kelmaydi. Yaxshi rivojlanish faqat emosional faoliyat orqali ta'minlanadi. Inson unga butun qalbini beradi, bor imkoniyatlarini sarf qiladi, o'zini shaxs deb ifodalaydi. Bunday faoliyatdan qoniqish hosil qiladilar, u kuch-quvvat va ilhom manbai bo'ladi.

Ta'limdagi faollik - o'quvchiga ijtimoiy tajribani tezroq va muvaffaqiyatliroq o'zlashtirishga imkon beradi, kommunikativ qobiliyatini rivojlantiradi, atrof-olamga munosabatini shakllantiradi.

Ongli faollik - bolaning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. U uchun ongli vazifalarni hal qilish ehtiyoji emas, balki egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash zaruriyati xarakterli.

Mehnat faolligi - shaxsning manaviy va axloqiy dunyosini jadal va muvaffaqiyatli, shakllanishini taminlaydi, ko‘p va muvaffaqiyatli mehnat qilishga tayyorgarlikni belgilaydi.

Faollikning barcha ko‘rinishlari birgina doimiy manbaaga ega - bu ehtiyojlar. Inson ehtiyojlarning turli-tumanligi ularni qondirish uchun kerakli turli faoliyat turlarini keltirib chiqaradi. O‘tib kelayotgan yosh avlodga faollikning foydali tomonlarini ko‘rsatish, soxta yo‘nalishlarini susaytirish - tarbiyaning doimiy va bir vaqtning o‘zida o‘ta murakkab vazifasidir. Uning murakkabligi shundaki, insonning kamol topishi davrida faoliyat ehtiyojlari va motivlari juda harakatchan va o‘zgaruvchan bo‘lmoqda. Turli yosh bosqichlarda faoliyat turlari va xarakteri o‘tib borishi kerak. Insonning faolligi - uning qobiliyat va sifatlarining rivojlanishi, muvaffaqiyatga erishuvining zaruriy shartidir. Bolani qanchalik zo‘r tarbiyachilar o‘rgatmasinlar, agarda u o‘zi mehnat qilmasa, hech narsaga erisha olmaydi. K. D. Ushinskiy: “o‘quvchi o‘zi o‘qishi kerak, pedagog esa, unga o‘qish uchun material beradi, o‘quv jarayoniga rahbarlik qiladi”, deb ta’kidlagan.

Shaxsning faolligi faoliyat kabi tanlash harakteriga ega. SHaxsning rivojlanishi har qanday ta’sirlarsiz inson ehtiyojlarini ifodalovchi, uning atrof olamga shaxsiy munosabatiga tayanuvchi ta’sirlar orasida o‘tadi.

Shunday qilib, bola faoliyatini ongli pedagogik tashkil qilish uning barcha ko‘rinishlarida faollikni ta’minlaydi. O‘tib kelayotgan yosh avlodni faol ishtirokchiga aylantiradi, uni shunday faoliyat turlari bilan qurollantiradi uning potensial (foydali) imkoniyatlarini ochib beradi - shaxsning rivojlanish jarayonini boshqaruvchi tarbiyachi (o‘qituvchi) ning funksiyasi shunday.

Bog‘cha yoshidagi bolalar bilish jarayonlarining rivojlanishi

Bog‘cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali birbiridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o‘yinchoqlar berish lozim, rangli kiyimlar berish, rangli xalqalar, qutichalar va shu singari o‘yinchoqlar berish maksadga muvofikdir. Bog‘cha

yoshidagi bolalarning turli narsalarni idrok qilishida ularning ko‘zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Bog‘cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o‘rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini (syujetini) to‘g‘ri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy ko‘rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o‘rnini to‘g‘ri idrok qilishga;
3. Tasvirlangan narsalar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri idrok qilishga qaratishkerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo‘ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bog‘cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o‘sib borishi uchun o‘yin juda katta ahamiyatga ega. O‘yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma‘lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagibolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o‘z oldiga qo‘ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlari uchun ahamiyatga ega bo‘lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar. Bog‘cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog‘cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko‘payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo‘lishi, uchinchidan esa, bog‘cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlaridir. Bog‘cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug‘ilishi, ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi.

Bola o‘z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so‘na boshlaydi.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug‘ilishi tufayli paydo bo‘ladi. Ko‘pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, “ko‘p mahmadona bo‘lma”, “sen bunday gaplarni qaerdan o‘rganding”, deb koyib beradilar. Natijada bola o‘ksinib, o‘z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg‘ulotlar va sayohatlarda kattalarning o‘zlari ham savol berishlari .va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. SHuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko‘rishga intiladilar. Agar 2 yashar bolaning so‘z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo‘lsa, 3 yashar bolaning so‘z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so‘z zahirasi 4000 taga etadi. Demak, bog‘cha yoshi davrida bolaning nutqi ham mikdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqining o‘shishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq. Kattalar bolalar nutqini o‘stirish bilan shug‘ullanar ekanlar, bog‘cha yoshidagi bolalarning ba‘zi hollarda o‘z nutq sifatlarini to‘la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to‘la takomillashmagan buladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muxim shartlaridan biri, bola bilan to‘la va to‘g‘ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi ko‘p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog‘liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo‘lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o‘ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og‘irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo‘yi esa 0,5 sm gacha ko‘payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va

engil yugura oladilar. Ular sakrash, konkida yugurish, changʻida uchish, suzish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa boʻyicha mashgʻulotlarda bu yoshdagi bolalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, engil va chaqqon bajara oladilar. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, koʻrish va eshitish qobiliyatiga alohida eʼtibor berish, shuningdek, umurtqa pogʻonasining toʻgʻri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali oʻsishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga oʻrgatish hali barmoq muskullari toʻliq rivojlanmaganligi sababli ularga maʼlum darajada zarar keltirishi yoki uni chiroyli yoza olmasligi, oʻz - oʻzidan bolani oʻziga nisbatan ishonchini yoki oʻqishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Keyingisi bolaning aqliy tayyorgarligidir. Koʻpincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning maʼlum bir dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan taʼlimga asos boʻlishi mumkin, lekin soʻz boyligi, maʼlum hatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy koʻrsatkichi boʻla olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, maʼlum bir xulosa chiqara olish, shuningdek etarli darajada rivojlangan bilish jarayonlarini talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bogʻliqligini va oʻzaro taʼsirini ham tushunishi va oʻzlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi boʻlib, yuqori darajada rivojlangan koʻrgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bogʻliqlikni ajrata olishidir. SHuni alohida taʼkidlab oʻtish lozimki, koʻrgazmali harakatli va koʻrgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning aqliy rivojlanishida ham asosiy vazifani bajaradi. Bu borada bolada maʼlum bir koʻnikmalarning tarkib topganligi ham nihoyatda muhimdir. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli oʻkishi nafaqat uning aqliy va jismoniy

tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog‘liq. Maktabga o‘qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo‘lgan va unga turli talablar qo‘yiladigan - o‘quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo‘lmog‘i lozim. Katta bog‘cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o‘qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo‘lishi mumkin. “Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi”, “Maktabda o‘rtoqlarim ko‘p bo‘ladi va men ular bilan mazza qilib o‘ynayman”, “Maktabda uxlatishmaydi”, “Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz maktabdagi bolalarni juda qizitiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun asosiy sabab bo‘la olmaydi”, “Men otamga o‘xshagan bo‘lishim uchun o‘qishim kerak”, “Yozishni juda yaxshi ko‘raman”, “O‘qishni o‘rganaman”, “Maktabda qiyin misollarni echishni o‘rganaman”. Ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun tabiiy ravishda asos bo‘la oladi. Bolaning endi o‘zini katta bo‘lganini, bog‘cha bolasi emas, balki ma’lum bir majburiyatlari bor o‘quvchi bo‘lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug‘ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabda shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o‘qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Har bir bola bolalar jamoasiga qo‘shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba’zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta’minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o‘qishdagi asosiy qiyinchilik, ko‘pincha bu yoshdagi bolalar o‘qituvchini uzoq vaqt davomida tinglab olmaydilar, o‘quv harakatlariga uzoq vaqt o‘z diqqatlarini to‘plab olmaydilar. Bunga sabab, faqat, shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olishi xususiyatiga ham bog‘liq. Chunki, shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so‘ray oladilar. Natijada ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi va o‘qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak,

bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta. Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlilikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi.

Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning konstruktorlik o'yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida ichki va tashqi harakatlarning sintezi yuzaga keladi, Biron bir narsani idrok qilish jarayonida bu sintez perseptiv harakatlarda, diqqatda ichki va tashqi harakatlar va holatlar rejasini boshqarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saqlab qolish va esga tushirishning ichki va tashqi tuzilmasini bog'lay olishda ko'rinadi. Tafakkurda esa amaliy masalalar echishning usullarini bitta umumiy jarayonga birlashtirish sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. SHuning asosida insoniy intellekt shakllanadi va rivojlanadi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bilish jarayonlarining sintezi bolaning o'z ona tilini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq me'yorlari va qoidalar egallaniladi. Bu me'yor va qoidalar bola axloqini boshqaradi. Bolaning uning atrofidagi kishilar bilan xilma-xil munosabatlari yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatleri, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi

kabi xislarning yuzaga kelishi hisoblanadi. Inson hayotida maktabgacha yosh, maktab yoshi davri hamda ijtimoiy etuklik — katta yosh davri bo‘ladi. Bu davrlardan har biri ichida qisqaroq yosh bosqichlari bo‘lib, ular inson kamol topishining muayyan, o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Masalan, ilk yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishining vazifasi va mazmuni, vosita va metodlari bu yoshdagi bolalarning nozikligi, yordamga muhtojligi, mustaqil hayotga moslashmaganligini e’tiborga olgan holda ishlab chiqiladi. Bog‘cha yoshiga kelganda bolalarda mustaqillik, hayotga moslashuvchanlik ancha o‘sgan bo‘ladi, shuning uchun bu yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ta’lim - tarbiya ishlarini amalga oshirish usullari ham o‘zgaradi. Bog‘cha yoshining oxiriga kelganda bolalarning rivojlanish darajalari ular bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarini birmuncha muraqablashtirishni taqozo etadi.

Ta’lim-tarbiya ishining vazifasi, mazmuni va metodini belgilash, kishining yosh bosqichlariga asoslanadi. YOSH davrlari kishining rivojlanishidagi zarur bosqichlardir. Shaxsning har bir yosh davr bosqichiga xos bo‘lgan sensor, aqdiy, hissiy, irodaviy tomonlari bo‘ladi; ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ham o‘zgaradi, bunday o‘zgarish umumiy rivojlanishga, xulqni boshqarishga ta’sir ko‘rsatadi. Ammo umr o‘tishi bilan kishining ruhiy taraqqiyoti ham rivojlanib boraveradi deyish noto‘g‘ri bo‘lur edi. Har bir yoshda ham kishining rivojlanishida, ayniqsa bolalikda ta’lim va tarbiya sistemasi, shaxsning faolligi hal etuvchi rolni o‘ynaydi. Ilk yoshdagi bolalar o‘zining tez jarohatlanishi, nochorligi kasalga tez chalinishi, yordamga muhtojligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, bu yoshda rivojlanish eng tez sur’atlar bilan boradi.

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, hayotini to‘g‘ri tashkil etish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni taqozo etadi. Bola ilk yoshdavrida emaklash, sirpanish, tortilish, yurish va shu kabi harakatlarni egallab oladi. Har bir harakat, malaka, ko‘nikmalarni o‘z vaqtida egallab olish bolaning o‘ziga xos xususiyatlari va tarbiyaga bog‘liq. Masalan, yaxshi parvarish qilingan bolalar shu yoshdagi yomon parvarish qilingan bolalarga nisbatan

birmuncha erta yura boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda aqliy tarbiyaning asosi bo'lgan sensor tarbiya, sezgi, idrok, tasavvurlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirish shu davrga xos bo'lgan belgilardan biridir. Uch yoshga kelganda bolalar ona tilining hamma tomonlarini egallab oladilar va bundan o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan muloqotda vosita sifatida foydalanadilar. Bu yoshda o'yin faoliyati, tasviriy va konstruktorlik faoliyati, buyumlar bilan bo'ladigan harakat faoliyatlarining asosiy usullari shakllana boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar o'z – o'ziga xizmat qilish bo'yicha oddiy malaka va ko'nikmalarni egallab oladilar, birgalikdagi o'yinlarda bir-birlari bilan muomala shakllariga, qabul qilingan umumiy qoidaga rioya qiladigan bo'lib qoladilar. Mana shu yoshdayoq ta'lim-tarbiya berishda bola shaxsining muhim tomonlaridan biri bo'lgan irodaviy sifatlarni ham sekin-asta tarbiyalab borish, umumiy qoida va normalarga itoat qilishga o'rgatish zarur. Bolalarni ilk yoshidan boshlab har tomonlama to'g'ri tarbiyalash uchun ularning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini bilish zarur. Ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalash yosh avlodni tarbiyalashning ajralmas qismidir. Fiziolog, psixolog, pedagog olimlar ilk yoshdagi bolalarning ijtimoiy tarbiyasiga katta hissa qo'shadilar. Bog'cha yoshiga kelganda bola organizmining etilishi davom etadi: 3—5 yoshgacha bo'lgan bolalarda oldingi yoshga qaraganda o'sish bir oz sekinlashadi, 5 - 8 yoshgacha esa o'sish yana tezlashadi. Bolaning yoshi o'sib, og'irliti ortishi bilan birga uning organizmidagi hamma to'qimalarda anatomik ,va funksional o'zgarishlar jarayoni davom etadi.

Bolaning tog'aylari suyakka aylana boradi, muskullari ko'payadi. Ammo bola organizmining ish qobiliyati ancha past bo'ladi, nerv to'qimalari ham tez charchaydi. 6—7 yoshga borib bola yurish, yugurish, sakrash, chirmashib chiqish, narsa irg'itish, konkida uchish kabi malakalarni, harakatlarni egallab oladi. Bog'cha yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishida jismoniy tarbiya markaziy o'rinni egallaydi. Bolaning imkoniyatini hisobga olgan holda oilada va bog'chada tarbiyaviy ta'sirlar sistemasi belgilanadi: kun tartibi, ovqatlanish, gimnastik mashqlar va harakatli o'yinlar, chiniqtirish tadbirlari. Bog'cha yoshidagi bolalar bosh miya

po'stlog'ining funksional faolligi takomillasha boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar nerv sistemasining o'ta sezgirligi bolalar taassurotlarini nihoyatda yorqin, idroklarini o'tkir, o'zlarini esa ta'sirchan qila-di. Shuning uchun bu yoshdagi, bolalar egallashlari lozim bo'lgan tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarni to'g'ri tanlash kerak. Bog'cha yoshi davrida bolalarga ma'lum maqsad bilan to'g'ri tarbiya berib, borilsa, ularning eshitish, idrok etish sezgilari, ulardagi ko'rgazmali, obrazli tafakkur, irodaviy, hissiy jarayonlari rivojlana boradi. Bolalarning bilimlari ortgan sari ular ko'rib, eshitganlari ustida mustaqil xulosalar chiqarishga o'rganadilar, ularning tahlil va sintez qilish qobiliyatlari, qiziquvchanligi va sinchkovligi ortadi. Agar boladagi tabiiy qiziquvchanlik o'z vaqtida qo'llab-quvvatlanmasa, bola passiv bo'lib qoladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar xayolining o'tkirligi, yorqinligi ularning har xil faoliyatlarida namoyon bo'ladi; kattalarning ta'lim - tarbiya ta'siri ko'rsatishi natijasida bolaning faoliyati ixtiyoriy boshqariladigan bo'lib boradi, bu esa mashg'ulotlarda, mehnatga bolaning diqqatini kerakli narsalarga jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Bolaning shaxs sifatida shakllanayotganligi uning fe'l atvorida namoyon bo'la boshlaydi. Bunda onglilikning ,o'sishi muhim ahamiyatga ega. Bola endi o'z xohishini ijtimoi, maqsadlarga bo'ysundira oladigan, o'zi va o'rtoqlarining xulqini baholaydigan bo'lib qoladi. O'yindagi vaziyatda, mashg'ulotlardagi ta'lim jarayonida bolalarda fe'l-atvorning irodaviy sifatlari namoyon bo'la boshlaydi. Bolada xulqning ongli shakli namoyon bo'lishi burch hissi va ijtimoiy hisslarning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Bog'cha yoshidagi bolalar o'ziga qo'yilgan talabning mohiyatini tushuna boshlaydi. Noto'g'ri xulqi, yomon ishi uchun kattalar tanbehidan tashqari o'zi ham uyaladi, to'g'ri xulosa chiqaradi. Bolalar yaxshi ishlaridan, ijtimoiy foydali ishlaridan qattiq quvonadilar. Shunday qilib, bog'cha yoshi davrida shaxsiga xos bo'lgan muayyan xususiyatlar shakllana boshlaydi. Bog'cha yoshida umumiy va shaxsiy qobiliyatlarning rivojlanishi uchun yosh imkoniyatlari mavjuddir. Bunday imkoniyatlar bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari mazmunini sekin-asta murakkablashtirib borish, o'yin, so'z, ko'rgazmali, amaliy metodlarni to'g'ri almashtirib borishni taqozo etadi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Go‘daklik davri bolalarining rivojlanishidagi o‘ziga xosligi
2. Bolalik yoshi (1-2 yosh) ning rivojlanish xususiyatlari.
3. Ilk yosh guruh (2-3 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari
4. Kichik guruh (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.
5. O‘rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.
6. Katta guruh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.
7. Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.
8. Bog‘cha yoshidagi bolalarning xususiyatlari.
9. Bog‘cha davrida bola shaxsining rivojlanishi shart-sharoitlari.
10. Bog‘cha yoshidagi bola faoliyatining psixologik xususiyatlari.
11. Bog‘cha yoshdagi bolada xulq motivlarining rivojlanishi va o‘ziga baho berishining shakllanishi.
12. Bog‘cha yoshidagi bolada bilish jarayonining rivojlanishi.
13. Bog‘cha yoshdagi bolaning maktabdagi ta’limga psixologik tayyorgarligi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Maktabgacha yosh davri necha yoshlarni o‘z ichiga oladi.

- a) 3 -7 yosh;
- b) 4 -5 yosh;
- c) 6 -7 yosh.
- d) 4-5 yosh

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy xususiyati nima.

- a) Muloqatchanligi;
- b) Harakatchanligi va taklidchanligi;
- c) Tashabbuskorligi.
- d) Tirishqoqligi

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xarakter xislatlaridan kaysilari faol rivojlana boshlaydi.

- a) Iroda, mustakillik, tashabbuskorlik;
- b) Mas'uliyatlilik, kizikuvchanlik;
- c) Mulokotga kirishuvchanlik.
- d) Xotira, diqqat.

4. Eng avvalo bola maktabga qaysi jihatdan tayyor bo'lishi kerak.

- a) Aqliy jihatdan;
- b) Axloqiy jihatdan;
- c) Jismoniy jihatdan.
- d) Psixologik jihatlar

5. Bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorgarligi qanday xususiyatlarda ifodalanadi.

- a) Bolada o'z hatti – harakatini boshqarish imkoniyati o'sganligida;
- b) Bola hissiyoti va irodasi rivojlanishidagi darajaning shakllanganligida;
- c) SHaxsning bilish faoliyati va turli psixik sifatlarini o'sishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar hajmining bolada shakllanganligida.
- d) Shaxsning bilish faoliyatining ko'rinishi.

6. Maktabgacha yoshdagi bolaning psixik taraqqiyotiga xos xususiyatlar qaysilar.

- a) Lug'at boyligining ortishi, diqqat va xotira hajmining kengayishi;
- b) Bolada ikkinchi signal sistemasining jadal rivojlanib borishi va tafakkurning shakllanishi;
- c) Bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi yangi ijtimoiy sharoitning kelib chikishi, o'z – o'zini tushunish va baholashning o'sishi, o'kuv faoliyati elementlarinig o'zlashtirilishi.
- d) Bolada birinchi signal sistemasining rivojlanganligi.

8- mavzu: O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar faoliyatining asosiy turi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin faoliyati

- 2. Ijodiy o‘yinlar, ularning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun taraqqiyoti asosi**
- 3. Didaktik o‘yinlarning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati.**
- 4. Harakatli o‘yinlar va jismoniy, aqliy rivojlanish uyg‘unligi.**

Tayanch tushunchalar:O‘yin, faoliyat, aqliy faoliyat, ijodiy o‘yin, didaktik o‘yin, harakatli o‘yinlar Syujetli - rolli o‘yin, sahnalashtirilgan o‘yin, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari qurilish o‘yinlari, idroki, tafakkuri, nutqi, harakat sohasi, ixtiyoriy xulq-atvori, kasbiy motivatsiya.

O‘tib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalash bugungi kunning davr talabidir. Shunday ekan, har bir ijtimoiy institut(oila, maktab, mahalla va hokozo)lar zimmasiga bola shaxsini kamol toptirish, ruhiy va jismoniy sog‘lom qilib tarbiyalashdek ma’suliyatli vazifani yuklaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning individual-psixologik xususiyatlari boshqa yosh davrlariga nisbatan farqlanadi va bu yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turi o‘yin hisoblanadi. Bolaning dastlabki taraqqiyotida o‘yinni tashkil qilish uchun harakatli o‘yinchoqlardan foydalanish o‘ta mahsuldor usul hisoblanadi. O‘yinchoq bolaga to‘plangan tajribasini namoyon qilish uni ijodiy qayta qurish uchun omil bo‘la oladi. O‘yinchoqlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, bolaning bilish jarayonlari ham shunchalik yo‘nalgan bo‘ladi va shundagina ob’ektiv olamdagi voqea-hodisalarni jadal ravishda o‘zgartirib (o‘zlashtirib) boradi.

Shu o‘rinda mutaxassis fikriga to‘xtalamiz: “o‘yinlar maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etilsa, bolaning bilish jarayonlari rivojlanadi, o‘yin faoliyatining o‘ziga xos shakllarini kengaytirish esa bolalarda tafakkur operatsiyalarining mazmunini boyishiga olib keladi” deb ta’kidlab o‘tgan edi A.V.Zaporojets.

Rivojlantiruvchi o‘yinlar va mashg‘ulotlar dasturlari har bir yosh davri va uning asosiy faoliyat turini hisobga olib ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bilan birga bolalarda kasbiy motivatsiyalarni shakllantirish uchun oddiy o'yinlar majmuini bilishning o'zi etarli emas albatta. O'yin istalgan boshqa vosita kabi faqatgina ma'lum shartlarga rioya etilgandagina yo'naltiruvchi vositaga aylanadi. Bu shartlarda esa psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi ilmiy bilimlarga tayanish lozim.

Bolalar uchun o'yin va o'yinchoqlar tanlashning yoshga mansubligi juda nisbiy hodisa: ularning deyarli barchasini yosh xususiyatlari imkoniyatlariga moslashtirish "jonli", "haqiqiy" rivojlantiruvchi va qiziqarli darajada tashkil etish lozim. Bu jarayonni amalga oshiruvchi maktabgacha yoshdagi 2 - 6 yoshli bolalar uchun amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan bolalarning o'yin faoliyatini tashkil etilishi, bola shaxsini shakllanishida va kasbiy bilimlarni egallashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yin mashg'ulotlarining mazmuni bolaning psixik rivojlanishini oldinga surish, uning idroki, tafakkuri, nutqi, harakat sohasi, ixtiyoriy xulq-atvori, ya'ni bola tomonidan asl o'quv dasturni muvaffaqiyatli o'zlashtirish asosini tashkil etadigan psixik funksiyalar va shaxsiy sifatlarni takomillashtarishdan iborat.

Bolalarimiz uchun eng yoqimli va quvonchli vosita bo'lgan o'yinlardan ayniqsa milliy xalq harakatli o'yinlarning roli beqiyosdir. Ananaviy o'yinlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va mustaqil hayotga tayyorlaydi. Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari kabi milliy xalq harakatli o'yinlari ham juda qadimiy hisoblanadi. Negaki milliy xalq harakatli o'yinlarning qudratli tarbiyaviy kuchga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunday ekan milliy xalq harakatli o'yinlar bolalarni o'z xalqining hayoti va turmush tarzi, madaniyati, kasbu-kori, hunarmandchiligi hamda xalqning ma'naviy o'tmishi bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. Milliy xalq harakatli o'yinlari o'zining obrazlilik, sodda, aniq va qiziqarliligi bilan bolalarga zavq beradi. O'yin o'ynash jarayonida bolalar turli asosiy hayot uchun zarur bo'lgan harakatlarni u yoki bu sohaga tegishli bo'lgan mehnat qurollarini o'yinchoq shakliga keltirilgan holatda bajaradilar.

Masalan: Yuradilar, yuguradilar, sakraydilar, kasbiy rollarni bajaradilar va hokozo. O'yinlarni kasbiy hatti- harakatlar asosida tashkil etilsa ya'ni turli xildagi kasbiy jihozlardan foydalangan holatda maxsus rollar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari o'yinlarni tashkil etish va qiziqarli ravishda o'tkazish ko'p jihatdan olib boruvchiga bog'liq.. O'yinlarni variantlashtirishga alohida e'tibor bermog'i zarur. Chunki o'yinlar variantlashtirilganda, bolalar o'z kuchlarini tejashga, ortiqcha harakatlarni bajarmay maqsadga erishishga harakat qiladilar, qiyin vaziyatlardan chiqish usullarini o'zlashtiradilar. O'yinlarni bolalarga variantlashtirib berishning yana qimmatli tomoni shundaki, o'zlari uchun mushkulroq bo'lgan vazifalarni bajarish yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni engishga harakat qiladilar. O'yin davomida bolalar murakkab vazifalarga ham duch keladilar. Ularni hal etishda bolalarning jismoniy rivojlanganliklarini, harakat malakalarini qay darajada egallaganliklarini inobatga olgan holda o'yinlarni tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi albatta.

O'yin bog'cha yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan.

O'yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa vakillari o'z o'yinlarida ovchilik urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Ba'zi hollarda o'yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Bola o'z o'yinida oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi Keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi.

O'yin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi. Bolalar o'yinini bunday tushunish birinchi marta K.D. Ushinskiy tomonidan ta'riflab berilgan edi. U o'z asarlarida bolalar o'yinining mazmuni ularning hayotdan olgan taassurotlari bilan belgilanib, ular shaxsi shakllanishiga ta'sir etadi, deb yozadi. Bu fikrni P.F. Lesgaft ham

tasdiqlab, bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks etgiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga ega ekanini olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o'yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

1.O'yin bilan mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish.

2.O'yinda bolalarning bo'lajak mehnat ahliga xos bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda, bog'chani ta'lim-tarbiya ishida axloqiy, mehnat va estetik tomondan tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi. Hayotiy faollik yaratiladi. Birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, juda katta ta'limiytarbiyaviy ahamiyatga ega. O'yinda aks ettirilgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'onadi, ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrlarini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalar o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular o'z mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra, qo'llaniladigan buyumlarning turlari kelib chiqishiga ko'ra turlichadir. Bularning barchasi bolalar o'yinlarini turkumlashtirishni favqulodda noziklashtiradi, biroq o'yinlarga rahbarlik qilish uchun ularni, albatta, guruhlash zarur.

Pedagogikada o'yinlarni ikki katta guruhga bo'lish juda kengtarqalgan ijodiy va qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlarning mazmunini bolalarning o'zlari o'ylab topadilar va ularda o'z taassurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar.

Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiritiladi. Mazmuni qoidalarning murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bo'ladi. Tayyor qoidali o'yinlarning katta guruhini xalq o'yinlari

tashkil etadi, ularning ko'plari avloddan-avlodga o'tib, bizga etib kelgan O'yinlarning har ikkala guruhi ham o'zining xilma-xil ko'rinishlariga ega. Ijodiy o'yinlar guruhini syujetli rolli o'yinlar tashkil etadi. O'yinlar o'z mazmuni va qoidalari, tarbiyaviy ta'siriga ko'ra shartli ravishdadidaktik o'yinlar va musiqiy o'yinlarga bo'linadi. Demak, har bir o'yinning o'zigaxos sifatlari mavjud, biroq ular qator umumiy xususiyatlarga ham ega.

O'yin - bu bola faoliyatining turi. SHunday ekan, bir faoliyatda bo'lgani kabi unga ham o'qotar xislatlar: maqsadning mavjudligi, rejali harakatlar, natijaning mavjudi kabilar xosdir. Bolalar rivojlanishiga qarab, uning o'yinda o'z oldiga qo'yadigan maqsadining tabiati ham o'zgarishini bolalar taqlidi harakatlardan astasekin o'ylangan asosli maqsadlarga o'tishlarini ko'rsatib o'tgan edi. Bola o'yindagi maqsadiga erishishi uchun o'ziga sheriklar tanlaydi, zarur o'yinchoqlarni topadi, o'yin davomida muayyan harakat va qiliqlar qiladi. Boshqa faoliyat turlarida bo'lgani singari o'yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati, uning psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti va ta'sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi, o'yinda bola faol harakat qiladi, gapiradi, o'z bilimlarini qo'llaydi. O'yin o'ziga xos xususiyatga ega. O'yin bolaning shaxsiy tashabbusiga ko'ra vujudga keladigan, o'zining faol ijodiy yo'sindagi, yuksak ta'sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustaqil faoliyatdir. O'yin ertalab nonushtagacha (15—20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg'ulotlar o'rtasida, ochiq havoda, uyqudan keyin o'tkaziladi. Ertalab rolli o'yinlar, qurish-yasash, harakatli o'yinlarni tashkil qilish tavsiya etiladi.

Mashg'ulot o'rtasida harakatli, qoidali o'yinlar ham o'tkazib turiladi. Ochiq havodagi o'yinlarga esa yugurish, otish, sirpanish bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar, qoidali o'yinlar (oq terakmi ko'k terak, ona bo'ri kabilar) kiradi. Kunduzgi uyqudan keyingi o'yinlarga qurilish o'yinlari, ertak bo'yicha sahnalashtiriladigan, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar va h.k. kiradi.

Ijodiy o'yinlar, ularning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun taraqqiyoti asosi

Ijodiy o‘yinlarga syujetli - rolli o‘yinlar, sahnalashtirilgan o‘yinlar, qurishyasashga doir o‘yinlar kiradi. Ijodiy o‘yinlarda bolalarning tevarak- atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o‘yin bolalarning mustaqil o‘yini bo‘lib, uning mazmunini bolalar o‘zlari o‘ylab topadilar. Bu o‘yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlari to‘laligicha namoyon bo‘ladi.

Syujetli - rolli o‘yin o‘z xususiyatiga ko‘ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarakatrodagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o‘yin mazmuni uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘yinning syujeti - o‘z harakati, munosabatlari bilan bog‘langan voqea, hodisalar va ularning harakatlari xursandchilik hissini paydo qiladi, shuninguchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, bola organizmdagi faoliyatni yaxshilaydi. O‘yin bolaning aqliy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘ynashlari uchun ma‘lum vositalar ham kerak. Masalan: bolalarning o‘z harakatlari, o‘yinchoq va boshqa materiallar. Bolalarning ko‘p harakatlari qurish yasash bilan bog‘liq bo‘ladi. Ular soatlab parovoz, paroxod, elektravoz quradilar, ularni asliga o‘xshatishga urinadilar. Tarbiyavositalariga o‘yinchoq ham kiradi. O‘yinchoq bola harakatini to‘ldiradi, o‘ylagan obrazi va fikrini amalga oshirishga yordam beradi. Masalan: qo‘liga qo‘g‘irchoqni ko‘tarib olganqizaloq o‘zini onadek sezadi va haqiqiy onalar bajaradigan ishni bajaradi, uniovqatlantiradi, kiyintiradi, uxlatadi va h.k. Bolalar o‘yin jarayonida ba‘zi bir narsalarni hohlagan narsalarining nomi bilan atab, xuddi o‘sha narsalarini faraz qilib juda yaxshi o‘ynaydilar. Masalan, qumni, “shakar”, o‘rindiqli “mashina” deb atashi mumkin. SHunday qilib, o‘yin ijtimoiy faoliyat sifatida jamiyatda muayyan vazifalarni bajaradi. Bola shaxsini rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Qurish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yin va mashg‘ulotlar tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarning qurilish, buyum yasash o‘yinlari rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinning tarkibiy qismidir. Biror narsani qurish bolalarni o‘z fikrlarini ro‘yobga chiqarish usuli hisoblanadi. Qurilish o‘yining boshlovchisi tarbiyachi bo‘lishi mumkin. Katta yoshdagilarning ishtiroki qurilish o‘yinlariga o‘z-o‘zidan

qiziqishni jalb qilishi mumkin. Bunda bolalarning asosiy diqqatlari biror narsani qurish jarayoniga qaratiladi. Bolalar o'z maqsadlari uchun maishiy turmushdagi narsalardan: g'ozalardan, yashiklardan, shoxchalardan tabiiy materiallardan esa qum, loy, suv qordan ham foydalanadilar. Bolalar ulg'aygani sari o'zlari qilgan qurilish ishlaridan ko'ngillari to'lmaydi. Ular o'z ishlarining haqiqiy qurilishiga ko'proq o'xshash bo'lishini istaydilar. Buning uchun bolalarga maxsus qurilish materiallari zarur bo'ladi. Qurilish materiallari turli xil geometrik shakldan iborat bo'lishi umkin. Qurilish o'yinlari bolalarning mehnat faoliyatiga yaqin bo'lib, ularni mehnatga tayyorlaydi. Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar bolalar tafakkurini rivojlantiradi, ularni qurilish ishlarining o'ziga xos xususiyatlarini ajratish, tahlil va sintez qilish, solishtirish, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlashga majbur etadi. Vazifalarni to'g'ri hal qilishga o'rgatadi. Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar geometrik jismlarning xususiyatlari, ular bilan ishlashda fazoviy nisbatlarni (uzoq-yaqin, baland-past, o'ng-chap, uzunqisqa, keng-tor) amalda bilib olishga yordam beradi. Bolalar qurish - yasash faoliyati jarayonida bir jamoa bo'lib birlashadilar, natijada, ularning nutqi rivojlanadi. Qurilish materiallari bilan o'ynash bolalarning ma'naviy dunyosiga ham ta'sir etadi: tarbiyachi bolalar bilan biron inshootni kuzata turib davlatimizning xalq farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatayotganligini tushuntiradi. Tarbiyachi bolalarni qurish - yasashga o'rgatish uchun tarbiyachi turli xil usullarni qo'llaydi:

- tarbiyachi bolalarga qurish - yasashdan oldin tushuntirgan holda qurib ko'rsatadi:
- tarbiyachi ko'rib ko'rsatgan ishni har bir qismini tahlil qilib beradi.
- tarbiyachi tayyor qurilishni namuna sifatida ko'rsatadi va uni tushuntirib beradi.
- tarbiyachi o'zi bitkazilmagan qurilishni bolalarga qurib bitkazishni taklif qiladi.
- bolalarga hohlagan mavzuda ixtiyoriy qurilishni taklif qiladi.

Sahnalashtirilgan o‘yinlarning o‘ziga xosligi shundaki, bolalar biror bir ertak yoki hikoya syujeti asosida ma’lum bir rolni bajaradilar. Sahnalashtirilgan o‘yin bolalarning eshitgan asarlar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash yoki mashq qilish imkonini beradi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so‘zlashga o‘rgatish usullaridan biridir. Ayrim bolalarda qayta so‘zlab berishga hohish ham qiziqish ham bo‘lmaydi, lekin unga o‘yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o‘sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi. Bunday o‘yinda bola o‘zini o‘sha asardagi qahramon o‘rnida his etib, uning sezgi kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so‘zlab berish bolalardagi xayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud bo‘lgan jasurlik, o‘zo‘ziga ishonch, mustaqillik kabi harakter kabi sifatlarini egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan o‘yinlarda tarbiyachi rahbarlik qiladi. Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli bo‘lib bola unga kirishib keta olsagina, asardagi obraz va harakatlar to‘g‘ri aks ettiriladi.

Sahnalashtirilgan o‘yinga tayyorlanish uchun ma’lum vaqt ajratiladi va har bir mashg‘ulotda aniq bir masalalar hal etib boriladi

Didaktik o‘yinlarning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati.

Didaktik o‘yinlar bolalar bog‘chasida ta’lim-tarbiya vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Didaktik o‘yinlar bevosita ta’lim bilan bog‘liq bo‘lib, unga yordam beradi. Didaktik o‘yin - bu bog‘cha yoshidagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta’lim berish metodidir. Tarbiyachi o‘z tajribasiga tayanib, bu o‘yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo‘rqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi.

Didaktik o‘yinlar bolalarning birgalikda o‘ynab, o‘z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishi bir-biriga ko‘maklashish va uyg‘otishning muvaffaqiyatidan xursand bo‘lish kabi yaxshi munosabatlarni tarkib topishiga

yordam beradi. O'yinlar shaxsning sofdillik, rostgo'ylik kabi ijobiy xislatlari shakllanishiga imkon beradi. Didaktik o'yinlar bolalarning amaliy faoliyati sanaladi. Chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shuning uchun ham didaktik o'yinlar bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Shuningdek, didaktik o'yinlar bolalarni tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlari, ijodiy kuchlar, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonini engilroq qiziqarliroq o'tishiga yordam beradi. Bolalar yoshlariga mos qiziqarli faoliyat orqali o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda osonlik bilan yaxshi o'zlashtiradilar. Didaktik o'yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha ko'p quvonch bag'ishlaydi. Didaktik o'yinning eng muhim jihati uni o'tkazishdan ko'zda tutiladigan g'oyadir. O'yin g'oyasi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otadi, ko'pincha bu g'oya didaktik o'yinning bosh sababi bo'ladi. Masalan, qutichada nima bor? kim qanday qichqiradi? va shunga o'xshash. Har bir didaktik o'yin mazmuni g'oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo'ladi. Unda qoidaning mavjudligi harakat yo'nalishini yoki o'yinning borishini belgilab beradi, bolalarning xulqini, o'zaro munosabatlarini boshqarib, kerak tomonga yo'naltirib turadi. Qoida bolalar harakatini baholovchi mezon sanaladi. Didaktik o'yinlarda amal qiluvchi qoidalar o'yin harakatlarining to'g'ri noto'g'riligini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon sanaladi. O'yin natijalari bolalarning ma'naviy va axloqiy oзуqaliganliklari bilan belgilanadi. Ayniqsa, bolalarning fahm-farosati, topog'onligi, diqqat va xotirasini namoyish qiladi. Bularning hammasi bolalarning o'z kuchiga ishonchini oshiradi, to'ldiradi, ular bundan ma'naviy qoniqish hosil qiladilar. Didaktik o'yinni bolalarning bergan savollari, takliflari va tashabbuslariga qarab, o'yin jarayonida kutilmaganda kengaytirish, uning mazmunini boyitish mumkin. O'yinni belgilangan vaqtda boshlash va tugatish katta mahoratdir.

O'yinni tarbiyachi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otgan holda tugatishi kerak, toki bolalar shu o'yinni yana davom ettirishni hohlasinlar. Didaktik o'yinlar guruh xonasi, zal, maydoncha, o'rmon, dala va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Bu o'yinning ta'sirchanligini, taassurotlarning har xilligini, bolalarning faolligini oshiradi. SHunday qilib, didaktik o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish vositasi bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Harakatli o'yinlar va jismoniy, aqliy rivojlanish uyg'unligi.

Harakatli o'yinlarni tanlab olishda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi hamda jismoniy mashqlarni mos ravishda belgilay olishi kerak.

Bola etti yoshga etib maktabga qadam qo'yganda uning tayyorgarligi darajasini hisobga olish zarur. Masalan, sakrash o'yinlari qiziqishda ehtiyotkorlik talab etiladi, chunki, avvalo bola-ularni sakrash usullariga jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'rgatish lozim. Albatta bog'cha bolalarining harakat ko'nikmasi va malakasini rivojlantirishda gap-harakat texnikasini chuqurroq o'rgatishda emas. Masalan, bolalar uzunlikka yugurib kelib sakrashga o'rgatiladigan bo'lsa, avval ularni sakrash oldidanbirdaniga to'xtatib qolmaslikka, yugurishni sekinlashtirmaslikka, sakrashdan oldin bir oyoqda deqsanib, ikkala oyoq bilan yumshoq, tushishga o'rgatish lozim. Faqat shundan so'ng sakrash o'yinlariga o'tilsa bo'ladi chunki bu kabi o'yinlar tufayli bolalarda sakrash uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni hosil qilish mumkin, bundan tashqari shu kabi harakatli o'yinlar chaqqonlik, jasurlik kabi jismoniy xususiyatlarni ham rivojlantiradi.

Harakatli o'yinlarni tanlab olishda, eng avvalo tarbiyachi kitob va qo'llanmalarda berilgan o'yinlarning jismoniy va psixologik ta'siri jihatlarini bilishi kerak. Yana shuni unutmaslik kerakki, o'yin vazifasi qo'yilgan faqat harakatlarga mos bo'lishi shart emas, balki harakatli o'yinlar yordamida bolalar ruhiyatiga birbiri yordamlashish qo'llab-quvatlash hislatlarini tarbiyalash lozim.

Buning uchun "Qoch bolam, qush keldi". "Pir-etdi», "Mushuk keldi" va boshqa o'yinlardan foydalansa bo'ladi.

Maktabga tayyorlov guruhleri bog'cha yoshidagi bolalarga harakatli o'yinlarni tanlab olishda ularning qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bu yoshdagi bolalarni o'yinlardagi bo'ri, qo'zi, sichqon, mushuk qiyofasi, surati, namunalar qilishi qiziqitirmaydi aksincha ularning xatti-harakati, masalan, mushukning chaqqonlik bilan sichqonning sakrab ushlab olishi qiziqtiradi. O'yinlarda harakatlar murakkablashib boradi. Masalan, «Bo'rilar zovurda» o'yinida bolalar yugurib kelib to'xtab qolishi, so'ngra sakrab chaqqonlik bilan bo'rilarga tutqich bermasdan zovurdan o'tib ketishi kerak. Bu yoshdagi bolalarga, shuningdek, ikki tomon bo'lib o'ynash, qarama-qarshilikning mavjud bo'lishi ko'proq qiziqtiradi. Masalan, "Ikki yahob" o'yinida bir tomon "Yahoblar" bolalarni "yaxlatib" qolishdan qochishga harakat qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalari bilan turli estafetalarni uyushgan holatda qiziqish oson emas. O'yin-estafetani qiziqish bir qaraganda oson tuyuladi, lekin bolalar o'yinlarini kuzatish natijalari shuni ko'rsatadiki, bunaqangi o'yinlar bolalar uchun hech qanday tushuncha bermaydi, oqibatda ular bolalarni tartibning buzilishini sabrsizlik, betoqatlik, xunob bo'lishlik, bir-birini turtish, asabiylikka olib kelishi mumkin. O'yinda yutqizgan hamda g'olib chiqqan komanda bolalarini o'yin tugagandan keyin tinchlantirish juda murakkab kechadi.

Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar tarbiya talab bo'lganligi uchun ham ularda sezgirlik, tez yugurish, chaqqonlik bilan predmetlarni o'zlash, olib borish kabi ko'nikmalar xali xosil bulmaganligi hamda komanda oldida mas'uliyat xissi shakllanmaganligi, biror xatti-harakatni anik baxolay bilmasligi, boshkalarning harakatini ham yaxshi tushuna olmasligi ko'zatiladi. Bu fazilatlar va jismoniy rivojlanganlik etishmasligi uchun ham ularni tarbiyalash lozim.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning hozircha o'zini yaxshi tuta bilmasligini e'tiborga olib, guruhleri ikki jamoaga emas, balki 4-5 guruhlarga ajratib olish zarur. Bu guruhlar ketma-ket holatda turmay, bir-birini yaxshi ko'rib turishi uchun o'tirib olishi ham mumkin, chunki navbati bilan startga chiqish tartibini saqlab turishi kerak. Bunday o'yinlarda bolalar bir-birini kuzatadi, har bir guruhdan bitta ishtirokchi tezlikda, chaqqonlikda, aniq, nishonga otishda mahoratini ko'rsatadi. G'olib chiqqan

o'yinchi o'z jamoasiga ochko keltiradi. O'yin tugagandan so'ng to'plangan ochkolar hisoblanib ko'riladi. Eng ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib deb topiladi.

O'yinni tashkil etishda barcha shart-sharoitlar to'g'ri hisobga olinsa, uning tarbiyaviy ahamiyati oshib boradi. Buning uchun o'yin paytida bo'ladigan chiziqlar chegaralar masofalari, kerakli o'yin predmetlari: koptok, bayroqcha kabilar taqsimlab borilishi lozim, keyinchalik esa bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga odatlantirish kerak. Ko'pincha tarbiyachi bu tashkiliy ishlarni bolalardan biri yoki ikkisiga navbatchi sifatida topshiriq berib o'rgatadi, shunda har safar navbatchi almashtirib turiladi.

Tarbiyachi o'yin qiziqishdan oldin uni qanday tushuntirishni o'ylab ko'rishi kerak. Tushuntirish juda qisqa, aniq, lo'nda bo'lishi kerak o'yin mazmuni, qoidalarini tushuntirishda mayda gaplardan xoli bo'lish zarur. Shundan keyin o'yinchilardan kim qaysi erda turishini aytib o'tishi kerak.

Bolalarga tanish o'yinni qiziqishda har gal to'liq tushuntirish shart emas, ammo o'yin qoidasini tarbiyachining o'zi ta'kidlab o'tishi zarur. O'yin qoidasini bajarishda tez-tez xatoga yo'l qo'ygan bolani ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'yin o'tkazilayotgan vaqtda tarbiyachi faqatgina kuzatuvchi bo'lib qolmasligi kerak. O'yinni shunday qiziqtirish kerakki, ular bundan quvonib, qanoat hosil qilib, murakkab qoidalarni o'rganib olishsin. Tarbiyachi o'yin davomida qatnashuvchilarni kuzatib alohida bolalarga e'tibor berib, gohida rag'batlantirib, gohida qoida buzganlarga tanbeh berib rahbarlik qilishi kerak.

Ba'zi tarbiyachilar ayrim qoida buzarlikka e'tibor bermaydilar. Faqat belgilangan paytdagina xushtak chalinishi kerak, tarbiyasi ko'rinib turgan xatolarni unutmasligi kerak, ya'ni bu xatolarni ko'rsatish bolalarda irodani, tartibni tarbiyalaydi. ularni ortiqcha xatti-harakatlardan saqlaydi, bardoshli va intizomli bo'lishdek muhim sifatni keltiradi. O'yin jarayonida bolalarni darhol to'xtatishga ham o'rgatish zarur. Shunday qilib, bolalarni shunday umumiy qoidaga o'rgatish lozimki, xohlagan o'yin paytida belgi yoki xushtakka ("chapak", "to'xta", yoki

“o‘yindan to‘xtang” so‘zga) shundan so‘ng tarbiyachini gapiga, tushuntirishiga qat’iyan rioya qilish kerak. Lekin o‘yinni ko‘p to‘xtatmaslik kerak, chunki o‘yinda bolalar hayajonda bo‘lishini unutmaslik kerak. Tarbiyachi o‘yinni qiziqish chegaralariga ham diqqat qilishi kerak. Bu, ayniqsa, juda mas’uliyatli payt, chunki o‘yinning zavq bilan o‘ynalishida vaqtda ham e’tibor beriladi. Masalan, gimnastika mashqlariga qaraganda o‘yin vaqtini belgilash murakkabroq bo‘ladi. Bolalardan “Charchab qoldinglarmi?” - deb so‘rash mumkin emas, zavqlanib, qiziqib o‘ynayotgan bolalarga bu ta’sir qilishi mumkin. Shu bois tarbiyachi bolalarning charchaganligiga tashqi ko‘rinishiga (tez-tez nafas olishi yuzining qizarib ketishi), xulqiga (tez-tez qoida buzishlar, qo‘pollik, lanjlik) e’tibor berishi va o‘z vaqtida o‘yinni to‘xtatishi lozim. O‘yin har xil tugallanishi mumkin. 6-7 yoshli bolalarni o‘yinning o‘zigina emas, balki natijasi ham qiziqtiradi. Shu bois har bir o‘tkazilgan o‘yindan keyin uning natijasini tahlil qilish lozim. O‘yinda qaysi bir bola chaqqonlik, epchillik mahoratini ko‘rsatkanini, do‘stona qo‘llab o‘ynagani, qoidaga rioya qilmaganligi to‘g‘risida aytib o‘tishi lozim. Har bir o‘yin natijasini tarbiyachi o‘ziga xos ravishda tushuntirishi, bolalar uchun chiroyli tahlil qilib berishi kerak.

Misol tariqasida “Ayyor tulki” o‘yini olib ko‘rsatish mumkin. O‘yin ishtirokchilari o‘zaro bir qadam masofada doira yasab turadi. Doiradan tashqarida tulkining “uyi” chiziladi. Tarbiyachi bolalarga ko‘zlarini yumishni buyuradi va doirani (bolalarning orqasidan) aylanib o‘tib, birortasining orqasiga tegib o‘tadi, keyin tarbiyachi bolalarga ko‘zlarini ochishni buyuradi va diqqat bilan qarashga ruxsat beradi. “Ayyor tulki qaerdasan?” deb, bir-birlariga qarashadi.

Shundan so‘ng tulki doira o‘rtasiga yugurib chiqadi va qo‘l ko‘tarib, “Men bu erdaman”, deydi. Hamma bolalar maydoncha bo‘ylab chopib ketadilar, tulki ularni quvlaydi. Shunday qilib, tulki 2-3 bolani to‘tgandan so‘ng, tarbiyachi “Doira bo‘ylab turinglar”, deydi va o‘yin qaytadan boshlanadi. (1-rasm).

Umuman harakatli o‘yinlarning aksariyati bolaning ham jismoniy va ham ma’nan rivojlanishiga asoslanadi.

Bolalarni jismoniy kamolotini ta'minlash maqsadida quyidagi harakatli o'yinlar tavsiya etiladi: "Ko'z boylog'ich", "Qoch bolam qush keldi", "Koptok o'yini", "Pat", "Chori chamber", "Bekinmachoq", "Doiraga tort", "Oqsoq qapg'a", "Biz quvnoq bolalarmiz", "Oq terakmi ko'k terak", "Kim tez o'raydi", "Buyumni almashtir", "Ovchig'on", "Bo'sh joy", "Kim uzoqqa sakraydi", "Do'ppi yashirma", "Xo'rozlar jangi" kabilar.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining oldiga qo'ygan asosiy maqsadi bolalarni aqliy zo'riqishini oldini olish, ish qobiliyatini oshirish, sog'ligini mustahkamlash, jismoniy kamoloti va harakatchanligini takomillashtirishdir.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uch qismni o'z ichiga oladi:

1. Tayyorlov qismi (10-15 daqiqa). Bu o'quvchilarning o'yin maydonchasiga kelishi bilan boshlanadi.

Uning mazmuni: saflanish, tarbiyachining tashkiliy ko'rsatmalari, maydoncha bo'ylab bir qator saflanib, 300-500 metrgacha sekin yurish, umumiy badan tarbiya mashqlarini bajarishdan iborat.

Jismoniy tarbiya soati boshlanishidagi yurish va yugurish yurak-qon tomiri va nafas olishi tizimining faolligini va mashq qilish faoliyatini oshiradi, qonning kislorod bilan tez ta'minlanishiga olib keladi.

Asosiy qismdagi faol harakatlar epchillik, chaqqonlik, tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga imkon beradi: bolalarning harakatchanligini oshiradi, harakatli o'yinlar haqidagi bilimlarini to'ldiradi.

3. Yakuniy qism (5-7 daqiqa). Tarbiyalanuvchilar umumiy safga turadilar. Maydoncha bo'ylab erkin yuradilar yoki diqqatni to'plab olishga imkon beradigan mashqlarni bajaradilar.

Jismoniy tarbiya soatlari samarali o'tishi uchun maxsus joy, jihozlar, asbobanjomlar va ular saqlanadigan joylar bo'lishi kerak shuning uchun har bir guruhda har xil diametrdagi rezina to'plar, kalta arg'amchi (20-25 ta), uzun arg'amchi (5-10 ta), badminton uchun raketka (5-10 ta), gulacha (5-6 komplekt), kichik samokatlar har xil bayroqchalar, barabanlar, xushtaklar, xalqalar, shaxmat-

shashkalar, basketbol, voleybol va futbol to'plari bo'lishi kerak. O'yin bolalar yoshiga mos bo'lsa u dangasani mehnatsevar, tirishqoq, qat'iyatli bo'lishga, bolalar jamoasini uyushtirishga, ba'zi uyatchan va indamas bolalarni faollashtirishga yordam beradi. Intizomga rioya qilishga, boshqalarning xatti-harakatini to'g'ri baholashga o'rgatadi. Harakatli o'yinlar bolalarni yurish, yugurish, sakrash va tirmashib chiqish singari faoliyatlarga undaydi. O'yin orqali ularda sezgirlik, chopqirlik, bir-birlarini himoya qilish va yordam berish, xullas jismoniy chiniqish va jamoatchilik xislatlari tarkib topadi. Didaktik o'yinlar esa ta'limiy harakterda bo'lib, ko'proq o'quvchilarni fikrlashga, hisoblashga, topqirlikka undaydi. Har bir didaktik o'yinning ma'lum bir maqsadi, topshiriqlari bo'lib, bolalarga quvnoq kayfiyat bag'ishlash bilan birga, tirishqoqlik, boshlangan ishni oxirigacha yetkazish singari irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o'yinlarning ham, didaktik o'yinlarni ham bola hayotida, ularga ta'lim-tarbiya berishda ahamiyati beqiyosdir. Kichik yoshdagi bolalar ko'proq rolli o'yinlarni o'ynaydilar. Ular shofyor, dengizchi, shifokor bo'lishni yaxshi ko'radilar.

Har qanday o'yinning qiziqarliligi va emotsional o'tishi ko'p jihatdan tarbiyachining tashkilotchiligiga, tayyorgarligiga va bu sohadagi malakasiga bog'liqdir.

Tarbiyachi o'yinlarni ma'lum maqsad asosida ko'rmog'i va reja asosida muntazam uyushtirmog'i lozim. O'yin uchun joy tayyorlash masalasida ob-havoga ham qarash kerak. O'yin vaqtida bolalarning o'yin qoidalariga rioya qilishni tarbiyachi kuzatib borishi zarur. Mashg'ulotning davom etishi uning mazmuniga asoslanadi. O'yin davomida tarbiyachi bolalarning harakatlarini kuzatib borishi, ularning tashabbuskorligini taqdirlab turishi kerak. Har bir o'yinni xuddi bayramdagidek ko'tarinki ruhda o'tkazilishi lozim. Biz o'yinda bir-ikkita misol tariqasida keltirami.

1. "Xalalaxash to'ti" o'yini. 2

O'yin sport zali yoki ochiq maydonchada o'tkazilishi mumkin.

Sanash yo‘li bilan boshlovchi belgilanadi. Maydonga katta aylana chiziladi. Bu «uy» hisoblanadi. Hamma o‘ynovchilar shu uy ichiga tarqalib cho‘kkayib o‘tiradilar. Boshlovchi o‘rnidan turgan bolani tutishga harakat qiladi. Bolalar boshlovchi o‘zlaridan uzoqlashganda tik turadilar, agar yaqin kelsa cho‘kkayib o‘tiradilar. Boshlovchidan bo‘lak hamma bolalar “Xalalaxash to‘ti” deb qichqirishib ham turadilar. Tik turgan paytda boshlovchining qo‘li tekkan bola tutilgan hisoblanadi va boshlovchi bilan rol almashtiriladi.

O‘yin bolalar xohishiga qarab davom ettiriladi.

1. O‘ynovchilar aylanadan chiqib ketmaydilar.
2. Cho‘kkayib o‘tirgan bola tutilmaydi.
3. Tutuvchi bolalarga qo‘l tekkizadi, qattiq tutishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘yinning ahamiyati. Bu o‘yin bolalarni ziyrak, kuzatuvchan qiladi, oyoq

. Qarang. Xolida Xasanova. «Xalalaxash to‘ti» uyini. Boshlangich ta‘lim jurnali. 9-10-son. 1992 yil 19- bet
musukllarini mustahkamlaydi, chaqqon qiladi.

2. “Qoch bolam qush keldi!”

Ilon izi bo‘lib yurish, tez harakatlanish, chaqqonlik va sezgirlik.

O‘yinda “Burgut” - murabbiy, “Jujalar” - bolalar ishtirok etadilar. Onaboshi – “jo‘jalarni onasi” rolini bajaradi. “Burgut” “Jo‘jalar”ni tutib olishga harakat qiladi. “Onaboshi” ularni avaylab-asraydi, “Burgutga” em qilmaslikka urinadi. Shu bilan birgalikda, bir-birining belidan ushlab saf tortgan bolalarning tarqalib ketmasliklarining ham nazorat qiladi. “Burgut”, tutilgan “Jo‘jalar”ni qutqarishga, “Onaboshi” kelayotganda ehtiyot bo‘lib o‘zini qo‘riqlaydi. qutqarilgan “jo‘jalar” “Onaboshi” ning ortidan yana saflanadilar.

Uslubiy ko‘rsatma: “Onaboshi” bolalarning harakatlarini boshqarib turishi, ularning “ilon izi” bo‘lib yurishini ta‘minlashi, bolalarni asrashga qaratilgan harakatlarini bajarishga erishishi lozim.

3. “Poyga”

Tezkorlik va chaqqonlikka o‘rgatish, yugurish qobiliyatini o‘stirish.

O‘yin ishtirokchilari o‘zaro “Chavandoz” va “Ot” larga bo‘linib, juftliklar hosil qilishadi. Ikki jamoa bo‘lib start chizishga kelib turishadi. O‘yinboshining ishorasi bilan aylanaga kirishadilar va maydonning nargi chetidagi ro‘molcha (bayroqcha) ni birinchi bo‘lib olib kelish uchun musobaqalaashadilar.

Uslubiy ko‘rsatma: ro‘molcha (yoki bayroqcha) lar jamoalardagi chavandozlar soniga qarab hozirlashadi. O‘yin davomida “Chavandoz” va “Ot” lar almashtiriladi.

Bolalarning yugurish chog‘laridagi harakatlariga e’tibor beriladi, ishora bilan qoidaga rioya etish ta’minlanadi. Qaysi jamoa ilgariroq ko‘proq ro‘molchaga (bayroq) chaga olib kelsa g‘olib hisoblanadi.

Maktabgachatarbiyamuassasalaridaquyidagiqurishyasasho‘yinlarinibajarishnit avsiyaetamiz:

1. Tayyor qurilish materiallaridan ko‘prik yasash.
2. Qurilish materiallaridan samolyot tasvirini yasash.
3. Tabiiy materiallar bilan qurish-yasash.
4. Qurilish materiallaridan ko‘p qavatli uy tasvirini qurish-yasash.
5. Transport vositalaridan birinchi tasvirni yasash.
6. Temir yo‘l transporti vositalari tasvirini tashlandiq materiallar va turliqutichalardan qurish-yasash.
7. Ko‘p qavatli uy mavzusida qurish-yasash.
8. Kvadrat shaklidagi qog‘ozdan savatcha yasash.
9. Qog‘ozdan har xil archa o‘yinchoqlarini qurish-yasash.
11. Qog‘ozdan hayvonlar tasvirini yasash.
12. Qog‘ozdan kapalak tasvirini yasash.
13. Qog‘ozdan bosh kiyim tasvirini yasash.
14. Qog‘ozdan platka-qurish-yasash.
15. Qog‘ozdan qurbaqa yasash.
16. Qog‘ozdan tipratikan yasash.
17. Qog‘ozdan qayiqcha yasash.
18. Parrandalar tasvirini qog‘ozdan yasash.

Biz quyida qurish-yasashga doir bir necha amaliy mashg'ulotlarni olib ko'rsatamiz.

1. “Minora yasash”.

Maqsad: bolalarda detallashtirish malakalarini hosil qilish va bunga qurilishga bo'lgan bilimlarini o'stirib borish va rangiga ko'ra bayroqchalar tanlash. Og'zaki instruktsiya bo'yicha qurishni o'rgatish. Qurilish o'yinlarini o'rgatish, nutq faolligini takomillashtirish.

Kerakli materiallar: Har bir bolaga ma'lum rangdagi beshtadan kubiklar, klyonkadan kesilgan va g'altakka mahkamlangan turli rangdagi bayroqchalar, matryoshka.

Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi bolalarga oldilariga turgan kubiklardan baland minora qurib, uni xuddi shu rangdagi bayroqchalar bilan bezatishni taklif etadiqurilish vaqtida tarbiyachi maslahatlar beradi, ish tartibi qanday bo'lishini eslatishni taklif qiladi. Matryoshka yordamida qurilishlarda o'ynaydi va baholaydi. Ikkinchi mashg'ulotda bolalar turli rang va balandlikdagi 2 ta minora qurishlari mumkin, ularni shunga mos rangdagi prizmalar bilan bezaydilar. (3 kubik va 1 prizma, 4-kubik va 1 prizma). Har bir bola oldidagi 2 xil rangdagi kubiklar, prizmani stol ustidagi qutidan bolarning o'zlari tanlab oladilar.

2. “Kuchuk uchun uycha” mashg'uloti.

Maqsad: Bir biridan uzoq, bo'lmagan 2 ta g'ishtni tik quyishni, keyin ularga 3 tomondan uzun, tor tomoni bilan yotiq tomoni bilan zich qilib quyishni o'rgatish.

Material: 5 ta g'ishtcha, kuchuk yoki o'rdakcha, tovuq jo'jalari bilan tarbiyachining mashg'ulot mazmunini boshqa sohalar bilan bog'lashi: kuchuk, o'rdakcha, tovuq rasmlarini qurish. Hazil she'rlar o'qish.

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi: Bolalar, bizga kuchukcha mehmon bo'lib keldi, ana: “Vov-vov” u uy qurib berishimizni so'rayapti. Stolda turgan narsalarga qaranglar. Mana g'ishtdan uy qurdik. G'ishtlarni shunday o'rnataylikki, uycha issiq, katta bo'lsin.

Tarbiyachi o‘zi uycha qurib harakatlarni izohlaydi. Eshik qilish uchun 2 ta g‘ishtni tik qo‘yamiz. Keyin g‘ishtlarni yotiq o‘rnatadi, orada tirqish qolmasin, shunda kuchuk sovuq qotmaydi. Tarbiyachi bolalar bilan birga g‘ishtlarning ingichka, uzun tomonini eslaydilar. Mana kuchukchamizga issiq, chiroyli uy ham qurildi. Kuchukcha mana shu uychada yashaydi. Endi sizlar ham kuchukchalarimizga uycha qurasizlar. Bolalar uychalarini qurishga kirishadilar. Tarbiyachi g‘ishtlarning to‘g‘ri zich terilishiga diqqatni jalb qiladi. Uylar bitgach, o‘yinlar o‘ynashadi. Tarbiyachi - O‘yin ko‘ring kuchukdan,

Yugurar tup ketidan birdan boshlanadi yomg‘ir,

Uyga qochdi it qypp‘yp.

(Hamma itlar uylariga yashirinadilar).

Mana yomg‘ir tindi. Quyosh chiqdi itlar uychalaridan chiqqishdi. Yugurib quvlashayapti. “Vov-vov-vov” (bolalartakrorlashadi). Takroriy mashqlarda jo‘jaga, tovuqda, o‘rdakka uy quradilar, o‘ynaydilar.

Mashg‘ulot oxirida tarbiyachi: “Kelinglar bolalar, qurilishni yig‘ib, g‘ishtlarni qutichalariga taxlaymiz, keyin sayr qilgani chiqamiz”-deydi. Barcha ishni saranjomsarishta qilib qo‘yishadi.

3. “Hayvonlar uchun qo‘ra qurish”.

Maqsad: Tor va kichik qirticha 4 ta g‘ishtni joylashtirish va ularga tor qirralarda yotgan g‘ishtlarni mahkam o‘rnatish.

Material: 7 ta g‘ishtcha, 1-2 ta hayvon o‘yinchoq.

Mashg‘ulotni tarbiyachining boshqa vositalari bilan bog‘lash hayvonlar tasvirlangan rasmlar asosida hikoyalar to‘qish, she‘rlar o‘qish (kitobchadan).

Ushbu tarzda olib boriladigan harakatli o‘yinlar bolalarda qurish-yasashga oid ijodkorlikni, topqirlikni shakllantiradi. Qurilish materiallarini nomini bilib oladi. Qurilgan maskanlari nimaga kerakligini eslab qolishadi. Hamda qo‘l harakatlari ham uyg‘unlashadi.

O‘yin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi. Bolalar o‘yinini bunday tushunish birinchi marta K.D. Ushinskiy tomonidan ta‘riflab berilgan edi. U o‘z asarlarida

bolalar o‘yining mazmuni ularning hayotdan olgan taassurotlari bilan belgilanib, ular shaxsi shakllanishiga ta’sir etadi, deb yozadi. Bu fikrni P.F. Lesgaft ham tasdiqlab, bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks etgiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga ega ekanini olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o‘yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

- 1.O‘yin bilan mehnat o‘rtasida to‘g‘ri munosabat o‘rnatish.
- 2.O‘yinda bolalarning bo‘lajak mehnat ahliga xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘yin faoliyatining ahamiyati
2. Ijodiy o‘yinlar, ularning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ahamiyati nima?
3. Didaktik o‘yinlarning bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini tushuntiring.
4. Harakatli o‘yinlarning jismoniy rivojlanishdagi ahamiyati.
5. Harakatli o‘yinlarning aqliy rivojlanish bilan uyg‘unligi.
6. Tezkorlik va chaqqonlikka o‘rgatish, yugurish qobiliyatini o‘stirishda qanday o‘yinlardan foydalaniladi?
7. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi nima?
8. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining qismlari va olib boriladigan ta’lim mazmuni haqida gapiring.

Mavzu yuzasidan test savollari:

- 1. Mutaxassis fikriga to‘xtalamiz: “o‘yinlar maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etilsa , bolaning bilish jarayonlari rivojlanadi, o‘yin faoliyatining o‘ziga xos shakllarini kengaytirish esa bolalarda tafakkur**

operatsiyalarining mazmunini boyishiga olib keladi” deb ta’kidlab o‘tgan edi

- a) A.V.Zaporojets.
- b) YA.A.Komenskiy
- c) YU.K. Uspenskiy
- d) P.A. Lesgaft

2. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari necha qismni o‘z ichiga oladi:

- a) 3
- b) 4
- c) 6
- d) 8

3. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tayyorlov qismiga necha daqiqa ajratiladi?

- a) (10-15 daqiqa).
- b) (3-5 daqiqa).
- c) (8-12 daqiqa).
- d) (15-20 daqiqa).

4. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tayyorlov qismida necha metrgacha sekin yuriladi?

- a) 300-500 metrgacha sekin yurish
- b) 200-300 metrgacha sekin yurish
- c) 100-150 metrgacha sekin yurish
- d) 400-500 metrgacha sekin yurish

5. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining asosiy qismdagi qaysi jismoniy sifatlar tarbiyalanadi?

- a) faol harakatlar epcillik, chaqqonlik, tezkorlik sifatleri
- b) egiluvchanlik, faol harakatlar epcillik sifatleri

- c) og'irlik kuch, epchillik sifatleri
- d) harakatchanlik, epchillik, chaqqonlik, tezkorlik sifatleri, kuch.

6. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining yakuniy qismga qismiga necha daqiqa ajratiladi? a. 5-7 daqiqa

b. 10 - 12 daqiqa

c. 8 -10 daqiqa

d. 15-20 daqiqa

9-mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya ishlarini rejalashtirish va hisobga olish.

- 1. Maktabgacha ta'lim sohaning dolzarb vazifasi. “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2707-sonli Qaror mazmun-mohiyati. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mazmun-mohiyati.**
- 2. Bolalar bog'chasida pedagogik jarayonni tashkil etishning maqsadi va vazifalari**
- 3. Mashg'ulot turlari va tuzilishi.**
- 4. Mashg'ulotlarda tarbiyachining etakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi.**

Tayanch tushunchalar: farmon, qaror, maktabgacha ta'lim tizimi, fiziologiya, tarbiya, ginetik, mashg'ulot, tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, tarbiyachi, guruh.

Maktabgacha ta'lim sohaning dolzarb vazifasi. “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2707sonli Qaror mazmun-mohiyati. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mazmun-mohiyati.

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g‘oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o‘zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi – Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o‘quvmetodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi - faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 30 dekabr kuni matbuotda e’lon qilingan “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu tizim faoliyatini maktabgacha ta’lim muassasalarining yangi bir bosqichga ko‘tarish ya’ni yurtimizda maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiytexnik holatini yaxshilashga va sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

Shu o‘rinda aytish joizki, Xalq ta’limi vazirligining 2016 yil yakuniy ma’lumotlariga ko‘ra, respublikada 4916 ta maktabgacha ta’lim muassasalari mavjud

bo'lib, ularda 689 ming nafardan ortiq bolalar tarbiyalanmoqda. Shundan 194 tasi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari bo'lib, ularda 5715 nafar bolalar tarbiyalanoqda. Shu bilan bir qatorda, bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi hamon pastligicha qolmoqda. Respublikada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichi 27 foizni tashkil etadi. Qamrov ko'rsatkichi, asosan, viloyat va shahar markazlardagi maktabgacha ta'lim muassasalari hisobiga to'g'ri kelmoqda. 2016 yil ko'ra respublikada jami bog'cha yoshidagi (2-7 yosh) bolalar soni 2,5 mln.dan ortiq bo'lib, 689 ming nafarini (shulardan 40 foizi qishloq, 60 foizi shahar) maktabgacha ta'lim muassasalari qamrab olgan. Qariyb 73 foiz bolalar esa maktabgacha ta'lim tizimidan chetda qolmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktab bilimini yaxshi o'zlashtirishi, maktabga moslashuvning engil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasiga jalb etilganligi, ta'limga qamralganligi alohida ahamiyatga egadir.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlarda inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning etmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi keltirilgan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda eng avvalo oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim muassasasining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 30 dekabr kuni matbuotda e'lon qilingan "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilishi shubhasiz. Albatta, mazkur masalaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q.

Ortga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘tgan 25 yillik mustaqillik davrida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda ta’limni tubdan isloh qilishning muhim bosqichlari amalga oshirilib, mohiyatan hech qaysi bir davlatda mavjud bo‘lmagan uzluksiz ta’lim tizimi shakllantirildi. Ya’ni, yosh avlodning maktabgacha ta’lim muassasalaridan to oliy ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz bilim olishlari, kasb o‘rganishi uchun shart- sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu borada, ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasalari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta’lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e’tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo‘lmay ulg‘ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lib voyaga etishlarini ta’minlashdek ezgu maqsad mujassam.

Jumladan, davlatimiz rahbarining qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dasturda keng ko‘lamli strategik maqsadlar, muhim vazifalar belgilangani bilan ahamiyatlidir. Xususan, hujjatda bugungi kundagi hayotiy talab va ehtiyojlar, sohada echimini kutayotgan masalalar hamda hali ishga solinmagan imkoniyatlar hisobga olinganligi barchamizni quvontiradi. Ayniqsa, kelgusi besh yillikda 2200 ta maktabgacha ta’lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan, qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta’lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, multimedia resurslari bilan ta’minlash hamda ushbu maqsadlar uchun jami 2,2 trillion so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilayotgani ushbu qaror o‘z ichiga nechog‘lik keng ko‘lamli vazifalarni qamraganligini ko‘rsatadi. Haqiqatdan ham, bugungi kunda

qishloq joylarida maktabgacha ta'lim muassasalari sonini keskin oshirish zaruratiko'rinmoqda. Ayrim qishloq sharoitida yashaydigan yosh onalar uchun bolalar bog'chasi masalasi hayotiy ehtiyojga aylangan. Albatta, bu ehtiyoj bejiz emas.

Maktabgacha ta'lim muassasalari, birinchidan, maktab yoshiga qadar bo'lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish hissini uyg'otish, Konstitutsiyani o'rgatish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini berayotgan bo'lsa, ikkinchidan, yosh bolali onalarning mehnat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga ham xizmat qiladi. Qolaversa, hududlarda namunaviy loyihalar asosida barpo etilayotgan yangi uy-joy massivlarida yosh oilalar farzandlari uchun bolalar bog'chalari sonini ko'paytirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Qarorga muvofiq, ayni shu maqsadda joylarda xorijiy tajribadan va mamlakatimizning iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda, namunaviy loyiha asosida 70 va 120 o'rinli 50 ta zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarining bunyod etish hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish, 983 tasini mukammal ta'mirlash orqali kengaytirish nazarda tutilmoqda. Bu orqali bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 1,5 barobar oshirishga erishiladi. SHu bilan birga, qarorga ko'ra qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida otaonalar badal to'lovini 30 foizgacha kamaytirish nazarda tutilayotgani kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar uchun engillik yaratadi. Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to'liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin.

Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar mahoratini ilg'or usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham dolzarb sanaladi. Ayni shu omillarni inobatga olgan holda qarorda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda

takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddaodir. Chunki, biz o‘z oldimizga farzandlarimizning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadini qo‘ygan ekanmiz, shubhasiz, pedagog - tarbiyachilarning malakasini oshirish borasidagi mavjud tajribalarni zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishimiz zarur. SHu bilan birga, maktabgacha ta’lim muassasalarini psixolog, defektolog kabi mutaxassislar bilan ta’minlash ham bugungi kun talabidir. Shuning barobarida maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni maktabga tayyorlashda qisqa muddatli tayyorlov guruhlarining roli muhim sanaladi. Ayni shu sababli kelgusida bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo‘lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.

Qolaversa, maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda ota - onalarning pedagogik - psixologik bilimlarini oshirish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Davlatimiz rahbarining mazkur qarorida 3 - 6 yoshdagi maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash orqali maktab ta’limiga tayyorlashni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilgani bolalarni ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlash darajasini yuksaltiradi. Shu o‘rinda maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to‘garaklar, ma’naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an’analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san’atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo‘lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

Muxtasar aytganda, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otadi, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida har tomonlama qulay shart- sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha

yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va etuk shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Bolalar bog‘chasida pedagogik jarayonni tashkil etishning maqsadi va vazifalari.

Bolalar bog‘chasida pedagogik jarayonni tashkil etishning asosiy maqsadi bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo‘lgan davrda har tomonlama puxta ta‘lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirishdir. Maktabgacha ta‘lim turli yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash bilan birga, ularni sog‘lom, har tomonlama etuk qilib tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta‘lim olishga tayyorlashda otaonalarga yordam beradi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi.

Maktabgacha ta‘lim bola 6-7 yoshga etguncha oilada hamda davlat va davlatga qarashli bo‘lmagan maktabgacha bolalar muassasalarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta‘lim bola shaxsini maktabgacha bolalar ta‘lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq sog‘lom, etuk, maktabda o‘qishga tayyor tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi.

- bolalarni xalqning boy milliy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma‘naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g‘urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilishini shakllantirish, ularni muntazam ravishdagi ta‘lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalar tafakkurini rivojlantirish
- o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;

Bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘ligini ta‘minlash. Fiziologiya, gigiena, psixologiya, pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bolalar

bog'chalarida kichkintoylar hayotini tashkil etishning quyidagi tamoyillari va vazifalari ishlab chiqildi:

1. Har bir yosh guruhida bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash va ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan bir xil shart- sharoitlar yaratish;
2. Bolalarni yosh guruhlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarni tanlash va shunga qarab ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etish;
3. Bolalarning har xil faoliyat bilan shug'ullanishlari va bir-birlari bilan muloqotga kirisha olishlari uchun zarur bo'lgan moddiy muhitni yaratish. Buning uchun guruh xonasi va maydonchani gigienik, pedagogik, estetik talablar darajasida kerakli asbob - anjomlar bilan ta'minlash;
4. Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini ta'minlash;
5. Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma'lum vaqt ajratish;

Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida almashtirib borish bolalar bog'chasining har xil yosh guruhlarida bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishni ta'minlaydi. Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang - barangdir. Tarbiya masalalari ta'lim - tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyati, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish, o'zo'ziga xizmat qilish, sayrlar, gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ta'limtarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir.

Bolalar bog'chasining pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, o'yin, mehnat, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq o'stirish, savod o'rgatish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni,

malaka hamda ko‘nikma sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalar bolalar bog‘chasi dasturida belgilab berilgan bo‘lib, u bolalarning umumiy rivojlanishi va ularni maktab ta‘limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlarda ta‘lim berish didaktika tamoyillari asosida bolalarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olib, ma‘lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada, u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo‘ladi.

Dasturda har bir yosh guruhida hafta davomida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar soni va har bir mashg‘ulot qancha davom etishi belgilab qo‘yilgan. Tarbiyachi mana shunga asoslanib, o‘zining haftalik mashg‘ulotlar jadvalini tuzadi, bu ta‘limning hamma bo‘limlari bo‘yicha belgilangan ta‘lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi.

Mashg‘ulotlar jadvalini tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

1. Dasturning hamma bo‘limlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni haftaga teng taqsimlash.
2. Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg‘ulotlar qo‘yiladi.
3. Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.
4. Kun davomida birinchi bo‘lib bolalardan aqliy zo‘r berishni ko‘proq talab etadigan, kam harakatli mashg‘ulotlar rejalashtiriladi (tevarak- atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa va shunga o‘xshash mashg‘ulotlar keyinroqqa rejalashtiriladi.

Tarbiya fangina bo‘lib qolmay, balki san‘at hamdir, uni egallash uzoq vaqt davom etadi. O‘zi o‘qiydigan, doimo bilimini oshirib boradigan kishi Tarbiyachidir, degan qoida tarbiyachiga ham bevosita taalluqlidir. Doimo o‘zini tarbiyalash bilan, tarbiya ilmi va san‘atini egallash bilan shug‘ullanadigan tarbiyachigina haqiqiy tarbiyachi bo‘la oladi. Bu borada allomalardan biri “Bolani tarbiyalash tarbiyachining o‘zo‘zini takomillashtirishidan boshqa narsa emas”, degan edi. Biz shuni esdan chiqarmasligimiz kerakki, tarbiya ob‘ekti bo‘lgan bola uzluksiz o‘sadi, yildan-yilga tarbiya sharoitlari o‘zgaradi, bularning hammasi tarbiya ishida murakkab vaziyatlar

yaratadi, bu esa tarbiyachidan ijodiy yondashishni talab etadi. Tarbiyachining o'ziga talabchanligi, o'zining har bir xatti-harakatini nazorat qilib bora olishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga qo'ygan talablarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovidir.

Har bir olib borilayotgan dasturdagi ish mazmuni o'z oldiga quyidagi maqsadni qo'yadi.

Bu talablar:

- Bolaning sog'ligini saqlash va mustahkamlash:
- Aqliy qobiliyatlarni o'stirish:
- Milliy qadriyatlar, ma'naviyatimizning g'oyaviy- aqliy tamoyillariga mos e'tiqod va qarashlarni tarkib toptirish:
- Ona Vatanga muhabbatni, do'stlik xissasini, halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish.

Shu bilan bir qatorda bugungi tarbiyachilarning asosiy vazifalaridan biri bolalarning ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirib borish orqali ularda milliy xususiyatlarni shakllantirib borishdan iboratdir. Bu jarayon esa juda erta boshlanishi lozim. Ya'ni: kichik yosh davri bolalarda oila haqidagi tushunchalarni bola qalbiga ta'sirchan qilib etkazish uchun xalq qo'shiqlaridan alla, erkalatma, ovutmachodardan foydalanish mumkin.

Mashg'ulot turlari va tuzilishi.

Kun davomida mashg'ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va h.k.

Mashg'ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini engilroq o'zlashtirib olishiga imkon yaratadi.

Kun davomida bir necha marta: ertalabki qabul vaqtida, ertalabki va kechki sayrda bolalarning mustaqil faoliyatlari tashkil etiladi. Bolalar o'zlariga tanish bo'lgan didaktik va harakatli o'yinlarni o'ynaydilar, hohlagan rasmlarini chizadilar, hohlagan narsalarini yasaydilar, kitoblar, rasmlarni tomosha qiladilar, hohlagan badiiy asarlarini tinglaydilar. Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish

soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtda bolalarning o‘z-o‘zini tashkil eta bilish qobiliyati o‘shiga, xulq madaniyati irodaviy sifatlarning tarbiyalanishiga, jamoa munosabatlarining shakllanishiga yordam beradi. U har xil faoliyatlarda bolalardagi o‘ziga xos ijodkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun bolalarning mustaqil faoliyatiga ham tarbiyachining rahbarlik qilishi talab etiladi: Chunki hohlagan ishi bilan shug‘ullanishiga imkon yaratish, kerakli material va asbob-uskunalar bilan ta’minlashda, tarbiyachining maslahati lozim bo‘ladi.

Kun davomida sistemali ravishda mehnat faoliyati tashkil etilib, bolalar kattalarning mehnati bilan tanishtirib boriladi. Bu ish mashg‘ulotlarda, ekskursiyalarda, maqsadli sayrlarda, bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnati davomida amalga oshiriladi. Bunda bolalarning asosiy e’tibori mehnatning insonlar uchun foydasiga, uning xilma- xilligiga, ishlayotganlarning axloqiy munosabatlariga qaratiladi.

Bolalarning ovqatlanishi, mashg‘ulotga tayyorlanishi, tabiat burchagida navbatchi vazifasini bajarish, ularda topshiriqqa nisbatan javobgarlik hissini rivojlantiradi, shu bilan birga ijtimoiy his va munosabatlarni shakllantiradi. Bolalar hayoti kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi kun tartibiga binoan tashkil etiladi. Buning uchun hamma zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Kichkina guruh bolalarning ko‘p vaqti guruh xonasida o‘tadi. Yaxshi jihozlangan xona, o‘yinchoq va qo‘llanmalarni to‘g‘ri tanlash bolalarning to‘laqonli hayot kechirishining asosiy sharti hisoblanadi. Guruh xonasidagi o‘yinchoqlar bu yoshdagi bolalarning 2—3 ta bo‘lib o‘ynashlarini e’tiborga olib joylashtirilishi, bir qancha o‘yinlar uchun o‘yinchoq burchagi tashkil etilishi, unda yana qurilish materiallari, harakatlanuvchi o‘yinchoqlar ham bo‘lishi kerak, qolgan o‘yinchoqlar, rasmlar, shkaflarga bolalar bemalol oladigan qilib joylashtirilishi lozim. Xonada bolalarning polda mashina, aravachalarni bemalol yurgiza olishlari va yirik qurilish materiallari bilan o‘ynashlari uchun ham joy ajratilishi kerak, harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar binoning maxsus xonalarida saqlanadi va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridagina olib chiqiladi. Maydonchaga qum yashiklari, bolalarning

sakrashlari, tirmashib chiqishlari uchun kerakli jihozlar, qorda, muzda uchishlari uchun chanalar qo'yiladi.

II kichik guruh. Moddiy muhit ikkinchi guruh bolalari uchun ham xuddi birinchi kichik guruhnikidek tashkil etiladi. Bundan tashqari, kuzatish va mehnat uchun tabiat burchagiga akvariumda baliq, to'rlarda qushlar va mayda hayvonlar joylashtiriladi. Guruh xonasidan kitob javoni uchun joy ajratiladi. Bog'cha maydonchasida sport o'yinlari bilan shug'ullanish uchun maxsus joy buladi, u kerakli anjomlar bilan jihozlab qo'yiladi.

O'rta guruh. Guruhda uxlash xonasi, hojatxona va echinish xonasi bo'lishi kerak. Guruh xonasi bir necha bo'limdan iborat bo'lishi kerak. Birinchi o'yin bo'limida qo'g'irchoqpar hamda kerakli narsalar joylashtirilgan shkaf bo'ladi. Ikkinchi o'yin bo'limida qurilish materiallari qo'yiladigan shkaf va ular bilan o'ynash uchun joy ajratiladi. Shu xonaning yana bir qismida bolalarning badiiy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanishlari uchun kerakli materiallar qo'yiladi. Kitob burchagi va stol usti bosma o'yini bilan shug'ullanishlari uchun o'yin burchagida tinchroq joyni ajratish kerak. Tabiat burchagini derazalarga yaqinroqqa joylashtirgan ma'qul. Xona amaliy san'at asarlari va ko'kalamzorlashtiruvchi o'simliklar bilan bezatiladi. Maydoncha boshqa maydonchalardan yashil, manzarali o'simliklar bilan to'silib, jismoniy mashqlar va sport o'yinlar uchun kerakli asboblar bilan jihozlanadi.

Katta guruh. O'yin bo'limlari bolalarning yoshiga mos holda o'rta guruh xonasi kabi jihozlanadi. Guruh xonasida yana mashg'ulot o'tkaziladigan bo'lim ajratiladi va u erga tarbiyachining stoli, ekran, shkaf, taxta joylashtiriladi. Bolalarning mustaqil o'ynashlari uchun hamma kerakli materiallar (stollar, o'yinchoqlar solingan qutichalar, vitrina shkafi, tokchalar va boshqalar) bo'lishi lozim. Tabiat burchagi, qo'l mehnati bilan shug'ullanadigan burchak, kitob burchagi, tasviriy faoliyat burchaklari bo'lishi kerak.

Tayyorlov guruhi. Bu erdagi mashg'ulot o'tkaziladigan bo'limda katta guruhdagi singari bolalar uchun ikki kishilik stollar qo'yiladi. Guruh xonasidagi jihozlar zarurat tufayli shug'ullanganda o'yinga joy bo'shatish maqsadida boshqa

tomonga surib qo'yadigan qilib joylashtiriladi. Maydonchada sport o'yinlari va har xil o'yin uchun joy ajratiladi, gulxona va poliz tashkil etilib, u erda bolalar o'zlari gul va sabzavotlarni etishtiradilar.

Bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan talablar.

Kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish. Bolalarning bog'chada 9-12 soat bo'lishi kun tartibida belgilab qo'yilgan. Bunda ertalabki qabul muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning bog'chadagi vaqti qiziqarli, sermazmun o'tishini ta'minlaydi. Shunday qilib, kun davomida bolalar hayotini tashkil etishdagi talablar quyidagicha:

1. Bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart- sharoitlar yaratish.
2. Har bir yosh guruhida faoliyat turlarini almashtirib borish.
3. Bolalarning harakat faolligini etarlicha ta'minlash.
4. Mashg'ulot, o'yin, mehnat, maishiy faoliyat o'rtasida bog'liqlik o'rnatish.
5. Bolalarning olgan bilim, malaka, ko'nikmalarini mustaqil faoliyatlarida qo'llay olishga o'rgatish.
6. Bolani faol bo'lishga, har doim biron narsa bilan mashg'ul bo'lishga o'rgatish.
7. Har bir bolani ijodiy qobiliyatlari, xohish va qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib borish va uning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.
8. Bolalarning butun faoliyatiga tarbiyachining rahbarligi.
9. Kun tartibiga qat'iy rioya qilish.

Mashg'ulotlarda tarbiyachining etakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi.

Mashg'ulot bolalar bog'chasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot - tarbiyachining bolalarni kerakli bilim va malakalardan umumiy holdaxabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigienik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq-hisob, harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar bolalar bog'chasida ta'limni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamda

bolalar uchun majburiydir, unda dastur mazmuni belgilab berilgan. Kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarini esa aniqlab mustahkamlaydi.

Bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Demak, mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot bolalarda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Ayniqsa, bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga birgalikdagi faoliyatda bolalar bir- birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topag'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar ishiga zo'r berishni talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish-yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi, birga ishlash, yashashga o'rgatadi.

Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi sifatlar hosil qilinadi. Mashg'ulot paytida bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkibtoptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, hikoya qilinayotgan voqeadagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi. Mashg'ulot jarayonida bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik hissi takomillashtirib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi.

Bolalar bog'chasida kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarni o'stirish mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, tasviriy san'at mashg'ulotlari, ko'rish yasash,

jismoniy tarbiya mashgʻulotlari olib boriladi. Mashgʻulotlar boladan aqliy va jismoniy kuchlarni talab etadi, yaʼni u oʻlaning faolligi bilan, bogʻliq boʻlib, bola maʼlum natijaga erishish uchun intiladi. Bu esa boladan uzoq ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Mashgʻulotlarni kunning birinchi yarmida oʻtkazish maqsadga muvofiq, chunki birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorugʻlik bilan yaxshi taʼminlangan boʻladi. Har bir yosh guruhida necha marta mashgʻulot oʻtkazilishi, uning mazmuni va har bir mashgʻulot yosh guruhlari boʻyicha qancha davom etishi bolalar bogʻchasi tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda belgilab berilgan. Bolalarning bilimlarini sinovchi mashgʻulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dasturda belgilangan bilim va malakalarni oʻzlashtirish darajasini bilib oladi va oʻzining keyingi ishi mazmuni, metodlarini belgilaydi. Kompleks mashgʻulotlar bolalar bogʻchasi tajribasida keng tarqalgan boʻlib bunday mashgʻulotlar bolalarga yangi bilim beradi. Egallangan bilimlar mustahkamlanadi.

Mashgʻulotning tuzilishi:

1. Bolalarni uyushtirish
2. Asosiy qism
3. Yakunlovchi qism.

Bolalar mashgʻulotga qiziqish va faollik bilan ishtirok etishi uchun mashgʻulot mazmuni va metodikasi puxta oʻylab olinishi kerak. Bolalar oʻquv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini eʼtibor bilan tinglab, oʻyindan mashgʻulotga osonlik bilan oʻtadilar. arbiyachilar bolalarni yigʻib, ularning mashgʻulotga tayyorgarligi: tashqi koʻrinishi, oʻz joyiga toʻgʻri oʻtirishi, diqqatini toʻplaganini tekshiradi. Mashgʻulot muvaffaqiyatli oʻtishi uchun bolalarda qiziqishni uygʻotish, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi faoliyatiga mos har xil usullarni qoʻllash kerak. Kichik guruh bolalarida mashgʻulotga qiziqish uygʻotish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi kutilmagan topishmoqlar, muammoli usullardan foydalaniladi. “Quloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti? Bu qorbobo biznikiga mehmonga keldi”, deb mashgʻulotni boshlash maqsadga muvofiq boʻladi. Tarbiyachi

katta guruhlarda esa qanday mashgʻulot oʻtkazilishi haqida bolalarni oldindan ogohlantirib qoʻyadi. Bu esa bolalarni keyingi mashgʻulotga boʻlgan qiziqishini orttiradi. Masalan, hayvonot bogʻiga, ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib qoʻyadi va ularga hayvonot bogʻini aylanib chiqishni, ota-onasi bilan sayr qilganda qanday hayvonlarni koʻrganini va ular qanday taassurot qoldirganini eslab qolishni taklif etadi. Bolalar esa bu kunni zoʻr qiziqish va xursandchilik bilan kutishadi. Katta guruh va tayyorlov guruhlaridagi bolalar oʻtkazilayotgan mashgʻulotning zarur va majburiyligini ongli ravishda tushunib unga tayyorlanib boradilar. Mashgʻulot jarayonida bolalarga yangi bilim beriladi. Berilayotgan topshiriq yuzasidan yoʻl-yoʻriq koʻrsatiladi. Topshiriqni bajarishda qiynalgan bolalarga yordam ham beriladi. Shuningdek, berilgan topshiriqni hamma bolalar tomonidan toʻliq bajarilishini taʼminlash uchun tarbiyachi turli xil metod va usullardan keng foydalanadi. Bogʻcha yoshidagi bolalar oʻqishni va yozishni bilmaganliklari uchun oʻtilgan mavzuni qaytarib mustahkamlay olmaydi. Shunga koʻra bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash tarbiyachi takrorlash va mashgʻulotlardan foydalanib boradi. Bu jarayonda bolalarga mexanik qaytarish yoki yodlatishdan chetlashish kerak. Chunki mazmuni anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi. Mashgʻulotda tarbiyachining bolalarda qoʻyadigan talabi, albatta, ularning yoshi va imkoniyatiga mos boʻlishi kerak. Tarbiyachi kichik guruh bolalarini ikki guruhga boʻlib mashgʻulot olib boradi. Tarbiyachi birinchi guruh bolalari bilan mashgʻulot oʻtkazganda ikkinchi guruh bolalariga enaga qarab turadi. Tarbiyachi dastlabki mashgʻulotlar jarayonida guruh xonasi qoʻgʻirchoq va oʻyinchoqlar bilan tanishtirishi kerak. Qoʻgʻirchoqlar yordamida esa mashgʻulot oʻtkazadi. Tarbiyachi avval bolalarda mashgʻulotga qiziqish uygʻotib bersa, keyin mashgʻulotning hamma uchun majburiyligini bolalar ongiga singdirib boradi. Oʻtkazilayotgan mashgʻulotlar asta-sekin murakkablashtirilib bolalar xulqiga moslab boriladi. Bolalar mashgʻulot jarayonida axloq-qoidalarini egallab boradilar. Toʻgʻri oʻtirish, tarbiyachini soʻzini diqqat bilan eshitish, chalgʻimaslik, tarbiyachi soʻragandagina javob berish, javob berganda oʻrnidan turish kabilar oʻrgatiladi.

Mashg‘ulotning sifati va uning natijasi tarbiyachining unga qanday tayyorgarlik ko‘rganiga va pedagogik mahoratiga bog‘liq. Mashg‘ulotga tayyorlanish mazmuniga quyidagilar kiradi: mashg‘ulotni rejalashtirish, kerakli jihozlarni oldindan tayyorlab qo‘yish, bolalarni mashg‘ulotga tayyorlash. Tarbiyachi mashg‘ulotni bir bo‘limdan bitta emas, balki butun bir mashg‘ulotlar tizimini rejalashtirib olib borsa, ijobiy natijani qo‘lga kiritishi tabiiy. Tarbiyachi mashg‘ulotlarni metodik adabiyotlardan keng foydalanilgan holda olib borishi kerak. Agar mashg‘ulotlar murakkabroq bo‘lsa, tarbiyachi, albatga, unga reja tuzadi. Rejada mashg‘ulotning mazmuni tayyorlanish uchun kerak bo‘lgan jihozlar, bolalar bilan olib boriladigan dastlabki ishlar, mashg‘ulotning borishi va tarbiyachi foydalanadigan metodik usullar ko‘rsatiladi. Har bir bog‘chada metodika kabinetlari mavjud, unda “Bolalar bog‘chasida ta’lim-tarbiya dasturi”ning hamma bo‘limlari bo‘yicha metodik qo‘llanmalar bo‘ladi. Etishmaganini tarbiyachi o‘zi tayyorlaydi, ba’zan esa bu ishga katta va tayyorlov guruhlari bolalarini jalb etadi. Tarbiyachi mashg‘ulot uchun kerakli materiallarni bir kun ilgari tayyorlaydi. Tarbiyachi bolalar bog‘chasida asosiy shaxs hisoblanib, yosh avlodning tarbiyalanganligi va bilish darajasi uning g‘oyaviy, siyosiy va ilmiy pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, salohiyatiga, pedagogik mahoratiga bog‘liq. Odatda, bolaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati ham uning tarbiyachi shaxsiga bulgan munosabati bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarbiyachi mashg‘ulot jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalanilsa hamda bolaning ruhiyati, yosh va o‘ziga xos ruhiy, fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiyaning samaradorligi ortadi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

- 1.Maktabgacha yoshdagi bola hayotini tashkil etishga qanday talablar qo‘yiladi?
- 2.Maktabgacha muassasa tarbiyachisining kundalik faoliyati nimalardan iborat?

3. Kun tartibi va unga amal qilish to‘g‘risida nimalar deya olasiz?
4. Mashg‘ulot nima va unga qanday talablar qo‘yiladi?
5. Mashg‘ulot qanday bosqichlardan iborat?
6. “Pedagogning pedagogik mahorati” tushunchasi mazmunini izohlang.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dasturda besh yillikda nechta maktabgacha ta’lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash rejaga qo‘yilgan?

- a) 2200 ta
- b) 400 ta
- c) 1400 ta
- d) 2001 ta

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qaysi kuni matbuotda e’lon qilingan?

- a) 2016 yil 30 dekabr kuni matbuotda e’lon qilingan
- b) 2017 yil 21 dekabr kuni matbuotda e’lon qilingan
- c) 2018 yil 8 dekabr kuni matbuotda e’lon qilingan
- d) 2016 yil 1 dekabr kuni matbuotda e’lon qilingan

3. Dasturda hafta mashg‘ulotlari qanday qo‘yiladi?

- a) Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg‘ulotlar qo‘yiladi.
- b) Haftaning birinchi va oxirgi kuniga qiyinroq mashg‘ulotlar qo‘yiladi.
- c) Haftaning birinchi va oxirgi kuniga o‘yin mashg‘ulotlar qo‘yiladi.
- d) Haftaning oxirgi kuniga osonroq mehnat mashg‘ulotlar qo‘yiladi.

4. Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida qanday ishlar rejalashtiriladi?

- a) Bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.
- b) Bolalardagi jismoniy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga oson ishlar rejalashtiriladi.
- c) Bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga dam olish ishlar rejalashtiriladi.
- d) Bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga rejadan tashqari ishlar rejalashtiriladi.

5. Bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotning tuzilishini toping?

- a) Bolalarni uyushtirish Asosiy qism Yakunlovchi qism.
- b) Asosiy qism Takrorlovchi qism Yakunlovchi qism.
- c) Tayyorlov qism Asosiy qism Yakuniy qism
- d) Asosiy qism Umumiy qism Yakuniy qism

6. Kichkina guruh bolalarning ko'p vaqti qaysi joyda o'tadi?

- a) Guruh xonasida o'tadi.
- b) Sport zalida o'tadi.
- c) O'yin maydonchasida o'tadi.
- d) Sog'lomlashtirish maydonchasida o'tadi.

10 – mavzu :Kichik maktab yoshi davri va bolaning rivojlanishi.

1. Kichik maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishi.

2. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi.

3. O'quv faoliyatining xususiyatlari.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishi.

Tayanch tushunchalar: aqliy rivojlanish, idrok, tafakkur, diqqat, iroda, qobiliyat, nutq, aql-idrok, sezgirlik, kuzatuvchanlik, eslab qolish va esga tushirish, dunyoqarash, faoliyat, o‘yin, o‘qish, mehnat.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishi

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola maktab o‘quvchilariga qo‘yiladigan turli talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga etadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o‘tkirliги, ravshanligi, sofliги, aniqligi, o‘zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o‘qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o‘rni nihoyatda katta. Bola o‘quv faoliyatida o‘qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an’analar asosida harakat qilishni o‘rganadi. O‘quv faoliyatida bola o‘z irodasini o‘quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O‘quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o‘z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o‘tadi. U hayotining tubdan o‘zgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o‘quv faoliyati talablariga bo‘ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a‘zolarining bola o‘quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqei o‘zgarganligini to‘la his etishiga, o‘ziga nisbatan munosabatining o‘zgarishiga asos bo‘ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o‘z vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash borasida yaxshi o‘qish, o‘ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug‘ullanishga o‘rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi

bir o‘rinni egallaydi. O‘quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to‘liq ijobiy asos bo‘ladi. Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o‘rin egallayotganini, ota - onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o‘z vazifalari, majburiyatlari bor bo‘lgan, o‘z faoliyat natijasiga ko‘ra hurmatga sazovor bo‘lishi mumkin bo‘lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo‘ladilar. Buning natijasida bolaning o‘z-o‘zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o‘z o‘rnini anglay boshlaganini ko‘rish mumkin. “Men shuni xohlayman” motividan “Men shuni bajarishim kerak” motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o‘quvchida psixik zo‘riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki hatti-harakatida ham, ya’ni ma’lum darajada qo‘rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo‘ladi. Bu davrga kelib bola atrofida bilan o‘zaro munosabatda ma’lum bir natijalarga erishgan, o‘zi xoxlayotgan narsalarni hamda, o‘z oilasida o‘zi egallagan o‘rnini aniq biladigan bo‘ladi. Shuningdek, u o‘zini-o‘zi boshqarish malakasiga ega bo‘ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar hatti - harakatlari va motivlari ularning o‘zlariga beradigan baholariga qarab “Men yaxshi bolaman” emas, balki bu hatti-harakatlar o‘zgarar ko‘z o‘ngida qanday namoyon bo‘lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar. Bola maktab ta’limiga bog‘chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi

Maktabga kelish arafasida bolaning so‘z boyligi o‘z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o‘z nutqida 500-600 so‘zni ishlatar, olti yoshli bola 3000-7000 so‘zni ishlatadi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe’l, sifat, son va bog‘lovchilardan iborat bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar o‘z nutqlarida qaysi so‘zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o‘z jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi.

Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o‘zlashtirishi ma’lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o‘ziga xos

yana bir xususiyati bola nutqida o‘z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o‘z suxbatdoshining diqqatini o‘ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar. Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jummalarni to‘g‘ri tuzish va so‘zlarni to‘g‘ri yozishga ma’lum talablar qo‘yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so‘zlarni qanday eshitgan bo‘lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to‘g‘ri talaffuz etishga va yozishga o‘rganishi zarur. Yozma nutqni egallash asosida bolalarda turli matnlar hakidagi ma’lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada o‘zi yozgan fikrlarni, so‘z va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo‘ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o‘quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma’lumot to‘plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma’lum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jummalarni to‘g‘ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so‘zlarni topish va ularni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish, o‘z holatlarini topa olish va to‘g‘rilash aqliy rivojlanishning ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi.

O‘qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o‘quvchining aql-idroki, sezgirliigi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta’lim jarayonida ularning bilimlar ko‘lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o‘z idroklarining aniqligi, ravonligi, o‘tkirliigi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o‘ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. 7-10 yoshdagi o‘quvchining idroki, uning hatti-harakati, o‘yini va mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. O‘quvchi o‘zining ehtiyoji, mayli, qiziqish va intilishi turmush sharoitiga mos, shuningdek o‘qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda

muvaffaqiyatli o‘qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasini yuqori bo‘lishi juda muhim. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go‘zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o‘z munosabatini bildiradi. Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog‘lomligida, uning bilish faolligida ko‘rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Bola o‘ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va bog‘liqlaridan xabardor bo‘lishga intiladi. Masalan, bola o‘zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho‘kishi, qaysilari esa suzishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo‘lsa, u shunchalik ko‘p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo‘ladi. Bolani qor, yomg‘ir qanday yog‘ishi, quyosh kechasi qaerda bo‘lishi, mashina qanday qilib yurishi, erdan osmongacha bo‘lgan masofani bilishi juda qiziqtiradi. Bu ularning “Nima uchun?”, “Qanday kilib?”, “Nima orqali?” kabi savollariga javob olishga qaratilgan bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o‘zlari ko‘rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir. 6-10 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin, bu yosh asosan ko‘rganlariga tayanib, ta’lim olishga sezitiv bo‘lgan davr hisoblanadi, So‘zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga ham bog‘liq bo‘lib, ular ma’lum darajada shakllangan kattalar tomonidan tuziladi. Chunki, aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi - individ ijtimoiy munosabatlar bilan o‘zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o‘qishga o‘tishi uning atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o‘zgarishiga olib keladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli

usullarini qo‘llashdek o‘ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va o‘smirlardan farq qiladi. Ta‘lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o‘rgatish kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni kamol toptirishning garovidir. O‘quv faoliyati psixik funksiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin, odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o‘z psixik funksiyalarini yuqori darajada tashkil etish hali birmuncha murakkablik tug‘diradi. 6-7, 10-11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo‘riqish asosidagina, bola o‘zini atrofdagilarning talabi yoki shaxsiy harakatga intilgandagina yuzaga kelishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqatni irodaviy zo‘r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo‘lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko‘proq rivojlangan bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yaqqolliigi, yorqinligi, jozibadorligi, o‘quvchida beixtiyor his-tuyg‘ular uyg‘otadi, irodaviy zo‘riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o‘quvchilari diqqatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - uning etarlicha barqaror emasligidir. SHuning uchun ham ular o‘z diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob‘ektlar ustida uzoq tura olmaydi. Ta‘lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar echish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo‘r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni to‘plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish uquvi shakllana boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi bola ma‘lum darajada o‘z faoliyatini o‘zi mustaqil rivojlantira oladi. U o‘z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishni so‘z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so‘zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat usgunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so‘zsiz o‘z diqqatlarini aqliy masalalarga qarata oladilar, lekin bu

juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyalarni tashkil etilishini talab qiladi. Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san'at asarlarini etarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o'quvchilarda xayol paydo bo'ladi. O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi, o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi. Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so'raydi. Bu holat, albatta, biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tasavvurini rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur harakatlari qilishga qiynaladilar. Psixolog Piaje tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash so'ralgan. Bolalar suv miqdorini ,bir-biri bilan teng bo'lgan idishlarda ko'rganlaridan so'nggina o'z javoblari noto'g'riligini bilganlar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizayotganlarida, shuningdek ertak va hikoyalar to'qiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar real borliqni tasavvur etsalar, boshqalari esa fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. SHu bois kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum siymolar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar, Bu tasavvurlar zamirida ularning qo'rquvni engishi, do'st topishi, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan holatda ko'pincha xayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar kelib

qolsa, u qahramonlik qilishini tasavvur qiladi. o'z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi hatti-harakatlari motivatsiyasi uchun zamin tayyorlaydi.

Kattalarga nisbatan tasavvurning bolalar hayotida ahamiyati juda katga. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'z - o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'quv faoliyatining xususiyatlari.

Kichik maktab yoshidagi bola o'qituvchisi bilan yaxshi emotsional munosabatda bo'ladi. SHu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayayn darajada rivojlanganligini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Bu yoshdagi bola boshqa davrlarga nisbatan ko'proq narsani o'zlashtiradi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi. Uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida o'z portfeliga, shaxsiy o'quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Kichik maktab yoshidagi bola o'zining tub mohiyati va vazifasini tushunib etmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi. Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik. bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat

ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi, o'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan amalga oshiriladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayili, istak va ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponentlari: o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat ztish va baholash bilan (V.V.Davidov bo'yicha) tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim. Agar bola o'quv harakatlarini noto'g'ri bajarsa, bu uning o'quv harakatlarini yo nazorat va baholash bilan bog'liq harakatlarni bilmasligi, yoki ularni yaxshi egallamaganligidan bo'lishi mumkin. Bolaning mustaqil ravishda bajargan harakatlari natijalarini o'z hatti-harakatlari xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o'z-o'zini nazorat etish xususiyatlarini ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi. O'quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni echish yo'llari bilan tanishadilar va ularni egallagan zahoti aniq bir masalalarni echishda amaliy foydalanadilar. Pedagogik psixologiyaning asosiy talablarida boshlangich sinf ta'limi dasturlaridagi ko'pgina mavzu va bo'limlarni o'rgatish bolalarni ma'lum bir sinfga taalluqli namunalarini o'zlashtirishga yo'naltirish orkali tashkil etilishi kerak deb ta'kidlanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining masalalarni echishdagi ayrim yo'l va tushunchalarni etarlicha egallamaganligi bu tushuncha va yo'llarni shakllantirishda bolalar barcha kerakli o'kuv , harakatlarini bajarishga o'rgatilmaganligining natijasidir. O'quv faoliyatida nazorat va o'z-o'zini nazorat etish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv harakatlarini mustaqil rejalashtirishi va bajarishni shakllanishida juda muhimdir. Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va

bu uslubdan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib mulohaza yuritish va o'z echimini asoslab berish aqliy sifatlarni o'sishiga xizmat qilib, kishi o'z mulohazalari va hatti-harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda aqliy va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu yoshdagi bolalar o'rta maktab dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab, o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. O'zlashtirmaslikning asosiy sabablari; bu aqliy taraqqiyot va uquvchanlikning birmuncha orqada qolishidir. N.S.Leytes mulohazalariga ko'ra inson yoshi ulg'aygan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha ko'tariladi, uquvchanlik esa birmuncha pasayadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning uquvchanligi, albatta, o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o'spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlangich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir. O'qituvchining muomala va munosabat uslubi o'quvchining hatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi, o'qituvchining dars jarayonida har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi uchun qulay imkoniyati bor. O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala-munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola – katta" munosabatdan "bola – ota – ona" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o'qituvchi bolaga ota - onaga nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'z hatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning hatti - harakatlarini baholashi, o'z hatti - harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga

ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi, o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining quyidagi uslublari mavjud.

Avtoritar uslub: bu qattiqqo'llik bo'lib, bunda o'qituvchi o'quvchilarini so'zsiz o'ziga bo'ysunishlarini talab etadi. Lekin, nima uchun qattiqqo'lliq qilayotganini yoki o'quvchilariga nima uchun o'zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermoqchi, shuningdek, o'quvchilarni o'z hatti-harakatlarini mustaqil boshqarishga ham o'rgatmaydi, o'qituvchi dars davomida o'quvchilaridan jim o'tirishini, savollarga doimo qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan javob berishini, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishini talab etadi. Bunday pedagoglar o'quvchilarning qiziqishlari asosida emas, balki asosan o'quv rejasi asosida dars o'tadilar. Dars davomida ham bahs-munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmagan holda asosan o'qituvchining fikri singdiriladi. O'quvchilari bilan muomala munosabatda ham ularning individual psixologik xususiyatlari, jumladan, nerv tizimining qo'zg'aluvchanlik darajasini ham e'tiborga olmaydilar. Bu uslub o'qituvchini sinfdan, o'quvchidan uzoqlashtiradi. Emotsional sovuqlik sinfda intizomli o'quvchida yakkalanish, xavotirlik, himoya qilinmaganlik hissini ham yuzaga keltiradi. Bu uslub sinfda yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichini berishi, lekin bu o'zlashtirish, asosan, xotira evaziga bo'lib, lekin mustaqil tafakkur, ijodkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlarni rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'ladi, unda doimiy xavotirlik o'ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Imperativ uslubdagi o'qituvchining o'quvchilari o'qituvchi sinfda bo'lmagan vaqtlarda o'z-o'zini boshqarish malakasi bo'lmaganligi uchun ham intizomga mutlaqo bo'ysunmaydilar. Bu, asosan, to'polonda namoyon bo'ladi. Bu uslub o'qituvchining mustahkam irodasini ko'rsatadi, lekin bu irodada o'quvchiga nisbatan muhabbat hamda o'quvchining "ustozim meni yaxshi ko'radi" degan fikri emas, balki qo'rquv hissi mavjuddir.

Demokratik uslub o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asos bo'ladi. Darsdagi intizom majburiy emas, balki muvaffaqiyatga

erishish garovi sifatida bolalar ijobiy emotsiyani, o'ziga ishonch, o'z muvafaqqiyati, yutuklaridan quvonishi, do'stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini beradi. Demokratik uslub bolalarni birlashtiradi. Shu bilan birga o'zining faoliyati natijalariga qiziqish uyg'otgan holda, o'zi uchun o'zi harakat qilishi lozimligini anglatadi, o'zini-o'zi boshqarishga, o'z hatti-harakatini o'zi nazorat qilishga o'rgatadi. Har bir ishga mas'uliyat bilan yondoshish hissi o'qituvchining shu yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi.

Liberal uslub kasbiy layoqati yo'q bo'lgan o'qituvchilarga xos bo'lgan uslubdir. Bunday o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir bola o'z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o'zini tutadi. Bola o'z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatdagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlariga mutlaqo zid uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida bu uslubni qo'llab bo'lmaydi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan muomala-munosabatdagi imperativ uslub, asosan, ma'lum bir chegaralarga asoslangan holda bola shaxsi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Demokratik uslub o'qituvchidan muomala-munosabatda juda katta kasbiy mahoratni talab etgan holda, bola shaxsining ijobiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub hisoblanadi.

Liberal uslub esa o'quvchini emotsional zo'riqtirmaydi, lekin uning shaxsi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatmaydi. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchining faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib, bular: jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir. Jismoniy faollik - sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni engishdagi tabiiy ehtiyojdir. Bu yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat bo'ladilar. Bu jismoniy harakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqish bilan qarayotganligi, ularni o'rganishga harakat qilayotgani bilan ham bog'liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o'zaro bog'liqdir. Chunki, psixik sog'lom bola xarakatchan bo'ladi, charchagan, siqilgan bola esa deyarli hech narsa bilan

qiziqmaydi. Psixik faollik - bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir.

Psixik faollik deganda, bolani o'zini bilishga nisbatan ehtiyoji ham tushuniladi. Maktabga birinchi bor kelgan bolada qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularga, avvalo, bir qancha maktab qoidalariga bo'ysunishi qiyin kechadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir. O'qituvchilar o'quvchilarning doimo jim o'tirishiga harakat qilishadi, lekin kam harakatli, passiv, quvvati kam bo'lgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi. O'quvchini qanday qilib maktab qoidalariga bo'ysunishga o'rgatish mumkin? Bu borada o'qituvchining o'quvchilari bilan qiladigan muomala - munosabat uslubining ahamiyati juda katta. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchiga ishonch hissi bo'lib, bunda o'qituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon inson deb biladi. O'qituvchining obro'si oldida ota - onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh urug'larining nufuzi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Demak, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar rivojida etakchi bo'lgan o'quv faoliyati o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda kattadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsining shakllanishi

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda

oʻzlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi boʻlish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zoʻriqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bogʻcha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek oʻsmirlik davrida ham yakkol koʻzga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, oʻzlariga oʻzlari baho beradilar. Oʻquvchining oʻziga-oʻzi beradigan bahosi, asosan, toʻgʻridan-toʻgʻri oʻqituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bogʻliq. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda oʻz - oʻziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past boʻlishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud boʻlgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi taʼsirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda mehnatsevarlik, asosan, oʻqish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada oʻzi qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bogʻliq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq, xususiyatli boʻlsa, unda asta-sekinlik bilan boʻysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda baʼzi salbiy xislatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalarini, asosan, kimlargadir taqlid qilgan holda oʻzlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni koʻproq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muximdir. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir masʼul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola oʻzini

tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. 7-11 yoshli bolalar o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolaning o'z-o'zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'zo'zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o'zlarining yuz-tuzilishlariga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi xulq-atvorni va faoliyatni o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishining qaror topishiga yordam beradi, o'quvchi xulqatvorining motivlashtirishi ham o'zgaradi. Bunda do'stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Axloqiy his-tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi. 5-6 yoshlarda ko'zga tashlangan bolalarning xususiyatlari yillar davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi. O'smirlik davrining boshlariga kelib, juda ko'pgina shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilish jarayonida ham ko'rinadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib, aksariyat bolalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko'zga tashlanadi. Kichik maktab davrida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi. Bu yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalar psixik rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabati orqali erishish mumkin. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o'rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan

kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz holda sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi.

Takrorlash va muqokama qilish uchun savollar:

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari.
2. Maktabga ijtimoiy-psixologik moslashuv yo'llari qanday?
3. Bolalar intellektual rivojlanishida kichik maktab davrining ahamiyati.
4. O'quv jarayoni davomida yuzaga keladigan muammolar.
5. Kichik maktab davridagi bolalar shaxsi rivojida yuzaga keladigan yangilanishlar.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Kichik maktab yoshi davri necha yoshlarni o'z ichiga oladi.

- a) 6 -7 yosh;
- b) 9 – 10 yosh;
- c) 6 – 10 yosh.
- d) 7 – 10 yosh.

2. Kichik maktab yoshida yuzaga keladigan yangi o'zgarishlar nimalardan iborat.

- a) Erkinlik, ish – harakat va fikrlarning ichki rejasi
- b) Erkinlik, refleksiya va katta bo'lganligini his etish
- c) Erkinlik, tanqidiylik, o'z fikrlarining haqqoniyligini asoslab bera olish d) Erkinlik

3. Kichik maktab yoshi davrida etakchi faoliyat kaysi?

- a) Predmetli faoliyat;
- b) O'yin va mehnat faoliyati;

- c) O‘qish faoliyati;
- d) Mashg‘ulot

5. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishida ta’limning rolini aniqlang.

- a) Jamoa shakldagi muloqot va faoliyatning shakllanishi;
- b) Kuzatuvchanlik, ixtiyoriy diqqat, ijodiy xayol, mavhum tafakkurning shakllanishi;
- c) Bilish jarayonlarining rivojlanishi, ta’lim olishdagi muammolarni echishda tafakkur jarayonining shakllanishi.
- d) Tafakkur jarayonining shakllanishi.

5. Kichik maktab yoshidagi bolalarning taraqqiyoti nimalardan iborat.

- a) O‘z “men”ini va o‘z psixologik xususiyatlarini anglay boshlaydi.;
- b) Axlok normalari va xulq – atvor qoidalarini egallaydi;
- c) O‘z- o‘zini tarbiyalash elementlari yuzaga keladi, mustaqillikka erishishga intiladi, o‘zining shaxsiy hissiyotlarini bilish ehtiyojlari paydo bo‘ladi.
- d) O‘z psixologik xususiyatlarini anglay boshlaydi;

6. Kichik maktab yoshidagi o‘kuvchilarda nima orqali ta’limga bo‘lgan munosabat yanada faol namoyon bo‘ladi.

- a) Dunyoqarash orqali;
- b) Qiziqish orqali;
- c) Qobiliyat orqali;
- d) Faoliyat orqali;

11-mavzu. Bolalar jamoasi bola shaxsini shakllantirishning muhim shart – sharoitlari

1. Bolalar jamoasi haqida tushuncha.

2. Bola shaxsini tarbiyalashning shart - sharoitlari.

3. Bolalar jamoasining shakllanishiga yordam beruvchi omillar.

Tayanch tushunchalar: Jamoa, guruh, majlis, o‘yin, do‘stlashish, birga o‘ynash, mehnat qilish, xohishi, qobiliyat, shakllantirish.

Bolalar jamoasi haqida tushuncha.

Jamoa so‘zi lotincha “kollektivus” so‘zining tarjimasini bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma‘nolarini anglatadi. Yoki jamoa deganda kishilardan iborat guruh tushuniladi.

Jamoa va jamoa orqali tarbiyalash tarbiya tizimida alohida ahamiyat kasb etadigan tamoyillardan biridir. Bolaning har tomonlama rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishida jamoaning etakchi o‘rin tutishi haqidagi fikr pedagogika fanining rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan.

Shuning uchun ham bolalar jamoasining rivojlanish pedagogik jihatdan boshqariladigan jarayondir. Jamoaga rahbarlik qilishning asosiy vazifasi pedagogik yondashishning ilmiy asoslangan tizimi yordamida jamoa a‘zolarini tarbiyalab, voyaga etkazishdan iborat.

Jamoaning tarbiyaviy vazifalari uning a‘zolari olib boradigan mazmunli bilish, aloqa faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

Jamoda bolalar, eng avvalo, muomala me‘yorlarini amalda o‘zlashtiradilar, o‘z xatti-harakatlarini boshqa odamlar manfaatlariga muvofiq tarzda qurishni, rejali va adolatli bo‘lishni o‘rganadilar. Bolalar jamoasi turli yosh bosqichlarida muayyan xususiyatlarga ega bo‘lgan holda tobora rivojlanib boruvchi tizimdir. Jamoa ijtimoiy jamoaning bir qismi hisoblanib, kishidan ma‘lumir maqsad asosida intiladigan, harakat qiladigan va o‘zi hamma kuch - g‘ayratini ijtimoiy faoliyat, mehnatga sarf qiladigan bo‘lishini talab etadi.

Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shakllantirishdagi o‘rni va rolini to‘g‘ri baholay olish, inson fikrini hurmatlash, jamoaning munosib a‘zosi

bo'lishga intilish har bir shaxs uchun muhimdir. Bolalar jamoasini shakllantirish uzoq vaqtni talab etadigan murakkab jarayondir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jamoasi bu bolalar bog'chasidagi jamoa, turmush tarzi birgalikdagi faoliyat asosida bir-biriga bog'liq maqsad, manfaat va kechinmalar bilan tarbiyachi rahbarligida birlashgan va uyushgan bolalar guruhidir. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar jamoasida tarbiyachi bosh tashkilotchi rolini o'ynaydi va bolalarda asta-sekin jamoaning ahamiyati haqida umumiy natijalarga erishishda birgalikda kuch-g'ayrat sarflash quvonchi haqida har bir bolaning jamoa hayotidagi roli haqida tasavvur hosil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy quvonchli kechinmalari, birgalikda qilingan maroqli faoliyat bolalar jamoasi rivojlanishining asosidir. Maktabgacha tarbiya yoshi oxirlariga borganda maktabgacha yoshdagi bolalar guruhida tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, hamkorlik, o'zaro yordam, mas'uliyatlilik kabi xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, jamoa kishilarning muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Ushbu guruh a'zolari o'zaro birlik, a'zolarining munosabatlar jarayonidagi tenglik asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'ysunish, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarlik asosida muayyan faoliyatni olib boradilar. Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Jamoaning etakchi tarbiyaviy vazifasi shaxsni har tomonlama tarbiyalash unda ijobiy sifatlarini hosil qilish mustahkam hayotiy vaziyatni qaror toptirishdan iborat. Bolalar jamoasi tarbiyachi pedagog hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga va an'alariga ega guruh hisoblanadi.

Bugungi kunda pedagog olimlar (L.I. Novikov va boshqa) bolalar jamoasi rivojlanish jarayonini tahlil qilar ekan, uni quyidagi uch jihatiga e'tibor beradilar:

a) jamoani dastlabki shakllantirish;

b)jamoani shakllantirish, uning har bir a'zosini individual rivojlantirish;

v)tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi.

Tarbiyachi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarining ijobiy tajribaga qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarni shakllantirishga ta'sir etadigan shakl va metodlardan foydalanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jamoasi mashg'ulotlarning umumiyliigi va o'zaro munosabatlarning muayyan tizimi tufayli birlashgan bolalar guruhidir. Uning shakllanishi butun tarbiyaviy jarayonning natijasi bo'lib, tarbiyalanuvchilar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'ladi. Demak, inson xulqidagi ijobiy sifatlardan biri kishilar jamoasiga qo'shila olish va o'sha jamoa a'zolari orasidan munosib o'rin olishdir. Bu har bir kishidan yuqori saviya va odob-axloqni talab etadi. Kishining odobi, bilimi, jismoniy kamoli, jamoa ichida tez ko'rina boshlaydi. Bola yoshligidan boshlab o'zida boshqalar bilan, bolalar jamoasi bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Ammo kichkina bola jamoani o'zi tanlay olmaydi. U biron jamoaga sharoit taqozosi bilan kelib qoladi. Bola yashayotgan jamoa jozibali etib tashkil qilinsa, bola bunday jamoada o'zini erkin sezishi mumkin. Buning uchun esa jamoa mazmunan boy, undagi o'zaro munosabatlar insonparvarlikka asoslangan bo'lishi muhim. Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bolalar tomonidan o'z-o'zini boshharish jamoa a'zolaridan ayrimlari boshqasidan ustun kelishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Shu bois, tarbiyachi bolalarni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim. Demak, tarbiyachi bola bilan amalga oshiradigan yakka tarbiyadagi ishlarni uyushtirishda ma'lum shart- sharoitlarga rioya qilishi lozim.

Masalan, yakka tarbiyadagi suhbatlar, mashg'ulotlar, rasm va kitoblarni ko'rish, didaktik o'yinlar ertalabki soatlarda, sayrda kechki soatlarda o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalar bilan qanday ishlar olib borish tarbiyachining umumiy rejasida ko'rsatilishi kerak. Olib borgan kuzatishlari natija va xususiyatlarini

tarbiyachi o‘zining kundalik daftariga yozib boradi. Dastlab birgalikdagi faoliyat ko‘pincha dunyo bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatga birlashadi. Bu birlashish beqaror, qisqa muddatli bo‘lib, tez buziladi. Bunday dastlabki birlashishning birinchi tashkilotchisi tarbiyachidir. Chunki u bolalarga birgalikda o‘ynashni taklif etadi. Bolalardan bittasi o‘yinchoqlarni yuklasa, ikkinchisi tashiydi, uchinchisi yukni tushiradi. 4-5 qiz qo‘g‘irchoq bilan “Oila” o‘yinini o‘ynaydi, tarbiyachi esa ularga rollarni taqsimlashda yordam beradi va h.k.

Bola shaxsini tarbiyalashning shart - sharoitlari.

Tarbiyachi bolalarni bir guruhga birlashtirishda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga oladi, chunonchi, bitta guruhga serharakat va boshqasiga passivroq bolalarni birlashtiradi. Ikkinchi xususiyati: bolalar jamoasining barqaror bo‘lishini ta‘minlashdir. Bu davrga kelib bolalar ancha mustaqil hamda tashkilotchilik qobiliyatini egallagan bo‘ladilar. Jamoada qatnashuvchilar soni 8—10 kishiga etib qoladi. Birgalikdagi faoliyat jarayonida o‘yin va mehnatdan keng foydalaniladi. Bu bosqichda tarbiyachining vazifasi hamma bolalarda tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirishdir. Mashg‘ulot o‘tkazayotgan jarayonda uning o‘zi hammaga ko‘rinib turishi, ovozi balandroq va hamma uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Tarbiyachi shunday mashg‘ulot jarayonida o‘rtoqlarining ishini tahlil qilishga jalb etish orqali bolalarni izlanuvchanlikka, haqiqatgo‘ylikka o‘rgatadi hamda bolalarning o‘z tengdoshlariga xayrixoh munosabatda bo‘lishini ta‘minlaydi. Bolalar jamoasini shakllantirish axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Bolalar o‘z xulqlarining jamoa manfaati bilan bog‘liqligi haqidagi bahoni eshitadilar. Bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashsa, o‘zining jamoa uchun zarurligini sezsa, u bilan g‘ururlansa, umumiy hayotning yoqimli va quvonchli bo‘lishi uchun intilsa, bu jamoaning etarli darajada shakllanganligidan dalolat beradi. Bola kelishi bilan bolalar jamoasining a‘zosi bo‘lib qoladi, u boshqa bolalar bilan o‘ynashi mehnat qilishi, kerak bo‘lsa yon bosishni o‘rganib oladi. Tarbiyachi har bir bolaning qobiliyatini alohida baholab borishi kerak. Keyinchalik jamoada hayot tajribasining to‘planishi natijasida “men”,

“meniki” tushunchasining o‘rnini “biz”, “bizniki” degan tushunchalar egallaydi. Bu esa bolalarning o‘zini jamoa a‘zosi deb tushunib olganidan va o‘z shaxsi manfaatini umumiy maqsadgabo‘ysundira oladigan davridan boshlanadi. Yaxshi o‘rtoq bo‘lish — bu boshqalar bilan o‘zini bir qatorda tutish, ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, shu bilan birga sen yolg‘iz emassan, sen to‘g‘ringda boshqalar ham o‘ylaydi, senga boshqalar ham g‘amxo‘rlik qiladi degan ma‘noni anglatadi. Bolalar jamoasini shakllantirish uchun ma‘lum shart-sharoitlar zarur hisoblanadi. Bular:

- bog‘cha xodimlarining o‘zaro hamjihat bo‘lishi;
- bolalar hayotini tashkil etish;
- o‘yinchoqlarning bolalar yoshiga, qiziqishiga mos kelishi hamda mikdor jihatdan ham bolalar soniga to‘g‘ri kelishi;
- bolalarda o‘zaro ahillik, g‘amxo‘rlik, jymoatchilik, insoniylikni tarbiyalashga yordam beruvchi mashg‘ulotlar;
- bolalar uchun har xil qiziqarli faoliyatlarni tashkil etib borish;
- oila bilan mustahkam aloqa o‘rnatish;
- bolalarga xulq-atvor me‘yorlari va qoidalarini o‘rgatib borish; ➤ bolalar o‘rtasida ijobiy xayrixoqlik muhitini yaratish.

Demak, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jamoasiga har doim katta odam rahbarlik qiladi. Bunda bolalarning harakatlari ma‘lum tomonga yo‘naltiriladi, boshqariladi.

Bolalar jamoasining shakllanishiga yordam beruvchi omillar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda jamoatchilik munosabatlarining boshlang‘ich belgilari axloqiy sifatlarning murakkab guruhidir. Bunga bolalarning do‘stlashish, birga o‘ynash va mehnat qilish xohishi, qobiliyati, boshqalarning xohishi qiziqishi bilan hisoblashishi, bir-biriga yordam bera olishi, topshiriqni vijdonan bajarishi, narsa va buyumlarni asrashi kabi axloqiy sifatlarning majmuasi kiradi. Bunday his-tuyg‘u, tasavvur, tushunchalar bola shaxsining ijtimoiy yo‘naltirilgan holda shakllanishiga yordam beradi, bolada insonparvarlikning dastlabki namunalari shakllanishiga ta’sir etadi. Bolalarda tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulqatvor

qoidalari orasida insonparvarlik muhim o‘rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq me‘yorlari va qoidalarini o‘rgatish asosida rivojlanadi. Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o‘rgatib borish zarur. Tarbiyachi kichkina bolalarga ayrim xatti harakatlarni syujetli o‘yinchoqlar bilan o‘ynash orqali ko‘rsatadi. SHuningdek, tarbiyachi bolalarni tengdoshlari bilan salomlashishga, hammalarini yangi kelgan kishining salomiga javob berishiga odatlantiradi, kasal bolaga xat yozishni, unga rasmlar yuborishni yoki telefon qilishni taklif etadi. Bog‘chada bolalarning tug‘ilgan kunlarini nishonlash an‘anasi o‘zaro munosabatlarga samimiylik kiritadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda harakterning irodaviy xususiyatlari — o‘z oldiga maqsad qo‘yib, unga erishish uchun esa har qanday qiyinchilikni engib, boshlangan ishni oxiriga etkaza olish, biror ishdan o‘zini taya bilish, ishda dalillikni tarbiyalash zarurdir. Bolalarning kayfiyati ko‘p jihatdan bog‘cha va uyda ular hayotining tashkil- etilishi va mazmuniga bog‘liq. Sog‘lom bola kattalar singari o‘zining jismoniy kuchiga va umumiy rivojlanishi darajasiga qarab to‘laqonli yashashga harakat qiladi. U xilma-xil kechinmalar, yangi tushuncha va tasavvurlarga tashna bo‘ladi. Buning uchun tarbiyachi bolalarni sira ishsiz va mashg‘ulotsiz qoldirmasligi kerak. Bog‘cha yoshi davrida ta‘lim-tarbiya ishi to‘g‘ri amalga oshirib borilsa, bolalarda avvalo, intizomlilikni shakllantirishga yordam beradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda intizomlilikni va xulq madaniyatini tarbiyalashda quyidagi shart-sharoitlar muhim:

- tarbiyachi ota-onalarning xulq madaniyati, ma‘naviy etukligi, obro‘- e‘tibori hamda ularning o‘zaro mu- nosabatlari;
- bolalar yashaydigan xona asbob-anjomlarning to‘g‘ri joylashtirilishi;
- bolalar guruhida, ularning rivojlanishi, yosh xususiyatiga mos bo‘lgan
- o‘yinchoqlarning etarli bo‘lishi, tarbiyalashda bolaning ongliligiga asoslanish;
- tarbiyachining bolalar guruhida iltifotlilik holatini shakllantirish, ➤ ularni tozalik hamda ozodalikka o‘rgatib borishi.

Demak, ta‘lim-tarbiya ishini to‘g‘ri amalga oshirib borilsa, bolalarda bunday sifatlarning hammasi muvaffaqiyatli shakllantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jamoasi bu bolalar bog'chasidagi jamoa, turmush tarzi birgalikdagi faoliyat asosida bir-biriga bog'liq maqsad, manfaat va kechinmalar bilan tarbiyachi rahbarligida birlashgan va uyushgan bolalar guruhidir. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar jamoasida tarbiyachi bosh tashkilotchi rolini o'ynaydi va bolalarda asta-sekin jamoaning ahamiyati haqida umumiy natijalarga erishishda birgalikda kuch-g'ayrat sarflash quvonchi haqida har bir bolaning jamoa hayotidagi roli haqida tasavvur hosil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy quvonchli kechinmalari, birgalikda qilingan maroqli faoliyat bolalar jamoasi rivojlanishining asosidir. Maktabgacha tarbiya yoshi oxirlariga borganda maktabgacha yoshdagi bolalar guruhida tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, hamkorlik, o'zaro yordam, mas'uliyatlilik kabi xususiyatlar namoyon bo'ladi. SHunday qilib, jamoa kishilarning muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.

Ushbu guruh a'zolari o'zaro birlik, a'zolarining munosabatlar jarayonidagi tenglik asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'ysunish, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarlik asosida muayyan faoliyatni olib boradilar. Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi.

Jamoaning etakchi tarbiyaviy vazifasi shaxsni har tomonlama tarbiyalash unda ijobiy sifatlarini hosil qilish mustahkam hayotiy vaziyatni qaror toptirishdan iborat. Bolalar jamoasi tarbiyachi pedagog hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga va an'alariga ega guruh hisoblanadi. Bugungi kunda pedagog olimlar (L.I. Novikov va boshq.) bolalar jamoasi rivojlanish jarayonini tahlil qilar ekan, uni quyidagi uch jihatiga e'tibor beradilar:

a)jamoani dastlabki shakllantirish;

b)jamoani shakllantirish, uning har bir a'zosini individual rivojlantirish;

v)tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi.

Tarbiyachi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarining ijobiy tajribaga qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir etadigan shakl va metodlardan foydalanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jamoasi mashg'ulotlarning umumiyligi va o'zaro munosabatlarning muayyan tizimi tufayli birlashgan bolalar guruhidir. Uning shakllanishi butun tarbiyaviy jarayonning natijasi bo'lib, tarbiyalanuvchilar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

Demak, inson xulqidagi ijobiy sifatlardan biri kishilar jamoasiga qo'shila olish va o'sha jamoa a'zolari orasidan munosib o'rin olishdir. Bu har bir kishidan yuqori saviya va odob-axloqni talab etadi. Kishining odobi, bilimi, jismoniy kamoli, jamoa ichida tez ko'rina boshlaydi. Bola yoshligidan boshlab o'zida boshqalar bilan, bolalar jamoasi bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Ammo kichkina bola jamoani o'zi tanlay olmaydi. U biron jamoaga sharoit taqozosi bilan kelib qoladi. Bola yashayotgan jamoa jozibali etib tashkil qilinsa, bola bunday jamoada o'zini erkin sezishi mumkin.

Buning uchun esa jamoa mazmunan boy, undagi o'zaro munosabatlar insonparvarlikka asoslangan bo'lishi muhim. Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, bolalar tomonidan o'z-o'zini boshharish jamoa a'zolaridan ayrimlari boshqasidan ustun kelishiga yo'l qo'ymasligi kerak. SHu bois, tarbiyachi bolalarni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

Demak, tarbiyachi bola bilan amalga oshiradigan yakka tarbiyadagi ishlarni uyushtirishda ma'lum shart- sharoitlarga rioya qilishi lozim. Masalan, yakka tarbiyadagi suhbatlar, mashg'ulotlar, rasm va kitoblarni ko'rish, didaktik o'yinlar ertalabki soatlarda, sayrda kechki soatlarda o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalar bilan qanday ishlar olib borish tarbiyachining umumiy rejasida ko'rsatilishi kerak. Olib borgan kuzatishlari natija va xususiyatlarini tarbiyachi o'zining kundalik daftariga yozib boradi

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Bola shaxsini tarbiyalashning shart-sharoitlari.
2. Bola jamoasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Bolalar jamoasini tarbiyalash jarayonida qanday sifatlar takomillashadi?
4. Intizomlilik va xulq madaniyatini shakllantirish deganda nimanitushunasiz?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Jamoa so'zining ma'nosi nima?

- a) Jamoa so'zi lotincha "kollektivus" so'zining tarjimai bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi.
- b) Jamoa deganda odamlarning kishilarning yig'ilishidan iborat majlis tushuniladi.
- c) Jamoa 2-3 ta bolaning birga didaktik o'yinlarni o'ynashidir.
- d) Jamoa kishilarning ma'lum bir maqsad asosida to'planib suhbatlar uyushtirishi.

2. Tarbiyachi bola bilan amalga oshiradigan yakka tarbiyadagi ishlarni uyushtirishda nimalarga rioya qilishi lozim?

- a) Yakka tarbiyadagi suhbatlar, mashg'ulotlar, rasm va kitoblarni ko'rish, didaktik o'yinlar ertalabki soatlarda, sayrda kechki soatlarda o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.
- b) Suhbatlar, mashg'ulotlar, rasm va kitoblarni ko'rish, didaktik o'yinlarkunduzgi soatlarda, sayrda ertalabki soatlarda o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.
- c) Tarbiyachi bola bilan amalga oshiradigan yakka tarbiyadagi ishlarni uyushtirishda tashkilotchilik qoidalariga rioya qilishi lozim.
- d) Tarbiyachi bola bilan amalga oshiradigan yakka tarbiyadagi ishlarniuyushtirishda tashkilotchilik va bilish qoidalariga rioya qilishi lozim.

3. Bugungi kunda pedagog olimlar L.I. Novikov va boshqa bolalar jamoasi rivojlanish jarayonini tahlil qilishda qaysi jihatlarga e'tibor beradilar?

- a) jamoani dastlabki shakllantirish; jamoani shakllantirish, uning har bir a'zosini individual rivojlantirish; tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi.
- b) jamoani shakllantirish va uning har bir a'zosini aqliy rivojlantirish; tarbiyalanuvchilar nazariy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi.
- c) jamoani yig'ish; jamoani shakllantirish, uning har bir a'zosini tibbiy tomondan tekshirish; tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi.
- d) jamoani dastlabki shakllantirish; jamoani shakllantirish, uning har bir a'zosini psixik rivojlantirish; tarbiyalanuvchilar nazariy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi.

4. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar jamoasini shakllantirishda kim asosiy rolini o'ynaydi?

- a) Tarbiyachi
- b) Tashkilotchi
- c) Trener
- d) Tarbiyalanuvchilar

5. Bolalar jamoasini shakllantirishda qaysi faoliyati turlaridan foydalaniladi?

- a) O'yin va mehnat
- b) O'qish va o'yin
- c) O'yin va mashg'ulotlar
- d) Mehnat va tarbiya

6. Jamoani shakllantirishda tarbiyachiga qaysi qobiliyat eng asosiy va muhim hisoblanadi?

- a) Tashkilotchilik qobiliyati
- b) Bilish qobiliyati
- c) Tushuntira bilish qobiliyati
- d) Kuzatuvchanlik qobiliyati

3-MODUL - TARBIYA NAZARIYASI.

12-mavzu. SHaxs rivojlanishida tarbiyaning o'рни.

1. Tarbiya jarayoni va uning mohiyati.

2. Tarbiya metodlari komil inson shakllanishining vositasi sifatida.

Tayanch tushunchalar:metod, shaxsiy namuna, soʻz, hikoya, maʼruza, suhbat, koʻrgazmalilik, kino, video va audiodisk, radio, televizor, kompyuter, slayd, multimedia, plakatlar, model va mulyajlar, maket va chizmalardagi jihozlar, tayyorlangan tarbiyaga oid materiallar, ishchi varaqalari, nazorat (test) varaqalari, matnlari, jadvallar, yoʻl-yoʻriq xaritalari, topshiriq kartochlari, ragʻbatlantirish, jazolash, tushuntirish, tanbeh berish, ogohlantirish, uyaltirish.

Tarbiya jarayoni va uning mohiyati.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi boʻlib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini oʻrganadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning umumiy asoslari, taʼlim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bogʻlangandir.

Tarbiya vazifalarini toʻla maʼnoda faqat oʻquv jarayonida hal etish mumkin emas.

Tarbiya taʼlim berish bilan mustahkam aloqada boʻlgani holda oʻziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Taʼlim va tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan oʻxshash emas. Taʼlim va tarbiyaning birligi avvalo ular maqsadining umumiyligidan iborat.

Tarbiya bu har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko‘nikmasini o‘zgalarga berish jarayoni va tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama o‘stirish uning ongi va hulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir.

Tarbiya hayotni bilish, unga tayyorlashdek ma’suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko‘p qirralidir. Tarbiyada o‘quvchining jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e’tiqodini, axloqiy malaka va ko‘nikmalarini ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muhimdir. Bunda o‘qituvchi va tarbiyachilarning yuqori tajribaga ega bo‘lishlari katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov o‘zining Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasining ochilishi marosimida so‘zlagan nutqida shunday deydi “Birovni o‘qitadigan, tarbiya qiladigan inson, avvalo, o‘zi har jihatdan barkamol bo‘lmog‘i shart. Zamon talablari shuki, professor va o‘qituvchilar o‘zlarida mavjud bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan xorijiy mamlakatlar tajribasini, biz endi boshlagan yo‘lni ilgari bosib o‘tgan davlatlar tajribasini qunt va sabot bilan o‘rganib, mag‘zini chaqib, undan keyin o‘z talabalariga saboq berishlari zarur”.

Bolalarni tarbiyalash, ular tug‘ilgan vaqtdan boshlanadi va tizimli ravishda ta’lim berish bilan birga olib boriladi hamda ularni ilk yoshlik chog‘idan boshlab jamiyat hayotida qatnashtiriladi. Bola maktabga borganda bu jarayon davom ettiriladi. Maktabdagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan olib boriladigan ulkan ishning bir qismi xolos, u bolaning ilgarigi tajribalarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, undagi barcha yaxshi sifatlarni o‘stirib, noto‘g‘ri tasavvurlar, odatlarni tuzatib borishi va bo‘lajak sifatga zamin tayyorlashi kerak.

Tarbiya o‘quvchi maktabni tamomlagandan keyin ham tugallanmaydi, u butun umr bo‘yi davom etadi.

Tarbiya ta’lim berish bilan bog‘liq bo‘lgani holda, o‘z xususiyatlariga, o‘ziga xos vazifalari, uni tashkil etishning shakl va usullariga ega bo‘lib, maxsus ravishda o‘rganilishi lozim, u tarbiya nazariyasida qarab chiqiladigan masalalar doirasiga kiradi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va hohishlarini ifodalaydi.

Bolaning shaxsiy tajribasi va ehtiyojlari tashqi ta’sirga munosabatini belgilab beradi va uning xulqida aks etadi. SHuning uchun bola faoliyatini uyushtirishning o‘zigina kifoya qilmaydi. To‘g‘ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbida paydo bo‘layotgan munosabatni, turli xil kechinmalarni qanday anglashini, baholashini, his qilishini hamda ulardan o‘zi nimalarni maqsad qilib olayotganini bilish zarur. Yana shuni hisobga olish kerakki, bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar asosida ro‘y beradi. Tarbiya natijasini shu xilda hisobga olish bolalar tarbiyasini samarali olib borishga imkon beradi.

Demak tarbiya bu yosh avlodni ijtimoy hayotga tayyorlash jarayonidir.

Tarbiya jarayonining mohiyati – shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Tarbiya avvalo tarbiyalanuvchi shaxsning tarkib topishi jarayoniga rahbarlik qilishni taqozo etadi. Lekin tarbiyani bunday tushunish bir tomonlama bo‘lib, o‘zbek maktabining yangi vazifalariga to‘la javob bera olmaydi. Shuning uchun o‘zbek pedagogikasi bolalarning faoliyatini tashkil etishni, ularning to‘g‘ri axloq tajribalarini egallashlari uchun sharoit yaratishni tarbiyaviy jarayonning muhim tomoni deb hisoblaydi.

Shu ma’noda buyuk allomalarimizning pedagogik g‘oyalari, ko‘rsatgan yo‘l yo‘riqlari hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib yosh avlodni barkamol tarbiyalashda uslubiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Milliy allomalarimiz Mirzo Bobur, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug‘beq AlXorazmiy va boshqalarning ma’naviy meroslari ta’lim-tarbiya ishlarini samarasini oshirishda yordam beradi.

Pedagogik gʻoyalarning rivojlanishiga mashhur olim, faylasuf, tabib, Abu Ali Ibn Sino jiddiy hissa qoʻshdi. Uning axloq va axloqiy tarbiyaga doir qarashlari alohida eʼtiborga loyiq. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari uning maʼlumotli, olijanob, yaxshi fazilatli, irodali, gʻayratli, barkamol, boshqalarga yordam beruvchi, umum ishiga hizmat qiluvchi, insoniyatga foyda keltiruvchi tavsiyalarida ochiq koʻrinadi.

Ibn Sino taʼlim-tarbiya va axloqqa oid bir necha asarlar yaratgan: “Tadbir almanozil”; “Risola fi ilm al-axloq” va boshqalar. Kishining axloqiy tarbiyasi va rivojlanishining uning koʻnikma, odat, hissiyotlari shakllanishining aniq amaliy masalalari Ibn Sinoning boshqa kitoblarida, ayniqsa “Salmon xaqida qissa”sida yoritib beriladi. Ibn Sino taʼlimotiga koʻra, kishi tarbiyasi uning aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiyasining birligidan iborat.

Tarbiyaning maqsad va vositalari masalasini muhokama qilishda Al-Farobiy aqliy tarbiyaga katta ahamiyat berdi, bunda u ilmiy bilimlarni egallashni nazarda tutar edi. Farobiyning fikricha, inson tarbiyasining maqsadi unda yoqimlilik foydalilik va goʻzal hatti-harakatlari, qobiliyatini namoyon qilishi va inson eng oldin oʻz tabiatini, oʻz xususiyatlarini xaqiqatga va faqat xaqiqatga yoʻnaltirilgan boʻlishidadir. Shunday qilib, Farobiy tarbiyaning maqsad va vositalari muammosini ishlab chiqishda davlatshunoslik etika va pedagogika vazifalaridan kelib chiqadi, bunda odamlarning haqiqiy baxtga erishishlari uchun eng yahshi vosita boʻlib xizmat qiladigan davlatning siyosiy tuzilishi mohiyatini ochib beradi.

Oʻzbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiy taʼlim va tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan boʻlsa ham, oʻzining bu haqdagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Navoiy oʻzining taʼlim - tarbiya toʻgʻrisidagi fikrlarini badiiy asarlarida tarbiyasi barkamol odam idealini ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish yoʻli bilan bayon qildi: ilm-maʼrifat, odob-axloqning kishi va umuman xalq hayotidagi ahamiyati toʻgʻrisidagi mulohazalarida bayon qildi. Navoiyning ilm-maʼrifat, taʼlim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik gʻoyalari markaziy oʻrinda turadi.

Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak aziz va qadrlidir.

Hozirgi kundagi tarbiyaning maqsadlari quyidagilardan iborat:

1) tarbiya yangi iqtisodiy munosabatlarni tarkib toptira oladigan va moddiy ne'matlar yaratishga qodir mukammal, komil inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan bo'lmog'i lozim;

2) yoshlarni milliy urf-odatlarimizga, madaniy-ma'naviy merosimizga suyangan xolda tarbiyalash;

3) barkamol, xar tomonlama rivojlangan, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, mustaqil fikrlay oladigan, jamiyatdagi voqea-hodisalarga nisbatan o'z munosabatini bildira oladigan insonni tarbiyalab voyaga etkazish.

Tarbiyaning asosiy maqsadi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o'z-o'ziga xizmat qilish, sayrlar o'tkazish gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Bolalar bog'chasining pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va u kundalik hayotda, o'yinda, mehnatda, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Maktabgacha tarbiya muassasalari, oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirishini amalga oshiradi:

- Bolalar sog'lig'ini saqlaydi va mustahkamlaydi, jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi; bilimga qiziqishi va qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- Vatanga, tabiatga, ona o'lkaga muhabbatni, kattalarga hurmatni, o'rtoqlik va jamoachilik, xayrixohlik, xulq madaniyati, mustaqillik, uyushqoqlik va intizomni, mehnatsevarlikni tarbiyalaydi;

Estetik tarbiyani amalga oshiradi. Keyingi yillarda jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bo'yicha olib borilgan ilmiy pedagogik tadqiqotlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalash vazifalarini ularning ruhiy fiziologik

imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda belgilash zarurligini ilgari surdi. Ular bolalar bog'chasining ta'lim va tarbiya dasturida o'z aksini topgan. Bog'cha yoshining oxiriga kelganda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi kerak:

Jismoniy tarbiya: bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, mashg'ulotlarda aqliy va jismoniy faollikni oshirish, nerv sistemasini asrash, charchash va mayib bo'lishning oldini olish, shaxsiy gigiena, madaniy-gigienik malakalar, o'z-o'ziga xizmat qilish, kun tartibini aniq bajarish, asosiy harakat turlarini bajarish, ularni ongli o'zlashtirib olib, aniq ado etish.

Axloqiy tarbiya: bolalarda mustaqillikni tarbiyalash, madaniy xulq odatlarini shakllantirish, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatda bo'lish, faoliyat madaniyatini shakllantirish, buyumlarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash, bolalarning yoshiga xos bo'lgan yaxshilik, to'g'rilik, haqqoniylik, jasurlik, kamtarlik kabi axloqiy tasavvurlarni shakllantirish.

Mehnat tarbiyasi: mehnatga ijobiy munosabatni, mehnat ahliga hurmatni, uning faoliyatiga qiziqishni tarbiyalash; mehnat natijalariga, tevarak - atrofdagi narsalarga ehtiyotkorlik munosabatini, mehnat qilish ehtiyojini tarbiyalash, bolalarni muntazam ravishda mehnatga jalb qilib borish, uyushqoqlik va intizomlilikni tarbiyalash, o'lkamizdagi ijtimoiy voqealar to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish.

Aqliy tarbiya: bolalarning aqliy qobiliyatlarini, bilim va amaliy faoliyatlarini o'stirish, tevarak-atrofdagi buyumlar, voqealar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlash va kengaytirish, kuzatuvchanligini shakllantirish va shu asosida voqealar o'rtasidagi sabab-natijalarni aniqlash, nutqini o'stirish, nutq-tovush madaniyatini takomillashtirish, faol lug'atini boyitish, aniq ifodali gapirishga o'rgatish.

Estetik tarbiya: voqelikni badiiy idrok qila olishni rivojlantirish, san'at asarlariga barqaror qiziqishni tarbiyalash, voqealar va badiiy obrazlarning hayotiy bog'liqligini tushunishga, san'at asarlarining tur va janrlarini ajratishga o'rgatish; badiiy-ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, badiiy faoliyatning turlariga qiziqishni, unda faol qatnashishni tarbiyalash, ijtimoiy voqealarga nisbatan o'zining munosabatini bildirish

malakasini shakllantirish. Bu hamma vazifalar ularni bajarishga har tomonlama yondashishni taqozo etadi.

Iqtisodiy va huquqiy tarbiya: Yoshlarimiz kichik yoshdan boshlab ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etadi va shu bilan o'z ijtimoiylashuvini anglab oladi. Iqtisodiy va huquqiy tarbiyasida jamiyat talablarini anglab erishganda yoshlarni ham ruhan, ham amaliy jihatdan tayyorlash lozim. Shuning uchun ularni hozirdan boshlab iqtisodiy va huquqiy bilim-malakalarga ega bo'lishi va to'g'ri bajarishga jalb qilmoq lozim. Iqtisodiy va huquqiy bilim-malakalarga psixologik va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchi-talabalarda mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatkorlik, tejamkorlik, o'z huquqi va burchlarini bilganligiga kabi xususiyatlar tarbiyalanib boradi, ularda jamoatchilik bilan birga iqtisodiyot va huquq tomonlaridan to'g'ri hayot kechirish va mehnat qilish ko'nikmalari hosil qilinadi. Inson butun hayoti davomida ko'pchilik bilan, jamoa ichida mehnat qiladi. Bu jarayonda o'quvchitalabada iqtisod va huquq madaniyatini o'stirmoq darkor. Yoshlar iqtisodiy va huquqiy bilim-malakalarning mazmuni mamlakat oldida turgan ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va iqtisodiy vazifalar, har tomonlama bilimli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, o'quv yurtlarining talablari asosida belgilanadi. Tarbiya hamma sohalari iqtisodiy va huquqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Bozor munosabatlari sharoiti yoshlarda iqtisodiy va huquqiy tafakkurni tarbiyalash ayniqsa muhim. Iqtisodiy va huquqiy tarbiya o'quvchi-talabalarda tejamkorlik, davlat qonun-qoidalarga itoatli, ishbilarmonlik, iqtisodiy tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatni kamol toptirishdir.

Ekologik tarbiya: Pedagogika fani ekologik tarbiyani tashkil qilishda bir nechta talablar qo'yadi. O'quvchi-talaba bugun o'quv davrida tabiat tomonidan va insoniyat mehnati bilan yaralgan boyliklar bilan tanishadi, bularni ichida baxtli yashash faqat tabiiy va sun'iy boyliklarni muxofaza qila olganlaridagina yuzaga kelishini tushunadi, odamizot xayoti va faoliyatini ilmiy tashkil qilishning birinchi darsini o'kuv jarayonida oladi. Ekologik tarbiya oila, maktab va jamiyatda g'oyat ko'lamdor holda amalga oshiriladi. Fan, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti ekologik

muhofazaga nisbatan yuksak talablar qo‘yimoqda. Bu hol o‘quvchi-talabalarni mehnatga tayyorlash, unga o‘rgatish yo‘l va vositalarni takomillashtirishni taqazo qilmoqda. Inson faoliyatining asosiy turlaridan biri atrof-muhitni o‘zlashtirish, bunyod qilish orqali ham ijtimoiy, ham shaxsiy ehtiyojlarini qondiradi. Shuning uchun mehnatga murakkab ijtimoiy hodisalar sifatida qaraladi. Ta’lim-tarbiya jarayoni tabiat muhofazasi faoliyatini ham o‘z ichiga oladi. Shu jarayonda avlodlar to‘plagan bilimlarni ko‘nikma va malakalarni egallash yordamida tabiat muhofazasi faoliyatiga tayyorlanadilar.

Har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga chuqur yondashish kishida onglilik, ma’naviy boylik, yuksak ideal va talablarni, mehnat va ijtimoiy faollikni, jismoniy kamolotni o‘stirish uchun ma’lum maqsad bilan muntazam tarbiyaviy ta’sir etib borishdan iboratdir.

Tarbiya usullari komil inson shakllanishining vositasi sifatida.

Tarbiya berish faoliyatining inson shaxsga aylanishi hamda jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga, Vatan, jamiyat, do‘stu xamkasabalari, ota-ona, o‘z oilasi hurmatiga sazovorni undash va bu xatti-harakatini ko‘nikmava malakalarga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa ma’naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun o‘qituvchimurabbiy va o‘quvchi-talabadan uzoq davom etadigan mas’uliyat, sharaflilik mehnat va irodani talab etadi. Buning uchun yoshlarning yosh xususiyatlari, imkoniyati, intilishi va qobiliyatlarini hisobga olish zarur. Ma’naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo‘lgan munosabat muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalari va atrofdagilarning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini ko‘rgan yosh odam shunga qarab shakllana boradi. U avval kattalarga taqlid qiladi, so‘ng qilayotgan ishlarining mohiyatini anglaydi. Yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalashda otaonaning ongi, ma’naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya - ma'naviy manbalari va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tuggan holda, o'qituvchi va murabbiyning o'quvchi-talaba bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy munosabatdir. Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari o'qituvchi-murabbiy tomonidan rejalashtiriladi va quyidagi tartiblarda ko'rinadi:

1. O'quvchi-talabaning qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish.
2. Shu xislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalarni izlash va topish.
3. Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini tanlash va qaerda ishlatish.

Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'lim-tarbiya tizimi, jamiyat va insonlarning aqliy va jismoniy faoliyati tashkil qiladi. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi o'qituvchi va murabbiyning qanday metoddan foydalanishiga bog'liq.

Metod (yunon tilidan) - aynan nimagadir yo'l, usul, harakat, faoliyat orqali muayyan ishda maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metod, ya'ni usul qanday o'rgataman, qanday, qaysi yo'lni belgilab tarbiyalayman degan savollarga javob beradigan holda ma'lum ta'limiy yoki tarbiyaviy axborotni uzatish, harakatlarni ko'rsatish va ularni qabul qilish ta'rifi ega.

Tarbiya metodlari quyidagilar:

1. Shaxsiy namuna metodi.
2. So'z orqali tarbiyalash metodi.
3. Ko'rgazmalilik orqali tarbiyalash metodi.
4. Rag'batlantirish orqali tarbiyalash metodi.
5. Jazolash metodi.

SHaxsiy namuna - asosiy tarbiyaviy metod bo'lib, o'qituvchi va murabbiy hamma vaqt va har joyda tashqi ko'rinishidan, kiyimlaridan, so'zu nutqlaridan boshlab, xatti-harakatlari, va yurish-turishlarini, o'z bilim-malakalarni va ma'naviyatini ko'rsata bilish, dunyoqarashini ifoda qilish, ijobiy shaxsiy sifatlarini ro'yobga chiqarishdan

iboratdir. A.S. Makarenko aytganidek, o'qituvchining shaxsiy namunasi mingta usullardan afzalroqdir. Yoshi katta odam juda ko'p kerakli so'zlarni aytishi bilan ular uning o'zi qilgan qilig'u ishlariga mos bo'lmasa, u hech qachon ijobiy traviyaviy maqsadlarga erisholmaydi. Shuning uchun ham tarbiya ma'lumotlarini o'z bilim-malakalari, yurishturishlari, amaliy mehnat harakatlari orqali berish, . hamma vaqt va har joyda shavqatli o'rnak ko'rsatish o'qituvchi va murabbiy uchun ayni muddaodir. Bu borada boshqa biron odam (boshqa o'qituvchi, shu muassasada ishlaydigan bog'bon yoki darbon, ibratli oila ota-onasi, zavod-fabrika ilg'or ishchisi, sport murabbiyi, tugarak rahbari, maxallaqishloqdagi qo'shni, iqtidor, faol va qobiliyatli o'quvchi-talaba va h.k.) xatti-harakatlari va yurish-turishlarini, amaliy mehnatini misol qilib ko'rsatish to'g'ri bo'ladi. SHu ishda buyuk mutafakkir, olim, adabiyotchi, san'atkor va jamiyat arboblarning (Payg'ambarimizdan boshlab Prezidentimiz Islom Karimovgacha) tarjimai hollari, klassik adabiyot va dostonlardan kahramonlar obrazlarini (Alpomish, Barchinoy, Tumaris, SHirak, Spitamen, Farhod va b.q..) yaqqol ibratli tarzda ko'rsatib tahlil qilsa bo'ladi

So'z orqali tarbiyalash - bu maslahat berish, ma'lumotlarni uzatishga qaratilgan hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa usullarda ko'rinadigan metoddir. Tarbiya jarayonida ham tarbiyaviy materialini hikoya, ma'ruza, suhbat, og'zaki bayon, kitob o'qish, gapirib berish va tushuntirish orqali amalga oshiriladi. Ma'ruzada tarbiya ishlarining aniq mazmuni, mantiqiy tuzilishi va ketma-ketligini ifodalab berishga yoshlarga tushunarli va oson etib boradigan, har bir bosqichda fikrni aniq va ravshanligi, yoshlarning e'tiborligini, faolligini oshirishga so'z orqali harakat qilinadi. Ma'ruza va hikoyada tarbiya masalasini aytib berish, tasvirlash, mulohaza qilish usullardan foydalaniladi. Ushbu tarzdagi metodni qo'llashda o'qituvchi va murabbiy tarbiyaviy mavzuni bayon qiladi va tushuntiradi. O'quvchi-talabalar esa tinglashadi, eslab qolish, anglab etish orqali uni faol qabul qiladi va o'zlashtiradi. Ma'ruza, hikoya, suhbatlarda yoshlarning fikrlashini faollashtirish usullari, ya'ni isbotlash, tasniflash, mustahkamlash, tizimlashtirish, umumlashtirish kabi usullaridan foydalaniladi. Tushuntirish usuli atroflicha o'ylangan fikrlar, savollar yordamida bilim berilib, u o'quvchini isbotlar

tizimini, tarbiyaviy qonuniyatlarini o‘zlashtirishga olib keladi. Bunda tarbiya materiallari mazmunini og‘zaki bayon qilish, uning asosiy joylarini tushuntirish ko‘zda tutiladi. Tarbiyaviy mavzuga xizmat qiladigan ma’lumot va voqealarni bayon qilish diqqatni faollashtiradi, xotirada saqlashni jadallashtiradi. So‘z orqali tarbiyalash metodini samarali qo‘llash shartlari: rejani qunt bilan o‘ylash, mavzuni yoritishning oqilona izchilligini ta’minlash, misollar va hikoyalarni to‘g‘ri tanlash darkor. Tarbiya mavzusini tushuntirishda tushuntirish yoki biror bir lavhani ko‘rsatishni ko‘zda tutib, masalani mantiqiy qo‘yilishi, isbotlash va umumlashtirish orqali mavzu maqsadiga erishiladi.

Suhbat tarbiyaning ham shunday usulidirki, unda o‘qituvchi-murabbiy to‘g‘ri qo‘yilgan savollar yordamida yoshlarda ilgari o‘zlashtirilgan bilim-malakalar hosil qilib esga tushiradi va shu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlar hosil qilishga undaydi. Evristik suhbatning didaktik ma’nosi shundaki, o‘qituvchi yoshlar oldiga yangi savollar qo‘yib, ularning mantiqiy ma’nolari echiladi va ularda tarbiya masalasi bo‘yicha aniq fikrlar hosil qilinadi. Bu orqali o‘qituvchi-murabbiy yoshlarga oldin egallagan bilimlaridan va kuzatuvlaridan, hayotiy va o‘qish tajribalaridan foydalanishga, ularni taqqoslashga, aqliy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Suhbatlar o‘quvchi-talabalarni qiziqishini, diqqatini oshirishga, bilimlarni yaxshi egallashga olib keladi. Lekin suhbat boshqa og‘zaki usullardan ko‘ra murakkabroqdir va o‘qituvchidan bunga puxta tayyorlanishni talab qiladi.

Suhbat o‘tkazishda uning mantiqiy rejasiga qat’iy rioya qilish kerak, savol-javoblarning ketma-ketligi shunday tuzilgan bo‘lishi kerakki, unda mavzu murakkablashib, rivojlanib borishini barchalar sezib anlay olishi kerak. Suhbat xulosa bilan tugalanadi.

Ko‘rgazmalilik orqali tarbiyalash – bu audiovizual vositalaridan, ya’ni kino, video va audiodisk, radio, televizor, kompyuter, slayd, multimedia, plakatlar, model va mulyajlar, maket va chizmalardagi jihozlar, tayyorlangan tarbiyaga oid materiallar, ishchi varaqalari, nazorat (test) varaqalari, ma’ruza matnlari, jadvallar, yo‘l-yo‘riq xaritalari, topshiriq kartochlaridan foydalanish va bular orqali hayot va faoliyatdagi bo‘layotgan xodisa va vaziyatlarini o‘rganish, tasviriy va badiiy san’at, musiqa san’ati va boshqa narsalarni ko‘rish hamda eshitish bilan tarbiya berish va o‘zini-o‘zi

tarbiyalash usullariga oid metoddir. Ya'ni bu tarbiyaga qaratilgan axborotni ko'rgazmali tasviriy namoyish qilish, uzatish va ko'rish hamda eshitish orqali qabul qilish metodidir. Ko'rgazmali metod – bu o'quv-tarbiya jarayonida, amaliy ishlarda ko'rgazmali vositalardan foydalanish, ular orqali biron narsani tasvirlash va bilimmalakalarni mustahkamlashda ishlatishdir.

O'qituvchi tarbiyaviy masalasini tushuntirishda aniq ko'rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko'rgazmali metod juda qulaydir. Tarbiya jarayonida ham ko'rgazmali metodni qo'llashda didaktik qonunlarga muvofiq bo'lishi darkor, shu metodni qo'llash maqsadga erishish yo'lidir. O'quvchi-talabalarga ko'rgazmali metod orqali tarbiyaviy masalasini anglab olishda muntazam, ketma-ket tahliliy savollar beriladi, muammolar qo'yiladi, o'quvchi-talabalar sobit qadam vazifalarni bajarishadi. O'qishga berilgan usullarini ko'rsatish vaqtida o'qituvchi ularning diqqati va qiziqishini ko'rsatilayotgan narsaga qaratishi, ularni tarbiyaviy harakatlarini faol va ongli ravishda o'zlashtirishga undaydi. Axborotni qabul qilishda tushunib etishi va idrok ta'minlovchi ko'rgazmalilik tushuncha va tasavvurni shakllantirish moddasidir, tarbiyaviy jarayonini engillashtiruvchi maqsadga vaqt sarflab erishishga yordam beruvchi, namoyishlarini, mustaqil ishlarni tashkil qilish vazifa bajaruvchisidir, tarbiyalashda moyillikka ta'minlashga yo'naltirilgan, namoyish va mustaqil ishlarni tashkillashtirish, o'quvchitalabalarni yoshlariga xos bo'lgan xususiyatlarini mazmun bilan mutanosibligini ta'minlash, tarbiya malakalarini ketma-ketligini ta'minlashga yordamchisidir, tarbiyaga berilgan obekt yoki hodisani bir bo'lak yoki ayrim qismlar sifatida ko'rib chiqishga imkon beruvchisidir, aniq tarbiya tarkibiy qism, shakl va turlarining faoliyati, harakatini, qo'yilgan ta'lim-tarbiya maqsadlarga erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan moddasidir.

Rag'batlantirish orqali tarbiyalash – ikki turdan, ya'ni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishdan iboratdir. Bu o'quvchi-talabalarning yaxshi bajargan ishlarini, jamoa va do'stlari oldida, ota-onalarga aytib ma'qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy yordam, stipendiyalarini oshirish, maqtov yorliqlari topshirish, suratlarini hurmat taxtasiga yopishtirish va boshqa og'zaki (ijobiy o'zgarishga befarq bo'lmay "rahmat",

“otanga raxmat”, “barakalla”, “horma”, “charchama”, “o‘zimni o‘g‘lim, qizimsan” kabi so‘zlarni ishlatib turib) rag‘batlantirish usullarini kiritish mumkin. O‘qituvchi va murabbiyning rag‘batlantirish metodiga, albatta, buyurgan ishga burch va mas‘uliyat bilan yondashganligini hamda shu ishga qiziqishini va uni uddalay olganligini rag‘batlantirishlar kiradi. Bu o‘qituvchi va murabbiyning harakatlari qolgan o‘quvchitalabalarni ham tarbiyalasin, ularni mustaqil yumush qilishga undasin. Bu holatdan keyin o‘quvchi-talabalar o‘zini barcha kerakli ishlarga nihoyatda kerakligini sezadi, jamoa, oilaga yordami tekkanligidan mamnun, xursand, o‘zini katta bo‘lib borayotgailigini his etib boradi, ana shu beg‘ubor, mehrlil rag‘batlantirish orqali unda mehnatga qiziqish va uni uddalay olish qobiliyatiga ishonch hosil qiladi.

Jazolash - bu bolaning notug‘ri qilgan ishiga o‘zini iqror qildirish. Agar o‘quvchitalaba ogohlantirmasdan yoki tushuntirmasdan oldin o‘z xatosini tushungan bo‘lsa-yu, o‘qituvchi-murabbiyga qilgan xatosini aytolmay, izza chekib turgan bo‘lsa, uni jazolashga zarurat yo‘q. Endi bu xatoni qaytarmayman, degan ma’noda o‘qituvchimurabbiyga qarayapti. O‘qituvchi-murabbiy unga yana bir marta imkoniyat beradi. Ammo keyingi gal ham xato qilsa va uni tan olmasa, unday hollarda quyidagi jazo turlari qo‘llaniladi:

Tushuntirish,

Tanbeh berish,

Ogohlantirish,

Uyaltirish (Uyat insonning eng nozik sezgisi hisoblanadi va izza qilish (uyaltirish) eng yuqori pedagogik jazo hisoblanadi).

Yuqoridagi jazo turlarini o‘qituvchi-murabbiy o‘quvchi-talabaga yuzma-yuz hech kimning guvohisiz qullaydi, chunki o‘rtoqlari, sinfdoshlari yoki kursdoshlari oldida izza qilay deb uni uyaltirsa, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. O‘quvchini jamoa orasida izza qilishni eng oxirgi chorasiz qolganda qo‘llash mumkin. Eng ma’quli o‘quvchi-talaba bilan yuzma-yuz mehrlil ohangda, unga ishonch bildirib, qaltis yo‘ldan qaytarish mumkin. Yoshning hulq-atvorini, oiladagi tarbiyasini, uning or-nomusini, sharm-hayosi kabi nozik tushunlarining tarbiyalanganlik darajasiini bilmay turib,

birdaniga jamoa orasida uyaltirish, yaxshi o‘ylab ko‘rmaslik, yoki jahl ustida kaltaklash mumkin emas. o‘qituvchi-murabbiyning tanlagan jazo usuli o‘quvchi-talabani qilgan xatosini tushunishga, boshqa qilmasligiga tarbiyaviy saboq bo‘lishi kerak. Jazo adolat mezoniga tayanib qullanmomo‘g‘i lozim. Zero, bu qo‘llagan jazo metodi o‘quvchitalabanning sha‘niga, g‘ururiga va uni ruhiy azob uqubatlarga solmasligi nazarda tutilishi kerak. Agar bu jazo usullari o‘zining samarasini bermasa, u holatda ehtiyotkorlik bilan maktab ma‘muriyati va jamoa hamkorligida boshqa choralarni ishlab chiqish kerak.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ustivor yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- O‘quvchi-talabalarning qiziqishi-xohishiga qarab ta‘lim muassasasi va undan tashqarida tashkil etilgan turli xil uyushmalarga jalb etish;
- o‘quvchilar ishtirokida muntazam ravishda har xil ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazish;
- ijodiy to‘garaklar, fan-texnika yo‘nalishdagi to‘garaklar, sport seksiyalar amaliy mazmunini tarbiya masalalariga qaratish;
- sog‘lom turmush tarzi malakasini shakllantirish;
- ta‘lim muassasasi faoliyatini demokratlashtirish asosi sifatida o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish;
- tarbiyaviy axborotni uzatilishi va o‘zlashtirish mantiqiga ko‘ra oddiydan murakkabga (induktiv) va murakkabdan oddiyga yoki mavhumdan ma‘lumga (deduktiv) usullarda berish;
- o‘quvchi-talabalarning mustaqil tafakkuri darajasi, va o‘zlashtirish saviyasiga ko‘ra ma‘lumotlarni mahsulsiz (reproduktiv), mahsullik (produktiv) va ijodiy tarzda berish;
- tarbiyaviy ishlarini bajarilishini o‘qituvchi-murabbiyning rahbarligidagi ta‘limtarbiyaviy ishlar orqali berish;

- o'qituvchi-murabbiyning rahbarligisiz o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlari (manbalar bilan ishlash, yozma ishlar, mehnat vazifalarini bajarish va shu kabilar)ni tashkil qilish; o'quvchi-talabalarning bilim-malakalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda o'yinlar, o'quv munozaralari, qiziqarli amaliy vaziyatlarni yuzaga keltirish;
- javobgarlik burchini shakllantirishga ishontirish, talab qo'yish, qo'yilgan talabga muvofiq mashq qildirish, rag'batlantirish va jazolash usullarni qo'llash,
- tarbiyaviy ishlarda nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilishda yakka holda so'rash, yoppasiga (yalpi) so'rash, og'zaki va yozma sinov yoki imtihon, dasturli so'rov (testlar), o'z-o'zini nazorat qilish va shu kabilarni nazarda tutish.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Tarbiya nazariyasi nima o'rganadi?
2. Tarbiya jarayonining mohiyati nimadan iborat?
3. Tarbiya haqida aytilgan olim va faylasuflarning fikrlarini aytib bering.
4. Tarbiya vositalari nimalar va ularni ahamiyati to'g'risida gapiring.
5. Tarbiya usullari haqida gariring.
6. So'z orqali tarbiyalash metodi haqida fikr bildiring.
7. Jazolash metodi haqida fikringizni bildiring.
8. Namuna ko'rsatish metodining tarbiyalashdagi ahamiyati.
9. Ko'rgazmalar bilan tarbiyalash qay tarzda amalga oshiriladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Tarbiya nazariyasi pedagogika qanday bo'limi?

- a) Tarbiya nazariyasi pedagogikaning - tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadigan bo'limi.
- b) Tarbiya nazariyasi pedagogikaning - tarbiyaviy jarayonning usuli va ta'lim shakllarini tashkil etilishi masalalarini o'rganadigan bo'limi.

- c) Tarbiya nazariyasi pedagogikaning - tarbiyaviy jarayonning mazmunini va ta'limni tashkil etilishi masalalarini o'rganadigan bo'limi.
- d) Tarbiya nazariyasi pedagogikaning - ta'limiy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadigan bo'limi.
- 2. "Birovni o'qitadigan, tarbiya qiladigan inson, avvalo, o'zi har jihatdan barkamol bo'lmog'i shart. Zamon talablari shuki, professor va o'qituvchilar o'zlarida mavjud bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan xorijiy mamlakatlar tajribasini, biz endi boshlagan yo'lni ilgari bosib o'tgan davlatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z talabalariga saboq berishlari zarur" degan edilar.....**
- a) Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov
- b) Alloma AbuAli ibn Sino
- c) Al-Farobiy
- d) Alisher Navoiy
- 3. Allomaning fikricha, inson tarbiyasining maqsadi unda yoqimlilik foydalilik va go'zal hatti-harakatlari, qobiliyatini namoyon qilishi va inson eng oldin o'z tabiatini, o'z xususiyatlarini xaqiqatga va faqat xaqiqatga yo'naltirilgan bo'lishidadir.**
- a) Alloma AbuAli ibn Sino
- b) Al-Farobiy
- c) Alisher Navoiy
- d) Abdurahmon Jomiy
- 4. Tarbiyaning maqsad va vositalari masalasini muhokama qilishda AlFarobiy qaysi tarbiyaga katta ahamiyat berdi?**
- a) Jismoniy tarbiya
- b) Aqliy tarbiya
- c) Estetik tarbiya
- d) Axloqiy tarbiya

5. Qaysi allomamizning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak aziz va qadrlidir?

- a) Alloma AbuAli ibn Sino
- b) Al-Farobiy
- c) Alisher Navoiy
- d) Abdurahmon Jomiy

6. Metod so‘zining ma’nosi nima?

- a) **Metod so‘zi** (yunon tilidan) –aynan nimagadir yo‘l, usul, harakat, faoliyat orqali muayyan ishda maqsadga erishish yo‘lini bildiradi.
- b) **Metod so‘zi** (yunon tilidan) –aynan nimagadir aqliy faoliyat orqali muayyan ishda maqsadga erishish yo‘lini bildiradi.
- c) **Metod so‘zi** (yunon tilidan) –aynan nimagadir axloqiy faoliyat orqali muayyan ishda maqsadga erishish yo‘lini bildiradi.
- d) **Metod so‘zi** (yunon tilidan) –aynan nimagadir tashqi chizg‘i ya’ni ko‘rinish.

13-mavzu: Aqliy tarbiya va ta’lim

- 1. Aqliy tarbiyaning maqsad va vazifalari.**
- 2. Aqliy tarbiya va ta’limning nazariy asoslari.**
- 3. Aqliy tarbiya va ta’limning mohiyati.**
- 4. Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda “Bolajon” tayanch dasturning ahamiyati.**

Tayanch tushunchalar: aqliy tarbiya, bilimlar, ko‘nikma va malakalar, me’yorlar, qoidalar, dastur, tafakkur, xayol, aql.

Aqliy tarbiyaning maqsad va vazifalari

Yosh avlodni har tamonlama etuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ob’ektiv zaruratdir. Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga

muntazam va maqsad asosida pedagogik ta'sir ko'rsatishdir. Demak, aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi bo'lib, u yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, ko'nikma va malakalar, me'yorlar, qoidalar va boshqalarda ro'y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlarni, kerakli shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir. Chunki aql his-tuyg'ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo'lgan jarayonlar yig'indisidir. Aqliy rivojlanish fikrning kengligida voqealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiyashtirish qobiliyatida namoyon buladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikatsiya, qurish - yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lim va tarbiya samarali ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda, bir tomondan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, bola organizmning umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha toliqtirish bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik- pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim malaka va ko'nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolatdir. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladilar, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifasi — bolaga muayyan maqsadni ko'zlab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoit yaratishdir.

Aqliy tarbiya va ta'limning nazariy asoslari.

Aql insonning epchillik bunyodkorlik insonparvarlik sifatlari majmuasidan iboratdir.

Bolalarning aqli bo'lishida oila, maktab, keng jamoatchilikning ta'siri kattadir. Aqli bolalar qaerda bo'lmasinlar doimo ehtiyotkor, bilimli va tarbiyali ekanligini namoyish etadilar. Ularni ko'rgan, suhbatida bo'lgan kishilar aqliga tahsin qilib rahmat aytadilar. Aqliy tarbiya asosan ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. O'qituvchilarning vazifasi ta'lim berish orqali komil inson shaxsini tarbiyalashdan iborat.

Komil inson deganda, biz avvalo, ongi yuksak mustaqil fikrlay oladigan, (xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz.

Aqliy va axloqiy zakovati, ma'naviy merosi boy bo'lgan millatning kelajagi ham buyuk bo'ladi. O'zbek millati azaldan ilm-fan axloq, madaniyat sohasida boy merosga ega bo'lgandir. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, al Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk aql - ziyo egalarning nomlari jahonda mashhur, chunki ular jahon fani va madaniyatiga katta hissa qo'shgan buyuk zotlardir. Ular dunyoviy va diniy bilim asoslarini mukammal

egallabgina qolmay, balki o‘z sohalarida mo‘‘jiza yarata olgan mutaffakkirlar bo‘lib, aql - ziyoga axloqiylik adolatlikni, insonparvarlikni, vatanparvarlikni, qo‘shib olib borgan edilarki, ularning bu qadriyatlari mustaqil O‘zbekiston uchun g‘oyat zarurdir, chunki o‘z ajdodlari tomonidan yaratilgan aqliy zakovat, axloqiy fazilatlar milliy o‘zligini anglashga yordam beradi.

Insonni ma‘rifatli, bilimli qilish aqlni hayotiy narsalar to‘g‘risidagi bilimlar bilan boyitish sohasida Farobiy matematika tabiatshunoslik ilmlariga katta ahamiyat bergan, chunki, ular insonni ob‘ektiv reallik to‘g‘risidagi haqiqat bilan qurollantiradi. Abu Nasr Farobiy yozadi: “Aqlli deb shunday kishini aytamizki, unda o‘tkir zehn, idrok bo‘lishi bilan birga u fazilatli ham bo‘lsin. Bunday kishi o‘zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o‘zini saqlashga va tortishga qaratgan bo‘lishi lozim. Shunday odamni aqlli va butun fikr yurituvchi deb atash mumkin”.

Inson aql-zakovati va ma‘naviy komolotining yo‘llari ustida to‘xtalib, Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov shunday dedi: “Madomiki, ilm-ziyo ahli bizdan ko‘ra ko‘proq biladigan, uzoqroqni ko‘radigan, teranroq anglaydigan kishilar ekan, demak ularni joyi to‘rda bo‘lishi kerak”.

Demak inson o‘z hayoti va faoliyatini mazmunli o‘tkazishi uchun avvalo o‘zini o‘rab turgan borliqni bilishi, yuksak aql va tajriba egasi bo‘lishi lozim. Chunki inson aqli uning hayotida muhim o‘rin tutishi, aql-idrok tufayligina inson donolik uzoqni ko‘ra bilish kabi xususiyatlarni amalga oshirishi mumkin.

Bola har doim buyumlar hamda hodisalar orasida bo‘ladi. Bola doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko‘radi, hidlaydi, tortib ko‘radi, nimagadir quloq soladi. Shu tariqa asta-sekin dunyoni bilib boradi. Tevarakatrofdagi buyumlar, tabiat bolaning sezgi organlari-analizatorlariga ta‘sir etadi va sezgi hosil qiladi. Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim xossalarini: sovuq-issiq, g‘adir- budur, silliq-yaltiroq, xushbo‘y va boshqani bilib olishga yordam beradi. Sezgi atrofdagi muhitni bilishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bola sezgi tufayligina tevarakatrofdagi narsalar to‘g‘risida bilim, tajriba to‘plab boradi. Idrok esa ancha murakkab

jarayon bo‘lib, sezgilar asosida hosil bo‘ladi. Bola olmani qo‘lida ushlab ko‘rib, qarab chiqib va eb ko‘rib, uni yaxlit bir buyum, ayni bir vaqtda dumaloq, qizargan, xushbo‘y, mazali va hokozo tarzda idrok qiladi. Bola olmani yaxlit bir buyum tarzida tasavvur qilishi uchun birdaniga bir nechta analizator: ko‘rish, sezish va hid bilish analizatorlaridan foydalanadi. Analizatorlar bir vaqtning o‘zida birdaniga ishlashi buyumning xossasi va belgilarini aniqroq hamda to‘laroq bilish imkonini beradi. Shuning uchun katta yoshdagi kishilar bolani ilk yoshlik chog‘idan boshlaboq aqliy jihatdan to‘g‘ri tarbiyalash maqsadida buyumlarni ko‘proq analizatorlar yordamida idrok qilishga imkon tug‘dirishlari, analizatorlarning rivojlanishiga, ya’ni bolaning sensor madaniyatiga alohida e’tibor berishlari kerak. Bolada nutq paydo bo‘lishidan ancha oldin (bola bir yoshga to‘la boshlaganda birinchi bor gapira boshlaydi) u tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar dunyosini katta yoshdagi kishilar yordamida bilib oladi. Bola 3 yoshga to‘lganda uning so‘z zaxirasi 1200-1500 taga etadi. Bola katta yoshdagi kishilar unga nima haqida gapirayotganlarini yaxshi tushunadi. Bu katga yoshdagi kishilar nutqidan har tomonlama tarbiyalashning kuchli vositasi tarzida foydalanish imkoniyatini beradi. Bolalarning aqliy jihatdan o‘shida xotira katga ahamiyatga ega. Bola tug‘ilganda hech narsani bilmaydi va hech narsa qilolmaydi. U rivojlanishning birmuncha yuqoriroq darajasiga ko‘tarilib biror bir foydali ish uchun ko‘pgina bilim va malakalarini eslab qolishi kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi ko‘pincha beixtiyor tarzda bo‘ladi. Shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida xayol muhim rol o‘ynaydi. Xayol bolaning hayoti jarayonida, uning faoliyatida ta’lim va tarbiya ta’sirida tarkib topadi. Bolaning xayoli u syujetli o‘yinlar o‘y- nay boshlaganida, kattalar qiziqarli ertaklar aytib berganida, o‘sha ertaklarga qiziqish orqali dastlabki alomatlari paydo bo‘ladi. Ammo boladagi xayol ko‘proq aniq vaziyatga bog‘liq bo‘ladi (masalan, qo‘g‘irchoq ko‘rinib qolsa, uni uxlatadi, mashina bo‘lsa, biror narsani tashiydi va h.k.). Katta bog‘cha yoshiga kelganda, bolaning tajribasi ortib, faoliyati murakkablashadi va buning natijasida bola xayolida sezilarli o‘zgarish yuz beradi. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi yosh avlodni aqliy tarbiyalash vazifalarini

jamiyatimizning ijtimoiy talablariga va insonning aqliy rivojlanish mohiyati va tabiatiga asoslanib ishlab chiqadi.

- Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari:
- Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
- Aqliy faoliyat, bilish jarayonlari va qobiliyatlarni, aqliy jarayonning xilma-xil usullarini rivojlantirish.
- Mustaqil bilish qobiliyatlarini, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.

Ular tabiat hodisalari, ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlari (yil fasllarining o'ziga xos belgilari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, hayvonlar, ularning hayoti va yashash tarzining tashkil qilinishiga, xulqiga, yashash sharoitiga mosligi va h.k.) ni bilib oladilar. Jonsiz tabiat, o'simliklar, hasharot va hayvonlarni kuzatishi jarayonida tarbiyachi bolalarda borliq to'g'risidagi materialistik tasavvurlarni shakllantirib boradi. Bilimlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi ham shakllanib boradi. Bola san'atning har xil turlari to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab oladi. Bilim insonning mehnatga munosabatini shakllantiradi. Aqliy faoliyatni rivojlantirish bilim hajmi va xususiyatiga bog'liq. Aqliy faoliyatni rivojlantirish esa psixik jarayonlarni sezgi va idrok etish, taassurot, xotira, fikrlash, tasavvur va nutqni shakllantirish ni ham bildiradi. Bunda ularga aqliy faoliyatning g'oyat samaradorligini ta'minlaydigan his-tuyg'ular nozikligi va aniqligi, idrok etishning sobitqadamligi va to'laqonli, esda qolishning mustahkamligi hamda ongligi, tafakkur mantiqi va uning moslashuvchanligi, ijodiy xususiyat va mustaqillikka xos bo'lishi kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'zlariga tushunarli bo'lgan ijtimoiy voqea va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg'otish, Vatanga muhabbat tuyg'usi asoslarini shakllantirishga yordam beradi.

Aqliy ta'lim- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi dasturida

belgilangan eng oddiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishda ta'lim etakchi rol o'ynaydi. Chunki ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi.

Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish, bilish jarayonlari, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyati asoslari hosil qilinadi, maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Hayot ta'limning ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishini taqozo etmokda. Birinchi yo'l bolalarning bilim, malaka ko'nikmalarini kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali egallab borishidir. Bu muomala, mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi. Ammo bu yo'l bilan egallagan bilim va malakalar bolaga hayotning turli sohalarida mustaqil qatnashish uchun imkoniyat yaratmaydi.

Ta'limning ikkinchi yo'li maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka va ko'nikmalar bilan rejali ravishda qurollantirib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir. Barcha olimu fozillar, shoiru yozuvchilar o'z davrining nufuzli ta'lim maskanlarida o'qish bilan hurmat- e'tibor topganlar. Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Saidrasul Aziziy, Muhammad SHarif So'fizoda, Abdulqodir SH okiriy, Abdulla Avloniy va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar va yangiliklar yaratganlar, shu bilan birga boshqalarni ham ilm egallashga chaqirganlar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish tizimi pedagogikada ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670) tomonidan yaratilgan. Ya.A.

Komenskiy 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Ya.A. Komenskiy 19 bo‘limdan iborat maktabgacha ta’lim dasturini tuzdi. Masalan, u tabiatshunoslik (fizika) suv, er, havo, olov, yomg‘ir, qor, muz, tosh, o‘t, qum va boshqalarhaqida bilim berish lozimligini, astronomiya, geografiya, optika va boshqa sohalarda bolalarga bilim berish kerakligini asoslab berdi. Bolalar bog‘chasida beriladigan ta’lim bolalarning maktabda oladigan bilimlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerakligini ta’kidladi. U o‘zining “Onalar maktabi” kitobida kichik bolalarni tarbiyalash va o‘qitish dasturi hamda metodikasini juda sinchiklab ishlab chiqqan.

Shu bilan Ya.A. Komenskiy maktabgacha tarbiya pedagogikasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos soldi. Shveysar pedagogi I.G.Pestalotssi (1746-1827) maktabgacha tarbiya didaktikasini tuzishda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlantirish masalasiga katta e’tibor beradi. G. Pestalotssi tomonidan ishlab chiqilgan ta’limning asosiy mazmuni maktabgacha tarbiya pedagogikasining rivojlanishda va bolalarga keyinchalik maktabda sistemali ta’lim berishda asosiy dastur bo‘lib xizmat qildi. Hozirgi zamon maktabgacha ta’lim nazariyasini yaratishda A.P.Usovaning xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi. Olima rahbarligida 1950 yillarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, bolalar bog‘chasi har bir yosh guruhining ta’lim-tarbiya ishlari mazmuni, metod va usullari ishlab chiqildi. Bu o‘tkazilgan ishlar ta’limning tarbiyaviy ishdan farqini aniq belgilab berdi. Ta’limning nazariy jihatlari ishlanishi “Bolalar bog‘chasi tarbiya dasturi”da “Mashg‘ulot” bo‘limini ajratish imkonini berdi va dasturning keyingi nashrlarida bu bo‘lim takomillashtirilib borildi.

Aqliy tarbiya va ta’limning mohiyati.

Bolalar bog‘chalariga oid tajribalar va o‘tkazilgan pedagogik va psixologik ilmiy tadqiqot ishlari turli yoshdagi bolalarga tevarak-atrof to‘g‘risida beriladigan bilimlarning taxminiy hajmini belgilash, ularni murakkablashtirib borish imkonini beradi. “Uchinchi ming yillikning bolasi” tayanch dasturida bolalarning “jismoniy

rivojlanganlik darajalari”, “Nutq va tafakkurning rivojlanganlik darajasi”, “Bolalarning ma’naviy kamolotini ta’minlash”ga doir asosiy bo‘limlar ko‘rsatib berilgan. Bu bo‘limlarda bolalarni jismoniy jihatdan etuk, sog‘lom va baquvvat qilib tarbiyalash, ularning nutqiy tafakkurini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish ularning mantiqiy tafakkurini va hisoblash malakasini o‘stirish hamda bolalarda nafosat va orastalikni shakllantirish kabi jihatlariga keng e’tibor qaratiladi. SHuningdek, tabiat bilan har xil kasbdagi kishilar mehnati bilan, ba’zi bir ijtimoiy voqealar, narsalar, ularning sifat va xususiyatlari bilan tanishtirishga ham alohida e’tibor qaratilgan. Har bir davrda nutq o‘stirish va o‘qish va savod malakalarini berish aqliy bilimlarini kengaytirish asosiy masala hisoblanadi. Maktabgacha davr uchun dasturda taqvim rejalar va olib boriladigan ishlar kun, hafta, 1 - yarim yillik 2 - yarim yillik olib boriladigan mashg‘ulotlar nomi, soni barchasi ko‘rsatilgan. Aksariyat hollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so‘z boyligi zahirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko‘proq e’tibor beriladi. Ota-onalar, hatto ayrim o‘qituvchilar ham bola qanchalik ko‘p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo‘ladi, deb o‘ylaydilar. Aslida esa unday emas. Fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari guyo ma’lumotlar ummonida suzib yurgandek bo‘lmoqdalar. Ular go‘yo yangidan-yangi so‘z va iboralarni ko‘plab o‘zlashtirib olmoqdalar. Bu esa ulardagi so‘z boyliglarining keskin o‘sishiga asos bo‘lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanyapti, degan gap emas.

Albatta, ma’lum bir dunyoqarash, olam, odamlar, ijtimoiy hayot haqidagi aniq bilimlar zahirasi birinchi sinfga kelayotgan bola uchun zarur. CHunki bunday bilimlar bola keyinchalik maktabda o‘zlashtirishi lozim bo‘ladigan bilimlarga asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq bolaning so‘z boyligi, maxsus malaka va ko‘nikmalari maktabga intellektual tayyorlikning yagona o‘lchami, deb hisoblash noto‘g‘ridir.

Maktabda amal qilinayotgan o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining etarlicha rivojlangan bo‘lishini taqozo etadi. SHuning uchun ham

hozirgi kunda maktab amaliyotchi psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, so'rovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan metodikalardan iboratdir.

5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (akliy) tayyorligining yana muhim ko'rsatkichlaridan biri bu ulardagi obrazli tafakkurning oliy darajada rivojlanganligidir. Bularga tayangan holda bola atrof-muhitdagi narsa-hodisalar o'rtasidagi eng muhim xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda bolalar chizmalı tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan bo'ladilar. Biroq ularning tafakkuri umumlashtirish xislatlariga ega bo'la borsada, predmetlar va ularning o'rnini bosuvchilar bilan aniq xatti-harakati obrazliligicha qolaveradi.

Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida etakchi faoliyat turi bo'ladigan - o'quv faoliyatiga tayyorlangan bo'lishi lozim. Bunda bolada ma'lum bir tegishli masalalarning shakllangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o'quv topshirig'ini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o'quvchilaridan topshiriqda o'zi belgilagan o'zgarish, yangilik, alomatlarni qidirib topa bilish va ulardan hayratlanishni, qiziqishni talab qiladi. Bunday tonshiriqlar amaliy ishlarga aylantirilsa yoki o'yin tarzida bajarilsa, osonroq kechadi va bola o'zlashtiradi.

Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda "Bolajon" tayanch dasturining ahamiyati.

Maktabgacha davr – bu bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganishga, bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma'naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta'lim berishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o'zini, o'zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma'naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o'rab turgan atrof- muhitni o'rganish, nutq o'stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo'nalishlar bir-biri bilan uyg'unlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida tashkil etiladi hamda o'yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O'yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o'yin jarayonida o'rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, engillik bilan o'zlashtiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta'lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta'minlash hamda muassasada ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir. Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'lim, ya'ni barcha bolalarni ta'limga qamrab olish muhim vazifalardan biridir. Inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil etishda har bir bolaning fiziologik va ruhiy rivojlanishi, ayniqsa, o'ziga xos (imkoniyati cheklangan) bolalarning individual xususiyatlari e'tiborga olinadi. Maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida, bu jarayonga ota-onalarni hamkorlik asosida jalb qilish ishlariga alohida e'tibor berish muhim. Ota-ona bolaning birinchi ustози. Ular o'z farzandiga doimo ezgulik tilaydi, Vatanimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shadigan, xalqimiz manfaatlari uchun xizmat qila oladigan inson bo'lishini istaydi. a'lim-tarbiya jarayoni – ota-onalar va murabbiylardan katta sabr, mehr va bola tarbiyasiga ilmiy asoslangan yagona yondashuvni talab qiladi. To'g'ri yo'sinda

olib borilgan tarbiya natijasida bola mustaqil fikr yuritishga va katta hayotga dadil qadam qo'yishga hozirlik ko'radi.

Dasturda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi" hamda "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari" (2013 yil)dan kelib chiqib, bolani intellektual va jismoniy rivojlantirish, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, maktab ta'limiga tayyorlash jihatlari zamonaviy pedagogika va psixologiya tamoyillariga tayangan holda qayta ko'rib chiqildi. "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari"ning barcha yo'nalishlarida berilgan indikatorlar takomillashtirilgan "Bolajon" tayanch dasturiga to'liq qamrab olindi. Dastur maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishiga moslashtirildi, aniqlashtirildi, misollar bilan boyitildi. Noan'anaviy usullarda ishlash yo'llari ko'rsatildi. SHuningdek, bolaning hayoti va sog'lig'ini himoyalash, ta'lim- tarbiya jarayonini puxta olib borish, uning taffakkur, tasavvur va nutqini rivojlantirish bilan birga, mustaqil o'rganishga, fikrlashga, ijodkorlikka, o'z shaxsini hurmat qilish, o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantirishga qo'yilgan vazifalar kengaytirildi, shakl, mazmun va uslubiy tomondan boyitildi. Dasturda muhim tarbiyaviy vazifalardan biri – bolaning sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini tarkib toptirish, Bolani ma'naviy-axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalash, qalbida kitobga nisbatan havas uyg'otish, ilk kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga qo'yilgan talablar boyitildi; milliy merosimiz, o'zbek xalq og'zaki ijodi, xalq o'yinlari, musiqa, raqs, rasm, loy ishi, applikatsiya, qurish-yasash bo'limlari to'ldirildi. Dasturda boshqa xalqlarga hurmat hissini tarbiyalash nazarda tutilgan va bolani mehribonlik, go'zallikni his qilishni o'rgatishga alohida ahamiyat berildi. Bolani tabiat bilan tanishtirish asosida ilk ekologik madaniyatini tarbiyalash, ona-tabiatni asrab-avaylash, o'simliklarni parvarish qilish ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalari kengaytirildi.

Takomillashtirilgan "Bolajon" tayanch dasturi maktabgacha ta'lim tizimidagi barcha muassasalar uchun bajarilishi zarur bo'lgan dastur hisoblanadi. Tayanch dasturining maqsadi maktabgacha yoshdagi har bir bolani maktab ta'limiga sifatli tayyorlash: odobli, aqlli, xushmuomala, o'ziga ishongan, o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga

oshirishga intiladigan, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umummilliy qadriyatlarni qadrlaydigan, jismonan sog‘lom bolani tarbiyalashdan iborat. Dasturning vazifasi bolani jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va sog‘lig‘ini muhofaza qilish; erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy va ma’naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil inson qilib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Dasturning mazmuni quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- maktabgacha ta’limning davlat va jamiyat talablariga mosligi;
- maktabgacha ta’limning demokratikligi; ➤ bola shaxsiga yo‘naltirilganligi;

Ta’lim dasturi quyidagi tamoyilga asoslanib tuzilgan:

- bolalarga etarli bilim berish;
- har bir yoshga xos bilim va malakalar;
- bilim va malakalarni sekin-asta murakkablashtirib borish;
- materialning bir maqsadga qaratilganligi;
- mahalliy materiallardan foydalanish;
- tabiatdagi voqealar;
- ta’limga doir bo‘limlar orasidagi bog‘liqlik.
- bolani sog‘lomlashtirishga qaratilganligi; -mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo‘lish;
- muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo‘llarini topishga intilish;
- jamiyat, mamlakatlar, atrof-muhit muammolariga befarq qaramaslik.

“Bolajon” tayanch dasturida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash quyidagi omillarga asoslanadi:

- davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish va uning barkamol shaxsiga bo‘lgan munosabatining kuchayganligi;
- erkin fuqaro ma’naviyatining shakllanishi;

- milliy urf-odatlar va tarixiy xotira, o'zlikni anglash tuyg'usi rivojlanayotganligi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom uyg'usini shakllanayotganligi.

Aynan shu omillar bola shaxsining jismoniy rivojlanish, o'z- o'ziga xizmat va gigiena, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik, bilish jarayoni va atrof-muhit to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish yo'nalishlariga mos tarzda umumiy rivojlanishini taminlaydi.

- Mazmun jihatdan dastur tarkibiga:
- jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiena;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik;
- bilish jarayoni va atrof-muhit to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish yo'nalishlarida ta'lim-tarbiya vazifalari kiritilgan.

Ushbu dastur bolani shaxs sifatida shakllantirishda maktabgacha ta'lim tizimi mutaxassislari va ota-onalar uchun eng yaqin maslahatchi hisoblanadi rivojlanishi ya'ni shaxs sifatida shakllantirishda kichik detallargacha ko'rsatilgan manbadir. 3yoshgacha bo'lgan bolalarda tevarak-atrofdagi narsalar, ularning sifati har xil narsalarning nomi hamda ularni ishlatish to'g'risida to'g'ri tushuncha bo'lishi kerak. Bolalarni uy jihozlari va buyumlari (mebel, idish- tovoq, kiyim, o'yinchoq mashg'ulotlar uchun material) bilan tanishtirish, ularning rivojlanishda katta ahamiyatga egadir. Bu narsa ularning nutqini boyitadi, mustaqillik, go'zallik haqidagi tasavvurlarni tarbiyalashga yordam beradi (chiroyli kiyim, har xil buyumlarning shakllari).Tevarak-atrof bilan tanishtirish dasturi har bir yosh guruhi uchun muayyan bilimlarni egallab olishni nazarga tugadi. Masalan, birinchi guruh tarbiyachisi bolalarni buyumlarning joylashishini bilib olishga o'rgatadi.Keyinchalik bolalar boshqa xonalarda nimalar borligini, u erda bolalar va kattalar nima ish bilan shug'ullanishni bilib boradilar. Masalan, musiqa xonasida musiqa mashg'ulotlari,

bayramlar o‘tkaziladi, oshxonada ovqat pishiriladi va h.k. Shuningdek, tarbiyachi, bolanarni yaqin atrof, ko‘chalarni, o‘z o‘yin maydonchasini bilib olishga o‘rgatadi. Ayniqsa, katta guruh bolalari o‘z uylari manzilini, bog‘chadan uyga ketadigan yo‘lni yaqin oradagi maydon yoki xiyobonlarga borish yo‘lini bilishlari kerak. Bolalarni tabiat bilan bevosita aloqada bo‘lishlari ularning har tomonlama rivojlanishlarida muhim ahamiyatga egadir. Bu hol ularning aqliy qobiliyatlarini tarbiyalashda axloqiy hamda estetik hislarini rivojlantirishda quvvonqlik, tetiklik, jismoniy hamda ruhiy tomondan bardoshli bo‘lishlarida asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarning tabiat bilan bevosita aloqada bo‘lishi ularning sensor tarbiyasiga katga hissa qo‘shadi. Tabiat o‘zining mo‘l-ko‘l bo‘yoqlari, shakllari, tovushlari bilan analizatorlarini qo‘zg‘atadi. Tabiat bilan aloqada bo‘lish estetik tarbiya vazifalarini hal etishga katta yordam beradi. Chiroyli manzaralar, har xil kapalaklar bolalarda quvonch hissini uyg‘otadi. Tarbiyachining vazifasi bolalarda tabiat go‘zalligiga, uning rangbarangligiga qiziqish uyg‘otishdir. Tabiat o‘z go‘zalligi hamda rang-barangligi bilan bolalarning hissiga va xayoliga ta‘sir etib, ijodiy faoliyatining rivojlanishiga yordam beradi. Tabiat bolalarda vatanparvarlik hissini uyg‘otishda ham katga ta‘sir ko‘rsatadi. Bolalarning yoshligida tabiat boyligidan olgan taassurotlari Vatan to‘g‘risidagi tushunchalarni aniq mazmun bilan boyitadi.

Bolalarning katta yoshdagilar bilan o‘zaro muloqoti ularni har xil kasbdagi kishilar mehnati bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda tarbiyachining asosiy vazifasi bolalarda kattalar mehnatiga hurmatni tarbiyalash, ularning mehnat faoliyatini bolalarga tushuntirish va mehnat qilish ehtiyojini uyg‘otishdir. Bolalarning mehnat to‘g‘risidagi tushunchalari qanday qilib kengayib va chuqurlashib borishi bolalar bog‘chasi dasturda ko‘rsatib berilgan.

Kichik guruhdagi bolalar bog‘chada ishlaydigan kishilarning mehnati, onaning uydagi yumushlari ko‘chadagi transport vositalari bilan tanishtiriladi.

O‘rta guruh bolalarning mehnat turlari va mehnat jarayonidagi izchillik, mehnatda kerak bo‘ladigan buyumlarning nomlari bilan tanishtiriladi.

Katta yoshdagi bolalar mehnatining ahamiyati, ya'ni hamma kishilar jamiyat uchun mehnat qiladilar, degan xulosa chiqarishga o'rgatiladi. Bolalarning o'yinlari, rasmlari ham ularda texnika va mehnatga qiziqish uyg'otadi. Kattalarning mehnati bolalar o'yinining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bolalar o'z o'yinlarida onalari va tarbiyachilari mehnatidan boshlab to yangi shaharlar hamda kosmik kemalar qurilishigacha aks ettiradilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalardagi axloqiy sifatlarni: kishilarga, jamoaga munosabatni tarbiyalashda kattalar mehnati bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mehnatkashlar va ularning mehnatlari bilan tanishish bolalarda o'z yurtiga, xalqiga va boshqa xalqlarga nisbatan hurmat va mehr uyg'otadi. Demak, kattalar mehnati va tabiatni kuzatish bolalarda estetik hislarni, shakllantirishga yordamlashadi, ijodiy faoliyat uchun material beradi. Hamma oilalarda umumxalq bayramlari -“Navro‘z”, “Hayit”, “Yangi yil”, “Mustaqillik” kuni va boshqalar keng nishonlanadi.

Bolalar bu bayramlarda qatnashadilar.

Katta yoshdagi bog'cha bolalariga har bir bayram va tantananing ahamiyatini ularning yoshlariga mos holda tushuntirishadi. Bu o'rinda tarbiyachining vazifasibolalarning hissiyotlarga ta'sir etib, ularda o'z xalqidan hamda uning qadriyatlaridan g'ururlanish hissini shakllantirishdan iboratdir.

Shunday qilib, bog'cha bolalarini tabiat, hozirgi davr voqealari bilan tanishtirish orqali ularning aqliy qobiliyati, axloqiy va estetik hislari shakllanib boradi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

- 1.Aqliy tarbiya va ta'limning mazmunini ayting.
- 2.Aqliy rivojlanish deb, nimaga aytiladi.
- 3.Aqliy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
- 4.Aqliy tarbiyaning metodologik asoslari.
- 5.Bolalar bilimlarni qanday jarayonlarda egallaydilar?

6. Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi va ahamiyati.

7. Bolalarda tabiatga bo'lgan munosabatni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

8. Bolalarga mehnat to'g'risidagi tushunchalar qanday singdirib boriladi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy yashagan davrni ko'rsating.

- a) (1592—1670 yil)
- b) (1594—1670 yil)
- c) (1595—1670 yil)
- d) (1598—1670 yil)

2. Maktabgacha ta'lim dasturini kim tuzdi?

- a) I.G.Pestalotssi
- b) Ya.A. Komenskiy
- c) A.P.Usova
- d) I.G.Lestgaft

3. Shveysar pedagogi I.G.Pestalotssi yashagan davrni ko'rsating

- a) (1746-1827 yil)
- b) (1746-1828 yil)
- c) (1747-1827 yil)
- d) (1746-1829 yil)

4. Maktabgacha tarbiya didaktikasi kim tomonidan tuzilgan ?

- a) I.G.Pestalotssi
- b) Ya.A. Komenskiy
- c) A.P.Usova
- d) I.G.Lestgaft

5. Maktabgacha tarbiya pedagogikasini mustaqil fan sifatida shakllanishiga kim asos soldi?

- a) I.G.Pestalotssi
- b) Ya.A. Komenskiy
- c) A.P.Usova
- d) I.G.Lestgaft

6.Qaysi pedagog tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning asosiy mazmuni maktabgacha tarbiya pedagogikasining rivojlanishda va bolalarga keyinchalik maktabda sistemali ta'lim berishda asosiy dastur bo'lib xizmat qildi

- a) I.G.Pestalotssi
- b) Ya.A. Komenskiy
- c) A.P.Usova
- d) I.G.Lestgaft

14-mavzu: Axloqiy tarbiya.

- 1. Axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari.**
- 2. Axloqiy tarbiya vositalari.**
- 3. Axloqiy tarbiya berish metodlari.**
- 4. Axloqiy odatlarni tarbiyalashning pedagogik shart – sharoitlari.**

Tayanch tushunchalar:Axloq, tarbiya, metod, odob, tartib, qoida, aql, ilm, fazilat.

Axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari.

“Axloq” ijtimoiy tushunchalardan biri bo‘lib, uning mohiyati shaxs xattiharakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. SHuning uchun ham axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy - ruhiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

“Axloq” tushunchasi oila fikri asosida tartibga solinuvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Demak, “axloq” tushunchasi qadimqadimdan ijtimoiy falsafiy, psixologik, pedagogik, tarixiy, badiiy, etnografik va

madaniyatshunoslikka oid asarlarda ushbu tushuncha turli ko‘lamlarda ishlatib kelingan. Axloq (xulq-atvop demakdir) - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy tartib qoida bo‘lib, bu tartib qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti- harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo‘lgan ma’naviy moyillikni asosini, poydevorini tashkil etadi. Axloq kishilarning xulq-atvor me’yorlari va qoidalari, ularning o‘zo‘ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning alohida shaklidir. Axloq tarixiy xususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatda avlodlar tomonidan to‘plangan axloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Zero, axloqsiz, axloqiy talab hamda ularda ifoda etilgan g‘oyalarsiz shaxsning ruhan va jismonan etukligining asosi bo‘lgan ma’naviy komillik shakllanadi.

Maktab ta’lim va tarbiyasi yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Axloqiy tarbiya hozirgi hayotimiznigina emas, balki kelgusi hayotimizni xam o‘zida shakllantirgan kishilarni tarbiyalash talabini qo‘yadi.

Mustaqil O‘zbekiston davlatining jahon xaritasida paydo bo‘lishi axloqiy tarbiyaning pedagogik asosini ishlab chiqishni talab etadi. O‘zbek madaniyati qadimiydir. O‘zbek xalqi ham, boshqa xalqlar singari o‘zining boy merosiga ega. O‘zbekiston mustaqil davlatga aylangan bir sharoitda ma’naviy va axloqiy tarbiya qator omillar ta’sirida amalga oshiriladi. Odob va axloqiylik deganda, uning tarixiy rivojlanishi davomida vujudga kelgan kishining jamiyatdagi axloq me’yorlari tushuniladi.

Axloqiy tarbiya – tarbiyaning muhim tomoni va tarkibiy qismidir. Axloqiy tarbiya qator omillar ta’sirida amalga oshiriladi. Bu eng avvalo, shaxsni umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish maqsadida ish olib borishda ko‘rinadi. Axloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsni axloqiy shakllantirishdir.

Axloqiy shakllantirish deganda - shaxsning muhim ma’naviy sifatleri bo‘lgan hissiyot va xulqni shakllantirish, vatanparvarlik vatanga muhabbat, O‘zbekiston

gerbi, bayrogi, madhiyasiga hurmat, insonparvarliq ongli intizom va boshqa tuyg‘ularni kamol toptirish tushuniladi.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va hayotga tadbiq etilayotgan mustaqillik mafkurasida-ma’naviy jihatdan komil insonni tarbiyalash vazifasi asosiy o‘rinni egallagan.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-taraqqiyotning besh asosiy tamoyilida, faqat jismoniy jihatdan emas, balki ma’naviy jihatdan xam sog‘lom bo‘lgan avlodni tarbiyalash vazifasi ham o‘z aksini topgan. “Yosh avlodda o‘z sevikli Vatani O‘zbekistonga muhabbat tuyg‘usini avj oldirmoq bosh vazifadir. Bu muhabbat ana shu sevikli diyorda yashovchi barcha xalqlarning farzandlariga baravar darajada aloqador vatanparvarlik xalqparvarlik g‘oyalari jamiyatni yuksaklikka ko‘taradi. Elu-yurtda do‘stliq birodarlikni, xalqparvarlikni mustahamlaydi” deb yozgan edilar I. A. Karimov.

Bu borada buyuk allomalarning ta’lim-tarbiya haqidagi dono fikrlari, tajribalari xam o‘z ifodasini topgan. O‘zbek xalqining buyuk shoiri va zabardast olimi Alisher Navoiyo‘zining yirik she’riy va nasriy asarlarida ta’lim tarbiyaga doir, kelajak avlod uchun muhim, ilg‘or g‘oyalarni olg‘a suradi va bu g‘oyalarni amalga oshirish yo‘lida tinmay harakat qildi Alisher Navoiy aql, ilm va axloq tarbiyasini insonning eng go‘zal zaruriy fazilatlaridan biridir, shuning uchun har bir insonning eng muhim burchi, aqliy va axloqiy tarbiya olishdir deb hisoblaydi, shu bilan birga ilmsizlik nodonlik johillikka olib boradi deb savodsizlikni qattiq qoralaydi. Navoiy o‘qituvchilikni faqat dars beruvchi, bilim beruvchi kishigina deb bilmay, balki usta tarbiyachi ham bo‘lishi kerak deb hisoblar edi. U ilm bilan odobni birga olib borishlikni, ya’ni o‘quv jarayonida odob ham berib borishni ta’kidlab o‘tadi.

Buyuk allomalardan bo‘lmish Abu Ali Ibn Sinoning shunday hikmatli so‘zi bor: “bemorni dori emas, ko‘proq shifokorning shirin so‘zi davolaydi”. Odobli kishilar inson shaxsini hurmatlaydilar. Ular odatda nozik tabiatli, xushmuomalali bo‘ladilar. Ular yolg‘onchilikdan, soxtalikdan, g‘arazgo‘ylikdan xazar qiladilar.

Tarbiyali inson bo‘lmoq uchun har bir inson ijtimoiy foydali mehnat qilishi o‘z ustida muntazam ishlashi, doimo o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lmog‘i lozim.

Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda etuk o‘zbek pedagoglaridan Abdulla Avloniyham qimmatli fikrlarni meros qilib qoldirgan. Avloniyning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari ichida “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli asari katta ahamiyatga egadir. Bu asarni har bir bo‘limi aqliy va axloqiy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Bu asarda ta’lim bilan tarbiyaning uzviy birligi to‘g‘risida fikr yuritir ekan shunday deydi: “Dars bilan tarbiya o‘rtasida bir oz farq bo‘lsa ham ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga bog‘langan jon ila tan kabidir”.

Pedagog uchun axloqiy tarbiya o‘quvchining kamol topishiga qanday ta’sir o‘tkazayotganligini, o‘quvchi bu tarbiyaning ta’siri bilan o‘zgarib, axloqiy komolotning yangi bosqichiga qay tariqa ko‘tarilayotganligini bilib olish muhimdir.

Axloqiy tarbiyaning butun bir jarayonini ayrim bo‘g‘inlarga bo‘lish va ularning har birini ko‘rib chiqish yo‘li bilan buni anglab olish mumkin. Shaxs axloqiy ongining darajasi uning fe‘l-atvori va faoliyatini belgilab beradi. Ongning tarkib topish jarayoni uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bu jarayon bolaning maktabga borishidan ancha oldin, uning jamiyat to‘g‘risidagi, yaqin kishilarning o‘zaro munosabatlari haqidagi dastlabki tasavvurlari shakllanishi bilan paydo bo‘la boshlaydi. Bolalar maktabga kelishi bilan ular oldiga qo‘yiladigan talablar ortib boradi. Dastlabki tasavvur asosida bolalarda asta-sekin barqaror qarashlar va e’tiqodlar komol topib borayotgan kishining hatti-harakatini boshqaradi. His-tuyg‘u o‘quvchilarning fe‘l-atvoriga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiya ishida xis-tuyg‘uga tayanish tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Bolalarning xis-tuyg‘ulariga molik bo‘lish, tarbiya ishining eng murakkab sohasidir. O‘quvchining xis-tuyg‘ulariga ta’sir qilish usullarini belgilaganda his-tuyg‘ularni tarbiyalash asosan boladagi mavjud tuyg‘ularni o‘zgartirish va yanada takomillashtirish yo‘li bilan sodir bo‘lajagini nazarda tutish zarur.

Pedagogika his-tuyg‘ularni tarbiyalashning aniq va bevosita yo‘llarini ko‘rsatib berolmaydi. Masalan: o‘quvchi oldiga bevosita o‘z o‘rtog‘ining yoki kitobda

tasvirlangan qaxramonning xatti-harakatidan quvonish tuyg'ularini his etish maqsadini qo'yib bo'lmaydi. Zarur his-tuyg'ular paydo bo'lishi uchun o'quvchida biror bir kechinma tug'diradigan munosib vaziyatni vujudga keldirish muhimdir. Masalan:maktabda jonajon tabiat to'g'risida ko'p gapirgan holda, bolalarda tabiatning go'zalligi va ulug'vorligidan xursandchilik tuyg'ularini uyg'otmaslik mumkin. Tabiatga bir necha bor ekskursiya qilish, o'quvchilar oldiga eng ko'rkam joylarni topish va ularni suratga olish, fotomontaj chiqarish kabi vazifalarni qo'yish bolalarda tabiatga nisbatan eng samimiy tuyg'ularni uyg'otadi va axloqiy histuyg'ularni shakllantiradi.

Xatti-harakatdagi ko'nikma va odatlarni shakllantirish. Tarbiya ishining ta'sirchanligi va maktabning xatti-harakatdagi foydali ko'nikmalar va odatlarni shakllantirish borasida nechog'lik g'amxo'rlik qilayotganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Axloqiy ko'nikma va odatlar quruq mashq qilish natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Ammo bu yo'l kam samara beradi. Bolaning pedagogik jihatdan yaxshi o'ylab tuzilgan hayoti odatlarni tarkib toptirishning eng samarali yo'lidir.

Demak, o'zbek xalqining ma'naviyati haqiqatgo'y va adolatli bo'lish, jaholat va qabixlik yo'lini to'sish, insoniylik, mehr-shafqat, ma'rifat, do'stlik, mardlik, birodarlik, mehmondo'stlik, poklik, xush xulqlilik, insof, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga chaqiradi. Qadim-qadimdan o'zbek va sharq klassiklari ijodida axloq-odob masalasi markaziy o'rin egallab kelgan.

Kaykovusning "Qobusnomasi"dan tortib, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning nazmiy va natriy asarlarida YUusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" (Haqiqat sovg'alari), Imom Ismoil al-Buxoriyning "Al adab Al-Mufrat kabi" jahonga mashhur asarlarida Alisher Navoiyning o'lmas she'riyatida, Munis, Xorazmiy kabi shoirlar asarlarida axloq-odob masalalari yoritilgan.

Koshifiyning asarlaridagi ta'lim-tarbiya, axloq masalalari ko'pchilik uchun andoza, namuna, odob me'yori sifatida qisqa asosli, lo'nda qilib yozilgan. Koshifiyning fikricha, inson fazilati uning egallagan ta'lim-tarbiyasiga bog'liq.

SHundagina u odobli hisoblanishi mumkin. “Odob -bu qalbni yomon soʻzlardan va nojoʻya xulqdan saqlay olish, oʻzini va oʻzgalarni hurmat qila bilishdir”, - deydi olim.

Navoiy esa “Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar ichida yoqimlirogʻidir” - deydi. Bu bilan esa u kishilarning insoniylik belgisi uning odobli, axlokli ekanligi bilan oʻlchanadi, deb taʼkidlaydi va barcha insonlarni yaxshi xulqli boʻlishga chaqiradi. Shuningdek, Navoiyning “Mahbubul qulub” asarida odob, axloqqa oid gʻoyalar ilgari surilgan. Uning birdan-bir orzu-umidi, ideal insonga boʻlgan mehr- muhabbat, samimiylik edi: “Donishmandlar aytibdurlarkim, odobli inson barcha odamlarning yaxshiligi va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan goʻzalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Yoshlarni koʻzga ulugʻ qilib koʻrsatadigan narsa odobdir”.

Qoshgʻariy: “Insonlarda oq koʻngillilik, bagʻrikenglik, mehnatsevarlik, sofdillik, rostgoʻylik, saxiylik, vijdonlilik, irodalilik, qatiyatlilik kabi fazilatlar, boʻlishi shart va bular insonning barkamolligidan dalolat beradi, - deydi, ammo xasislik, olgʻirlik, ochkoʻzlik, gʻirromlik, pastkashlik, tuhmatchilik, xoinlik, yolgʻonchilik kishilarni beburd, axloqsiz qilib qoʻyadi. Bunday salbiy xislatlar ularni obroʻsizlantiradi, hayotini izdan chiqaradi, notoʻgʻri yoʻlga boshlaydi. Pastkash, baxil odamdan yaxshilik kutish mevasiz daraxtdan meva kutishga oʻxshaydi”. Odobli boʻlishning fazilati toʻgʻrisida sheʼr va dostonlardan, adabiy manbalardan juda koʻplab parchalar, sheʼriy misralar keltirish mumkin. Odobli, yaxshi xulqli boʻlish toʻgʻrisida dono xalqimiz toʻqigan koʻplab maqol matallar asrlar osha ogʻizdanogʻizga oʻtib kelmokda: Odobing-obroʻying. Odob-kishining zebu ziynati. Oltin olma-odob ol. YAxshilikka yaxshilik har kishining ishidir, yomonlikka yaxshilik er kishining ishidir.

YUqoridagi fikrlarni amalga oshirishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati benihol kattadir. Masalan: halol kurashish, raqibga hurmat bilan qarash, kun tartibiga rioya qilish, oldiga maqsad qoʻyish va unga erishish va boshqalar.

Axloqiy tarbiya vositalari .

Maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshining o‘ziga xos tomoni shundaki, bu yoshda bolalar axloqiy tushuncha yoki xulqni so‘z bilan aniq ta’riflab berolmaydilar. Lekin bolalar bog‘chasidagi to‘g‘ri talqin voqealarning umumiy ma’nosini anglab olishga yordam beradi. Agar bolalar boshqalarda yaxshi xulq namunalarini ko‘rsalar o‘zlari ham ularga o‘xshashga harakat qiladilar. Axloqiy tarbiyaning g‘oyaviy asosi uning maqsadi vazifasi va tamoyillarini belgilaydi, ruhiy pedagogik asosi esa bolalar bog‘chasida axloqiy tarbiya berishning vazifasi va mazmuni vositalari va metodini hamda pedagogik shart-sharoitini belgilab beradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi.

Axloqiy tarbiya vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish.
- SHaxsda axloqiy his – madaniyatini tarkib toptirish.
- Bolalarda ijobiy his – tuyg‘ularni, tasavvurlarni va sifatlarni tarbiyalash.
- Hulqida salbiy sifatlarga barham berish
- Bola shaxsini har tomonlama komil inson sifatida rivojlantirishni ko‘zda tutish.

Bolalar bog‘chasida axloqiy tarbiyaberish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Avvalo, bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati eilan tanishtirish, mashg‘ulotlarda va mashg‘ulotlardan tashqari vaqtlarda ta’lim berish, kun davomidagi maishiy, mustaqil, badiiy faoliyatda, ko‘ngil ochishlarda qatnashtirish orqali bu ish hal etiladi. Har xil bayramlar, san’at vositalari, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar badiiy adabiyoti, musiqa, ashula, tasviriy va amaliy san’at, o‘yinchoq va o‘yin materiallari, ommaviy axborot vositalari, oynai jahon va radio, kino va multfilmlar, diafilmlar va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunday vositalardan ma’lum bir izchillik va tizimlilik bilan foydalanilgandagina bolalarning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkin. Axloqiy tarbiya o‘quvchining to‘g‘ri yo‘nalish olishi uchun hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan muhitni (oilal, o‘rtoqlar va do‘stlar muhiti) hisobga olganda shaxsning

butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yo‘l va usullari o‘quvchilarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishni tashkil qilishda alohida xususiyatga ega. Ushbu yo‘llarni ko‘rib chiqamiz. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi: inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to‘g‘risida keng tasavvur beradi. Axloqiy bilim asosan axloq to‘g‘risidagi suhbatlar, ma‘ruzalar, mazuiy kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchrashuvlar, o‘quvchilar konferensiyasi va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi. Axloq tarbiyasining eng muhim vositalari: o‘quv mashg‘ulotlari hamda ota-onalar va o‘qituvchilarning shaxsiy namuna ko‘rsatishidir. Bola yaxshi axloqli, dono, bilimdon o‘qituvchi qo‘lida ham bilim o‘rganadi, ham odob o‘rganadi.

Axloqiy bilim berishni tashkil qilishda kichik maktab o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, ularni shaxsiy axloqiy tajribalarini, axloqiy me‘yorlardan xabardorlik darajasini, axloq sohasidagi o‘zlashtirgan bilimlarini hisobga olish zarur.

Shaxsning axloqiy rivojlanishi axloqiy ehtiyojlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi: mehnatga, muloqotga, madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishga, bilish qobiliyatini rivojlantirish va boshqalarga ehtiyoj seziladi. Bu ehtiyojlar o‘quvchilar faoliyati va munosabatlarining hayotiy tajribasida rivojlanadi. Ko‘p qirrali faoliyat jarayonida xatti-harakatning ijtimoiy-foydali ko‘nikmalari, axloqiy odatlar, barqaror munosabatlar shakllanadi. Aniq maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy-foydali faoliyatda bola turli vazifalarni bajaradi, ularning har biri uni muayyan ijtimoiy majburiyatlarga tayyorlaydi. Maktabda u o‘quvchi, sport to‘garagida jamoa sardori, oilada o‘g‘il yoki qiz va boshqalar.

Axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi hatti-harakatlarni odatga aylantirishdir. Axloqiy odatlarni tarbiyalashga qo‘yiladigan pedagogik talab o‘quvchining fe‘latvori va ongining birligi va o‘zaro aloqasiga asoslanadi. SHunday qilib, madaniyatsizlik va axloqsizlik beodoblik hayotimizning barcha sohalarida o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Yuqori madaniyat, axloq qoidalarini turmushimizga keng joriy etish esa adolatli davlat qurishdek buyuk vazifani amalga oshirishda qudratli omildir.

Yuqoridagi aytilganlardan xulosa shuki, axloq odob o'zbek millati hayotining mazmuni hisoblanadi. Qaerda, qaysi jamiyatda, qaysi davlatda yaxshi xulq qaror topsa, o'sha jamiyatdagi kishilarning hayoti farovon, turmushi tinch, odamlari boybadavlat bo'ladi.

Axloqiy tarbiya berish metodlari.

Maktabgacha tarbiya yoshi va kichik maktab yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullardan foydalaniladi. Axloqiy tarbiya metodlari bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarini egallab olishi, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usulidir. Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhga bo'linadi. **1-guruh** : axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xohishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

2-guruh: axloqiy his-tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlar.

Hamma guruh metodlari axloqiy his-tuyg'ular va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashni ta'minlaydi.

Shuningdek, ko'rsatmali, og'zaki metodlar, tushuntirishni ko'rsatish bilan qo'shib olib borish. Tarbiyachining hikoyasi, o'qib berish, axloqiy mavzularda suhbatlar (rasmga qarab, tajribaga asoslanib, o'qilganlar bo'yicha), kuzatish, rasmlarni namoyish qilish, bolalar adabiyoti va hayotdagi ijobiy misollardan foydalanish asosida olib boriladi. Yuqorida keltirilgan hamma metodlar orqali bolalarga axloqiy me'yor va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o'rgatiladi, ularda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi.

Bu metodlarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: bolalarning yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini e'tiborga olish, aqliy, xulq-atvor me'yorlarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish, har bir bolaning his-tuyg'usiga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish. Bolani noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish yaramaydi. Hamma metodlardan ma'lum izchillik bilan kompleks ravishda

foydalaniladi. Har bir metod o'ziga xos bo'lib, ma'lum vazifani bajaradi. Buni bir qator misollar orqali ko'rib chiqamiz. Tushuntirish ko'pincha bolalarga yangi axloqiy tushuncha, me'yor, qoida bayon qilib borilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslanadi. Masalan: ro'paradan kelayotgan tanish kishiga xushmuomalalik bilan salom berish uchun avvalo, bir oz to'xtab, u kishining yuziga qarab kulimsirab "Assalomu alaykum" deyish va yana yo'lida davom etish kerak. Tushuntirish va ko'rsatish tabiiy holda bo'lishi kerak. Axloqiy mavzulardagi suhbatni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hamma guruxlarida qo'llash mumkin. Tushuntirish yorqin bo'lib, bolalarning his-hayajoniga etarlicha ta'sir etishi kerak.

Bu metodning asosiy vazifasiga quyidagilar kiradi:

- bolalarda ijobiy-axloqiy hislarni uyg'ota olish, ertak kahramonlariga hamdardlik bildirish hamda yutug'idan quvonish va muvaffaqiyatsizligiga birgalashib achinish;
- bolalarga tushunarsizbo'lgan ayrim axloq qoidalarining mazmunini ochibberish;
- axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda, sayrlarda, bolalarning o'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda foydalanish.

Axloq mavzulardagi suhbatlar orqali bolalar axloq me'yorlari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda axloq qoidalari va me'yorlariga nisbatan talab yuzaga keladi. Bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish xulqning axloqiy sabablarini aniqlab borish kerak. Suhbat jarayonida bolalar o'z fikr- mulohazalarini aytishlariga keng imkon beriladi. SHunda ular har bir xatti- harakatini ongli ravishda, axloq me'yorlari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar. Shuningdek, bolalarga badiiy adabiyotlarni o'qib berish, san'at asarlari va amaliy san'at buyumlarini tomosha qilish, musiqa va ashula eshitish bolalarda estetik hisni uygotadi hamda axloqiy qoida va me'yorlarni singdirib boradi.

Amaliy va o'yin metodlari - o'yin mashqlar, muammoli vaziyatlar, izlanuvchanlik faoliyati, pedagogik masalalarni echish, didaktik va harakatli, sahnalashtirilgan o'yinlar, bolalarning hamma faoliyatiga rahbarlikni ham shu guruh metodlariga kiritish mumkin. Metodlar axloqiy tasavvur va tushunchalarni mustahkamlashga, bolalarda axloqiy tajribani to'plashga, axloq me'yorlari va qoidalarini ongli ravishda egallab olishga yordam beradi. O'yin kichik bog'cha yoshidagi bolalar uchun mashq hisoblanadi va axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta'sirli usulidir. Unga qoidalarni mashq qildirish foydali odatlarni qaytarish kabilar kiradi. Muammoli vaziyat o'zining ahamiyati jihatidan mashqqa juda yaqin turadi, ammo uning o'ziga xos tomoni bolada faollik, ijodkorlik, mustaqillik namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Dastlab hikoya - vaziyat (tugallanmagan hikoya) tavsiya etiladi, masalan, birorta hikoya ma'lum erida to'xtatiladi. Tarbiyachi bolalarga hikoyadagi qahramonlar xulqini baholashni tavsiya etadi. Bolalarning javoblari muhokama etiladi va hikoyadagi ijobiy insoniy xulq haqida bir fikrga kelinadi. Axloqiy tarbiya metodlaridan tarbiyachi bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarni mustahkamlash bola xulqidagi salbiy tomonlarni bartaraf etish maqsadida foydalaniladi. Bunda tushuntirish, ishontirish, suhbat shakllari qulay bo'ladi. Rag'batlantirish va jazolash axloqiy tarbiyaning qo'shimcha metodi bo'lib, u asosiy metodlarga ta'sir etishning o'ziga xos vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyachi boladagi ijobiy xatgi-harakatni faollashtirish yoki bo'lmasa, bolani yomon qiliqlardan qaytarish uchun rag'batlantirishdan foydalaniladi.

Bolalar bog'chasida rag'batlantirish shakllari: maqtash, ma'qullash, bolaga o'yinda bosh rolni berish. Jazo shakllariga esa tanbeq, ma'qullamaslik, yaxshi ko'rgan o'yinchog'ini bermaslik kiradi.

Jismoniy jazo qat'iyan man etiladi. Jazoning bosh vazifasi yuzaga kelgan nizolarni bartaraf etish, yangisining yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik..

Tarbiya usuli deb tarbiyachining bolalarda ishonch va ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish maqsadida ularning ongi va irodasiga ta'sir etish yo'llariga aytiladi. Ayni vaqtda tarbiya mazmunining ko'p qirraliligi va kengligi tufayli tarbiya usullari ham

xilma-xil bo‘lib muayyan sharoitda ulardan qaysi birini tanlash va qo‘llash o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida vujudga kelgan munosabatlarga, tarbiyaning qaysi sohasi hal qilinayotganligiga (darsda intizomning ta‘minlanishi, o‘quvchilar bo‘sh vaqtini uyushtirish, mehnat yoki ijtimoiy faoliyati), ayni vaqtda vujudga kelgan vaziyatga bog‘liqdir. Tarbiya usuli ham ta‘lim usuli kabi yolg‘iz o‘qituvchi va tarbiyachilar faoliyatinigina emas, balki o‘quvchilarning aktiv faoliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bolalarning yoshi ulg‘aygan sari ularning tarbiya jarayonidagi faolligi va mustaqilligi osha boradi, ular tarbiyachilar rahbarligida va o‘z tashabbuslari, intilish va istaklari bilan yangi-yangi axloqiy fazilatlar orttirib, mukammallashtirib boradilar.

O‘qituvchi qo‘llayotgan usul va vositalar ta‘sirida bolaning ongida va hulqida ham o‘z shaxsini o‘zgartirish istagi va intilishi vujudga keladi. Bola o‘z-o‘zini kuzatmasa, farosatini ishga solmasa, tarbiya ko‘zlangan natijani bermaydi, mo‘ljaldagi samarani ko‘rsata olmaydi.

SHuning uchun, tarbiyachi usullarni tanlashda qator shart-sharoitlarni hisobga olishi lozim. Usullarni tanlash tarbiyaviy faoliyatning vazifa va mazmuni, o‘quvchi, sportchi hamda kollektivlarni tarbiyalanganlik darajasi, tarbiyalanuvchining individual xususiyatlari, tarbiyachi va pedagog-trener va jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik mahorati darajasi bilan bog‘liqdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni tarbiyalashda quyidagi tarbiya usullarining 4 ta guruhiga tayaniladi.

1- *Guruh: Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullari*

- a) Suhbat usuli
- b) Hikoya usuli
- c) Namuna usuli

2- *Guruh: Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari* a)

Mashq va o‘rgatish

b) Topshiriq

c) ;Pedagogik talab

3- *Guruh: Rag‘batlantirish va jazolash.*

4- Guruh O‘z – o‘zini tarbiyalash usulari.

Ijtimoiy ongini shakllantiruvchi usullari

Suhbat usuli - tarbiyada alohida o‘rin tutadi. Maktablarning tajribasida bilim olishga yordam beradigan axloqiy normalar, estetik bilimlar, siyosiy masalalarga oid suhbatlar keng o‘rin egallaydi. Suhbatlar yordamida bolalar ongida turli masalalarga oid tushuncha, bilim, mulohazalar to‘planadi. Tarbiyadagi suhbat usulining afzalligi shundaki, muhokamada o‘quvchilar faol ishtirok etadilar, voqealarga baho beradilar, ma’lum holatda nima to‘g‘riligini tushunib, o‘z pozitsiyalarini belgilab olishga o‘rganadilar. Maktabda suhbatlar dars jarayonida ham, darsdan tashqari ham o‘tkaziladi.

Masalan: Adabiyot o‘qituvchisi biror asarni tahlil qilganida shu asar qahramonining xulq-atvori va harakatini ochib beradi, yaxshi fazilatlarini ajratib ko‘rsatadi. Shuningdek boshqa predmetlar materiallarini o‘rganish jarayonida ham, ayrim tarixiy arboblardan va olimlardan to‘g‘risida ularning qahramonona ishlari, insoniy hislatlari haqida so‘zlab beradi. Bunday holda dars ta’limiy ahamiyatgagina emas, tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘ladi. Ba’zan dars jarayonida yuz bergan ahvolga qarab, o‘qituvchi shu darsda o‘tilayotgan materialga bog‘lanmasa ham, axloqiy mavzularda yo‘l-yo‘lakay suhbat o‘tkazishi mumkin.

Suhbatlar tematikasi o‘quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga hamda o‘qituvchining o‘z oldiga qo‘ygan tarbiyaviy vazifalariga qarab xilma-xil bo‘ladi.

Masalan: burch, do‘stlik va o‘rtoqliq o‘z qadr-qimmatini bilish, olijanoblik va kamtarlik to‘g‘risida suhbat o‘tkazish mumkin.

8-9 sinflarda bolalarni oilaviy turmushga tayyorlash maqsadida suhbatlar o‘g‘il va qiz bolalar uchun alohida o‘tkazilgani ma’qul. Bunday tajribalar yaxshi natijalar bermoqda.

Bolalarning o‘z xarakteri, sinfi va maktabi hayotidan olingan dalillar tarbiyaviy suhbatlarni aniqlashtiradi va ishonarli qiladi. Suhbatda hamma vaqt ijobiy

materiallardan emas, balki salbiy materiallardan ham foydalaniladi. O'quvchilar bilan individual suhbat ham yaxshi samara beradi. Shuningdek 3-4, 5-6 boladan iborat bo'lgan kichik guruhlar bilan ham suhbatlar o'tkazish mumkin. Erkin mavzuda insholar yozdirish, ulardan tarbiyaviy suhbatda foydalanish mumkin. Bunday suhbatlarda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'qituvchining nima deyishi emas, balki qanday deyishi (so'z ohangi, qiyofasi, mimikasi) ham muhim. O'quvchining biror iborasi voqeaga nisbatan, fikrlashayotgan masalaga oid biror lo'qmasi ham suhbat uchun bahona bo'ladi. Ana shu xildagi suhbat orqali bolaning mehnat, hayot haqidagi o'ylari, o'rtoqlari haqidagi mulohazalari, voqealarga, otaonasiga, tengdoshlariga munosabatini, kelajakdagi rejalarini bilib olish va uni boshqarish mumkin.

Tarbiyada suhbat usulidan foydalanganda o'qituvchi quyidagilarga alohida e'tibor beradi:

- a) mavzuning to'g'ri tanlanishiga, uning dolzarbligiga, o'quvchilar ehtiyojiga mos va shu sinfda amalga oshirilayotgan tarbiya vazifasiga aloqadorligiga;
- b) suhbat mazmuni puxta o'ylab olinishiga;
- v) yangi, bolalarga ma'lum bo'lmagan faktlar bilan boyitilishiga;
- g) o'quvchilarning bilimi, tushunish darajasi, tajribasi, qiziqish sohalariga;
- d) suhbat mazmunining aniqligiga (ko'rsatma qurollar, texnika vositalaridan foydalanish), vaziyatning samimiy, do'stonaligiga, ochiq fikr almashish uchun sharoit yaratilishiga.

Hikoya usul - o'quvchilarga o'quv materialini mazmunini og'zaki bayon qilish ko'zda tutiladi. Hikoyaning bir necha turi bo'lishi mumkin.

- *hikoya-muqaddima*

- *hikoya-bayon*

- *hikoya-xulosa*

Birinчисining maqsadi o'quvchilarni suhbat orqali yangi materialni qabul qilishga tayyorlashdir. Hikoyaning bu turi nisbatan bayonning qisqaligi, yorqinligi, qiziqarliligi, emoqionalligi bilan xarakterlanib, yangi mavzuga qiziqish, uni faol

o‘zlashtirishga extiyoj uyg‘otadi. Mana shunday hikoya vaqtida darsda o‘quvchi faoliyatining vazifalari to‘g‘risida tushunarli shaklda xabar beriladi.

Hikoya-bayon davrida o‘qituvchi yangi mavzuning mazmunini ochib beradi va ishonarli misollarni izchil baen qilishni amalga oshiradi.

Hikoya-xulosa odatda mashg‘ulotning oxirida keltiriladi. O‘qituvchi unda asosiy fikrni yakunlaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi, mazkur mavzu yuzasidan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi. Hikoyani samarali qo‘llashning shartlari rejani qunt bilan o‘ylash, misollar va illyustratsiyalarni muvafaqqiyatli tanlash, bayonda zaruriy emotsionallikka erishishdadir. Suhbat ham, hikoya ham, o‘quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so‘zlar orqali o‘tkazilishi kerak. Suhbat va hikoya mavzusi o‘quvchilar tomonidan tanlansa, uning sifati yanada oshadi, o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘ladi.

Namuna usuli - so‘z orqalri va shaxsiy namuna ko‘rsatish orqali ifodalanishi mumkin. Namunaning tarbiyaviy vazifasi g‘oyat xilma-xildir. Agar tarbichi bolaga biror xatti-harakatning andozasini ko‘rsatish uchun namunadan foydalansa, bu usul bo‘ladi. O‘qituvchi axloqiy tushunchalarni aniqlashtirish, talabning, axloq normalarini ahamiyatini, unga bo‘ysunishning foydali ekanligini, hamisha jamiyat manfaati yo‘lida halol mehnat qilish kishini ulug‘lashini isbotlash uchun namunadan foydalanadi. Bular namunaning tarbiyaviy vazifasidir.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o‘z farzandlarini xamisha yaxshilardan, donolardan, ulug‘ kishilardan ibrat olishga da’vat qilib kelganlar.

Ibrat uchun ular ajoyib ertaklar aytib berganlar, sarkardalar, olimlar, afsonaviy qahramonlar hayotidan hikoyalar qilganlar.

Bolalar juda kichik yoshdan boshlab o‘zlarining tevarak-atrofidagi kishilarning xulqlari va hatti-harakatlarini kuzatib boradilar, ularga taqlid qiladilar. Biroq, ular hali nima yaxshi, nima yomon ekanini farq qila olmaydilar. Shuning uchun ular tarbiyachilarning yordamiga muhtoj. Bola dastlab oila a‘zolaridan ibrat oladi. Ota-ona va oilaning katta yoshdagi a‘zolarining namunasi kichik yoshdagi bolaga tarbiyaviy

ta'sir ko'rsatishda asosiy manbadir. Bolaning maktabga borishi bilan taqlid etadigan, ergashadigan va ibrat oladigan shaxslar doirasi kengayadi. Yuqori sinf o'quvchilari yurish-turishda mustaqildirlar. Lekin kattalarning xulq-atvori va yurish-turishlariga ko'proq tanqidiy ko'z bilan qaray boshlaydilar. Bu davrda taqlid uchun ijobiy obrazlarni tanlashda axloqiy va siyosiy-g'oyaviy motivlar katta ahamiyatga ega.

Bola dastlabki tarbiyani oilada oladi. Bola asosan oilada o'sib kamolga etadi. U hamma vaqt ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari bilan birga bo'ladi. SHuning uchun ham bola shu oila ruhida tarbiya topadi.

Bola avvalo ota-onaga va oiladagi odamlarga taqlid qiladi, ergashadi va ulardan o'rganadi. Xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini qiladi", "Onasini ko'rib qizini ol" va boshqa maqollari ham shundan dalolat beradi. Eng yaxshi oilada bola maktabda olayotgan fazilatlarini singdirib olishi davom ettiriladi. Madaniyatsiz oilada bola tomonidan maktabda olingan taassurotlar va tushunchalar uyga kelgach, barbod bo'ladi. Ota-ona bilan bolalar tushunchalari va taassurotlariga zid bo'lgan gaplari, qarashlari, hamda bolani qurshab olgan kishilarning nojo'ya qiliqlari bola qalbini jarohatlaydi, uni ikkilantiradi. Shuning uchun maktab, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, ota-onalar bilan mustahkam aloqada bo'lishlari va ular o'rtasida pedagogik tashviqot olib borishlari, ota-onalar o'z bolalariga namuna bo'lishlari to'g'risida suhbatlar o'tkazishlari lozim. Tarbiya ishida o'qituvchi va trenerning obro'si katta kuchdir. Chunki bolalar uchun ularning har bir hatti-harakati namunadir. Bu xolat o'qituvchi-trenerlardan bolalarga nisbatan juda ziyrak munosabatda bo'lishni talab etadi.

Shuning uchun o'qituvchi va trenerlar o'z faoliyatidagi bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishi bilan birga axloqli, odobli nazokatli bo'lmog'i, o'z tarbiyasidagi bolalarni sevmog'i, hurmat qilmog'i, o'quvchilar o'rtasida katta obro' qozonmog'i kerak. O'qituvchiga o'nlab bolalar ko'z tashlab turadi. Odamning hayotidagi hamma o'zgarishlarga bolalarning ko'zidek juda diqqat bilan, ziyraklik bilan nazar tashlab turadigan va ularni darrov payqab oladigan narsa yo'q, hamma nozik narsalarni bolalar ko'zidek hech kim darrov payqab ololmaydi. Buni esda

tutmoq kerak. Agar o'qituvchi, o'zi ilgari surgan axloqiy prinsiplarga o'zi rioya qilmasa, o'quvchilar bu axloqiy prinsiplarning to'g'ri va hayotiy ekanligiga ishonmaydilar. O'quvchi o'qituvchining aytgan yaxshi fikrlariga emas, balki uning yomon qiliklarga ergashishi mumkin. O'qituvchi faqat sinfda va maktabdagina emas, hamma joyda muallim bo'lib qolmog'i lozim. Yuqorida bayon qilingan fikrlar, sport trenirovkalariga ham bevosita taalluqlidir.

Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari - guruhga ijtimoiy xulq bilan bog'liq tajribalarni orttirishga xizmat qiladigan usullar kiradi. Bular yordamida o'quvchida axloqiy odatlar hosil bo'ladi. O'quvchining hulqida tarbiyaning mazmuniga muvofiq axloqiy, estetik mehnat qilish odatlarini hosil qilish lozim. Bunday odatlar asosan faoliyat zaminida tarkib topadi. Demak bola shaxsini ifodalaydigan ijtimoiy hulq odatlarini hosil qilish uchun uni faoliyatga jalb etish yo'li bilan ijtimoiy aloqalar sharoitiga qo'yamiz va xarakteri, individual xususiyatlarini belgilaydigan odatlar xosil qilamiz. Bu guruh usullarga vazifalari birbiridan farq qiladigan juda ko'p usul va yo'llar kiradi.

Masalan: O'quvchiga ijobiy xatti-harakatlarga undash maqsadida talab qo'yish, jamoatchilik fikridan foydalanish, o'rgatish, mashq qildirish, unda odatlar hosil qiladi. O'quvchi egallagan ijobiy tajribalarni mustahkamlash maqsadida musobaqa, topshiriqlar berish yo'llaridan foydalanish mumkin. Bu usullarning asosiy vazifasi bolalarda axloqiy xislatlarni tarkib toptirish uchun ularni zarur bo'lgan kollektiv munosabatlar sharoitiga qo'yish yo'li bilan ularda amaliy tajribalar hosil qilishdan iborat. Tarbiyada samarali natijaga erishmoq uchun bolalar hayotini yo'lga qo'yish, ularni turli ijtimoiy faoliyatga jalb etish g'oyatda muhim. Bu guruhga kiradigan usullardan foydalanish tarbiyachining tashkilotchilik tajribasi va mahoratiga bog'liq.

Tarbiyachi tomonidan bolalar hayotini ma'lum pedagogik maqsadni ko'zda tutib tashkil qilish orqali ularni faoliyat jarayonida o'z tengdoshlari bilan muomala qilishga o'rgatish, o'zaro to'g'ri munosabat tajribasini egallash, ijtimoiy xulqqa oid odatlar hosil qilish mumkin bo'ladi. O'quvchilar faoliyati mazmuniga o'yin, ijtimoiy foydali mehnat, ijtimoiy ishlar, xilma-hil topshiriqlar, bolalarning xayot va xulq

rejimlarini kiritamiz. O'quvchi ana shu jarayonda qatnashib kollektiv aloqalar olamiga kiradi, ma'suliyat, javobgarlik talablarga bo'ysunish va bajarish, ishda tashabbus ko'rsatish va ijod qilish, turli xil vaziyatlarda o'zini tutish, yonidagi o'rtoqlarining fikri bilan hisoblashish, o'zaro yordam va hamkorlik kabi ajoyib sifatlarni egallab oladi.

Yuqorida aytilganlar, faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari guruhining

- a) mashq va o'rgatish
- b) topshiriq
- v) pedagogik talab usullari yordamida kengroq yoritiladi.

Mashq va o'rgatish usuli - o'quvchilarning hayotini, mehnatini, dam olishlarini batafsil o'ylab chiqilgan holda tashkil etishni hamda dastlabki axloq normalarini tarkib toptirish maqsadida o'quvchilarni yurish-turish qoidalarini bajarishga o'rgatib borishni nazarda tutadi.

Ayniqsa boshlang'ich maktabda o'rgatish o'qituvchining biror-bir hatti-xarakat namunasini, surat, filmlar namoyish qilish, ta'sirli, namunali hikoyani o'qib berish yordamida boshlanadi.

Xalq pedagogikasida, o'qituvchilarning tarbiyaviy tajribalarida o'rgatish usuli mustahkam o'rin egallaydi. Zotan, tarbiyaning o'zi o'rgatishdan boshlanadi. Otaonalar bolalarni ham juda kichik vaqtidanoq, vaqtida uxlash, o'z buyumlarini yaxshi tutish, odobli bo'lish, kattalarni hurmat qilish, ota-onalar bilan, katta yoshdagi kishilar bilan xushmuomala bo'lish kabi fazilatarga o'rgatadilar.

Kattalarning (o'qituvchilar, ota-onalarning) bolalar hatti-harakatini nazorat qilib turishi ham o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Bu nazoratning muntazam, tizimli va puxta bo'lishi juda muhimdir. O'rgatish usuli bolalarning yoshi va tarbiya sharoitlariga qarab o'zgarib turishi mumkin. Chunki, har doim bolalarning oldiga biror hatti-harakat usullarini egallab olish vazifasini qo'yish hamma vaqt ham maqsadga muvofiq emas.

Tarbiyachi bolaga ma'lum bir topshiriqni (navbatchilikni...) berishi mumkin. Tarbiyalanuvchi bu topshirqni bajarish davomida zarur axloq normalarini egallab boradi. Odatda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni va kichik yoshdagi o'quvchilarni o'rgatish shu yo'l bilan amalga oshirib boriladi. Lekin ba'zida bolalar oldiga, o'zini ma'lum bir xolatda tutish, masalan, hushmuomala, ehtiyotkor bo'lish vazifasi ham qo'yiladi. Bunday holda bolalarga aniq bir obrazni ko'rsatish va ularda bu obrazga taqlid qilishga intilish uyg'ota bilish katta ahamiyat kasb etadi. Turli tuman mashqlar tarbiyada muhim o'rinni egallaydi. Bu mashqlarning o'zi bevosita o'rganish bilan bog'langandir. O'quv ishlarida mashqlardan o'quvchilarda malaka va ko'nikmalar tarkib toptirish uchun foydalaniladi. Ba'zi hollarda mashqlardan tarbiyada biror-bir narsani o'rgatish maqsadida qo'llaniladi. Yaxshi odatlarga o'rganishda, axloqiy ko'nikmalarni hosil qilishda mashq usulining ahamiyati katta. Bunda o'quvchi ma'lum faoliyat bo'yicha biron-bir vaziyatga qo'yilib ayrim harakatlarni takroran bajaradi. Mashq harakatlarni takrorlash bo'lib, axloqiy ko'nikma, malaka va odat hosil qilish maqsadida o'quvchilarning maxsus uyushtirilgan faoliyatidir. Mashq usuli ta'lim jarayonida ham ishlatiladi, ammo tarbiyadagi mashq ta'limdagi mashqdan farq qiladi. Tarbiyadagi mashqda o'quvchi bir xil mashqni turli sharoitlarda qo'llaydi. Masalan: Axloqiy mashqlar xayotning turli vaziyatlarida qo'llaniladi, intizomlilik dars paytida ham, tanaffusda ham, ijtimoiy paytlarda ham bir xilda talab etiladi. Tarbiyada mashqlardan faqat hatti-harakat uslubini singdirish usuli sifatidagina emas, balki inson shaxsini tarqib toptirish yo'li sifatida ham foydalanish kerak. Shuning uchun o'rgatish va mashq qildirish usulidan foydalanishda bolalarning axloq borasida erishilgan natijalaridan qanoatlanish va o'z shaxslarini takomillashtirib borishga intilish hissini sezishlari muhimdir. Mashq qilishning yana bir ko'rinishi bu muntazam ravishda o'quvchilarni tarbiyaga o'rgatish mashqlari hisoblanadi. Oqilona, izchil amalga oshiriladigan tarbiya bo'lmasa, tarbiyani faqatgina dono so'zlar bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Tarbiyaga rioya qilish ayniqsa, quyi sinf o'quvchilari uchun katta ahamiyatga ega, chunki ularda uyushqoqliq intizom, sabot, iroda hali etarlicha shakllanmagan bo'ladi. Tarbiya

o'quvchilarni faqatgina o'quv mehnatinigina bajarishga qaratilmay, balki, axloqiy, estetik odatlar qo'nikmasini hosil qilishga ko'maklashadi.

Topshiriq usuli - o'qitishning birinchi kunlaridan boshlab o'qituvchi bolalarni topshiriqlar berish yordamida kollektivning xilma-xil faoliyatiga jalb qilishga harakat qiladi. O'z xarakteriga ko'ra topshiriqlar har zamonda bir beriladigan va doimiy bo'lishi mumkin. Topshiriqlarning asosiy vazifasi bolalarning ijtimoiy vazifalarini bajarish tajribasini hosil qilishdir.

Topshiriqlar o'qituvchi va kollektiv tomonidan berilishi mumkin. Birinchi sinfda o'qituvchi asosan bevosita topshiriq berishdan foydalanadi. Kollektiv mustahkamlanib borishi bilan birga o'qituvchi bevosita topshiriqlar berishni kollektivning topshiriqlari bilan qushib olib borishga harakat qiladi. Eng muhimi topshiriqlarning ijtimoiy ahamiyatini o'quvchi ongiga etkazish, unga topshirilgan ishning kollektiv uchun ahamiyatligini tushuntirishdir. Topshiriqlarga ijobiy munosabatda bo'lish uchun sharoit yaratish ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchining yoshi va individual hususiyatlarini hisobga olgan taqdirdagina bunga erishish mumkin.

Biroq tarbiya maqsadlarida faqat qiziqarli topshiriqlarni emas, balki kollektiv uchun zarur bo'lgan topshiriqlarni ham bajarish foydalidir. Topshiriqlarning bajarilishi va uning natijalarini tarbiyachi va kollektiv tomonidan tekshirilishi muhim vositadir.

Pedagogik talab usuli - tarbiyaning eng muhim usullaridandir. Talab turli vazifalarni bajarishi: ijtimoiy xulq-atvor normalarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; turli ko'rsatma sifatida u yoki bu harakatda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin. Talablar to'g'ridan-to'g'ri va bevosita bo'lishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanliq yo'l-yo'riq beruvchi xarakterdagi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bevosita talablar kechinma, intilish uyg'otishni ko'zda tutgan holda maslahat, iltimos, shama qilish, faoliyatga qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Ular

tarbiyalanuvchiga u yoki bu darajada ong, asos, maqsad, e'tiqod mavjudligini ko'zda tutadi. O'qituvchi o'quvchilarga qo'yiladigan talabning me'yoriga amal qilishi katta ahamiyatga egadir.

3- guruh: O'z-o'zini tarbiyalash usullari -Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan mustahkam bog'langan. O'z-o'zini tarbiyalash kishining o'z shaxsini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatidir. Uz-o'zini tarbiyalash, to'g'ri tarbiya berish bilan birga sodir bo'ladi, va ayni vaqtda to'g'ri tarbiya natijasi hisoblanadi.O'z-o'zini tarbiyalashning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quvchining o'zini to'g'ri baholay bilishga o'rganishi, xayotda intilish lozim bo'lgan idealni aniq tushungan holda o'zidagi ijobiy sifatlarini va kamchiliklarni ko'ra olishi muhim ahamiyatga ega.Bularning hammasi biror maqsadga qaratilgan va to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya jarayonida tarkib topadi.Tarbiya shaxsning o'z kamolotiga ongli ravishda intilishi bilan birga, u, ya'ni tarbiya ancha muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash faqat shaxsning kamol topishiga emas, balki uning tuzilishiga ham qaratilgandir. Bunday holda biz kishini qayta tarbiyalash haqida gap yuritamiz.

Ayrim hollarda faqat ba'zi bir sifatlarni, odat hamda qiliqlarni, boshqa holda esa umuman shaxsni qayta tarbiyalashga to'g'ri keladi. Qayta tarbiyalashni muvaffaqiyati bir tomondan uning kuchi va tashkil etilishga, ikkinchi tomondan qayta tarbiyalanayotgan shaxsning o'ziga bog'liq bo'ladi. Ba'zi kishilar o'zining hatti-harakatidagi kamchiliklarni tezroq, boshqalari ancha sekinlik bilan yo'qotadilar, uchinchilari esa salbiy sifatlarning tuzatilishiga qarshilik ko'rsatadilar, ularning yanada mustahkmlanishiga o'zlari yordam beradilar.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni qayta tarbiyalash jarayoni bola hayotining yillariga qaraganda ancha tez ro'y beradi, chunki salbiy sifatlar umuman bolaning xulq-atvori kabi yetarlicha barqaror bo'lmaydi. Bu salbiy sifatlar mustahkamlanib va shakllanib ulgurmagan bo'ladi. Kichik yoshdagi o'quvchi barqaror, shakllangan qarashlarga ham ega bo'lmaydi. Shuning uchun salbiy sifatlar, odatda, uning dunyoqarashi va e'tiqodlarida asos bo'la olmaydi. Bu yoshdagi o'quvchi ba'zan o'zini nima uchun unday tutayotganligini o'zi ham bilmasligiga ochiqdan-ochiq iqror

bo'radi. Dunyoqarash va e'tiqod beqarorligi, ba'zan esa ularning yo'qligi o'z-o'zini tarbiyalash imkoniyatlarini kamaytiradi. Boshlang'ich maktab o'qituvchisi bu holni nazarda tutishi va o'zining butun kuchini bolalarda yaxshiroq bo'lishga intilish uyg'otishga, o'z hatti-harakatlaridagi kamchiliklarni yo'qotishga qaratishi kerak.

O'z hatti-harakatlaridagi kamchiliklarni yo'qotish o'zini tahlil qilish bilan boshlanadi. O'z-o'zini tahlil qilish bu - o'z-o'zini nazorat qilish va o'zini xulqatvorini ongli tashkillashtirish vositasi hisoblanadi. O'z-o'zini tahlil qilish natijasida o'z-o'zini baholash, ya'ni o'z hislatlarini baholash kelib chiqadi. O'z-o'zini baholash - bu shaxsning o'ziga, o'z faoliyatlari va insonlar orasidagi o'rniga beradigan bahosi. O'z salbiy va ijobiy hislatlarini ajratib, baholab olgach, o'z-o'zini tanqid bilan tugallanadi.

SHunday qilib, tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari o'zaro mustahkam bog'langan bo'lib, inson shaxsini tarkib toptirish jarayonida doimo bir-biriga ta'sir etadi.

4 guruh: Rag'batlantirish va jazolash usullari - intizom qoidalariga bo'ysunishni ta'minlashda, rag'batlantirish va jazolash usulidan foydalaniladi. Mustaqil O'zbekiston respublikasida mafkuraning g'oyaviy ma'nosi sifatida shaxslarda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish maqsad qilib qo'yiladi. Shuning uchun ham tarbiyadagi rag'batlantirish va jazolash usuli o'quvchilardagi ijobiy hislatlarni rivojlantirishda, ularning ijobiy fazilatlarini takomillashtirishda vosita bo'lmog'i lozim.

Rag'batlantirish va jazolash usulida o'quvchi shaxsi emas, balki ayni vaqtdagi hatti-harakati, qiliqlari, o'quvchining individual hususiyati, hodisa yuz berayotgan vaziyat, sabab oqibatlar nazarda tutiladi. Rag'batlantirish ham, jazolash ham qancha tez qo'llanilsa, ta'siri kamayib ketadi. Rag'batlantirish va jazolash yolg'iz o'quvchiga yoki sinfga yohud maktab jamoasiga qullanishi mumkin. Ayrim olingan o'quvchilarga qo'llanilganda salbiy tomonlarning o'ziga va jamoaga keltiradigan zarari hisobga olinadi.

Rag'batlantirish - bolalarning ruhini ko'taradi, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi,

xulqi va hatti-harakatida yangidan-yangi muvaffaqiyatlarga erishishga odatlantiradi, o'z kuchiga ishonishni oshiradi, ma'naviy ozuqa beradi.

Tarbiyachi o'quvchining ibratli xulqini rag'batlantirishi bilan, u butun sinf o'quvchilarining diqqatini bunga jalb etadi va bu ijobiy fazilatni faqat shu bolada emas, balki butun sinf o'quvchilarida hosil qilish va takomillashtirishga da'vat etadi.

Rag'batlantirishning samarasi o'qituvchining bu usuldan mohirlik bilan foydalanishiga bog'liq. Rag'batlantirishning yozma, og'zaki yoki imo-ishoraviy shakllari qo'llaniladi. Imo-ishoralar bilan boshni qimirlatib, tabassum va yuz-qul harakatlari bilan ma'qullash, "barakalla", "ko'p yasha", "raxmat" so'zlari bilan ma'qullash, yoki yozma ravishda ma'qullash shakllari mavjud.

O'quvchilar ko'nglini ko'tarib dalda berish, o'quv yoki boshqa topshiriqlarni bajarishga qiynalayotgan o'quvchilarni qo'llab yuborish, ularni kuchiga kuch qo'shish maqsadida bu usul amalga oshiriladi. Rag'batlantirishdan foydalanishda o'quvchilar xarakterining xususiyatlarini e'tiborga olish muhim ahamiyatga egadir.

Jur'atsiz, bo'shashgan o'quvchilar alohida rag'batlantirilib turilishi kerak. Ular mehnati, hatti-harakati va qilgan ishlarining ijobiy bog'lanishi ulardagi o'z kuchiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, ularning axloqiy rivojlanishini yangi bosqichga ko'taradi.

Rag'batlantirish bolaning kamol topishiga qaratilgandir. Tarbiyachilar bolalarning ishlari va hatti-harakatidagi muvaffaqiyatlarini qayd qilar ekanlar, ularda yanada ko'proq ish qilishga havas uyg'otadilar.

Shuning uchun rag'batlantirish shakllari xilma-xil bo'lishi zarur. Maktablar tajribasida rag'batlantirishning quyidagi turlari ko'llaniladi:

1. O'quvchining kuchi etadigan, ma'suliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o'quvchi o'z qadr-qimmatini bilan fahrlanadi.
2. Maqtash (jamoada oldida)
3. Estalik sovg'asi berish (kitob, ruchka, o'quv predmeti va boshqalar)
4. Maqtov yorlig'i berish
5. Stipendiya bilan taqdirlash

6. Hurmat taxtasiga rasmini qo'yish
7. Qo'llab-quvvatlash
8. Ma'suliyat va jamoaning minnaddorchiligi
9. Safda birinchi o'rinda turish
10. Musobaqalarda bayroq ko'tarish
11. Gazetada va radioda e'lon va h. z.

Jazolash - Jazo bolalardagi yomon qiliqlar, salbiy harakatlar, odobsizliklarni yo'qotishga yordam beradigan yoki ulardan saqlaydigan usullardan biridir.

Jazolangan bola o'z qiliqlarining nojo'ya ekanligi ustida jiddiy o'ylaydi va buni ikkinchi marta takrorlamaslikka intiladi.

Bolalarni bo'lar-bo'lmasga jazolayverish zararli. Bir marotaba o'rinli va haqqoniy jazolash, hulqi noma'qul ekanligini uning ongiga etkazish kifoya, u o'z xatosini to'g'rilashga imkon beradi.

O'qituvchi boladagi yomon hulq-atvorni qoralash bilan birga uning yomon bola emasligini, unda yaxshi xislatlar ham bor ekanligini, agar istasa o'z xulqidagi kamchiliklarni yo'qota olishi va namunali o'quvchi bo'lishi mumkinligini qayd qilib o'tishi kerak. Mana bunday nasihat bolada o'z kamchiliklarini tuzatish va yaxshi fazilatlar hosil etish istagini uyg'otadi.

Maktablarda qo'llash mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:

Tanbeh berish — bola be'mani qiliq qilganini tushuntirish. Bolalarning salbiy harakatlari, tartibni buzganliklari uchun ularni koyib turish zarur. Tanbeh — o'gitnasihat bilan uyg'un holda qo'llaniladi. Tanbeh berish so'kish, qarg'ash emas. Uyaltirish odamning eng nozik sezgilaridan biri, uyat-or nomus, sharm-hayo hissidir. Odatda odamda izzat-nafs va odamiylik qancha kuchli bo'lsa, unda uyat-ornomus shuncha kuchli bo'ladi.

Bolalarni tarbiyalashda shu hislariga ehtiyotlik bilan ta'sir etish kerak. Bolaning uyalishi va qizarishi uning shu xatoni takrorlamasligiga sabab bo'lishi lozim. Uyalishqizarish bolani hamma vaqt ham sidqidildan tavba qilishiga olib bormaydi. Bola boshqalar oldida sharmanda bo'lmasliq qizarmaslik uchun noto'g'ri

hatti-harakatlarni yashirincha qilishga intiladi. Mana bunday holda uyat ikkiyuzlamachilikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham bolalarni uyaltiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanilgandagina ijobiy natija beradi. Bolalarni o'rtoqlari oldida iloji boricha kamroq uyaltirish kerak.

Ogohlantirish noma'qul hatti-xarakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Hayfsan berish agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natija bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomni qay sharoitda buzganini e'tiborga olib unga xayfsan qilish mumkin. Yuqorida ta'riflangan tarbiya usullari o'quvchilarning ongiga, xislariga va irodasiga ta'sir ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Axloqiy odatlarni tarbiyalashning pedagogik shart- sharoitlari.

Axloqiy odatlarni tarbiyalashning pedagogik shart- sharoitlari quyidagilardan iborat: Axloqiy tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, ya'ni pedagog va bolalarning o'zaro munosabatlari bolaning shaxsiga nisbatan hurmat bilan qarashga asoslanishi kerak. Pedagogik jarayonni shunday tashkil etish kerakki, unda bolaning o'zi ijobiy odatlarni egallab borish, salbiy xususiyatlarni yo'qotishga intilsin. Axloqiy tarbiya bolaning ijobiy xulqiga asoslanib amalga oshirilishi zarur.

Axloqiy tarbiya xamisha muayyan bir bosqichlar qoidani tushuntirish va anglash, bu qoidani mustahkamlash va uni hayotda, hatti-harakatda qo'llanish kabi bosqichlarda sodir bo'ladi deb uylash yaramaydi. Qoidalarni shunchaki uqib olish shaxsni axloqiy jihatdan rivojlantirish va kamol toptirishga olib kelavermaydi. Maktab atrof-tevarakdagi, xilma-xil shart-sharoitlar bolalarga ta'sir o'tkazishini e'tiborga olmasligi mumkin emas. Bolalarning hayot jarayonida vujudga keladigan axloqiy tarbiya maksadlariga mos bo'lib tushadi, deb bo'lmaydi. Shu sababli maktab tarbiya ishini bolaning axloqiy tajribasini aniq hisobga olish asosida uyushtiradi va jamiyat tizimida qabul qilingan axloqiy prinsiplarni mustahkamlashga intiladi. SHaxsning axloqiy kamol topishi o'tkinchi bir narsa bo'lmay, uzoq davom etadigan jarayon ekanligini, bu jarayon o'qituvchilarning tashqi ta'sirini ham, o'quvchilarning o'z ustida olib boradigan ishini ham o'z ichiga olganligini nazarda tutish muximdir.

O‘z-o‘zini axloqiy tarbiyalash. O‘z shaxsini axloqiy takomillashtirish, o‘zo‘zini axloqiy tarbiyalash ehtiyojlarini tarkib toptirish katta ahamiyatga egadir.

Pedagogika fani o‘z-o‘zini tarbiyalashning eng muhim yo‘llarini ochib beradi. O‘zo‘zini tarbiyalash o‘z faoliyatini tahlil qilishdan va o‘z shaxsini takomillashtirishga intilishdan boshlanadi. O‘quvchilarda o‘z-o‘zini tarbiyalashga havas uyg‘otish ham ularning o‘z ustida faol ishlashga jalb etilganligidan dalolat bermaydi. Tarbiyachi o‘z-o‘zini tarbiyalashning to‘g‘ri yo‘llarini qidirib topishda bolalarga yordam berishi zarur. O‘z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olish va ularning bajarilishini muntazam sur‘atda nazorat qilib turish g‘oyat keng tarqalgan yo‘ldir. O‘z-o‘ziga buyruq berish o‘z-o‘zini axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. O‘quvchilar o‘z-o‘zini tarbiyalashning ana shu vositasini ishtiyoq bilan qabul qiladilar va undan zavq bilan foydalanadilar. O‘quvchilar uxlashni istab turgan bo‘lsalar ham ertalab o‘rindan turish, yuvinish haqida yoki boshqa paytda o‘yinlarini to‘xtatib, dars bilan shug‘ullanish haqida o‘z-o‘zlariga buyruq berish usulidan foydalanganlari holda tez orada bundan voz kechishlari ham mumkin. Tarbiyachi o‘quvchilarning o‘z shaxsini takomillashtirishda o‘z-o‘ziga buyruq berish usulidan qanday foydalanayotganliklarini muntazam sur‘atda tekshirib turishi zarur. O‘z-o‘zini axloqiy tarbiyalashda o‘z-o‘ziga buyruq berish bilan bir qatorda o‘z zimmasiga majburiyat olishdan ham keng foydalaniladi. Bu majburiyat chin ko‘ngildan kabul qilinadi va o‘z-o‘zini tarbiyalashning muhim vositasi bo‘lib qolishi mumkin. Demak, insonning barkamolligi, avvalo, uning ma‘naviy jihatdan etukligi bilan belgilanadi. Bizning nazarimizda, shaxs ma‘naviyati uning ongida kechadigan ijobiy mazmunga ega o‘y fikrlari, niyatlar, g‘oyalar, nazariya va ta‘limotlar mazmunining amaliy faoliyatidagi tatbiqida namoyon bo‘luvchi ruhiy jarayondir.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, shaxs ma‘naviyati asosida ijobiy mazmunga ega bo‘lgan, o‘y fikrlar, niyatlar, g‘oyalar, nazariyaning va ta‘limotlar mazmunini tushunib etishishini e‘tiborga olish lozim.

Bolani tarbiyalash uchun yaxshi hissiy muhit yaratish kerak. Jazolash va qo‘rqitish bilan ijobiy axloqiy sifatlarni garbiyalab bo‘lmaydi. Bolada axloqiy

odatlarni shakllantirish uchun undagi ma'lum odatlarga asoslanish kerak. Ijobiy odatlarni yuzaga keltirish uchun qiziqarli faoliyatlarni tashkil etish kerak. Shunday qilib, bolalarning axloqiy tasavvur va tushunchalarni egallab olib, uni kundalik odatga aylantirishlari uchun bolalarning kattalar rahbarligidagi faoliyatni tashkil etish lozim.

Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo'llasa, yaxshi xulq namunalarini o'rgatish ancha oson kechadi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. "Axloq" yoki "axloqiylik" nima va uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati qanday?
2. Komil inson tushunchasiga ta'rif bering?
3. Mutafakkirlar aqliy zakovat, ahloqiy fazilatlar haqida qanday fikr yuritganlar.
4. Ahloqiy tarbiyaning maqsadi nimalardan iborat?
5. Ahloq tarbiyasining eng muhim vositalari nimalar?
6. Ma'naviyat tushunchasining mazmunini yoriting.
7. Axloqiy tarbiya vazifasi.
8. Axloqiy tarbiya berish tamoyillarini qanday?
9. Axloqiy tarbiya metodlari deganda nimani tushunasiz?
10. Axloqiy tarbiya metodi haqida o'z fikringizni bildiring.

Mavzu yuzasidan test savollari:

- 1. "Axloq" ijtimoiy tushunchaning mohiyati qanday?**

- a) “Axloq” ijtimoiy tushunchaning mohiyati - shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.
- b) “Axloq” ijtimoiy tushunchaning mohiyati - yashash turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.
- c) “Axloq” ijtimoiy tushunchaning mohiyati - shaxs xatti-harakatlari va iqtisodiy jihatdan turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.
- d) “Axloq” ijtimoiy tushunchaning mohiyati – butun dunyo jonli tabiatdagi jonzotlarning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

2. Axloqning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini ko‘rsating.

- a) “Axloq” (xulq-atvop demakdir) - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy tartib qoida bo‘lib, bu tartib qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti- harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi.
- b) “Axloq” (fe’l-atvop demakdir) – faoliyat shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy tartib qoida bo‘lib, bu tartib qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi.
- c) “Axloq” (xulq-avtor demakdir) - ong shakllaridan biri bo‘lib, tartib qoida bo‘lib, hayotning barcha sohalarida kishilarning yurish va harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi.
- d) “Axloq” (atvop - tartib demakdir) - ijtimoiy shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy qoida bo‘lib, bu tartib hayotning barcha sohalarida kishilarning barcha harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi.

3. Axloqiy tarbiya metodlari nechta guruhga bo‘linadi.

- a) 5.
- b) 4
- c) 2
- d) 3

4. “Yosh avlodda o‘z sevikli Vatani O‘zbekistonga muhabbat tuyg‘usini avj oldirmoq bosh vazifadir. Bu muhabbat ana shu sevikli diyorda yashovchi barcha xalqlarning farzandlariga baravar darajada aloqador vatanparvarlik xalqparvarlik g‘oyalari jamiyatni yuksaklikka ko‘taradi. Elu-yurtda do‘stliq birodarlikni, xalqparvarlikni mustahamlaydi” deb yozgan edilar.....

- a) I. A. Karimov
- b) A.Avloniy
- c) E.Vohidov
- d) A.Oripov

5. Qaysi mutafakkir aql, ilm va axloq tarbiyasini insonning eng go‘zal zaruriy fazilatlaridan biridir, shuning uchun har bir insonning eng muhim burchi, aqliy va axloqiy tarbiya olishdir deb hisoblaydi, shu bilan birga ilmsizlik nodonlik johillikka olib boradi deb savodsizlikni qattiq qoralaydi.

- a) Alisher Navoiy
- b) Abdurahmon Jomiy
- c) Zahiriddin Muhammad Bobur
- d) Abu Ali ibn Sino

6. Buyuk allomalardan qaysi biri shu hikmatli so‘zning muallifi “bemorni dori emas, ko‘proq shifokorning shirin so‘zi davolaydi”.

- a) Alisher Navoiy

- b) Abdurahmon Jomiy
- c) Zahiriddin Muhammad Bobur
- d) Abu Ali ibn Sino

15 -mavzu: Jismoniy tarbiya.

- 1. Jismoniy tarbiyaning asosiy tushunchalari.**
- 2. Jismoniy tarbiyaning tamoyillari.**
- 3. Ta'lim metodlari va usullari tasnifi.**
- 4. Jismoniy tarbiyaning vazifalari.**
- 5. Jismoniy tarbiya vositalarining umumiy tasnifi.**
- 6. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya yo'riqchisining vazifalari.**

Tayanch tushunchalar: jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorligi, jismoniy kamolot, jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy ta'lim, jismoniy mashqlar, harakat foliyati, sport, jismoniy madaniyat, jismoniy harakatlar, tamoyillar, metod, usullar, ta'limiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtiruvchi, jismoniy mashqlar, gigenik omilar, tabiatning tabiiy kuchlari.

Jismoniy tarbiyaning asosiy tushunchalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim- tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shartsharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlarini izchil davom ettirish maqsad qilib olindi. Jismoniy tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Jismoniy tarbiyaning asosiy tushunchalari

1. Jismoniy rivojlanish.
2. Jismoniy tayyorligi.
3. Jismoniy kamolot.
4. Jismoniy tarbiya.
5. Jismoniy tayyorgarlik.
6. Jismoniy ta'lim.
7. Jismoniy mashqlar.
8. Harakat faoliyati.
9. Sport.
10. Jismoniy madaniyat.
11. Jismoniy harakatlar.

Jismoniy rivojlanish – bu kishi organizmi shakl va funksiyalarining o'zgarish jarayonidir. “Jismoniy rivojlanish” iborasi tor ma'noda qo'llanilganda, u antropometrik va biometrik ko'rsatkichlarni anglatadi (bo'y, gavda og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi, o'pkalarning tiriklik sig'imi, qaddi - qomatining holati) va boshqalar.

“Jismoniy rivojlanish” iborasi keng ma'noda qo'llanganda unga jismoniy sifatlar (tezkorlik, epchillik, egiluvchanlik, muvozanat saqlay olish, ko'z bilan chamalash, kuch, chidamlilik) ham kiritiladi.

Jismoniy tayyorligi – bu harakat ko'nikmalari, malakalari, jismoniy sifatlarning me'yoriy ko'rsatkichidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun barcha asosiy jismoniy mashq turlari bo'yicha me'yoriy ko'rsatkichlar va ularni bajarish sifatiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan. Ular “Bolajon” tayanch dasturida ko'rsatib berilgan.

Jismoniy kamolot – bu jismoniy rivojlanishning tarixan shakllangan darajasi va sog'liqning, hayotga, mehnatga va Vatan himoyasiga har tomonlama jismoniy tayyorlanganlikning eng yuqori bosqichidir.

“Jismoniy kamolot” o'sib boradigan ijtimoiy ehtiyojlar ishlab chiqarish, shuningdek kishilar ehtiyojining o'sishiga qarab o'zgarib turadi.

Jismoniy tarbiya – bu jismoniy kamolotga erishishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi.

Jismoniy tayyorgarlik – bu jismoniy tarbiyaning kasbiy yo‘nalganligidir (aktyor, uchuvchi, kosmonavt...va boshqalarning jismoniy tayyorgarligidir). U konkret kasb xususiyatiga ko‘ra o‘tkaziladigan jismoniy mashqlarning vazifalari, vositalari, o‘tkazish metodikasining o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi.

Jismoniy ta’lim – jismoniy tarbiyaning maxsus bilimlar, harakat ko‘nikma va malakalarini egallashdan iborat bir turi.

Jismoniy mashqlar – harakatlar, harakat faoliyatlari, harakat faoliyatining murakkab turlari (harakatli o‘yinlar) bo‘lib, ular jismoniy tarbiya vazifalarini hal etish uchun vosita sifatida tanlab olingan.

“Mashq” iborasi harakat faoliyatini bir necha bor takrorlash jarayonini ifodalaydi.

Sport – bu musobaqa jarayonida namoyon bo‘ladigan, u yoki bu jismoniy mashq turida eng yuqori natijaga erishishga yo‘naltirilgan maxsus faoliyatdir.

Jismoniy madaniyat – umumiy madaniyatning bir qismi, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to‘plangan inson jismoniy kamoloti sohasidagi moddiy va ma’naviy boyliklari majmuasidir. Moddiy boyliklarga sport inshootlari (stadionlar, sport zallari, basseynlar, tennes kortlari...), jismoniy tarbiya jihozlari, maxsus kiyim, poyabzal... kiradi, shuningdek kishilarning jismoniy kamolot darajasi ham kiradi. Ma’naviy boyliklarga esa jismoniy tarbiya haqidagi fan va san’at asarlari (adabiyot, haykaltaroshlik, rang-tasvir, grafika, muzika ...) mansub.

Jismoniy harakat – ijtimoiy harakatning o‘z oldiga aholi jismoniy tarbiyasi darajasini oshirish va sportni rivojlantirishga yordam berishni maqsad qilib qo‘ygan maxsus turi. U davlat, jamoat tashkilotlari va xalq ommasining jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish sohasidagi maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini ko‘zda tutadi.

Jismoniy tarbiyaning tamoyillari.

Jismoniy tarbiya tamoyillari shaxsni har tomonlama komil inson qilib rivojlantirishga bolalarda jismoniy qobiliyatni, harakat malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan, bola shaxsini tarbiyalashni birgalikda va har tomonlama tarbiyalashni amalga oshirishga mujassam holda yondashishni ko'zda tutadi. Jismoniy tarbiya tizimidagi bunday yondashuv bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, yosh rivojlanish bosqichlari xususiyatlari, hayotning u yoki bu davrida asosiy faoliyat sifatida tanlanadigan jismoniy tarbiya faoliyati turlari xususiyatlariga ham bog'liq bo'ladi.

Jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

Jismoniy tarbiya va sportning hayot bilan bog'liqlik tamoyili. Maktabgacha tarbiya yoshidagi muassasa bolalarini tegishli dastur asosida jismoniy va sport mashqlariga, o'yinlarga o'rgatib, ulardagi bu qiziqish qo'llab-quvvatlab turiladi. Ta'limning maqsadi bolalarda maktabga o'tish va kelajakda jismoniy tarbiyadan me'yoriy ko'rsatkichlar majmuasi talablarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun jismoniy tayyorgarlik hosil qilishdan iboratdir, shu asosda bolalarda O'zbekistonning mashhur sportchilari, ularning vatanparvarligi, ishchanligi, jasurligi, bardoshliligi, mahorati, do'st-birodarligi va o'zaro yordam kabi xislatlariga hurmat hissi tarbiyalanadi.

Sog'lomlashtirishga yo'nalgan tamoyili - mohiyati bolalar sog'ligini mustahkamlash vazifalarini bajarishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun jismoniy mashqlarni tanlashda bola organizmini har tomonlama sog'lomlashtirishga intilish, uning jismoniy sifatlarini hissiy - ijobiy holat, hayotdagi xushchaqchaq kayfiyat bilan yaxlitlikda rivojlantirish ham ko'zda tutiladi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda salomatlikni mustahkamlash qonuniyatlari hisobga olingan jismoniy yuklama albatta idora qilinadi. Bu ish tarbiyachi, vrach va mudiraning muntazam vrach pedagogik nazorati ostida amalga oshiriladi.

- Bolalarga jismoniy ta'lim va tarbiya berish jarayonida quyidagi didaktik ta'limiy tamoyillar qo'llaniladi:
- tizimlilik va izchillik,

- onglilik, mustaqillik va ijodiy faollik,
- ta'limning ko'rgazmali og'zaki va amaliy usullarini birga qo'shib olib borish;
- tushunarlik va individuallashtirish tamoyili;
- ta'limning frontal, guruh va yakka tarzdagi shakllarini birligi; - talablarni tobora oshirib borish tamoyili.

Tizimlilik va izchillik tamoyili. Jismoniy tarbiya maqsadlarida foydalaniladigan tadbirlarning (kun tartibi, chiniqish, harakat ko'nikmalarining shakllanishi) tizimlilik butun maktabgacha tarbiya davri davomidagi jismoniy tarbiya jarayonining uzluksizligi, muntazamligi, rejalashtirilganligidan, yuklama va dam olishning majburiy almashinib turishi asosidagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining aniq izchilligidan, mashg'ulotlarning izchilligi, ketma- ketligi, mazmunan o'zaro aloqadorligidan iboratdir. Har kuni muayyan bir vaqtda o'z xarakteriga ko'ra turli jismoniy mashqlarni (ertalabki gimnastika, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, sayr paytidagi harakat faoliyati...) tizimli tarzda muntazam bajarish, chiniqtirish tadbirlari bolalarni belgilangan sog'lomlashtirish-tarbiyalash tartibiga o'rgatadi. Jismoniy tarbiya hosil qilinayotgan harakat ko'nikmalarining takrorlanishini talab etadi. Faqat ko'p marta takrorlangandagina harakatlar shakllanadi.

Onglilik, faollik va mustaqillik tamoyillari Bolaning o'z faoliyatiga ongli va faol munosabatda bo'lishga tayanishni ko'zda tutadi, u yoki bu maqsadni amalga oshirish uchun nimani qanday bajarish kerakligini aniq tasavvur qilish lozim. Bolaning mustaqil faol faoliyati berilgan vazifaga bo'lgan qiziqishga, uni ongli idrok etishga, vazifa maqsadini amalga oshirish yo'llarini tushunishga bog'liq bo'ladi.

Ta'limning ko'rgazmali, og'zaki va amaliy usullarini birgalikda qo'shib olib borish tamoyili. Bilish faoliyati – hissiy bilish jarayonlarini amaliyot bilan birligidir. Harakatlarga o'rgatish jarayonida bilishning bu ajralmas qismlari o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Biroq qo'yilgan vazifaga qarab ularning izchilligi har-xil bo'ladi: bolalarni harakatga o'rgatish ko'rsatib tushuntirish; tarbiyachining mashqni og'zaki tushuntirishi va uning bolalar tomonidan harakatda bajarilishi bilan

boshlanishi mumkin. Yangi harakatlarni o'rganishda ko'rgazmalilik tamoyili harakatlarni tarbiyachi tomonidan juda aniq qilib ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Ko'rgazmalilik onglilik bilan chambarchas bog'liqdir: og'zaki berilgan topshiriq kishi tomonidan tushunib olinadi, harakatni qaytadan bajarish bilan amalda sinaladi. Bunda sezgilar, ayniqsa harakat sezgilari muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari ko'rgazmalilik bilan obrazli so'zning o'zaro aloqadorligi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Tushunarliklik va bolalarga yakka yondashish tamoyili bolaning yosh xususiyatlar imkoniyatlarini hisobga olishni, hamda shu bilan bog'liq ravishda uning kuchiga yarashga topshiriqlar belgilashni ko'zda tutadi. Tushunarliklikni asosiy shartlaridan biri izchillik va jismoniy mashqlarni tobora murakkablashtirib borish hisoblanadi. Bola imkoniyatlari muayyan birlikdagi omillar bilan belgilanadi: jismoniy tayyorlanganlik meyorlari bo'yicha sinash, vrach tekshiruvi, bevosita pedagogik kuzatish. Yakka yondashuv bolaning o'ziga xos funksional imkoniyatlarini hisobga oladigan alohida ta'sirlarni ko'zda tutadi (harakatlarni o'zlashtirish turlicha kechadi, organizm jismoniy yuklamani turlicha qabul qiladi, moslashish dinamikasi ham turlicha). Yakka yondashuvning maqsadi tug'ma fazilatlarni rivojlantirish, yangi ijobiy sifatlarni, qobiliyatlarni tarbiyalash, zarurat bo'lganda nerv tizimining tipologik xususiyatlarini maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirishdan iboratdir.

Ta'limning frontal, guruh va yakka tartibdagi usullarini birligi tamoyili. U tamoyil ta'limning turli usullari qo'llanilgandagi uyushqoqlikni ko'zda tutadi: frontal usul qo'yilgan vazimoduli bir vaqtda, ongli va ahil ravishda bajarishni talab etadi; guruh usuli mas'ul, mustaqil va o'zaro yordamni rag'batlantirishni talab etadi; yakka yondashuv usuli tarbiyachining ba'zi bolalarga zarur yordam berishi va ancha tayyorgarligi bor boshqa bolalarga nisbatan talabchanlikni oshirishda ifodalanadigan rahbarligini talab etadi. Bu usullardan birgalikda foydalanish, tarbiyaviy vazifalarini samarali bajarishga xizmat qiladi.

Tinglovchilarni asta-sekin oshirib borish tamoyili. Bu tamoyilning sharti bola oldiga birmuncha qiyin vazifalar qo'yish va bajartirish hamda yuklama ko'lamini va

intensivligini asta-sekin oshirib borishdan iboratdir. Mashqlarni yangilash jarayonida harakat malaka va ko'nikmalarining hajmi kengayadi va boyidi. Harakat faoliyati shakllarini murakkablashtirish bilan birga bolaning kuchiga yarasha beriladigan jismoniy yuklama asta-sekin oshib boradi. Bu jismoniy fazilatlarning rivojlanish qonuniyatlari nisbatan bolaning kuchi, chidamliligi, tezkorligi bilan belgilanadi. Ko'rib o'tilgan barcha tamoyillar o'z mazmuniga ko'ra o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning barchasi o'zida yagona va faqat shartli ravishda alohida holda qaraladigan bir jarayonning muayyan jihatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi.

Ta'lim metodlari va usullari tasnifi.

Ta'lim metodlari o'quv predmeti, aniq didaktik vazifalar, vositalar va ta'lim shartlarining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq usullar tizimining turli birikmalaridan iboratdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning nerv tizimi va butun organizmi nihoyatda plastik va tashqi ta'sirga beriluvchan bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan mashg'ulot olib borganda psixik va jismoniy kuchni sarflanadigan to'g'ri vaqt nisbati va undan so'nggi dam olish tarbiyachining muhim vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berishda ularning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda quyidagi metodlardan foydalaniladi.

1. Ko'rgazmali metod.
2. Og'zaki metod.
3. Amaliy metod.
4. O'yin metodi.
5. Musobaqa metodi.

Ko'rgazmali metod – bu hissiy idrok va harakat sezgilarining yorqinligini ta'minlaydi. Ular bolalarda sensor qobiliyatlari rivojlanishini faollashtiruvchi harakat haqida juda to'liq va aniq tasavvurning hosil bo'lishi uchun zarurdir.

Og'zaki metod – bu metod bolalar ongiga yo'naltirilgan, ular oldiga qo'yilgan vazifalarni tushunib olishga va mashqlar mazmuni va tuzilishini o'zlashtirib olishda

katta rol o'ynaydigan harakatli mashqlarni ongli ravishda bajarilishi, bu mashqlarni turli vaziyatlarda mustaqil qo'llashga yordam beradi.

Amaliy metod – bolalarning amaliy harakat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, harakatlarni o'z muskul motor sezgilarida to'g'ri idrok etilishini amalda tekshirishni ta'minlaydi. Amaliy metodlar mashqlarni o'yin shaklida, musobaqa elementlaridan foydalanish bilan xarakterlanadi. Amaliy metodning xilma-xil turlaridan biri o'yin metodidir.

O'yin metodi – bolalar bilan ishlashda samarali bo'lib, ko'rgazmali obraz va ko'rgazmali amaliy tafakkur elementlarini hisobga oladi. U turli harakat ko'nikmalarini, harakatlarning mustaqilligini, o'zgaruvchan sharoitga nisbatan tezkor javob reaksiyasini bir vaqtda takomillashuviga, ijodiy faollik ko'rsatishga imkon beradi.

Musobaqa metodi – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berishda u faqat pedagogik rahbarlik sharoitida qo'llanilishi mumkin. Bu metoddan katta guruhlarda foydalanish mumkin. Musobaqalar bolalar kuchiga mos bo'lishi, axloqiyirodaviy fazilatlarni tarbiyalash, shuningdek o'z yutuqlarini va boshqa bolalarning muvaffaqiyatlarini tinglovchilarga ongli munosabatda bo'lish asosida to'g'ri baholash musobaqaning majburiy shartidir. Tashabbuskorlik, qa'tiylik, sabotlilik, dadillik, jasurlik, oliyjanoblik, o'rtoqlik kabi irodaviy hamda axloqiy hislatlarni tarbiyalashda musobaqa metodining ahamiyati g'oyat kattadir. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, birinchilik uchun raqobat qilish, kurashish salbiy xususiyatlarni (xudbinlik, hasad qilish, dag'allik...) tarkib topishga imkon berishi mumkin. SHu sababli musobaqa metodiga mohirona pedagogik rahbarlik qilingan taqdirdagina u ma'naviy tarbiya sohasidagi o'z rolini oqlay oladi. Pedagogik jarayonda ta'lim metodlaridan mujassam holda foydalaniladi. Ko'rgazmali yoki og'zaki metodlardan so'ng darhol bolalar amaliy harakatlarga, harakatlarni mustaqil bajarishga o'tishlari lozim. Har bir metod vazifalarni hal etishga yordam beradigan bir qancha usullar majmuasidan iboratdir. Usul – metodning bir qismi, uni to'ldiruvchi va aniqlashtiruvchi qismidir.

Ko'rgazmali metodga oid usullar Bolalarni harakatlarga o'rgatishda ko'rgazmalilikning turli usullaridan foydalaniladi. Yqqol ko'rish usullari harakat yoki ayrim xarakat elementlarining tarbiyachi tomonidan to'g'ri va aniq namoyish etilishidan; tevarak-atrofdagi hayot ko'rinishlariga taqlid qilishdan; masomoduli to'g'ri bosib o'tishda mo'ljal olishdan foydalanish; ko'rgazmali qo'llanmalar, teleeshittirishlar, fotografiyalar, suratlar foydalanishdan iboratdir. Taktik – mushak ko'rgazmaliligi bolalarning harakat faoliyatiga jismoniy tarbiya qo'llanmalarini kiritish bilan ta'minlanadi. Masalan: tizzani baland ko'tarib yugurish ko'nikmasini hosil qilish maqsadida ketma- ket qo'yilgan yoy shaklidagi darvozachalar qo'llaniladi. YUgurish paytida oyoqni bu to'siqlar osha ko'tarib o'tish bolaning tizzani baland ko'tarish ko'nikmasini egallashiga yordam beradi. Yaqqol eshitish usullari harakatlarni ovoz orqali boshqarishga asoslanadi. Cholg'u musiqasi va ashula eng yaxshi eshitish ko'rgazmasi hisoblanadi. Ular bolalarda estetik his va emotsional ko'tarinkilik uyg'otadi, harakat xarakterini belgilaydi, uning sur'ati va ritmini boshqaradi. Shuningdek tarbiyachilar harakat sur'ati va ritmini boshqarishda childirmadan foydalanadilar. Ko'rgazmalilik usullari bolaning harakatlarni to'g'ri idrok qilishi va tasavvur etishi, hissiy ongining kengayishiga harakatlarni bajarishda o'z- o'zini nazorat qilishning vujudga kelishiga sur'ati va ritmini eshitish orqali boshqarishga, sensor qobiliyatini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Og'zaki metodga oid usullari. Harakatlarga o'rgatishdagi og'zaki usullar quyidagilarda ifodalanadi:

Bayon etish va tushuntirish – bunda bolalarga ulardagi mavjud hayotiy tajriba tasavvurga tayangan holda yangi harakatlarni aniq, qisqa bir vaqtda tushuntiriladi.

Sharhlash usuli – harakatlarni aniq ko'rsatish yoki uning ayrim elementlarini aniqlash asosidagi sharhlash.

Ko'rsatma berish usuli – tarbiyachi tomonidan ko'rsatilgan harakatlarni qayta bajarishda yoki mashqlarni bolalar mustaqil bajarishlarida zarur bo'ladigan ko'rsatmalar.

Suhbat usuli – yangi jismoniy mashqlar va harakatli o‘yinlarni joriy qilish va harakatlarni o‘rgatishda ularni tushuntirish, harakatli o‘yin syujetini aniqlashtirish talab etilganda oldindan o‘tkaziladigan suhbatlar.

Savol berish usuli – tarbiyachi jismoniy mashqlarning bajarilishidan oldin harakatlarni bajarish izchilligini anglash darajasini aniqlash yoki mazmunli harakatli o‘yinlar haqidagi tasavvurning bor yo‘qligini tekshirish, qoidalarni, o‘yin harakatlarini aniqlashtirish maqsadida bolalarga savollar beradi.

Farmoyish va singallar berish usuli. Masalan, “To‘xtang! Bir, ikki, uch yuguringlar”, “Sakrab oyoqlarni elka kengligida ochib turing!” Bu buyruqlar bolalarning javob harakat reaksiyasini tezligi va aniqligini vujudga keltiradigan turli intonatsiya va dinamikani talab qiladi. Bular qatoriga baland ovozda dona-dona qilib sanash va o‘yin boshlanmalarini ifodali talaffuz etishni ham kiritish mumkin.

Ifodali mazmunli hikoya usuli. U harakatlardagi ifodalilikni rivojlantirish va o‘yin obraziga yaxshiroq kirish maqsadida qo‘llaniladi. Mazmunli hikoya ertakni qisqa hikoya qilishga o‘xshaydi (1,5 – 2 minut) vaqt davom etadi. Bunda tarbiyachi o‘yin mazmuni va qoidalarini qisqa obrazli hikoyada ochib beradi. Masalan: “Bor ekanda yo‘q ekan, chiroyli qayrilma shoxli va beozor kulrang oq ona echki bor ekan. Uning bolachalari bor ekan...” Bolalarni o‘rgatishda ko‘rgazmali va og‘zaki usullarning maqsadga muvofiq qo‘shib olib borilishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi, harakatlarni idrok etish va qayta bajarishning aniqligiga va obrazlilikini va bolalar bajaradigan harakatli topshiriqlar, ular mazmuni va har bir harakat faoliyatining barcha elementlari izchilligini ongli tushunilishini ta’minlaydi.

Amaliy metodga oid usullari. Bolalarni harakatga o‘rgatishda tarbiyachi ko‘rgazmali va og‘zaki usullar bilan o‘zaro bog‘liq turli amaliy usullar majmuasidan foydalanadi. U mashqlarni, harakatli o‘yinlardagi ayrim rollarni, boshqaruvchi rolini bajarib ko‘rsatadi, bolalarni topshiriqlarga jalb qilib va namuna ko‘rsatib ularni musobaqalarda qatnashishga rag‘batlantiradi. Masalan, kim harakatli topshiriqni tezroq, yaxshiroq, to‘g‘riroq bajaradi, u bolalarga o‘zini qanday tutish va qanday hatti-harakat qilishni ko‘rsatadi. Tarbiyachi bolalarning amaliy faoliyatini tashkil

etayotib butun ta'lim jarayonini mashg'ulotning vazifalari, mazmuniga muvofiq rejalab oladi. Bolalarga jismoniy harakatlarni o'rgatishda hamma metod va usullardan o'zaro mujassam holda foydalanish lozim. Jismoniy tarbiya jarayonida bolalar harakat malakasi va ko'nikmasini egallab boradilar. Harakat malakasi harakat texnikasini egallash darajasi bilan belgilanadi. Harakat malakalarining ikki turi farqlanadi: ulardan biri yaxlit harakat faoliyatini amalga oshiriladi, ikkinchisi ayrim, murakkabligiga ko'ra turlicha harakatlarda ifodalanadi. Birinchi turdagi malakalar o'yinlar, kurashlar bilan bog'liq.

Ikkinchi turdagi harakat malakalari rivojlanish harakat texnikasini dastlabki egallashdan yanada yuksaklikka, uni takomillashtirishgacha boradi.

Harakat ko'nikmasi – bu harakat texnikasini egallash darajasi bo'lib, unda harakatlarni boshqarish avtomatik tarzda kechadi va harakatlar o'zining barqarorligi bilan ajralib turadi. Harakat ko'nikmasini shakllantirish birinchi va ikkinchi signal tizimlarining o'zaro harakatidagi dinamik stereotipning yuzaga kelish jarayonidan iboratdir. Harakat ko'nikmalarining, bola uchun amaliy ahamiyati juda katta. Hosil qilingan ko'nikmalar jismoniy va psixik kuchlarni tejamkorlik bilan sarf etish, yaxlit harakat faoliyatiga kiruvchi harakatlarni tez va aniq bajarish imkonini beradi.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari.

Jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalari mavjuddir.

1. Sog'lomlashtirish vazifalari.
2. Ta'limiy vazifalar.
3. Tarbiyaviy vazifalar.

Sog'lomlashtirish vazifalari hayotni saqlash va sog'liqni mustahkamlash, jismoniy rivojlanishni yaxshilash, organizm funksiyalarini takomillashtirish, chiniqish yo'li bilan uning turli kasalliklarga nisbatan himoyalani xususiyatlarini va chidamliligini, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga (suv va havoning past va yuqori temperaturasi, quyosh nurining ta'siri) bo'lgan qarshiligini oshirish. Bundan tashqari bolalarning umumiy ish qobiliyatini oshirish ham muhimdir. Bola organizmi

rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda sogʻlomlashtirish vazifalari quyidagilardir:

- suyaklarning toʻgʻri va oʻz vaqtida qotishiga, umurtqa egiklarining shakllanishiga, tovon ravoqlarining rivojlanishiga, boʻgʻim-bogʻlam apparatining mustahkamlanishiga yordam berish;
- tana qismlarining (proporsiyalar) toʻgʻri nisbatda rivojlanishiga, suyaklar oʻsishi va massasini bir tartibga solishga yordam berish;
- barcha mushaklar guruhini rivojlantirish (tana, oyoq, qoʻl va elka kamari, panja, barmoqlar, tovon, boʻyin, koʻz, ichki organlar, yurak-qon tomirlar, nafas olish va boshqa mushaklar);
- koʻproq zaif rivojlangan bukuvchi mushaklar guruhining rivojlanishiga eʼtibor qaratish lozim.
- yurak-qon tomirlari va nafas olish tizimlari faoliyatini takomillashtirishga yordam berish, yurakka qon oqishini kuchaytirish, uning qisqarish ritmini yaxshilash va toʻsatdan oʻzgaradigan yuklamaga moslashish qobiliyatini rivojlantirish;
- koʻkrak qafasi harakatchanligini oʻstirish, chuqur nafas olish, uning ritmi barqarorligiga, oʻpka sigʻimini oshirishga yordam berish, burundan nafas olishni yaxshilash;
- ichki organlarning (ovqat hazm qilish, modda ajralish va boshqalar) toʻgʻri ishlashga yordamlashish;
- termoregulyasiya funksiyasining toʻgʻri rivojlanishiga koʻmaklashish;
- markaziy nerv sistemasining faoliyatini takomillashtirish, qoʻzgʻalish va tormozlanish, ularning harakatchanligi jarayonlarining muqobilligiga, shuningdek harakat analizatori, sezgi organlarining takomillashuviga yordam berish.

Taʼlimiy vazifalar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayonida quyidagi taʼlimiy vazifalar hal etiladi:

- harakat koʻnikma va malakalarini shakllantirish;

- jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko‘z bilan chamalash, kuchlilik, chidamlilikni o‘stirish;
- to‘g‘ri qaddi-qomat, gigiena ko‘nikmalarini tarbiyalash; - jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish.

Bolalar nerv tizimining plastikligi tufayli ularda harakat ko‘nikmalari nisbatan engil shakllanadi. Ularning ko‘pchiligidan (emaklash, yurish, yugurish, chang‘ida yurish, velosipedda sayr qilish...) kundalik harakat vositasi sifatida foydalanadilar. Harakat ko‘nikmalari tashqi muhit bilan aloqani osonlashtiradi va uni bilishga yordam beradi; bola emaklab o‘zini qiziqtirgan narsalarga yaqinlashadi va ular bilan tanishadi; chang‘ida yura oladigan; velosipedda sayr qila oladigan bolalar qor, shamol xossalarini oson idrok etadilar; suzish chog‘ida esa bolalar suvning xossalari bilan tanishadilar.

Jismoniy mashqlarni to‘g‘ri bajarish mushaklar, paylar, bo‘g‘inlar, suyak tizimini rivojlantirishga samarali ta‘sir qiladi. Yosh guruhlariga oid harakat ko‘nikmalarining hajmi “Bolajon” tayanch dasturida berilgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda saflanish, umumrivojlantiruvchi mashqlar, asosiy harakatlar, sport mashqlarini bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Bundan tashqari, bolalarni sport o‘yinlariga (badminton, stol tennisi) va sport o‘yinlari elementlari (basketbol, xokkey, futbol, voleybol) ni bajarishga o‘rgatish zarur. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o‘tirgan, turgan holatda va yurganda qaddi-qomatni to‘g‘ri tutish ko‘nikmalariga o‘rgatish muhim. Bu yoshda shaxsiy va ijtimoiy gigienaning boshlang‘ich ko‘nikmalari (qo‘l yuvish, kiyim-kechak, poyabzalni yaxshi tutish, o‘yinchoqlar, xonalarni ozoda tutish ko‘nikmalarini singdirish muhimdir.) Bu yoshdagi bolalarga mashg‘ulotlarning foydasi haqidagi jismoniy mashqlarning ahamiyati va texnikasi, ularni o‘tkazish metodikasi haqidagi, harakatli o‘yinlar haqidagi jismoniy tarbiyaga oid bilimlarni berish muhimdir. Bolalar gavda qismlarining nomini, harakat yo‘nalishi (yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o‘ngga, chapga, to‘la aylanish), jismoniy jihozlarning nomi va qay maqsadda ishlatilishi, ularni saqlash va tutish, kiyim-kechak va poyabzalga qarash qoidasini bilishlari

lozim. Olingan bilimlar bolalarga jismoniy mashqlar bilan juda to'g'ri shug'ullanish va jismoniy tarbiya vositalaridan mustaqil foydalanish imkonini beradi.

Tarbiyaviy vazifalar jismoniy tarbiya jarayonida bolalarda kun tartibiga rioya qilish, jismoniy mashqlar bilan har kuni shug'ullanish ehtiyojini hosil qilish bu mashqlar bilan maktabgacha tarbiya muassasalarida va oilada mustaqil shug'ullanish malakalarini rivojlantirish, ularni o'z tengdoshlari va kichik yoshdagi bolalar bilan o'tkazish. Jismoniy tarbiya jarayonida axloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishning katta imkoniyatlari mavjud. Jismoniy mashqlarni bajarishda xarakterning ijobiy xususiyatlari (uyushganlik, intizomlilik, kamtarlik, ko'ngilchanlik) va axloqiy fazilat (halollik, o'rtoqlik hissi, o'zaro yordam, topshiriqni ma'suliyat bilan bajarish) larni tarbiyalash, irodaviy fazilatlar (botirlik, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch, chidamlilik) ni namoyon qilish uchun sharoit yaratadi. Jismoniy tarbiya bolalarning aqliy o'sishiga yordam beradi, chunki nerv tizimi va boshqa organ hamda tizimlarning normal faoliyati uchun qulay sharoit yaratiladi, bu esa yaxshiroq idrok etish va eslab qolishga yordam beradi. Bolalarda barcha psixik jarayonlar (idrok, tafakkur, xotira, xayol) shuningdek tafakkur operatsiyalari (kuzatish, taqqoslash, analiz, sintez, umumlashtirish) rivojlanadi.

Bolalarda ijobiy emotsiyalar, tetik, xushchaqchaq kayfiyatni tarbiyalash juda muhimdir, chunki ijobiy emotsiyalar barcha organlar va organizm tizimlarini ishiga yaxshi ta'sir qiladi. Jismoniy tarbiya estetik tarbiyani amalga oshirish uchun qulaylik yaratadi. Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida estetik zavqni his qilish va idrok etish, go'zallikni, haraklarning ifodaliligini, qaddi- qomatning nafisligini, kiyimbosh, sport jihozlari, tevarak-atrofning go'zalligini tushunish va to'g'ri baholay olish qobiliyatini rivojlantirish; estetik jihatdan ma'qul xulqqa intilishni, faoliyat, so'z va xatti-harakatda qo'polikka murosasiz bo'lishni tarbiyalash lozim. Jismoniy tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasi ham amalga oshiriladi. Bolalar sog'lig'i mustahkamlanadi, harakat ko'nikmalari shakllanadi, mehnat qilish uchun zarur bo'lgan jismoniy fazilatlar rivojlanadi. Bolalar binoni, uchastkani jihozlash (sakrash uchun qum to'ldirilgan o'ralar, qor uyumlari, sirg'anish uchun muz yo'lkalari) qurish,

jismoniy tarbiya jihozlari yasash va ularni tuzatish (uloqtirish uchun qopchalar yasash, nishonlarni bo'yash), sport kiyimlari, poyabzalni saqlash, ularga qarash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida jismoniy jihozlarni, atributlarni, o'yinchoqlarni joy-joyiga qo'yish va yig'ib olish bilan bog'liq mehnat ko'nikmalarini egallaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayoni sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalardan birgalikda, mujassam holda foydalanishni talab etadi. . Jumladan: *Ilk yosh guruhida:*

- har kuni ertalab badantarbiya qilish, harakatlarni namunaga muvofiq bajarish;
- badantarbiyani ochiq havoda, engil kiyimda bajarish;
- ertalabki badantarbiya mashqlarini suv muolajalari bilan tugallash (kattalar ko'magida);
- yozda ochiq havoda iloji boricha ko'proq bo'lish;
- kattalar nazorati ostida kichik ochiq suv havzasida (basseyn)da cho'milish(gigiena talablariga amal qilgan holda).

Kichik guruhda:

- har kuni ertalab badantarbiya qilish;
- harakatlarni namunaga muvofiq bajarish;
- badantarbiyani ochiq havoda, engil kiyimda bajarish;
- ertalabki badantarbiya mashqlarini suv muolajalari bilan tugallash (kattalar ko'magida);
- ertalabki badantarbiya mashqlarini aniq va izchil bajarish;
- bolalarni yuz qo'llarini mustaqil yuvishga odatlantirish, suvni sachratmaslik, sovundan to'g'ri foydalanish, badanini xo'l sochiqda artish, yoz oylarida ochiq havoda iloji boricha ko'proq bo'lish, cho'milishga, dushdan foydalanish; - ochiq suv havzasi (basseyn)da cho'milish.

O'rta guruhda:

- har kuni kattalar nazoratida badantarbiya mashqlarini xonada, darchalarni ochib qo'ygan holda bajarish; ochiq havoda esa sport kiyimida bajarish;

- qo‘l, oyoq, gavda uchun mashqlarni aniq va izchillik bilan bajarish, qomatni to‘g‘ri tutish;
- har kuni ertalab badantarbiya mashqlarini bajarish, har qanday ob-havoda ham harakatli o‘yinlar o‘ynash;
- har kuni oyoqlarni yuvish, sekin-asta suv haroratini pasaytirib borish;
- xona haroratidagi suvda ho‘llangan gubka yoki paxmoq qo‘lqop bilan dastlab qo‘llarni, keyin oyoqlarni, ko‘krakni, qorin va orqani teskari yo‘nalishda teri qizarguncha artish.

Katta guruhda:

- har kuni kattalar nazoratida ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish;
- badantarbiya mashqlarini ochiq havoda gilamcha ustida, engil kiyimda predmetlar bilan va ularsiz bajarish, mashqlarni suv muolajalari bilan tugallash;
- muayyan izchillikda, aniq, shiddat bilan muskullarni tarang holga keltirish, mashqlarni, qomatni to‘g‘ri tutgan holda bajarish;
- yuz, bo‘yin, qo‘lni tirsakkacha sovuq suv bilan yuvish;
- badantarbiyadan so‘ng darhol gubka yoki uy haroratdagi suvda ho‘llangan kichikroq paxmoq sochiq bilan tana a‘zolarini artish: avval qo‘llarni, keyin badanni quruq sochiq bilan tana qizarguncha, tezda quruq qilib artish;
- faqat kattalarning ruxsati bilan cho‘milish, kattalarning nazorati ostidacho‘milishning asosiy qoidalariga rioya qilish;
- oyoqni shikastlantirish xavfi yo‘q joylarda yalangoyoq yurish; - chiniqtirish qoidalarini ongli ravishda bajarish.

Tayyorlov guruhida:

- har kuni ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish;
- badantarbiya mashqlarini ochiq havoda gilamcha ustida, engil kiyimda buyumlar bilan va ularsiz bajarish, mashqlarni suv muolajalari bilan tugallash;
- muayyan izchillikda, aniq, shiddat bilan muskullarni tarang holga keltirish, mashqlarni qomatni to‘g‘ri tutgan holda bajarish;

- xonada engil kiyimda bo‘lish, deraza darchasini ochib qo‘yish;
- ertalabki badantarbiya mashqlarini har kuni, har qanday havoda bajarish;
- yuz, bo‘yin, qo‘lni tirsakkacha sovuq suv bilan yuvish;
- badantarbiyadan so‘ng darhol gubka yoki uy haroratidagi suvda xo‘llangan kichikroq paxmoq sochiq bilan tana azolarini artish, avval qo‘llarni, keyin badanni quruq sochiq bilan tana qizarguncha, tezda quruq qilib artish;
- faqat kattalarning ruxsati bilan cho‘milish, kattalarning nazorati ostida cho‘milishning asosiy qoidalariga rioya qilish;
- shikastlantirish xavfi yo‘q joylarda yalangoyoq yurish.

Jismoniy tarbiyaning muhim sharti kun tartibi sanaladi. Kun tartibi turli faoliyat hamda dam olishning vaqt jihatdan maqsadga muvofiq taqsimlanishi, hayot tartibidir.

Kun tartibini tashkil etuvchi barcha qismlar (ovqatlanish, uyqu, o‘yin, sayr, mashg‘ulotlar)ni bir me‘yorda takrorlash natijasida bolalarda faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga o‘tishni engillashtiruvchi mustahkam ko‘nikma hosil bo‘ladi. Aynan kun tartibiga rioya etish bolaning asab faoliyati tizimi va barcha fiziologik jarayonlarning kechishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Kun tartibiga qo‘yiladigan asosiy talab bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishdir. Kichik guruhlarda uyqu, ovqatlanish, echinish, yuvinish va boshqalarga ko‘p vaqt ajratiladi. Katta bo‘lgan sari bolalarning mustaqilligi ortib, o‘yin va faoliyatning boshqa turlariga ko‘proq e’tibor beriladi. Kun tartibi, ham gigienik, ham tarbiyaviy funksiyani bajaradi.

Jismoniy tarbiya vositalarining umumiy tasnifi.

Jismoniy tarbiya vositalariga quyidagilar kiradi:

1. Gigienik omillar.
2. Tabiatning tabiiy kuchlari (quyosh, havo, suv)
3. Jismoniy mashqlar.
4. Xilma-xil faoliyat turlari.
5. Uqalash (massaj) Gigienik omillarga:
 1. amaliy mashg‘ulotlar rejimi;
 2. dam olish;

3. ovqatlanish;
4. uyqu;
5. kiyim bosh, poyabzal;
6. jismoniy jihozlar, xonalar, maydonchalar... kiradi.

Ular jismoniy mashqlarning shug'ullanuvchilar organizmiga ta'siri samaradorligini oshiradi. Gigienik omillari barcha organ va tizimlarning yaxshi ishlashiga yordam beradi. Masalan, muntazam sifatli ovqatlanish ovqat hazm qilish organining faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi va boshqa organlarga zaruriy oziq moddalarning o'z vaqtida etib borishini ta'minlaydi, bolaning rivojlanishi va o'sishiga yordam beradi. To'laqonli uyqu nerv tizimiga dam beradi va uning ish qobiliyatini oshiradi. Xonalar, jismoniy jihozlar, atribut, o'yinchoqlar, bolalar kiyimlari va poyabzalining tozaligi kasalliklarning oldini oladi. Xonalarni to'g'ri yoritish ko'z kasalliklari (shabko'rlik va boshqalar) ning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Kun tartibiga qat'iy rioya qilish uyushqoqlikka, intizomlilikka o'rgatadi.

Tabiatning tabiiy kuchlari. Tabiatning tabiiy kuchlariga quyosh, havo, suv kiradi, ular jismoniy mashqlarning organizmga ta'sirini kuchaytiradi va kishi ish qobiliyatini oshiradi. Quyoshli, ochiq havoda yoki suvda (suzish) bajariladigan mashqlar jarayonida ijobiy emotsiyalar paydo bo'ladi (ko'proq kislorod yutiladi, modda almashuvi kuchayadi...) Quyosh, havo, suv organizmni chiniqtirishga, uni yuqori va past temperaturaga moslashuv qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Bular natijasida issiqlikni idora qiluvchi apparat harakatga keladi, ya'ni kishi organizmi turli xil meteorologik omillarning o'zgarishiga o'z vaqtida javob bera oladigan darajaga keladi. Quyosh nuri teri ostida D vitaminining saqlanishiga xizmat qiladi, turli mikroblarni o'ldiradi va bolalarni kasalliklardan (raxit...) saqlaydi.

Jismoniy mashqlar Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning kishiga har tomonlama ta'sir etuvchi asosiy o'ziga xos shaklidir. Ulardan jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini hal etishda foydalaniladi: aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Raqs mashqlari – organizmning barcha tizimlariga taʼsir qiladi, jismoniy fazilatlarni rivojlantiradi, harakatlar nafis, erkin ifodali boʻla boradi, ijobiy hislar paydo qiladi, toʻgʻri qad-qomatni shakllanishiga yordam beradi. Shuning uchun raqs va oʻyin elementlari (oyoqlarni yonma-yon qoʻyish kabilar) jismoniy tarbiya vositalari sifatida foydalaniladi.

Xilma-xil faoliyat turlari. Xilma-xil faoliyat turlari mehnat, rasm, chizish, narsa yasashga kiruvchi harakatlar agar qomatni toʻgʻri tutishga rioya qilinsa, shuningdek jismoniy yuklamalar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, sogʻligʻining ahvoli, jismoniy rivojlanishi va tayyorlanganligini hisobga olgan holda berilsagina bola organizmiga ijobiy taʼsir etish mumkin.

Uqalash. Uqalash (massaj) -silash, surtish, uqalash, shapatilash, titratish teriga taʼsir qilib, bolaning butun organizmiga taʼsir etadi. Massaj qon tomiri tizimiga ham taʼsir qiladi. Terida nerv uchlari taʼsirlariga javob tariqasida tomir reflekslari yuzaga keladi, kapilyarlar kengayadi qon aylanishi kuchayadi, issiqlik chiqarish ortadi. Massaj organizmni issiq havodan qizib ketishidan saqlaydi. Massaj taʼsirida yogʻ va ter bezlarining sektor funksiyasi yaxshilanadi, mushaklarda oksidlanish-qaytarilish jarayoni va ularning qisqarish qobiliyati ortadi. Massaj limfa tizimiga taʼsir qilib, suyuqlik oqimini tezlashtiradi.

Turli yosh bosqichlarida koʻrsatib oʻtilgan vazifalarni amalga oshirishning samaradorligi asosiy va qoʻshimcha vositalarni toʻgʻri qoʻshib olib borgan taqdirdagina oshadi. Chunonchi, bolaning dastlabki 3 oyligida gigiena omillari, tabiatning tabiiy kuchlari katta ahamiyatga ega boʻladi. Yosh orta borgan sari gigienik omillar, tabiatning tabiiy kuchlarining roli kamaymaydi, biroq uyqu, ovqatlanish va boshqalarga kamroq vaqt sarflanadi va birmuncha murakkab jismoniy mashqlardan foydalanish uchun zamin yaratiladi

Jismoniy tarbiya deganda organizmning morfologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga taalluqli maxsus bilimlarni oʻzlashtirib olish tushuniladi.

Jismoniy tarbiya - tarbiyalanuvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo'naltirilgan. aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi.

Maktabgacha ta'lim davrida bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashning asosiy maqsadi bolalardagi turli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ulardagi kuchlilik, tetiklik, chaqqonlikni amalga oshirish, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir. Muntazam ravishda o'tkaziladigan jismoniy mashg'ulotlar bolalarning o'sish va rivojlanish jarayoniga ijobiy ta'sir qilib, ijodiy imkoniyatlarini oshiradi. Bolalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish ko'pgina vazifalarda muvaffaqiyatli xal etishni talab etadi.

Kun tartibini tuzish va uni tashkil etishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

- kun tartibini tuzishda yil fasllari (yozda bolalarning ko'proq ochiq havoda bo'lishi, ertalab ertaroq uyg'otilib, kechqurun uxlashga kechroq yotqizilishi va b.qa)ni e'tiborga olinishi;
- kun tartibini bajarishda bolalarning salomatligi, ularning ruhiy rivojlanish darajasi (zaif, kasal bolalarning uxlash, ochiq havoda bo'lish, vaqtining ko'paytirilishi, ta'lim-tarbiya mazmuniga o'zgartirish kiritilishi)ni hisobga olinishi;
- kun tartibining o'zgarmasligi (bolalar vaqtida ovqatlanishlari, shug'ullanishlari, o'ynashlari, uxlashlari)ga alohida e'tibor qaratish (bu bolalarni tartiblilik, intizomlilikka o'rgatadi);
- kun tartibini tuzishda ota-onalarning ish vaqtining boshlanishi va tugashi ham hisobga olinishi (ayrim ota-onalar ish vaqtining bir oz kech tugashini hisobga olgan holda, individuallashtirilgan va tabaqalashtirilgan kun tartiblari ishlab chiqiladi).

Jismoniy mashqlar - jismoniy tarbiya qonuniyatlari, vazifalari bilan bog'liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda bajarishga qaratilgan harakatlar yig'indisi. Jismoniy mashqlarga tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ko'proq umumlashgan tasnif o'zida gimnastika, o'yin, sayr kabilarni qamrab

oladi. Pedagogik nuqtai nazardan gimnastika sogʻliqni mustahkamlashga yordam beradigan jismoniy mashqlar majmuidir. Gimnastikaning asosiy, gigienik, sportga oid, badiiy, ishlab chiqarishga doir, tibbiy turlari mavjud. MTM oʻquv dasturlari bilan bogʻliqlikda tarbiyalanuvchilar asosiy gimnastika (narsa buyumlar va narsa buyumlarsiz bajariladigan umumiy rivojlanishga doir mashqlar, sakrash, yugurish, elementar akrobatik mashqlar) bilan shugʻullanishlari lozim.

Oʻyin - tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash maqsadida tashkil etiladigan erkin harakat yoki mashgʻulot. Oʻz mohiyatiga koʻra oʻyin bolaning jismoniy kuchini, qoʻllarining qattiqligini, qaddi- qomatining tikligini, ishonchli koʻzlarni rivojlantirishga xizmat qilib, unda oʻtkir zehni, topqirlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Oʻyinning tarbiyaviy ahamiyati katta boʻlib, bolalarda gʻamxoʻrlik, oʻz jamoasi uchun qaygʻurish, birgalikdagi harakatlanishdan quvonish, doʻstlik va oʻrtoqlik hissini kuchaytiradi. Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarda asosan ochiq havoda tashkil etiluvchi harakatlantiruvchi oʻyinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha taʼlim yoshida keng qoʻllashni talab etadigan jismoniy mashqlardan yana biri sayrdir.

Sayr - osuda erlarda, oromgoh, sayrgohlarda aylanib yurish, tomosha qilish, orom olish sanaladi. Odatda sayr piyoda, qayiqda, chanada va velosipedda oʻtkazilishi mumkin. Sayr bolalarning uzoq vaqt ochiq havoda boʻlib, ularning sogʻligi va jismoniy taraqqiyotiga har tomonlama ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bolaning sayr vaqtida ochiq havoda boʻlishi natijasida qon kislorodga toʻyinadi, temperaturaning oʻzgarib turishi, havoning namlanishi, shamol taʼsiri termoregulyasion apparatni mashq qildiradi, organizmni chiniqtiradi. Bolaning faolligi oshadi, harakatlari, jismoniy sifatlari takomillashadi.

Sayrni tashkil etish va oʻtkazishda quyidagi pedagogik talablarga rioya etish maqsadga muvofiq:

- sayrga yigʻilish koʻp vaqtни olmasligi, bolalarni bir tartibda kiyinish va echinishga oʻrgatish kerak;

- sayr shunchaki tashkil etilmay, uning rejasiga atrof-muhitni kuzatish, sport mashg'ulotlari, mehnat va o'yin faoliyati qamrab olinishi lozim;
- sayrni tashkil etish uchun zarur jihozlar avvaldan tayyorlab
- qo'yilib, belgilangan talablarga javob berishi kerak;
- sayrning davomiyligi uch-to'rt soatdan oshmasdan, havo harorati hisobga olinishi zarur;
- sayrning davomiyligiga emas, uning mazmunli tashkil etilishi, bolaga hissiy, jismoniy madad beri olishiga e'tibor qaratish lozim.

AMALIY VAZIFA:

Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun namunaviy kun tartibini ishlab chiqish.

№	Vaqti	Ish turi
1	7 ⁰⁰ - 7 ³⁰	O'rindan turish, ertalabki yuvinib, taranish (uyda)
2	7 ³⁰ – 8 ³⁰	Qabul, sog'ligini tekshirish, o'yinlar, ertalabki badantarbiya
3	8.30-8 ⁵⁵	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta
4	8 ⁵⁵ -9 ¹⁰	O'yinlar, mashg'ulotlarga tayyorgarlik
5	9 ¹⁰ - 11 ⁰⁰	Mashg'ulotlar
6	11 ⁰⁰ -11 ¹⁵	Sayrga tayyorgarlik
7	11 ¹⁵ -13 ⁰⁰	Sayr(o'yinlar, mehnat, kuzatish, harakatli o'yinlar) 10 daqiqa, 20-30 daqiqa jismoniy mashqlar
8	13 ⁰⁰ – 13 ¹⁵	Sayrdan qaytish
9	13 ¹⁵ – 13 ³⁵	Tushlik
10	13 ³⁵ -15 ²⁵	Uyqu
11	15 ²⁵ – 15 ⁵⁰	Uyqudan turish, yuvinish
12	15 ⁵⁰ - 16 ⁰⁵	Yengil 2-tushlik
13	16 ⁰⁵ – 18 ¹⁵	O'yinlar, mustaqil faoliyat, sayr
14	18 ¹⁵ – 18 ⁴⁰	Kechki ovqat
15	18 ⁴⁰ - 19 ³⁰	O'yinlar, bolalarni uyga ketishi
16	19 ³⁰ -20 ¹⁰	Sayr (uyda)
17	20 ¹⁰ -20 ⁴⁰	Tinch o'yinlar, gigienik muolajalar (uyda)

18	20 ⁴⁰ -6. (7) ³⁰	Tungi uyquga tayyorlanish, tungi uyqu (uyda)
----	---	---

Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya yo'riqchisining vazifalari.

Yo'riqchilarning majburiyatlari:

- Maktabgacha ta'limga qo'yilgan davlat talablari mazmunini bilishi;
- "O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun va qarorlarni, Maktabgacha ta'lim vazirligi maktabgacha talim muassasalarida jismoniy tarbiya va bolalar sportini rivojlantirishga oid me'yoriy hujjatlari, yo'riqnomalari mazmunini bilishi maqsadga muvofiq.
- Maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiyasi, bolalarni jismoniy tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslarini bilishi;
- Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasini yaxshi anglagan bo'lishi;
- Sport va ommaviy tadbirlar o'tkazilishini;
- Zamonaviy va xalq o'yinlari qoida va talablarini bilishi va ulardan ish jarayonida unumli foydalanishi lozim.

Jismoniy tarbiya va sport yo'riqchisining lavozim majburiyatlariga quyidagilar

kiradi:

- a) har bir guruh uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jadvalini tuzadi, guruhlar yoshtarkibini hisobga olib tasdiqlangan dasturlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazadi;
- b) kun davomida bolalarning harakat faolligini nazorat qiladi. Sport-sog'lomlashtirishlarini olib boradi, shu maqsadlarda sport, sog'lomlashtirish tadbirlari rejasini ishlab chiqadi; sog'lom, jismonan baquvvat holda maktabga tayyorlash maqsadida bolalarga jismoniy mashqlar bajartiradi; jismoniy rivojlanishda orqada qolgan bolalar bilan alohida mashg'ulotlar o'tkazadi;
- v) bolalarning sog'lig'i va jismoniy holatini nazorat qiladi, tarbiyachilar va otaonalarga bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, jumladan sport seksiyalari,

to'garaklar tashkil qilish bo'yicha maslahatlar beradi, ularga metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

g) mashg'ulotlar paytida bolalar sog'lig'i va xavfsizligiga javobgardir, o'zining kasbiy mahoratini, bolalar bilan ishlash metodik usullarini uzluksiz takomillashtiradi, maktabgacha muassasa xodimlari va ota-onalar orasida jismoniy tarbiya tashviqotini olib boradi.

*Jismoniy tarbiya va sport yo'riqchisi maktabgacha ta'limga davlat talablari
mazmuni:*

Maktabgacha ta'limi vazirligining maktabgacha muassasalarda jismoniy tarbiya va bolalar sportini rivojlantirish masalalariga oid metodik;

- me'yoriy, yo'riqnoma va boshqa boshqaruv hujjatlarini, bolalarni maktabgacha tarbiyalash pedagogika va psixologiyasi asoslari;
- bolalarni jismoniy tarbiyalashning nazariya va amaliyoti asoslarini, bolalar anatomiyasi va fiziologiyasini;
- sport-ommaviy tadbirlar o'tkazish tartibini, zamonaviy va xalq bolalar sport o'yinlari qoida va talablarini bilishi kerak.

Jismoniy tarbiya va sport yo'riqchisi lavozimiga quyidagi malaka talablari qo'yiladi
:

- a) Kamida jismoniy tarbiya bo'yicha o'rta maxsus ma'lumot;
- b) Amaliy ish staji talab qilinmaydi.

Jismoniy tarbiya yo'riqchisining ish hujjatlarini yuritish tartibi:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2011 yil 2 noyabrdagi "Maktabgacha ta'lim muassasalarining ish hujjatlari to'g'risida" gi 252-sonli hamda 2016 yil 4 fevraldagi "Maktabgacha ta'lim muassasalarining ish hujjatlari to'g'risida" gi 33-sonli buyruqlari asosida tarbiyachilarning ish hujjatlari belgilab berilgan. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda eng avvalo maktabgacha ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan meyoriy hujjatlar "Maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat talablari" hamda takomillashtirilgan "Bolajon" tayanch dasturiga

asosan bolalar yoshlari doirasida asosiy harakatlar: yurish, yugurish, sakrash, irgʻitish-emaklash, toʻsiqlardan oshib oʻtish milliy, harakatli hamda tinch oʻyinlarni nomini bilishi va oʻynashi zarur deb koʻrsatilgan. Jismoniy tarbiya yoʻriqchisi tomonidan jismoniy tarbiya mashgʻulotlarini rejalashtirishda yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish, muvozanat mashqlari kabi asosiy harakatlarni izchil ravishda mashgʻulotlarga taqsimlab chiqishda koʻproq qiynaladilar. Ularni rejalashtirish vaqtida faqat mashgʻulot oʻtkazish shart-sharoitlarini (xona, asbobuskuna va boshqalarni), bolalarning tayyorligini hisobga olibgina qolmay, shu bilan birga har bir harakat malakasini izchillik bilan shakllantirishga ham eʼtibor berish kerak. Bunga murakkabligi tobora ortib boradigan mashqlar va oʻyinlarni koʻproq tanlash orqali erishiladi. Mashgʻulotlar vaqtida asosiy harakatlarning bir-biri bilan maqsadga muvofiqroq ravishda qoʻshib olib borishni koʻzda tutish, shuningdek, bolalarning yuksak darajadagi faolligini taʼminlovchi uyushtirish usullarining qoʻllanishi ham katta ahamiyatga egadir. Materialni takrorlash ham muhim rol oʻynaydi. Ayni bir harakatni taxminan oradan 3-4 hafta oʻtgandan keyin baʼzi - bir takrorlab turgan maʼqul. Har bir oʻrganiladigan harakat turiga bir nechta (ikki-toʻrt) izchil bajariladigan mashgʻulotlarni kiritish maqsadga muvofiq. Odatda mashgʻulotlar uchun bolalarni oʻqitishning har xil bosqichlari bilan bogʻliq boʻlgan mashqlar tanlanadi: topshiriqlarni biri koʻpincha yangi mashqlarni oʻrganish bilan yoki harakat qismlarini takrorlash bilan bogʻliq boʻladi, boshqalari esa malakani mustahkamlash va takomillashtirishga qaratilgan boʻladi. Materialni taxminiy taqsimlash rejasida har bir yosh gruppasi uchun faqat asosiy harakatlar bilan bogʻliq topshiriqlar, shuningdek, harakatli oʻyinlar berilgan. Mashgʻulotlar uchun belgilangan umumiy rivojlanish mashqlarining mazmuni mashgʻulotning asosiy maqsadiga boʻysundiriladi, u bolani asosiy mashqlarga tayyorlamogʻi lozim. YOsh guruxlari uchun tuzilgan rejada haftasiga ikki marta oʻtkaziladigan mashgʻulotdan faqat bittasining mazmuni berilgan. Bu rejalashtirishda birmuncha oʻzgartirishlar boʻlishi uchun kerakli erkinlikni taʼmin etadi. Ikkinchi mashgʻulot birinchi mashgʻulotning mazmunini toʻla takrorlashi ham mumkin. Bolalar oʻtgan

mashgʻulotlarda oʻrgangan harakatlarni takrorlab, faol ravishda mashq qilib olishlariga imkon yaratish uchun shunday qilinadi. Baʼzan ikkinchi mashgʻulotning mazmuni qisman oʻzgartiriladi: mashgʻulotning kirish qismiga boshqa yangi mashqlar kiritiladi yoki umumrivojlantiruvchi mashqlar uchun boshqa mashq tanlanadi, asosiy harakatlarga oʻrgatish vaqtida bolalar jamoasiini uyushtirish uslubi oʻzgartiriladi. Boshqa mashgʻulotdagi asosiy harakatlar qoʻshimcha takrorlash materiali sifatida kiritiladi. Maktabgacha taʼlim muassasasida jismoniy tarbiya mashgʻulotlari barcha guruhlarda haftasiga 2 marotaba bolaning fiziologik holatiga qarab hafta kunlariga boʻlinadi. Maktabgacha taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya yoʻriqchisi mashgʻulotlarni bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantiradi. Maktabgacha taʼlim muassasasida jismoniy tarbiya tizimida - kun tartibi, anʼanaviy mashgʻulotlar, mujassam mashgʻulotlar, chiniqtirish (tabiiy va sunʼiy), jismoniy mashqlar, madaniy gigienik koʻnikmalar, ertalabki va kechki soatlar, quvnoq daqiqalar, davolovchi gimnastika, ritmika, sport oʻyinlari tashkil etiladi. Maktabgacha taʼlim muassasalarida noʻnanaviy jismoniy tarbiya mashgʻulotlarini 2-3 turdagi tashkil etish muhimdir yuqorida koʻrsatilib oʻtilgan noʻnanaviy mashgʻulotga oʻxshamaydigan tarzda tashkil etiladi. Noʻnanaviy jismoniy tarbiya mashgʻulotlari ertak asosida tashkil etiladigan mashgʻulotlar uchun bolalarning yosh xususiyatini inobatga olgan olda bolalarga oʻrgatmoqchi boʻlgan asosiy xarakterni bajarishga mos keluvchi ertak tanlanib “Boʻgʻirsoq” “Echki bolalari” “Qizil shapkacha” va jismoniy tarbiya yoʻriqchisi tomonidan asosiy harakatlarni oʻrgatish uchun oʻylab topilgan ertaklar asosida tashkil etiladigan noʻnanaviy jismoniy tarbiya mashgʻuloti deb hisoblaniladi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda “2017-2021 yillarda maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarorining mazmun-mohiyati haqida so'zlab bering.

2. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiyaning predmeti va asosiy tushunchalari nimalardan iborat?
3. Jismoniy tarbiya tamoyillariga nimalar kiradi?
4. Ta'lim metodlari va usullari tasnifi va turlari?
5. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasining vazifalari nimalardan iborat?
6. Jismoniy tarbiya vositalarining umumiy tasnifi?
7. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari necha qismlardan iborat?
8. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagi asosiy harakat turlarining ahamiyati?
9. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda nimalarga ahamiyat beriladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2016 yil 29 dekabrda ta'lim sohasiga doir qanday qaror imzoladi?

- a) "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qaror
- b) Qadrlar tayyorlash milliy dasturi
- c) Ta'lim to'g'risidagi qonun
- d) "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli qaror

2. Jismoniy tarbiya vositalarini ko'rsating.

- a) Gigienik omillar, tabiatning tabiiy kuchlari (quyosh, havo, suv), jismoniy mashqlar, xilma-xil faoliyat turlari, uqalash (massaj).

- b) Koptok, turnik, arg‘imchoq va boshqa inventarlar.
- c) Jismoniy mashqlar, harakatli o‘yinlar, didaktik o‘yinlar.
- d) Boks, futbol, kurash, engil atletika, gimnastika, basketbol.

3. Jismoniy rivojlanish nima?

- a) Jismoniy rivojlanish – bu kishi organizmi shakl va funksiyalarining o‘zgarish jarayonidir. “Jismoniy rivojlanish” iborasi tor ma’noda qo‘llanilganda, u antropometrik va biometrik ko‘rsatkichlarni anglatadi (bo‘y, gavda og‘irligi, ko‘krak qafasi aylanasi, o‘pkalarning tiriklik sig‘imi, qaddi - qomatining holati) va boshqalar.
- b) Jismoniy rivojlanish – bu harakat ko‘nikmalari, malakalari, jismoniy sifatlarning me‘yoriy ko‘rsatkichidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun barcha asosiy jismoniy mashq turlari bo‘yicha me‘yoriy ko‘rsatkichlar va ularni bajarish sifatiga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqilgan.
- c) Jismoniy rivojlanish – bu jismoniy rivojlanishning tarixan shakllangan darajasi va sog‘liqning, hayotga, mehnatga va Vatan himoyasiga har tomonlama jismoniy tayyorlanganlikning eng yuqori bosqichidir.
- d) Jismoniy rivojlanish – bu harakat ko‘nikmalari, malakalari, jismoniy sifatlarning me‘yoriy ko‘rsatkichidir.

4. Jismoniy tayyorligi nima?

- a) Jismoniy tayyorligi – bu kishi organizmi shakl va funksiyalarining o‘zgarish jarayonidir. “Jismoniy rivojlanish” iborasi tor ma’noda qo‘llanilganda, u antropometrik va biometrik ko‘rsatkichlarni anglatadi (bo‘y, gavda og‘irligi, ko‘krak qafasi aylanasi, o‘pkalarning tiriklik sig‘imi, qaddi - qomatining holati) va boshqalar.

- b) Jismoniy tayyorligi – bu harakat ko‘nikmalari, malakalari, jismoniy sifatlarning me‘yoriy ko‘rsatkichidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun barcha asosiy jismoniy mashq turlari bo‘yicha me‘yoriy ko‘rsatkichlar va ularni bajarish sifatiga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqilgan. Ular “Bolajon” tayanch dasturida ko‘rsatib berilgan.
- c) Jismoniy tayyorligi – bu jismoniy rivojlanishning tarixan shakllangan darajasi va sog‘liqning, hayotga, mehnatga va Vatan himoyasiga har tomonlama jismoniy tayyorlanganlikning eng yuqori bosqichidir.
- d) Jismoniy tayyorligi – maktabgacha yoshdagi bolalar uchun barcha asosiy jismoniy mashq turlari bo‘yicha me‘yoriy ko‘rsatkichlar va ularni bajarish sifatiga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqilgan.

5. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim berishda ularning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda qaysi metodlardan foydalaniladi.

- a) Ko‘rgazmali metodi, og‘zaki metod, amaliy metod, o‘yin metodi, musobaqa metodi.
- b) Induktiv va deduktiv metod, ko‘rsatmali metod, o‘yin metodi, musobaqa metodi.
- c) Reproduktiv va muammoli metod, mustaqil ish metod, o‘yin metodi, musobaqa metodi.
- d) Og‘zaki metod, kitob bilan ishlash metodi

6. Ko‘rgazmali metodga berilgan tasnifni aniqlang.

- a) *Ko‘rgazmali metod* – bu hissiy idrok va harakat sezgilarining yorqinligini ta’minlaydi. Ular bolalarda sensor qobiliyatlari rivojlanishini faollashtiruvchi harakat haqida juda to‘liq va aniq tasavvurning hosil bo‘lishi uchun zarurdir.

b) *Ko'rgazmali metod* – bu metod bolalar ongiga yo'naltirilgan, ular oldiga qo'yilgan vazifalarni tushunib olishga va mashqlar mazmuni va tuzilishini o'zlashtirib olishda katta rol o'ynaydigan harakatli mashqlarni ongli ravishda bajarilishi, bu mashqlarni turli vaziyatlarda mustaqil qo'llashga yordam beradi.

c) *Ko'rgazmali metod* – bolalarning amaliy harakat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, harakatlarni o'z muskul motor sezgilarida to'g'ri idrok etilishini amalda tekshirishni ta'minlaydi. Amaliy metodlar mashqlarni o'yin shaklida, musobaqa elementlaridan foydalanish bilan xarakterlanadi. Amaliy metodning xilma-xil turlaridan biri o'yin metodidir.

d) *Ko'rgazmali metod* – bolalar bilan ishlashda samarali bo'lib, ko'rgazmali obraz va ko'rgazmali amaliy tafakkur elementlarini hisobga oladi. U turli harakat ko'nikmalarini, harakatlarning mustaqilligini, o'zgaruvchan sharoitga nisbatan tezkor javob reaksiyasini bir vaqtda takomillashuviga, ijodiy faollik ko'rsatishga imkon beradi.

16-mavzu: Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tuzilishi va mazmuni.

- 1. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tuzilishi va mazmuni**
- 2. Bolalarning kundalik hayotida jismoniy tarbiya bo‘yicha ishlarni tashkil etish.**
- 3. Jismoniy mashqlar bilan birga amalga oshiriladigan chiniqtirish tadbirlari.**
- 4. Sayrda tashkil etiladigan jismoniy mashqlar va harakatli o‘yinlar.**

Tayanch tushunchalar: jismoniy rivojlanish, chiniqtirish, suv vannalari, havo vannalari, epchillik, kuchlilik, matonat, chaqqonlik,

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tuzilishi va mazmuni

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni jismonan sog‘lom, aqlan etuk, ma’naviy boy, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning vazifalari jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini berish va ularning tug‘ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam (maktabga) tayyorlashdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining maqsadi va vazifalari bolalardagi turli jismoniy rivojlanishni ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ulardagi kuchlilik, tetiklik, chaqqonlik, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir.

Muntazam ravishda o‘tkaziladigan jismoniy mashg‘ulotlar bolalarning o‘shish va rivojlanish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jismoniy rivojlanish - odam organizmi shakl va funksiyalarining o‘zgarish jarayonidir. “Jismoniy rivojlanish” termini tor ma’noda qo‘llaniladi, bunda u antropometrik va biometrik ko‘rsatkichlarni anglatadi, chunonchi: gavda, bo‘y, og‘irligi, ko‘krak qafasi aylanasi, o‘pkalarning tiriklik sig‘imi, umurtqa pog‘onasi egikligining darajasi, qaddi-qomatning jismoniy holati, kurak uchlari orasidagi

masofa, tavon gumbazi o‘lchovining ko‘rsatkichi, o‘ng va chap panja mushaklari kuchi, tik tura olish kuchi va boshqalar. “Jismoniy rivojlanish” terminini keng ma’noda qo‘llaganda, unga jismoniy sifatlar(tezkorlik egiluvchanlik, muvozanat saqlay olish, ko‘z bilan chamalash, kuch, chidamlilik) ham kiritiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni jismoniy tarbiya mashg‘ulotining maqsadlari quyidagilardir:

1. *Bolani salomatligini mustahkamlash;*
2. *Bolani jismonan baquvvatlashtirish;*
3. *Bolalarni axloqiy sifatlarini tarbiyalash.*

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni jismonan tarbiya vazifalari:

1-vazifa. Bolalarni maqsadga to‘g‘ri yo‘naltirilgan harakatlarni faollashtirish uchun shart-sharoit yaratish va maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya xonalarini, maydonchalarini kerakli jihozlar bilan etarli qilib ta’minlash.

2- vazifa. Harakatning hayot uchun muhim turlarini shakllantirish: yurish, yugurish, emaklash, sakrash, o‘rmlash, otish, ilib olish, suzish, velosipedda uchish, oyoq, qo‘l, tana, bosh harakatlarini rivojlantirish. Bolalarni yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini bolalarga qiziqarli metodlar yordamida tashkil etishni rejalashtirish.

3- vazifa. Saflanish va qayta saflanish. Bu harakat maktabgacha ta’lim muassasalaridagi mashg‘ulotlarning boshidan to yakunigacha davom etadi.

4- vazifa. O‘yin harakatlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish, chaqqonlik, epchillik, ziyraklik, irodalilik, sabr-qanoat, kuchlilik shu bilan birga gavdani tik tutish malakalarini oshirish; Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining asosiy, yakuniy qismlarida tashkil etiladigan harakatli hamda kam harakatli bir nomdagi o‘yinlar o‘ynalish jarayonini bolalarni yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkablashtirib borish.

5- vazifa. Bolalar qomatlarini to‘g‘ri shakllantirishga ta’sir ko‘rsatish va yassiyoqlilikni oldini olish. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan

jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bola qomatini va yassi oyoqlilikni oldini olishga ta'sir etuvchi mashqlarni qo'llash.

6-vazifa. Faol harakatga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash.

7-vazifa. Jismoniy mashq va o'yinlarning foydasi haqida, asosiy gigienik talablar va qoidalari haqida etarli darajada tasavvur va bilimlar berish. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini jismoniy tarbiya yo'riqchisi olib boradi va barcha guruhlar uchun mashg'ulot ishlanmalarini 08-02 raqamdagi ish rejasida bir yil uchun 72 mashg'ulot ishlanmasini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish. Bolalarning harakatli faoliyati ularda asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan bog'liqdir Bunga chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, matonat singari sifatlar kiradi. Amalda mazkur sifatlarning hech birini alohida olib rivojlantirishni tasavvur qilish ham mumkin emas. Turli jismoniy sifatlarni tarbiyalash aslida bolaning jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlanishidek yagona jarayonning turli tomonlaridir. Chunki bunday rivojlanish natijasida organizmning miqdoriy imkoniyatlarida umumiy yuksalish sodir bo'ladi. Lekin baribir yuqorida sanab o'tilgan jismoniy sifatlarning har birini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir.

Chaqqonlik-bu faoliyat davomida paydo bo'ladigan kutilmagan shartsharoitlarga binoan harakat faoliyatini tezlik bilan yangi harakatlarni egallay olish qobiliyatidir. Chaqqonlikni tarbiyalashda harakatlarning uyg'unligini rivojlantirish, ularning sur'ati va ko'lamini, muskullarning zo'riqishi va bo'shishi darajasini birbiridan farq qilish, shuningdek, vaqtga va joyga moslashib mo'ljal olib bilish mahorati asosida sodir bo'ladi. Chaqqonlikni tarbiyalash uchun aniq harakatlar qilish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Bundan tashqari, turg'un holatda hamda bir joydan ikkinchi joyga yurib borilayotganda gavdaning muvozanatini saqlay olish chaqqonlik ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bolalikning maktabgacha yoshida harakat analizatorini rivojlantirishda anchagina siljish ro'y beradi. Bu esa chaqqonlikni asta – sekin takomillashtiribborish uchun imkoniyat yaratadi.

Harakatlarni bajarishdagi epchillik ham maktabgacha yoshdagi bolalarda tez rivojlanadigan muhim xususiyatdir.

Epchillik-bu harakatni eng kam vaqt ichida bajara olish qobiliyatidir. U qandaydir bir signalga javob tariqasi bajarilgan harakat tezligiga (harakat reaksiyasi deb ataladigan tezlikka), ayrim harakatlar tezligiga, shuningdek ko'p marta takrorlanayotgan harakatlarning tezligiga bog'liq bo'ladi. Harakatlarning mana shu barcha ta'rif – tavsifi, bog'chadagi kichik yoshdagi bolalardan boshlab to katta gruppadagi bolalarda muntazam mashq natijasida o'sib boradi. Chaqqonlik va epchillikning rivojlanishiga o'yin va mashqlarni muntazam bajarib borish orqali erishiladi. Bunda atrofdagi muhit sharoitning o'zgarishiga qarab shug'ullanuvchilar tezlik bilan javob reaksiyasi berishlari hamda bir harakatdan ikkinchisiga jadallik bilan o'tishlari, tez siljishlari va topshiriqni bajarishlari muhimdir. Turli o'yinlar hamda to'siqlarni engib o'tish, to'xtab-to'xtab, burilishlar bilan bajariladi birdan berilgan signal bo'yicha xilma-xil topshiriqlarni bajarish, hatlab o'tish, engashibemaklab o'tish bilan bog'liq bo'lgan mashqlar, muvozanat mashqlari, har turli sport o'yinlari va boshqalar mana shunday chaqqonlik va epchillikni o'stiruvchi mashqlar hisoblanadi.

Kuchlilik-bu muskullarni ma'lum darajada zo'riqtira olish qobiliyati bo'lib, chaqqonlik va epchillikni tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning muskullari hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi, uning asab harakati ham hali takomillashmagan, bog'cha bolalari muskullarni kuch bilan ishga solishda aniq farq qilish qobiliyatiga ega emaslar. Bog'cha bolalari uchun, ayniqsa, kichik gruxdagilar uchun shu narsa muhimdirki, ularda rostlovchi muskullarning xayotiy, faoliyatidan ko'ra bukish muskullarining hayotiy faoliyati ortiqroq bo'ladi, bolalar yurish va yugurish vaqtida oyoqlarini yarim bukik holda tutib harakat qiladilar, o'yinlar o'tkazish vaqtida esa, engashib o'tiradilar va hokazo. SHu sababdan bolaning kuch-quvvat sifatlarini rivojlantirayotganda rostlovchi muskullar kuchini ko'paytirishga e'tibor berish, bola gavdasini va oyoq-qo'llarini rostlaydigan, to'g'ri turishga o'rgatadigan mashqlar bajartirish muhim ahamiyatga

egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kuch-quvvatni tarbiyalashga qaratilgan mashqlar asosan dinamik harakterga ega bo'lishi kerak. Ayni vaqtda bu uzoq vaqt davom etib, asablarni ancha tarang holga keltiradigan bir xildagi zo'riqishlar bilan bog'liq, bo'lmasligi shart. Bundan tashqari kuchni rivojlantirishda zo'r berib kuchlanish zarur bo'lgan mashqlar qo'llanmasligi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarining kuch-quvvatini tarbiyalash uchun qisqa muddat davom etadigan tezlikkuch talab qiladigan mashqlar (masalan, bir joyning o'zida turib uzunlikka sakrash, uzoqqa uloqtirish mashqlari), shuningdek, o'z og'irligini ko'tarish bilan bog'liq bo'lgan ba'zi bir mashqlar (engashtirib qo'yilgan va tikka turgan narvonlar, taxtalarga tirmashib chiqish mashqlari, gimnastika skameykasida o'z qo'llari, kuchi bilan tortilish va shunga o'xshash mashqlar)ni bajarish o'rinlidir.

Matonat-bu jismoniy ishni imkoni boricha uzoq vaqt davomida etarli darajadagi jadallikni saqlagan holda bajara olish qobiliyatidir. Matonatni tarbiyalash organizmning turli sistemalarining miqdoriy imkoniyatlarini oshirib borish bilan, asta-sekin sharoitga moslashib borish bilan, oqibat natijada charchashga olib boradigan kuchli zo'riqish bilan uzoq vaqt davom etadigan faoliyat natijasida organizmda paydo bo'ladigan ko'nikish bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bolalarda matonatni tarbiyalashda ular organizmiga o'zlari ko'nikib qolgan vazifaga qaraganda yuqoriroq jismoniy ta'sir ko'rsatadigan mashqlar va o'yinlar qo'llaniladi. Maktabgacha yoshdagi kichik guruhlarda matonatni tarbiyalash bilan bog'liq maxsus mashqlar amalga oshirilmaydi. Katta yoshdagi bog'cha bolalarida matonatni tarbiyalash uchun o'yin va mashqlardan foydalaniladi.

Bunday o'yin va mashqlarda ancha og'ir, lekin qisqa muddatli jismoniy zo'riqish talab qilinadi. Bunday mashqlarda bolalar diqqat-e'tiborni- ir erga jamlab, mashqlarni takrorlashda etarli darajada uzoq tanaffuslar berib, ularga dam oldirish lozim. Bu yoshdagi bolalarda matonat avvalo yurish, yugurish, sakrash, chang'ida yurish, raq tushish, suzish va harakatli o'yinlar o'ynash va mustaqil faoliyat ko'rsatish vaqtida rivojlanadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bolalarni jismoniy mashqlarga muntazam o'rgatishning asosiy shaklidir. Mashg'ulotlarning ahamiyati

harakatlar madaniyatini mujassam shakllanishi, sogʻlomlashtirish, taʼlimiy va tarbiyaviy vazifalarni muntazam amalga oshirishdan iboratdir. Mashgʻulotlar xushchaqchaq, intizomli, atrof-muhitda yaxshi harakat qila oladigan, belgilangan vazifaga muvofiq tez va ishonch bilan, maqsadga yoʻnalgan holda faoliyat koʻrsata oladigan, shuningdek, axloqiy sifatlar va ijodiylik namoyon eta oladigan shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Jismoniy mashgʻulotlar kuzda, qishda va bahorda binoda hamda ochiq havoda oʻtkaziladi. Yoz paytida oʻyinlar, mashqlar ochiq havoda, jismoniy tarbiya maydonchasida oʻtkaziladi.

“Bolajon” tayanch dasturida har bir yosh guruhi uchun belgilangan jismoniy mashqlar mashgʻulotlarning mazmunini tashkil etadi. Mazmuniga koʻra xilma-xil mashgʻulotlarni oʻtkazishda vazifalarning aniq va oydin boʻlib qolishi, dasturni oʻtishda izchilikka rioya qilish, shuningdek bolalarning yosh va oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish shartdir. Mashgʻulotlar tuzilishi jismoniy mashqlarning bolalar tomonidan izchil bajarilishidan iboratdir. U qoʻyilgan vazifalar, nerv tizimining ish qobiliyati va bola organizmining har bir alohida yosh bosqichidagi xususiyatlari bilan belgilanadi. Mashgʻulot paytida bola organizmining dinamikasi va uning psixologiyasini nazorat qilish tarbiyachining asosiy vazifalaridan biridir

1. Kirish – tayyorgarlik.
2. Asosiy qism.
3. YAkuniy qism.

Taʼlimiy, tarbiyaviy va sogʻlomlashtirish vazifalari mashgʻulotning har bir qismi uchun baravar muhim ahamiyatga egadir.

Mashgʻulotning kirish qismini mazmuni va vazifalari.

Jismoniy tarbiya mashgʻulotining birinchi qismi koʻyilgan vazifalar va uning asosiy qismidagi mashqlar mazmuniga koʻra turlicha boʻlishi mumkin. Mashgʻulotning bu qismi vazifasi bolalarda unga nisbatan qiziqish va emotsional kayfiyat paydo qilishdan, diqqatning tayyorgarlik darajasini tekshirishdan, ayrim harakat koʻnikmalarini aniqlashtirishdan, bola organizmini asta-sekin mashgʻulotning asosiy qismida kechadigan birmuncha intensiv tez faoliyatga tayyorlashdan iboratdir.

SHu maqsadda bolalarga to'g'ri qad-qomatni tarbiyalashga, yassi tovonlikni oldini olishga yordam beradigan, fazoda hamda jamoada mo'ljal olish bilan bog'liq, bajarilishi ko'p vaqtni talab qilmaydigan tanish mashqlar va ularning variantlarini bajarish taklif etiladi. Bunday mashqlarga quyidagilar kiradi:

1. saflanish mashqlari , turlicha saflanishlar va qayta saflanishlar;
2. turli topshiriqlar bilan bajariladigan yurish va yugurish;
3. tarqalib engil yugurish hamda keyinchalik katta va kichik davra, kolonna va hakoza bo'lib saflanish;
4. turli ko'rinishdagi va yassitovonlikning oldini olish maqsadidagi yurishlar tovonda, oyoq uchida, poldagi qalin shnur ustida, narvonda yurish va boshqalar.

Kirish qismi bolalarning kolonnaga uch to'rttadan bo'lib saflanishi, tarqalishi bilan yakunlanadi. Bu bolalarni mashg'ulotning asosiy qismi boshlanishidagi umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'rgatishga o'tish uchun xizmat qiladi. Bu qism kichik guruhlarda 2-4 daqiqagacha, o'rta guruhlarda 3 dan 5 daqiqagacha, katta guruhlarda 4 dan 6 gacha davom etadi.

Mashg'ulotning asosiy qismivazifalari va mazmuni. Mashg'ulotning bu qismida bir holatda dastlab bolalarni umumrivojlantiruvchi mashqlarga, so'ngra asosiy harakatlarga o'rgatish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash vazifalari belgilanadi; ikkinchi bir holatda asosiy harakat mashqlariga o'rgatish belgilanadi. Bu mashqlar yangi harakat materiali bilan tanishtirishni, avvaldan tanish mashqlarni turli variantlardan foydalanib takrorlashni, mustahkamlanish bosqichidagi harakat ko'nikmalarini takomillashtirishni ko'zda tutadi. SHundan so'ng barcha bolalarni intensiv harakatga tortadigan qoidali harakatli o'yinlar o'tkaziladi. Bolalarning psixik ish qobiliyatining davomsizligini hisobga olib, murakkab vazifalar asosiy qismning boshida belgilanadi (bolalarni yangi material bilan tanishtirish yoki juda murakkab koordinatsiyali mashqlarni bajarish). Umumrivojlantiruvchi mashqlarni bolalar kichik buyumlar, bayroqchalar, tayoqchalar, chambaraklar, lentalar, shnurlar bilan bajaradilar. Chunki ular organizmning funksional holatini yaxshilashga ta'sir etadi.

Dastlab to'g'ri qad-qomatni shakllantirish va nafas olishni tartibga solish maqsadida qo'l mushaklari va elka kamari mushaklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash mashqlari beriladi. Ikkinchi navbatda gavda uchun, orqa mushaklarni mustahkamlash va umurtqa egiluvchanligini rivojlantiruvchi (oldinga, orqaga va yon tomonlarga egilish, gavidani aylantirish) mashqlari beriladi. Uchinchi navbatda qorin va oyoq mushaklarini mustahkamlovchi (cho'qqayish, tizzadan bukilgan oyoqlarni ko'tarish...) mashqlari beriladi. Shundan so'ng asosiy harakatlarni o'rgatishga o'tiladi. Bunda ulardan biri bolalar uchun yangi, boshqalari esa o'rganish va takomillashtirish bosqichida bo'ladi. Mashg'ulotning umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'rgatish bilan olib boriladigan asosiy qismi davomiyligi:

- kichik guruhlarda 15 dan 18 daqiqagacha;
- o'rta guruhda 20 dan 22 daqiqagacha;
- katta guruhda 25 dan 28 daqiqagacha bo'ladi.

Umumrivojlantiruvchi mashqlarsiz o'tkazilganda esa uning davomiyligi:

- kichik guruhlarda 8-12 daqiqa,
- o'rta guruhda 12-15 daqiqa,
- katta guruhda 15-20 daqiqani tashkil etadi.

Mashg'ulot yakunlovchi qismi. Mashg'ulotning o'yindan so'nggi yakunlovchi qismi tobora sekinlashadigan intensiv suratdagi yurishni o'z ichiga oladi. U umumiy qo'zg'aluvchan ishga yordam beradi; yurish jarayonida bolalar bir necha nafas olish mashqlarini bajarishlari mumkin. Ba'zi hollarda yurish barcha bolalar ishtirokidagi kam harakatli o'yin bilan almashtirilishi mumkin. Yurish yoki uni almashtiruvchi o'yin so'nggida mashg'ulotga yakun yasaladi. Yakunlovchi qism: kichik guruhda 2 dan 3 daqiqagacha, o'rta va katta guruhlarda 3 dan 4 daqiqagacha bo'ladi.

Butun mashg'ulotning davomiyligi:

- kichik guruhlarda 15-20 daqiqa;
- o'rta guruhlarda 20-25 daqiqani;
- katta guruhlarda 30-35 daqiqani tashkil etadi.

Jismoniy mashqlar orqali amalga oshiriladigan chiniqtirish tadbirlari

Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni chiniqtirish maqsadida havovannalari, suv muolajalari (artinish, suv quyish, dush, cho‘milish) va quyosh vannalaridan foydalaniladi. Tabiiy omillardan mujassam holda foydalanish bolalarda tashqi muhitning turli noxush ta’siriga (namhavo, yomg‘ir, shamol, qizish) nisbatan chidamlilikni hosil qiladi.

CHiniqtirish tadbirlari jismoniy mashqlar bilan birgalikda olib borilganda juda samarali bo‘ladi: faol mushak ishi issiqlik regulyasiyasining takomillashuv jarayoniga va bu bilan organizmning tashqi muhitga moslashuviga yordam beradi. Chiniqish jarayoni xilma-xil, u bir tomondan shifokor tavsiyasiga ko‘ra maxsus tadbirlar (havo, suv, quyosh vannalari) ni o‘z ichiga oladi, ikkinchi tomondan kun tartibida belgilangan sharoitning (xonani muntazam shamollatib turish, darchalarning ochiq turishi, bolalar engil kiyim-bosh va poyabzali, sayrning belgilangan muddatiga va bolalar harakat faolligi tartibiga rioya qilish, derazalari ochiq ayvonda uxlash). Bularning hammasi organizmning to‘laqonli chiniqishini ta’minlaydi, unda yoqimli o‘zgarishlar paydo qiladi (nerv tizimining holati va vazifasini modda almashinishi jarayonini, qon tarkibini yaxshilaydi, nafas olishni chuqurlashtiradi, psixikaning hissiy – ijobiy holatini vujudga keltiradi) bola hatti- harakatini bu sharoitga moslashtiradi.

“Bolajon” tayanch dasturi barcha yosh guruhlarda bir yoshdan boshlab chiniqtirish tadbirlarini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Dasturda chiniqtirish turlari, ularning o‘tkazish vaqti, qancha davom etishi belgilangan, shifokor tavsiyasiga ko‘ra bolalarga yakka holda yondashish kerakligi ko‘rsatilgan

Havo vannalari – bolalar harakat faoliyati vaqtida havoni terining yalang‘och qismiga bevosita ta’sir etishini ta’minlaydi. Bunda havo vannasining eng maqsadga muvofiq va tabiiy ko‘rinishi ochiq havoda hamda deraza darchalari ochiq xonalarda o‘tkaziladigan ertalabki badantarbiyadir. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari va ertalabki gimnastika havo vannasi sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni xonada o‘tkazishda havo harorati asta-sekin har 2-3 kunda kamaytirib boriladi, bolalar ham

shunga qarab engilroq kiyintiriladi. Bu ish shifokor ko'rsatmasiga ko'ra, bolalar sog'lig'ining ahvoli va ularning har biriga yakka yondashgan holda amalga oshiriladi. Bola havo vannalarini avval xonada, keyin ko'chada oladi. Havo vannalari sovuq (10-20 S), befarq (23-30 S) va issiq (30 S dan yuqori) bo'ladi. Bola sovuq havoga asta-sekin o'rgatiladi. Dastlab bolalar ishtonchada 15-20 daqiqa havo vannasini xonada qabul qiladilar. Havo vannasi olinib boshlangandan 10-15 kun o'tgach, bolani ko'chaga engil kiyintirib chiqarish mumkin.

Suv tadbirlari artinish, belidan suv quyish, dush, cho'milish (basseyn, daryo, ko'l, dengizda) kabi muolajalardan iborat. Shifokorning bolalarning o'ziga xos xususiyatlari va sog'lig'ini hisobga olib bergan tavsiyasi bu muolajalarni belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Suv muolajalarida bolaning faol bo'lishi maqsadga muvofiq va zurrurdir. Oyoq, qo'l uchlaridan markazga qarab massaj harakatlaridan foydalanib bolalar suvi siqilgan ho'l qo'lqoplar yordamida o'zlari harakat qilishga o'rganadilar. Doira yoki yarim doira bo'lib, turgan holda ular bir vaqtda ko'krak, elka va qo'llarni ishqalab artadilar, shundan so'ng o'girilib qo'lqoplarini orqada turgan bolalarga beradilar va ularning har biri o'rtog'ining orqasini ishqalaydi. Shunday qilib, bola artinish jarayonida harakatda bo'ladi, sovuq qotmaydi va tarbiyachi rahbarligida zarur hayotiy ko'nikmaga o'rganadi. Boshdan suv quyish o'zining organizmga ko'rsatadigan ta'siriga ko'ra oldinga tadbirlardan birmuncha kuchliroqdir. Suv oqimi badanni tozalaydi, mushaklar tonusini oshiradi, ular ishini faollashtiradi, nerv tizimini qo'zg'atadi, tetiklik holatini yuzaga keltiradi. Bola oqayotgan suvga orqasi, ko'kragi, biqini, qorni, qo'llarini tutib aylanadi. Bundan tashqari u suv oqimiga ko'ra harakat qilib, badaniga suv sohib ishqalashi mumkin. Muolajadan so'ng barcha bolalar badanlarini tarbiyachi kuzatuvida yaxshilab artadilar.

Tayyorlov guruhlarida ertalabki gimnastikadan so'ng belgacha suv quyishdan foydalanish mumkin. Bolalar mustaqil yuvinadilar, bunda bo'yin, ko'krak, elka va qo'llarini suv bilan chiniqish muolajalari quyidagi turlarga bo'linadi: sovuq (suv harorati 20 S), salqin (20-30 S), befarq (34-35 S), iliq (36-40 S), issiq (40 S dan

yuqori). Cho‘milish har kungi doimiy muolaja sifatida bola organizmini sog‘lomlashtirish va chiniqtirishning ajoyib vositasidir. Sovuq suv, ultrabinafsha nur, toza havo, bolalar harakati bu vositalar bola organizmiga, uning nerv tizimiga yaxshi ta‘sir etadi. Biroq bu muolajaning samaradorligiga qaramay undan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish, bolalarni unga asta-sekin o‘rgatish – dushdan oldin artinish va suvning haroratini asta-sekin pasaytirib borish lozim. Chiniqtirish maqsadidagi cho‘milish dasturda o‘rta, katta va tayyorlov guruhlar uchun tavsiya etiladi. Suvga o‘rgatishni 1,5-2 yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Suvi sayoz joyda yurish, tosh terish, shishirilgan o‘yinchoqlar bilan o‘ynash, suv sachratish kichkintoylarga o‘zlari uchun yangi bo‘lgan suv muhitini o‘zlashtirishda yordam beradi, axloqiy hislarni uyg‘otadi, jasurlikni tarbiyalaydi. Cho‘milish yozda, kun issiq paytda, havo harorati 20-25 S, suv harorati kamida 20-25 S paytida boshlash, ikki haftadan keyin havo harorati 18-20 S, suvning 15-16 S bo‘lganda cho‘milish mumkin. Cho‘milish joyini sinchiklab tekshirish, 3-4 bolaning kattalarning hushyor kuzatuvida bir vaqtda cho‘milish, shifokorning barcha ko‘rsatmalariga rioya qilish – bu muolajalarni o‘tkazishning majburiy shartidir. Cho‘milish muddatini har bir yosh guruhi uchun bolalar muassasasi shifokori belgilaydi. Bunda meteorologik sharoit suv va havo temperaturasi, shamol, quyoshli yoki bulutli havo va barcha bolalar organizmining chiniqqanlik darajasi hisobga olinadi.

Quyosh vannalari. Quyosh bola organizmiga yaxshi ta‘sir ko‘rsatib, uning umumiy holatini mustahkamlaydi, almashinish jarayonlarini yaxshilaydi. Ayniqsa bakteritsid (bakteriyalarning rivojlanishini to‘xtatadigan), antiraxit (nerv tizimining faoliyatini yaxshilaydigan, modda almashinish jarayonini kuchaytiradigan, suyak mushak tizimini mustahkamlaydigan), eritem (qon oqimini ko‘chaytiradigan va terini qizartirib, badanning qorayishiga olib keladigan) ta‘sirga ega bo‘lgan ultrabinafsha nurlari juda foydalidir. Dastlab quyoshda ko‘pi bilan 5-6 daqiqa toblanish lozim. Bu muddat har kuni 5-6 daqiqa oshira boriladi va nihoyat 1 soatga etkaziladi. Bola oftobda boshiga sochiq yopib yoki panama kiyib yotishi, har 2-2,5 daqiqada qorindan yonboshga, so‘ngra orqasiga, keyin boshqa yonboshiga ag‘darilib turishi lozim.

Quyosh vannasidan soʻng soyada 15-20 daqiqa dam olish, ustdan suv quyish, suv havzasida 5-10 daqiqa choʻmilish mumkin. Oftobda ertalab soat 8 dan 11 gacha va kunduzi soat 16 dan 18 gacha toblanish foydalidir. Bu paytda quyoshning ultrabinafsha nurlari koʻp boʻlib, bu nur raxitning oldini oladi. Infraqizil nurlari esa tanani qizdirib yuborib, zarar keltirishi mumkin. Quyosh vannasidan meʼyorida foydalanmaslik tufayli bolalarga salbiy holatlar (qoʻzgʻalish va uyquning buzilishi, tomirlarning keskin kengayishi, qon tarkibining yomonlashuvi va boshqalar) yuz berishi mumkin. Shuning uchun bolalar muassasalarida quyosh vannalari faqat shifokor tavsiyasiga koʻra, bolalarning yakka xususiyatlarini hisobga olgan holda oʻtkazilishi zarur. Bolalarni muntazam holda chiniqtirish ilk yoshdan boshlanishi lozim, shundagina bolalarda chiniqish koʻnikmalarini tarbiyalash mumkindir.

Sayrda tashkil etiladigan jismoniy mashqlar va harakatli oʻyinlar.

Harakatli oʻyinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy harakat faoliyati, shuningdek jismoniy mashqlar sifatida tarbiyachi tomonidan kunning turli vaqtida, har bir yosh guruhi kun tartibiga muvofiq: ertalab tushda va kechki sayr paytida rejalashtiriladi. Tarbiyachi oʻyinlarni taqsimlashda harakat koʻnikmalarining takomillashuviga xizmat qiluvchi harakat mazmunining rang-barangligini, zarur takroriylik, murakkablashuvni koʻzda tutadi. Tashqi muhit sharoitini hisobga olish va aniq vaziyatda oʻzini tutishni tarbiyalash uchun muhimdir. Tarbiyachi bolalar faoliyati xarakterini kuzatib borib, ularga turli mazmundagi va harakat darajasidagi oʻyinlarni taklif etadi, shu asnoda ularning harakat faolligini boshkaradi: birining harakatini kuchaytiradi, ikkinchisining bir oz cheklaydi va kerakligicha dam olishini taʼminlaydi. Harakatli oʻyinlar va mashqlarni oʻtkazishni rejalashtirishda yil fasli va ob-havo holati ham hisobga olinadi. Faol harakatli oʻyinlar sovuq havoda oʻrtacha harakat xarakteridagi faoliyat turlari bilan almashtirib turiladi. Harakat faoliyati xarakteri va surʼatini almashtirib turish bolalar uchun dam olin imkonini yaratadi va sovuq qotishning ham, issiqlab ketishning ham oldini oladi. Bolalarning qish faslida ochiq havodagi mazmunli faoliyati chiniqishlarga yordam beradi, organizmning sogʻlomlashuviga yaxshi taʼsir etadi. Yozda, bolalar hayoti asosan ochiq havoda

kehadigan paytlarda kiyim- boshlar ham engillashtiriladi, xilma-xil harakatlar bolalar sog‘lig‘ini yaxshilaydi, ularda hayotiy zavq uyg‘otadi. Yoz paytida harakat ko‘nikmalari va jismoniy sifatlarni takomillashtiruvchi qoidali o‘yinlardan keng foydalaniladi. Barcha yosh guruhlarining maydonchalari dasturda ko‘rsatilgan yirik jismoniy jihozlar bilan jihozlangan bo‘lishi va ulardan bolalarning tirmashib chiqish, oshib o‘tish, emaklab o‘tish, sakrash, uloqtirish harakatlari, muvozanat mashqlari, kim o‘zarga yugurish, muayyan masofaga tabiiy to‘siqlar osha tez yugurishni takomillashtirish uchun muntazam foydalanishi lozim. Maydonchaga har kuni o‘yinchoqlar, kichikroq jismoniy tarbiya ashyolari (tayoqchalar, chamberaklar, to‘plar...) olib chiqiladi. Ikki, uch g‘ildirakli velosipedlar, motorollerlar, g‘ildirakli konkilar, samokatlar, avtomobillar, toychalar bolalar ixtiyoriga beriladi. Katta va tayyorlov guruhlarida voleybol, basketbol, badminton, shaharcha, lapta kabi sport o‘yinlari o‘tkaziladi Bolalar muassasalaridan tashqaridagi piyoda sayr va ekskursiyalar bolalar turizmining eng oddiy ko‘rinishlaridan biridir.

Muayyan maqsadda uyushtirilgan bu kichik sayrlar bolalar uchun qiziqarli va foydalidir. Ular bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlashga, jismoniy rivojlanishiga, estetik his-tuyg‘uni tarbiyalashga, tabiat bilan muloqatga kirishishga, harakat ko‘nikmalari va jismoniy sifatlarning takomillashuviga xizmat qiladi.

Sayrlar kichik guruhlardan boshlanishi lozim, bunda guruh bolalarining yosh xususiyatlari va imkoniyatlari, sog‘lig‘ining ahvoli, o‘ziga xos ko‘rsatkichlari hamda shifokor tavsiyalari hisobga olinishi lozim. Sayrlar maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi uchun tarbiyachi ularni oldindan belgilab oladi va o‘tkazishga puxta tayyorgarlik ko‘radi. Agar sayrda jismoniy tarbiya mashg‘ulotini o‘tkazish belgilangan bo‘lsa, unga tabiiy omillardan foydalanib amalga oshiriladigan mashqlar, tik turgan, o‘tirgan, yotgan holatdan buyumlar bilan bajariladigan mashqlar, to‘siqlar osha yugurish, tez yugurish, uzoqqa va nishonni mo‘ljallab uloqtirish kiritiladi. Sayr va mashg‘ulot sof havoning bolaning yalang‘och badaniga bevosita ta’sir etishi tufayli (bolalar fakat trusi, panamka, oyoq kiyim kiygan bo‘lishlari lozim) harakatda qabul qilinadigan tabiiy havo vannasi hisoblanadi. Sayrlarni muntazam o‘tkazish bolalarning

organizmini chiniqtiradi, hayotiy taassurotlarni yangilaydi, sayyohatlarga qiziqish uygʻotadi, zavq- shavq baxsh etadi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Maktabgacha taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya mashgʻulotlarini tashkil etilishi haqida gapiring.
2. Jismoniy tarbiya mashgʻulotlarining tuzilishi haqida gapiring.
3. Jismoniy tarbiya mashgʻulotlari qandayrejalashtiriladi?
4. Turli yosh guruhlarida jismoniy tarbiya mashgʻulotlarini tashkil etish?
5. Sayrda qanday jismoniy mashqlar va harakatli oʻyinlar tashkil etiladi ?
6. Suv tadbirlari qanday oʻtkaziladi?
7. Jismoniy mashqlar orqali amalga oshiriladigan chiniqtirish tadbirlari haqida gapiring. Mashgʻulotning kirish qismini mazmuni va vazifalari haqida gapiring.
8. Mashgʻulotning asosiy qismini mazmuni va vazifalari haqida gapiring.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Maktabgacha taʼlim muassasalarida saflanish va qayta saflanish mashqlari mashgʻulotning qaysi qismida amalga oshiriladi?

- a) Saflanish va qayta saflanish mashqlari maktabgacha taʼlim muassasalaridagi mashgʻulotlarning boshidan to yakunigacha davom etadi.
- b) Saflanish va qayta saflanish mashqlari maktabgacha taʼlim muassasalaridagi mashgʻulotlarning asosiy qismida amalga oshiriladi.
- c) Saflanish va qayta saflanish mashqlari maktabgacha taʼlim muassasalaridagi mashgʻulotlarning kirish qismida amalga oshiriladi.
- d) Saflanish va qayta saflanish mashqlari maktabgacha taʼlim muassasalaridagi mashgʻulotlarning yakuniy qismida amalga oshiriladi.

2. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi tomonidan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari uchun 08- 02 raqamdagi bir yil uchun tuziladigan dars ishlanmasi soni nechta?

- a) Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi 08-02 raqamdagi ish rejasida bir yil uchun 72 mashg‘ulot ishlanmasini shakllantiradi.
- b) Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi 08-02 raqamdagi ish rejasida bir yil uchun 48 mashg‘ulot ishlanmasini shakllantiradi
- c) Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi 08-02 raqamdagi ish rejasida bir yil uchun 68 mashg‘ulot ishlanmasini shakllantiradi
- d) Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi 08-02 raqamdagi ish rejasida bir yil uchun 100 mashg‘ulot ishlanmasini shakllantiradi

3. Kirish qismdagi umumrivojlantiruvchi mashqlarni o‘rgatish guruhlarida necha daqiqada davom etadi?

- a) Bu qism kichik guruhlarida 2-4 daqiqagacha, o‘rta guruhlarida 3 dan 5 daqiqagacha, katta guruhlarida 4 dan 6 gacha davom etadi.
- b) Bu qism kichik guruhlarida 2-4 daqiqagacha, o‘rta guruhlarida 3 dan 6 daqiqagacha, katta guruhlarida 4 dan 6 gacha davom etadi.
- c) Bu qism kichik guruhlarida 2-4 daqiqagacha, o‘rta guruhlarida 3 dan 5 daqiqagacha, katta guruhlarida 4 dan 5 gacha davom etadi.
- d) Bu qism kichik guruhlarida 3-4 daqiqagacha, o‘rta guruhlarida 3 dan 5 daqiqagacha, katta guruhlarida 4 dan 5 gacha davom etadi.

4. Maktabgacha ta’lim muassasalarida dastlab quyoshda toblantirish necha daqiqagacha bo‘lishi lozim.

- a) Dastlab quyoshda ko‘pi bilan 5-6 daqiqa toblanish lozim. Bu muddat har kuni 5-6 daqiqa oshira boriladi va nihoyat 1 soatga etkaziladi.
- b) Dastlab quyoshda ko‘pi bilan 8-9 daqiqa toblanish lozim. Bu muddat har kuni 5-6 daqiqa oshira boriladi va nihoyat 1 soatga etkaziladi.
- c) Dastlab quyoshda ko‘pi bilan 10-12 daqiqa toblanish lozim. Bu muddat har kuni 5-6 daqiqa oshira boriladi va nihoyat 1 soatga etkaziladi.
- d) Dastlab quyoshda ko‘pi bilan 6-8 daqiqa toblanish lozim. Bu muddat har kuni 5-6 daqiqa oshira boriladi va nihoyat 1 soatga etkaziladi.

5. Bolani necha yoshdan suvga o‘rgatish maqsadga muvofiq.

- a) Suvga o‘rgatishni 1,5 - 2 yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir.
- b) Suvga o‘rgatishni 3- 4 yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir.
- c) Suvga o‘rgatishni 1- 2 yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir.
- d) Suvga o‘rgatishni 4 - 5 yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

6. Bola havo vannasi ola boshlaganidan so‘ng necha kunda ko‘chaga olib chiqiladi.

- a) Havo vannasi olina boshlangandan 10 - 15 kun o‘tgach, bolani ko‘chaga engil kiyintirib chiqarish mumkin.
- b) Havo vannasi olina boshlangandan 1 - 2 kun o‘tgach, bolani ko‘chaga engil kiyintirib chiqarish mumkin.
- c) Havo vannasi olina boshlangandan 12 - 13 kun o‘tgach, bolani ko‘chaga engil kiyintirib chiqarish mumkin.
- d) Havo vannasi olina boshlangandan 5 - 6 kun o‘tgach, bolani ko‘chaga engil kiyintirib chiqarish mumkin.

17-mavzu:Estetik tarbiya 1.

Estetik tarbiyaning mazmuni, mohiyati va ahamiyati.

2. Estetik tarbiyalashning vazifasi maqsadi va metodi.

3. Estetik tarbiyaning vositalari.

Tayanch tushunchalar; go‘zallik, estetik qiziqish, estetik tarbiya, estetik ehtiyoj, estetik rivojlanish, estetik qiziqish, estetik faoliyat, estetik qobiliyat.

Estetik tarbiyaning mazmuni, mohiyati va ahamiyati.

Estetik tarbiya dastlab oilada, keyin esa bog‘cha boshqa o‘quv yurtlarida amalga oshiriladi. Bu jarayonda ayniqsa ota-ona va o‘qituvchilar o‘rnak ko‘rsatishining o‘rni va ahamiyati beqiyos kattadir. Avvalo, ta‘lim jarayonida o‘quvchi - talabalar go‘zallik va nafosat haqida dastlabki bilim va tasavvurlarga ega bo‘ladilar, estetik falsafasini tushunib oladilar. O‘quv rejasiga kiritilgan gumanitar, adadiyot va san‘at darslarida esa, go‘zallik malakalarini egallaydilar. Bu jarayonda o‘z mehnatlarining natijasini ko‘rib zavqlanadilar va o‘z ishlarini estetik tomondan yanada yaxshiroq qilishga harakat qiladilar.

Jumladan, estetikaning ijtimoiy axloqiy ahamiyatiga alohida e‘tibor berish, o‘quvchi - talabaning yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo‘lgan ularning teatr, muzey va ko‘rgazmalarga borib turmoq faoliyatlari muttasil harakatda bo‘lishi, badiiyot va san‘at turlari haqida ko‘p va chuqur ma‘lumotlar berib borilishi, go‘zallik va nafosat to‘g‘risida doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilardir.

Go‘zallik inson hayotining zaruriy shartidir. U inson uchun faqat material, ijtimoiy zaruriyat emas, balki ma‘naviy - ruhiy ehtiyoj hamdir. Inson bolasining yoshligidan go‘zallikka ehtiyoj havasi orttirgan, tarbiyalangan asosga ega. Bolalarda yoshidan boshlab keng go‘zallikka intilgan ijodiy faoliyat shakllanadi. Shu faoliyat jarayonida yoshlarning qiziqishi, imkoniyat, qobiliyat va layoqatli ko‘rinishlarini topa bilishi lozim. Yoshlikdan faoliyatga ijobiy munosabatni o‘rgatish lozim.

Estetik tarbiya fan asoslarini o‘rganish jarayonida o‘quvchi - talabalarning olgan bilimlarining aniq maqsadga yo‘nalganligini, o‘quv jarayonining estetik asoslarini, bilim va kasbiy qiziqishlarini ko‘zda tutadi.

Estetik tarbiya keng tushuncha bo‘lib, voqelikdagi, san‘atdagi, tabiatdagi, ijtimoiy va mehnat munosabatidagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish, tushunishga o‘rgatish,

goʻzallikka muhabbat uygʻotish va hayotga goʻzallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Estetik tarbiya oʻz navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismi hisoblanadi. U ayniqsa, axloqiy tarbiya bilan uzviy bogʻliqdir. Sanʼat va hayot goʻzalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning hayoli va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bolalarni goʻzallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni toʻgʻri tushunish, oliyanob his-tuygʻularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarda goʻzallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, qaygʻusini birga barham koʻrish kabi xususiyatlari shakllanib boradi.

Estetik rivojlanish - shaxsning estetik ongi, munosabati va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqtni talab etadigan jarayondir. SHaxsning estetik rivojlanishi ijtimoiy - tarixiy va estetik tajribani ijodiy oʻzlashtirish jarayonida yuzaga keladi.

Estetik ehtiyoj — kishi borliqni, badiiy faoliyatni, uning har xil koʻrinishlarida estetik idrok etishga undovchi subʼektiv omildir.

Estetik qiziqish - shaxsni sanʼat asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga yoʻnaltiradi. Estetik qiziqish ehtiyojni yuzaga keltiradi. Estetik tarbiya tushunchasi bilan bir qatorda badiiy tarbiya tushunchasi ham mavjud. Badiiy tarbiya sanʼat asarlari adabiyot, musiqa, ashula, tasviriy sanʼat va boshqa vositalar asosida tarbiyalashdir.

Estetik tarbiya — ancha keng, faqat sanʼat vositasidagina emas, balki hayot, mehnat, kishilarning oʻzaro taʼsiri vositasida goʻzallikni, anglashni tarbiyalaydi. Sanʼatda esa estetikaning turli-tuman masalalari namoyon boʻladi. Ayniqsa, kishining fikr- irodasi madh etiladi, uning tarbiyalovchi roli ham shunda namoyon boʻladi. Shuning uchun sanʼat estetik tarbiyaning mazmuni va vositasi hisoblanadi. Estetik tarbiya axloqiy mehnat va jismoniy tarbiya bilan chambarchas bogʻliqdir.

Estetik va axloqiy tarbiyaning oʻzaro bogʻliqligi shundaki, kishining goʻzallikni idrok etishdan quvonish, uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand boʻlishga

o'xshab ketadi. Aksincha, go'zallikni ko'ra bilmaslik, undan zavqlana olmaslik yomon ishlarni qilishga olib keladi. San'atning tarbiyaviy kuchi shundaki, odamni hayotdagi voqealarni, hodisalarni chuqur his-hayajon bilan idrok etishga majbur etadi.

Estetik tarbiya mehnat tarbiyasi bilan ham bog'liq. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi. Go'zallik quvonchisiz mehnat quvonchi bo'lmaydi. Mehnat quvonchi bu turmush quvonchidir. Agar inson estetik jihatdan tarbiyalangan bo'lsa, u har qanday qiyin ishda ham go'zallikni ko'ra oladi va uni zo'r zavq-shavq bilan bajaradi.

Estetik va jismoniy tarbiya o'rtasida mustahkam bog'lanish mavjud bo'lib kishining mustahkam sog'lig'i uchun muhim sanaladi. Insonning jismoniy kamoloti go'zallikni tasavvur eta olmaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishida, ayniqsa, estetik tarbiya emas, hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida uning sensor qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bu yoshdagi bolada kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o'ynaydi. Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin - asta takomillashib boradi. O'rta guruhga kelganda, bolalar estetik idrokning rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha shakllangan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar badiiy obrazlarni eng oddiy estetik baholay oladilar.

Katta guruhning oxiriga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan ta'kidlaydilar, tasviriy san'at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, ulardagi ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan quvonadilar, yomonlikni qoralaydilar.

Estetik tarbiyalashning vazifasi maqsadi va metodi.

Kelajak egasi bo'lgan yosh avlod tarbiyasini estetik tarbiyasiz tasavvur qilish qiyin. Estetik tarbiya o'quvchilarni tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallik muhabbat uyg'otish va hayotdagi go'zallikni his qilish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Estetik tarbiyaning maqsadi - bolalarga tevarak-atrofdagi voqelik hayot to'g'risida bilim berishdan tashqari, ularda avvalo, estetik qobiliyat va idrokni, yuksak badiiy didni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning vazifalari - o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, fikr-mulohaza, tushuncha, did tarbiyalashdan, ularning ijodiy qobiliyatlarini, estetik ehtiyojarini, turmushni go'zal qilishga intilish fazilatlarini taraqqiy ettirishdan iboratdir. Estetik tarbiya tevarak-atrof, hayotdagi go'zalliklarni idrok qilish bilan birga estetik histuyg'ularni o'stirishni ham o'z ichiga oladi.

Xalq ijodini o'rganish o'quvchilarda axloqiy, mehnat hamda nafosat tarbiyasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar va imkoniyatlar yaratadi. Eshiklarga o'yilgan turli naqshlar, darchalar tepasidagi ganj yoki marmarlardan o'yib ishlangan panjachalar, devorlarning pastki qismiga o'rnatilgan marmar toshlarning o'ymakor naqshlari va osmonga bo'y cho'zgan minoralarning qomati, ularga mutanosib ishlangan xilma-xil gullar bir vaqtlar Sharqda madaniyat juda yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Qo'li gul ustalar yaratgan san'at durdonalari kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi. Maktabda o'quvchi-yoshlarga estetik tarbiya berishda ulug' ustoz va mutafakkir A.Navoiyning hayoti va ijodi, hikoyalari, ruboiy g'azallari, "Hamsa" va undagi dostonlar quyi sinflardan yuqori sinflargacha bolalarning yoshi, o'zlashtirib olishi, qobiliyatini hisobga olgan holda dastur asosida o'tiladi. Demak xalq ijodini o'rganish nafaqat o'qitish jarayonida, sinfdan tashqari ishlarda ham tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish, o'quvchilarda malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, estetik didini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etishi lozim.

Estetik tarbiya (lot "estezio" - go'zallikni his etaman) - shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat, mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning estetik didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni. MTMda tashkil etiladigan estetik tarbiya tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlar, ijobiy xulk- atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Estetik tarbiyani olib borish jarayonida

tarbiyalanuvchilarda estetik his-tuyg‘u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go‘zallikni sevish, go‘zallikka intilish tuyg‘ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Estetik tarbiyaning maqsadi - shaxsning voqelikka estetik munosabatini shakllantirishdan iborat. Tarbiyalanuvchilar o‘rtasida qo‘l mehnati, musiqa, tasviriy san‘at ma‘lumotlarida, ertaklar o‘qish chog‘ida estetik tarbiyani samarali yo‘lga qo‘yish imkoniyati mavjud. Estetik tarbiya xam umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his - tuyg‘ulariga, tasavvuriga, e‘tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti- harakatlariga, xulq-atvoriga ta‘sir o‘tkazishni o‘z oldiga maqsad va vazifa qilib qo‘yadi. Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazifaning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, tarixiy-ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik hodisani anglatadi.

SHuni ta‘kidlash joizki, Qadimgi dunyoda umuman tarbiyaning maqsadi estetik asosda namoyon bo‘lgan. Qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqarolarning har tomonlama rivojlanishiga, “ruh va badan” hamohangligini qaror toptirishga yo‘naltirilgan edi. Aristotel va Platon kabi buyuk mutafakkirlarning ta‘limotlarida estetik tarbiya tizimining bir - biridan farqli tomonlari bo‘lgani holda umumiylik ham mavjud bo‘lib, u yagona estetik orzuni qaror toptirishga, yagona axloqiy xulq - atvor va fuqarolik sifatlarini shakllantirishga xizmat kilgan edi. Avvallari estetik tarbiya o‘ta tor va bir tomonlama talqin qilinar, ya‘ni uni san‘at asarlarini to‘g‘ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san‘at turini bilib olib, muayyan badiiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish doirasida in‘ikos etilar edi. Ba‘zan estetik tarbiya odamlarda yuksak estetik did-farosatni shakllantirish sifatida qaralar edi. Bularning barchasi badiiy - estetik tarbiyaning vazifa va maqsadlari doirasiga kiradi. Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolalarning yosh va individual imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

Estetik tarbiyaning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Bolalarni hayotdagi, voqelikdagi, tabiat va turmushdagi go‘zallikni tushunish, ko‘ra bilishga o‘rgatish.

- Ularda estetik his-tuyg‘u, did, estetik munosabatni tarbiyalash.
- Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida yaratilgan san‘at asarlarini tushunish, sevishga o‘rgatish, ularda estetik ong qirralarini shakllantirish.
- Bolani san‘atning turli sohalariga qiziqishi, izlanishini tarkib toptirish.

Estetik tarbiyaning vositalari.

Estetik tarbiya ancha keng ma‘noga ega bo‘lib, faqat san‘at vositasidagina emas, balki hayot, mehnat, kishilarning o‘zaro ta‘siri va boshqalar vositasida go‘zallikni his qilish qobiliyatini tarbiyalashni o‘z ichiga oladi.

Badiiy tarbiyamaktab tasviriy san‘at sohasidagi ancha murakkab vazifalarni hal qiladi. O‘quvchilarga bilim berish, ularda asliga qarab, xotira, tasavvur asosida rasm chizish, badiiy gimnastika va sinxron suzish sport turlarida musiqaga mos ravishda harakat obrazlarini yaratish mahoratini va malakalarini hosil qilish, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish ularni chet ellik rassomlarning ijodlari bilan tanishtirish maktabning muhim vazifasidir.

Musiq va ashula. Musiq va ashula o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatini, musiqiy xotirasi va didini o‘stiradi. Ashula darslarida o‘qituvchi o‘quvchilarga musiq tinglash va tushunishni o‘rgatadi, ularga ba‘zi nazariy ma‘lumotlar beradi ularni turli davrlardagi bastakorlar ijodi, janrlar bilan tanishtiradi. Jismoniy tarbiya darslaridagi razminkalarda harakatni musiq bilan bog‘lashni o‘rgatadi.

Badiiy adabiyot. Badiiy adabiyot o‘quv predmeti sifatida o‘quvchilarga estetik tarbiya berish vazifalarini hal etishda katta imkoniyatlarga ega. Adabiyot o‘quvchilarga hayotni chuqurroq ko‘rish, tushunish va to‘g‘riroq baholashni o‘rgatadi. Badiiy adabiyotni o‘rganish maktab o‘quvchilarining bilim doirasini kengaytiradi, his-tuyg‘usi, tilini boyitadi.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida estetik tarbiya. O‘quvchilar turli to‘garaklarga: musiq asboblarini chalish, bal raqslari, rassomchilik badiiy gimnastika, sinxron suzish sport sekqiyalariga qatnashish, tikish-bichish to‘garaklariga qatnashish bilan birga teatr, muzey, kino va baletlarni tomosha qilish, tarixiy obidalar va tabiat qo‘yniga ekskursiyalar uyushtirish shular jumlasidandir.

Kiyim-bosh estetikasi. xulq-atvor estetikasi singari katta ahamiyatga ega. Bolalar chiroyli kiyinishlari kerak. O'quvchilarimizda estetik didni tarbiyalayotganimizda ularda yil fasllari va sharoitga qarab chiroyli, oddiy kiyinish, ayrim o'quvchilarning serhasham, ko'r-ko'rona moda ketidan quvishlariga to'g'ri baho bera olish qobiliyatlarini ham tarbiyalash lozim. Demak estetik didni shakllantirishda, estetik saviyani ko'tarishda estetik tarbiya berishning ahamiyati nihoyatda muhimdir.

Shaxsning estetik madaniyatini shakllanishi ko'p jihatdan estetik kamolotiga ta'sir o'tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga bog'liq. Shunday tashqi va ichki shart-sharoitlar estetik tarbiya omillari deb ataladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun ma'lum bir sharoitlarni yaratish lozim. Bolalarni o'rab turgan muhit, turmush estetikasi ana shunday eng muhim omildir. Agar muhit estetiklikka asoslangan bo'lsa, agar bola odamlar orasidagi xushmuomala munosabatni ko'rsa, tevarak-atrofdan olingan taassurotlar ijobiy tavsifga ega bo'lsa, u kichikligidanoq estetik borliqni o'zi uchun me'yor sifatida qabul qiladi. Turmush estetikasi o'zida ko'plab detallarni qamrab oladi. Shuningdek, bolalarni borliqni va uning go'zalligini tahlil etib borishga o'rgatish lozim: "Seni ko'ylagingga qaysi rangdagi tufli mos tushadi, deb o'ylaysan?", "Uyimiz devoriga ko'proq qaysi rangdagi parda to'g'ri tushadi: ko'kmi yoki yashil?". Mazkur holatda bolaning aynan javobining o'zi muhim emas, asosiysi uning e'tiborini rangning mos kelishi yoki kelmasligiga qaratish, shuningdek, bolada u ham go'zallik yaratishi mumkinligi haqidagi xulosani hosil qilishga erishishdir. Estetik tarbiyaning eng muhim omili - tabiatdir. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, tabiat hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan go'zallik manbai. U estetik his-tuyg'u, kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun boy material beradi.

Ayniqsa, tabiat badiiiy obrazlar orqali ifodalansa, yanada o‘zining estetik jihatini yaqqol namoyon etadi. Masalan: Quddus Muhammadiyning “Bolalar ” she’rida ana shu jihat yorqin aks etgan:

Fyv-g‘uv uchar bolari, Duv-
duv uchar bolari.
Guldan-gulga
qo‘nishib, Sharbat ichar
bolari. Sen qadrdon
do‘stimiz, Asaling eb,
o‘sdik biz. Yasab
berayin quti,
Bog‘chamizda qol, ari!

Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go‘zalligi hatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Uning tuyg‘ular va hayollarda saqlangan go‘zalligi bolalikda ayniqsa, chuqur va yorqin idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi. Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang - barangligiga, uning o‘zgarishi va uyg‘unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg‘otadi, unga muxabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab - avaylashga o‘rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko‘rib, atrofdagi go‘zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar. Manashu jihatdan estetiktarbiyaning yana bir omili sifatida mehnat yuzaga chiqadi. MTM er maydonchasi va tabiat burchagidagi o‘simlik va xayvonlarni kuzatish hamda parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, go‘zallik yaratish xohishini shakllantiradi hamda qizg‘in faoliyatga undaydi. Yilning yoz fasllarida polizda, gulzorda, er maydonchasida mehnat qilish jarayonida ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzda o‘z mehnati mevasini eyish bolaga alohida estetik huzur bag‘ishlaydi. Dala va bog‘larga sayrga borganda tabiatning go‘zalligi va boyligidan, u erdagi dehqonlarning

yaratuvchilik mehnatlaridan benihoya zavqlanishadi. Estetik tarbiya omillari orasida san'at muhim o'rin egallaydi.

San'at - ijtimoiy ong va faoliyatning o'ziga xos shakli bo'lib, tevarak-atrof va borliqni badiiy obrazlarda aks ettirilishidir. Estetik tarbiyaning eng muhim omili sifatida sanat nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish, balki ularni yaratishni ham o'z ichiga oladi. Badiiy qadriyatlarni yaratishga jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi ularda estetik did - farosat va talab-ehtiyojlarning rivojlanishiga, ijodkorlik qobiliyatlarini rag'batlantirishga olib keladi. MTMda bolalarni estetik jihatdan tarbiyalashda san'atning xilma-xil turlari va janrlaridan, xususan musiqa va tasviriy san'atdan foydalaniladi. Estetik tarbiyaning vositalaridan yana biri qo'g'irchoq teatri.

Qo'g'irchoq teatri dunyoning ko'plab xalq va elatlariga qadim zamonlardan buyon ma'lum. U jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qo'g'irchoq teatri har qaysi davlatda turli shaklda, turli hajmda, o'ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish - bolalarning iqtidori, ob'ektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: "Yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap borar ekan, yana bir muhim masala xususida to'xtalib o'tish o'rinli, deb o'ylayman. U ham bo'lsa, dunyoga hayrat ko'zi bilan boqib, undan o'zicha ma'no topishga intiladigan murg'ak farzandlarimizning qiziqishi va hissiyotlariga mos qo'g'irchoq va o'yinchoqlar ishlab chiqarish masalasidir". Zero, qo'g'irchoq teatri vositasida bolaning atrof-muhit, hayot haqidagi tasavvurlari, taassurotlari, u yoki bu xodisalarni tushunish, go'zallikni ko'ra bilish va his etishga ma'suliyat hissi oshadi. Qo'g'irchoq teatrining bolalarning estetik tarbiyalashda nihoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi, shuningdek, badiiy so'z, musiqa, qo'shiq, raqs,

tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi bola ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'g'irchoq teatri vositasida estetik sifatlarini shakllantirish jarayonida quyidagi bosqichlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- o'tkazilishi rejalashtirilgan teatr oldi suhbat (bolalarda teatr qahramonlarining o'ziga xos tabiati, xatti-harakatlari haqidagi tasavvurlarini savol-javob asosida aniqlash);
- teatrning ta'sirchan, his-tuyg'u va mazmunga boy tarzda o'tkazilishi;
- teatr namoyishidan so'nggi suhbat (bolalarning voqealar, ularning mazmun-mohiyatini haqidagi fikrlari).

SHuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy didini o'stirishda kitoblar muhim rol o'ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu, mazmun bilangina emas, shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir. Ayniqsa, ikki - uchli yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri katta bo'ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta - qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchog'iga "o'qib" berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Bolalar tomonidan eng ko'p o'qiladigan kitoblar ertaklardir.

Ertaklar qisqa syujetli, tilining hayotiy va jonliligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari ertak qahramonlarining bolalarga yaqin va tanish ekanligi ham ular bilan birga hayratlanish, voqealarni qiziqish bilan eshitish imkonini beradi. Estetik tarbiya MTMda rasm chizish, qirqib elimlash, loy ishi kabi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Ana shu nuqtai nazardan bolalarni estetik tarbiyalashda tasviriy san'at muhim rol o'ynaydi. Bolalarning badiiy-estetik tasavvurlari tevarak- atrofdagi jonli va jonsiz narsa-hodisalarni turli usullar (rasm chizish, qirqib-elimlash, loydan narsalar yasash, tikish), an'anaviy (akvarel buyog'i, bo'r, qalam, mo'yqalam, flomaster, rangli qalam va iplar, qog'oz, karton, elim, igna) va noan'anaviy (paxta, gubka, barmoqlar yordamida, sham, gugurt cho'plari) vositalar orqali tasvirlashda

namoyon buladi. Bularni badiiy-estetik savodxonlikning dastlabki elementlari sifatida qabul qilish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy ko'nikma va malakalarni oson o'zlashtiradi. Ikki-uch yoshli bola qalam va mo'yqalamni to'g'ri ushlash malakasini oson egaplaydi, undan foydalanishni qiyinchiliksiz o'rganib oladi. Olti yoshda bola bir qancha ko'nikma va malakalar zahirasiga ega bo'ladi va ulardan yangi predmetlarni tasvirlashda kerakli usullarni qo'llab, mustaqil ravishda o'z aqlu idrokiga tayangan holda foydalanishi mumkin. Tarbiyaviy faoliyatda shunday vositalar qo'llaniladiki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday vositalari estetik tarbiya vositalari deb ataladi.

Estetik tarbiya omillari va vositalari o'rtasidagi chegara nisbiy hamda shartlidir. Muayyan sharoitlarda estetik tarbiya omillari estetik tarbiya vositalari vazifasini o'tashi, aksincha, bo'lishi xam mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar asosida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning har bir yosh guruhida estetik tarbiya berishning metodlari ishlab chiqiladi:

- Ongni fikrlash qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan metodlar.
- Odatlantirish va mashq qildirish metodi (takrorlash, o'rgatish, musobaqalar uyushtirish, ibrat, namuna, o'git).
- Rag'batlantirish va jazolash metodi (ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, namuna qilish, qatorning boshida turg'azish, rahmatnoma e'lon qilish, ogohlantirish, tushuntirish, ota-onasiga murojaat etish).

Bolalar bog'chasidagi estetik tarbiyaning asosiy vositalari quyidagilardir:

- ijtimoiy muhit va turmush estetikasi;
- san'at asarlari; bolalarning ijodiy faoliyatlari;
- bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar;
- ma'lum maqsadga qaratilgan va reja asosida amalga oshiriladigan tizimli ta'lim.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya bolalarni har tomonlama barkamol tarbiyalashning muhim omili bo‘lib, aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan chambarchas bog‘langan holda amalga oshiriladi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Estetik tarbiya atamasi va tushunchasi.
2. Estetik so‘zining ma’nosi nima?
3. Estetik tarbiya shakllarini aytib bering.
4. Estetik tarbiyaning vazifalarini sanab bering.
5. Estetik tarbiya berish vositalariga qaysilar kiradi?
6. Estetik tarbiya bolada qanday shakllantiriladi?
7. Estetik ehtiyoj nima?
8. Estetik rivojlanish nima?
9. Estetik qiziqishning ko‘rinishlari.
10. Estetik tarbiya berish metodlari haqida gapiring.

Mavzu yuzasidan test savollari:

- 1. Kimning ta’biri bilan aytganda: “Yoshlarning ma’naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g‘oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap borar ekan, yana bir muhim masala xususida to‘xtalib o‘tish o‘rinli, deb o‘ylayman. U ham bo‘lsa, dunyoga hayrat ko‘zi bilan boqib, undan o‘zicha ma’no topishga intiladigan murg‘ak farzandlarimizning qiziqishi va hissiyotlariga mos qo‘g‘irchoq va o‘yinchoqlar ishlab chiqarish masalasidir”.**

- a) O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov
- b) Xalq yozuvchisi Abdulla Oripov
- c) Kompozitor Mutal Burxonov

d) Erkin Vohidov

2. Qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqarolarning har tomonlama rivojlanishiga, nimalarning hamohangligini qaror toptirishga yo‘naltirilgan edi?

a)“ruh va badan”

b)“jon va tan”

c)“jonli va jonsiz koinot”

d)“borliq va insoniyat”

3. Estetik tarbiyaning ma’nosi nima?

a. (lot “estezio” - go‘zallikni his etaman)

b. (forscha “estezio” - go‘zallikni his etaman)

c. (yunon “estezio” - go‘zallikni his etaman)

d. (lot “estetiko” - go‘zallikni his etaman)

4. Estetik rivojlanish nima?

a. Estetik rivojlanish - shaxsning estetik ongi, munosabati va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqtni talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik rivojlanishi ijtimoiy - tarixiy va estetik tajribani ijodiy o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keladi.

b. Estetik rivojlanish — kishi borliqni, badiiy faoliyatni, uning har xil ko‘rinishlarida estetik idrok etishga undovchi sub’ektiv omildir.

c. Estetik rivojlanish - shaxsni san’at asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga yo‘naltiradi.

d. Estetik rivojlanish bir qatorda badiiy tarbiya tushunchasi ham mavjud. Badiiy tarbiya san’at asarlari adabiyot, musiqa, ashula, tasviriy san’at va boshqa vositalar asosida tarbiyalashdir.

5. Estetik qiziqish nima?

- a) Estetik qiziqish - shaxsni san'at asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga yo'naltiradi. Estetik qiziqish ehtiyojni yuzaga keltiradi. Estetik tarbiya tushunchasi bilan bir qatorda badiiy tarbiya tushunchasi ham mavjud. Badiiy tarbiya san'at asarlari adabiyot, musiqa, ashula, tasviriy san'at va boshqa vositalar asosida tarbiyalashdir.
- b) Estetik qiziqish - kishi borliqni, badiiy faoliyatni, uning har xil ko'rinishlarida estetik idrok etishga undovchi sub'ektiv omildir.
- c) Estetik qiziqish bir qatorda badiiy tarbiya tushunchasi ham mavjud. Badiiy tarbiya san'at asarlari adabiyot, musiqa, ashula, tasviriy san'at va boshqa vositalar asosida tarbiyalashdir.
- d) Estetik qiziqish - shaxsni san'at asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga yo'naltiradi.

6. Estetik tarbiyaning vazifalarini ko'rsating.

- a) Estetik tarbiyaning vazifalari - o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, fikr mulohaza, tushuncha, did tarbiyalashdan, ularning ijodiy qobiliyatlarini, estetik ehtiyojlarini, turmushni go'zal qilishga intilish fazilatlarini taraqqiy ettirishdan iboratdir. Estetik tarbiya tevarakatrof, hayotdagi go'zalliklarni idrok qilish bilan birga estetik his-tuyg'ularni o'stirishni ham o'z ichiga oladi.
- b) Estetik tarbiyaning vazifalari – har tomonlama o'z haq va huquqlarini bilish, har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.
- c) Estetik tarbiyaning vazifalari – o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotning shaxsni, uni o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirish turg'un bo'lgan an'analardir.

- d) Estetik tarbiyaning vazifalari – ijtimoiy me’yor va xulq qoidalarini ongli bajarishda namoyon qilinadigan shaxsning xususiyati, axloqiy va irodaviy sifatdir.

18 – mavzu:Ekologik tarbiya.

- 1. Ekologik tarbiya haqida tushuncha**
- 2. Sharq allomalarining tabiat va ekologiya haqidagi fikrlari.**
- 3. Bolalarni tabiat yordamida tarbiyalash haqida g‘arb pedagoglari fikrlari.**
- 4. Bugungi kundagi ekologik muammolar.**
- 5. Bolalarda ekologik ong elementlarini shakllantirish.**

Tayanch tushunchalar:ekologiya tabiat go‘zalligi, aqliy, ahloqiy, jismoniy, iqtisodiy,ekologik,estetik, tarbiya, tarbiyachi, mahorat, tarbiyaviy imkoniyat.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bu jarayonning samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ham har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tiklash va huquqiy, psixologik - pedagogik sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Voyaga etayotgan avlodni ekologik tarbiya muammosi avvalambor hozirgi zamon olimlarining tabiat va jamiyatdagi o‘zaro bog‘liqliklarini diqqat bilan kuzatishlari natijasida kelib chiqdi. Hozirgi kunda inson va tabiatning o‘zaro munosabatlar xarakteri er sharida hayotni saqlab qolish bilan bog‘liqdir.Ushbu muammolarning dolzarbligi, ekologik va biologik qonuniyatlarni hisobga olmagan holda tabiiy resurslardan foydalanish,sanoat ishlab chiqarishning tez sura’tlar bilan o‘sib borishi va nihoyat,tabiatda inson faoliyati orqali yuzaga kelgan aniq ekologik xavf vujudga kelganligi bilan asoslanadi.

Olimlar tabiat jamiyat bir-biriga ta'sirning o'ziga xosligini tahlil qilish orqali, hozirgi zamon sharoitida tabiat va jamiyatning yangi turiga o'tishni ta'minlash kerak degan xulosaga keldilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyasi muhim ahamiyatga ega, chunki xuddi mana shu yoshda informatsiyalarning 70%ni qabul qiladilar, ma'naviy madaniyatning bir qismi hisoblangan shaxsiy ekologik madaniyatning poydevor asoslari shakllanadi. Bolalarning ekologik tarbiyasi maqsad sari yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Shaxsni ekologik tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish munosabatlariga ijobiy yondoshish, tabiat bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni amalga oshirishda ekologik muhofaza nuqtai nazaridan yo'naltirilgan intizom, ekologik ongning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Shaxsning ekologik madaniyati ekologik tarbiyaning natijasi bo'lib hisoblanadi. Maktabgacha yoshda bolaning shaxsiy ekologik madaniyatining tarkibiy qismi – tabiatni bilish bo'yicha bilim va uning ekologiya nuqtai nazaridan yo'naltirilganligi, kundalik turmush, turlituman faoliyatlarda: - (uy sharoiti, mehnat jarayoni va turli xil o'yinlarda) foydalanishni tashkil qiladi. Ekologik tarbiya insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik tarbiyaning maqsadi – insonni o'rab turgan tabiiy muhit va uni boyliklarini biladigan, uni saqlaydigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni etishtirishdir.

“Ekologiya” atamasi yunoncha so'z bo'lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o'rganadigan fandır.

Inson onadan tug'ilib, olamga kelgan chog'danoq tabiat ehsonidan bahramand bo'ladi. Ilk bor havodan to'yib nafas oladi. Odamzot o'sib-unishi uchun oziq-ovqat, suv, quyosh harorati juda zarur bo'lib, u bularning xammasini tabiatdan oladi. Odamzotning sog'lom bo'lishi, uni o'rab olgan atrof-muhitga, tabiatga bog'liq. Tabiat musaffo bo'lsa, odam ham sog'lom, baquvvat o'sadi. O'simliklar dunyosi, ramziy ma'noda aytganda, havoni, chang va karbonat angidrididan tozalab beruvchi bebaho vositadir. Shuning uchun inson qo'ldan kelgancha ko'proq daraxt ekishi, ko'kalamzorlashtirishga intilishi zarur. Ota-bobolarimiz daraxt ekish, bog' - rog'

yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir to‘p mevali daraxt ekkan kishining ikki dunyosi obod bo‘ladi deb bejiz aytishmagan. Bahor faslida ko‘chat ekish oyligi o‘tkaziladi. Nihollarni yaxshi niyat bilan ekish, parvarishlash, gullar ekib o‘stirish har bir o‘quvchi va kattalarning insoniy burchidir.

Ekologik tarbiyada o‘quvchilarni o‘z maktabini, yashaydigan muhiti, shahar, qishloq ko‘chalarini ko‘kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekish, uy xayvonlariga qarash kabi ishlarda kuchi etganicha qatnashishga jalb etish katta ahamiyatga ega.

Ekologik savodxonlik va madaniyatavvalo oiladan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog‘liqdir. Agar bu masala oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, uni maktablarda, keyingi ta‘lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo‘ladi.

Tabiat bilan tanishtirish bolalarni aqliy jihatdan o‘shiga ta‘siri kattadir. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta‘lim-tarbiya jarayonida ularning ongida atrofni o‘rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muhimdir. Haqiqatni to‘g‘ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasi, bolalarda tabiat haqida noto‘g‘ri tushunchalar hosil bo‘ladi. Noto‘g‘ri tushunchalarni tuzatish yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. SHuning uchun bolalarda maktabgacha ta‘lim yoshidanoq, his etilish, qabul qilib olish va zehniy rivojlanish tajribalariga asoslangan holda tabiat haqida ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi juda muhimdir.

Fikrlash faqat idrok qilish bilan bog‘langan so‘zlar yordamida hosil qilinish I.P.Pavlov ta‘limotiga ko‘ra, insonning tabiatdagi narsa va hodisalardan olayotgan ta‘siri birinchi signal sistemasini, ularni ifodalovchi so‘z esa, ikkinchi signal sistemasini hosil qiladi. Bilishning hissiy tomoni birinchi signal sistemasi bilan bog‘liq, bu ko‘rgazmali, obrazli tafakkurga asoslangan bo‘lib, miya po‘stlogidagi muvaffaqiyatli bog‘lanishni o‘z ichiga oladi, ya‘ni tashqi dunyodagi narsa va hodisalarni sezishda, idrok qilishda va tasavvurda bevosita aks etadi. Bilimning ratsional tomoni, abstrakt tafakkur, ya‘ni tushunchalarning hosil bo‘lish jarayoni

ikkinchi signal sistemasi bilan bog‘liqdir. Ikkinchi signal sistemasi tashqi dunyo bilan faqat birinchi signal sistemasi orqali aloqa olib boradi, shuning uchun tafakkur sezgi va idroksiz bo‘lish, biron narsa haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmay turib tushuncha hosil qilinishi mumkin emas.

“Hissiy bilimning fiziologik asosi — ko‘rish, eshitish, hid bilish, teri, harakatlantiruvchi va boshqa analizatorlarning birgalikdagi faoliyatidir” - degan edi I.P.Pavlov. O‘zlashtirishda qancha ko‘p analizatorlar birgalikda ishtirok etsa, tasavvur va tushuncha shunchalik aniq, boy va ma’noli bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta’lim-tarbiya jarayonida ularning ongida atrofni o‘rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muhimdir. Haqiqatni to‘g‘ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasi, bolalarda tabiat haqida noto‘g‘ri tushunchalar hosil bo‘ladi. Noto‘g‘ri tushunchalarni tuzatish yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalarda maktabgacha ta’lim yoshidanoq, his etilish, qabul qilib olish va zehniy rivojlanish tajribalariga asoslangan holda tabiat haqida ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi juda muhimdir. Bog‘cha yoshidagi bolani tabiat bilan tanishtirishda uni zavqlantirish, estetik his-tuyg‘ularni hosil qilish oson ish emas. Uning tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilishi, ulardan bahramand bo‘lishi, qalbida havas, qiziqish, hayajonlanish hislarining uyg‘onishi uchun oylar, yillar kerak bo‘ladi. Bolani estetik tarbiyalashni tabiatga sayohat, sayrlar yoki bog‘cha hovlisidagi hushmanzara gullarni, chiroyli bog‘ hovlilarini kuzatish orqali amalga oshirsa bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat orqali estetik ruhda tarbiyalashni tabiatning istagan faslida amalga oshirish mumkin.

Axloqiy tarbiya deganda, yosh avlodni Vatanga, insonlarga muhabbat, ularning mehnatiga hurmat tuyg‘ulari, intizomlilik, xulq-atvor madaniyati, tengdoshlar orasidagi do‘stlik, tinchlik, inson xarakterining irodaviy xislatlari hamda shaxsning ijobiy, axloqiy sifatleri, poklik, to‘g‘rilik, kamtarlik, xullas barcha oliyjanob xislatlarni mujassamlashtirish ruhida tarbiyalash tushuniladi. Yosh avlodda bu xislatlarni kamol toptirish uchun tabiat vositasidan keng foydalanish kerak. Bu

murakkab jarayon boʻlib, uzoq vaqt, kerak boʻlsa yillar davomida qilinadigan mehnatning mahsuli hisoblanadi. Tabiat vositasida axloqiy tarbiya berish uchun bogʻcha hovllilariga ekilgan gullarni parvarish qilish jarayonida har bir gulni, niholni asrash, uni parvarish qilish, gullarning tagini yumshatish, sugʻorish, begona oʻtlardan tozalash, shakl berish, oʻgʻit yoki goʻng solish kabi ishlarni bajarish jarayonlarini amalga oshirish mumkin. Bu erda tarbiyachining ahamiyati katta. Masalan, tarbiyachi bolalarga gullarni parvarish qilayotganda ularning ham jonli organizm ekanligini, biz qanday nafas olsak, ular ham nafas olishini, biz qanday ovqatlansak, ular ham bizdek “ovqatni yaxshi koʻrishini”, oʻsimlikning ovqati goʻng, oʻgʻit ekanligini, biz yuvinish, taranishni qanday yaxshi koʻrsak, gullar ham “yuvinishni”, “taranishni” yaxshi koʻrishini va buning uchun gullarni tagini vaqti - vaqti bilan yumshatib, suv berib turish kerakligini, barglariga chang yuqtirmasdan yuvib, artib turish kerakligini oʻrgatishi zarur. Shuningdek tarbiyachi bolalarga odamlar yorugʻlikni, quyoshni qanday yaxshi koʻrsa, gullar ham yorugʻlikni, quyoshni shunchalik yaxshi koʻrishini shuning uchun ham ularni soya yoki qorongʻi erga saqlash mumkin emasligini ularga uqtirishi zarur. Tabiat vositasida bolalarga axloqiy tarbiya berishning yoʻllari juda koʻp va xilma-xildir. Biz yuqorida faqat uning baʼzi birlarini eslatdik, xolos. Uni har bir tarbiyachi oʻz sharoiti, oʻz milliy urf-odatlarini asosida amalga oshirsa, nur ustiga aʼlo nur boʻlar edi. Bolalarning oʻsimliklar oʻstirish va hayvonlarni parvarish qilishda ishtirok etishlari ularda har bir ishda javobgarlikni his qilishga va mehnatsevarlikka oʻrgatadi.

Insonning maʼnaviy shakllanishida, mazmunli hayot kechirishida jismonan sogʻlom boʻlishining ahamiyati beqiyos kattadir. Xalqimiz “tani sogʻliq - tuman boylik”, “toʻrt muchaling sogʻ boʻlsin” deb bekorga aytmagan. Bu naqllarning tuman-tuman maʼnosi bor. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning organizmi juda tez rivojlanadi. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasidan maʼlumki, bolalar 7 - 8 yoshgacha boʻyiga har yili 5 smgacha oʻsib, tana ogʻirligi 2-2,5 kgga ortib boradi. Keling esa biroz sekinlashadi. Bundan koʻrinib turibdiki, bolaning jismonan sogʻlom oʻsishini yoshlikdan taʼminlash kerak. Bogʻcha yoshidagi bolalarni jismonan sogʻlom

tarbiyalash uchun nimalarga e'tibor berish zarur? Bunda qanday tarbiya vositalaridan foydalanish kerak, degan haqli savollar tug'ilishi mumkin.

Bolalarni jismonan to'g'ri tarbiyalash uchun quyidagi shartlarga qat'iy rioya qilish kerak:

- gigienik ko'nikmalar hosil qilib tarbiyalash (bino, hovli, jihozlar, kiyimbosh, poyafzal gigienasi);
- tibbiyot xodimlariniig doimiy nazoratida (sog'lig'i, antropolitik ma'lumotlari, fiziologik holati) bo'lish;
- bog'chadagi bolalarning kun tartibini tuzish (ovqatlanish, uyqu, o'yin, mashg'ulot, sayrlar, organizmni chiniqtirish).

Bog'cha yoshidagi bolalarga tabiat vositasida jismoniy tarbiya bsrishda ochiq havoda sayr qildirish, tog' etaklari, daryo bo'ylariga sayohatga chiqish, shahar ichidagi istirohat bog'larida bo'lish, ular bilan bog'cha hovlisida ishlash, harakatli o'yinlar tashkil qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosi bilan tanishish, hayvonot bog'larida bo'lish kabilar bolani jismoniy tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bog'cha hovlisidagi gullarni parvarish qilish, tagini yumshatish, sug'orish, gulzorni begona o'tlardan tozalash, gullarga mineral va madaniy o'g'itlar solish kabi ishlar bolalarni ham mehnatsevarlikka, ham jismonan sog'lom bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda er maydonchasi, bog'cha hovlisining mavjudligi ahamiyatga ega. Bola ochiq havoda sayr etar ekan, nafas olish organlarining rivojlanishi bilan birga tanasining boshqa a'zolari mustahkamlanadi, sog'lom o'sishi uchun sharoit yaratiladi. Tabiat vositasida jismoniy tarbiya berishning turlari juda ko'p bo'lib, ulardan oqilona foydalanish kerak. Bolalarning ekologik tarbiyasi - pedagogikaning bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturlarida o'z ifodasini topgan ana'naviy yondoshish, keyingi yillarda yuzaga kelgan yangi bir yo'nalishdir.

Donishmandlik durdonasi hisoblangan hadislar ta'lim-tarbiyani singdirishga katta yordam beradi. Tabiatni muhofaza qilish haqidagi hadislarda ham diqqatga sazovor fikrlar aytilgan.

Masalan, “Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do‘zohga mahkum etur” deb insonlarni qo‘rqitish orqali tabiatga zarar keltirmaslik targ‘ib qilinsa, “Dehqonchilik muborak kasbdir” deyish bilan halol mehnat samarasini ko‘rish zarurligini uqtiriladi. Hozirgi kunda ham tabiatni muhofaza qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Atrof-muhitni ozoda saqlash, inson salomatligini saqlash garovidir.

Sharq allomalarining tabiat va ekologiya haqidagi fikrlari. O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat merosiga ega. Eng mo‘‘tabar, qadimgi qo‘lyozmamiz “Avesto” xalqimizning bebaho mulki sanaladi. Bu nodir kitob bundan o‘ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma‘naviy tarixiy merosidir. “Avesto”, ayni zamonda, bu qadim o‘lkada buyuk davlat, yuksak ma‘naviyat va madaniyat bo‘lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir. “Avesto” tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlarini ma‘naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg‘unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o‘rganishga chorlaguvchi falsafadir. “Avesto”da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma‘lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to‘g‘risida tavsiyalar berilgan. “Avesto”da er, suv, xona, inson tana a‘zolari, kiyim-kechaklarni toza tutish haqida yozilgan. Atrof-muhit, ko‘chalarni, butazorlaru o‘tloqlarni, erni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. Shuningdek, muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko‘mib tashlash buyurilgan. Asarda kasallik tarqatuvchi hasharotlarni yo‘qotish, shuningdek, uy hayvonlarini to‘g‘ri parvarish qilish yo‘llari ham ko‘rsatilgan.

O‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, AlFarg‘oniy va boshqalar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e‘zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Buyuk alloma Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) risolalaridan birida bunday deb yozadi: “Bilingki, daryoning ko‘zlari yoshlansa, uning boshiga g‘am, kulfat tushgan bo‘ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig‘ tutmanglar!” Daryoning “yoshli ko‘zlari” deganda Muhammad Muso al-Xorazmiy nimalarni ko‘zda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo‘lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng avvalo daryo bilan odamlarning “birbirlarini tushunishlari”, o‘zaro mehr-muhabbat qo‘yishlarini nazarda tutgan. 847yilda Muhammad al-Xorazmiy “Kitob surat al-arz” nomli asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit‘alar, qutblar, ekvatorlar, cho‘llar, tog‘lar, daryo va dengizlar, ko‘llar va o‘rmonlar, ulardagi o‘simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek, erning asosiy boylklari hamda boshqa tabiiy resurslar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek dunyo xalqlarining tabiiy ko‘nikmalari va tarixiy - huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

O‘rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlarining eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning (873-950 y.y.) ilmiy-falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to‘liq aniqlanmagan. Nemis olimi M.K.Brokkelmanning ro‘yxatida Forobiyning turli sohalarga oid 180 ta asarining nomi keltirilgan. Forobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug‘ullangan bo‘lib, uning “Kitob al-hajm va al-miqdor”, “Kitob al-mabodi al-insonia” (“Insoniyatning boshlanishi haqida kitob”), “Kitob al-a’zo alhayvon” (“Hayvon a’zolari to‘g‘risida kitob”) nomli asarlari bunga dalil bo‘la oladi. Tabiatshunoslikka oid “Odam a’zolarining tuzilishi”, “Hayvon a’zolari va ularning vazifalari haqida” kabi asarlarida odam va hayvonlardagi ayrim a’zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham to‘xtab o‘tilgan. Odam a’zolarining tuzilishi va vazifalari haqida so‘z yuritilganda o‘zgarishlar, ya’ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi.

Forobiy tabiiy va inson qo‘li bilan yaratiladigan sun’iy narsalarni ajratgan. SHuningdek, u tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilganligini va bunda inson

omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 y.y.) koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari, narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim erdagi ba'zi hodisalarni quyoshning ta'siri orqali izohlaydi. Beruniyning fikricha, erdagi o'simlik va hayvonot olamining yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan. Lekin o'simlik va hayvonlar doimo ko'payishga intiladi va shu maqsadda kurashadi. Beruniyning tabiatshunos sifatida quyidagicha fikrlari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan: "Ekin va nasl" qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsada, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi. Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit bo'lmay, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarida bu ahvol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydi. Bordi-yu er yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o'toq qilib, keraksizini yulib tashlaydilar". Beruniy asarlarida o'simlik va xayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, "Saydana", "Mineralogiya", "Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar" asarlarida o'z aksini topgan. Unda Eronning turli tropik o'simlik va xayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning hulq-atvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liqligi misollar bilan tushuntirilgan. Beruniy er yuzining o'zgarishi o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishi bilan, tirik organizmlarning turli hayoti er tarixi bilan bog'liq bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Qumni kovlab, uning orasidan chig'anoqni topish mumkin. Buning sababi, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo'lgan, deb ta'kidlaydi alloma. Beruniy "Saydana" degan asarida 1116 xil dori- darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Beruniyning "Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston" asarlarida o'simlik va hayvonlarning tuzulishi hamda ularning tashqi muhit bilan

o‘zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Beruniy o‘zining tabiiy ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar ma’lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan ta’sir etuvchi har qanday kuch o‘zgartirish qobiliyatiga ega emas, degan xulosaga keladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037 y.y.) yirik qomusiy olim sifatida tanilgan. Uning 450 ta asari mavjud bo‘lib, bizgacha 240 tasi etib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida “Tib qonunlari” shox asari tibbiyot ilmining qomusi bo‘lib, o‘rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho‘qqisi bo‘lib hisoblanadi. Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur “Kitob ash-shifo”, ya’ni “Davolash kitobi” asarida bayon etilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan. Ibn Sinoning tog‘larning vujudga kelishi, er yuzining davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib borishi, zilzilaning bo‘lishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geologiya ilmining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 y.y.). Bobur nafaqat shoir balki podsho, ovchi, tarixchi, bog‘bon va tabiatshunos bo‘lgan. “Boburnoma” asarida Bobur o‘zi ko‘rgan-kechirganlari, yurgan joylari tabiati, boyligi, urf-odati, hayvonoti, o‘simliklarini tasvirlagan. Asarda er, suv, havoga tegishli xalq so‘zlari ko‘plab uchraydi. Bobur o‘z asarida joyning geografik o‘rni, qaysi iqlimga mansubligi, o‘simliklari, hayvonlari haqida bayon etgan va O‘rta Osiyoda qadim vaqtlardan buyon qovun, bug‘doy, o‘rik, nok va mevalarning bir necha navlari borligi haqida ta’kidlagan. Asarda Bobur borgan joylarning tabiati va o‘ziga xos hususiyatlarini Andijon bilan taqqoslagan, hamda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Xuroson va Hindistondagi xayvonot dunyosi haqida batafsil bayon etib bergan. O‘rta asrlarda yashab ijod qilgan sharq allomalarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar.

Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Bolalarni tabiat yordamida tarbiyalash haqida g'arb pedagoglari

Ta'lim-tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalarini yaxshi bilmasdan turib yosh avlodni tabiat bilan tanishtirishda ularni maqsadga muvofiq tarbiyalab bo'lmaydi. Buning uchun xalq manfaatlarini aks ettiruvchi tarbiyaning maqsadlari to'g'risidagi tasavvur qanday vujudga kelgan va bu tasavvurlar keyinchalik qanday rivojlanganligi hamda pedagogik tomondan qanday ta'rif va tavsif berilganini eslash maqsadga muvofiqdir.

Shuni aytish kerakki, hayotda har bir fanning yuzaga kelishi hayotiy zarurat natijasidir. Tarbiya esa pedagogikaning bosh vazifasidir. Bolalarni tabiat yordamida tarbiyalash haqida g'arb pedagoglari tarixda pedagogika nazariyasi asoslarini shakllantirishda qadimiy Gretsiyaning atoqli filosoflari Platon va Aristotel, italiyalik pedagog Mark Fabi Kvintilianlarning qarashlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Lekin yoshlarni tabiat elementlari vositasida tarbiyalash eng avvalo g'arbdagi ilg'or pedagoglarning tarixidan boshlandi. Ilmiy pedagogikaning rivojlanishini boshlab bergan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasiga katta e'tibor bilan qaragan g'arb pedagoglaridan biri Yan Amos Komenskiy bo'ldi.

Chexiyalik mashhur pedagog Ya.A.Komenskiy bashariyat tarixidan demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o'rin olgan. U o'zining ongli hayotini va amaliy pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek oliyjanob ishga bag'ishlagan. Uning fikricha, inson tabiatning eng go'zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin. O'zining "Buyuk didaktika", "Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi", "Fizika", "Falakiyot", "Onalar maktabi", "Tinchlik farishtasi" kabi asarlarida o'zining muhim pedagogik g'oyalarini ifodalagan. Ya.A.Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o'xshatgan. "Onalar maktabi" xushbo'y o'simliklar, g'uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi. "Ona tili" maktabi yozga va ayrim erta pishgan

mevalarga o'xshaydi. "Gimnaziya"da dalalar, bog' va terakzorlardagi mo'l hosilni yig'ib, uni "aql xazinasiga" joylayotgan kuz faslini eslatadi. Va nihoyat, "Akademiya" yig'ilgan hosilni umr bo'yi sarflashni mo'ljallab taqsimlayotgan kishiga o'xshatiladi. Ya.A. Komenskiy "Onalar maktabi"da 18 ta fandan ma'lumot olishni tavsiya etgan.

Uning fikricha olti yashar bola:

- suv, er, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o't, qush, baliq kabilarni; - yorug'lik va qorong'ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni;
- o'zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog', vodi, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerak.

Ya.A. Komenskiy hamma narsani tabiatga bog'lab tushuntirgan. U o'quvchilar diqqatini jalb etish uchun kitoblarning nomini qiziqarli nomlab, mazmunini to'liq ifodalab bergan. Uning aytishicha, bu sohada mavjud narsalardan eng chiroylisi bog'ning turli manzaralaridan namuna olishdir. Masalan, nega endi 1-sinf uchun bitilgan kitobni "Gunafsha jo'yagi", 2-sinf kitobini - "Atirgul tupi", 3-sinf kitobini - "Istirohat bog'i" va hokazo deb nomlash mumkin emas? __ Ya. A. Komenskiy.

Ulug' chex gumanist- pedagogi A. Ya. Komenskiy (1592—1670) katolik diniga va feodallar zulmiga qarshi chiqqan "Chex birodarlari" jamoasi yo'l boshchilaridan biri edi. U bilishning uch manbai — sezgi, aql va e'tiqodga va sezgi organlariga alohida e'tibor berdi. Uning fikricha, tabiiy mavjudot bo'lgan inson doimo rivojlanishdadir. Shu sababdan ham u tarbiya tufayli "har qanday bolani inson qilib etishtirish" mumkin, deb ta'kidlagan edi. Komenskiy nazariy - bilish masalalariga materialist sifatida yondoshdi. Birinchi bo'lib u tarbiyani tabiat bilan uyg'unlashtirish g'oyasini, ya'ni tarbiyani asoslashda tabiat hayotga, uning umumiy qonuniyatlariga tayanish g'oyasini ilgari surdi. Komenskiy tabiatga monandlik prinsipini tabiat va inson rivojlanishidagi universallik, mushtaraklik borligini aniqlab, inson kamol topishining (bolalik, o'smirlik, o'spirinlik, etuklik) davrlarini

xarakterlab, ular orasida olti oy davom etadigan dastlabki davrga alohida e'tibor berdi. "Buyuk didaktika", "Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi", "Fizika", "Falakiyot", "Onalar maktabi", "Tinchlik farishtasi" kabi asarlarida o'zining muhim pedagogik g'oyalarini ifodalagan. Ya.A.Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o'xshatgan. "Onalar maktabi" hushbo'y o'simliklar, g'uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi. "Ona tili" maktabi yozgi va ayrim erta pishgan mevalarga o'xshaydi. "Gimnaziya"da dalalar, bog' va terakzorlardagi mo'l hosilni yig'ib, uni "aql xazinasiga" joylayotgan kuz faslini eslatadi. Va nihoyat, "Akademiya" yig'ilgan hosilni umr bo'yi sarflashni mo'ljallab taqsimlayotgan kishiga o'xshatiladi. Komenskiy onalar maktabi bolalarga konkret tasavvurlarni to'plashi uchun yordam berishi kerak, deb aytadi va u maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar egallashi zarur bo'lgan atrof-muhit haqidagi, tabiat haqidagi oddiy bilimlarning keng doirasini batafsil chizib berdi. Uning fikricha, tabiatshunoslik sohasida etti yashar bola olov, havo, suv va er, yomg'ir, qor, muz, qo'rg'oshin, temir va shu singarilar nima ekanligini bilishi, Quyosh va Oy, yulduzlarni farqlay olishi, qaysi paytda kunlar uzun va qaysi paytda qisqa bo'lishini bilishi kerak. Geografiya sohasidagi bilimlar esa shahar, qishloq, dala, bog' nima ekanligini tushunish, o'z qishlog'i yoki shaharning nomini bilishini o'z ichiga olishdan iborat bo'lishi va bundan tashqari, yil fasllarini, "soat", "kun", "hafta", "oy", "yil" atamalarini tushunishi kerak, deb ta'lim berdi.

Komenskiyning pedagogika, ta'lim-tarbiya, falsafa, tabiat, ilohiyotga oid 250 dan ortiq asari bor. Bulardan yiriklari "Buyuk didaktika" (1657), "Pansofiya maktabi" (1651), "Onalar maktabi" (1632), "Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari" (1653), "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning aksi" (1658) kabilardir. Ya. A. Komenskiyning bundan qariyb uch yarim asr muqaddam yaratgan nazariyasi yoshlarni tarbiyalash, tabiat bilan tanishtirishdagi dastlabki qadam bo'ldi. Ya.A.Komenskiy bolalarni tarbiyalashda tabiatning ahamiyatini o'zining boshqa asarlarida ham ochib bergan.

I.G.Pestalotssi (1746—1827)- Shveysariyalik shifokor oilasida tug‘ilgan. Taniqli pedagog- demokrat, maktabgacha tarbiya nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlardan biri. U o‘z zamonasining mashhur pedagogi bo‘lgan. Uning fikrlari haligacha pedagogika sohasida qo‘llanib kelinadi. U “Gertruda o‘z bolalarini qanday qilib o‘qitadi”, “Kuzatish alifbosi”, “Son to‘g‘risida ko‘rsatmali ta‘lim”, “Oqqush qo‘shig‘i” kabi asarlarni yaratdi. I.G.Pestalotssining fikricha, bolaga berilayotgan tarbiya tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. U Ya.A.Komenskiy, Jan Jak Russolarning ushbu g‘oyasiga amal qildi: “Insoniy kuchlarning o‘ssishi uchun tabiat qilayotgan harakatga yordam berilmasa, bu harakatlar odamlarni xayvoniy-hissiy xususiyatlardan sokinlik bilan qutqaradi. To‘g‘ri tarbiya esa ularni, ya‘ni barcha insoniy kuchlarni o‘stirishga yordam beradi”.

I.G.Pestalotssi bolalarning aqliy kamolotini o‘stiruvchi quyidagi didaktik qoidalarni olg‘a suradi:

1. Ta‘limning tabiat bilan uyg‘unligi.
2. Oddiydan murakkabga yo‘naltirish.
3. Bolaning kuch va qobiliyatiga moslashtirish.
4. Ko‘rgazmalilik.

I.G.Pestalotssi boshlang‘ich ta‘lim xususiy metodikasining asosini yaratdi. Bunda u ona tili, hisob, geografiya, o‘lkashunoslik fanlaridan elementar ta‘lim berish mazmunini asoslab berdi va bola tilini boyitish uchun geografiya, tibbiyot fanlarining ham uzviy ravishda olib borilishini tavsiya etgan edi. I.G.Pestalotssi dunyo pedagogika fanining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib, o‘z asarlari bilan o‘ziga haykal yaratgan olimdir Pestalotssi tarbiya sistemasi oldiga bolalarni garmonik jismoniy mehnat, axloqiy va aqliy kamol toptirish vazifasini qo‘ydi. Aqliy tarbiya sohasida u pedagogika tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ikkita muhim qoidani aytgan. Birinchisi, ta‘lim jarayonida ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish zarurligini isbotlash va targ‘ib qilishdir. Pestalotssi hissiy idrokni bilishning boshlanishi deb hisoblar va shuning uchun u bolalarda tabiatni kuzatish madaniyatini shakllantirish zarur, deb talab qilardi. Ikkinchisi rivojlanuvchi ta‘lim g‘oyasi edi. Unda ta‘lim

jarayonini shunday tashkil qilish kerak ediki, bu narsa ma'lumotlarni to'plashgagina emas, balki bolalarning qobiliyatini rivojlantirishga olib borsin, ularni kelajakdagi mustaqil faoliyatga tayyorlasin. Pestalotssi fikricha, tarbiyaning maqsadi insonlarning barcha tabiiy kuchlari va qobiliyatlarini har tomonlama hamda uyg'un o'stirishdan iborat. Uning elementar ma'lumot nazariyasiga ko'ra tarbiyalash oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin murakkab darajagacha ko'tarilib borishi kerak. Uning "Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi" (1801), "Onalar kitobi" (1806), "Oqqush qo'shig'i" (1826) kabi asarlari pedagogika fanini rivojlantirishda, tarbiyachilarning ma'rifatparvarlik faoliyatlarida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Rus milliy pedagogikasining asoschisi K.D.Ushinskiy 1824-yili Rossiyaning Tula shahrida tug'ilgan. U "Bolalar dunyosi", "Ona tili", "Muallimlar uchun qo'llanma" asarlarini yozgan. K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktabdagi ta'lim mazmunini asoslab berish bilan birga undagi qonun-qoida, tartib, metod va vositalarini ham ishlab chiqib, didaktika faniga katta hissa qo'shdi. Bu esa ajoyib yangilik sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. U eng avvalo o'qitishni bolalar mehnati bilan bog'lashni tavsiya qildi. K.D.Ushinskiy chet el maktablarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyani o'rganib, o'zining "Pedagogik adabiyotning foydasi", "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" hamda "Ona so'zi" asarlarini yozdi. K. D. Ushinskiy (1824— 1870), pedagog, Rossiyada pedagogikani rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan. K.

D. Ushinskiy pedagogika nazariyasining asosini tarbiyaning xalqchilik g'oyasi tarixiy jarayonda mehnatkash xalqning yaratuvchilik kuchini e'tirof etish tashkil qiladi, deydi. U "Inson tarbiya predmeti sifatida" degan mashhur asarida har bir bolaning yosh va psixik xususiyatlarini albatta hisobga olish zarurligi haqidagi eng muhim qoidani olg'a surdi va asoslab berdi. Shuning uchun ham u "Pedagogika insonni har jihatdan tarbiyalashni istar ekan, u avvalo insonni har jihatdan o'rganishi kerak",— deb yozgan edi. K. D. Ushinskiy maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda tabiat bilan tanishtirishga, estetik va axloqiy tarbiyaga katta o'rin ajratdi. Uning fikricha, bola faqat axloqiy tarbiya tufayligina odam bo'ladi. Bundan tashqari tarbiyaga doir asarlar bayonining soddaligi, ravshan va yuksak badiiyligi

bilan ajralib turishi kerak, derdi. Uning o‘zi ham bunga qat’iy amal kilardi. Shu sababli uning yozgan “Ona tili” darsligi ana shunday talablarga to‘liq javob beradi. Darslik mazmunining boyligi, tili va metodikasi jihatdan o‘z davrining eng namunali o‘quv kitoblaridandir. U yoshlarni tarbiyalashda tabiat go‘zalligiga yuksak baho berdi. Tabiat go‘zalligidan foydalanishni aytdi. Bolalarni tabiatni sevishga va uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini orttirish yo‘llarini ko‘rsatdi. Bolalardagi kuzatish qobiliyatini oshirish, fikrlash xususiyatini rivojlantirish, tabiat haqida to‘g‘ri tushunchalarga ega bo‘lish, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarni payqay bilish ruhida tarbiyalash kerakligini uqtirdi.

J. J. Russo (1712— 1778) fransuz filosof-ma’rifatchi. U ta’lim - tarbiya sohasida o‘ziga xos nazariya yaratgan. Materiyaning hech kim tomonidan yaratilmaganligini va ob’ektiv mavjudligini J. J. Russo tan olgan, lekin materiyaning mohiyatini bilib bo‘lmaydi, deb hisoblagan. Russoning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari uning dunyoqarashining asosi hisoblanadi. U kishi biron - bir jamiyatda yashashi kerak, “tabiiy holat”ga qaytib bo‘lmaydi, deb hisoblab, tabiatga yaqin ideal jamiyat haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Uning fikricha, tarbiyaning asosiy maqsadi mehnatsevar kishilarni etishtirishdir. Russoning pedagogik asarlarida, ayniqsa uning “Emil yoki tarbiya to‘g‘risida” degan roman - traktatida tarbiya va yoshlarni tarbiyalashda tabiatning roli atroflicha yoritilgan. U ushbu asarida bolalarni mehnatga tayyorlash zarurligi haqidagi fikrni aytib, yoshlarni tarbiyalashda jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiyaning ahamiyatini, tabiat bilan muloqotda bo‘lishining ahamiyatini ta’kidladi. Bu g‘oyalar o‘z davrining aktual, falsafiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlaridan sanaladi.

F. Frebel (1782— 1852) nemis pedagogi, o‘zining maktabgacha tarbiya nazariyasi bilan katta dong taratgan. F. Frebel tarbiya deganda insondagi to‘rtta tug‘ma instinkt: faoliyat, bilish, badiiy va diniy instinktlarning rivojlanishini tushunardi. U bola tarbiyasida tabiatga uyg‘unlik prinsipini kashf qilib, bunda bolalardagi ilohiy ruhni aniqlashdan iborat, deb bilardi. Uning fikricha, tarbiya insonga tabiat in’om etgan narsaga hech narsa qo‘shmaydi, balki unda bo‘lgan

xislatlarni rivojlantiradi, xolos. Frebel tabiatdagi cheksiz rivojlanish haqida va insonning butun hayoti davomida kamol topishi haqidagi qimmatli va muhim fikrni keng tashviq qildi. U bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini oshirib borishda tarbiyachining roliga, mehnat ta'limiga katta baho berdi. Uning pedagogikada katta nom chiqarishiga sabab, u birinchi bo'lib "bolalar bog'chasi" atamasini joriy etdi. Bolalarning tarbiyalanishida, etilishi va rivojlanishida murabbiyalarning roli katta ekanligini aytib, bog'chalar bir bog'-u, murabbiyalar uning "bog'boni" deb ta'rif berdi. Frebel bolalarni tarbiyalashda didaktik o'yinlar va xilma-xil mashg'ulotlarning roli juda katta ekanligini alohida ta'kidladi. Bu o'yinlar vositasida tarbiya bolalarning tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning shakllanishida katta rol o'ynaydi, deydi.

Bolalarda ekologik ong elementlarini shakllantirish.

Bola ekologik ong elementlarini tushunish va tasavvur etish, tabiat to'g'risidagi bilimlarning xarakteri va mazmuni bilan aniqlanadi. Ularda, tabiiy hodisalarning o'zaro bog'liqligini namoyon qiluvchi ekologik mazmunga ega bo'lgan bilimlar bo'lishi kerak. Bolalarda tabiat bilan bog'liq bo'lgan turli xil bilim va malakalarni shakllantirish, faoliyat bilan bog'liq bo'lgan harakatlar tabiatni saqlash xarakteriga ega bo'lishi kerak. Tabiat bilan bog'liq holda olib borilayotgan aniq faoliyat davomida (dala hovli va tabiat burchaklarida o'simlik va hayvonlarga qarash, tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarda faol qatnashish) bolalar tirik organizmlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'simlik va hayvonlar uchun tabiiy sharoitga yaqin bo'lgan sharoitlarni tashkil qilishni o'zlashtiradilar.

Bunda, salbiy ishlarning oqibatlarini oldindan ko'ra - bilish, tabiatda o'zini qanday tutishni bilish, alohida olingan turkumlar va tirik organizmlarning butunligini saqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Kelajak avlodni barkamol kishilar qilib tarbiyalash shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada bolalarni tabiat bilan tanishtirish muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim muassasalarida ishlayotgan tarbiyachilar oldida bolalarda tabiat go'zalliklarini ko'ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz berayotgan voqea, hodisalar haqida to'g'ri

tushunchalar hosil qilish, ularga ekologik ta'lim-tarbiya berishdek muhim vazifa turadi.

Tarbiyachi eng avvalo o'zi tabiatni sevuvchi, jonli va jonsiz tabiat haqida aniq bilimlarga ega bo'lmog'i lozim. Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun "Bolajon" tayanch dasturida berilgan tabiatga oid bilimlar bilan tanishib chiqqan va har bir yosh guruh uchun berilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Tarbiyachi har bir faslda olib boradigan tabiat haqidagi bilimlarini to'g'ri rejalashtirishi, er maydonchasidagi o'simliklar, tirik burchakdagi xona o'simliklari, akvariumda, terrariumda yashovchilarni parvarish qilish ko'nikmalarini, qafasdagi qushlar va mayda sut emizuvchilar bilan tanishtirishni to'g'ri yo'lga qo'yishi zarur. Tarbiyachi bolalarni yuqoridagilar bilan tanishtirar ekan, ularning dunyoqarashini shakllantirib, jonli va jonsiz tabiatning xususiyatlarini o'rganib, - ular haqida dastlabki tushunchalar beradi. Pedagogikada metod — pedagog va ta'lim oluvchining (bolaning) ma'lum ta'lim-tarbiyaviy natijasi: bilimlarni egallash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o'stirisha axloqiy sifatlar, xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun yo'llangan hamkorlikdagi faoliyatining usulidir. Bolalar bog'chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Tabiat bilan tanishtirish metodlari uchta asosiy guruhga bo'linadi:

1. Ko'rgazmali uslub — kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm, kinofilm, ekskursiyalar;
2. Amaliy uslub — o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar;
3. Og'zaki uslub — tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat. Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o'z o'lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Tabiat bilan tanishtirishning koʻrgazmali uslubi. Kuzatish uslubi. Turli yosh guruhlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi koʻrgazmali metod kuzatishdan keng foydalanadi.

Kuzatish - tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yoʻnalgan va bevosita hodisalarni borishga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati boʻlib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaror diqqat talab etiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini oʻstirishda gʻoyat katta ahamiyatga egadir.

Bu haqda K.D.Ushinskiy shunday deydi: “Haqiqiy insoniy, aqliy nutq, toʻgʻri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, toʻgʻri mantiqiy fikr yuritish esa, biz koʻrsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi”. Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan maʼlum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi. Kuzata bilish — juda muhim xususiyat boʻlib, bunda bolada toʻgʻri yoza bilish, ogʻzaki nutq malakalari rivojlanadi. Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda oʻzlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga oʻrgatish zarur. Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar oʻrtasidagi aloqa va sabablarning bogʻlanishlarini ilgʻab olishni bolalarga oʻrgatishi kerak. Shunday qilib maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarning tafakkurlari tabiat haqidagi aniq bilimlarni toʻplash orqali oʻsadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish bilangina olib borilishi mumkin. Kuzatish, yaʼni narsa va hodisalarga diqqatni maqsadga muvofiq holda jalb qilishga oʻrgatish bilan biz ularda ixtiyoriy diqqatni ham oʻstiramiz. Notoʻgʻri tushunchalarni tuzatish, yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalar maktabgacha taʼlim yoshidayoq, his qilish tajribalariga asoslangan holda, tabiat haqida toʻgʻri tushunchalarga ega boʻlishlari juda muhimdir. Bolalarda tabiatga qiziqishni tarbiyalash zarur, chunki u sogʻlom boʻlmagan faoliyatlarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar qoʻngʻiz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb,

ularning qanot va oyoqlarini uzib tashlaydilar. Yoki hayvonlarni, qushlarni qiynab, natijasi nima bo‘lar ekan, deb qiziqadilar. Ularga tabiatning o‘zaro bog‘liqligini, ya’ni uning “oltin zanjir” ekanligini tushuntirish zarur. Bu orqali bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berib boriladi. Tabiat bilan yaqin munosabatda bo‘lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishga ham qiziqishni o‘rgatadi. Buning asosida taxminiy va tekshiruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning xarakterli xususiyatidir, deb hisoblaydi I.P.Pavlov. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni kattalarga “Bu nima?”, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?” kabi cheksiz savollari bunga misol bo‘la oladi. Bu o‘rinda tarbiyachi savollarga javob topishda bolalarning o‘zlarini jalb qilishga harakat qilishi zarur. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning turli yosh guruhlarida tarbiyachi kuzatishlarni tashkil etar ekan, uning turli xillaridan foydalanadi. Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo‘yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli hamda qiyoslash (solishtirma) bo‘lishi mumkin. O‘simlik va hayvonlarni o‘sishi hamda rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg‘arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi — uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. Bunda bolalarning ob’ektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashlariga to‘g‘ri keladi. Kuzatish narsalarning ayrim belgilariga qarab holatlarini aniqlash (masalan, gulning bargiga qarab uni sug‘orish, akvariumdagi suvning holatiga qarab suvni almashtirish, yoki qordagi izga qarab qaysi qushning izi ekanligi, mevalarning pishgan yoki xomligini rangiga qarab ajratish) maqsadida ham tashkil etiladi. Kuzatishning bu turi bolalarda tabiat hodisalarini analiz qilish, ayrim ma’lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini hosil bo‘lishiga yordam beradi. Solishtirma va uzoq muddatli kuzatishlar mazmuniga ko‘ra murakkab bo‘lganligi sababli, maktabgacha ta’lim, o‘rta, katta hamda maktabga tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Bu kuzatuvlar davomida bolalarda analiz qilish, qiyoslash, xulosalar chiqarish jarayoni takomillashadi. Kuzatishlar mazmuniga va tarbiyachining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra o‘simlik va hayvonlar, ob-havo hamda kattalarning tabiatdagi mehnati bilan ekskursiya, sayrlarda, shuningdek tabiat burchagidagi mashg‘ulotlarda

tashkil etiladi. Qisqa muddatli kuzatish jarayonida bolalar narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvi, xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri, ularning chiqaradigan tovushlarini o‘rganadilar. Bu kuzatish turiga masalan, qor yoki yomg‘ir yog‘ishi, kamalakning hosil bo‘lishi kabi holatlar kiradi. Barcha hollarda kuzatish bolalarning yuksak aqliy faoliyatini rivojlantirishi, ularni fikrlashga, berilgan savollarga javob topishga undashi, shuningdek, ulardagi qiziqishlarni rivojlantirishi va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni tarbiyalashi lozim. Tarbiyachining kuzatishga tayyorlanishi. Kuzatishni tashkil etishda ob‘ekt tanlash katta ahamiyatga ega. Tanlangan ob‘ekt yaxshi holatda, bo‘lishi kerak, ya‘ni o‘simlik so‘limagan, navlari o‘ralmagan, hayvon qo‘lga o‘rgatilgan, sog‘lom, bolalardan cho‘chimaydigan bo‘lishi zarur. Kuzatish tabiat burchagida bo‘lsa, ob‘ekt yaxshi yoritilgan bo‘lishi, unga yaqinlashish qulay bo‘lishi uchun yorug‘lik yon tomondan tushib turishi lozim. Bolalar hayvonlarning harakatini kuzata turib, ovqat berishlari, silashlari, ular bilan o‘ynashlari mumkin. Bunda xayvonlar o‘zlarini erkin tutishlari, bemalol harakat qilishlari zarur. Buning uchun bolalar tabiat burchagida qulay joylashib o‘tirishlari maqsadga muvofiqdir.

Kuzatishni boshqarish. Tarbiyachi kuzatishni birinchi marotaba o‘tkazayotgan bo‘lsa, dastlab bolalarda hosil bo‘lgan qiziqishlarini qondirish hamda kuzatilayotgan narsa haqida birinchi taassurot hosil qilish uchun ularni kamida 1—2 daqiqa tomosha qildirib turadi. Kuzatishni boshqarish jarayonida tarbiyachi xilma-xil usullardan bolalarning yoshlariga mos savol va topshiriqlar, narsani ushlab ko‘rish, qiyoslash, o‘yin harakatlaridan foydalanadi.

Tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish. Bu kuzatishlar o‘rta yosh guruhlardan boshlab o‘tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish birgina ob‘ektни kuzatishdan ko‘ra ancha murakkabrokdir. Bu o‘rinda tarbiyachi o‘z diqqat-e‘tiborini taqsimlay bilishi, bolalardagi harakatni uyushtira olishi talab qilinadi, bolalar esa tarbiyachining barcha ko‘rsatmalariga aniq rioya qilishlari, bir-birlarini tinglashlari, boshqalarning kuzatishlarini o‘zlarining kuzatishlari bilan taqqoslashlari kerak bo‘ladi. Kuzatishning bu usuli katta rivojlantiruvchi ahamiyatga egadir. Bolalar turli xil

tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanib, o'quv ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida ularda aniqroq tasavvurlarning shakllanishiga yordam beradi.

Amaliy uslub va uning turlari. O'yin. Tabiatning oddiy hodisa va tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma-xil o'yinlardan keng foydalaniladi. Bu o'yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o'zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik, harakatli va ijodiy o'yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o'yinlar. Didaktik o'yinlarda bolalar o'zlarida tabiatdagi narsa va hodisalar, hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko'pgina o'yinlar bolalarni umumlashtirish hamda turkumlashga o'rgatadi. Didaktik o'yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o'sishiga yordam beradi, yangi sharoitlarda bolalarni mavjud bilimlaridan foydalanishga o'rgatadi, turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi, lug'atni boyitadi, bolalarda birgalikda o'ynash ko'nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda predmetli, stol-bosma va og'zaki didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Predmetli o'yinlar — barglar, urug'lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o'ynaladigan “Ajoyib qopcha”, “Mevalar va ildizlar”, “Bu butoqda imning bolakaylari” va shu kabi o'yinlardir. Bu o'yinlar yordamida bolalar faol muloqotda bo'ladigan predmetlarning xususiyat hamda belgilari haqidagi tasavvurlari aniqlanib boyitiladi. Predmetli o'yinlar, ayniqsa kichik va o'rta yoshli guruhlarda keng qo'llaniladi. Bu o'yinlar bolalarga tabiat jismlarining o'zidan foydalanish, ularni qiyoslash, hamda ularda sodir bo'ladigan ayrim tashqi belgilaridagi o'zgarishlarni qilish imkonini beradi. Predmetli o'yinlar barcha yoshda guruhlarining biroz murakkablashtirilgan bilimlarini kengaytirish tafakkurlarini kuchaytirish hamda harakatlarini rivojlantirish o'z ichiga oladi.

Stol-bosma o'yinlari — “Yilning to'rt fasli”, “Kichkintoylar”, “Mevalar”, “O'simliklar”, “Barglarni terib ol”, juft rasmlar va shu kabilardir. Bu o'yinlar

bolalarning o‘simliklar, hayvonlar jonsiz tabiat hodisalari haqidagi bilimlarini o‘zlashtirish, aytilayotgan so‘zga qarab predmetni tasvirlash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O‘yin so‘z bilan birgalikda olib boriladi so‘z yoki rasm idrok etilishidan oldin keladi yoki o‘yin bilan uyg‘unlashib ketadi. Bunday o‘yinlar ozchilik bolalar bilan o‘tkaziladi.

Og‘zaki o‘yinlar - (“U nima uchun uchadi, yuguradi, sakraydi”, “Suvda, havoda, erda”, “Kerak-kerak emas” va shu kabilar) hech qanday jihoz talab qilinmasligi tufayli juda maqbuldir. Ular u yoki bu predmetlarning vazifalari hamda harakatlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirish va bir tizimga solish maqsadida o‘ynaladi. Bu o‘yinlar diqqatni, zehnni, qabul qilish tezligini, ravon nutqni rivojlantiradi. Tabiatga oid o‘yinlarni o‘rganish barcha didaktik o‘yinlar uchun umumiy bo‘lgan qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Kichik yosh guruhlarda dastlabki bosqichlarda tarbiyachi o‘yinni bolalar bilan birga o‘ynaydi, o‘yin davomida u bir qoidani aytib, uni shu zahotiy oq tadbiq qiladi. Takroriy o‘yinda esa qo‘shimcha qoidalarni aytadi. Ikkinchi bosqichda tarbiyachi o‘yinda faol qatnashmaydi, chetdan rahbarlik qilib, o‘yinni boshqarib turadi. Uchinchi bosqichda bolalar mustaqil o‘ynaydilar. O‘rta yosh guruhdan boshlab o‘yinga o‘rgatish usuli o‘zgaradi. Avval tarbiyachi o‘yinning mazmunini aytib, oldindan 1 - 2 ta muhim qoidani ajratib ko‘rsatadi. O‘yin davomida u bu qoidalarni yana bir bor ta’kidlaydi. O‘yin harakatlarini ko‘rsatadi, qo‘shimcha qoidalarni beradi. Keyingi bosqichda bolalar mustaqil o‘ynaydilar. Tarbiyachi o‘yinni kuzatib turadi, xatolarni to‘g‘rilaydi, nizolarni bartaraf qiladi. O‘yinga qiziqish susaygan vaqtda tarbiyachi o‘yinning boshqa turlarini taklif qiladi.

O‘yin mashqlari va o‘yin-mashg‘ulotlar. Aytib o‘tilgan o‘yinlardan tashqari bolalar bilan bo‘ladigan ish jarayonida ko‘pincha o‘yin mashqlaridan (“Bargiga qarab daraxtni top”, “Ta’midan bilib ol”, “Xuddi shunga o‘xshash gulni top”, “Sariq bargni olib kel” va boshqalar) foydalaniladi. O‘yin mashqlari narsa va hodisalarni sifati hamda xususiyatiga ko‘ra farqlashga o‘rgatadi, kuzatuvchanlikni o‘stiradi. Bu o‘yinlar butun guruh bolalari bilan yoki ularning bir qismi bilan o‘tkaziladi. O‘yin

mashqlari kichik va oʻrta guruhlarda alohida ahamiyatga egadir. Didaktik oʻyin mashgʻulotlar “Ajoyib qopcha”, “Gul magazini” kabi oʻyinlarni oʻz ichiga oladi. Ular maʼlum mazmunga ega boʻlib, oʻyin - mashgʻulotlarga qiziqarlilik kiritadi. Bunda oʻqitish oʻyin qoidalari, harakatlari orqali bevosita olib boriladi. Oʻyin mashgʻulotlardan kichik va oʻrta guruhlarda foydalaniladi, katta guruhlarda esa ular mashgʻulotning bir qismini tashkil etadi.

Harakatli oʻyinlar. Tabiatshunoslik xarakteridagi harakatli oʻyinlar hayvonlarning hatti-harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bogʻliq boʻlib, baʼzilarida jonsiz tabiat hodisalarini aks ettiradi. Bu “Ona tovuq va joʻjalar”, “Mushuk va sichqonlar”, “Quyosh va yomgʻir” va shu kabi oʻyinlardir.

Ijodiy oʻyinlar. Oʻyinda bolalar mashgʻulot, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan taassurotlarni aks ettiradilar (parrandachilik fabrikasi, issiqxona va shu kabilardagi ishlar), ular haqidagi bilimlarni egallaydilar, bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanib, kattalarning tabiatdagi mehnatlarining ahamiyatini anglab oladilar. Ijodiy oʻyinlarning mustaqillik xarakteri tarbiyachiga bolalarni yangi bilim, malaka va koʻnikmalardan oʻrgatish metodi sifatida foydalanish imkonini bermaydi. Biroq bunda tarbiyachi bolalar qaysi bilimlarni etarlicha egallaganlaru, qaysilarini yana kengaytirish lozimligini bilib olish uchun ijodiy oʻyinlarni diqqat bilan kuzatib borishi lozim. Tarbiyachi tabiatshunoslik mazmunidagi ijodiy syujetli, rolli oʻyinlarni boyitib, ekskursiyalar, sayrlar vaqtida bolalarni kattalarning mehnati haqidagi bilimlarini kengaytiradi, diafilmlar koʻrsatadi, kitoblar oʻqib beradi. Oʻyinni rivojlantirishda qishloq mehnatkashlari — sut sogʻuvchi, bogʻbonlar haqidagi hikoyalar bolalarga alohida taʼsir koʻrsatadi. Shu bilan birga ularda kattalar mehnatiga nisbatan qiziqish uygʻotib oʻyin mazmunini boyitadi. Tabiatshunoslik mazmunidagi ijodiy oʻyinlarni avj oldirish uchun sharoit yaratish yaʼni zarur oʻyinchoqlar — qishloq xoʻjalik mashinalari, xayvonlar va shu kabilar bilan taʼminlash darkor. Ijodiy oʻyin turlaridan biri tabiiy materiallar — qum, loy, mayda toshchalar, soʻta va shu kabilar bilan boʻynaladigai oʻyinlardir. Materiallar yordamida bolalar ijod qilar ekan ularning xususiyatlari va sifatlarini bilib oladilar.

Har bir yosh guruxda yilning fasliga mos tabiiy material bilan o‘ynash uchun sharoit yaratiladi. Bular qum maydonchalari stollari, qum va qor bilan o‘ynash uchun shakl to‘plamlari, odamlar va hayvonlarning rezinkadan yasalgan figuralari, uy, daraxtlarning fanerdan yasalgan silueta, butalar, shoxchalar chakamug, metall karkaslar bo‘lib, bular yordamida figuralar yasaladi. Tarbiyachi bolalarga o‘yin uchun tabiiy materiallarni tanlashda va ulardan foydalanishda yordam beradi hamda foydalanish usullarini ko‘rsatadi.

Tabiatda bolalar mehnati. Bolalarning tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat qilish jarayonida bolalarda tabiatga bo‘lgan munosabatlar shakllanadi. Tabiatdagi mehnat bolalarda berilgan topshiriqqa mas‘uliyat bilan yondoshishni tarbiyalaydi. Biroq buning uchun bolalar zarur mehnat malakalarini egallab olgan bo‘lishlari, o‘z mehnatlarining ahamiyatini tushunishlari lozim. Tabiatdagi mehnat maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Tarbiyachi bolalarni mehnat orqali maqsad va natijalarga erishish, narsalarni sensor belgilarini nazarda tutishga o‘rgatadi. Masalan, o‘simlikning suvga muhtojligini aniqlash uchun uning holatini — barg va poyasining elastikligi, pishiqligi yoki uningso‘lg‘inligi, yumshoqligini, tuproqda esa — uning namligi, zichligi va shu kabi belgilarni hisobga olish lozim. Mehnat jarayonida bolalar o‘simliklar holatining yorug‘likka, namlikka, issiqlikka, yaxshi tuproqqa bo‘lgan ehtiyojlarini qondirilishiga bog‘liq ekanligini anglab oladilar. Bolalar muhitning o‘zgarishi, qonuniy tarzda o‘simliklar holatini ham o‘zgartirishini bilib oladilar. Bu munosabatlarni o‘zlashlirishlari ularning mehnatga bo‘lgan munosabatiga ham ta’sir etadi Bolalarda tabiatga qiziqish, mehnatsevarlik shakllanadi.

Tabiatdagi mehnat — kuzatuvchanlikni o‘stirish usullaridan biridir. Agar kuzatish mehnat bilan bog‘langan bo‘lsa, samaraliroq bo‘ladi. Tabiatdagi mehnat jarayonida tarbiyaviy vazifalardan tashqari ta’limiy vazifalar ham hal qilinadi. Bolalar mehnat orqali o‘simliklarning xususiyatlari va sifatleri, ularning tuzilishi, ehtiyojlari, rivojlanishining asosiy bosqichlari, o‘stirish usullari, o‘simliklar hayotidagi mavsumiy o‘zgarishlar haqida, xayvonlar, ularning tashqi ko‘rinishi, ehtiyojlari,

harakat qilishlari, hayot tarzlari va ularning mavsumiy o'zgarishlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Shu jumladan, hayvonlarni tabiat burchagida parvarish qilishni o'rganadilar va shu orqali mehnat malakalarini egallaydilar. Bolalarni tabiatdagi mehnati individual topshiriq shaklida va kollektiv mehnat tarzida tashkil etiladi. Individual topshiriq bolalar bog'chasidagi barcha yosh guruhlarda qo'llaniladi. Bular tarbiyachiga bolaning xatti-harakatini puxtaroq boshqarish: yordam ko'rsatish, qo'shimcha tushuntirish, maslahat berish, topshiriqning bajarilishini nazorat qilish, bolaning faoliyatini boshqarish imkonini beradi. Bularning barchasi malaka hamda ko'nikmalarning aniq va mustahkam shakllanishiga, shuningdek, topshirilgan ish uchun mas'uliyat his etish, g'ayrat bilan mehnat qilish odatining tarbiyalanishiga yordam beradi. Jamoaviy mehnat bir vaqtning o'zida guruhning barcha bolalarida mehnat malakalari va ko'nikmalarini tarbiyalashga imkon yaratadi. Mehnatning bu shakli kollektivdagi munosabatlarning tarkib topishi uchun zarurdir. Bunda mehnatning umumiy maqsadini tushunish, kelishib olish, o'z harakatlarini muvofiqlashtirish, ishni hamkorlikda rejalashtirish, o'rtoqlarga yordam berish, ularning mehnatini baholash kabi muhim ko'nikmalar shakllanadi. Bolalar mehnatini tashkil etish shakllaridan biri navbatchilikdir. Tabiat burchagida navbatchilik qilishni bolalar katta guruhda boshlaydilar. Mehnatning bu shakli mehnat malakalarini takomillashtirish, uning ijtimoiy sabablarini shakllantirish imkonini yaratadi. Bolalar mehnatiga rahbarlik qilish.

Kichik guruhlar. Bunda bolalar tarbiyachining tabiat burchagi va hovlidagi xayvonlar hamda o'simliklarni parvarish qilishga yo'llangan mehnatida ishtirok etadilar. Ular 12 ta individual topshiriqlar oladilar (qushlar uchun tayyor ozuqani olish va donxo'rakka solish o'simliklarni oldindan hozirlab qo'yilgan suv bilan sug'orish va shu kabilar. Bu qisqa muddatli mehnatga tarbiyachi asta-sekin barcha bolalarni jalb qiladi.

O'rta guruh. Besh yoshli bolalarni mehnat jarayonida uyushtirishning shakllari kichik guruhdagi bilan bir xildir. Bunda individual topshiriqlar katta o'rin egallasa ham biroq ular uzoq muddatli xarakterni kasb etadi. Bolalar ayni bir topshiriqning

o'zini 2—3 kun davomida bajaradilar. Natijada o'rta guruhda mehnat jarayoni murakkablashib boradi.

Katta guruhlar. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda faqat mehnatni tushunish ko'nikmasigina emas, balki mehnat topshirig'ini, uning natijasini ko'rsatishni, topshiriqlarning ketma-ketligini, kerakli anjomlarni tanlashni, mustaqil mehnat qila bilishni (tarbiyachining bir oz yordamida) ham tarkib toptirish lozim. O'simliklar va hayvonlarni parvarish qilish bo'yicha individual topshiriqlar uzoq muddatli ishga aylanadi. Katta guruhdagi bolalarda tabiat burchagida navbatchilik qilish joriy qilinadi. Navbatchilikni tashkil etar ekan, tarbiyachi mashg'ulot o'tkazib, unda bolalarni navbatchilikning majburiyatlari bilan tanishtiradi, tabiat burchagida yashovchi jonivorlarni parvarish qilish usullarini eslatadi, yangilari bilan tanishtiradi. Bir vaqtda 2-3 bola navbatchilik qiladi. Navbatchilikka yaxshi ishlaydigan bolalar bilan birga malakalari etarlicha shakllanmagan bolalar tanlanadi. Navbatchilik bolalarda javobgarlik hissini, ishbilarmonlikni tarbiyalaydi.

Tabiat bilan tanishtirishning og'zaki uslubi.

Suhbat. Didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda suhbat ikki turga – oldindan o'tkaziladigan suhbatlar va yakuniy suhbatlarga bo'linadi. Oldindan o'tkaziladigan suhbatlarni tarbiyachi kuzatishlar, ekskursiyalardan oldin qo'llaydi. Bunday suhbatning maqsadi bo'lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatishdir. Yakuniy suhbat o'rganilgan faktlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va aniqlashga yo'llanadi. Bu suhbatlar mazmunan turli darajada bo'lishi mumkin: ba'zi kuzatiladigan ob'ektlarning tor doirasini (masalan, issiqlarga uchib ketuvchi qushlar haqida, yovvoyi hayvonlarning o'rmonda qishlashi va shu kabilar), boshqalari hodisalarning keng doirasini (masalan, mavsumlar haqida suhbatlar) qamrab olishi mumkin. Suhbat - bu bolalar bilan o'tkazilgan mashg'ulotning yakunidir. Uning samaraliligi bolalarning tayyorgarliklariga bog'liq. Shuning uchun tarbiyachi bolalarni kuzatishlar, mehnat faoliyati, o'yinlar, tabiat haqidagi hikoyalar orqali suhbatga tayyorlashi lozim. Bolalarda nima haqida konkret tasavvur bo'lsa, faqat shu mavzu yuzasidan suhbat o'tkazish maqsadi yaxshi fikrdir. Tarbiyachi suhbatning

didaktik maqsadini aniq tasavvur qilishi ya'ni, uning mazmunini aniqlashi, umumlashtirishi hamda muhim tomonlarini ajratib, suhbat yakunida aniq bir xulosa chiqara olishi lozim. Suhbat hodisa, faktlarni analiz qilishdan, ularning xususiyatlari, belgilari, o'rtasidagi muhim aloqa hamda munosabatlarni ta'kidlashdan boshlanadi. Bunday analiz umumlashtirib o'tishni ta'minlaydi, tarqoq faktlarni bir tizimga soladi. Masalan: "Qaysi qushlar birinchi bo'lib uchib keladi? Qora qarg'ani qanday tanib oldik? Biz ularni qayerda ko'rganmiz? Qora qarg'alar dalada nima qilayotgan edi? Qora qarg'alar nima eydi". So'ng keyingi savol beriladi: "Nima uchun qora qarg'alar boshqa qushlardan oldin uchib keladi?" (chug'urchuq, qaldirg'och va shu kabi boshqa qushlar haqida ham shunday savollar beriladi). Suhbatning ikkinchi qismida "Nima uchun hamma qushlar bir vaqtda uchib kelmaydi?" kabi umumlashtiruvchi savolni berish mumkin. Ular mazmunan aniq, to'g'ri, qisqa bo'lishi kerak. Har bir savolda bitta fikr bo'lishi shart. Qisqa "ha" yoki "yo'q" javoblarini talab qiluvchi savollarni berib bo'lmaydi. Bunday savollar tafakkurning o'sishini, munosabatlarning aniqlanishini ta'minlamaydi. Tarbiyachi suhbat davomida bolalarning xulosa, umumtashtirishlarni o'zlari mustaqil boshqarishlariga g'amho'rlik qiladi. Suhbatda xilma-xil ko'rgazmali materiallardan ham foydalanish zarur. Bular tabiat jismlari, obhavo kalendarlari, gerbariyalar, illyustratsiyalardir. Bundan tashqari topishmoqlar, she'rlar, qushlar ovozining yozuvlari foydalidir. Bu bolalarda muhokama qilinayotgan hikoyaga nisbatan emotsional munosabat uyg'oladi. Suhbat bolalarni tabiat bilan tanishtirish uslubi sifatida, o'rta va maktabgacha katta yoshda qo'llaniladi. O'rta guruhda suhbat, asosan, hodisalarni eslatishga, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida esa mavjud bilimlarni umumlashtirish va sistemaga solishga yo'naltiriladi

Bugungi kundagi ekologik muammolar.

Mustaqil Respublikamizning dadil qadam qo'yishda aholining sihat-salomat bo'lishi, avlodni barkamol etishishi, ma'naviyatimizning yuqori bo'lishi, qadriyatlarimizni tiklashda eng asosiy omillardan biridir. Xalqimizning madaniyatini

yanada takomillashtirish, ayniqsa, sanitariya madaniyatini, ekologik ta'minotni yuqori bosqichlarga ko'tarish aholi orasida turli kasalliklarni oldini olishda eng zarur vazifalardandir.

Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri, ekologik vaziyat hisoblanadi. Jamiyatning atrof-muhit bilan o'zaro buzilgan aloqasi keng jamoatchilik o'rtasida katta tashvish uyg'otmoqda. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari ortiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Yashil o'rmonlar siyraklashib, o'simlik va hayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilmalar tugab bormoqda. Suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, chiqindi moddalarning ortib borishi natijasida, energiya va chuchuk suv muammolari borgan sari murakkablashmoqda.

Tabiatning ekologik barqarorligi, turg'unligi va uning tabiiy qonunlarining buzilishiga insonda ekologik bilimlarning etishmasligi, tabiatning kelajakdagi ekologik holati qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilmasligi sabab bo'lmoqda.

Ekologik bilim bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, er yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning sifatini, hajmini saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir.

Inson tabiatga, o'zini o'rab olgan muhitga nisbatan o'z munosabatini o'zgartirishi, tabiat qonunlarini bilishi shart. Tabiat qonunlariga mos keladigan hayot yo'llarini ishlab chiqish kerak. Aks holda inson va jamiyat katta tabiiy ofatlarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi va shu ofatlardan halok bo'ladi.

Bir necha million yillar davomida bunyod bo'lgan koinotning tabiiy ko'rinishi keyingi 10-15 yil ichida juda og'ir holatga tushdi, havo ifloslandi. Jumladan, tuproq zaharli moddalar tufayli "jarohatlandi", suvlar turli moddalar bilan ifloslandi va h.k. Bu holatlar oqibatda inson salomatligiga salbiy ta'sir qila boshladi, bu esa kelajak avlodimizning sog'lom bo'lishiga putur etkazishi mumkin.

Respublikamizda vujudga kelgan ekologik holatni oldini olish, atrof-muhitni zararlanishdan saqlash, atmosfera havosini musaffoligini suv havzalarini tozaligini muhofaza qilish borasidagi jon kuydirishlarimiz hozirda samarali natija bermoqda.

Dunyo suvlari mikroblar bilan ifloslanmoqda, havo bilan nafas yoʻllarining turli kasalliklarini keltirib chiqarmoqda, chunki musaffo havo tarkibini chiqindilar zaharlantirmoqda. Baʼzi joylarda ichimlik suvlarini etishmasligi, sanitariya va gigiena qoidalarini, shaxsiy gigiena qoidalarini buzilishiga olib kelmoqda.

SHuning uchun har bir insonning burchi ona Vatanni, bizni oʻrab turgan tabiatni muhofaza qilish va asrab-avaylashdan iboratdir. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan soʻng bu diyorni obod etish, atrof-muhitni toza saqlash, har bir fuqaroning insoniy burchiga aylandi. Ayniqsa yoshlar orasida ekologik taʼlim va tarbiya ishlarini jadallashtirish, ekologik bilimni oshirish talab etiladi.

Ekologik taʼlim va tarbiya bu – insonni tabiatga qadam qoʻygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, tabiiy boyliklarni koʻpaytirish, bogʻu - rogʻlar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uygʻotishdan iboratdir.

Hozirgi kunda jamiyat bilan tabiat oʻrtasidagi munosabatlar keskinlashib borayotgan bir vaqtda, atrof-muhit muhofazasi va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanishga oid chuqur bilimli, ekologik maʼlumotli yoshlarni tarbiyalash vaqti keldi.

Ekologik tarbiya jismoniy tarbiya va sportda ham muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya darslari va sport trenirovkalarida zalni ozodaligiga eʼtibor berish, zalni shamollatish, pol va matlarni maxsus tozalashdan oʻtkazish zarur. Chunki ular orqali baʼzi teri kasalliklari yuqishi mumkin. Mashgʻulotlar ochiq joyda oʻtkazilganda suv sepib supurishni bolalarni kundalik odatiga aylantirish kerak. Nafaqat trenirovka va jismoniy tarbiya mashgʻulotlari oʻtkaziladigan joy, balki yaqin atrofni ham ozoda saqlashga oʻrgatish ekologik tarbiya berishning muhim vazifalaridandir.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Tabiat bilan tanishtirishning imkoniyatlari nimalardan iborat?
2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda aqliy tarbiya qanday amalga oshiriladi?
3. Tabiatni estetik qabul qilishning ahamiyatini qanday tushunasiz?
4. Tabiat bilan tanishtirishda axloqiy tarbiyaning o‘rni?
5. Tabiat bilan tanishtirish metodikasida jismoniy tarbiyaning mohiyati nimada?
6. Tabiat bilan tanishtirish metodlari necha guruhga bo‘linadi va ular qanday guruhlar?
7. Kuzatish uslubining mohiyati nimada?
8. Tabiat bilan tanishtirishda tabiiy jismlarning ahamiyati qanday?
9. Kuzatish necha xil bo‘ladi? Ular haqida gapirib bering?
10. Kuzatishda tarqatma materiallardan foydalanishning ahamiyati qanday?
11. Amaliy uslub va uning turlari haqida gapirib berish.
12. Tabiatda bolalar mehnatining ahamiyati qanday?
13. Tabiat bilan tanishtirishning og‘zaki uslubi haqida gapirib bering.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. **“Hissiy bilimning fiziologik asosi — ko‘rish, eshitish, hid bilish, teri, harakatlantiruvchi va boshqa analizatorlarning birgalikdagi faoliyatidir” - degan edi**
 - a) P.F. Lesgaft
 - b) YA.A. Komenskiy
 - c) K.D.Ushinskiy
 - d) I.P.Pavlov

2. **.....shunday deydi: “Haqiqiy insoniy,**

aqliy nutq, to‘g‘ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to‘g‘ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko‘rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi”. Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma’lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi.

- a) I.G Pestalotsii
- b) P.F. Lesgaft
- c) YA.A. Komenskiy
- d) K.D.Ushinskiy

3. Tabiat bilan tanishtirish metodlarni ko‘rsating

- a) Ko‘rgazmali uslub amaliy uslub Og‘zaki uslub
- b) Induktiv va dedkutiv metod, bevesta ko‘rgazmali metod.
- c) Reprodukativ va muammoli ta’lim metodi, suhbat metodi.
- d) Mustaqil ish metodi, kitob bilan ishlash metodi.

4.Qaysi olim bola tarbiyasida tabiatga uyg‘unlik prinsipini kashf qilib, bunda bolalardagi ilohiy ruhni aniqlashdan iborat, deb bilardi?

- a) K.D.Ushinskiy
- b) F. Frebel
- c) J. J. Russo
- d) YA.A. Komenskiy

5.“Buyuk didaktika” (1657), “Pansofiya maktabi” (1651), “Onalar maktabi” (1632), “YAxshi tashkil etilgan maktab qonunlari” (1653), “Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning‘ aksi” (1658) kabi asarlar muallifini ko‘rsating.

- a) F. Frebel

- b) J. J. Russo
- c) YA.A. Komenskiy
- d) K.D.Ushinskiy

6.O‘ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan nodir, ma’naviy tarixiy merosi bo‘lgan kitob nomini toping.

- a) “Avesto”
- b) “Tib qonunlari”
- c) “Mineralogiya”
- d) “Temur tuzuklari

19 mavzu: Mehnat tarbiyasi.

- 1. Mehnat tarbiyasining mohiyati, maqsad va vazifalari.**
- 2. Sharq mutafikkirlari mehnat tarbiyasi haqida.**
- 3. Mehnat tarbiyasining shakllari.**
- 4. Mehnat faoliyati.**
- 5. Bog‘cha yoshida mehnat faoliyatining xususiyatlari**

Tayanch tushunchalar: mehnat, faoliyat, ehtiyoj, mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish, axloqiy xislat, o‘rtoqlik, hamkorlik, yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik ishni sifatli bajarish, moddiy boylik.

Mehnat tarbiyasining mohiyati, maqsad va vazifalari.

Mehnat tarbiyaning tarkibiy qismidir. U kishining va kishilik jamiyatining eng zarur yashash shartidir.

Inson nima bilan fahrlansa va u nima bilan e‘zozlansa, ularning hammasi mehnatning natijasidir. Mehnat barcha boyliklarning manbai bo‘lishi bilan birga, u inson hayotining mazmuni hamdir. Buning boisi shundaki, insonning o‘zini inson sifatida shakllantirgan ham, insonning qudrati nimalarga qodir ekanligini namoyish qilgan ham ana shu mehnatdir. Mehnat butun moddiy va ma‘naviy madaniyatning shuningdek ijtimoiy taraqqiyotning negizidir. Mehnat tarbiyasining vazifalari ko‘p qirralidir. U o‘quvchilarning mehnat faoliyatiga amaliy va axloqiy tayyorgarligining juda ko‘p tomonlarini qamrab oladi.

Mehnat tarbiyasining eng muhim vazifasi - yosh avlodda mehnat qilish istagi va intilishini tarkib toptirish hamda ularni turli sohalarda mehnat qilishga amaliy tayyorlashdan iborat bo‘lib, o‘quvchi - yoshlarda mehnatga ongli munosabatni shakllantiradi.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek muayyan ijtimoiy foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko‘maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishdir.

O‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlashda mehnat tarbiyasi muhim shartlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat mazmuni bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosi sanaladi.

Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko‘tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko‘lamda kompyuterlashtirish, iste‘mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda. Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo‘lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy - texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to‘laqonli xabardor bo‘lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo‘ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta‘lim muassasalarida mehnat ta‘limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo‘yadi. Mehnat tarbiyasining maqsadi o‘quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;
- o‘quvchilarda umumjamiyat manfaati yo‘lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart - sharoitni yaratish;
- ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik mehnat intizomi, tadbirkorlik tejamkorlik ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;
- o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Mazkur vazifalar tizimida o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi o'quvchilarning aqliy, ma'naviy - axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o'zaro bog'liq holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi.

CHunonchi: Aqliy tarbiya o'quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat-nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o'z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi. Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi. Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib

boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o‘quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go‘zallik va o‘z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.

“Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy - iqtisodiy asoslari haqida fikr yuritilar ekan: “Milliy istiqlol mafkurasini o‘z mohiyatiga ko‘ra, har bir fuqaroning munosib turmush darajasini ta‘minlaydigan farovon hayot kechirishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va vatan manfaati bilan o‘zaro uyg‘unlashtirib yashashga undaydi. ... Har bir fuqaroning farovonligi — butun jamiyatning farovonligidir, g‘oyasini ilgari suradi”, — deb ta‘kidlanishi ham bejiz emas. Yuqoridagilarga asoslanib, o‘quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvofiq. Bular:

- o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatining tushunilishi;
- ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
- ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg‘otish;
- o‘quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish;
- ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg‘usini tarbiyalash;
- ularning mehnatga ongli munosabatda bo‘lishlariga erishish;
- mehnatda ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- o‘quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko‘z qorachig‘iday asrash tuyg‘ularini shakllantirish;
- mehnatda do‘stlik o‘rtoqlik va hamkorlikka erishish;
- o‘quvchilarning mehnatni go‘zallik manbasi sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar.

Yuqoridagi mezonlar asosida o‘quvchilarni bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini barcha ta‘lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borish taqozo etiladi.

Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida.

Ta‘lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo‘lib etishishi, kasb-hunarga o‘rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug‘lash masalalariga alohida e‘tibor berilganligiga guvoh bo‘lamiz. Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta‘limiy - axloqiy asarlar va xalq og‘zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo‘shiq-lari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasbhunar odobi, axloqi va qoidalarini o‘zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta‘kidlanadi.

Bundan tashqari “Avesto”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Geodeziya”, “Minerologiya”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, YUusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma‘rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak maqol va topishmoqlardan boshlangan. Mana shunday ertaklardan biri “Aql va boylik” ertagidir. Bunda chol to‘rt o‘g‘liga qarata “Kim aqlli va davlatmand bo‘lsa, o‘sha oila boshlig‘i bo‘lib qoladi”, degan so‘zlariga o‘g‘illaridan biri zumrad ko‘zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamarini ko‘rsatadi.

Kenja o‘g‘il esa otasining savoliga “Menda zumrad ko‘zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo‘q. Lekin mehnatkash qo‘lim, botir yuragim, aqlli boshim bor”, - deydi va otasi uni oila boshlig‘i qilib, uy-ro‘zg‘orini meros qoldiradi.

Ko‘rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g‘oyani ilgari surgan.

Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik mehnatda hamkorlik mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan. Masalan:

Daryo suvini bahor toshirar,
Inson qadrini mehnat oshirar.
Oltin o'tda bilinar,
Odam mehnatda.

Mehnatda do'st ortar,
G'iybatdan dushman. kabi maqollar shular jumlasidandir.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchisi sifatida ta'riflaydi.

Navoiy "Mahbub-ul qulub" asarida mehnat turli ijtimoiy guruhlarining hayotidagi asosiy o'rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko'rsatadi. Dehqonlar to'g'risida fikr yuritir ekan, "Dehqonki dona sochar, erni yormoq bilan rizq yo'lin ochar. ... Olam ma'murlig'i alardin va olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayonki, qilsalar harakot, elga ham qut etkurur, ham barakot", — deb dehqonlarni, ya'ni, mehnatkash insonni ulug'laydi. SHu bilan birga shoir bu asarida tekinoxo'rlarni, nojo'ya ish tutuvchi kishilarni, ochko'z va ta'magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Ma'rifatparvar shoir Furqat ham o'zining ma'rifiy she'rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritir ekan, har bir sog'lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da'vat etadi, hunarga mehr qo'ygan, uni o'rganishni da'vat etgan kishining jahonda qadri baland bo'lajagini uqtiradi.

U yoshlarga kelajakda o'z orzulariga etishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlar o'quvchi-yoshlaming mehnat tarbiyasida muhim vosita sanaladi.

Mehnat tarbiyasining shakllari.

O‘quvchilar mehnat tarbiyasi shakllari hilma-hildir. Ta’lim jarayonida mehnat tarbiyasi, sinfdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida mehnat, o‘zo‘ziga xizmat qilish, ijtimoiy - foydali mehnat shakllari tarbiyaviy ta’siri va ahamiyati bilan ajralib turadi.

Mehnat ta’limi sinf xonalari, o‘quv-tajriba maydoni, o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayoni, ishlab chiqarish korxonalarida olib boriladi.

Natijada ma’lum qiymatga ega bo‘lgan ijtimoiy-foydali mahsulotlar yaratiladi hamda ilg‘or kasb sohiblariga xos bo‘lgan shaxsiy fazilatlari shakllanadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, bugungi kunda mehnat ta’limining mazmuni, maqsad va vazifalari o‘zgardi, texnologik ta’lim ustuvorlik kasb etdi, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimi yangilandi. Mehnatni ilmiy tashkil etishning birinchi darsini ham o‘quvchi ta’lim jarayonida oladi.

Mehnat tarbiyasi bilan mehnat ta’limi bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan. Mehnat faoliyati ma’lum bilimga ega bo‘lishni talab etadi. Zero, bilim va ko‘nikmalar o‘quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Ta’lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko‘radilar, umumiy mehnat jarayonida o‘quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer xo‘jaliklari, korxonalar, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo‘ladilar.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi. O‘quvchilarning mehnat tarbiyasida sinfdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning ahamiyati katta. O‘quvchilar maktabda tashkil etiladigan bir qator to‘garaklarda “Chevar qo‘llar”, “Yosh tabiatshunoslar”, “Yosh texniklar”, va predmetlar bo‘yicha tashkil etiladigan to‘garaklarda qatnashadilar. Maktablarimizda va maktabdan tashqari tarbiya muassasalarida texnika to‘garaklari, tadqiqot harakteridagi ish olib boruvchi to‘garaklar tarmog‘i kengayib borayotir. Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning turli shakllari o‘quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim

sohasida bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi. To'garaklarda o'quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo'ladi. O'quvchilarning to'garaklardagi faoliyati ma'lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo'ladi. Chunonchi:

- to'garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur; - texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy aloqada bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqalar);
- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo'ladi.

To'garak faoliyati jarayonida o'quvchilar o'z kollejlari uchun o'quv ko'rsatmali qurollar: jadvallar, rasmlar, diagrammalar, kolleksiyalar, oddiy modellar, yuqori sinflarda - stendlar, harakatdagi modellarni yaratishi mumkin.

Tabiatshunosliq botanika, zoologiyadan amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar o'quv-tajriba uchastkalarida ishlaydilar, jonli burchaklar tashkil etadilar, o'quv maskanini ko'kalamzorlashtiradilar.

Mehnat faoliyati.

Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir: O'quv mehnati o'quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyati turidir. Ijtimoiy foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir.

Ta'lim jarayonidagi mehnat. O'qish o'quvchilar mehnatining asosiy va muhim turlaridan biridir. Bu mehnat turi o'quvchidan, qunt va aqliy zo'r berishni talab qiladi. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchining fikrlash qobiliyatini o'stirib boradi. To'g'ri tashkil etilgan o'quv mehnati jarayonida qat'iylik sabot, qunt va iroda kabi shaxsiy sifatlari tarbiyalanib boradi. Keyinchalik bu sifatlarning mehnatning boshqa turlari jarayonida harakter xislatiga aylanadi. O'quvchilarning mehnat darslari alohida

ahamiyatga ega. Mehnat darslari jarayonida o'quvchilar qo'p mehnat malakalarini egallaydi, o'quvchi o'zini mehnat quchog'ida his etadi. O'zi bajarayotgan mehnatining natijalarini ko'rib, unda yangi-yangi ishlarni bajarish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Bu ishtiyoq o'rta maktabning yuqori sinflarida – o'quvtajriba er uchastkasi, ta'lim ustaxonalaridagi darslarda yanada chuqurlashib boradi.

O'z-o'ziga xizmat qilish. Maktabda olib boriladigan mehnat tarbiyasi tizimida o'quvchilarning o'z-o'ziga so'nggi yillarda o'quvchilar mehnat tarbiyasiga jamoatchilik katta e'tibor bermoqda. Bola maktabgacha tarbiya yoshidagi davridayoq oilada o'z-o'ziga xizmat qilishning dastlabki ko'nikmalarini egallab boradi. Maktabda esa o'quvchining o'z-o'ziga xizmat qilishi tizimli ravishda amalga oshiriladi. O'quvchilarning o'z-o'ziga xizmat qilishlari ularda tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirishga, intizomlilikni, topshirilgan ishga nisbatan ma'suliyat hislarini tarbiyalashga imkoniyat yaratadi. O'z-o'ziga xizmat qilish mehnati har bir o'quvchidan o'zining turar joy va sinf xonalarini ozoda tutish, kiyim-boshlarni saranjom saqlash, ovqat tayyorlashda ota - onasiga yordamlashish, kundalik hayot uchun zarur bo'lgan narsalarni tayyorlash kabi ish turlarini o'zichiga oladi.

Hozirgi davrda ta'lim muassasalarida o'z - o'ziga xizmat keng yo'lga qo'yilmoqda. O'z - o'ziga xizmat o'quvchilarning ijtimoiy va o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o'zlari tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O'quvchilarning navbatchiligi o'z - o'ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir.

Ijtimoiy foydali mehnat. Ijtimoiy foydali mehnat o'sib kelayotgan yosh avlodni hayot jabhalarida faol ishtirok etishga tayyorlaydi. O'quvchini xalqqa xizmat qilishga o'rgatadi. Mehnat ahliga nisbatan hurmat uyg'otadi. Maktabda o'quvchilar ijtimoiy foydali mehnatining turlari xilma - xildir. O'quvchilarning ijtimoiy foydali ishlari sinfdan va maktabdan tashqari olib borilishi mumkin.

O'quvchilarning maktabdagi ijtimoiy foydali mehnatlari maktab binosi va maktab maydonini ozoda saqlash, maktab binosi va o'quv anjomlarini ta'mirlash, sport maydonchalari, tirik burchaklar tashkil etish va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Xulosa, qilib aytganda, har tomonlama etuq barkamol avlodni etishtirishda mehnat tarbiyasining roli va o'rnini beqiyos kattadir. SHunday ekan, mehnat farzandlarimiz uchun ham zaruriyat, ham burch bo'lishi, buning uchun uyda ham o'quv yurtlarida ham mehnat qilish uchun sharoitlar yaratilishi lozim.

O'quvchilar hozirgi davrda "Yoshlar ittifoqi" faoliyatida ishtirok etadilar. Mehnat tarbiyasi o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Zero, mavjud sharoitda ro'y berayotgan ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar shaxs kamolotiga nisbatan juda katta talablarni qo'yimoqda. Xususan, mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma'lum faoliyatni bajarishda masuliyatni his etish, mehnatga va uning natijasi, shuningdeq mehnat jamoasiga hurmat, mehnat faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik faollik ko'rsatish, o'z aqliy va jismoniy qobiliyatini to'liq namoyon etishga bo'lgan ichki ehtiyoj, mehnatni ilmiy tashkil etish yo'lida amaliy harakatni olib borish shular jumlasidandir.

Mehnatga psixologik jihatdan tayyor bo'lish esa tarbiyaviy ishlar tizimida amalga oshirilib, ularning har biri quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyati, mehnatni tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligining anglab etilishiga erishish;
- ularda mehnat faoliyatini amalga oshirishga nisbatan rag'bat uyg'otish; - o'quvchilarda mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish va hokazolar.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar, mulkka egalik xususiy mulkni yaratish yo'lida qonun doirasida olib borilayotgan amaliy faoliyatni qo'llabquvvatlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakatlar mehnat tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Mehnat tarbiyasining yangi texnologiyalar asosida o'quv dasturlari, ta'lim metodlarining variativligi tamoyili yotadi. Dasturlar kasb-hunar kollejlari ixtisoslashgan turli kasblar bo'yicha yaratiladi. Ularda kasbiy ta'limni o'zlashtirishga nisbatan qo'yilgan davlat talablari o'z ifodasini topadi.

Ta'lim jarayonida egallangan bilim, ko'nikma va malakalar mehnat tarbiyasida pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi emas, balki inson qobiliyatining rivojlanishi, ya'ni, mehnatga bo'lgan layoqatini rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu esa mehnat tarbiyasida an'anaviy metodlarni emas, balki bilim olishning faol metodlaridan foydalanib, o'quvchilarda tadqiqotchilik hamda ixtirochilik malakalarini rivojlantirish metodlarini qo'llashni nazarda tutadi.

Bundan tashqari muammoli, izlanuvchan tadqiqot metodlari, konstruktorlash, loyihalash, texnik modellashtirish, mehnatni tashkil etish jarayonida uning eng yaxshi variantlarini izlab topish, ijodiy topshiriqlarni to'g'ri tanlay olish, shuningdek tanlovlar, yoshlarning ijodiy ko'rgazmalarni tashkil etish ham eng samarali metodlardan sanaladi.

Mehnat ta'limi va tarbiyasining tashkiliy - metodik shakllari o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Bu shunday shakl va metodlar bo'lishi kerakki, u o'quvchiga mehnati muvaffaqiyatidan quvonch baxsh etsin, o'z mehnatidan o'zi faxrlansin.

Mehnat tarbiyasining texnologiyalari o'quvchining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, mehnat ta'limi mazmunini ham takomillashtiradi. U kompleks xarakter kasb etib, o'quvchilarda o'quv texnika va texnologiyalari haqida tasavvur hosil qilishi, amaliy masalalarni hal etish malakasini shakllantirishi, sifat natijalarini ta'minlashi lozim. Ayniqsa, o'quv topshiriqlarini hal etishga ijodiy yondashish, ishlab chiqarishning texnik - iqtisodiy, ijtimoiy ko'rsatkichlarini yuqoriga ko'tarishga intilish hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Bog'cha yoshida mehnat faoliyatining xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy munosabatlar mazmuni yangilanayotgan ayni paytda o'sib kelayotgan yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashni yangicha asoslarda, bir tomondan, milliy pedagogik qadriyatlarimiz zaminida, ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda olib borishga ijtimoiy zaruriyat sifatida qaralmoqda. O'zbek xalqining mehnat an'analari ichida hashar muhim rol o'ynaydi. U xalqimizning avloddan –avlodga o'tib kelayotgan

ajoyib an'analaridir. Hashar yaqin kishilarning, tanish-bilish, oshna-og'ayni, qarindosh-urug', hamkasblarning imorat qurish. to'y va ma'rakalar uyushtirish kabi ishlarda birgalikda o'zaro yordam berishganlar.

Chunki mehnat ijtimoiy taraqqiyotning manbai, barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishning asosiy shart- sharoitidir. Demak, mehnat inson faoliyatining asosiy shakli, kishi hayotining mazmuni, har bir jamiyat a'zosining vazifasi, shaxs taraqqiyotining asosidir. Mehnat qadimdan jamiyatning axloqiy tamoyili hisoblanib kelgan, moddiy va ma'naviy madaniyatning hamda ijtimoiy taraqqiyotning negizi hamdir. Mehnat faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbaigina bo'lib qolmay, balki xalqqa xizmat qilish, vatan uchun qayg'urish, shaxsiy manfaatdan xalq manfaatini ustun qo'yishning asosi hamdir. Ta'lim-tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasini bolalarga yangicha singdirish, ularda mehnat qilishga ishtiyoq o'stirish, mehnat natijasidan zavqlana bilish kabi hislarni tarkib toptirish orqali ularda mehnat ahliga hurmatni, jamiyat foydasiga mehnat qilish qobiliyatini, fidoyilik va mehnatga ijodiy munosabatda bo'lish kabi axloqiy sifatlarni tarkib toptirish lozim. Bolalarni mehnatga o'rgatishda, eng avvalo, ularni psixologik va amaliy tayyorlash: jamoada mehnat qilish ko'nikmalarini tarbiyalash muhim rol o'ynaydi. Mehnatga ruhiy, aqliy va amaliy tayyorlash jarayonida yoshlarda mehnatsevarlik, shijoat, fidoyilik, halollik, intizomlilik kabi sifatlar shakllanishi bilan birga ularda axloqiy- irodaviy xususiyatlar ham shakllanib boradi. Ayniqsa, mehnat madaniyati ko'nikmalarini tarbiyalay borish muhim ahamiyat kasb etadi. SHunday ekan, mehnatni sevmaydigan va qadrlamaydigan insondan madaniyatli kishi chiqmaydi. Insonning ongliligi, tarbiyalanganligi avvalo, mehnatga bo'lgan munosabatida ko'rinadi. Mehnat insonni ulug'laydi, go'zallikka chorlaydi. Mehnatsiz turmush mazmunsiz, deyiladi. Mehnat qilmaydigan insonning hayoti zerikarlidir. Unday inson ma'naviy qashshoq va jismonan zaif bo'ladi. Uzoq umr ko'rishning siri ham mehnatdir. Mehnat qilmasang hatto iste'dod ham so'nadi. Mehnat har qanday qobiliyatni rivojlantiradi. Mehnatga bolalar dastlab oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida va tarbiya jarayonining butun tizimida o'rgatilib boriladi. Bolalar

bogʻchasida va oilada bajariladigan uncha murakkab boʻlmagan har bir topshiriq uning kundalik vazifasiga aylanishi kerak. Bola mehnatning ahamiyati va madaniyatini tushunib etishi uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning oʻzlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi. Bolalarning har xil mehnat jarayonida ishtirok etishi, kattalar mehnati bilan tanishishi, ularning tevarak-atrofdagi hayot, kishilarning oʻzaro munosabatlari toʻgʻrisida, narsalar va ularning xususiyatlari, materiallarga ishlov berish usullari, qurilmalar va asboblarga toʻgʻrisida muayyan taassurotlarga ega boʻlishlariga yordam beradi. Mehnat bolalardan diqqat, oʻtkir zehn, topqirlik, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat jarayonida bolalar ayrim ish turlarini (bir varaq qogʻozni buklash, biror bir shaklni andozaga qarab qirqish, kerakli uzunlikni oʻlchash kabi harakatlarni) anglatuvchi bir qancha tushuncha va atamalardan foydalanishga, bajarilgan ishdagi izchillikni berishga toʻgʻri keladi. Bu bola nutqini yangi soʻzlar bilan boyitadi, fikrlashi, dunyoqarashini shakllantirishga imkon beradi. Mehnat har bir yosh guruhidagi bolalarning oʻziga xos xususiyatlarni hisobga olgan, unga toʻgʻri nazorat yoki rahbarlik qilgandagina ijobiy natija berishi mumkin. V.I. Loginovning taʼkidlashicha, bolalarga mehnat tarbiyasi berish uchun ular mehnat va mehnat malakalari toʻgʻrisidagi bilimlar tizimini oʻzlashtirib olishlari kerak boʻladi:

1. Mehnat maqsad va uning natijasini belgilab olishdan boshlanadi. (maqsad — mehnat tasviri).
2. Mehnat qilishdan koʻzlangan maqsad boʻyicha kerakli materiallarni tanlab ajratib olish.
3. Materialni ishlash uchun kerakli asboblarni tanlab ajratib olish.
4. Natijaga erishish uchun mehnat harakatlarini bajarish.

SHunday qilib, maktabgacha tarbiya yoshi davrida mehnat faoliyati shakllantiriladi. Maktabgacha tarbiya yoshi davrining oʻziga xos tomonlaridan biri bolalar mehnatining oʻyin bilan bogʻliqligidir. Oʻyin jarayonida biror harakat doimo biror mehnat jarayonini aks ettirishga yoʻnaltirilgan boʻladi. Ikkinchi tomondan, mehnat jarayonini bajarishda uni oʻyin shakliga aylantirishadi.

Mehnat tarbiyasining vazifasi xilma-xil bo‘lib ularni guruhlar bo‘yicha quyidagicha turkumlarga ajratiladi:

1. *Birinchi guruh vazifalari:* bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik yondashuv, bolalarni maqsad asosida mehnat malakalari, ko‘nikmalari hamda mehnat madaniyati bo‘yicha kerakli material va qo‘llanmalarni tanlashga o‘rgatish.
2. Bolalarda mehnat faoliyatiga qiziqishni va mehnatda ijobiy natijalarga erishish malakalarini shakllantirish.
3. Mehnat faoliyati jarayonida bolalar mehnatining ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushunib etishish.
4. *Ikkinchi guruh vazifalari:* bolalarda kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan:
5. Bolalarda kattalarning mehnati orqali erishayotgan yutuqlari haqida tushuncha berish.
6. Bolalarda mehnat ahliga hurmatni va ulardan o‘z yordamini ayamalik haqidagi xohishlarini tarbiyalash.
7. *Uchinchi guruh:* vazifalari bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan mehnat faoliyati bilan bog‘liq. Bolalarda mehnatsevarlik orqali mehnatda qatnashish, boshlagan ishini oxiriga etkazish, o‘zining mehnatiga nisbatan to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash javobgarlik, qatilylik, sabr matonatlilik, chidamlilik, o‘zi va o‘rtoqlarining mehnatini xolisona baholash tarbiyalanadi.

Mehnat ijtimoiy taraqqiyotning asosi barcha moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish sharti bo‘lishi bilan birga ayni vaqtda inson hayotining asosiy shakli, mazmuni sifatida barcha xalqlarning eng asl farzandlari — mutafakkirlari, olimu fozillarining diqqat markazida bo‘lgan. SHoir Abu SHukur Balxiyning mehnatni ulug‘lovchi quyidagi satrlarini keltirish mumkin:

Orzu tilak yo‘li mehnat tagida,
Xazinaningmo‘li mehnat tagida.

Alisher Navoiy, Furqat, Muqimiy va boshqalar mehnat insonni ma'naviy go'zallashtiruvchi roliga, mehnatsevarlikni tarbiyalashga va mehnat ahlini qadrlashga katta o'rin beradilar. Qadimda ota- bobolarimizning mehnat haqida aytgan dono naqlari hozirga qadar ham o'z qadrini yo'qotmagan. Mehnat qilsang ko'ksing tog', Hurmat qilsang, diling bog'.

Mehnatli non — shakar,

Mehnatsiz non zahar.

Mehnat baxt keltirar.

Mehnat qilib topganing,

Qandu asal totganing.

Bu maqollar orqali dono xalqimiz mehnatni ulug'laydi, uning samarasi haqida fikr yuritadi. O'zbek bolalar yozuvchi va shoirlari ham kattalar mehnatining mazmunini yortib berganlar. Bunga Quddus Muhammadiyning "Etik", "Bir hovuch yong'oq" kabi she'rlari misol bo'ladi. Bolalarning mehnat faoliyatlarini o'zida qamragan mashg'ulotlar asosan bog'cha yoshidagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda soda va elementar bo'lsa ham ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga egadir.

Bog'cha yoshidagi bolalar bilan o'takaziladigan suhbatlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat, mehnat qilish dastavval bolalarning o'yinlarida namoyon bo'ladi. Bolalar kattalarning mehnat faoliyatlarini o'zlarining o'yinlarida taqlidan takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar mehnatida bevosita qatnashish uchun harakat qila boshlaydilar. Masalan, qiz bolalar onalari kir yuvayotganda suv tashish, ayrim kichikroq narsalarni (dastro'molchalarni) chayishda qatnashadilar, uy va hovlilarni yig'ishtirib supurishga, o'g'il bolalar esa otasi bajarayotgan ishga qatnashishga intila boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar mehnatining natijasi emas, balki mehnat jarayonining o'ziga qiziqishi psixologik jihatdan xarakterlidir.

Bog'cha yoshdagi bolalarning ishiga baho berib borish ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Bolalar kuchlari etadigan ishlarni bajarayotganlarida ko'p xatolarga yo'l qo'yishlari turgan gap. Lekin bunda bolalarni mehnatga jalb qilmaslik kerak, bolalarning bajariladigan ishlarini kattalarning o'zlari bir pastda qilib qo'yishlari mumkin, degan ma'no kelib chiqadi. SHarq xalqlarida bir maqol bor: "Bolaga ish buyur, ketidan o'zing yugur". Bu juda to'g'ri, hayotiy gap. Bu bolalarga biron yumush bajarilganda, uni qanday bajarayotganliklaridan ko'z- quloq bo'lib turishlari kerak, degan ma'noni bildiradi.

Bolalarda, xususan, kichik yoshdagi bog'cha bolalarda hali mehnat malakalari yo'q, qo'l muskullari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ana shuning uchun bolalar qasddan yoki anqovliklaridan emas, balki eplay olmasliklaridan biror narsani tushirib, sindirib yuborishlari mumkin. Ana shunday "falokat" yuz bergan paytda bolani "anqov, merov, ko'zinga qarasang bo'lmaydimi" deb urinishi yoki koyish yaramaydi. Buning o'rniga bolaga shu mehnatni qanday qilib bajarishni ko'rsatib berish lozim.

Bog'cha yoshidagi bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda ularni inoq jamoa uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Jamoa bo'lib mehnat qilishda tarbiyachi har bir bolaga ma'lum bir mehnatni bajarishni buyuradi. Ana shu tariqa bolalar jamoa bo'lib mehnat faoliyati bilan shug'ullanadilar .

Masalan: , katta guruh bolalari jamoa bo'lib navbatchilik qiladilar. Bunda bir bola stolga dasturxon yozib chiqsa , ikkinchisi qoshiq va vilkalarni qo'yib chiqadi, uchinchi bola esa stulchalarni qo'yib chiqsa , to'rtinchi bola stolga nonlarni qo'yib chiqadi. Bog'chada navbatchilikka o'rgangan bolalar oilada ham yordamlashadigan bo'ladilar.

Umuman o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalariga oilada kuchlari etadigan mehnat topshiriqlarini berish kerak. Bu ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda va ularni ayrim mehnat malakalarini hosil bo'lishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etadigan bolani keyinchalik mehnatga jalb qilish juda qiyin bo'ladi.

Bog'chada bolalar jalb qilinadigan mehnat faoliyatining turi juda xilma – xildir. Masalan; tabiat burchagidagi jonivor yoki o'simliklarni parvarish qilish, bog'cha hovlisida ishlash, oshxonada va guruhda navbatchilik qilish, kichkintoylarni kiyintirishga yordam berish va boshqalar.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, kichik yoshdagi bog'cha bolalari o'zlarining mehnat faoliyatlarini hali yo'lga qo'ya olmaydilar. Shuning uchun ular mehnatning juda sodda turlari bilan, ya'ni o'simliklarga suv quyish, baliqlarga ovqat berish, hovliga suv sepish va shu kabilar bilan shug'ullanadilar.

O'rta va katta guruh bolalari mehnat faoliyatini o'yindan batamom farqlab, unga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar. Ular mehnatdan kelib chiqadigan natijani, ya'ni mehnatning ijtimoiy mohiyatini, kim uchun, nima uchun lozimligini tushunadilar. Ular kattalarning oiladagi uy – ro'zg'or ishlariga zo'r ishtiyoq bilan yondoshadilar, kichkintoylar uchun qog'oz, karton paner va plastilindan turli o'yinchoqlar yasaydilar. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mehnat faoliyati bolalarning har tomonlama, ham jismoniy, ham psixik, ham estetik, ham axloqiy tomondan barkamol rivojlanishlariga juda katta ta'sir qiladi.

Bog'cha bolalari biron o'yin, ta'lim yoki mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lar ekan, ular asosida harakatga soluvchi mayllar yotadi. Kichik bog'cha yoshidagi bolalarning xatti -harakatlari amalga oshirilayotgan sharoitga bog'liq bo'ladi. Ular xatti – harakat motivlarini anglab ham etmaydilar. Shuning uchun ko'pincha o'zlaricha mutlaqo hisobot bermay, ma'lum bir vaziyatda u yoki bu xatti – harakatni amalga oshira boshlaydilar.

Bu yosh davrida bolalarning xatti – harakatlari va xulq – atvorlarining motivlari ham o'zgarib, rivojlanib boradi. Katta yoshli bog'cha bolalarining xatti – harakat motivlari to'la anglangan motivlardan iborat bo'ladi. Masalan; katta yoshdagi bog'cha bolalarning xatti – harakatlari, xulq – atvorlari asosida yotgan motivlar har tomonlama kattta odamlarga o'xshashdan iborat. Ular ana shunday kuchli mayl asosida taqlidiy o'yinlarni, ta'limiy, ya'ni etakchi mashg'ulotlarni va mehnat mashg'ulotlarini tashkil qilib o'tkazadilar. Bolalarning asosiy maqsadlari katta

odamlar bilan o‘zaro munosabatni mustahkamlashdir . Bolalar katta kishilar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatishga kirishar ekanlar , ular katta kishilarning buyurgan topshiriqlarini bajarishga, o‘rnatgan tartib qoidalariga so‘zsiz bo‘ysunishga harakat qiladilar.

Bolaning bog‘cha yoshidagi davrida o‘z qadr – qimmatini anglashi ham yuzaga kela boshlaydi. Bolalar bog‘chaga kelganda dastavval o‘z tengqurlarini sezmaslikka, payqamaslikka harakat qiladi. Keyinchalik turli o‘yin va majburiy mashg‘ulotlar davomida bolalar jamoasiga qo‘shilib, o‘z tengqurlarining hurmatini qozonishga harakat qiladilar, ya’ni boshqa bolalarga har tomonlama yaxshi ko‘rinishga intiladilar. Bog‘cha yoshidagi bolalar xatti-harakatlari motivlarining rivojlanishida axloqiy motivlarning roli nihoyatda kattadir. Bolalar o‘z xattiharakatlarini anglaganlari sayin axloqiy qoidalarga rioya qilish motivlarining ya’ni ijtimoiy axloqiy qoidalarga rioya qilish motivlarining o‘rni kuchayib boradi. Bolalar endi o‘zlarining egaistik manfaatlari yuzasidan emas, balki ijtimoiy manfaat nuqtai nazaridan harakat qilishga o‘rgana boshlaydilar. Masalan: bolalar o‘zlari yoqtirgan o‘yinchoqlarini boshqa bolalarga beradigan va xattoki o‘zlarini uyidan olib kelgan shirinliklarini bo‘lib beradigan bo‘ladilar. Shu tariqa bolalarda ijtimoiy motivlar rivojlana boshlaydi. Katta yoshdagi bog‘cha bolalari har doim kichik yoshdagi bolalarga yordam berishga, ya’ni ijtimoiy motivlar asosida harakat qilishga intiladilar.

Takrorlashva muhokama qilish uchun savollar.

1. Mehnat tarbiyasining mohiyati nima?
2. Mehnat tarbiyasining qanday maqsadni ko‘zlaydi?
3. Mehnat tarbiyasining vazifalarini sanang.
4. Sharq mutafikkirlari mehnat tarbiyasi haqida fikrlari.
5. Mehnat tarbiyasining shakllari.
6. Ta’lim mehnat tarbiyasi shakli sifatida.
7. Mehnat tarbiyasini tashkil etishda sinfdan tashqari ishlarning o‘rni qanday?

8. Bolalar hayotini tashkil etishda mehnat faoliyatining ahaamiyati nima.
9. Bog‘cha yoshida mehnat faoliyatining tashkil etish yo‘llari.

Mavzu yuzasidan test savollari:

- 1. Yusuf Xos Hojibning qaysi asarida shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so‘zlab, ularning jamiyat hayotidagi o‘rniga alohida to‘xtalib o‘tgan ?**
 - a) “Qutadg‘u bilig”
 - b) “Mahbub-ul qulub”
 - c) “Devonu lug‘atit turk”
 - d) “Fozil odamlar shahri”
- 2. Navoiyning qaysi asarida mehnat turli ijtimoiy guruhlarining hayotidagi asosiy o‘rnini belgilashi va fazilat va nuqsonlarini ko‘rsatishi haqida fikr bildirilgan?**
 - a) Qutadg‘u bilig”
 - b) “Mahbub-ul qulub”
 - c) “Devonu lug‘atit turk”
 - d) “Fozil odamlar shahri”
- 3. Navoiyning qaysi asarida dehqonlar to‘g‘risida fikr yuritir ekan, “Dehqonki dona sochar, erni yormoq bilan rizq yo‘lin ochar. ... Olam ma‘murlig‘i alardin va olam ahli masrurlig‘i alardin. Har qayonki, qilsalar harakot, elga ham qut etkurur, ham barakot”, — deb dehqonlarni, ya‘ni, mehnatkash insonni ulug‘laydi. SHu bilan birga shoir bu asarida tekinxo‘rlarni, nojo‘ya ish tutuvchi kishilarni, ochko‘z va ta‘magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi?**

- a) “Hayrat ul -abror”
- b) “Layli va Majnun”
- c) “Sab’ai sayyor”
- d) “Mahbub-ul qulub”

4. Mahmud Qoshg‘ariyning qaysi asarida mehnat tarbiyasi haqida fikrlar bildirilgan?

- a) “Qutadg‘u bilig”
- b) “Mahbub-ul qulub”
- c) “Devonu lug‘atit turk”
- d) “Fozil odamlar shahri”

5. Abu Rayhon Beruniyning qaysi asarida mehnat tarbiyasi haqida fikrlar bildirilgan?

- a) “Mahbub-ul qulub”
- b) “Devonu lug‘atit turk”
- c) “Fozil odamlar shahri”
- d) “Geodeziya”

6. Mehnat tarbiyasining eng muhim vazifasini ko‘rsating.

a) yosh avlodda mehnat qilish istagi va intilishini tarkib toptirish hamda ularni turli sohalarda mehnat qilishga amaliy tayyorlashdan iborat bo‘lib, o‘quvchi yoshlarda mehnatga ongli munosabatni shakllantiradi.

b) yosh avlodda axloqiy sifatlarni tarkib toptirish va ongli munosabatni shakllantirish.

c) yosh avlodda turli sohalarda axloqiy va iqtisodiy tarbiyani tayyorlashdan iborat bo‘lib, o‘quvchi - yoshlarda hayotga ongli munosabatni shakllantiradi.

d) yosh avlodda huquqiy tarbiyani tarkib toptirish hamda ularni huquqiy sohada mehnat qilishga amaliy tayyorlashdan iborat bo‘lib, o‘quvchi yoshlarda ongli munosabatni shakllantiradi.

20 - mavzu :Sensor tarbiya

- 1. Sensor tarbiyasi haqida tushuncha.**
- 2. Sensor tarbiyasining vazifasi va mazmuni.**
- 3. Sensor tarbiyasining usullari.**

Tayanch tushunchalar;sensor tarbiya, tuyg‘u, sezgi, idrok, sezish, metod, qobiliyat.

Sensor tarbiyasi haqida tushuncha.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashda hamda ularda “tuyg‘u, sezgi, idrok, sezish” kabi qobiliyatlarini shakllantirishda sensor tarbiya muhim o‘rin tutadi. Sensor tarbiyasi tevarak-atrofdagi borliqni bilish sezgi va idrokka asoslanadi. Demak, bola tasavvurining asosini bevosita sezish orqali idrok qilish mumkin. Bunday tasavvurlarning aniqligi, to‘laligi, sensor jarayonlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Sensor tarbiya sezgi va idrokni biror maqsad asosida rivojlantirishdir. “Sensor” so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib “sensus”- “tuyg‘u”, “sezgi”, “idrok”, “sezish qobiliyati” ma’nolarini anglatadi. Demak, borliqni bilish avvalo, sezish, idrok qilishdan boshlanadi. Inson ko‘rish, sezish, anglash, his qilish yordamida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi. Insonda faqat shular asosidagina xotira, tafakkur, xayol kabi jarayonlar hosil bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi va kichik maktab yoshidagi bolalar aqliy bilimining 9/10 qismini sezish orqali idrok etilgan taassurotlar tashkil etadi. Sezgi va idrok qanchalik boy bo‘lsa, insonning atrofdagi olam haqidagi tasavvurlari shunchalik keng bo‘ladi. Bolalarning sensor madaniyati, unda sezgi va idrokning muvaffaqiyati uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi.

Sensor tarbiyasining vazifasi va mazmuni.

Bolalarning aqliy estetik jismoniy va mehnat tarbiyasini shakllanishida sensor tarbiya muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni

rivojlantirish davri sanaladi. Shuning uchun bu davrda sensor tarbiya muhim o‘rin tutadi.

Sensor tarbiya bolalarda hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga sezgi idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Sensor tarbiyaning mazmuni va metodi ruhshunoslik fanida idrok va sezgini rivojlantirish muammosi qanday talqin qilinishi bilan belgilanadi. Fanda bu muammoni

hal etish turlicha yoritilgan. Pedagogika tarixida esa sensor tarbiyasining har xil sistemasi ko‘rsatilgan. O‘tmishdagi pedagoglar Friebel, M. Montessori, O. Dekroli va boshqalar tomonidan yaratilgan sistema bolalarning qo‘lidagi mayda muskullarini rivojlantirishga, rang va uning turlari, shakl va hajmi yuksak darajada farz bo‘lishga erishish ni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. M. Maktessorining didaktik materiallari o‘z-o‘zini nazorat qilish prinsipiga muvofiq yaratilgan bo‘lib, bolalarga pedagogning ishtirokisiz, mustaqil shug‘ullanish imkonini berar edi. Ammo sezgi a‘zolarining rivojlanishi, nutqning o‘sishi, samarali faoliyat bilan bog‘lanmas edi deydi. Yuqoridagi allomalar tomonidan ilgari surilgan ta‘limot, ayniqsa, hozirgi ta‘lim-tarbiya jarayonida keng qo‘llanilmoqda. Bu usullardan foydalanish bolalarni har tomonlama ham aqliy ham jismoniy rivojlanishiga ularning ongi, aqli va hissiy tuyg‘ularini shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, hozirgi kunda barcha maktabgacha tarbiya muassasalarida ushbu metoddardan keng qo‘llanishga erishilmoqda. Buning uchun barcha tarbiyachilar mazkur metodlardan keng qo‘llash maqsadida har bir guruh xonalarida alohida-alohida burchaklar tashkil etganlar. SHuningdek, pedagog va ruhshunos olimlar sensor tarbiyaning xilma-xil faoliyat turlari jarayonida faoliyatning tasviriy-amaliy, musiqali harakat turlarida bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirishda amalga oshirish muhimligi to‘g‘risidagi yangi tizimni yaratdilar. Ular bunday tizimning mazmuni, metod va nazariyasini ishlab chiqdilar.

Sensor tarbiyasining usullari.

Istiqlolni qo‘lga kiritilishi barcha sohalar singari maktabgacha tarbiya muassasalari oldida ham qator vazifalarni belgilab berdi. Ayniqsa, yuqorida qayd etilgan, olimlarimiz tomonidan o‘rganilgan usul va metodlar maktabgacha yosh davrdagi bolalarning rivojlanishiga qanchalik ta‘sirchanligi yuqori ekanligiga

shakshubhasiz alohida e'tibor talab qilinmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida esa "Mantessorin", "Trizs" kabi metodlardan qo'llash katta samara bermoqda. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashda hamda ularda "tuyg'u, sezgi, idrok, sezish" qobiliyatlarini shakllantirishda sensor tarbiya muhim o'rin tutadi.

Bunday tarbiyani qo'llashdan maqsad maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning qobiliyatlarini shakllantirish, o'stirish va rivojlantirishga qaratilgan. Sensor tarbiya qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bolalar buyumning faqat nimaga ishlatilishini yoki nominigina bilishi etarli bo'lib qolmay, balki buyumlarni chuqurroq idrok etishi, ularni ushlab, ular bilan muomalada bo'lganda xilma-xil sezgilar ishtirok etishi ham juda muhimdir deb biladi. Shuning uchun

Tarbiyachi sensor tarbiyaning ana shu tomonlariga alohida e'tibor berishi lozim bo'ladi. Tarbiyachi bolalarga biror topshiriq berganida, masalan, buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yishda ularni og'irligini his qilish, buyumni qo'lga olib uning sirtini sezish va sifatini silliq yoki g'adir-budurligini, issiq yoki sovuqligini va shunga o'xshashlarni aniqlashi kerak. Bolalarning yoshi ulg'ayib, hayot tajribalari ortishi, sharoitlarning o'zgarishi bilan idrok etish jarayoni va unga qo'yiladigan talab ham murakkablashadi. Navbatchilar yotoqlarning katta-kichikligi, chuqur yoki yuzaligini, piyola va chinni idishlarning og'irligini, sirtining silliqligini, ushlaganda sovuqroqligini, plastmassa buyumlarining engilligini his qiladilar. Sensor tarbiyaning mazmuni o'z ichiga tevarak - atrofdagi hamma sensor belgilarni qamrab oladi. Bular bolalarning hamma faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Bu yoshdagi bolalarga ranglarni farq qilish va ularning nomini aytish o'rgatiladi, rang tuslari buyoqlar haqida tasavvurlar shakllantiriladi. Sezgi va idrok biror maqsadga qaratilgan mazmunli faoliyat jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanadi. Samarali faoliyat (rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar, applikatsiyalar yasash) sezgi hamda idrokning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish bilan birga buyumning, shaklini, rangini, joyini bilib olishga ham ehtiyoj paydo qiladi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar butun yil davomida tabiat bilan tanish tirib boriladi, ularga o'simliklarni, qushlarni, hayvonlarni parvarish qilish topshiriladi. Bu esa er, quyosh issiqligining

xususiyatlarini sezib bilib olish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. “oldinga”, “orqaga”, “tepada-pastda”, “uzoq-yaqin”, “chapda- o‘ngda” kabi fazoviy tasavvurlarni o‘zlashtirib oladilar. Bolalar ko‘proq tabiat bilan aloqada bo‘lishlari tufayli taassurotlari, esh itib ta’sirlanish i xususiyatlari ortib boradi. Bolalarni qushlarning sayrashi, barglarning shitirlashi, shamolning guvillashi, yomg‘irning shatur - shutiri va momaqaldiroqning gumburlashini diqqat bilan tinglashga o‘rgatish zarur. Sensor tarbiyaning asosiy usullaridan biri- tekshirishdir.

Tekshirish — buyumlarni maxsus ravishda tashkil etilgan idrok qilishdan iborat bo‘lib, uning natijalaridan kerakli jarayonlarda foydalaniladi. Buyumlarning xususiyatlarini, nomini va ta’rifini aniqlash, ularni ma’lum bir xossalariga ko‘ra taqqoslash uchun didaktik o‘yin yoki qo‘llanmalardan foydalanish mumkin.Ulardan bolalar bilan olib boriladigan xilma - xil mashg‘ulotlarda mehnat, kuzatishlar va bolalarning mustaqil ishlarida keng foydalanish mumkin.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Sensor tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Sensor tarbiyasining mazmuni va mohiyatini yoriting.
3. Sensor tarbiyasining maqsadini ayting?
4. Sensor tarbiya usullarini ayting?
5. Sensor tarbiyani shakllantirishda tarbiyachining faoliyati qanday?
6. Sensor tarbiyasi qaysi pedagoglar tomonidan yaratilgan?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Qaysi pedagoglar tomonidan yaratilgan sistema bolalarning qo‘lidagimayda muskullarini rivojlantirishga, rang va uning turlari, shakl va hajmi yuksak darajada farz bo‘lishga erishish ni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

- a) Fribel, M .Montesseri, O.Dekroli
- b) Friber, M .Montesseri, O.Dekroli
- c) YA.A. Komenskiy, M .Montesseri

d) Friber, M Lestgaft, O.Dekroli

2. Ta'lim-tarbiya jarayonida esa qaysi metodlarni qo'llash katta samarabermoqda?

- a) "Mantessorin" metodi, "Trizs" metodi
- b) "Mantessorin" metodi, "Og'zaki" metodi
- c) "Mantessorin" metodi, "BLUMM" metodi
- d) "Ko'rgazmali" metodi, "Og'zaki" metodi

3. Sensor so'zining ma'nosini toping.

- a) "Sensor" so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib "sensus"- "tuyg'u", "sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati" ma'nolarini anglatadi.
- b) "Sensor" so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib "senus"- "tuyg'u", "sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati" ma'nolarini anglatadi.
- c) "Sensor" so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib "sesus"- "tuyg'u", "sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati" ma'nolarini anglatadi.
- d) "Sensor" so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib "sensus"- "tuyg'u", "sezgi", "idrok", "ko'rish qobiliyati" ma'nolarini anglatadi.

4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi va kichik maktab yoshidagi bolalar aqliy bilimining sezish orqali idrok etilgan taassurotlar necha qismni tashkil etadi?

- a) 9/10 qismini
- b) 8/10 qismini
- c) 9/11 qismini
- d) 7/10 qismini

7. Sensor tarbiya bolalarda qaysi bilish jarayonlarni shakllantirishga qaratilgan ?

- a. Bolalarda bilish qobiliyatlarini shakllantirishga sezgi idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

- b. Bolalarda hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga sezgi idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.
- c. Bolalarda hissiy qobiliyatlarini shakllantirishga xotira, sezgi idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.
- d. Bolalarda hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga diqqat, xotira, sezgi idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

8. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashda hamda ularda “tuyg‘u, sezgi, idrok, sezish” kabi qobiliyatlarini shakllantirishda qaysi tarbiya muhim o‘rin tutadi?

- a) Sensor tarbiya
- b) Aqliy tarbiya
- c) Axloqiy tarbiya
- d) Jismoniy tarbiya

4- MODUL: TA'LIM NAZARIYASI.

Mavzu-20: Didaktika haqida umumiy tushuncha va uning mazmunmohiyati

1. **Didaktika haqida tushuncha.**
2. **Didaktikaning asosiy kategoriyalari.**
3. **Ta'lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlari.**
4. **Ta'lim haqida umumiy tushuncha.**
5. **Ta'lim jarayonini ifodalovchi me'yoriy hujjatlar.**

Tayanch tushunchalar: didaktika, ta'lim metodi, ta'lim prinsiplari, ta'lim mazmuni, ta'lim qonuniyatlari, ta'limni tashkil etish shakllari, ta'lim bosqichlari, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim maqsadi, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.

Didaktika haqida tushuncha

Didaktika (yunoncha didaktikos – o'qitish, o'rgatish) pedagogikaning ma'lumot olish, ta'lim va tarbiya nazariyasiga oid sohasidir. Didaktika maktab o'quvchilarini ma'lumotli qilish vazifalariga va shu ma'lumot mazmuniga o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish va ko'nikmalar hosil qilish jarayoniga, ta'lim prinsiplari, usullari va uni tashkil etishga oid hamma masalalarni o'rganadi. "Didaktika" atamasi dastlab, asosan XVII asrda chex pedagogi Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlatilgan. U "Buyuk Didaktika" asarida (1657) didaktikaning asosiy masalalarini ishlab chiqdi. XIX asrning o'rtalaridan didaktika pedagogikaning alohida sohaci sifatida ko'p mamlakatlarda o'rganila boshladi.

Didaktika qamrovidagi hamma masalalar demokratik jamiyat quruvchi avlodni tarbiyalash sohasidagi umumiy maqsad va vazifalardan kelib chiqadi. Ma'lumot mazmuni jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda fan va texnika taraqqiyoti darajasini

hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning ob'ektiv ehtiyojlarini o'zida aks ettirgan holda rivojlanadi va o'zgarib boradi. Ma'lumot mazmunning o'zgarishi esa ta'lim prinsiplari, usullari va tashkiliy shakllarining o'zgarishiga, rivojlanishiga ham sabab bo'ladi.

Ta'lim prinsiplari (didaktika prinsiplari) ta'lim usullari va tashkiliy shakllarni ham belgilab beradi. Ta'lim prinsiplarining asosiy tashkiliy shakli o'rta maktabda dars bo'lib, uning ko'p turlari bor. Qay turdagi darsni qo'llash o'rganiladigan materiallarining xususiyatiga, o'quvchilarning yoshiga va bilim omillariga bog'liq. Darsdan tashqari, ta'limning boshqa tashkiliy shakllari - laboratoriya mashg'ulotlari, ekskursiyalar, uy vazifalari, o'quv-tajriba uchastkasida bajariladigan amaliy mashg'ulotlar qo'llaniladi.

Didaktika bu - tadqiqot usullari (o'quv jarayonini kuzatish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, o'quvchilarning ishlarini tahlil qilish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, anketalar tarqatish, matematik usullar va boshqalardan foydalanishdir.

Mustaqillik yillarida muhim voqealardan biri, ya'ni 1997 yil Oliy Majlisning IX-sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni qabul qilishi bo'ldi. Bu asosida ta'lim tizimi bosqichma-bosqich isloh qilinadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek:

"Hayotimizni hal qiluvchi muhim masalalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabiga ko'tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga dahldor qonun loyihalari ham bor".

Bu muhim hujjatlar asosida ta'lim tizimida katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda va ular o'z navbatida har tomonlama mukammal, kamol topgan insonlarni voyaga etkazishda muhim omil bo'lib hizmat qilmoqda.

"O'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z kuchiga, o'zi tanlagan yo'lning to'g'riligiga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi. U jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligidan cho'chimaydi, balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga, hayot haqiqatiga suyangan holda har qanday g'arazli niyat, tahdid va intilishlarini fosh qilishga qodir bo'ladi." (I.A.Karimov).

Didaktikaning predmeti - ta'lim-tarbiya muassasasi sharoitida muallimning rahbarligi ostida amalga oshadigan o'quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari o'rganiladi, o'qitish vositalari va usullari samaradorligini oshirish yo'llari hamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Didaktika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismidir.

Ta'limning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollashtirishdan iborat.

Ta'lim inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Bilimlar - bu o'quvchilar ongida tizimli mustahkamlangan, ularning shaxsiy mulkini tashkil etadigan ma'lumotlar, ilmiy nazariy tushunchalardir. Buni asosida ko'nikma, malaka hosil bo'ladi. O'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish jismoniy kamol topish jarayonini samarali qiladi. Bilimlarning amalda bir necha bor qo'llanilishi, ko'nikmalarning hosil bo'lishiga olib keladi.

Ko'nikma bu – shaxsni ongli ravishda maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshirishdagi qobiliyatidir.

Ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Malaka - o'rganib qolingan, muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir. Malakalar har xil bo'ladi: o'quv malakalari; mehnat malakalari; harakat malakalari (yurish, yugurish, uloqtirish);

Malaka egalangan bilimlar asosida hosil bo'ladi. Ta'limda bilim etakchi o'rinni egallaydi.

Beruniyning ta'kidlashicha, o'qitish izchil, ko'rsatmali, maqsadga muvofiq bo'lishi va ma'lum tizimda olib borilishi lozim. Chunki ko'rsatmalilik ta'limining tushunarliroq va qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi, tafakkurni rivojlantiradi.

Alisher Navoiy hayotining so'nggi yillarida yaratgan "Mahbub ul qulub" chuqur tarbiyaviy ahamiyatga ega falsafiy asardir. Asarda donishmand allomaning o'gitlari pand-nasihatlarini mujassamlashtirgan. Bu asar boshdan oyoq hikmatu nasihatlariga boy bo'lib, pedagoglar ta'lim jarayonida bu pandu-nasihatlardan unumli

foydalanishlari kerak. Chunki asardagi muammolar bugungi kunimizda ham dolzarbdir.

Didaktika rivojiga buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ham katta hissa qo'shgan. Uning "Buyuk didaktika" asari o'qitishni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatdi "Buyuk didaktika" asarida o'quv-tarbiya ishining maqsadi, imkoniyatlari va amaliy ahamiyati kabi umumpedagogik masalalar asosiy o'rinni egallaydi. Undagi asosiy fikrlardan biri tarbiya va o'qitishning tabiatga uyg'un bo'lishi haqidagi g'oyadir.

Komenskiy tarbiyaning tabiatga molik prinsipini pedagogikada birinchi marta nazariy jihatdan asoslab beradi.

O'qitish jarayoning metadologik asosi.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi, uning har qanday harakati maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Kishi maqsadga erishishi uchun yo'lda uchragan to'siqlarni engib o'tishi lozim bo'ladi. Bu to'siqlarni bartaraf qilish uchun u bir qator choralarni qo'llaydi.

Maqsadga etishishdagi muayyan to'siqni engish uchun qo'llaniladigan tadbir va choralar yig'indisi usul (metod) deyiladi.

Yuqorida aytganimizdek kishi maqsadiga etishishda bir qancha to'siqlarni engish uchun turli usullarni qo'llaydi. Ularni u ma'lum bir qonuniyat asosida ya'ni tartib bilan qo'llaydi. SHundan kelib chiqib, maqsadga etishishda qo'llaniladigan usullar tizimini yo'l, uslub (metodika) deyiladi.

Ta'limdagi yutuqlar avvalo - o'qituvchiga bog'liq. Mutaxassis sifatida o'z fanini chuqur bilishi pedagogik muloqot ustasi bo'lishi, uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo'lishi, pedagogik ta'sir ko'rsatishning usul va vositalarini tanlab olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib ya'ni unda o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bilimlarni o'zlashtirishjarayonida sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur

kabi psixik jarayonlar faol ishtirok etadi. O'qituvchi, o'quvchi va talabalardagi fikrlash jarayonini to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyotdan keng foydalanish kerak. O'quvchi va talabalarning erkin fikrlash qobiliyatini amaliy mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan o'stirish lozim. Yaqin va O'rta sharqda Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutaffakkirlar ilmiy didaktika asoschilaridir. Farobiy matematikafani misollari asosida o'qitishning ilmiylik, ko'rsatmalilik, tushunarlik va izchilik prinsiplarini ishlab chiqqan.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari.

1. Ta'lim jarayoni

Bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bir maqsadga qaratilgan faoliyat bo'lib, uning natijasida o'quvchilar ma'lumot oladilar va tarbiyalanadilar.

2. Ta'lim qonuniyatlari

Didaktikaning muhim talablar tizimini tashkil etadi va ular o'qitish jarayonining mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

3. Ta'limning mazmuni

Ta'limning mazmunini bilim malaka va ko'nikmalar tashkil qiladi va ular shaxsini shakllanishi va rivojlanishida asos bo'lib hizmat qiladi.

4. Ta'lim usullari

Ta'lim jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, u o'quvchilarga bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish, tarbiyalashdagi usullar demakdir

- 1. Ta'limni tashkil etish shakllari** O'qituvchi tomonidan tashkil etilgan, o'qitish faoliyati amalga oshiriladigan mashg'ulotlar bo'lib ular o'quvchilarni birlashtirishni o'ziga xos hususiyatidir.

Ta'lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlari

O'qituvchi o'quvchi - talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan ta'lim jarayoni, ya'ni bilim berish orqali uch maqsadni hal qilishi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi.

- 1. Ta'limiy maqsad** - o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq qila olishdir.
- 2. Tarbiyaviy maqsad** - fanni o'zlashtirish orqali undagi g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini shakllantirishdir.
- 3. Rivojlantiruvchi maqsad** - ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchida mustaqil ishlash iste'dodi paydo bo'ladi, ongda ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu jarayonni guruhlariga ajratganimizda quyidagi bosqichlarni ko'ramiz.

Birinchi bosqich

O'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi. Bu bosqich asosan kishining yoshlik va o'smirlik davriga mansubdir.

Ikkinchi bosqich

O'quvchilar o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini tushunib etadilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash hulosa chiqarishdan foydalaniladilar. Bu bilish bosqichi kishining voyaga etgan davriga to'g'ri keladi.

Uchinchi bosqich

Yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar, o'qituvchining qo'shimcha izohlari orqali izohlanadi. O'quvchilar o'zlashtirib olgan bilimlarini amaliyotga tadbiiq etadilar. Bunday bilish bosqichini kishi voyaga etganda "etuklik yoshi"da egallashi mumkin.

Bu bosqichlarni har birida o'ziga hos bilim egallash va amaliy harakatlarning usul va uslublari mavjud. Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim tarbiya jarayonini

samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining hamma bosqichlarida o'qituvchi etakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi.

Yuqoridagi fikrlardan hulosa chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatini muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi. Ya'ni:

- o'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma malakalarni hosil qiladi;
- ularning dunyo qarashini o'stiradi;
- yoshlarning o'qimishli, madaniyatli, tarbiyali bo'lib etishishlariga qobiliyat va iste'dodlarini o'stirishga erishiladi.

Xullas, o'qituvchi keng ko'lamdagi didaktik bilimlarga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina u zamon talabi darajasida ta'lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

Yuqorida aytganimizdek kishi maqsadga etishishda bir qancha to'siqlarni engishi uchun turli usullarni qo'llaydi. Ularni u ma'lum bir qonuniyat asosida, ya'ni tartib bilan qo'llaydi. Shundan kelib chiqib, maqsadga etishishda qo'llaniladigan usullar tizimini yo'l, uslub (metodika) deyiladi.

Demak, inson har qanday faoliyat ko'rsatishi vaqtida, faoliyati yakunida qanday ko'rsatgichlarga erishishini ko'z oldiga keltirib, tabiat va jamiyat rivojlanishning umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqib amalga oshiradi. SHularni e'tiborga olib, metodologiya tushunchasiga quyidagi ta'rifni beramiz.

Metodologiya deb- kishining bir maqsadga qaratilgan harakatida unga tamoyil sifatida xizmat qiluvchi turg'un imkoniyatlar majmuasiga aytiladi.

Pedagagikaning umumiy metodologiyasi bo'lib, didaktika qonuniyatlaridan kelib chiqqan tamoyillar tizimi hisoblanadi.

Ta'lim haqida umumiy tushuncha

Ta'lim insonning mehnatlamiga samaraliroq kirishini jamiyat hayotiga qo'shilishini ta'minlaydi. Mustaqillikka erishib, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanishi yo'lga o'tgan O'zbekistonda hozirgi

bosqichda xalq ta'limi tizimiga pedagogika faniga, yosh avlodda mustaqillik va faollikni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

XX asr pedogoglari va psixologlarining diqqat markazida o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, ularni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish jarayonlarini uyg'unlashtirish kabi muammolar asosiy o'rin oldi.

Ta'lim jarayon bo'lib, u natija va tizimdir. Ta'lim jarayon sifatida - bilimlar, ko'nikma va malakalarning yig'indisini faoliyat va munosabatlarning tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir.

Ta'lim natija sifatida - bilimlarni faoliyat va munosabatlar tajribasini o'zlashtirishda erishilgan darajadir.

Ta'lim tizim sifatida - davlat muassasalari va boshqarish organlarining majmuasi bo'lib, ular doirasida insonning tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi.

Ta'lim deganda shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topishi, har tamonlama barkamollikka intilish jarayonini tushunish mumkin.

Ta'lim degandama'lum hajmdagi bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tushuniladi. Ta'limga shaxsni o'qitish va kamol toptirish jarayoni sifatida qarash ham to'g'ridir. Bundan tashqari, ta'lim, bilimlar, ko'nikma va malakalarni berish va ularni o'zlashtirish bilan bog'liq faoliyat tizimi hamdir.

Ko'rib turibmizki, ta'lim turli shakllarda namoyon bo'ladigan serqirra hodisadir.

O'quv tarbiya jarayonining mazmuni, pedagoglar va o'quvchilarning faoliyati, shuningdek amalga oshirilgan ishlarning natijasiga bog'liq. Mana shularni hisobga olib quyidagilarni aytish o'rinlidir:

Ta'lim mustaqil tizim bo'lib, uning vazifalari jamiyat a'zolarini muntazam ravishda o'qitish va tarbiyalash orqali ularni ko'nikma va malakalar hamda axloq normalari bilan qurollantirishdir. Endilikda bilimdan kishilarni tarbiyalashdek an'anaviy vazifa o'rniga, atroflicha fikr yuritadigan ijodkor kishilarni etishtirish vazifasi olg'a surilmoqda.

Ilgari ma'lumotlik darajasi o'rganilgan qoidalar, tahlil qilingan asarlar soni va masalalarni echish ko'nikmasi bilan belgilangan bo'lsa, hozirgi kunda eng muhim masalalarni qo'ya bilish, har qanday ishga ijodiy yondoshish kabi xislatlar, ma'lumotlilik darajasini ko'rsatadi.

Ta'lim insonni bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasligi, balki uni shaxs sifatida kamol toptirishi ham kerak. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatda ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalari keng yoyilmoqda.

Ta'limni insonparvarlashtirishning eng zarur tomonlaridan biri maktab faqat o'quvchilarga ma'lum hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda yordam berib qolmay, balki ularni madaniyat boyliklari, uning xilma - xilligiga jalb etish kerak.

Ta'lim mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Maktablarda beriladigan ta'limning tarixiy hamda sinfiy xarakterga egadir. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida yoshlarga beriladigan ta'limning mazmuni o'sha ijtimoiy tizimni talab va ehtiyojlari, fan va texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilab kelingan, shu davr iqtisodiy ma'naviy maqsadlari uchun hizmat qildi.

Hozirgi zamon maktablarida ta'limning mazmuni iymonli, e'tiqodli yoshlarni tarbiyalab etishtirishdan iborat. Bundan tashqari maktablarda yoshlarga faqat ilmiy bilimlar berilmasdan, balki turmushda zarur bo'ladigan, axloq odob yo'nalishidagi fanlarni o'qitish talab etilmoqda. Ya'ni: "Odobnoma", "Milliy istiqlol g'oyasi" kabi.

Ta'limning mazmuni o'zgaruvchan, u doimo yangilanib turadi. Hozirgi kunda fan va texnikaning jadal rivojlanishi, madaniyatning yuksalishi tufayli bu jarayon ayniqsa tezlashdi.

Yangi demokratik jamiyat qurayotgan bizning mamlakatimizda ta'limning mazmunini quydagicha shakllashtirish nazarda tutiladi:

-Fan va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish:

- Ikkinchi darajali va ortiqcha murakkablashtirilgan materialdan qutulish;
- O'rganilayotgan fanlar ro'yxatini va materiallar hajmini aniqlash hamda o'quvchi yoshlar o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan malaka va ko'nikmalarning optimal hajmini belgilash;
- O'quv fanlariga oid asosiy tushunchalarni aniq bayon qilish;
- O'quvchilarni kompyuter, kseroks, elektron pochta va shu kabi boshqa bilimlar bilan qurollantirish, hamda shu texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish;

Umumiy ta'lim, politexnik ta'lim, kasbiy ta'limni biror maqsadga qaratilganligi bo'yicha farq qilishi kerak.

Umumiy ta'lim.

- Bu o'quvchilarning har tomonlama umumiy tayyorgarligini va rivojlanishini ta'minlovchi fan asoslarini egallab olishidir.

Kasbiy ta'lim.

- Insonni o'zi tanlagan, nisbatan tor yo'nalishdagi mehnat faoliyatiga xizmat qiladi.

Akademik litseylar.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalishi bo'yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlar asoslarini chuqur mukammal o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Kasb-hunar kollejlari- o'quvchilarni tanlagan yo'nalishlari bo'yicha kasb egallash imkonini beradi. Kasb hunar kollejlari o'quv dasturlari oldingi o'quv bosqichi - umumta'lim maktablari va keyingi pog'onadagi - oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlari bilan o'zaro mutanosiblikda bo'lib, ta'limning uzluksizlik va izchillik prinsipiga amal qiladi.

Barcha maktab predmetlarida beriladigan ta'limning mazmuni davlat hujjatlarida, o'quv rejasida, o'quv dasturlari va darsliklarida aks etgan. Ana shu hujjatlar respublikadagi barcha maktablar uchun majburiydir.

Ta'lim jarayonini ifodalovchi me'yoriy hujjatlar

Maktabning o'quv rejasi, maktabda o'rgatiladigan o'quv predmetlarining taqsimlanishi, har bir predmetga ajratilgan soatlar miqdori va ularni haftalarga bo'linishini belgilaydi. O'quv rejasi halq ta'limi vazirligi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi hamda respublikadagi barcha maktablar uchun majburiy hisoblanadi. O'quv rejasi ta'limning mazmunini belgilaydigan eng muhim hujjat bo'lib, unda mazkur o'quv yurtida o'rganiladigan o'quv predmetlarining tarkibi, ularning o'quv yili va haftalari bo'yicha taqsimlanishi, har bir o'quv predmeti uchun ajratilgan vaqtlar miqdori ana shularga muvofiq ifodalanadi.

O'quv rejasi - ta'lim mazmunini yaxlit xolda aks ettiradigan asosiy hujjatdir.

O'quv rejalari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi;

1. O'quv rejasi o'quv tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad - ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatish.
2. Umumta'lim maktablarda o'quvchilarga bir butun tugal bilim beriladi.
3. O'quv rejasiga kiritilgan fanlar, ajratilgan soatlar, bolalarning yoshi va bilim saviyasiga qarab beriladi. O'quv rejasiga kiritilgan fanlar birinchi navbatda geografiya, biologiya, ximiya, fizika, astronomiya, matematika, informatikadir. Ijtimoiy fanlar, jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi bo'yicha ham o'tkaziladigan mashg'ulotlar ko'rsatilgan bo'ladi.

O'quv dasturi.

Xuddi o'quv rejasi kabi, o'quv dasturi ham davlat hujjati bo'lib, unda har bir o'quv predmetning mazmuni ochib beriladi va o'quv yilida o'zlashtirib olish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi.

O'quv dasturi ikkita vazifani bajaradi; Ta'limning mazmunini o'quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida hizmat qiladi.

O'quv dasturi quyidagi bir qator qoidalarga amal qilgan holda tuziladi.

1. O‘quv dasturi jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlar sohasida erishilgan darajani aks ettirishi kerak hamma o‘quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yil mobaynida qat’iy bo‘lishiga erishmoq kerak.
2. O‘quv dasturida ilmiylik qoidasi. Dasturga borliqni aniq aks ettirgan ishonchli materiallar kiritadi. Ilmiy bilimlarning tobora rivojlanib borishi tufayli o‘quv fanlariga ham o‘zgarishlar kiritiladi va o‘quv dasturidagi ayrim eskirgan masalalar o‘quv fanlaridan chiqarib tashlanadi.
3. O‘quv materiallari mazmunini to‘g‘ri tanlash, undagi aniq misollar, isbotlarga alohida e’tibor beriladi. Aniq misollar bo‘lmasa, o‘rganilayotgan hodisalarni nazariy jihatdan tushunish qiyin.
4. Nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi – bunda ilmiy, nazariy bilimlarning turmushda, ishlab chiqarishda tutgan o‘rni ko‘rsatib beriladi. Ta’lim jarayonidagi nazariy malumotlarning amalda qo‘llanib borish jarayonida o‘z aksini topadi.
5. O‘quv dasturlarida tarixiylik qoidasi, o‘quv dasturlari tarixiylik qoidasiga amal qilgan holda tuziladi. Har bir fanlarni o‘qitishda fan olamida ma’lum ilmiy hodisa va qonunlarning paydo bo‘lishiga oid ma’lumotlar berib o‘tiladi. Dastur ikki usul bilan; ketma -ket va konsentrik (markazlashgan) tarzda joylashtiriladi.
 - Ketma-ket joylashtirilgan, o‘quv materialining har bir keyingi qismi avvalgi qismining davomi bo‘ladi.
 - Markazlashgan tuzilishida - tegishli fan o‘quv materialini o‘qitishning keyingi bosqichlarida murakkab ko‘rinishda takrorlanadi.

Darslik - asosiy normativ hujjat hisoblanadi. Darslik o‘quvchilarning kitobi va eng muhim qurolidir.

Darslik - o‘quv materialini o‘zlashtirishda o‘quvchiga yordam beribgina qolmay, mustaqil bilim olish ishtiyoqini ham paydo qilishi kerak.

Har bir o‘quv faninig mazmuni darslikda batafsil yoritib beriladi.

Darslik bilan bir qatorda - masalalar va mashqlar to‘plami, xrestomatiyalar, lug‘at kitoblari ham tuziladi.

Darslik o'qituvchi uchun ham, metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi; Tushunchalarni kiritish tartibini, ularni yoritish, o'quv materiallariga vaqtning taqsimlanishini belgilaydi. O'quvchilar darslik bilan ham darsda, ham uy sharoitida mustaqil ish olib boradilar.

Obrazli qilib aytganda, darslik o'qitish jarayonining "ssenariysi"dir. O'qituvchi doimo o'quv yili boshlanishidan oldin va har kuni darslikka murojaat qiladi. Darslik o'qituvchining qo'lida juda ko'p vazifalarni bajaradi. U avvalo predmetni o'qitish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Didaktika deb nimaga aytiladi?
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini ko'rsating.
3. Bilim, ko'nikma, malaka tushunchalariga ta'rif bering.
4. Ta'lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlarini ko'rsating.
5. Ta'lim mazmunini nimalar tashkil qiladi?
6. Ta'lim jarayonining mohiyati nimadan iborat?
7. Shaxs rivojlanishida ta'limning roli qanday?
8. O'quv rejasi qanday xujjat hisoblanadi?
9. O'quv rejasini tuzishda qaysi omillarga asoslanadi?
10. O'quv dasturi nima?
11. Darslik nimalarga asoslanib yoziladi?
12. Darslikni o'quvchilarga moslashtirishda nimalarga e'tibor berish lozim?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Didaktika pedagogika fanining qanday sohasi?

- a) pedagogikaning ma'lumot olish, ta'lim nazariyasiga oid sohasidir

- b) pedagogikaning ma'lumot olish, tarbiya nazariyasiga oid sohasidir
- c) pedagogikaning ma'lumot olish, ta'lim va tarbiya metodlarini o'rganuvchi sohasidir
- d) pedagogikaning ma'lumot olish, tarbiya tamoyillari nazariyasiga oid sohasidir

2. Didaktika so'zining ma'nosini toping.

- a) (yunoncha didaktikos – o'qitish, o'rgatish)
- b) (grekcha didaktikos – o'qitish, o'rgatish)
- c) (lotincha didaktikos – o'qitish, o'rgatish)
- d) (yunoncha didaktikos – tarbiyalash va o'rgatish)

3. Didaktika atamasi nechinchi asrda pedagogikaning alohida sohaci sifatida ko'p mamlakatlarda o'rganila boshladi?

- a) XIX asrning o'rtalaridan
- b) XVII asr boshlarida
- c) XVII asrda
- d) XVII asr o'rtalarida

4. "Didaktika" atamasi dastlab kim tomonidan ishlatilgan ?

- a) XVII asrda chex pedagogi YA.A.Komenskiy
- b) XII asrda chex pedagogi O.Dekroli
- c) XV asrda chex pedagogi Lestgaft
- d) XVI asrda chex pedagogi YA.A.Komenskiy

5. "Buyuk didaktika" asari nechanchi yilda yozilgan?

- a) 1657 yil

- b) 1635 yil
- c) 1656 yil
- d) 1666 yil

6. Ta'limda bilish faoliyatining nechta bosqichi bor?

- a) 5 ta
- b) 3 ta
- c) 2 ta
- d) 6 ta

22 - mavzu: O'QITISH TAMOYILLARI (PRINSIPLARI)

1. Ta'lim qoidalari (tamoyillari) haqida tushuncha.

2. Ta'lim qoidalari (tamoyillari) tavsifi.

Tayanch tushunchalar: ta'lim tamoyillari, ta'lim qoidasi, ta'limning ilmiy bo'lishi prinsipi, ta'limning tizimli va izchil bo'lishi prinsipi, ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi, ta'limda nazariyani amaliyot bilan bog'lab o'qitish prinsipi, ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik prinsipi, ta'limda ko'rgazmalilik prinsipi, ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirish prinsipi, ta'limda har qaysi o'quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olish prinsipi.

Ta'lim qoidalari (prinsiplari) haqida tushuncha

Ta'lim prinsiplari - o'qitish jarayonlariga qo'yiladigan talablar yig'indisidir.

O'qitish jarayonining asosiy qonuniyatlari didaktik qoidalarda o'z ifodasini topgan.

Didaktik qoidalar deganda o'qitish va o'qish jarayonida amal qilinadigan asosiy qoidalar tushuniladi.

Ta'lim qoidalari deb, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonining yo'nalishi, o'quvchilar

tomonidan ilmiy bilimlarni o‘zlashtirilishi, bilim va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalari yig‘indisiga aytiladi.

O‘qitish prinsiplari bir-biri bilan bog‘liq. Ulardan birining buzilishi o‘z-o‘zidan ikkinchisining buzilishiga olib keladi.

O‘qitish prinsiplari qadimdan yoritilib berilgan. Ular buyuk Sharq va G‘arb allomalarining ijodiy merosida aks ettirilgan. Buyuk o‘zbek mutafakkiri Farobiy “Namunali ta’lim” haqidagi risolasida o‘quvchilarning o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan materialni bayon qilishni eng yaxshi usuli haqida to‘htalib bu ishni ikkita yo‘lini tavsiya etgan: ularning biri-sezishga yaqin narsalarni oldingi o‘ringa qo‘yishdan va ikkinchisi aqlga yaqin narsalarni ilgari surishdan iboratdir. U o‘zining fikrini tushuntirib shunday yozgan: “Aql o‘z harakatini avval seziladigan narsalarga keyin esa hossalarni sintez qilishga yo‘naltirishi ma’qul”. O‘qitish prinsiplari qadimdan yoritilib berilgan. Ular buyuk Sharq va G‘arb allomalarining ijodiy merosida aks ettirilgan.

Ibn Sino ham o‘z asarlarida didaktikaning ko‘rsatmali prinsipi haqida alohida to‘xtalib o‘tgan. U inson o‘quv mashg‘ulotlarida buyumni tashqi xossasini ya’ni buyumning tasvirini ko‘rib chiqsa o‘zi mustaqil holda bilimlarni o‘zlashtira oladi deb hisoblagan va inson mavjud narsalarni ularning tasvirini idrok etish tufayli, unda voqelikni aks ettiruvchi tasavvur shakllanishini uqtirgan.

Olimlarning yuqoridagi fikr va mulohazalarini umumlashtirib aytishimiz mumkinki, o‘qitish prinsiplari yoki yosh avlodga ta’lim tarbiya berish maqsadga muvofiq, ular o‘qishning asosiy etakchi qoidasidir. Ya.A.Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida didaktikaning prinsiplarini ishlab chiqqan.

Ta’lim qoidalari (prinsiplari) tavsifi

Didaktik qoidalar, ta’lim prinsiplari quyidagilar:

1. ta’limning ilmiy bo‘lishi prinsipi.
2. ta’limning tizimli va izchil bo‘lishi prinsipi.

3. ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi.
4. ta'limda nazariyani amaliyot bilan bog'lab o'qitish prinsipi.
5. ta'limda onglik, faollik va mustaqillik prinsipi.
6. ta'limda ko'rgazmalilik prinsipi
7. ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirish prinsipi.
8. ta'limda har qaysi o'quvchiga xos hususiyatlarni hisobga olish prinsipi. Bu prinsiplarga barcha predmet o'qituvchilari rioya qilishlari kerak.

Ta'limning ilmiy bo'lishi prinsipi. Ta'limning zamonaviy fan asoslarida olib borilishi lozim. Bunda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashlar shakllanadi, tafakkur rivojlanadi. Ta'limning ilmiylik qoidasi o'qitish usullariga ham aloqador bo'lib, u ta'lim jarayonida fan - texnika yutuqlaridan foydalana oladigan o'qitish usullarini takomillashtirishni talab etadi.

Ilmiylik qoidasi o'qituvchidan o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqiga alohida e'tibor berish u yoki bu masalarni ilmiy asosda tushunishni, ilmiy tushuncha va so'zlarni to'g'ri qo'llashni talab qiladi .

Tabiat hodisalarini (chaqmoq, shamol, yomg'ir) jamiyat hayotidagi muhim o'zgarishlarni ilmiy jihatdan aniq bayon qilish katta ahamiyatga ega.

Bolalar ta'limning daslabki yillaridanoq ishning ratsional usullarini: reja bo'yicha hikoya qilishni, o'qilgan narsalarda asosiy fikrni topa olishni o'zlashtirishlari kerak.

Fan tezkorlik bilan rivojlanayotgan hozirgi kunda bu prinsip ayniqsa muhimdir. SHuning uchun o'qituvchi har bir darsga tayorlanishda darsliklar va o'quv qo'lanmalaridan tashqari darsdan tashqari fandagi so'ngi yutuqlarni yorituvchi matbuot vositalaridan foydalanishlari zarur.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi zamonaviy fan asoslarida olib borilishi lozim. Bunda shug'ullanuvchilar, o'quvchilar va sportchilarda ilmiy dunyoqarashlar shakllanadi, tafakkur rivojlanadi. Ilmiylik qoidasi sport jarayonida yutuqlaridan foydalana oladigan usullarini takomillashtirishni talab etadi.

Ilmiylik tamoyilda trener va o'qituvchidan og'zaki nutqiga alohida e'tibor berish u yoki bu sportdagi nazariy masalalarni ilmiy asosda tushuntirishni va qo'llashni talab qiladi .

Sportdagi o'zgarishlarni ilmiy jihatdan aniq bayon qilish katta ahamiyatga ega.

O'quvchilar va sportchilar sport sohasi bo'yicha ta'lim olishning daslabki vaqtlarida sportning paydo bo'lish tarixi, rivojlanishi, sportning har qaysi turidagi rekordlar soni, sport jarayonidagi yutuqlarni va sport sohasida nazariyani mukammal o'rganishi va vaqti kelib o'z shug'ullanuvchilariga ham ilmiy jihatdan ishonarli, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi.

Ilmiylik qoidasi - ilmiy jihatdan ishonarli, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi.

Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi prinsipi. Ta'limning bu qoidasi - ta'lim jarayonini to'g'ri rejalashtirishga, yagona o'quv dasturiga ega bo'lishiga, ta'limda tizimlilikka rioya qilgan holda dars materialini to'g'ri taqsimlanishiga diqqatni qaratish talab qilinadi.

Bu prinsipning asosini, bugun o'rganilgan bilimlar kechagini mustahkamlashi, ertaga o'rganiladiganiga zamin tayyorlashni tashkil etadi.

Ya.A.Komenskiy va I.G.Pestalotssi o'z davrilaridayoq bilimlarni o'rganish uchun ularning navbatdagi har bir zvenosi, o'zidan oldingilariga asoslanishi, yangi bilim, ilgari o'zlashtirilgan bilimlarga mantiqiy bog'lanishi zarurligini ishonarli tarzda isbotlaganlar.

Bilimlarni tizimli bayon qilish bu ularning yangisini ilgari o'tilgani bilan bog'lash, shu orqali o'quvchilarning tushunchalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, materialni qismlari bo'yicha o'rganish, o'zlashtirilgan bilimlarni umumlashtirishga o'rgatishdir.

O'qitishning tizimliliigi fikrlarni tartibga soladi, bilim ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtiradi.

Ta'limning tizimli bo'lishi, uning izchil bo'lishi bilan bog'liq. Izchillikka asoslangan ta'limning harakterli belgisi shundaki u o'quvchilardagi mavjud bilimlar

asosida yangi bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish va yangi bilimlar yordamida oldin o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashni nazarda tutadi.

Bu holda o'quvchilarda har qaysi o'quv fanlarining bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Tizimlilik va izchillik qoidalari o'quv materiallarini mantiqiy jihatdan bog'liq holda va mauayyan bir tartibda o'qitish va o'quvchilarni tizimli bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirib olishlarni ta'minlaydi.

Necha yildan beri ta'limda oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga qoidasi vujudga kelgan. Bu qoida ham tizimlilik prinsipining mohiyatidan iborat.

Jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishdan maqsad – bolalarning salomatligini saqlash, ularning jismonan etuk bo'lib etishishlari uchun shart-sharoitlar yaratish va mashg'ulotlarda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Qanday holatda bo'lmasin, barcha imkoniyatlardan foydalanib, jismoniy tarbiya darslarini muntazam tashkil etish, ularda o'quvchilarning faol qatnashishini ta'minlash, organizmiga foydali yuklamalar berish juda muhim. O'qituvchi 1-4 sinflarda jismoniy tarbiya darslarida shunday pedagogik vazifani qo'yadiki, bu vazifa harakatli o'yinlar, gimnastik mashqlar va engil atletikani kompleks qo'llash asosida hal etiladi. Xalq milliy o'yinlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular o'quvchilarda asosiy harakat malakalarini shakllantiradi, o'sib kelayotgan yosh avlodni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 1-4 sinflarda "Gimnastika", "Engil atletika", "Harakatli va sport o'yinlari" o'quv dasturiga kiritilgan, 4-sinfdan boshlab ta'limda tizimlilikning oddiydan murakkabga qarab borishi bilan "Futbol", "Sport o'yinlari" ga 12 soatdan ajratilishi va 4 - 9 sinflarda esa "Gimnastika", "Akrobatika", "Engil atletika", "Basketbol", "Voleybol", "Qo'l to'pi", "Futbol", "Kurash" sport turlari bo'yicha nazariy va amaliy darslarning qo'yilganligi bu bilan dastur bo'limlaridagi tizimiga amal qilish va o'quvchilarga qo'yiladigan me'yorlarni jismoniy tarbiya o'qituvchisi va murabbiysi albatta yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Avvalo, jismoniy tarbiya darslari va sport trenirovkalari ham tizimlilik va izchilik tamoyiliga asoslanadi. mashg'ulot jarayonida har bir shug'ullanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishni ta'minlaydi.

Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi. Maktablarda beriladigan ta'lim bilan tarbiya bir butun pedagogik jarayonni tashkil etadi.

Maktab ta'limida o'quvchilar turli fanlarni o'rganish orqali dunyoqarashlari kengayadi. Bu esa ularning ma'naviy siyosiy dunyoqarashlarini shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki o'quv fanlarining har bir mavzusi tarbiyalovchilik harakteriga ega. Umuman olganda ta'lim jarayonida ikki o'zaro bog'liqlik, ya'ni hayotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish jarayoni ajralib turadi.

Har bir dars o'quvchilarni yangi bilimlar bilan boyitishi ularning ong bilim doiralarini kengaytirishi, yangi ko'nikma malakalarni shakllantirishi yoki ilgari egallaganlarini takomillashtirishi kerak. O'quvchilar darsdan darsga go'yo pastdan yuqoriga qadam qo'yganidek, bilishning cheki yo'q narvonidan yuqoriga ko'tariladilar.

Jismoniy tarbiya darsida o'qituvchi aniq bir maqsadni ko'zlab inson jismoniy holatini o'zgartirilishi jismoniy tarbiyaning asosiy vazifasidir. Jismoniy tarbiya pedagogik jarayon bo'lib, inson organizmini takomillashtirishga, harakat malakasini va ko'nikmasini, mahoratini shakllantirishga qaratilgan.

Yangi avlod faoliyatni o'zidan avvalgi avloddan o'rgangan bo'lib, ularning o'rtasida bilimlarni, mahorat va malakalarni o'rgatishdan iborat aloqa va davomiylik o'rnatiladi.

Jismoniy tarbiyani o'ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan bir biriga singib ketgan ikki guruhga bo'lish mumkin.

- O'quvchilarda jismoniy salomatlikni mustahkamlash maqsadida jismoniy kamolotga ta'sir o'tkazish, jismoniy sifatlarga ega bo'lish va ularni takomillashtirish;

- O‘quvchilarda jismoniy ta’lim-maxsus mahorat, ko‘nikma va bilim beradigan ta’limni tashkillashtirish;

Jismoniy tarbiya darsi jarayonida aqliy, axloqiy va estetik tarbiya vazifalarini hal etish uchun juda katta imkoniyatlar bor. Bu vazifalarni hal etish shaxsni har tomonlama kamol toptirish omili sifatida jismoniy tarbiyaning rolini kengaytirib, bevosita jismoniy tarbiyaning o‘z muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Ma’naviy va jismonan har tomonlama kamol topgan kishilargina takomillashgan jamiyat quruvchilari bo‘lishi mumkin. Barkamol insonni tarbiyalash jismoniy tarbiya to‘g‘ri tashkil etilgan sharoitda amalga oshadi. Har tomonlama rivojlangan shaxs bo‘lib, etishish biologik hamda ijtimoiy qonuniyatlar talabidir. Insonning jismoniy barkamolligi uning ruhiy kamoloti bilan uzviy bog‘liqdir. Odamning ruhiy dunyosi tashqi ta’sirlar, ijtimoiy muhit hamda insonning atrofidagi sharoitlarni o‘zgartirishga qaratilgan harakati tufayli shakllanadi. Insonning jismoniy tarbiya va sportdagi yutuqlari, rekordlari, oliy darajadagi harakat va ko‘nikmalari shakllanishi sportchining aqliy, axloqiy, ma’naviy estetik va g‘oyaviy-siyosiy shakllanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lganda qadr — qimmatga ega bo‘ladi. Har tomonlama umumiy jismoniy tayyorgarlik inson kamolotining asosiy qonuniyatlaridandir. Jismoniy fazilatlarning takomillashuvi oliy darajadagi harakat malaka va ko‘nikmalarini shakllanganligi maxsus jismoniy tayyorgarligini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Sportda rekordlar ketidan quvish yoki shuhratparastlik hislati shaxsni xar tomonlama rivojlantirish tamoyilini buzadi, va natijada jamiyat uchun xos bo‘lmagan axloqsiz sportchilar shakllanadi.

Ta’limda nazariyani amaliyot bilan bog‘lab o‘qitish prinsipi. Didaktikaning asosiy va etakchi prinsipi ta’limni turmush bilan, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘lab olib borishni taqazo etadi.

Biz o‘quvchilarimizni hayotga, jamiyat qurilishida qatnashishga tayyorlaymiz. Shuning uchun ta’lim amaliyot bilan bog‘lanishi kerak. Nazariyani amaliyot bilan bog‘lash prinsipini ta’lim - tarbiya ishining hamma yo‘nalishlarida amalga oshirish zarur. Farobiy ham o‘z davrida har qanday fanni ikki qismga, amaliy va nazariy qismlarga ajratgan. Mana shu qismlardan hayotda foydalanish imkoniyatlarini

hisobga olgan.Uning amaliy va nazariy qismlarga bergan ta'riflaridan, ta'limni amaliyotga, kishilarning kundalik faoliyatiga bog'lash fikri tug'iladi.Nazariyani amaliyot bilan bog'lash prinsipini amalga oshirish uchun quyidagi tadbirlarga tayanish kerak:

1. o'rganiladigan materialni o'quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan, kichik sinflarda esa ularning o'yinlari bilan bog'lash zarur, chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitish albatta o'yin faoliyatini talab qiladi;
2. ta'limni atrofdagi hayot bilan, yangi jamiyatni qurish amaliyoti bilan bog'lash;
3. nazariyani amaliyot bilan, turli qadamjolarga sayohatlar shaklida bog'lash;
4. nazariy va amaliy yo'sindagi turli masalalarni hal qilish, laboratoriya ishlari bilan shug'ullanish va ishlab chiqarishga doir, mavjud bilimlar asosida praktikumlar o'tkazish;
5. o'quvchilarning unumli mehnat, ya'ni ijtimoiy - foydali ishlarini o'zlariga mos shaklda yo'lga qo'yish - bu prinsip mehnat tarbiyasi va ta'limi jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, ilmiy bilimlarni mazmunini o'zlashtirib olishgina emas, balki bilimlarni amalda qo'llay bilish ham kerak.

O'quvchilar ishini nazariy jihatdan o'rganar ekan ilmni amaliy ehtiyoj tufayli paydo bo'lganini va ilm ishlab chiqarishni takomillashtirishga va hayotni yaxshilashga yordam berishini bilib boradilar.

Maktab ta'limi tizimida nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi o'qish jarayonida amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar, o'quv laboratoriyalari, tajriba er uchastkalarida qo'llaniladi. Bu mashg'ulotlar ularni ilmiy nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish tajribasi bilan qurollantiradi.

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba o'tqazish orqali olgan bilimlarni ishonarli ekanligini tekshiradilar va mustahkamlaydilar. Olgan bilimlarini amalda qo'llash malakalarini hosil qiladilar. O'quvchilar jismoniy tarbiya darslarida olgan nazariy ma'lumotlarni, sport

maydonlarida, zalda, amaliy faoliyatda sinab ko‘radilar va ma’lum natijalarga erishadilar.

Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi. Ta’limning ongliligi o‘quvchilarning o‘qishga ma’suliyatli munosabatda bo‘lishni, o‘qituvchi bergan topshiriqni o‘z vaqtida bajarishini anglatadi.

Bilimlarni ongli va faol o‘zlashtirish o‘quvchilarni ijodiy tashabbuskorligi va mustaqilligini oshiradi, tafakkuri va nutqini rivojlantiradi, dunyoqarashini shakllantiradi. Onglilik tamoyilini sport turini anglashda namoyon bo‘ladi. Jismoniy tarbiya darsi jarayonida shug‘ullanuvchilar faolligi dastavval sport turlari bo‘yicha nazariy bilimlarning aqliy faoliyat va tafakkur qilish faoliyatidir. Mustaqillik qoidasi – o‘z sport turi bo‘yicha trener yordamisiz berilgan topshiriqlarni bajarish.

O‘qitishga ongli munosabat va unda shug‘ullanuvchining faolligi har qanday pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. P.F. Lesgaft ilgari surgan jismoniy tarbiya ta’limidagi onglilik va faollilik tamoyili harakat faoliyatlarini mexanik ravishda taqlid qilib bajarish orqali harakatlarni o‘zlashtirishni qat’iy qoralaydi va birinchilardan bo‘lib harakatlarni taqqoslay olish, uning tahlilini qilish orqali nazariy bilimlarni va harakat faoliyatlarini egallash g‘oyasini ilgari surdi. U “jismoniy mashq bilan shug‘ullanish faqat kuchni, jismoniy rivojlanganlikni ko‘rsatkichlarini oshiradi”, – degan qo‘pol tushunchani asosiy xatolardan biri deb ko‘rsatdi.

Jismoniy tarbiya jarayonida ongli analiz va jismoniy mashqni bajarishda nazoratdan foydalanish ta’limning tamoyilial mexanizmlaridan biridir.

Ongli ravishda bajarilayotgan “ixtiyoriy harakat”ning mohiyatiga etib, uning bajarilishi texnkasining asosi, zvenolari, detallarini nazorat qila olishning ahamiyati ta’lim jarayonida o‘z samarasini berishi ilmiy-amaliy isbotlangan.

Jismoniy tarbiya darslarida shug‘ullanuvchilarda quyidagi ongli bilimni va faollikni mustaqillik ta’minlash lozim.

➤ o‘quvchilarda yuksak axloqiy, ma’naviy fazilatlarni, irodaviy sifatlarni mehnatsevarlik, faollik tarbiyalash;

➤ o‘quvchilarda hayotiy muhim malaka va ko‘nikmalarni yurish, yugurish, uloqtirish, tirmashib chiqish va tushish, suzish, sayohat asbob-anjomlaridan foydalana olish shakllantirish;

➤ o‘quvchilarda jismoniy mashqlar gigienasi, anatomiyasi va fiziologiyasiga doir bilimlarini boyitish:

➤ sport bo‘yicha targ‘ibotchilik, jamoatchilik, tashkilotchilik, instruktorlik malakalarini singdirish, harakatlarning estetikasini to‘g‘ri talqin qilishga odatlantirish;

➤ yuqori sinf o‘quvchilarida ularning kelajakda egallaydigan kasblarini hisobga olgan holda kasb-hunar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;

➤ o‘quvchilarni olimpiya o‘yinlari tarixi, Firdavsiy, Abu Ali Ibn Sino, Navoiy, Bobur, Maxmud Qoshqariy, Abdulla Avloniy va boshqa buyuk olimlarning g‘oyalari, Alpomish, Pahlavon Maxmud, Barchinoy, To‘maris, Asqar polvon va boshqa pahlavonlarning hayotiy, respublikamizning xozirgi kundagi atoqli sportchilarini bilish;

Bolalarning maktabda o‘qitishning birinchi kunlaridan boshlab jismoniy tarbiya darslarida ularning tabiat-sog‘liq inson tushunchasini o‘zlashtirib olishlariga erishish kerak. Masalan: bir kishi haqida o‘zining mustaqil fikriga ega mustaqil fikrlaydi desak, boshqa kishi to‘g‘risida “nimani eshitsa, ishonaveradi, o‘zining mustaqil fikriga ega emas” deymiz. Ana shunday bilimlar ishonchga aylanishining yagona yo‘li o‘quv materialini o‘quvchilar ongida qayta ishlanishidir. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va sport pedagogigining vazifasi o‘zlashtirilgan bilimlarni ishonchga aylantirishdan iborat va bunda shug‘ullanuvchining faolligi muhim o‘rin tutadi.

Bu esa shug‘ullanuvchilarni mustaqil fikrlashga faollik ko‘rsatishga majbur qildi. Bilimlarni ongli o‘zlashtirishlarini ta‘minladi.

Jismoniy mashqlarni ongli o‘rganish tarafdori bo‘lgan P.F.Lesgaft o‘qituvchiga taqlid qilishga yo‘l qo‘ymaslikni talab qildi. U ko‘r-ko‘rona taqlid qilish o‘quvchilarning aqliy va axloqiy rivojlanishlariga, mustaqilligiga zarar etkazadi deb ta‘kidladi. P.F.Lesgaft jismoniy mashqlarni egallash jarayonida onglilikni talab

qiladi, chunki faqat ana shundagina o‘z harakatlarini ongli boshqarish qobiliyati egallanadi.

Ta’limda ko‘rgazmalilik qoidasi. Bu didaktik prinsip muhim hisoblanadi. Bu prinsip o‘qitish jarayonini sifatini oshirishda alohida ahamiyatga ega. Bu prinsip ta’limning his-tuyg‘ular, aniq tasavvurlar asosida qurilishini ta’minlaydi. U ko‘rish, eshitish va boshqa sezgilarni qo‘zg‘atadi. Ko‘rgazmali qurollar bayon qilinayotgan mavzuni mazmuniga mos keladigan, o‘quvchilarni yoshiga mos bo‘lishi zarur.

Ko‘rgazmali qurollarni o‘quvchi idrok etadi. Idrok etish ushlab ko‘rish bilan ham amalga oshadi. Ushlab ko‘rish, narsaning issiqligi, sovuqligi, yumshoqqattiqligi, og‘ir-engilligi shakli va boshqalarni bilish imkonini beradi,

Ya.A.Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida “oltin qoida”ni ifodalagan. “O‘quvchilar” -deb yozadi u, sezib idrok etish mumkin bo‘lgan narsalarni, sezgilar vositasi bilan , ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘z bilan ko‘rib, hidi bor narsalarni hidlab ko‘rib, ta’mini sezish mumkin bo‘lgan narsalarni tatib ko‘rib, ushlab sezish mumkin bo‘lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak” .

Ko‘rgazmalilik prinsipi quyidagi sharoitlarda amalga oshiriladi:

1. ko‘rgazmalilik darsning maqsadi va vazifasiga muvofiq keladi;
2. ko‘rgazmalilik og‘zaki tushuntirish bilan birga qo‘shib olib boriladi;
3. darsda ko‘rgazmalilik haddan tashqari ko‘p qo‘llanilmaydi;
4. o‘qituvchi namoyish qilish o‘rni, vaqti va davomiyligini to‘g‘ri aniqlaydi;
5. ko‘rgazmalilikni amalga oshirishda o‘quvchilarning xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga asoslanadi.

Jismoniy tarbiya darslari va sport mashg‘ulotlarida so‘z va ko‘rgazmalilikni birga qo‘shib olib borishning qaysi shakllaridan ko‘proq va qanday aniq sharoitlar bilan bog‘liq ravishda foydalaniladi.

Yangi harakatni o‘rganishda pedagog odatda uni avval tushuntiradi, so‘ngra ko‘rgazmalilikning u yoki bu usuli yordamida tushuntirish jarayonida egallangan tasavvurlarni tasdiqlaydi va oydinlashtiradi.

Mashqlarni o'rganishda pedagog uni o'zi ko'rsatadi yoki uni bajarishni o'quvchilardan birortasiga taklif qiladi, keyin esa tushuntiradi. Mashqni hamma birgalikda bajaradi va pedagog uni ayni vaqtda tushuntirib beradi. Pedagog o'z qaydlari bilan o'quvchilarning kuzatishlarini yo'llab boradi.

Pedagog so'z-obrazli qiyoslash yordamida, o'quvchilarning ilgari egallagan tasavvurlarga tayanib, ularga yangi aloqalarni, harakat komponentlarini va shu kabilarni anglashlarida yordam beradi.

Kerakli tasavvurlar yuzaga keladigan sharoitlar yaratiladi) musiqa jo'rligi, qarshilik elementlari va boshqalar).

Ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirish prinsipi.

Umumiy ta'lim maktabining eng muhim vazifasi o'quvchilarga ularning hotirasida uzoq vaqt saqlanadigan bilim berishdir. Boshqacha aytganda bu prinsip o'quvchilarning o'quv materiallarini esda qoldirish, eslab qolish kabi xotira faoliyatiga bog'liqdir.

O'quv materiallarining tizimli va ongli o'zlashtirilishi, ularni mustahkam esda saqlab qolishga yordam beradi. Puxta o'zlashtirilgan bilimlar keyingi murakkabroq materiallarni o'zlashtirib olish uchun yordam beradi.

Bilimlarni puxta o'zlashtirishning muvaffaqiyatli takrorlash va mashq qildirishga ham bog'liq. Takrorlash natijasida oldindan o'zlashtirilgan bilimlarga esga tushurilmay, balki yangi ma'lumotlar ham beriladi.

Avvalgi darsni yangi material bilan bog'lash maqsadida ham takrorlash o'tkaziladi.

CHorak davomida o'tilgan mavzular yuzasidan takrorlash olib boriladi.

Ta'limda har qaysi o'quvchilarga hos hususiyatlarni hisobga olish qoidasi.

Didaktikaning bu prinsipi ta'lim berish jarayonida o'quvchilar jamoasiga hos hususiyatlarini kuzatish hamda shu hususiyatga mos muomala qilish juda muhimdir.

Pedagog o'quvchilarni darsdagi va amaliy mashg'ulotlar jarayonidagi ishini uy vazifalarini bajarishni kuzatadi va kuzatish jarayonida u o'quvchining individual hususiyatlarini, qiziqishlari, nutqi, xotirasi, irodasi tafakkuriga mos bo'lgan

hususiyatlarni bilib oladi. Bo'sh o'zlashtiruvchilarning orqada qolish sabablarini aniqlaydi.

Diqqati tarqoq o'quvchilarni oldingi qatorga o'tkazish, ulardan tez-tez so'rash, o'rtoqlari javoblarini to'ldirishga majbur qilish lozim.

Ko'zi ojiz yoki yomon eshitadigan o'quvchilarni ham oldingi qatorga o'tkazish kerak. Ushbu qoidaga jismoniy tarbiya darslarida amal qilish zarurdir.

Individning imkoniyati, qobiliyati, xususiyati, jinsi, yoshi, jismoniy rivojlanganligi, jismoniy tayyorgarligi va hokazolar bu tamoyil mazmunining omillari bo'lib, ta'lim jarayonini boyitadi. Ta'limga ongli munosabat, bu jarayondagi faollikni namoyon bo'lishi, tanlangan faoliyatning ijrosida ko'rgazmalikning samarasi, kuchiga yarashalilik va individning xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq va ko'zlangan maqsadga tez erishish uchun vositadir.

Kuchiga yarashalilikning tub ma'nosi organizmninghayotiy faoliyatining ma'lum ishdagi funksional hususiyati va qobiliyatinihisobga olish demakdir. Bu tamoyil qobiliyatning chegarasini aniqlay olish talabini qo'yadi. Demak, ta'lim jarayoni turli sharoitda xilma-xil tashqi ta'sirini hisobga olishni, shug'ullanuvchi uchun me'yor tanlay bilishni taqazo etadi. Me'yor bo'lib turli xil yoshdagilarning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish dasturlari, ularning jismoniy sifatlari uchun belgilangan normalar xizmat qilishi lozim.

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlarida me'yorni aniqlash tarbiyachi murabbiylar va pedagoglar, tibbiy xodimning birgalikdagi tizimli izlanishlar orqali amalga oshiriladi. Mashq qilish uchun organizmga kuchiga yarasha bo'lmagan mashq me'yoriga mashqni organizmni zo'riqishi orqali energiya sarflashga sistemali majbur qilishning salbiy oqibatlar ham hozirgi kunda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan isbotlangan. Ma'lum darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan sport tayyorgarligi bor shug'ullannuvchining organizmi uchun me'yor hisoblangan hajmdagi jismoniy mashqlar yangi, shug'ullanishni endigina boshlaganlar uchun kuchiga yarasha bo'lishi mumkin, lekin uni me'yor qilib olish noto'g'ri bo'ladi.

Jismoniy tarbiyada kuchiga yarashalilik o'zgaruvchidir. SHug'ullanishning ma'lum davrida tanlangan me'yorga chidash uchun katta jismoniy, ruhiy zo'riqish talablari qo'yilsa, bir muncha vaqtdan so'ng u kuchiga yarasha bo'lib, me'yorga aylanadi-buni tarbiya natijasining ijobiy tomonga o'zgarishi deb qaraladi.

Ma'lumki, yangi harakat vujudga kelgan harakatlarning eskilarini bazasida shakllanadi. Shunga ko'ra jismoniy tarbiya jarayonidagi asosiy hal qiluvchi rolni mashqni o'zlashtirish egallaydi. Materialni shunday o'rgatish lozimki, uning mazmuni, organizmga ta'sirining kuchi, o'qitishning navbatdagi etapi uchun yangi pog'ona rolini o'ynasin.

Bundan tashqari, vazifalarni mashg'ulotdan - mashg'ulotga, asta-sekinlik bilan qiyinlashtirish ham ta'lim jarayonning asosiy shartlaridan biridir.

Bu esa osondan qiyingalilikni taqozo etadi. Bular albatta ta'lim jarayonining uslubiy xususiyatlarini vujudga keltiradi.

Individuallashtirish o'qitishning muhim omili. O'quvchining jismoniy rivojlanganligi ko'rsatkichlari – bo'yi, tanasi va a'zolarining uzun yoki qisqaligi, yo'g'on yoki ingichkaliligi, vazni, bo'g'inlar harakatchanligi, ko'krak qafasi, ekskursiyasi jismoniy sifatlari – kuchlilik, tezkorligi, chaqqonligi, chidamliligining rivojlanganligi, psixologiya nuqtai nazaridan qaysi tipga mansubligi va boshqalar individning xususiyatlari hisoblanib, ular ta'limning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi yoki murabbiyning individni qayd qilingan xususiyatlaridan birortasiga nisbatan loqaydligi tarbiya jarayonida, mashg'ulotlar samaradorligidan ko'zlangan maqsaddan uzoqlashtiradi. Masalan, jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlaridan, bo'yining darozligi (balandligi) – “akselerat”ligidek xususiyati past bo'yli tengdoshi bilan bir guruhda shug'ullanayotganida ta'lim jarayoniga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu holatga tayanib uzunasiga qo'ygan kondan sakrash mashqida o'qituvchi uchun muammoni vujudga keltiradi, ya'ni baland bo'yli uchun depsinish “most”ini sport jihozidan uzoqroq qo'yish lozim, bo'yli tengdoshidan past bo'lgan o'quvchini mashq texnikasini buzib bajarishga sabab bo'ladi. Chunki

jihozidan uzoq qo'yilgan mostdan deqsinish bo'yi tengdoshidan past o'quvchi uchun kuchiga yarashadan ko'proq zo'riqish talab qo'yibgina emas, o'qitishda shug'ullauvchining individual xususiyatini e'tiborga olmaslikga, ortiqcha muammolarni vujudga ketishiga olib keladi.

Jismoniy yuk me'yori bir xil o'quv guruhdagi o'quvchilar uchun jismoniy tayyorlik ko'rsatkichlariga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tanlangan mashqni shug'ullanuvchi kuchiga, tezkorligiga, chidamliligiga bog'liqligi individning xususiy portretining to'laligicha cho'zish imkonini beradi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim tamoyillarining ahamiyati qanday?
2. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy bo'lishi tamoyilining ahamiyati qanday ?
3. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tizimli va izchil bo'lishi tamoyilining ahamiyati qanday ?
4. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyilining ahamiyati qanday ?
5. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi nazariyani amaliyot bilan bog'lab o'qitish ahamiyati tamoyili qanday ?
6. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi onglilik, faollik va mustaqillik tamoyilining ahamiyati qanday?
7. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ko'rgazmalilik tamoyilining ahamiyati qanday ?
8. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirish tamoyilining ahamiyati qanday ?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Ta'lim qoidalari (prinsiplari) nechta?

- a) 10 ta
- b) 8 ta
- c) 12 ta
- d) 9 ta

2. “Namunali ta’lim” haqidagi risolasi muallifini toping.

- a) Alloma AbuAli ibn Sino
- b) Al-Farobiy
- c) Alisher Navoiy
- d) Abdurahmon Jomiy

3. “Aql o‘z harakatini avval seziladigan narsalarga keyin esa xossalarni sintez qilishga yo‘naltirishi ma’qul” degan fikrlar qaysi mutafakkirimizga tegishli?

- a) Alloma AbuAli ibn Sino
- b) Al-Farobiy
- c) Alisher Navoiy
- d) Abdurahmon Jomiy

4. U inson o‘quv mashg‘ulotlarida buyumni tashqi xossasini ya’ni buyumning tasvirini ko‘rib chiqsa o‘zi mustaqil holda bilimlarni o‘zlashtira oladi deb hisoblagan va inson mavjud narsalarni ularning tasvirini idrok etish tufayli, unda voqelikni aks ettiruvchi tasavvur shakllanishini uqtirgan mutafakkirimizni toping.

- a) Alloma AbuAli ibn Sino
- b) Al-Farobiy
- c) Alisher Navoiy
- d) Abdurahmon Jomiy

5. Didaktik prinsiplar kim tomonidan tuzilgan ?

- a) I.G.Pestalotssi
- b) Ya.A. Komenskiy
- c) A.P.Usova
- d) I.G.Lestgaft

6. Jismoniy mashqlarni ongli o'rganish tarafdori bo'lgan..... o'qituvchiga taqlid qilishga yo'l qo'ymaslikni talab qildi bu qaysi pedagog?

- a) I.G.Pestalotssi
- b) YA.A. Komenskiy
- c) A.P.Usova
- d) I.G.Lestgaft

23 – mavzu: Ta'lim metodlari

1. Ta'lim metodlarining umumiy tavsifnomasi.

2. Ta'lim metodlarini tanlash.

Tayanch tushunchalar: ta'lim metodlari, metod, usul, so'z orqali, ko'rgazmali, amaliy, reproduktiv, produktiv, ijodiy, passiv, faol, interfaol, induktiv, deduktiv.

Ta'lim metodlarining umumiy tavsifnomasi.

Makdabdagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib ular orasida o'qitish metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki ular bilimlarni ongli va chuqur o'zlashtirishga o'quvchilarda mustaqillik va ijobiy faollikni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qitish metodlarini tanlashda o'qitilayotgan fanning xarakteri o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

O'qitish metodlari - ikki tomonning (aktiv) faoliyati ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish va o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish faoliyatidagi yo'llari tushuniladi.

O'qitish metodlari darsning mazmuniga qarab o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Masalan: yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llanilsa, uni mustahkamlashda ikkinchisi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llaniladi.

Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha xil guruhlarga ajratish mumkin. Bular: ko'rsatma tajriba metodlari (Ibn Sino) bilimlarni bayon qilishning savol javobli metodlari (Abu Rayhon Beruniy, AlXorazmiy) ko'nikma va malakalarni hosil qilish, bilimlarni tekshirish metodlari (Farobiy, Al-Xorazmiy) va boshqalardan iboratdir.

Bu olimlarning hammasi o'quvchilar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiqiy tafakkurlarni rivojlantirish maqsadini ko'zlaganlar. Har bir o'qituvchining ishida turli metodlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad umumiy, ya'ni tarbiyalanuvchilarni maqsadga muvofiq ta'lim olishlarini ta'minlashdan iborat. O'qitish jarayonini samarali amalga oshirish uchun uslubiy vositalaridan foydalaniladi. Bularga vosita-yordamchi o'quv materiallari: asboblar, apparat, tasviriy ko'rgazma materiallar, mikroskop eksponatlar va boshqalar kiradi. Usul va vositalar o'qitiladigan mavzuning mazmuniga qarab tanlanadi. Masalan: jismoniy tarbiya darslarida mashq qilmay, mashqlarni muntazam tayyorlamay, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. O'qitish metodlariga qo'yiladigan asosiy talablar ta'limning maqsadidan kelib chiqadi. O'qitish metodlari qo'yidagilarni ya'ni:

- ta'limning hayotiy – ommaviy xarakteri va dunyoqarashni tarkib toptirishni:

- o‘quvchilarni puxta, tizimli bilim ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishni;
- o‘quvchilarni har tomonlama aqliy rivojlanishini;
- bilimga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishni ta’minlashi kerak.


O‘quv materialni o‘rganishda darsning maqsadlari anglab olishdan boshlanadi, keyinroq uning mazmun-mohiyatini aniqlash, tamoyillar birikmasini tushunish, mashg‘ulot shaklini tanlab olish, metod va vositalarini ajratib qo‘yish vazifalari qo‘yiladi. O‘qituvchi ta’lim berishda har bir dars boshlanishidan avval “qanday o‘rgataman?” degan savolga javob berib, butun bir birikmadan, katta to‘plamdan metodlarni saralab oladi. Haqiqatdan ham, ta’lim jarayonida o‘qituvchilar aynan ta’lim metodlari orqali muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quvchi-talabalar tomonidan egallashga ko‘maklashadilar.

Metod (yunon tilidan) atamasi, nimagadir usul, yo‘l degan ma’noni anglatadi, ya’ni maqsadga erishish yo‘lini, ish yo‘riqnomasini tanlash metodini bildiradi. SHuning uchun ham kasb ta’lim metodlari deganda o‘qituvchi va o‘quvchitalabalarning birgalikda bajaradigan faoliyat usullari tushuniladi va bu usullar yoshlarning kerakli bilimlarni, ko‘nikma va malakalarini egallashlariga, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Ta’lim metodlarini tanlash.

Ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda, o‘quvchi-talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish qobiliyati, ta’lim manbai, didaktik vazifalarga qarab, munosib ravishda har xil metodlar qo‘llaniladi. Didaktik metodlaridan unumli foydalanishimiz uchun ularni bir tizimga keltirib olishimiz zarur. Metodlarni har qanday muammoni echish, maqsadni bajarish, axborotni uzatish va qabul qilish, bilim-malaka berish va ularni o‘zlashtirish tasnifiga qarab quyidagi to‘rtta guruhlariga ajratish mumkin:

Методлар гуруҳлари



Методлар усуллarga bo‘linadi va ta’lim jarayonining boshqarish mexanizmi hisoblanadi.

Birinchi guruh metodlari - **“O‘qituvchi faoliyati bo‘yicha”** degan metodlar ta’lim jarayonida o‘qituvchining o‘quvchi-talabalarni o‘qitish maqsadida hatti-harakatlarni bildiradi. Bu guruh ichida:

- So‘z orqali ifodalanadigan metod
- Ko‘rgazmali metod;
- Amaliy metod kiradi.

So‘z orqali ifodalanadigan metod - so‘z orqali uzatish va axborotlarni eshitish orqali qabul qilish og‘zaki metodik turlarini, usullarni, ya’ni hikoya, ma’ruza, suhbat, kitob o‘qish va boshqalarni o‘ziga qamrab oladi.

Fanlarni o‘rganish jarayonida o‘quv materialini hikoya, ma’ruza, suhbat, og‘zaki bayon, kitob o‘qish, gapirib berish va tushuntirish orqali amalga oshiriladi, bunda mavzu to‘liq taqqoslaniladi, isbotlanib, misollar bilan tushuntiriladi. Ma’ruza qilinayotgan material o‘quvchi-talabalarning tushunishi uchun qiyin bo‘lgan yangi ma’lumotlarni xabar qiladi. O‘quv ishlarni bajarish yo‘llarini talab qilingan hollarda tushuntirib berish maqsadida ma’ruzachi shu ishlarning aniq mazmuni, mantiqiy tuzilishi va ketmaketligini ifodalab berishga yoshlarga tushunarli va oson etib boradigan, har bir bosqichda fikrni aniq va ravshanligi, yoshlarning e’tiborligini, faolligini oshirishga so‘z orqali harakat qiladi. Ma’ruza va hikoyada o‘quv materialini aytib berish, tasvirlash, mulohaza qilish usullardan foydalaniladi. Ushbu tarzdagi metodni qo‘llashda o‘qituvchi so‘z vositasida mavzuni bayon qiladi va tushuntiradi. O‘quvchilar esa tinglashadi, eslab qolish, anglab etish orqali uni faol qabul qiladi va o‘zlashtiradi. Ma’ruza matnini

tushuntirish uzoq vaqt davomida diqqatni ushlab turish, yoshlarning fikrlashini faollashtirish usullari, ya'ni isbotlash, tasniflash, mustahkamlash, tizimlashtirish, umumlashtirish kabi usullaridan foydalaniladi. Tushuntirish metodi atroflicha o'ylangan fikrlar, savollar yordamida bilim berilib, u o'quvchini isbotlar tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Mavzuning asosini tushuntirish va uqtirishda hikoya metodidan foydalaniladi. O'quv materiallari mazmunini og'zaki bayon qilish, uning asosiy joylarini tushuntirish ko'zda tutiladi. Bu maqsadga erishish uchun, hikoya metodini qo'llash samarali natija beradi. Bu metod orqali mavzuga xizmat qiladigan ma'lumot va voqealarni bayon qilish diqqatni faollashtiradi, xotirada saqlashni jadallashtiradi. Hikoyani bayon qilish metodini samarali qo'llash shartlari: rejani qunt bilan o'ylash, mavzuni yoritishning oqilona izchilligini ta'minlash, misollar va hikoyalarni to'g'ri tanlash darkor. Hikoya bir necha turga bo'linib, hikoya-muqaddima, hikoya-bayon, hikoya-xulosalarga bo'linib, ular mavzuni yoritishga xizmat qiladi. Mavzuni tushuntirishda og'zaki bayon qilish, tushuntirish yoki biror bir lavhani ko'rsatishni ko'zda tutib, hikoyadan o'zining hajmi kattaligi, mantiqiy qo'yilishi, isbotlash va umumlashtirish orqali mavzu maqsadiga erishiladi, hikoya qilish mavzuning maqsadini bir qismiga xizmat qiladi.

Suhbat ta'limning shunday metodidirki, unda o'qituvchi to'g'ri qo'yilgan savollar yordamida yoshlarda ilgari o'zlashtirilgan bilimlar hosil qilib esga tushiradi va shu asosda mustaqil ravishda yangi bilimlar hosil qilishga undaydi. YOshlarni o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilishi va boshqarish savol-javob suhbatlari orqali amalga oshiriladi. Bunday suhbatni evristik suhbat deyiladi. Bu suhbatning didaktik ma'nosi, o'qituvchi yoshlar oldiga yangi savol-javoblar qo'yib, ularning mantiqiy ma'nolari echiladi va ularda o'quv materiallari bo'yicha aniq fikrlar hosil qilinadi. Bu orqali o'qituvchi yoshlarga oldin egallagan bilimlaridan va kuzatuvlaridan, hayotiy va o'qish tajribalaridan foydalanishga, ularni taqqoslashga, aqliy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Suhbatlar ta'lim oluvchilarni qiziqishini, diqqatini oshirishga, bilimlarni yaxshi egallashga olib keladi. Lekin suhbat boshqa og'zaki usullardan ko'ra murakkabroqdir va o'qituvchidan darsga puxta tayyorlanishni talab qiladi.

Fanlarni o'rganishda evristik suhbatning quyidagi shartlarini ko'rsatish mumkin:

1. o'quv material mazmuni mantiqiy to'g'ri tuzilgan;
2. yangi o'quv materialini o'rganishda mavzuni ko'proq mulohaza va muhokama qilishga qaratish kerak;
3. suhbatni boshqa metodlar va o'quv ishlar turlari, masalan, tushuntirish, kitob bilan ishlash, kuzatuvlar bilan birga o'tkazish kerak.

Evristik suhbatda savollar keng qamrovli tuzilgan bo'lishi lozim. Savollar muammoning ko'rinishini, jarayonini, dalillarini va boshqalarni ko'rsatishi, muammo echishda eski va yangi bilimlaridan foydalana olishi, bahs-munozara payti fikrni isbotlashga imkon yaratishga qaratilgani lozim. Suhbat o'tkazishda uning mantiqiy rejasiga qat'iy rioya qilish kerak, savol-javoblarning ketma-ketligi shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, unda mavzu murakkablashib, rivojlanib borishini barchalar sezib anlay olishi kerak. Suhbat xulosa bilan tugalanadi.

Kitob bilan ishlashini ko'pgina metodik turlari didaktida aniq ko'rsatilgan. Bular tez o'qitish, konspekt olish, tayanchini, asosiysini aniqlash va reja tuzish; misollar muxokamasi, mustahkamlash, umumlashtirish va nazorat savollarni qo'yishdir. Kitob bilan ishlashlarida o'quv materialni, vazifalarni yaxshilab o'rganish kerak. Bu vazifalarni rasm chizish tuzilmani yig'ish, jadval to'ldirish orqali kabi ham o'rganiladi.

Ko'rgazmali metod - o'quv axborotni ko'rgazmali tasviriy namoyish qilish, uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodidir. Insonning tashqi olamni sezishining eng muhim organlari – ko'z va quloqdir. Miyaga axborot 80 foizi ko'z va quloq retseptorlari orqali tushadi hamda tasvirlash, ma'lumotlar olish operatsiyalari 80 foizi shular orqali qilinadi. SHulardan ta'lim-tarbiya jarayonida ko'rgazmali metod katta ahamiyatga ekanligini xulosa chiqarishimiz mumkin. Ko'rgazmali metod – bu o'quv jarayonida, o'quv nazariy va amaliy ishlarda ko'rgazmali vositalardan foydalanish, ularni biron narsani tasvirlash va bilim-malakalarni mustahkamlashda ishlatishdir. Uning besh turlari mavjud: **Tabiiy** – o'quv jarayonda o'simlik va hayvonot olamidan, odam tanasidan olgan ko'rsatkichlardan o'quv ishlarda foydalanish;

Moddiy - texnik anjom va inshootlar o'zi, real asbob-uskunalar, dastgoh, tayyor mahsulotlar va jihozlardan foydalanish;

Tasviriy - o'quv jarayonda plakatlar, model va mulyajlar, maket va chizmalardagi jihozlar, auditoriya doskasi, doska-stend, doska-bloknot, tarqatmali didaktik materiallar, ishchi varaqalari, nazorat (test) varaqalari, ma'ruza matnlari, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalari, topshiriq kartochlaridan foydalanish;

Nashr qilingan – barcha chop etilgan o'quv va ko'rgazmali materiallar, darslik va boshqa o'quv qo'llanmalar kabi kitoblardan foydalanish;

Texnik - radio va televizorlar, audio-videoapparatlar, kompyuterlar va ular yordamida eshitish va ko'rsatishga tayyor diskalar, kassetalar, kino va videofilmlar, slaydlar, multimediyadan foydalanish.

O'qituvchi mavzuni tushuntirishda, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazishda ko'rgazma sifatida, yoki bir xil hollarda o'rganilayotgan fan bo'yicha aniq ko'rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko'rgazmali metod juda qulaydir. O'quv jarayonida ko'rgazmali metodni qo'llashda didaktik qonunlarga muvofiq bo'lishi darkor, shu metodni qo'llash maqsadga erishish yo'lidir. O'quvchi-talabalarga savollar berilib, ko'rgazmali metod orqali, masalan, multimedia slaydlari ko'rishga beriladi va har bir kadrni anglab olishda muntazam, ketma-ket tahliliy savollar beriladi, muammolar qo'yiladi, o'quvchi-talabalar sobit qadam vazifalarni bajarishadi. O'qishga berilgan usullarini ko'rsatish vaqtida o'qituvchi ularning diqqati va qiziqishini ko'rsatilayotgan narsaga qaratishi, ularni o'qish harakatlarini faol va ongli ravishda o'zlashtirishga undaydi.

O'qitishning amaliy ishlar metodi. Bu metod o'quv axborotlarni amaliy mehnat harakatlari orqali berish bilan mashqlar, amaliy, seminar va laboratoriya ishlari, mustaqil ishlar, tajribali-amaliy ishlar, o'yinlar va taqlidli vaziyatlar hosil qilish, kuzatuv va hokazolarni o'z ichiga olib, qo'yilgan masalalarni bir necha tirishishlar bilan echishga qaratilgan. Didaktik vazifalarga bog'liq holda amaliy metodning bir necha turlari qo'llaniladi:

- bilimlarni hosil qilish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo'llash, mustahkamlash, bilim, ko'nikma, malakalarni tekshirish.

Amaliy metod ko'pincha o'ziga xos mazmuniga ko'ra aniqlanadi:

- ko'p komponentli o'quv tuzilma, obektlarni turli xil amaliy yo'nalishlarda o'rganish;
- o'quv materialining keng qamrovligini, o'quvchi-talaba turli xil usullarda bilim-malakalarni qabul qilishi;
- o'quv ishlar mehnat va kasb ta'limi bilan o'zaro aloqadorligi;
- o'quv materialni keng qamrovligi, tajribaviy izlanish soni va sifati jihatidan bilim-malakalarni amaliy o'rganish;
- o'quv materiali mazmuniga yangi texnologiyalarni kiritish, mahalliy shartsharoitni aks ettirish.

Mashq amaliy metodning asosiy turlaridan hisoblanadi. Mashq o'tkazishning asosiy maqsadi o'qitish jarayonida o'quvchi-talabalar fanlar bo'yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishni o'rgatishdir. Mashqlar bilim-malakalarni mustahkamlash jarayonida hosil bo'ladigan masalalarni echish uchun qo'llaniladi. Bunday mashqlar hayoti va faoliyatida sodir bo'ladigan jarayonlarga yoshlarni tayyorlaydi. Mashqlarni o'tkazish uchun jarayon hosil qilish kerak bo'ladi. Masalan, o'quvchi-talabalarning jismoniy tarbiya va sport tayyorgarligini xayotiy holatlarda hosil bo'lishini sodir qilishi ayni muddaodir. Bunday jarayonlarni texnologik vazifa sifatida berish mumkin. O'quvchi berilgan vazifani o'rganib, nima sababdan jismoniy rivojlanishi, jismoniy rivojlanishining kelib chiqishi, maqsad qo'yish va echimini topishi, aniqlashi kerak bo'ladi. Bu vazifalar ta'lim oluvchilarga ikki usulda berilishi mumkin: savol va javoblar bilan va savollarning o'zi. Birinchi usuldagi mashqda aniq jarayonni muhokamasi va texnologik jarayonlarni o'rganadi. Bu usullardagi vazifalar o'qitishning boshlang'ich bosqichlarida qo'llaniladi. Ta'lim oluvchilarni ko'nikmasi oshgan sari ularning diqqatini mustaqil ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan jarayonlarni o'rganishga qaratish lozim. Bunda ikkinchi usuldagi vazifalardan foydalanish kerak bo'ladi. Ko'nikma va malaka mashqlar orqali hosil qilinadi. Mashq bu - harakatlarni

ko'p marotaba takrorlashdir. Ta'limdagi mashqlar bir tizimda olib borilishi zarur. Mashqlar tizimida aloqadorliklar bor, masalan o'rganilayotgan mehnat faoliyatini to'g'ri bajarish, uning aniqligi, ishda aniqbir tezlikka ega bo'lish, mustaqillikni shakllantirish, mehnatga badiiy yondashish. Mashqlar tuzilmasiga ikki tomonlama yondashish mumkin.

birinchidan - didaktik maqsad: malakasini shakllantirish bo'yicha mashqlar, boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantirish mashqlari.

ikkinchidan - mazmuniy: mehnat harakatlarini bajarish, mehnat jarayonlarini bajarish bo'yicha mashqlar, texnologik jarayonni boshqarish bo'yicha mashqlar o'tkazish.

Haqiqatdan ham, bilim-malakalarni egallash uchun yangi o'quv vazifalarini bosqichma-bosqich bajarish orqali yangi maqsadlarga ham erishish mumkin. Bu esa mashq o'tkazishning muhim belgisidir. Amaliy metod usullarini bajarish sohasidagi mashqlar o'quv ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish hamda mustahkamlash maqsadida muayyan harakatlarni ko'p marta takrorlash bilan ajralib turadi.

Amaliy va laboratoriya ishlar amaliy metodining turlaridan hisoblanadi. Ta'limda amaliy va laboratoriya ishlari nazariya va amaliy o'qitishni tashkil qilishda muhimdir. Ular ishlash jarayoni, tuzilishi, kamchiligi, boshqarishni amaliy o'rganish uchun o'tkaziladi va shu bo'yicha xulosalarni evristik yakuniy suhbat orqali chiqariladi. Ta'limning amaliy metodiga muammoli usulni ham kiritish mumkin. Muammoli vaziyatlar fanlarning real materiallari va ta'limida kelib chiqadi:

- O'quvchi-talabalar egallagan bilimlarini o'zlariga notanish bo'lgan sharoitlarda amaliy qo'llash;
- Ularni shunday sharoitga qo'yish kerakki, egallagan bilimlari oldiga qo'yilgan masalani echishi uchun ham etarli emasligini ongli tushunishi.

Bunda o'quvchi-talabalarning bilimlari mustahkamlanadi, bilish, malaka, ko'nikma shakllanadi va hayoti va faoliyatida ham o'z bilim-malakalarini qo'llay olishiga yordam beradi.

Amaliy va laboratoriya ishlarining turlari:

- o‘quv predmetini, uning xossasi, mahsulotlarini kuzatish va tahlil qilish;
- o‘quv mehnat turi (mashina, mexanizm, asboblarni)ni kuzatish va asbobini o‘rnatish va ishlatish.

Amaliy metodiga seminar darslar ham kiradi. O‘quvchi-talabalar seminar mavzusi bo‘yicha mustaqil uy vazifalarini tayyorlab kelishadi va seminarda shu tayyorlab kelgan matnlari bilan so‘zga chiqadi va ko‘rgazmalari qurollardan (multimedia), asboblardan, jihozlardan foydalanib tushuntirib beradi. Amaliy mashg‘ulotlardan seminarlar farqi – bunda o‘quvchi-talaba shu ma’ruzaning mavzudagi mustaqil ishni tayyorlashda ma’ruzada echilmagan masalalarini izlash va topib olishga urinadi va o‘z so‘ziga bularni bayon qiladi. O‘quvchi-talabalarning ichki va tashqi faolligini oshirish uchun turli xil o‘yinlardan foydalaniladi. Didaktik o‘yinlar ko‘p qo‘llaniladi. Bular “bumerang” va “ariqcha”, “kichik tanlov”lar, “kim epchilu kim chaqqon”, “aqliy kurashlar”, “buzilgan telefon”, “taqlid qilgan vaziyat”lar va h.k..

Amaliy ishlarda integrativ darslar ham keng qo‘llanilmoqda. Bu darslarda ikki yoki bir necha fanlarning mavzulari o‘rtasidagi aloqadorlik o‘rganiladi. Masalan, jismoniy tarbiya va matematika (jismoniy tarbiya va sportda hisoblash turlari), jismoniy tarbiya va fizika (odam tashqi ko‘rinishining fizik tomonlari), jismoniy tarbiya va kimyo (odam organizmida kimyo jarayonlari), jismoniy tarbiya va biologiya (odam biologik o‘sishi qonuniyatlariga rioya qiluvchi jismoniy tarbiya usullari), jismoniy tarbiya va fiziologiya (odam fiziologik ko‘rinishi va o‘sishi qonuniyatlariga rioya qiluvchi jismoniy tarbiya usullari), jismoniy tarbiya va anatomiya (odam tanasining tuzilishi), jismoniy tarbiya va psixologiya (odam aqliy va ruhiy o‘sishi qonuniyatlariga rioya qiluvchi jismoniy tarbiya usullari), jismoniy tarbiya va tarix (jahon sport va olimpiya o‘yinlari tarixi), jismoniy tarbiya va adabiyot (yunon va o‘zbek mifologiyasi), jismoniy tarbiya va gigiena (odam tanasi va ruhiyatiga ta’sir etuvchi ozodalik), jismoniy tarbiya va madaniyat (jismoniy tarbiya madaniyatning bir turi hisobida) aloqalarni ta’lim jarayonda o‘rnatish bo‘ladi. Bunday darslar ayrim hollarda mavzularni fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali tushuntiriladi va ta’lim oluvchilarning fanni, mavzuni o‘rganish bo‘yicha qiziqishi ortishiga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya va

boshqa fanlar o'rtasidagi integratsion bog'liqlik butun darajada (masalan, o'rta maxsus kasb-xunar ta'lim mussasalarda "Jismoniy madaniyat" kursida "Odam organizmida kimyo jarayonlari" mavzusi mavjud) yoki qisman darajada, fanlararo aloqadorlik, integratsiya shakli bo'lib, fanlar mazmunidagi umumiy elementlar ko'riladi va didaktik sintez orqali umumiy ob'ekt o'rganiladi, amalga oshiriladi (masalan, jismoniy tarbiya darslarida albatta, majburiy tarzda anatomiya fanidan odam tanasining tuzilishi to'g'risidagi bilimlar o'zlashtiriladi).

Amaliy metod o'quvchi-talabalarning o'quv bilish faoliyati faolligi darsdan tashqari ishlarda ham intilishiga oid bilim-malakalarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Darsdan tashqari amaliy ishlar - tanlovlar, ilmiy-amaliy anjumanlar, uchrashuvlar, namunali ishlar ko'rgazmasi, mehnat va ijodiy to'garaklari sport seksiyalarida yaqqol ko'rinadi.

Amaliy metodning ta'limdagi asosiy maqsadi shu soxa bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishdir. SHu asosiy maqsadga bosqichma-bosqich erishiladi.

Quyida amaliy ishlar tushunchasini ochib beruvchi mezon ko'rsatkichlari keltirilgan:

- bajarilayotgan ishning sifati - talablarni bajarish, me'yor va ko'rsatkichlarga mos kelishi, ijobiy natijalar olish;
- vazifa, topshiriq bajarishini tashkil qilish - belgilangan vaqtda bajarish; vaqtdan to'g'ri foydalanish, ish vaqtida tejamkor bo'lish;
- mustaqil ish turini tanlashni bilish, ishning yuqori sifatini ta'minlash, to'g'ri xulosalar chiqarish, o'z-o'zini boshqarishni ishda tashkil qilish, mehnat madaniyati - o'z mehnatini, ishini rejalashtirish, yangi texnologiya bilan ishlay olish, yuqori intizom, bilimlarni ishda qo'llay bilish, mehnat faoliyatini va ish joyini tashkil qilish;
- mehnatda ijobiy yutuqlarga intilish va qobiliyatini o'stirish;
- mehnat faoliyati har tomonlama jihatlardan tahlil qilish va umumlashtirishdir.

Amaliy metod orqali o'quvchi-talabalar mehnat faoliyatini aniq va ravshan ko'rishadi, hamda ish jarayonida mashqlar o'tkazish bilan o'zlarining mehnat

faoliyatlari bilan taqqoslay oladilar. Ularda o'quv mehnat faoliyati ko'rsatilayotgan narsalarni o'rganib olishi, ularni to'liq tushunishi, qismlarni o'rganishi bilan faollik paydo bo'ladi. SHuning uchun o'qituvchi o'z faoliyatida bilim va malakalarni sekinlik bilan ko'rsatib, tuzilmalarni bo'laklarga bo'lib, har birini alohida tushuntirib, ko'rsatib berishi, harakat turlarini takrorlab turib, uni qayta-qayta ko'rsatish kerak.

Amaliy metod deganda mustaqil ishlash tushunchasi ham ifodalanadi. Mustaqil ishlash o'quv vazifa va topshiriqlarni bajarishdan mashqlar jarayonida hosil qilingan o'quv va mehnat ko'nikma va malakalarini to'la-to'kis shakllantirish, yanada takomillashtirish va mustahkamlash maqsadida foydalaniladi. Mustaqil ishlarga muammoli ma'ruza, ijodiy, modellashtirish, ilmiy tadqiqot ishlari kiradi.

Kuzatuv amaliy metodning metodi bo'lib, o'qituvchi rahbarligida va vazifalar bo'yicha o'tkazishadi. Vazifada kuzatishning maqsadi qo'yiladi, ularni olib borish ketma-ketligi, qo'yilgan savollari, kuzatuv ketma-ketligi, mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, ularni echish yo'llari, kimga murojaat qilish, xulosalarni qanday to'ldirish kerakligi ko'rsatiladi, tushuntirib beriladi.

Ikkinchi guruh metodlari **“O'quvchi-talaba o'zlashtirish darajasi bo'yicha”** degan metodlar ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning o'qish maqsadida hattixarakatlarini bildiradi. Bu guruh ichiga:

- Reproduktiv metod
- Produktiv metod;
- Ijodiy metod kiradi.

O'quvchi-talabalarning bilim va malakalarini shakllantirish, mustahkamlash, rivojlantirishda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlab olish muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, o'quvchi-talabalar hammalari birdek va bir ko'rinishda fanlarni o'zlashtira olmaydilar. Ularning birinchi guruhi - o'quv materialni faqat taqlid qilishi bilan o'zlashtirishi mumkin (taqlid qilish, o'xshatish darajasi), ikkinchi guruhi namunaga, misolga qarab o'zlari uni ozmuncha to'ldirishga, o'zgartirishga undaydilar va o'quv materialni ana shunday o'zlashtirishlari mumkin (namunaga qarab ishlash darajasi), uchinchi guruhi - shu narsa, hodisa, vaziyatdan mantiqiy xulosa chiqaradilar

va shu xulosa bo'yicha boshqa bir ishlarni bajarishlari mumkin, shuning bilan o'quv materialni ana shunday o'zlashtirishlari mumkin (mantiqiy xulosa darajasi). SHuning uchun ham o'quvchi-talabalar uchun berilgan o'quv ishlarni, hamma mashqlarni uchta asosiy metod ichlariga sig'dirish kerak va ularni quyidagi me'yorda keltirish mumkin: reproduktiv (taqlid qilish, o'xshatish darajasida bo'lgan o'quvchi-talabalar uchun), produktiv (namunaga qarab ishlash darajasida bo'lgan o'quvchi-talabalar uchun) ijodiy (mantiqiy xulosa darajasida bo'lgan o'quvchi-talabalar uchun).

Reproduktiv metod orqali mashqlarni bajarishda o'quvchi-talabalar qurilmaning tuzilishi, materiali, asbob-uskunalar, yozma vazifalarni o'rganishadi. Reproductive metoddagi mashqlarda o'qituvchi rahbarligida vazifa va topshiriqlar to'liq ifodalanib beriladi, muhokama qilinadi va faqat shundan so'ng o'quvchilar ularni bajarishadi. Bu erda ko'pincha o'qituvchining harakatlarni takrorlab berish, matnni o'qib aytib berish, qonun va qoidalarni yodlab olishi bilan o'quv materialni o'rganish mumkin.

Produktiv metod turdagi mashqlarni bajarishda o'quvchi va talabalar egallagan bilim va malakalaridan turli xil birikmalarda foydalaniladi, ya'ni oldiga qo'yilgan vazifalarning mustaqil, asliy javoblarini topishadi. Produktiv mashq turlaridan biri produktiv masalalarni hal qilish: ob'ektni to'g'ri tanlash, taqqoslash va baholash (ishni bajarish yo'li, qo'llanilishi, jarayonlar borligini aniqlash), aniqlashga bog'liq bo'lgan talab, aloqadorlikka muvofiqlik, turli xil harakat va jarayonlarni tushuntirish. Bu turdagi mashqlar orqali o'rganilayotgan narsa, ish, xodisa, vazifa tuzilgan reja asosida echiladi. O'quvchilar, masalan, bu orqali ikki narsadan asosiysini, keraklisini ajratib olishadi.

Ijodiy metod egallangan bilimlarni mashqlarda ijodiy qo'llashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatidan foydalaniladi va shularni o'stirishga yordam beradi. Ijodiy metodining o'quv fanlarga tegishli bo'lgan bosqichlari va turlari quyidagilar:

Tashxisli mashqlar ish sabablarini o'rganishadi, ishlar bo'yicha jadvallar, vazifalar tuziladi. Mantiqiy mashqlar o'quvchi-talabalar har xil vaziyatlardan chiqa olishni, masalalarni echishni o'rganishadi. Izlanish mashqlari sekin-astalik bilan

o'quvchitalabanning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirib boradi. Ular tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- tuzilmaga o'zgarishlar kiritilganda masalani hal qilish;
- tuzilmada etishmaydigan narsa bilan to'ldirib, kamchiliklarini bartaraf qilib, masalani hal qilish;
- reja, chizma bo'yicha tuzilma loyihasini tuzish;
- talabga ko'ra obektni mustaqil tushunib olish, qurish.

Uchinchi guruh metodlari **“O'quvchi-talaba faolligi, harakatlari bo'yicha”** degan metodlar ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning o'qish maqsadida hatti-xarakatlarini bildiradi. Bu guruh ichiga:

- Passiv metod.
- Faol metod.
- Interfaol metodkiradi.

Passiv metod ta'lim jarayonidafaqat o'qituvchining hatti-xarakatlarini yaqqol bildiradi, o'quvchi-talabalar esa shu payt uning ishlariga qarab turadi, gaplarini tinglab, yozib oladi, fahmlab, anglab oladi. Bu metod ma'ruza, hikoyani tinglashda, o'qituvchining laboratoriyada ishlab turganiga qarashda, video, kino, sahnalashtirilgan hodisa, vaziyatni ko'rishga qaratilgan.

Faol metod – bu jarayonda esa nafaqat o'qituvchining hatti-harakatlarini, balki o'quvchi-talabalar faolligini yaqqol bildiradi. O'quvchi-talabalar o'qituvchining savollariga javob beradi, o'rtaga tashlagan muammoni echadi, vazifa va topshiriqlarni bajaradi. Bu metod nafaqat amaliy mashqlarda, balki ilmiy va nazariy ma'ruzalarda ham faol ishlatiladi

Interfaol metod ta'lim jarayonidafaqat o'quvchi-talabalar bir-biri bilan bo'lgan munosabatlarda hatti-harakatlarini yaqqol bildiradi, o'qituvchi esa oldindan shu faolliklarni rejalashtirib, loyihalashtirib, shu payt ularning ishlariga qarab turadi, gaplarini tinglab, yozib oladi, nazorat qiladi va baholab oladi. Bu metod bo'yicha ko'p yangi interfaol usullar mavjud va ular bunaqa ishlarni ijobiy o'tkazishga imkon yaratadi.

To'rtinchi guruh metodlari **“O‘qituvchining tushuntirish yo‘nalishi bo‘yicha”** degan metodlar ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘qitish maqsadida hatti-harakatlarini bildiradi. Bu guruh ichiga:

- Induktiv metod.
- Deduktiv metod kiradi.

Induktiv metod o‘qituvchilar tahsil qilayotgan barcha bilimlarni induktiv shaklida, ya’ni ilmiy voqeani ayrim yoki hamma qirralari, qismlari, xususiyatlari, holatlarini ta’riflab, o‘quv material tizimida narsalarning, hodisalarning real munosabatlarini tasavvur eta olib, shu bilimning ilk manbaini ko‘ra bilishdan, ya’ni yagona yoki unchalik umumiy bo‘lmagan turidan ko‘proq darajadagi yoki shu turlardan iborat tuzilmaga o‘tishdan va umumiy xulosaga kelishidan iborat bo‘lib ishlatiladi.

Deduktiv metod o‘qituvchilar tahsil qilayotgan barcha bilimlarni deduktiv shaklida, ya’ni bilimning ilk manbaini ko‘ra bilishdan va umumiy xulosani anglab olishidan boshlab, keyincharoq ilmiy voqeani ayrim yoki hamma qirralari, qismlari, xususiyatlari, holatlarini ta’riflab, o‘quv material tizimida narsalarning, hodisalarning real munosabatlarini tasavvur eta olishidan, ya’ni umumiy qoidalardan bo‘lgan xususiy turlariga o‘tishdan iborat bo‘ladi.

O‘quvchi-talabalarni o‘qitishga berilgan metodlarni tanlash asosiy mezoni - ta’lim mazmuniga mos kelishidir. Mazmunlardan biri amaliy metod orqali yaxshi yoritib berilishi, boshqasi esa – so‘z orqali metod yordamida yoritib berilishi mumkin. Birida faol metodni qo‘llash, yana biriga interfaol metod to‘g‘ri kelishi ham mumkin. Lekin butun o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun ta’limning turli xil metodlaridan foydalanish zarur bo‘ladi. Ta’lim metodini tanlashda o‘qituvchi o‘zining imkoniyatlari va pedagogik bilim darajalariga asoslangan holda yondashish kerak, bu orqali yuqori darajadagi o‘quv tarbiya natijalariga erishish mumkin bo‘ladi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.

1. Ta’lim metodlari to‘g‘risida tushuncha bering.

2. Ta'lim metodlariga tasnif bering.
3. O'qitishning og'zaki metodiga tasnif bering.
4. O'qitishning ko'rgazmali metodiga tasnif bering.
5. O'qitishning amaliy metodiga tasnif bering.
6. O'qitishning induktiv va deduktiv metodiga tasnif bering.
7. Ta'limida ko'rgazmali metodlardan foydalanish va ularning ahamiyatini ko'rsating.
8. Ta'limda faol va interfaol metodlarva ularning ahamiyatini izohlab bering.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Metod atamasining ma'nosi nima?

- a) Metod - (yunon tilidan) atamasi, nimagadir usul, yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini, ish yo'riqnomasini tanlash metodini bildiradi.
- b) Metod - (yunon tilidan) atamasi, nimagadir harakat, yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini, ish yo'riqnomasini tanlash metodini bildiradi.
- c) Metod - (yunon tilidan) atamasi, nimagadir usul, faoliyat degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini, ish yo'riqnomasini tanlash metodini bildiradi.
- d) Metod - (arab tilidan) atamasi, nimagadir dars, yo'l degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini, ish yo'riqnomasini tanlash metodini bildiradi.

2. "O'qituvchining tushuntirish yo'nalishi bo'yicha" metodlar guruhini ko'rsating.

- a) Induktiv metod.Deduktiv metod.
- b)Og'zaki metod.
- c) So'z orqali tushuntirish metodi.

d)Ko'rgazmali metod.

3. Ko'rgazmali metoning nechta guruhi mavjud ?

- a) 4 ta
- b) 5 ta
- c) 3 ta
- d) 2 ta

4. "O'qituvchi faoliyati bo'yicha" metodlar guruhini ko'rsating.

- a) So'z orqali ifodalanadigan metod; Ko'rgazmali metod;Amaliy metod kiradi.
- b) Induktiv metod.Deduktiv metod.
- c) Og'zaki metod. Aktiv metod.Interfaol metod.
- d) So'z orqali tushuntirish metodi. Passiv metod

5. Ko'rgazmali metodning tabiiy turiga qanday ko'rgazma vositalari kiradi?

- a) **Tabiiy** – o'quv jarayonda o'simlik va hayvonot olamidani, odam tanasidan olgan ko'rsatkichlardan o'quv ishlarda foydalanish;
- b) **Tabiiy** - texnik anjom va inshootlar o'zi, real asbob-uskunalar, dastgoh, tayyor mahsulotlar va jihozlardan foydalanish;
- c) **Tabiiy** - o'quv jarayonda plakatlar, model va mulyajlar, maket va chizmalardagi jihozlar, auditoriya doskasi, doska-stend, doska-bloknot, tarqatmali didaktik materiallar, ishchi varaqalari, nazorat (test) varaqalari, ma'ruza matnlari, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalari, topshiriq kartochlaridan foydalanish;
- d) **Tabiiy** – barcha chop etilgan o'quv va ko'rgazmali materiallar, darslik va boshqa o'quv qo'llanmalar kabi kitoblardan foydalanish;

6. "O'quvchi-talaba o'zlashtirish darajasi bo'yicha" metodlar guruhini ko'rsating.

- a) Reproduktiv metod; Produktiv metod; Ijodiy metod.
- b) Soʻz orqali ifodalanadigan metod; Koʻrgazmali metod; Amaliy metod kiradi.
- c) Induktiv metod. Deduktiv metod.
- d) Ogʻzaki metod. Aktiv metod. Interfaol me

24 – mavzu: Jismoniy tarbiya oʻqituvchisining samarali pedagogik faoliyatning asosiy omillari va shartlari

- 1. Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi faoliyatining pedagogik jihatlari**
- 2. Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi pedagogi faoliyatining oʻziga spetsifik xususiyatlari.**
- 3. Jismoniy tarbiya va sport sohasida samarali pedagogik faoliyatning asosiy omil va shartlari.**

Tayanch tushunchalar: pedagogi yoʻnaltirish, bilim, malaka, avtoritet (obroʻ, eʻtibor), pedagogik mahorat, pedagogik texnika, spetsifik xususiyat, oʻqituvchining eruditsiyasi, umumiy bilim, maxsus bilim, uslubiy bilim, nazariy bilim, amaliy bilim, konstruktiv malaka, tashkiliy malaka, kommunikativ sifatlar.

Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi faoliyatining pedagogik jihatlari

Jismoniy tarbiya oʻqituvchisining mahoratitortta (4) komponentga asoslanadi:

- 1. pedagogi yoʻnaltirish;
- 2. bilim;
- 3. malaka;
- 4. avtoritet (obroʻ, eʻtibor);

Pedagogik yoʻnaltirish. *Yoʻnaltirish* - bu shaxsning maʼlum bir mashgʻulot turiga intilishi, u mashgʻulot turiga juda qiziqishga asoslanadi. Yoʻnaltirish kishini maʼlum bir faoliyat turi bilan shugʻullanishga undovchi bir necha motiv (sabab)lar bilan tavsiflanadi.

Pedagogik yoʻnaltirish - pedagogik faoliyati bilan shugʻullanishga intilishdir. Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi pedagogik faoliyatini tanlashda ikkita motiv asosiy oʻrinni egallaydi.

- bolalarga muhabbat;
- jismoniy tarbiya vasportga qiziqish.

Bolalarga muhabbat – bu har bir bolaga gʻamhoʻrlik qilish, eʼtiborli munosabat. Bu bolalar bilan muloqot qilishdan quvonish, bu bolalar bilan ishlashga qiziqish, ularni oʻqimishli qilish istagi, ularni jismonan va psixologik rivojlanishiga yordam berishdan iborat.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga qiziqish ikkinchi, asosiy motiv jismoniy tarbiya oʻqituvchisining oʻz ishiga yoʻnalishi unga berilib ishlashi bilan ifodalanadi. Oʻz tanlagan faoliyati uning hayoti mazmuniga aylanib qoladi. Bu ikki natijaga olib keladi. Bir tomondan, oʻqituvchining oʻz kasbiga boʻlgan muhabbati uchun doimiy ravishda oʻz mahoratini oshirib borishga, oʻz hamkasblarining ishi bilan qiziqishga, foydali tomonlarini oʻzlashtirishga, faol ijodiy xodim boʻlishga undaydi.

Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi mahorati avvalo pedagogik faoliyatini asosini tashkil etadigan bilimlar bazasi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya oʻqituvchisining bilimi (eruditsiyasi - oʻqituvchining pedagogi faoliyatidagi imkoniyatlarini belgilab beruvchi omillardan biridir.

Oʻqituvchining bilimi (eruditsiyasi) - umumiy va maxsus bilimlardan tashkil topadi.

Umumiy bilimlar -(umumsiyosiy, adabiyot, sanʼat, tarix va h.k) oʻqituvchining dunyoqarashi va umumiy madaniyatini qamrab olgan bilimlarni oʻz ichiga oladi.

Maxsus bilimlar- oʻqituvchi uchun oʻz jismoniy tarbiya pedagogi faoliyatini amalga oshirish uchun kerakli boʻlgan maʼlumotlar bazasi anatomiya, fiziologiya, psixologiya, pedagogika, maxsus fanlar, futbol, basketbol barcha sport turlarini oʻz ichiga oladi. Bilimlar faqat kitob va jurnallar, hamda boshqa pedagoglarning tajribasidan olinishi kerak emas, balki oʻqituvchi tomonidan oʻz oʻquvchilarini: ularning feʼl-atvori, qobiliyati, layoqati, jismoniy rivojlanishi darajasini oʻrganish

jarayonida orttirilgan bilimlar asosida ham ortib boradi. Buyuk rus pedagogi K.D Ushinskiy “Insonni har tomonlama shakllantirish uchun uni har tomonlama bilish zarur” degan edi. O‘qituvchi egallagan maxsus bilimlarini nazariy, amaliy va uslubiy bilimlarga bo‘lish mumkin.

Nazariy bilimlar- jismoniy tarbiya metodikasi, jismoniy tarbiya tarixi, odam organizmining ishlash qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari va ta’lim tamoyillari ta’lim metodlari, tarbiya metodlari va boshqalardan tashkil topadi.

Amaliy bilimlar - avvalo u yoki bu mashqni bajarish uchun kerakli bilimlar hisoblanadi.

Uslubiy bilimlar – bu o‘quvchilarni qanday o‘rgatish bo‘yicha bilimlar ya’ni mashqni shaxsan bajarish emas, balki bu mashqlarni o‘quvchilar tomonidan bajarilishidir. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi tomonidan o‘rganilgan nazariy va amaliy bilimlarni o‘quvchilarga etkazishda tashkillashtirish jarayonidir. Ayrim pedagoglarda maxsus bilimlar bazasi keng bo‘lishi mumkin ammo bu bilimlarni o‘quvchiga etkazish vaqtida uslubiy bilimlar etishmasligi oqibatida dars jarayonini tashkil etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Avvalo pedagog o‘z faoliyatini mazmunli tashkil etar ekan nazariy, amaliy hamda uslubiy bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi mahoratining yana bir asosiy komponenti malakadir.

Malaka-bu alohida harakat yoki butun bir faoliyatni qoidalar va faoliyatni maqsadiga muvofiq ravishda bajarish usullarini amaliy egallashdir. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisida konstruktiv, tashkilotchilik, kommunikativ, (didaktik va notiqlikni qo‘shgan holda), gnostik (perseptivni qo‘shgan holda), harakatchanlik (amaliy faoliyatni qo‘shgan holda) kabi malakalar shakllangan bo‘lishi lozim.

Konstruktiv malakalar o‘qituvchiga o‘z faoliyatini rejalashtirishga yordam beradi. O‘qituvchi har bir darsdagi har bir daqiqa uchun avvalo o‘quv materialini tanlaydi. To‘g‘ri tanlangan materallar darsni mazmunli o‘tishini ta’minlaydi. Darsni tashkil etishda o‘qituvchida bashorat qilish, tashxis, loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkillashtirish va qaytar aloqa va tugallangan jarayonni kamchiliklarini qayta

loyihalashtirish malakasi bo'lishi muhimdir. Bu persektiv (kelajak) va doimiy rejalashtirishni amalga oshirish malakasi hisoblanib, dars uchun ta'lim metodlari, tarbiya metodlari, sport anjomlari va asbob-uskunalarini to'g'ri tanlash va dars maqsadiga erishish malakasidir.

Tashkiliy malakalardars mashg'uloti uchuno'qituvchining rejalashtirgan ishlarini tashkil etish hisoblanadi. Shunday o'qituvchi borki avvalo yaxshi konspektini tuzishi va to'g'ri rejalashtirishni amalga oshirishi mumkin, ammo darsni tashkillashtirish olmasliklari mumkin. O'qituvchida avvalo tashkilotchilik malakasini rivojlantirish darsni samarali va qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. O'qituvchi faoliyatning asosiy komponentlarini tushuna borib, boshqarishni bilishi, maqsadlarni aniqlay olishi kerak. Mahoratni kasbiy faoliyatni tashkil etishni yuqori saviyada amalga oshirilishini ta'minlaydigan shaxsiy kompleks xususiyatlar yig'indisi degan tushuncha nuqtai nazaridan yondashishga harakat qilamiz. Bunday muhim xususiyatlarga faoliyatning shaxsning insonparvarlik yo'nalishi, kasbiy bilim ko'nikma malakalari, pedagogi qobiliyat, pedagogi texnika, pedagogi muloqot va pedagogi ijodiyot kiradi. Ularga

- *shaxsning insonparvarlik yo'nalishi*: O'qituvchining professional jihatdan muhim bo'lgan sifatlari;
- *g'oyaviy, siyosiy bilimlar*; bunga o'qituvchini dunyoqarashi, har bir o'quvchining kelajagi uchun javobgarlik hissi;
- *o'qituvchining axloqiy sifatlari*: Xushmuomala insoniylik talabchanlik optimizm (yaxshi kayfiyat);
- *kommunikativ sifatlari*: (muomala qila olish qobiliyati) odamlarga yaqinlik, dilkashlik, xushmuomalalilik, e'tiborlilik;
- *pedagogik takt* – o'quvchilarga o'qituvchining maqsadga muvofiq ta'sir me'yori, muomalaning samarali usulini qo'llash ko'nikmasi; Ayniqsa, o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash vaqtida o'qituvchi o'zining xulqiga e'tibor berishi kerak. Bu o'rinda takt avvalo, o'quvchi javobini eshitishda namoyon bo'lishi zarur. Javoblarning mazmuni va shakliga o'ta

e'tibor va qiziqish bilan quloq solish, ma'lum qiyinchilik yuzaga kelganda esa pedagog o'zini tuta bilmog'i lozim. Hamma o'quvchilar qaysi o'qituvchi yaxshi bo'lsa, odob bilan e'tibor berib eshitsu, o'shanga javob berishni hohlaydi. Bu holatlarda tabassum, qarashlar, mimika, bosh qimirlatish bilan javoblarni quvvatlab turish, yo'l-yo'lakay izoh berish juda muhimdir.

- *Kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar.* Bularga fan bilimlari o'qitish uslublari pedagogika bilimlari, psixologiya bilimlari, nazariy bilimlar, kasbiy ko'nikma va malakalarga quyidagilar kiradi: bilimlarni etkaza bilish, tekshirish ko'nikmalari, malakalarni hosil qilish ko'nikmalari, shug'ullanuvchilarni aqliy faoliyatini boshqarish ko'nikmalari (o'qituvchini fikrlash qobiliyati aktivligini qo'zg'ata bilish) , mustaqil ishni uyushtirish ko'nikmasi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi, har hil holatlarni tahlil qilish ko'nikmasi, o'quvchilarni qiziqishini shakllantirish ko'nikmasi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik mahoratidagi yana bir asosiy komponent bu uning obro'-e'tibor(avtoriteti)dir. Pedagog faoliyatning muvaffaqiyatli kechishida o'qituvchining obro'-e'tibori katta o'rin tutadi. O'quvchilar orasida obro'e'tiborga ega bo'lgan o'qituvchi kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Chunki obro'e'tiborga ko'proq ishonadilar va unga taqlid qiladilar va namuna oladilar. Biroq obro'-e'tibor o'qituvchining faoliyati jarayonida paydo bo'ladi, shuning uchun u o'qituvchi mahoratining birlamchi komponenti emas, balki ikkilamchi komponenti hisoblanadi. Obro'-e'tiborli kishi deb ma'lum bir hayot sohasi va faoliyatigda unung fikri bilan hisoblashadigan, unga taqlid qilishga intilishadi, unga u yoki bu masalalar echimini ishonib topshiradigan kishi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining obro'-e'tibori quyidagi komponentlaridan iborat:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi professional insonning obro'-e'tibori shu sohadagi bilim va malakasi, hamda o'qituvchining sport razryadiga bog'liq;
- yoshi - o'qituvchi o'quvchilarga ko'z o'ngida yoshi katta, tajribali inson bo'lib ko'rinadi;

- lavozim obro‘-e‘tibori ya‘ni o‘qituvchining barcha huquq va majburiyatlari bilan pedagog sifatidagi statusi (o‘rni);
- ma‘naviy obro‘-e‘tiborining yo‘qligi, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining boshqa barcha obro‘-e‘tibori komponentlarini yo‘qqa chiqarishi mumkin;
- bosish, engish obro‘-e‘tibori (avtoriteti) o‘quvchilarning o‘qituvchidan qo‘rqishiga asoslanadi (bunday o‘qituvchilar o‘quvchilar idroki itoatkorlikni qabul qila olmasligini unutib qo‘yadilar);
- oraliqni ushlash obro‘-e‘tibori o‘qituvchining o‘quvchilar bilan kamroq muloqotda bo‘lishini bildiradi;
- do‘stlik obro‘-e‘tibori o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘ziga do‘st - sinfdoshga muomala qilgandek ruxsat bergan holda paydo bo‘ladi;
- manmanlik obro‘-e‘tibori (avtoriteti) maqtanchoqlik o‘z qadr-qimmati va o‘tmishdagi xizmatlarini ta‘kidlashga asoslanadi (masalan, o‘qituvchi musobaqalarda qatnashib, yutuqli o‘rinlarni egallagan bo‘lsa va h.k.);
- mehribonlik obro‘-e‘tibori (avtoriteti) ko‘pincha o‘qituvchining ko‘ngilchangligida ko‘rinadi (masalan, o‘qituvchi dasturdagi materialni o‘tish o‘rniga o‘quvchilarga boshqa ishlar bilan shug‘ullanishga ruxsat beradi, yoki ularga ko‘tarib baho qo‘yadi);
- Rezonerlik obro‘-e‘tibori o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘zi tushunmaydigan masalalarga o‘rgatadi;
- Pedantizm obro‘-e‘tibori o‘qituvchining ongli intizomga rioya qilishidan emas, balki byurokratik (qog‘ozboz) rahbarligidan qonun-qoidalarga so‘zsiz rioya qilishida ifodalanadi;
- Soxta obro‘-e‘tibor o‘qituvchi tomonidan biror bir maqsadni ko‘zlamay ham tashkil qilinishi mumkin, lekin har qanday holatda ham u o‘quvchilarning ta‘lim va tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi;

O‘qituvchining imkoniyatlari ko‘p. Ular bilim - malaka, xususiyatlar shaklida amalga oshirilishi, sabablar asosida kuchaytirilishi mumkin. SHu sababli professional mahoratga erishish yo‘llari ham turlicha bo‘ladi. Lekin jismoniy

tarbiya o'qituvchisining pedagogik mahoratining barcha komponentlaridan savodli va biror maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish pedagogik jarayonga rahbarlik qilishda yordam beradi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi pedagogi faoliyatining o'ziga spetsifik xususiyatlari.

Pedagoglik mehnatining hamma turlari uning ixtisosi, o'quv-tarbiya jarayonining xarakteri, ish sharoitlariga qarab muayyan xususiyatlariga ega. Bu jihatdan jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyatining o'ziga xos xususiyati to'g'risida gapirish mumkin.

P.F. Lesgaft jismoniy tarbiya o'qituvchisiga ham maxsus talablar qo'yar edi. "Jismoniy ta'lim rahbari..... o'qitishga aloqador bo'lgan har bir kishi kabi, - deb yozgan edi u, yaxshi ma'lumotli kishi bo'lishi, o'z fanini, shuningdek, yosh organizmining formasi va rivojlanishi faoliyatini yaxshi bilishi kerak. Lekin asosiysi – uning intizomili, vazmin, o'z harakatlarini nozik boshqara oladigan kishi bo'lishi lozim".

Jismoniy tarbiya va sport pedagogi maktabda katta ommaviy ishlarni olib borishadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi faollarni tarkib toptiradi va tarbiyalaydi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi murakkab sharoitlarda ishlaydi. Sport zali sinf xonsiga qaraganda ancha katta, jismoniy tarbiya darslaridagi sharoit vaqti-vaqti bilan almashinib turadi (sport maydonchasi, gimnastika zali, basseyn, chang'i mashg'ulotlari uchun ochiq joy va boshqalar), o'quvchilar xilma-xil va uyushmagan holda foydalanishganda, ko'pincha xavfli bo'lgan asboblarni qo'llaydilar. Bundan tashqari, o'quvchilarning yuqori darajadagi harakat faolligi yomon oqibatlarni jarohatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bir kunda turli yoshdagi o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar alohida kuch-g'ayrat talab etadi, shunday ekan, aniq sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasini hisobga olish lozim bo'ladi. Umumiy ta'lim maktablaridagi jismoniy tarbiya darsida o'qituvchi faqat aqliy kuchini emas, balki ko'pgina jismoniy kuch ham sarflaydi, negaki, u tez-tez harakatlarni ko'rsatib beradi, o'quvchilar sport snaryadlarida mashq qilayotganda ularni ehtiyotlaydi va hokazo.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar

O'qituvchining butun faoliyati (uning yo'nalishi, mazmuni, ish metodlari va formalari) ularning dunyoqarashlari bilan belgilanadi. Kundalik aloqa jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilariga to'g'ri dunyoqarash tarkib toptiradi. Bularning hammasi yuksak darajadagi g'oyaviy e'tiqodni, axloqiy dunyoqarashni ijobiy fazalatlarni shakllantiradi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchi faqat o'rgatibgina qolmasdan, balki tarbiyalaydi ham ong bilim doirasi keng bo'lmasdan turib esa tarbiya berish mumkin. emas. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning xilma-xil mayl va qobiliyatlariga to'g'ri yo'nalish bera olishi kerak. Shuning uchun o'qituvchi doimo o'zlarining madaniy saviyalarini oshirib borishlari, har tomonlama ma'lumotli kishi bo'lishlari lozim.

Doimo fan yangiliklarini nazarda tutadigan, trenerovka jarayonining tuzilishida uning ma'lumotlariga tayanadigan tarbiyachi yaxshi ishlaydi. Yangi, innovatsion material o'qituvchining o'quvchilarda o'qitiladigan fanga jonli qiziqishini uyg'otadi.

O'qituvchi o'zi o'qitadigan fanni mukammal bilishi kerak. Bundan tashqari, pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya masalalarini yaxshi tushunishlari lozim. Ana shu bilimlar va amaliy tajriba asosida pedagogik jarayonni boshqarish, ya'ni o'qitish, tarbiyalash malakasi rivojlanadi.

O'quvchilarning ijodiy faolligiga rahbarlik qilishda, ular havaskorligining turli shakllarini tashkil qilishda, tarbiyaning vazifalarini hal etish yo'lida mahorat va pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini mukammal bilish lozim.

Faqat o'qitish va tarbiyalashga oid barcha metodlarni egallab qolmay, balki ularga o'zining katta muvaffaqiyat qozonishini ta'minlaydigan qandaydir takrorlanmas yangilikni kiritadigan, novator o'qituvchilarning tajribasi o'zlashtirib olishi lozim.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisida pedagogik mahoratni ya'ni yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishda pedagogik texnikani egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnika— bu har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar yig'indisidir.

O'qituvchining ijodiy ishida uning his-tuyg'ulari katta rol o'ynaydi. Pedagoglik ishini bolalar, yoshlarga zo'r muhabbatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hamma narsaga beparvolik bilan qaraydigan, behafsala kishi pedagog bo'la olmaydi, materialni jonli va obrazli qilib bayon eta olmaydi.

O'qituvchining obro'yi ularning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish darajasi bilan o'lchanadi. Obro' o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beradi.

Jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Sog'liqni mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlantirish hamda uning ishlash qobiliyatini oshishiga ta'sir etish.

-

O'quvchilarda yangi harakat turlariga ko'nikma va malakalar hosil qilish va ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish.

- O'quvchilarning yoshiga, jinsiga muvofiq keladigan kuch, tezkorlik chaqqonliq chidamlilikning asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish.
- O'quvchilarda o'z sog'lig'iga ongli munosabatni tarbiyalash bo'lib, bu ularning gigiena qoidalariga roiya qilishlarida, ertalabki gimnastika bilan shug'ullanishlarida hamda sport mashg'ulotlarida namoyon bo'ladi.

Tarbiyachi, pedagog-murabbiylar oldida faqatgina sportda oliy natijalarga erishish emas balki, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash vazifasi turish kerak. Bu vazifani nazariy va amaliy jihatdan etuk bo'lgan hamda o'z kasbini sevadigan mutaxassislar amalga oshiradilar. Sog'liqni mustahkamlash, jismoniy qobiliyatlarni kamol toptirishi va harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish masalalarini amalga oshirishda shug'ullanuvchilar tarkibi xususiyatlarga muvofiq yondashiladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari quyidagi vazifalarni bajarishlari shart:

- dars yuksak darajada o'tishini ta'minlash va tegishli sinf jismoniy tarbiya dasturini to'liq bajarish;
- shifokor bilan birgalikda o'quvchilarni tibbiy tekshiruvdan o'z vaqtida o'tkazib borish va o'z ishlarida tibbiy tekshiruvi natijalarini xisobga olish;
- dars o'tkaziladigan joylarning tegishli sanitariya — gigiena holatida saqlanishini ta'minlash;
- o'quvchilarning hammasida jismoniy mashqlar bilan qulay kiyimlarda shug'ullanishlarga erishish;
- jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim muassasasidan tashqari ishlarni uyushtirish va o'tkazishda ishtirok etish;
- o'quvchilarni jismoniy tarbiyalashning ahamiyati xaqida ota - onalar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish;

- - o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash sohasidagi bilimlarini muntazam oshirib borish;
- o‘quvchini jismoniy madaniyatga qiziqtirish va ularda jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanish odatlarni shakllantirish kabi vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilmog‘i lozim bo‘lib bular pedagogik faoliyatining asosiy negizi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida samarali pedagogik faoliyatning asosiy omil va shartlari.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida samarali pedagogik faoliyatning asosiy omil va shartlari nima ? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? “O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohaslarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”. Ushbu ta’rifning mohiyatidan kelib chiqib, pedagogik faoliyat tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

Jismoniy tarbiya va sport sohasida samarali pedagogik faoliyatning asosiy omil va shartlari

- Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql zakovatning yuksak ko‘rsatkichi;
- O‘z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi;
- Pedagogika, pedagogik – psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganlik, ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalana olish;
- O‘quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal egallaganlik.
- Pedagogikinsonparvarlik yo‘nalishi;
- Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish;
- Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish;
- Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.
- Jismoniy tarbiya va sportni targ‘ibot etish;
- Jismoniy tarbiya va sport vositalari yordamida aholini sog‘lomlashtirish;

-
- Sportchi zahiralari, hamda xalqaro sport maydonlarida O‘zbekiston Respublikasi sporti sha‘nini munosib himoya qila oladigan malakali sportchilarni tayyorlash;
Kelgusida sport mahoratlarini takomillashtirish maqsadida, istiqbolli va iqtidorli bolalar va o‘smirlarni saralab olish va sportda bo‘ladigan yo‘nalishlarini aniqlash.
- Sportchi va shug‘ullanuvchining yosh xususiyatlari, jamoaning ijtimoiypsixologik o‘ziga xosligini inobatga olgan holda mashg‘ulotda tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash;
- Zamonaviy ta’lim talablaridan kelib chiqqan holda mashg‘ulot jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va tahlil qilish;
- Mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish;
- Sportchi va shug‘ullanuvchilar tomonidan o‘quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni o‘zlashtirganlik natijalarini;
- Sportchi va shug‘ullanuvchilarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlay bilish;
- Sportchi va shug‘ullanuvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqish, ehtiyoj va faolliklarini rivojlantirish bo‘yicha turli ko‘rinishdagi ishlarni olib borish;
- Mashg‘ulotdan tashqari sharoitlarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda, to‘garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- Sportchi va shug‘ullanuvchilar, ularning ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish;
- Sportchi va shug‘ullanuvchilarda sog‘lom turmush kechirishga bo‘lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigienaga amal qilish ko‘nikmalarini, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish malakalarini shakllantirish;
- Mashg‘ulot jarayonida turli ko‘rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish;

-
- Didaktik material va ko'rsatmali qurollarni ishlab chiqish;
- Ota-onalarni pedagogik bilimlar asoslari, bolalarning asosiy yosh xususiyatlari, psixologik o'ziga xosliklari, turli yosh bosqichlarida farzandlar bilan ota-onalar o'rtasida kechadigan munosabatlar mohiyatidan xabardor qilish; O'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish

Jismoniy tarbiya va sport pedagogiga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim – tarbiya jarayonida shug'ullanuvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, ma'naviy – ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq–atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat jismoniy tarbiya va sport pedagogining pedagogik faoliyati zahirida takomillashib boradi. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim tarbiya berishda maxsus tayyorlangan. Jismoniy tarbiya va sport pedagoglar mehnati faoliyatidir. Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport pedagogi o'z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:

- Pedagogik faoliyatning maqsadi;
- Pedagogik faoliyatning ob'ekti va sub'ekti; ·
- Pedagogik faoliyatning vositasi.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan shaxs ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayon jismoniy tarbiya va sport pedagogning faoliyat mezonini begilab beradi, faoliyat pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning ob'ektlari bo'lmish shug'ullanuvchilar guruhi va alohida shug'ullanuvchiga, pedagogik jarayonning subektlari—o'qituvchilar, tarbiyachilar, trener pedagog, jismoniy tarbiya

-
o'qituvchilari, pedagogik jamoa tomonidan ta'lim va tarbiya beriladi. Jismoniy tarbiya va sport pedagogining pedagogik madaniyati negizini bolani tushuna olish, unga nisbatan insonparvarlarcha munosabatda bo'lish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, pedagogik faoliyatning haqligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarning hayotda mavjudligini ta'minlashda

qudratli omil (vosita) ekanligiga ishonch kabilar tashkil etadi.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Shaxs shakllanishida jismoniy tarbiya va sport faoliyat turlarining tutgan o'ri.
2. Jismoniy tarbiya va uning asosiy vazifalari.
3. Shaxs shakllanishi va hayot faoliyatida sport spetsifik (o'ziga xos) muhit sifatida o'ri qanday?
4. Pedagogik yo'naltirish nima?
5. Pedagogik faoliyatning maqsadi nima?
6. Pedagogik faoliyatning vositasi nima?
7. Jismoniy tarbiya va sport sohasida samarali pedagogik faoliyatning asosiy omil va shartlarini sanang.
8. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining vazifalarni ayting.
9. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisleri faoliyatining pedagogik jihatlarini ko'rsating.
10. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi pedagogi faoliyatining o'ziga spetsifik xususiyatlarini sanang.
11. Jismoniy tarbiya o'qituvchisiga qanday talablar qo'yiladi?
12. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining bilimi (eruditsiyasi) nima?
13. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining obro'-e'tibori komponentlarini sanang.

Mavzu yuzasidan test savollari:

- 1. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining mahoratitortta nechta komponentgaasoslanadi:**

- a) 5
- b) 4
- c) 3
- d) 2

2. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining mahorati komponentini toping.

- a) pedagogi yo'naltirish; bilim, malaka; avtoritet (obro', e'tibor).
- b) iqtidor, qobiliyat, pedagogik mahorat.
- c) pedagogik texnika, mahorat, aql, zakovat.
- d) pedagogik yo'naltirish, mahorat, texnika, xulq – atvor.

3. Pedagogik yo'naltirish qanday motivga asoslanadi?

- a) Pedagoglik kasbiga qiziqish, bolalarga muhabbat.
- b) Sportga qiziqish, mahoratli bo'lish.
- c) Qobiliyatli bo'lish, iqtidor.
- d) Intilish, qiziqish, kasbga qiziqish.

4. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining bilimi (eruditsiyasi) qanday bilimlardan tashkil topgan.

- a) O'qituvchining eruditsiyasi- texnologik va maxsus bilimlardan tashkil topadi.
- b) O'qituvchining eruditsiyasi- rivojlantiruvchi va maxsus bilimlardan tashkil topadi.
- c) O'qituvchining eruditsiyasi- umumiy va kasbiy bilimlardan tashkil topadi.
- d) O'qituvchining eruditsiyasi- umumiy va maxsus bilimlardan tashkil topadi.

5. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining maxsus bilimi bazasini ko'rsating.

- a) *Maxsus bilimlar* - o'qituvchi uchun o'z jismoniy tarbiya pedagogi faoliyatini amalga oshirish uchun kerak (anatomya, fiziologiya,

psixologiya, pedagogika, maxsus fanlar - futbol, basketbol .. va boshqalar bo'yicha muammolar).

- b) *Maxsus bilimlar* - (umumsiyosiy, adabiyot, san'at, tarix va h.k) o'qituvchining dunyoqarashi va umumiy madaniyatini bildiradi.
- c) *Maxsus bilimlar*- jismoniy tarbiya tarixi, odam organizmining ishlash qonuniyatlari tarbiya va ta'lim tamoyillari va boshqalar.
- d) *Maxsus bilimlar* – bu boshqalarni qanday o'rgatish bo'yicha bilimlar ya'ni mashqni shaxsan bajarish emas balki bu mashqlarni o'quvchilar tomonidan bajarilishidir.

6. Buyuk rus pedagogi“Insonni har tomonlama shakllantirish uchun uni har tomonlama bilish zarur” degan edi.

- a) I.G.Pestalotssi
- b) Ya.A. Komenskiy
- c) A.P.Usova
- d) K.D Ushinskiy

Fan bo'yicha izohli lug'at

(Glossariy)

Axloqiy ideallar shaxsmotivatsion-qadriyatli munosabatining oliy mezoni sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsni jamiyat oldidagi burchi, ma'suliyatini anglab etishi bilan tavsiflanadi. Shaxs munosabati insonning atrof-muhitdagi narsa-hodisa va boshqa insonlar ob'ektiv aloqasiga yo'naltiradi va shaxsning sub'ektiv pozitsiyasini u yoki bu sub'ektga nisbatan nisbiy, shu bilan birga uning ahamiyatliligini baholaydi.

Axloqiy qadriyatlar – o'quvchining burch va shaxsiy majburiyatlari, uning pedagogik jarayonning sub'ekti bo'lish huquqi, bilimlarni egallashdagi axloqiy rag'batlar va motivlar, vatanparvarlik va fuqarolik, mehnat va boshqa kishilarning mehnatini hurmat qilish.

Axloq (arabcha – xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonunqoidalar majmuidir. Axloq – ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi.

Axloqiy tarbiya – yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi: birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rinishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xattiharakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish.

Aql – kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Aql – inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka bo‘lgan munosabatini boshqarib turadigan faoliyati.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Baholash deb bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan etalon (ko‘rstakich, qolip, o‘lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. **Baho** deb baholashning ball shaklida ko‘rsatilgan son jihatdan o‘lchamiga aytiladi.

Bilim– ma‘lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘oyalari yig‘indisi. U inson ongida muayyan tarzda mustahkamlangan, uning shaxsiy mulkiga aylangan, zarur paytda foydalanish mumkin bo‘lgan, algoritm, qoida, postulatlar majmuini o‘zida aks ettiradi.

Bilish – bu ob‘ektiv borliq tavsifining ongdagi ifodasidir. U his-tuyg‘ular (boshqa odam ruhiyatidagilarni his qilish)da, fikrlar (fikrlash)da, til (interpretatsiya)da va xatti-harakat (maqsadga erishish bo‘yicha harakatlar)da namoyon bo‘ladi. Boshqa tomondan, bilish jarayoni – bu narsa-hodisalar haqida haqiqiy va ular haqida oddiy bilimlarni o‘zlashtirish maqsadini aks ettiradigan inson intellektual faoliyati jarayoni. SHuning uchun jarayonning o‘zi insondagi bilimlar va ularning tayanchidan foydalanishni o‘zida aks ettiradi. Agar umumiy tarzda qaraydigan bo‘lsak, bilish – mazmunida yangisini ishlab chiqish uchun mavjud bilimlardan foydalana olish aks etadigan ma‘naviy faoliyat.

Bilish jarayoni – bu to‘laligicha ratsional, faqat aqlga bo‘ysunuvchi, quruq jarayon emas, chunki u tirik kishilar tomonidan amalga oshiriladi, shu sababli bilish emotsional unsurlarni – iroda, niyat, istaklarni o‘z ichiga oladi. Bilish jarayonida biluvchi shaxsi, uning madaniy va shaxsiy darajasi, tabiiy qobiliyatlari, uni qurshab turgan muhit katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun tezda yangi axborotlarni o‘zlashtirish, tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish va ularni amaliyotda qo‘llay olishga erishish juda muhim.

Vatanparvarlik – kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma‘naviyaxloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o‘z Vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u ma‘naviy qadriyatlardan biri.

Gimnastika organizmga nafis ta‘sir etish yoki uning alohida tizim va funksiyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradigan jismoniy mashqdir. Gimnastikaning asosiy, gigienik, sportga oid, badiiy, ishlab chiqarishga doir, tibbiy turlari mavjud.

Global ta‘lim – bu bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarning intellektual, hissiy, jismoniy, axloqiy va ruhiy xususiyatlarini rivojlantirish yordamida ularni tez o‘zgaruvchan, juda murakkab, ko‘p millatli va o‘zaro aloqador hayotga birmuncha sifatliroq tayyorlashga yo‘naltirilgan majmuaviy yondashuvdir.

Guruhli ta‘lim – bir o‘qituvchi bir necha o‘qituvchini o‘qitadigan ta‘lim shakli. Guruhlar o‘quvchilar soniga qarab: kichik (3-6 o‘quvchi), o‘rta (7-15 o‘quvchi), katta (15 dan ortiq o‘quvchi, guruhlar) ga ajratiladi. Shuningdek, har bir guruhdagi ta‘lim oluvchilarning yoshiga, ta‘lim yo‘nalishigga va shu kabilarga qarab ham guruhlarga ajratiladi. Bu shaklni qo‘llash jarayonida yakka ta‘lim shakllari ham amalga oshiriladi.

Davlat ta‘lim standarti – ta‘lim olish shaklidan qat‘iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo‘lgan ta‘lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; o‘quv fani bo‘yicha yakuniy ta‘limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; ta‘lim dasturlari mazmunining minimumi, o‘quvchilar tomonidan bajariladigan o‘quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo‘yiluvchi talablarni belgilaydi.

Dars – bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta‘lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik – muayyan o‘quv fani bo‘yicha ta‘lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni beruvchi

manba bo‘lib, u mazmuni va tuzilishiga ko‘ra fan bo‘yicha yaratilgan o‘quv dasturiga mos keladi. Namunaviy o‘quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Respublika Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirliklari tomonidan barcha maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tavsiya etiladi.

Didaktika (ot grech. *didaktikos* – o‘qitaman, o‘rgataman) – ta’lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogik ta’lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi. “**Didaktika**” atamasi ilk bor nemis pedagogi *Volfgang Ratke* tomonidan “Didaktika, yoki ta’lim san’ati” (1613 y.) deb nomlangan ma’ruzasida qo‘llanilgan. Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marotaba chex pedagogi *YAn Amos Komenskiy*ning “Buyuk didaktika” (1657 y.) asarida ochib berilgan.

Didaktik o‘yin – o‘rganilayotgan ob’ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi. Didaktik o‘yinlar ta’limiy o‘yin sifatida o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o‘yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O‘yinda o‘yin niyati, o‘yin qoidalari, o‘yin harakatlari o‘rtasida uzviy aloqa mavjud. O‘yin niyati o‘yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O‘yin qoidasi esa, o‘yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o‘yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Didaktik ta’minot shaxsning axboriy madaniyatini shakllantirish uchun didaktika, psixologiya, ergonomika, informatika va boshqa fan sohalarining muvafaqqiyatlariga asoslangan holda tashkil etilgan o‘quv-uslubiy majmuani anglatadi.

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviyaxloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Eng muhimi insonning olamga munosabati, dunyodagi o‘rni, mohiyati, hayotiy yo‘nalishini, o‘zligini

anglash kabi savollarga javob beradi. Shuningdek, dunyoqarash “dunyoni tushuntirish”, “dunyoni his qilish”, “ifodani idrok qiliish” kabi tushunchalar bilan yaqin ma’nodosh ekanligini aytish joiz.

Jismoniy madaniyat – bu insonning barcha tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi, uni tobora insoniylashtirib, ham jismoniy, ham ma’naviy chiniqtirib, yuksaltirib boruvchi jarayondir.

Jismoniy mashqlar deganda, jismoniy tarbiya qonuniyatlari va vazifalari bilan bog‘liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda bajarishga qaratilgan harakatlar yig‘indisi tushuniladi. Jismoniy mashqlarga tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, ko‘proq umumlashgan tasnif o‘zida gimnastika, o‘yin, sayr kabilarni qamrab oladi.

Jismoniy tarbiya – o‘quvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo‘naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi. *Jismoniy tarbiya deganda* organizmning morfologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga taalluqli maxsus bilimlarni o‘zlashtirib olish tushuniladi.

Ijodiy qobiliyatlar – bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g‘oya farazini ilgari surish uchun kerak bo‘ladigan bilimlarni ishga sola bilish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash hamda topish, natijada yangi original mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san’at asari, tavsifnoma va h.k.) qobiliyatlaridir.

Ilmiy dunyoqarash - uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Innovatsiya tushunchasi lotin tilidan olingan bo‘lib (in-ga, novus-yangi), “yangilanish”, “o‘zlashtirish”, “qandaydir yangilikni kiritish”, “yangini joriy qilish”, “yangilik kiritish” ma’nolarini beradi. O‘z navbatida “yangi” so‘zi ushbu tushunchaning asosiy yadrosini tashkil etadi. Odatda, yangilanish tushunchasi

ta'limda ko'p hollarda o'zgartirish tushunchasi bilan sinonimdir. Agar ushbu o'zgartirish keng qamrovli bo'lsa va butun ta'lim tizimini o'zgartirsa, unda «islohot» tushunchasi bilan izohlanadi. Lekin barcha o'zgarishlarni yangilik deb qarash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki yangilik o'zida avval boshidanoq qo'yilgan vazifalarning yangilanishini maqsad qilib qo'yadi.

Innovatsion salohiyat deganda, alohida pedagogning va yaxlitlik-da pedagogik jamoaning yangilikni o'zlashtirishga tayyorligi, ulardan amaliyotda foydalana olishi va kutilgan natijalarni qo'lga kiritish olishi tushuniladi. Pedagogika va pedagogik menejmentda innovatsion salohiyat tushunchasi ikki xil tarzda talqin etiladi: keng ma'noda – ta'lim muassasasining innovatsion salohiyati, tor ma'noda – o'qituvchining innovatsion salohiyati.

Intellekt – (lot intellektus – aql idrok, zehn) – keng ma'noda: kishining voqea-hodisa mohiyatini to'laligicha bo'lishiga asoslangan va u orqali namoyon bo'ladigan faoliyati; tor ma'noda: insonning tafakkur, fikr yuritish salohiyatini nazarda tutadi. Intellektual kishilardagi aql idrok, zakovat, ma'noviy jihatdan etuklik darajasini ham izohlaydi; tasavvur, idrok sinchikovlik orqali jamlangan materialni bilish usullari (taqqoslash, abstraksiya, tushuncha, hukm va hakoza.)

Interfaol metod – o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham o'quvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui.

Iqtidor –bu biror bir qobiliyat rivojining yuqori darajasi.

Iqtidorlilik – faoliyatni muvafaqqiyatli bajarilishini ta'minlovchi qobiliyatlarning sifatli o'ziga xos yig'indisi; aqliy salohiyat yoki intellekt; bilish imkoniyatlari va o'rganishga bo'lgan qobiliyatlarning individual tavsifi.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokozolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta'lim - o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish,

savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Kasb – shaxsga qo'yiladigan ma'lum bir talablar bilan tavsiflanuvchi mehnat faoliyatining alohida turi. Maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining turi.

Kasbiy – pedagogik muloqot – pedagog va tarbiyalanuvchining o'zaro zich ijtimoiy – psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – ta'lim oluvchilarda biror ishni bajarish uchun zarur malakalarni jadal ravishda egallash maqsadidan kelib chiquvchi kasbiy ta'lim tizimidir.

Kasbiy ta'lim – kasblar olamiga yo'nalganlik va moslashuvni ta'minlovchi, ijtimoiy va pedagogik tashkil etilgan shaxsning mehnatga doir ijtimoiylashuv jarayoni, aniq mutaxassislik va malakaviy darajani egallash, inson faoliyatining turli sohalarida uzluksiz ravishda malaka, mahoratning oshib borishi va qobiliyatlarning rivojlanishi. Kasbiy ta'lim shaxsning mahoratini qaror topishi, rivojlanishi va shaxsni o'z-o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratib beradi va jamiyatning insonparvar va demokratik maqsadlariga erishishiga yordam beradi.

Konstruktiv faoliyat – u o'zida konstruktiv mazmun (o'quv materiallarini tanlash va joy-joyiga qo'yish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv – operativ (o'zining va talabanning xatti-harakatlarini rejalashtirish), konstruktiv – material (pedagogik jarayonning o'quv-material bazasini loyihalashtirish) ni birlashtiradi.

Kuzatish – atrof-olamdagi hodisalarni diqqat bilan ko‘rish, ulardan muhim, asosiysini ajrata olish, yuzaga kelladigan o‘zgarishlarni belgilash, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash, xulosalar qilish.

Kun tartibi jismoniy tarbiyaning muhim shartidir. Kun tartibi xilma-xil faoliyat hamda dam olishning vaqt jihatdan maqsadga muvofiq taqsimlanishi, hayot tartibidir. Kun tartibini tashkil etuvchi barcha qismlarni (ovqatlanish, uyqu, o‘yin, sayr, mashg‘ulotlar) bir me‘yorda takrorlash natijasida bolalarda faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga o‘tishni engillashtiruvchi mustahkam ko‘nikma hosil bo‘ladi. Aynan kun tartibiga rioya etish bolaning nerv faoliyati tizimi va barcha fiziologik jarayonlarning o‘tib borishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

Ko‘nikma – o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallash. Boshqacha aytganda, egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi.

Layoqat – bu qobiliyat taraqqiyotining dastlabki sharti sifatida namoyon bo‘ladigan miya tuzilishining sezgi organlari va hrakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlaridir. Layoqat qobiliyatning tabiiy zaminidir.

Loyihalashtirish ta‘lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo‘lib, u mashg‘ulotga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. SHuning uchun pedagog mashg‘ulotning texnologik modeli va kartasini ishlab chiqishi lozim. Mashg‘ulot loyihasi qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o‘zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so‘rash, qaerda mavzuni kiritish, mashg‘ulot keyingi bosqichiga qanday o‘tish, oldindan ko‘zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo‘yicha qayta o‘zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Mashg‘ulot loyihasi an‘anaviy rejadan boshqarishga doir ta‘sir ko‘rsatishlarning aniq va tushunarli belgilab olinishi, kutiladigan natijalarning oldindan aniqlanganligi bilan farq qiladi.

Lug‘at – aniq bir tartibda joylashgan so‘zlar (yoki so‘z birikmasi va h.k.) to‘plami bo‘lib, u keltirilgan so‘zlarning mazmuni, mohiyati, fikrlardagi o‘rni, turli holatlarda

ishlatilishi, baʼzan kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi toʻgʻrisida maʼlumot beruvchi nashr.

Madaniyat – kishilarning tabiatni, borliqni oʻzlashtirish va oʻzgartirish jarayonida yaratgan moddiy, maʼnaviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yoʻllari va uslublari majmui. Madaniyat tushunchasida moddiy va maʼnaviy boyliklar hamda inson ruhiy olami ifodalanadi. Shu bois madaniyat tarkibida uch asosiy qatlam mavjud: 1) insoniyatning muntazam aqliy va jismoniy faol ijodiy faoliyati; 2) moddiy va maʼnaviy neʼmatlarni ishlab chiqish, isteʼmol qilish (foydalanish) va asrash; 3) qadriyatlar, axloqiy tushunchalar, huquqiy aʼmollarning hayotga tatbiq etuvchi ijtimoiy tuzilmalar. Madaniyat – faol ijodiy faoliyatdir.

Maktabgacha taʼlim bolaning sogʻlom, har tomonlama kamol topib shakllanishini taʼminlaydi, unda oʻqishga intilish hissini uygʻotadi, uni muntazam taʼlim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha taʼlim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi taʼlim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabdan tashqari taʼlim maktabdan tashqari davlat va nodavlat taʼlim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yoʻnalishlarda yoʻlga qoʻyilib, bolalar hamda oʻsmirlarning taʼlimga boʻlgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning boʻsh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi.

Malaka – avtomatlashgan holatga oʻtgan koʻnikma, takomillashganlikning yuqori darajasi. Koʻnikmalarning qayta-qayta takrorlanishi natijasida hosil boʻladi. Malaka bir xatti – harakatning oʻzini bir xil sharoitlarning oʻzida koʻp marta takrorlash natijasida hosil qilinadi.

Mashq – biror faoliyatni puxta egallash maqsadida qilingan harakatlar ketma-ketligi. Shuningdek, biror faoliyat sifatini yuksaltirish borasidagi faoliyatlar ham mashqqa

taaluqli. Odatda ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi harakatlarni ko'plab takrorlanishi ham mashq natijasida amalga oshiriladi.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarashlar majmui deb kishi sezgi a'zolari, asboblari va hokozolar yordamida qayd etiladigan, tashqi olamdan olingan belgilar to'plamiga aytiladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimlilik, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u hamda xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma'ruza – o'quv material, biror masala, ilmiy, siyosiy mavzularning izchil tartibli og'zaki bayoni. O'quv ma'ruzasi o'quv jarayonining asosiy shakli; oliy o'quv yurtlarida dars berish usullaridan biri. Ma'ruza quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi: 1) yo'naltiruvchi: talabalarni o'quv materialining asosiy jihatlari e'tibor qaratishga imkon berish; 2) axborot: o'qituvchi ma'ruza vaqtida muammoni, muammo bilan bog'liq asosiy dalil va xulosalar mohiyatini ochib beradi; 3) metodologik: ma'ruza jarayonida muammoning falsafiy-nazariy asoslari namoyon etiladi. 4) tarbiyalovchi: talabalarda tinglash, idrok etish, munozarada ishtirok etish madaniyatini shakllantirish; 5) rivojlantiruvchi: talabalarda mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqara olish qobiliyatini rivojlantirish.

Metod so'zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks

etgan. Metod – eng umumiy ma'noda – maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat.

Metodika – qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi"ni ifoda etishi ko'rsatib o'tilgan. "Metodika" tushunchasiga berilgan xilma-xil ta'riflarga tayangan holda quyidagi umumlashmalarga kelish mumkin: 1) metodika – bu o'qituvchi ishini tashkil etishning shakl, metod va vositalari; 2) ma'lum bir faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metod va usullar yig'indisi; 3) bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonini maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish, rejali va tizimli amalga oshirishga yordam beruvchi usullar yig'indisi.

Metodik ta'minot talabalarning auditoriya ishlarining barcha shakllari (ma'ruza, laboratoriya, amaliy, seminar mashg'ulotlari) va auditoriyadan tashkari ish shakllari (mustaqil ta'lim, amaliyotning barcha turlari, nazorat, kurs va bitiruv malakaviy ishlari) hamda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilishning turli shakllarini o'z ichiga qamrab oladi.

Modellashtirish – tadqiqot ob'ektlarini, ularning modellari yordamida o'rganish hamda narsa va hodisalarning talab qilingan modellarini yaratish. Modellashtirish – ta'limning ko'rgazmali-amaliy metodi. Modellashtirish metodi asosida o'rin almashish tamoyili yotadi: o'quvchi real narsa-buyumning o'rnini o'sha predmetning tasviri, qandaydir shartli belgi bilan almashtiradi.

Motiv - insonni o'qishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi.

Motivatsiya – shaxsni faol xatti-harakatlarga undovchi sabablar, asoslar to'plami bo'lib, u ayni zamonda kishi xulqini fiziologik va psixologik boshqarishning dinamik jarayonini ham bildiradi, faoliyatning yo'nalishi, faolligi, uyg'unligi hamda turg'unligini belgilaydi.

Muammo – (yunonchadan - vazifa) hal etishni talab etadigan vazifa, murakkab savol; o'rganish, hal qilish talab etiladi-gan murakkab nazariy va amaliy savol.

Muammo javobi bevosita mavjud bilimda bo‘lmagan va echish usuli no‘malum bo‘lgan masala. Shuning uchun ham muammoni quyish va hal qilish mavjud bilimlar doirasidan chetga chiqishni, yangicha echish usuli, metod-larini qidirishni talab etadi.

Muammoli ta’lim – bu o‘quvchilarning o‘qituvchi muammoli vaziyat sharoitida tushuntirganlarini idrok etish yo‘li bilan bilim va faoliyat usullarini o‘zlashtirishga doir muammoli vaziyatlarni mustaqil (yoki o‘qituvchi yordamida) tahlil qilish, muammolarni ta’riflash va ularni takliflar, farazlar vositasida (mantiqiy va intuitiv) ravishda asoslash va isbotlash, shuningdek echimlarning to‘g‘riligini tekshirish yo‘li bilan hal qilishga oid o‘quv-bilish faoliyatidir.

Muammoli vaziyat – bu insonning yuz bergan hodisani, fakti, voqelik jarayonini qanday tushuntirishini bilmaydigan, unga ma’lum bo‘lgan harakat usullari bilan maqsadga erisha olmaydigan paytda vujudga keladigan intellektual qiynalishidir. Bu insonni yangi tushuntirish yo‘llari yoki harakat usullarini bilishga undaydi. Muammoli vaziyat ijodiy bilish faoliyatining qonuniyatidir. U fikrlashning boshlanishini shart qilib qo‘yadi, faol fikrlash muammolarni qo‘yish va hal qilish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Muloqot – ta’lim oluvchi psixologik va ijtimoiy rivojining muhim omillaridan biri bo‘lib, birgalikdagi faoliyatda umumiy natijalarga erishish, shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro harakati. Muloqot motivlari ta’lim oluvchining asosiy ehtiyojlari bilan tig‘iz bog‘langan bo‘lib, ana shu asosdan kelib chiqib ularni uch muhim kategoriyasini ajratib ko‘rsatish mumkin: bilish, ishbilarmonlik, shaxsiy.

Mustaqil ish – o‘qituvchining topshirig‘i va uning rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limni tashkil etish shakli. Mustaqil ish bu qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda o‘quvchilarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. O‘quvchilarning mustaqil ishlari ularning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka asoslangan faoliyatlaridir.

Mustaqil ta’lim – olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘shimcha ma’lumot yoki materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli.

Mustaqil fikrlash – bu insonning muammoni, uni hal qilish yo‘llarini o‘zi ko‘ra olishi va unga mustaqil javob topa olish qobiliyatidir. Mustaqil fikr tayyor mulohazalarga, boshqalarning fikrlariga qaram bo‘lib qolmaydi. U voqelikni bilishga ijodiy yondashadi va uni o‘rganishning yangi yo‘llarini izlab topadi. Mustaqil fikrlash fikrning tanqidiyligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs ijodiy faolligining muhim qirrasini o‘zida aks ettiradi.

Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylagan fikr bo‘lib, ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: 1) ichki nutq; 2) tashqi nutq. Pedagogikpsixologik adabiyotlar tahlili asosida nutqning quyidagi o‘ziga xosliklarini ajratib ko‘rsatish mumkin: 1. Funktsiyalari: muloqot, shaxsga ta’sir ko‘rsatish, ta’lim va tarbiya vositasi. 2. Shakllari: tashqi nutq (og‘zaki): monolog, dialog, polilog; yozma: doklad, referat, annotatsiya va boshqalar; ichki nuqt. 3. Nutq texnikasi: pedagog ovozinig kasbiy sifati: tembr, intonatsiya, diksiya, temporitm (bir minuda 120 ta so‘z). 4. Nutqiy faoliyat turlari: o‘qish, yozish, gapirish. 5. Nutq uslublari: ilmiy, rasmiy, so‘zlashuv, badiiy, ommabop. 6. Nutqqa qo‘yiladigan talablar: talaffuzning aniqligi, ifodaviylik, emotsionallik, diksiyaning tushunarligi, tovushlarning aniq talaffuz qilinishi, obrazlilik, nutq madaniyati, so‘zdan foydalanish qoidalariga rioya qilish, temporitmga amal qilish. 7. Nutqni egallashda yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklar: monotonlik, temporitmning oshib ketishi, noto‘g‘ri diksiya, so‘zlarni noo‘rin qo‘llash, til qoidalarini buzish.

Nutq madaniyati – ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi ko‘zguddir. Nutq madaniyati adabiy tilning ikki shakli – yozma va og‘zaki shakli uchun zarurdir.

Odat – bu ongliirodaviy harakatlarning ma’lum bosqichdir. Lekin mlakalar va odatlar o‘rtasida muhim farqlar bor. Malakalar biror sohani tez va sifatli bajarishga imon bersa, odat odamning sh faoliyat bilan doimiy shug‘ullanishdir.

Odob deganda, rasm-taomil, xulq-odatlar majmui, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqozosi bilan turmush sharoitining alohida tarzi, an’analari negizida odamlar o‘rtasida paydo bo‘lgan muomala-munosabatlarning xususiyatlari tushuniladi. Odob kishilarning

amaliy xatti-harakatlari, muomala-munosabatlari ham deb qaraladi. **Ong** – psixik faoliyatning oliy shakli. Ong biologik va ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ong insonning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari irodasi va qarashlaridan tashkil topadi.

Pedagogika – (yunoncha, payne - bola, agagiyeu – etaklamoq) – ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limot, tarbiyalash san’ati. Pedagogika ta’lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, metodlari hamda tashkil etish shakllari haqida ma’lumot beruvchi fan.

Pedagogik bilimdonlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me’yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi.

Pedagogik innovatsiyalar deganda, pedagogik yangiliklarni o’rganish, o’zlashtirish, ularni baholash, foydalanish va amaliyotga tatbiq etish tushuniladi. Amaliyotchilarni ko’proq yangilanishlarning aniq natijalari tashvishga sorsa, olimlarni aksincha faoliyatga tegishli bo’lgan bilimlar tizimi qiziqtiradi.

Pedagogik innovatika deganda, pedagogik yangiliklarni yaratish, ularning pedagogik jamoa tomonidan o’zlashtirilishi va baholanishi, ulardan amaliyotda foydalanish jarayonlarini o’rganish tushuniladi. Pedagogik innovatika bu – pedagogik innovatsiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o’rganadigan, shuningdek pedagogik ana’nalar bilan kelajakdagi ta’lim loyihalarining o’zaro aloqadorligini ta’minlaydigan fandır.

Pedagog odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta’lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning ta’lim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, ta’lim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida namoyon bo’ladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yig’indisidir. Pedagog odobi eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o’zaro munosabatlarida namoyon bo’ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta’kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina

namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Pedagogik prognostika – ta'limning turli bosqichlari amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatning mazmuni, metodlari, vositalari tashkiliy shakllarini rivojlanish istiqbollari haqida ma'lumotlar olishga yo'naltirilgan maxsus tashkil etilgan tadqiqotlar majmuasi.

Pedagogik takt bu o'qituvchining ta'lim oluvchilar oldida o'zini tutishni bilishi, ta'lim oluvchining holatini, intilishlari, qiziqishlarini tushuna olishi va eng samarali ta'sir yo'lini topa olishidir.

Pedagogik texnika – 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishda samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqcadga yo'naltirilgan hamda yshby maqcadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japyonining mazmynidip.

Pedagogik qobiliyatlar – ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar va o'quvchilarning individualpsixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda zaruriy shakl, metod va vositalarni samarali qo'llay olishdir. Pedagogik qobiliyatlarni shartli ravishda uch katta guruhga bo'lish mumkin: shaxsiy, didaktik va tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar.

Suhbat – ta'limning dialogik metodi bo'lib, savol-javob o'tkazish, o'z nuqtai nazarini ifodalashni talab etadi. Suhbat o'quvchilar narsa-hodisalar, voqealar to'g'risida ayrim bilim va tajribalarga ega bo'lgan holatda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida o'quvchilarning mavjud bilimlari aniqlashadi, boyiydi, tizimlashtiriladi.

Takt ahloqiy tushuncha bo'lib, u insonlarning o'zaro munosabatlarini

muvoqilashtirish, tartibga solish, insonparvarlik g'oyalari asoslangan bo'lib, andishali hulq, har qanday ziddiyatli vaziyatlarda ham inson hurmati saqlanib qolishini talab qiladi. Har bir insondan, ayniqsa o'qituvchidan andishali bo'lish talab qilinadi.

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi. Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va ta'lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiya qonuniyatlari – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya tamoyillari – bu tarbiyaviy ishning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya metodi (yunoncha “metodos” – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Ta'lim muassasasi amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiyaviy tadbirlar – turli xil moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarni yagona majmuasiga bo‘ysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta’limni ko‘zda tutgan tarbiyaviy ta’sir majmuidir. Ta’lim jarayoni alohida mashg‘ulotlardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar – tarbiya jarayonining bir bo‘lagidir.

Ta’lim – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi. Bilim – ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘oyalari yig‘indisi. Ko‘nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallash. Malaka – avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi.

Ta’lim vositalari – ta’lim samaradorligini ta’minlovchi ob’ektiv (darslik, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub’ektiv (o‘qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta’lim menejmenti – bu ilmiy asosda tashkil etilgan, o‘ziga xos pog‘onaviylikka asoslangan boshqaruv: rahbar, pedagogik jamoa, ta’lim oluvchilar jamoasi. SHunga ko‘ra boshqaruvni turli xil modellar asosida amalga oshirish mumkin: integral model, birinchi pog‘ona – pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish; ikkinchi pog‘ona – o‘quvchilar faoliyatini boshqarish.

Ta’lim muassasasining Ustavi ta’lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

Ta’lim tamoyillari o‘quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang‘ich qoidalardir

Ta’lim tizimi – davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta’limtarbiya berish yo‘lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta’lim muassasalari

majmui. **Ta'lim qonuniyatlari** – ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob'ektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik.

Ta'lim texnologiyasi – o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, professor-o'qituvchi va talabaning vazifalarini oydinlashtirish qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Ta'lim usuli – ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni, Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo'lishi mumkin. Va aksincha xuddi shu metod turli o'qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didak-tik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida ob'ektiv axborot olinishi xamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlash-dir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Test – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Texnologiya yunoncha co'z bo'lib, "techne" – mahopat, can'at va "logos" – tyshyncha, ta'limot, fan ma'nocini anglatadi. "Ta'lim texnologiyaci" ibopacining ma'noci – (inglizcha "An educational technology") ta'lim japayonini yukcak mahopat bilan can'at dapajacida tashkil etish to'g'picida ma'lymot bepyvchi fan, ta'limot demakdip.

Tushuncha – bu narsa va hodisalarning umumiy (xususiy) muhim belgi va xususiyatlarini ifodalovchi fikr (baʼzan fikrlar) – tafakkur shakli.

Tushuntirish – oʻquv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

Uzluksiz taʼlim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi boʻlib, taʼlimning barcha turlari, DTS ni, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat koʻrsatish tizimini oʻz ichiga oladi. Oʻzaro mantiqiy izchillik asosida bogʻlangan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit taʼlim tizimi.

Umumiy oʻrta taʼlim toʻqqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik majburiy-ixtiyoriy xarakterdagi oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimidan iborat. Umumiy oʻrta taʼlim boshlangʻich taʼlimni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda oʻquvchilarning fanlar asoslari boʻyicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy oʻquv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning oʻzlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan maʼnaviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda boʻlish, shuningdek, kasb tanlash koʻnikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shartsharoit yaratiladi.

Faoliyat – kishining moddiy va maʼnaviy neʼmatlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi maʼlum bir maqsad sari qiladigan hatti-xarakatlar majmuasidir.

Fuqarolik tarbiyasi – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali oʻquvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Ekologik tarbiya - oʻquvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish koʻnikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ekologik taʼlim - oʻquvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yoʻnaltirilgan taʼlimiy jarayon.

Ekskursiya – o‘quvchilarga ta’lim berishning maxsus shakli. U o‘zida tabiiy sharoitda o‘quvchilarni tabiat, madaniy ob’ektlar, kattalar mehnati bilan tanishtirish imkoniyatini beradi. Ekskursiya vaqtida o‘quvchilar olamning turfa xilligi, rivojlanishini anglaydilar, narsa-hodisalar orasidagi aloqadorliklarni kuzatadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 6(766)-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” PF-2909-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 18(778)-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 23(783)-son.
4. Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlili, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. T. O‘zbekiston 1992 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – T .1997 y 7. “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi 271 – sonli Qarori.
8. Abdullaev A, “Jismoniy tarbiya vositalari” o‘quv qo‘llanma – Farg‘ona, 1999 yil
9. R. Mavlonova, O. To‘raeva, Q.Holiqberdiev “Pedagogika”. -T.

О‘qituvchi. 2001 y.

10. N.G‘aybullaev, R.Yodgorov, R.Mamatqulova,
Q.Toshmurodova.

“Pedagogika”. -T. 2000 y.

11. Xoshimov K., Nishonova S. “Pedagogika tarixi” 2-qism. Toshkent,
О‘qituvchi, 2005 y.

12. Xasanboev J. To‘raqulov X. “Pedagogika” Toshkent,Noshir,2011

13. Munavvarov A “Pedagogika” Toshkent, 1996 yil

14. Axmedova M.E “ Pedagogika nazariyasi va tarixi” o‘quv qo‘l. -

T.Tafakkur-bo‘stoni 2011 y.

15. Abdumalikov R., YUnusov T. va boshqa. “O‘zbekistonda jismoniy
tarbiya ta’limining rivojlanishi”. Metodik tavsiyanoma. T. O‘zDJTI,
1992 yil

16. Варданын А.Н. Педагогика физического воспитания и спорта.
Методические рекомендации. – 2010 йил

17. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. T. Zarqalam. 2004 yil

18. Корбут В.И. и др.Оказание услуг по физической культуре и
спорту населению на спортивных сооружениях в условиях рынка из
опыта РСТО “Пахтакор”, “Буревестник”, гребная база УзГосИФК.
Учебнометод. Пособие. Т. 1992 йил

19. Koshbaxtiev I.A. Osnovi ozdorovitelnoy fizkultury molodyoji T.1994
god

20. Максименко А.М. Педагогическая практика студентов по
физическому воспитанию в школе. М. Физическая культура 2006 год
Методология современной общей спортивной педагогики материалы
Всерос. науч. кон. М. Евсти 2004 год

Хо‘jaev F. Usmanxo‘jaev T. “Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya”. o‘quv
qo‘llanma T. O‘qituvchi 1996 yil

21. Yusupova F. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi” T. O‘qituvchi 1993 yil

Internet saytlari

1. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. ziyonet.uz
4. <http://www.voppsy.ru>
5. <http://psyberia.ru>
6. lib.sportedu.ru

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI		6
1 MODUL - YOSH DAVRLARI PEDAGOGIKASI FANINING VAZIFALARI VA TADQIQOT METODLARI		8
1-mavzu	Yosh davrlar pedagogikasi o‘quv fanining maqsadi, vazifalari va predmeti.	8
2-mavzu	Shaxs shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati	23
3-mavzu	Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o‘rni	35
2-MODUL - YOSH DAVRLARI		46
4-mavzu	Yosh rivojlanishini davrlarga bo‘linishi.	46
5-mavzu	Go‘daklik davrining o‘ziga xos xususiyatlari.	56
6-mavzu	Ilk bolalik davrining o‘ziga xos xususiyatlari.	65
7-mavzu	Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi.	74
8-mavzu	O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar faoliyatining asosiy turi.	85
9-mavzu	Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim – tarbiya ishlarini rejalashtirish va hisobga olish.	97
10 - mavzu	Kichik maktab yoshi davri va bolaning rivojlanishi.	107
11 -mavzu	Bolalar jamoasi bola shaxsini shakllantirishning muhim shart – sharoitlari	116
3-MODUL - TARBIYA NAZARIYASI.		122
12 - mavzu	Shaxs rivojlanishida tarbiyaning o‘rni.	122
13 - mavzu	Aqliy tarbiya va ta’lim.	131
14 - mavzu	Axloqiy tarbiya.	140
15 - mavzu	Jismoniy tarbiya.	156
16 - mavzu	Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining tuzilishi va mazmuni.	172
17 - mavzu	Estetik tarbiya	181
18 - mavzu	Ekologik tarbiya.	189
19 - mavzu	Mehnat tarbiyasi.	206
20- mavzu	Sensor tarbiya	217
4- MODUL: TA’LIM NAZARIYASI.		220
21 - mavzu	Didaktika haqida umumiy tushuncha va uning mazmun-mohiyati.	220
22 - mavzu	O‘qitish tamoyillari (prinsiplari)	228
23 - mavzu	Ta’lim metodlari	237
24 - mavzu	Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining samarali pedagogik faoliyatning asosiy omillari va shartlari	246
TAYANCH TUSHUNCHALAR		253
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI		267

CONTENTS

Introduction		6
1 MODUL - TASKS AND RESEARCH METHODS OF AGE PERIODS PEDAGOGY		8
1-Theme	Purpose, objectives and subject of age periods pedagogics.	8
2- Theme	The role of physical culture and sports in the formation of personality	23

3- Theme	Educator and his role in society	35
2- MODUL – AGE PERIODS		46
4- Theme	Age developing distribution in periods.	46
5- Theme	Typical characteristics of an early childhood period.	56
6- Theme	Typical features of Early Childhood.	65
7- Theme	Development and upbringing of preschool children.	74
8- Theme	Game is the main activity of preschool children.	85
9- Theme	Planning and taking into account of educational work in preschools.	97
10 -Theme	Early school age period and child developing.	107
11 -Theme	Children's team is an important condition for the formation of a child's personality	116
3-MODUL - THEORY OF EDUCATION.		122
12 -Theme	The role of education in personality development.	122
13 -Theme	Mental Education and upbringing.	131
14 -Theme	Moral education.	140
15 -Theme	Physical education.	156
16 -Theme	The structure and content of physical education classes.	172
17 -Theme	Aesthetic education	181
18 -Theme	Ecological education.	189
19 -Theme	Labor education.	206
20- Theme	Sensory education	217
4- MODUL: THEORY OF EDUCATION.		220
21 -Theme	General understanding of didactics and its essence.	220
22 -Theme	Teaching Principles	228
23 -Theme	Teaching methods	237
24 -Theme	The main factors and conditions of effective pedagogical activity of the teacher of physical education	246
DESCRIPTIONAL CONCEPTIONS		253
LIST OF USED LITERATURES		267

СОДЕРЖАНИЕ

Предисловие		6
М ОДУЛЬ I. Методы исследования и задачи предмета «Возрастная педагогика»		8
Тема 1	Цель, и задачи предмета возрастная педагогика	8
Тема 2	Роль физической культуры и спорта в формировании личности	23
Тема 3	Воспитатель и его роль в обществе	35

МОДУЛЬ II. Возрастная периодизация		46
Тема 4	Распределение по возрастам	46
Тема 5	Характеристика младенчества	56
Тема 6	Характеристика раннего детства	65
Тема 7	Развитие и воспитание дошкольников	74
Тема 8	Игра как основной вид деятельности дошкольников	85
Тема 9	Планирование и учет воспитательной работы в дошкольных учреждениях	97
Тема 10	Ранний школьный возраст и развитие ребенка	107
Тема 11	Социализация как важное условие формирования личности ребенка	116
Модуль III. Теории воспитания		122
Тема 12	Роль воспитания в развитии личности	122
Тема 13	Интеллектуальное развитие и обучение	131
Тема 14	Моральное воспитание	140
Тема 15	Физическое воспитание	156
Тема 16	Структура и содержание занятий по физической культуре.	172
Тема 17	Эстетическое воспитание	181
Тема 18	Экологическое воспитание	189
Тема 19	Трудовое воспитание	206
Тема 20	Сенсомоторное обучение	217
Модуль IV: Теории образования		220
Тема 21	Общее понимание дидактики и ее сущность	220
Тема 22	Принципы обучения	228
Тема 23	Методы обучения	237
Тема 24	Основные факторы и условия эффективной педагогической деятельности учителя физической культуры	246
ГЛОССАРИЙ		253
СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ		267